

TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 4/2023
ilmiy uslubiy jurnal*



Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Farzandlarimizni hartomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi"dan

BOSH MUHARRIR

Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f.d., professor

MAS'UL KOTIB

Farrux Aqchayev – tarix
f.f.d., dotsent

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva-filologiya

f.b.f.d.(PhD), dotsent
(rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov-filologiya f.b.f.d.(PhD)

Anora Jabborova -filologiya f.b.f.d.

(PhD), dotsent (ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - katta o'qituvchi

(ingliz tili bo'yicha)

TEXNIK MUHARRIR:

Feruza Jumayeva – filologiya

f.b.f.d., dotsent

NAVBATCHI MUHARRIR:

Murodulla Jo'rayev– filologiya

f.f.d., (PhD), dotsent

SAHIFALOVCHILAR

Zulayxo Shakarova

**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim
texnologiyalari markazida**

Zarina Abdusattorova
tomonidan tayyorlandi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev, tarix f.d., akademik

Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik

Andrey Zuyev, Novosibir DU Gumanitar instituti professori, tarix f.d.
(Rossiya)

Stiven Korbet, Portsmud universiteti, Tillar va amaliy tilshunoslik
yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)

Seyko Wazake, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)

Donina Lyudmila, Sank-Peterburg DU dotsenti, filologiya f.n.
(Rossiya)

Jakelin Duglas, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk
Britaniya)

Himmat Karadal, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)

Tuba Yilmaz, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)

G'ayrat Qodirov, biologiya f.n., dotsent

Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d., dotsent

Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor

Usmonjon Qosimov, filologiya f.d.

Abdug'afur Mamatov, filologiya f.d., professor

Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor

Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor

Baxti Ochilova, falsafa f.d., professor

Hamid Meliyev, pedagogika f.n., professor

Xudoybergan Mavlonov, biologiya f.d., dotsent

Qo'chqor Hakimov, geografiya f.n., professor v.b.

Mo'min Hoshimxonov, falsafa, filologiya va pedagogika f.d.

Furqat Axmedov, pedagogika f.n., professor

Akbar Saitkasimov, falsafa f.d., professor

Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor

Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor

Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent

Marat Sultonov, kimyo f.d., professor

Raximboy Yarmatov, pedagogika f.d., dotsent

Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent

Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent

Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent

Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent

Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent

Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent

Kamoliddin Zoyirov, pedagogika f.n., dotsent

Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f.d., dotsent

Feruza Jumayeva, filologiya f.b.f.d., dotsent

Bobomurod Toshboyev, falsafa f.b.f.d., dotsent

Muassis - Jizzax davlat

pedagogika universiteti

Jurnal yilda 4 marta

(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos

va ma'lumotlar aniqligi uchun

mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib olinganda,

manba qayd etilishi shart.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MATBAA BO'LIMI

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2023-yil 25-dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

R.B.Yarmatov, A.Z.Suvonqulov Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga tizimli yondashuv.....	3
M.Maxmudova, S.Jofayeva Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	5
G.O.Qodirov Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	8
A.A.Tkacheva Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning kommunikativ kompetentlik qismi sifatida o'rganilishi	10
M.A.Kuchkarov Turlicha mantiqiy yondashuvlar asosida ta'lim oluvchilarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish	18
A.Sh.Xolmurodov Nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish (marketing texnologiyalari asosida).....	21
X.N.Muzaffarova Maktabgacha logopediya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish	24
Sh.Sh.Aripova The role of independent work of students in economic professional education	29
S.I.Kenjayeveva O'quvchilarda matematik tafakkur qilish kompetensiyasini shakllantirish – ilmiy pedagogik muammo sifatida.....	33
X.A.Olimov O'quvchilarning kognitiv faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlari	39

AMALIY FANLAR

M-A.X.Ikromov Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga muhandislik kompyuter grafikasini o'qitishning mazmunini tushuntirish.....	42
M.X.Ikromova Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan malaka talablari va uni rivojlantirish.....	46
N.Khonturaev Investigation and examination of macronutrient energy consumption and energy expenditure amongst highly skilled freestyle wrestlers.....	50
E.I.Qudratova Musiqa ta'limida mavzuli konsertlarning ahamiyati	56
F.M.Yusufxodjayeva O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish hamda texnologiya darslarida gazlamalarga ishlov berishning bozor munosabatlari.....	59

IJTIMOIY FANLAR

B.M.Ochilova Ta'lim sifatini oshirish strategik vazifa.....	62
R.R.Nurqulova Jo'ybor shayxlar tarixidan.....	72
B.Toshboyev Imon, e'tiqod va ibrat tushunchalarning milliy xarakter shakllanishi va takomilidagi o'rnini.....	77
D.U.Jumanazarova Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tushunchalar tahlili	81
A.A.Zakirov Istoriya proisshozhdeniya polissonima Dizak (Djizak)	84
A.A.Abduraxmonov G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati shakllanishining milliy va umuminsoniy jihatlari.....	87
M.A.Sherboboyev Karl Poppening ilmiy bilish mantiqi va yangi O'zbekistonda ijtimoiy bilishning o'ziga xosligi	91
A.A.Mirzayev Ibn al-Arabi tasavvufiy qarashlarining falsafiy-antropologik asosi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	96
P.A.Xoliqova Ma'naviy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli.....	102
R.S.Nasrullayev Vatandarparvarlik fenomeni ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida.....	105

FILOGIYA FANLARI

F.U.Jumayeva Tushuncha va ma'no.....	108
O.X.Fayzullayeva She'riy turkumni shakllantiruvchi birliklar	113
J.Jofayev "Tuhfai Somiy"da Navoiy an'analari	117
X.Xolmurodov Alisher Navoiy "Xazoyin ul-ma'noiy" kulliyotida obraz-timsollar muvoziyligi.....	123
Z.A.Pulatova Factors of the development of writing skill on ESP students	126
O.R.Anarbayev Inglizcha gazeta matnlarini tarjima qilish	130
Sh.A.Jofayev Erkin Vohidov publitsistikasida badiiy ijod va ijodkor shaxsiyatiga munosabat masalalari	134
H.B.Achilidzeva Raznoobrazie i mnogoznachnost demograficheskoy leksiki (Sostav naseleniya).....	136
M.G.Urazaliyeva Maya Anjelu hikoyalarning badiiy o'ziga xosligi.....	140
M.M.Ankabayeva Bahouddin Naqshband tasavvufiy g'oyalari ildizlarining Xojamnazar Huvaydo merosi bilan hamohangligi	144

TABIIY VA ANIQ FANLAR

X.E.Tangirov Ta'lim tizimida mobil ilovalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.....	148
A.Alijev, J.Ulmasov Краевая задача для системы нелинейных дифференциальных уравнений с малым параметром	153
M.I.Ibodulloeva Kimyo fanlarini o'qitishda ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish	156
G.O.Qodirov, B.Abdurahitov Biologiya fan olimpiadasi topshiriqlarini tahlil qilish va baholash metodikasi.....	158
D.B.Botirov, U.E.Mamatqulova, M.T.Shodmonqulov Dasturlash tillari fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlashning ba'zi bir muammolari	166
B.B.Abdug'aniyev To'dirilgan reallik texnologiyalari va uning zamonaviy o'quv jarayonidagi o'rnini.....	169

YOSH TADQIQOTCHILAR

T.A.Julboev Methodology of chemical experiments modeling through computer program.....	174
M.Q.Yoldoshev Robototexnika – ta'lim sifatini oshirishning innovatsion texnologiyasi sifatida	178
S.Sh.Urinova Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning zaruriyati.....	182
J.A.Xotamov, O.T.Ibragimova Radioastronomiya fani uchun "radioteleskopni o'rganish" virtual laboratoriya ishini joriy etish.....	185
Sh.A.Botirov Talabalarga kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari.....	188
J.Y.Xolmatov Mulohazalar algebrasini o'rganishda Microsoft Excel dasturi funksiyalaridan foydalanish.....	192
B.N.Aliqulov O'qituvchilarda kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvni rivojlantirish masalalari	196
O.N.Tagayev Iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish	201
A.A.Bo'taev Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs qiziqishini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillari	204
M.A.Fayzullaeva Investigating positive and negative impacts of independent education through digital technologies.....	208
Z.M.Abduraximova Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga umuminsoniy qadriyatlarini xorijiy pedagogik tajribalar asosida singdirish.....	211
A.M.Umurzaqov Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda qadriyat va e'tiqod tushunchalarining ahamiyati	216
J.Idiboyev Yangi O'zbekiston sharoitida konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlarning takomillashuvi	221
J.Isaxonov Yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash milliy yuksalish mezonini.....	224
M.Y.Sultonov Islomiy qadriyatlar shaxs ma'naviy ehtiyoji sifatida	226
N.R.Umarova Abdulla Oripov – ruhiyat tadqiqotchisi	229
N.Xolikova Tarixiy va zamonaviy ayollar tasvirida shoir estetik ideali (Cho'pon va Hamza she'riyati misolida).....	231

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TIZIMLI YONDASHUV

Raximboy Baxramovich Yarmatov – p.f.d professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Alisher Zoirovich Suvonqulov – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ta'lim muassasasi resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga tizimli yondashuv o'qitishning zamonaviy texnologiyalariga tayanilishi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga tizimli yondashuvlar to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация: Системный подход к развитию профессиональных компетенций будущих учителей истории с учетом ресурсных возможностей учебного заведения определяется опорой на современные технологии обучения. В данной статье рассматриваются системные подходы к развитию профессиональных компетенций будущих учителей истории.

Abstract: A systematic approach is determined by relying on modern teaching technologies to the development of professional competencies of future history teachers, taking into account the resource capabilities of the educational institution. This article discusses the systemic approaches to the development of professional competencies of future history teachers.

Kalit so'zlar: Professionalizm, strategiya, malaka, mahorat, ta'lim vositalari, pedagogik texnologiya, konseptual qoidalar, funksional komponent, motivatsion qadriyat, ijodkorlik.

Ключевые слова: Профессионализм, стратегия, компетентность, умение, средства воспитания, педагогическая технология, концептуальные положения, функциональная составляющая, мотивационная ценность, творчество.

Keywords: Professionalism, strategy, competence, skill, means of education, pedagogical technology, conceptual provisions, functional component, motivational value, creativity.

Mamlakatimizda tarix fanidan ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadriyatini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada tarix fanidan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifat hamda fazilatlarni rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu jihat pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini taqozo qiladi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish, tashkiliy - funksional modeliga asoslangan metodik modelini ishlab chiqish, tarix fanining o'qitish metodikasini takomillashtirish, kasbiy kompetensiyasini shakllanganlik darajalarini aniqlashtirish dolzarb masala hisoblanadi. "Taraqqiyot strategiyasi"ning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining 70-maqsadida: "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inkluziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish" belgilangan bo'lib, bu talabalarining kasbiy kompetensiyasini ta'minlashning institutsional asoslaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talabalariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past"². Shu asosda hozirgi kunda barcha oliy ta'lim muassasalarining yagona maqsadi: bitiruvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ta'lim yoki ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga tez moslashuvchan kadr tayyorlash, olgan bilimlarini hayotda qiyinchiliksiz qo'llash kabi sifatlariga ega bo'lishni

1 "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847. Toshkent. 8-oktyabr 2019-yil.
2 Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent. "O'zbekiston", 2021.

taqozo etmoqda. Bu esa, ta'lim muassasalarida yuqori malakali o'qituvchilarga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va uning sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shuni inobatga olib, ko'pchilik davlatlar bitiruvchilarning kasbiy kompetentligiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Sababi, bugungi zamonaviy ta'lim muassasasida har bir talabgorning shaxs ekanligini hisobga olib, ijobiy ta'lim muhitini yaratishi, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashi, undan tashqari talabalarni tahliliy, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishi kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning ustiga o'qitishni samarali tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun pedagoglardan yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lishlari talab qilinmoqda.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi ma'lum bir aniq faoliyat bo'yicha qo'llaniladi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "kasbiy kompetensiya" atamasi bilan bir qatorda, ma'no jihatidan unga yaqin bo'lgan "professionalizm", "kasbiy mahorat", "malaka", "o'z kasbining ustasi" kabi tushunchalar qo'llanilib kelinadi. Ko'p hollarda tadqiqotchilar mazkur atamalar o'rtasidagi farqlarga jiddiy e'tibor qilmaydilar. Holbuki, "kasbiy kompetensiya" ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, uning ma'nosi turlicha talqin etiladi. Hozirgi kunda "professionalizm" atamasi o'rniga ko'pincha "kompetensiya" tushunchasi qo'llaniladi. Birinchi tushuncha faqat ma'lum bir kasb mahoratini, malakasini aks ettiradi. Ikkinchi "kompetensiya" tushunchasi esa "malakalar zaxirasi", "bazasi" degan ma'noni anglatadi. U shaxsning mustaqil faoliyat ko'rsata olish, har qanday ishga ijodiy yondashish, doimo bilimlarini yangilab borish, aql-farosatliligi, turli soha tizimlari va iqtisodiyot bo'yicha fikrlay olish qobiliyati, muloqotlar olib borish mahorati, jamoadagi hamkorligi, hamkasblari bilan muloqotga kirishuvchanligi kabi sifatlarini aks ettiradi³.

Kasbiy kompetensiyani turlicha izohlash hollari yuzaga keldi:

- ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati;
- "malaka", "mahorat" kabi inson ko'nikmalari (A.K.Makarova);
- kasbiy ma'lumotlilik darajasi;
- insonning tajribasi va individual qobiliyati, uning o'z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o'z ishiga mas'uliyati;
- kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- bilim, mahorat, o'ziga xoslik va shaxsning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyati;
- shaxsning tajribasi, ma'lumotining ijtimoiy

yo'naltirilganligi, insonning ma'lum bir maqsad yo'lidagi amaliy faoliyati natijalari;

- kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo'llashi kabi shaxsning o'ziga xos sifatleri va kompetentligi.

Kasbiy (maxsus) kompetensiya – o'z mutaxassisligi bo'yicha egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar yig'indisi. T.G.Brayer fikriga ko'ra, "inson-shaxs" tizimida ishlovchilar (rahbar-pedagoglar, shifokorlar, yuristlar, maishiy xizmat xodimlari)ning kasbiy kompetentligi faqatgina olgan ilmiy bilimlari va malakasi bilangina o'lchanmaydi, balki mutaxassisning ma'lum maqsadga intilishi, faoliyatidan keladigan natijalar, o'zini o'rab turgan olamni va shu olamda o'z o'rnini bilishi, odamlar bilan muomala usullari, madaniyati, o'zining ijodiy salohiyatini o'stirib borishi masalalariga e'tiborni qaratadilar⁴.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish – ta'lim muassasasining tarix ta'limi muhiti resurslaridan foydalanishdir. Ta'lim muassasasi resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining samaradorligi, tizimli faoliyat yondashuviga, o'qitishning zamonaviy texnologiyalariga tayanilishi bilan belgilanadi. Tarix o'qitish jarayonini samarali tashkil etishda boshqa fanlar bilan bog'liqligi, standart, o'quv dasturlari, tarix darsligi, dars, metod va usullar, ta'lim vositalari, pedagogik texnologiya, sinfdan tashqari ishlar (tarixiy qadamjolar va muzeylarga sayohat), tarix to'garaklari alohida o'rin egallashi belgilangan. Bu jihatlarda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi rivojlanishini ta'minlay olishi hisobga olingan.

Bugungi kunda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega ekanligini ko'rsatadi, bu esa mustaqil ta'lim va bilish faoliyatini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Bu holatda, har qanday amaliyot mustaqillik elementini o'z ichiga oladi, chunki inson har doim o'quv materialni o'zi o'rganadi; bu mustaqil ishlarning xilma-xilligi, amalda tashkil etilgan, nazariy materialni o'zlashtirishning eng yuqori darajasini ta'minlaydi; mustaqil ish, mustaqil ijtimoiy amaliyotga aylanib, tinglovchilarda maqsadga muvofiqlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi shaxsiyat va xarakter sifatlarini shakllantiradi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zarur bilimlar, ko'nikmalar va ko'nikmalar tizimini o'zlashtiradi, u jamiyatda o'z o'rnini anglab, kelajakdagi kasbiy faoliyat tajribasini egallaydi, o'z taqdirini o'zi belgilaydigan o'zini rivojlantirish va ijodiy faoliyatga qodir shaxsni tarbiyalash jarayoni sifatida qarashi lozim⁵.

3 Axmedov A.Y. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1, ISSUE 4, 2020. B. 778-781.

4 Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. pedagogika fanlari doktori (DSc) diss.. aytoref. T.: 2021. – 70 b.

5 Sharipova G. N. Pedagogik ta'lim klasteri sharoitida talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish. Ped.f.b.f.d. (PhD) ... diss. -Chirchiq: 2021. -B. 156.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ta'minlash, o'z navbatida, mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash imkonini berishini inobatga olsak, bunda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ta'minlashda quyidagi konseptual qoidalarni inobatga olish talab etiladi⁶:

- nazariya va uslubiyotga ilmiy yondashgan holda oliy ta'lim muassasasi talabalarining raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai nazaridan yaxlit konsepsiyani ishlab chiqish va asoslash;

- oliy ta'lim muassasasida kasbiy ta'lim muhitini yaratish asosida talaba yoshlarining raqobatbardoshligini shakllantirishning aniqlangan qonuniyatlari va tegishli tamoyillari sifatida namoyon bo'luvchi strategiya "yadrosi"ni tanlab olish;

- oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategiyani nazariy modelini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim muassasasi talabalarining

raqobatbardoshligini ta'minlashni strategik rejalashtirishning tarkibiy va funksional komponentlarini aniqlash;

- zamonaviy mehnat bozorida oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining samarali xulq-atvor xususiyatlarini loyihalash.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tarix faniga doir adabiyotlarni tahlil qila olish, tarix fani bo'yicha ilmiy, metodik va didaktik bilimlarni egallash, tarixiy tafakkurning shakllanganligi, tarixga motivatsion-qadriyatli munosabat, tarix fanidan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifat fazilatlar majmuini puxta egallashga bog'liq. Shu asosda bo'lajak tarix o'qituvchilarning faolligini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni qo'llash, aks ettirish, ijtimoiy bilimlarni kengaytirish va ijtimoiy faoliyat sohasini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy kompetensiyalar majmuasini takomillashtirish tarixiy ta'limning rivojlanishiga asos bo'lim xizmat qiladi.

TABIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHALARI

Manzura Maxmudova - g.f.n., professor, Namangan davlat universiteti

Surayyo Jo'rayeva - mustaqil tadqiqotchi, Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda umumta'lim maktablarida olib borilayotgan islohotlar mazmuni, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari, tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, "Kim topqir?" texnologiyasidan foydalanishning mazmuni, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning natijalar tahlili, innovatsion texnologiyalardan namunalar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещены содержание проводимых в стране реформ в общеобразовательных школах, актуальные вопросы использования инновационных технологий, методические рекомендации по использованию инновационных технологий в преподавании естественных наук, содержание использования технологии "Кто нашел", анализ результатов использования инновационных технологий, примеры инновационных технологий.

Abstract: This article covers the content of reforms carried out in secondary schools in our country, current issues of the use of innovative technologies, methodological recommendations on the use of innovative technologies in the teaching of Natural Sciences, the content of the use of "Kim topqir?" technology, the analysis of the results of the use of innovative technologies, samples of innovative technologies.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, tabiiy fanlar, metod, o'qitish, vazifa, "Kim topqir?" texnologiyasi, kreativ fikrlash, skelet, muskullar.

Ключевые слова: педагогическая технология, инновационная технология, естественные науки, метод, обучение, задача, технология "Кто гениален", креативное мышление, скелет, мышцы.

Keywords: pedagogical technology, innovative technology, Natural Sciences, method, teaching, task, "who's finding" technology, creative thinking, skeleton, muscles.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib maktablari o'quv jarayoniga o'qitishning borilayotgan tub islohotlar umumta'lim innovatsion pedagogika texnologiyalarini

6 Axmedov A.Y. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1, ISSUE 4, 2020. B. 778-781.

qo'llashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fanlari bo'yicha o'quvchilarni kreativlik, loyihalash va tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda o'qitishning ilg'or metodlarini qo'llash imkoniyatlarini oshiradi.

Binobarin, ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish metodlarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu mulohazalar asosida, umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq qilish, ta'lim texnologiyalarining didaktik ta'minotini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Shubhasiz, mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida ham fan va zamonaviy texnologiyaning roli katta. Bu haqda Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildirgan: "Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega"¹. Shundan kelib chiqqan holda ilm-u fanni taraqqiy ettirish ushbu sohani hududiy tashkil etish, ilmiy tadqiqot muassasalarini mamlakat, viloyat va shaharlarda to'g'ri joylashtirish masalalarini ham o'z qamroviga oladi.

Shu maqsadda umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda innovation texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi, o'rganiladigan materiallar hajmining kattaligi, ko'rib chiqiladigan jarayonlarning o'zgaruvchanligi, hozirgi zamon boshlang'ich sinf tabiiy fanni o'rgatishda eng yangi metodlarni joriy etish hozirgi kunning talabidir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarini to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Buning uchun o'qituvchi tabiiy fan darslarida o'qitish metodlarini mavzuga mos holda to'g'ri tanlash o'ta muhim sanaladi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi². Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlashda metodlarni vazifalardan kelib chiqib, olib borilmog'i lozim.



1-rasm. O'qitish metodlarining vazifalari
Tanlangan metod o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo'lishi, metodlardan foydalanish samaradorligining birinchi va muhim shartidir. Darsni o'tish jarayonida yagona bitta metodni qo'llash ko'p hollarda samara bermaydi. Buning uchun o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, nazariy bilimlar hajmi, sinf o'quvchilari darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyati, vaqt omili va tabiiy fan kabinetida zarur bilim manbalarining bor yo'qligini hisobga olishi kerak bo'ladi³.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar ishlab chiqildi:

"Kim topqir?" texnologiyasi o'quvchilarga chaqqonlik, diqqatni jamlash, xotirani kuchaytirish uchun yordam beradi. Bu texnologiyani turli xil usulda qo'llash mumkin.

O'quvchilarga topishmoq berib, bu topishmoqning javobini kim birinchi topa olsa o'sha topqir deb nomlanadi.

"Kim topqir?" texnologiyasini ma'lum mavzuga mos rasm tanlab o'quvchilarga ko'rsatamiz. O'quvchilar rasmning qaysi


mavzudan olinganini topishi kerak bo'ladi. Bu texnologiya o'quvchilarga diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, o'z fikrini erkin bildira olishga o'rgatadi.

O'quvchilarni 6 tadan qilib 4 ta guruhga bo'lib olamiz va har bir guruhga alohida - alohida rasm beramiz. Guruhlar o'zlariga berilgan rasmlarni qaysi mavzudan olinganini topishlari va o'sha topgan mavzularini to'la hikoya qilib berishlari kerak. Bu texnologiya, asosan, "bo'lim yuzasidan takrorlash" darslarida qo'llashimiz mumkin.

"Kim topqir?" texnologiyasini tabiiy fan darsida rebuslarni to'g'ri hal qilish jarayonida ham qo'llashimiz mumkin.

Dars davomida rebus orqali "Kim topqir?" texnologiyasi o'quvchilarni diqqatini jamlashga, fikrlash doirasini o'stirishga va o'z fikrini mustaqil bildira olishga o'rgatadi.

"Kim topqir?" texnologiyasini 3-sinf tabiiy fan darsligida berilgan "Sog'lom bo'lish sirlari" mavzusida quyidagicha qo'llash mumkin. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib olamiz, so'ngra guruhdan bir kishi chiqadi. O'quvchi ko'zi bog'liq holda meva va sabzavotlarni nomini aytishi kerak bo'ladi.



Boshlang'ich sinf tabiiy fanni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirishi, mantiqiy fikrlashi, darslikda berilgan mavzularga kreativ fikrlay olishi, dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishi ta'lim samaradorligining oshishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalardan unumli va to'g'ri tanlash orqali quyidagi natijalarga erishadi:

- o'quvchilarni dars mavzusiga qiziqtirish;
- bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish;
- bola tafakkurini rivojlantirish, ya'ni o'quvchini fikrlashga o'rgatish;
- o'quvchilarni o'zaro muloqot qilishga o'rgatish;
- ta'lim jarayoniga hamma o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun sharoit yaratish;
- o'quvchilar guruhida mo'tadil psixologik iqlim yaratish;
- o'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitishni tashkil etilgan darslarda o'quvchi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida o'rganish bilan birga uning mustaqil izlanish, tahlil qilish va ekin fikr yuritish, qaror qabul qilish qobiliyatlari kreativ fikrlash kompetensiya elementlari sifatida rivojlanadi. Shuningdek, o'qituvchining ta'lim metodlari va shakllarini tanlash imkoniyatlari kengayadi.



"Kim topqir?" texnologiyasini 3-sinf darsligida berilgan organ va organlar sistemasi mavzusida qo'llashimiz mumkin (2-rasm).

Skelet va muskullar berilgan rasmni o'quvchilarga ko'rsatib, bu qaysi tayanch harakatlar sistemasi ekanini o'quvchilar topishadi. "Kim topqir?" texnologiyasini yangi mavzu bayonida va darsning muhokama bosqichi, mustahkamlashda qo'llash mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160 sonli qarori

² Жураев Р, Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув fanlarini интеграциялаш. Шарқ нашриёти. – Т.: 2005. – Б. 52

³ M.Maxmudova., S.Jo'rayeva. Tabiiy fanlarni o'qitishda ininterfaol ta'lim texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. Namangan. 2023. – B. 37

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G'ayrat O'roqboyevich Qodirov - dotsent, Jizzax davlat pedagoika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari xususida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье говорится о профессиональной компетентности будущего учителя и особенностях ее развития.

Abstract: This article talks about the professional competence of future teachers and the specific features of its development.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, o'qituvchining kompetentligi, kasbiy kompetensiya, kompetentlikni rivojlantirish.

Ключевые слова: компетентность, компетентностный подход, компетентность учителя, профессиональная компетентность, развитие компетентности.

Keywords: competence, competence approach, teacher's competence, professional competence, competence development.

Pedagoglarni tayyorlashga oid davlat siyosatida ularni izlanuvchilikka undashga alohida e'tibor qaratilgan.

Zero, O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida rivojlanish jarayonida amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi oldiga pedagogik mahorat va ijodiy faoliyatni oshirish bo'yicha yangi talablarni qo'yimoqda. Hozirgi paytda amalga oshirilayotgan tub islohotlar o'qituvchidan faollikni, tashabbuskorlikni, kompetentlikni takomillashtirish ustida tinimsiz izlanish olib borishni talab etmoqda.

"Kompetentlik" mutaxassisning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha bo'lib, mutaxassisning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati kompetensiya tushunchasi bilan ifodalanadi¹. Aslida, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, muayyan farqli jihatlarga ham ega. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik bilimlarni ish jarayonida qo'llay olish darajasiga nisbatan ishlatiladi. Kompetensiya darajasi mutaxassisdan bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini

ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi².

O'qituvchining kompetentlik darajasi uning noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda o'zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egaligini ham anglatadi.

Tadqiqotlardan birida YUNESKOning maktab o'quvchilarining o'quv qobiliyatlari va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ekspert guruhi "ta'lim monologik tarzda bo'lishi davom etmoqda, buning natijasida bola o'quv jarayonida o'qituvchining vazifalarini hal qiladi va uning shaxsiy motivlari va o'quv maqsadlari pedagogik muloqot doirasidan tashqarida qoladi" deya ta'kidlagan. Bundan ko'rinadiki, o'quvchida kerakli kompetensiyalarni shakllantirishda, avvalo, o'qituvchining o'zida shunday kompetensiyalar shakllangan bo'lishini taqozo etadi. Buning tasdiqi sifatida amerikalik pedagog-tadqiqotchi U.Glasser shunday fikrni ilgari suradi: "Agar maktab dasturlari bolaning hayotiy tajribasiga hech qanday tarzda mos kelmasa, unda o'quv motivatsiyasi rivojlanmaydi. O'quv jarayoni murakkablashib borar ekan, faqat motivatsiya bolaga qiyin mavzularni yengishga yordam beradi, ammo u yo'q ekan, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Maktab bolalar hayotiy tajribasi va kuzatishlari asosida o'z fikrlarini ochiq ifoda eta oladigan joy bo'lishi kerak. Maktab tomonidan bola dunyosiga bo'lgan qiziqishi ularda qoniqish hissini uyg'otadi³.

S.T.Shatskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'quvchilarning hayotiy tajribasini chuqur bilgan va shu asosda ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin: "O'qituvchi birinchi navbatda o'quvchilar tajribasini aniqlashi, keyin uni tizimlashtirishga yordam berishi va shundan keyingina yangi bilimlarni bolalarning mavjud bilimlari bilan bog'lab taqdim etishi kerak"⁴.

Xalqaro miqyosda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Jahonta'limitizimidashaxsiyijtimoiyfaoligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar Germaniya, Buyuk Britaniya kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda. Yurtimizda mazkur sohadagi yig'ilgan tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faoligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosidauzluksizta'limtizimiuchunbo'lajakyosh o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-

madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Songgi paytlarda ta'lim natijalarini "ta'lim", "tarbiya", "umumiy madaniyat" kabi tushunchalardan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga almashtirish, shu orqali olimlar va mutaxassislarni oliy va o'rta maktablarda kompetentlik yondashuvi asosida ta'lim jarayonini qayta tashkil etishga chaqirmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tadbiriq etilmoqda. Zamonaviy ta'limdotalabalarga fanbo'yichabilim, ko'nikma, malaka berishning o'zi yetarli emas. Qolaversa, hosil qilingan bilim, ko'nikma, malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash malakasini shakllantirib berish kerakligi bugungi kun talabini tashkil etadi. Qayd etish joizki, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu tendensiya, adabiyotlarda qayd etilganidek, yangi konseptual asos sifatida qaralmoqda. Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o'rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik.

"Kompetensiya" so'zi ilk bor 1955-yilda N.A.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida "faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida" talqin etilgan, "kompetensiyaviyyondashuv" esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan. "Kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competence based approach)" tushunchasi asosida "kompetensiyaga asoslangan til o'qitish (competence based language teaching)" tushunchasi, keyinchalik esa "kompetensiyaga asoslangan ta'lim (competence based education)" tushunchasi yuzaga keladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini egallash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunda murakkab pedagogik vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi natijalarga erishishlari nazarda tutiladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga xos bo'lgan bilim, ko'nikma va

1 Sharifzoda S. Integrative methods of formation of basic competencies in students. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3)ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X (2021)

2 Alaudinova D. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish metodikasi. 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq, 2023

3 Сафарова Р. ва б. Уқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш жараёнини ташкил этиш таъмоиллари ва параметрлари. - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2013. - 142 б.

4 Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity // Journal of critical reviews ISSN- 2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115.

malakalarni hosil qilish;

2. Kasbiy bilimlarni taqdim etish jarayonini innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirish;

3. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini egallashlarini jadallashtirish maqsadida evristik savol va topshiriqlardan foydalanish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida evristik topshiriqlardan foydalanish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy pedagogik faoliyat tajribasi hosil bo'ladi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga xos bo'lgan bilimlar hosil qilinadi va kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa bo'lajak pedagogning istiqboldagi kasbiy faoliyati sifat va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, talabalarda

shakllantiriladigan kasbiy bilimlarni mustaqil qo'llash kompetensiyasi ularda kasbiy ijodkorlikni tarkib toptiradi.

Evristik topshiriqlar yordamida oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorlik, mustaqillik ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarning bilish mustaqilligi, kasbiy bilimlarni egallash faolligini ta'minlashda evristik topshiriqlar katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarni izlanish, faol harakat qilish ko'nikmasini namoyon etishga undaydi.

Evristik topshiriqlarni bajarish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'z rivojlantirish kompetensiyasi hamda kasbiy mahorat ko'nikmalari shakllanadi.

IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIKNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK QISMI SIFATIDA O'RGANILISHI

Anastasiya Aleksandrovna Tkacheva - dotsent, f.f.n, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, ijtimoiy-madaniy kompetentlikning samarali kommunikativ o'zaro ta'sir bilan aloqasi, shuningdek, uni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, shuningdek, ushbu sohada ilgari olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish asosida o'tkazildi. Natijada kommunikativ kompetentlik doirasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni yanada samarali rivojlantirishga yordam beradigan mazmunli xulosalar va tavsiyalar olindi.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению социокультурной компетенции как неотъемлемой части коммуникативной компетенции. В статье рассматривается понятие социокультурной компетенции, ее составляющие, взаимосвязь социокультурной компетенции с эффективным коммуникативным взаимодействием, а также методы ее развития. Исследование проводилось на основе изучения литературы по данному вопросу, а также анализа результатов предыдущих эмпирических исследований в данной области. В результате получены содержательные выводы и рекомендации, способствующие более эффективному развитию социокультурной компетенции в рамках коммуникативной компетенции.

Abstract: This scientific article is devoted to the study of socio-cultural competence as an integral part of communicative competence. The article discusses the concept of socio-cultural competence, its components, the relationship of socio-cultural competence with effective communicative interaction, as well as methods of its development. The study was conducted on the basis of a study of the literature on this issue, as well as an analysis of the results of previous empirical studies in this area. As a result, meaningful conclusions and recommendations were obtained that contribute to the more effective development of socio-cultural competence within the framework of communicative competence.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, o'zaro ta'sir, rivojlanish, individual xususiyatlari.

Ключевые слова: социокультурная компетентность, коммуникативная компетентность, взаимодействие, развитие, индивидуальные особенности.

Keywords: sociocultural competence, communicative competence, interaction, development, individual characteristics.

Yangi O'zbekiston zaminida istiqomat taraqqiyotiga oid ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qilayotgan zamonaviy jamiyatning sharoitlari xalqaro munosabatlarda ochiqlik

uchun asos yaratib, umuman ta'lim siyosati va xususan chet tillarini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bugungi davrning o'ziga xos xususiyatlari chet tilini madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida o'qitishga qaratilgan global vazifani qo'yishni taqozo etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-5117-son qaroriga ko'ra, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilangan¹.

O'rganuvchilarning muayyan sohasidagi faoliyat tajribasi ko'rinishidagi shakllangan kompetentliklarning majmuasi oliy ta'lim sifatini belgilash omili bo'lib, kompetentliklarni o'rgatish o'rganuvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni orttirishni hamda aniq kommunikativ niyatlarni samarali ravishda qo'llashni ta'minlovchi kompetentlik yondashuvida asoslangan².

"Kompetentlik" atamasi 1970-yillar boshida muayyan vazifani samarali tarzda amalga oshirishga qodir bo'lgan insonni xarakterlaydigan jihatlarni tasvirlash maqsadida paydo bo'lgan. O'sha vaqtdan boshlab, mazkur termin foydalanilgan va umumlashtirilgan. Kechroq ushbu atama ilk bor kasbiy ta'lim tizimida qo'llanilishni boshlagan. Shunday qilib, ta'limning asosiy kompetentliklari shakllantirilib, ularni egallashga asoslangan xalqaro baholash tizimlari vujudga kelgan.

Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashining uzluksiz ta'lim uchun eng muhim kompetentliklari haqida tavsiya taklifi (2004) kompetentlikni "kontekstga moslashgan bilimlar, qobiliyatlar va munosabatlarning birikmasi" sifatida ta'riflaydi. Ispan qirollik akademiyasi lug'atida (DRAE) kompetentlik "biror narsani qilish yoki muayyan vaziyatda ishtirok etish uchun qobiliyat, layoqatlilik" sifatida tasvirlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining DeSeCo loyihasida (Definicion y Seleccion de Competencias) kompetentlik bilim va ko'nikmalarning chegaralaridan chiqdi. Ushbu hujjatda (2005:4) kompetentlik "kognitiv va nokognitiv jihatlardan iborat bo'lgan vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda bajarish ko'nikmasi" sifatida ta'riflangan. O'z navbatida, kompetentliklar "shaxslar mulohazali tarzda tafakkur qilish va harakat qilish ehtiyoji" hamda "o'zgarishlarga moslashish, tajribalarni o'rganish va tanqidiy munosabatni bildirib tafakkur qilish va harakat qilish" hisoblanadi. Bakalavriat va magistratura kabi universitet darajalarni ishlab chiqish uchun yo'riqnomalar taklifi (MES)ga binoan, "kompetentliklar bitiruvchiga kafolatli tarzda muammolar yechimi bilan duch kelish yoki akademik, kasbiy yoki ijtimoiy kontekstdagi muayyan ishlarda qatnashishga imkon beruvchi bilimlar, qobiliyatlar (intellektual, ijtimoiy, jismoniy), munosabatlar va qadriyatlar yig'indisidir".

D.Bartram and R.A.Roe (2005:97) kompetentlik tushunchasini va uning shakllantirishini tushuntirib berish uchun modelini taklif qilgan. Ularning fikricha, kompetentlik uzluksiz o'rganish va amaliyot bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar, qobiliyatlar va malakalar yig'indisi, hamda "bilish" va "qilishni bilish" birikmasidan iborat. Shuning uchun, kompetentliklar insonga harakat qilishga imkon beruvchi individual bilimlar, ko'nikmalar va xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Kompetentliklar BMT, YUNESKO kabi ta'lim sohasidagi mutasaddi xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingandan keyin rasmiy mavqeini orttirdi. Ushbu muassasalarga binoan, ta'lim vazifasi kundalik hayotidagi muammolarni yechish qobiliyatini shakllantirish maqsadida amalga oshirilayotgan insonning integral ta'limidan iborat bo'lishi lozim.

Tuning Europa loyihasini amalga oshirish natijasida oliy ta'limda rivojlantirish kerak bo'lgan kompetentliklar shakllandi. Kompetentliklar umumiy va maxsus turlariga bo'linadi. Umumiy kompetentliklar quyidagi jadvalda ko'rsatilganidek instrumental, shaxsiy va tizimli kabi uchta guruhni qamrab oladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5426736>

² Зияева С.А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку. Докторская диссертация (DSc) по педагогическим наукам. Ташкент, 2019, с.18

Jadval. Oliy ta'limda umumiy kompetentliklar³

Umumiy kompetentliklar	Maxsus qobiliyatlar va ko'nikmalar
Instrumental	Tahlil va sintez qobiliyati Tashkilotchilik va rejalashtirish qobiliyati Chet tili bilish O'rganish sohasiga oid axborot texnologiyalarini bilish Axborotni qayta ishlash qobiliyati Muammolarni yechish Qarorlarni qabul qilish
Shaxsiy	Jamoa ishlash Fanlararo xususiyatidagi jamoada ishlash Xalqaro kontekstda ishlash Shaxslararo munosabatlardagi qobiliyatlar Madaniyatning xilma-xilligini tan olish Tanqidiy fikrlash Odob-axdoq qoidalarga amal qilish
Tizimli	Mustaqil o'rganish Yangi vaziyatlarga moslashish Ijodkorlik Yetaqchilik qobiliyati Boshqa madaniyatlar va odatlarni bilish Tadqiqotlik tashabbusi va ruhi Sifatga motivatsiya Atrof-ambit mavzulariga ta'sirchanlik

Umumiy kompetentliklar har qanday universitet bitiruvchisi uchun majburiy bo'lib, uchta asosiy omil bilan birgalikda rivojlanadi⁴:

- shaxsiy va ijtimoiy darajada yuqori natijalarni olishga hissa qo'shish;
- muhim kontekstlar va sohalarning keng qamrovli spektrga qo'llanilishi;
- barcha insonlar hayotning murakkab talablarining xilma-xilligiga muvaffaqiyatli tarzda duch kelishi uchun xizmat qilish.

Oliy ta'lim sohasida "kompetentlik" atamasi kasbiy sohaga mo'ljallangan.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi qadriyatlar, an'analar, imon-e'tiqodlar bilan qiziqayotgan antropologiya, aniqrog'i tillar va ulardan foydalanishni o'rganayotgan lingvistik antropologiya ichida vujudga kelgan. Oldingi asrlarda Gerder yoki Gumboldt kabi mutafakkirlar tomonidan qo'shilgan hissalaridan kelib chiqqan holda, lingvistik antropologiya, asosan, tilning egallashi qanday qilib dunyoni anglash tarzimizga ta'sir ko'rsatayotganligini tadqiq qiladi. Shuning uchun, uning obyekti Boas, Sepir va Worf kabi

antropolog-lingvistlar tomonidan kiritilgan madaniy va lingvistik relyativizmga muvofiq til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentlik ilk bor 1972-yilda lingvist va antropolog Xayms tomonidan kiritilgan. Mazkur yo'nalishda Xayms til o'rganish nafaqat lingvistik kodni o'zlashtirishidan, balki ham o'sha kodni muloqot vaziyatiga qarab foydalanish usullariga yo'naltiruvchi qobiliyatlar egallashidan iborat, degan fikridan kelib chiqib, muloqot etnografiya nomlangan yangi fanni olg'a surib, lingvistik kompetentlikni kengaytirdi. Ushbu yangi yo'nalishning maqsadi jamiyatning lingvistik va kommunikativ faoliyatini o'rganishdan iborat, shuning uchun uning e'tibori nutq va shaxslararo muloqotga qaratilgan. Muallifga ko'ra, ilk yoshlarda inson grammatik tizimni va ayni paytda ijtimoiy va madaniy kontekst bilan belgilangan qo'llash usullarni o'rganadi. Bu orttirish jarayoni lingvistik kompetentlik, shuningdek, kundalik hayot va muloqotda amalda bo'lgan ijtimoiy va madaniy omillarni aks ettiruvchi bolaning kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi. Shuning uchun tilning madaniyat va jamiyat bilan aloqalarda nafaqat tilshunoslik, balki ham etnografiya va muloqot qatnashishi kerak. Bu chegaralar ichida muloqot etnografiyasi inson muloqotida qo'llanilayotgan ijtimoiy va madaniy bilimlarning hamda tildan foydalanish uchun kerakli qobiliyatlarning mazmunini belgilaydi, shuningdek ushbu bilimlar va qobiliyatlarni orttirish jarayonlarni tushuntirishga harakat qiladi, ya'ni qachon gapirish va indamaslik, nima haqida, qachon, qayerda, qay tarzda gapirish⁵.

Xaymsning fikricha, til tuzilishini bilish bilan bog'liq bo'lgan lingvistik kompetentlik ijtimoiy-madaniy xususiyatlardan mustaqil tarzda ko'rib chiqiladi hamda qachon gapirish va indamaslik, nima haqida, qachon, qayerda, qay tarzda gapirish bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyani orttirish ijtimoiy tajriba bilan bog'liq. Xaymsga binoan, lisoniy hodisalarni tadqiq qilganda ularni belgilovchi ijtimoiy omillarni inobatga olish zarur, shuningdek, lingvistik qobiliyatining tabiatini o'rganganda, turli madaniyatlar ishtirokida orttirilayotgan

³ Riesco González M. El enfoque por competencias en el EEES y sus implicaciones en la enseñanza y el aprendizaje // Tendencias pedagógicas, núm. 13. Madrid, Departamento de Didáctica y Teoría de la Educación / Universidad Autónoma de Madrid, 2008.

⁴ Rychen D.S., Salganik L.H. Key Competences for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Hogrefe & Huber Publishers, 2003.

⁵ Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics. Harmondsworth, 1972.

har xil tuzilishni hisobga olish lozim. Shu tarzda, kommunikativ kompetensiyani tasvirlashda ijtimoiy-madaniy jihati katta ahamiyatga ega.

Chet tili o'qitish sohasida kommunikativ kompetentlikning inson ona yoki chet tilini egallash uchun kerakli qobiliyatlarni bildirayotgan konseptual chizmaga qo'shilishi faqatgina tizimining bilishida asoslangan hamda o'qitishning asosiy maqsadi lingvistik jihatdan kompetentli gapiruvchilarni shakllantirishdan iboratligini ta'kidlovchi konsepsiyani ta'sirini to'xtatdi. Shuningdek, pragmatikaning hissalaridan tildan foydalanish qobiliyatining muhimligini ta'kidlab, kontekstdan yiroq bo'lgan tizimidan uzoqlashdi. Natijada, oxirgi o'ttiz yilda til egallash lingvistik jihatlarining chegarasida chiqqanligi haqida fikri ustunlik qilgan.

Lingvistik va kommunikativ kompetensiya atamalarini Xomski tomonidan kiritilgan competence/performance dixotomiyadan kelib chiqqan. Xomskining fikricha, til kompetentlik va nutq tushunchasining amaliyot tushunchasi bilan muvofiq bo'ladi. Kompetensiya tilni boshqaruvchi tamoyillar egallashi demakdir, ya'ni til sohibi chuqur bilayotgan grammatika va tilning boshqa jihatlarini bilishdan iborat. Boshqa tarafdin, tildan amaliy foydalanishi bunday tamoyillarning yoki tildan ishlatishni mustahkamlovchi qoidalardan to'g'ri qo'llanilishiga oid⁶ [Trujillo 2001]. Bunga psixologik omillar (qo'rquv, ehtiyotsizlik, asabiylash), fiziologik omillar (og'riq, charchoq) va atrof-muhit omillari (shovqin, atrof-muhit) ta'sir qilishi mumkin.

Biroq, o'tgan asrning 70-yillar boshida Xayms ushbu dixotomiyani tanqid qilib, Xomskining generativ-transformatsion nazariyasi gapning vaziyat kontekstidagi ijtimoiy-madaniy adekvatlik darajasini inobatga olmasligini ta'kidadi. Haqiqatdan ham, Xayms [1972] madaniyat, jamiyat va til o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi etnografik tadqiqotlardan keyin sotsiolingvistlardan ilk bor nafaqat grammatik jihatdan balki ham kontekstga mos bo'lgan, ya'ni atrof-muhitga va suhbatdoshlarga muvofiq bo'lgan gaplarni tuzish va tushunish qobiliyatining ustunligini ta'kidlagan. Grammatik qoidalar bilishiga

bog'langan "kompetentlik" atamasining chegaralanishini inobatga olgan holda Xayms, Kempbell va Uols kommunikativ kompetentlik nomlangan boshqa tushunchasini taklif qilgan⁷. Kommunikativ kompetentlik muayyan lingvistik jamiyatidagi gapiruvchilar bir-birini tushunishiga imkon beruvchi qobiliyatlar va bilimlar yig'indisidir.

Xaymsning tushuntirishicha, gap quyidagi to'rtta jihatdan baholanishi lozim:

1. Gap rasmiy jihatdan bo'lishi mumkin (va qay darajada), ya'ni til grammatikasi hamda ushbu til jamiyatidagi madaniyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan qoidalarga amal qiladi;

2. Mavjud bo'lgan muloqot vositalari orqali uzatib beradigan (va qay darajada), ya'ni ushbu gap insonning kundalik sharoitlari (xotira, idrok va b.) orqali uzatib berilishi, qabul qilinishi va ishlov berilishi mumkin;

3. Ishlatilgan kontekstga mos, ya'ni muloqotning har xil vaziyatlarga to'g'ri keladi;

4. Voqelikga mos, ya'ni ushbu gap til jamiyat a'zolari tomonidan odatiy sharoitlarda ishlatilishi mumkin;

5. Materiallarning barcha tarkibiy qismlari hamda o'qitish amaliyoti butunlay kontekstdan yiroqligi.

Kanal va Sueyn⁸ kommunikativ kompetentlikni to'rtta tarkibiy qismga bo'lib beradilar:

1. Grammatik kompetentlik tilning leksik, sintaktik, semantik, morfologik va fonologik bilimlarga oid;

2. Diskursiv kompetentlik ma'noli va mazmunli gaplarni tuzish qobiliyati, hamda kogerentlik va kogeziyani inobatga oladi;

3. Ijtimoiy-lingvistik kompetentlik tildan diskurs me'yorlariga ko'ra maxsus vaziyatda foydalanish qobiliyatini qamrab olib, rollar, vaziyat, suhbatdoshlar, uslublar kabi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liq;

4. Strategik kompetentlik yetarli bo'lmagan bilim yoki kommunikativ qiyinchiliklardan qutulish maqsadida verbal va noverbal strategiyalar taktikasi yordamida muloqotdagi muammolarni ko'rib chiqadi.

Van Eyk o'z navbatida ko'proq didaktikaga yo'naltirilgan kommunikativ kompetentlikni

⁶ Trujillo F. Objetivos en la enseñanza de lenguas extranjeras: de la competencia lingüística a la competencia intercultural // Comunicación presentada en el Congreso Nacional Inmigración, Convivencia e Interculturalidad. Disponible en <http://www.ugr.es/~ftsaez/aspectos/objetivos.pdf> 2001

⁷ Cenoz Iragui J. El concepto de competencia comunicativa // Sánchez Lobato J., Santos Gargallo I. Vademécum para la formación de profesores. Enseñar español como segunda lengua (L2) / lengua extranjera (LE), Madrid: SGEL. p. 449-465

⁸ Barros García P. La competencia intercultural en la enseñanza de las lenguas // M. Isabel Montoya Ramírez (ed.) Enseñanza de la lengua y la cultura españolas a extranjeros. Granada: Editorial Universidad de Granada. 2005 p. 17-18

taklif qildi [Oliveras A., 2000, p.24]. Bu muallif kommunikativ kompetentligi ichida oltita tarkibiy qism ajratdi. Aniqrog'i, Kanal va Sueyn taklif qilgan to'rtta komponentiga yana ikkitasi qo'shilgan: ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy kompetentlik. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik lingvistik kompetentlikni xorijiy til tegishli bo'lgan nutqiy jamiyatga xos bilimlar chegarasi bilan bog'laydi. Boshqa tarafdin, ijtimoiy kompetentlik motivatsiya, o'ziga ishonch hamda ijtimoiy vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini ko'zda tutadigan boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish istagi kabi ta'riflangan bo'lib, lisoniy jihatlarga kamroq yo'naltirilgan, hamda o'rganuvchi shaxsiyati xususiyatlarni qamrab oladi [Van Eyk]. Bundan tashqari, mazkur olim ushbu oltita tarkibiy qism alohida emas, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda mavjudligini ta'kidlaydi.

Aynan kommunikativ yondashuv madaniyatning o'rganishiga urg'u berdi, chunki mazkur yondashuvga binoan til o'rganish boshqa jamiyat va madaniyatga oid odamlar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish asbobi hisoblanadi. Fernandes-Konde Rodriguesning aytishicha, ushbu nuqtayi nazaridan o'quvchiga o'rganayotgan tilning ijtimoiy-madaniy omillarni taqdim etish, ular haqida mulohaza qilish hamda samarali tarzda gaplashuvchiga aylanishga yordam beruvchi kerakli asboblarga o'rgatishga mo'ljallangan⁹.

Oldingi modellarga ko'ra taraqqiyot sezilgan bo'lsa-da, kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida tushunilgan ijtimoiy-madaniy kompetentlik bilan birgalikda madaniyatlararo kompetentlik tushunchasi paydo bo'lgan. Madaniyatlararo kompetentlikning rivojlanishi bilan birgalikda, madaniyat boshqa jihatlarga kichkina ilova sifatida ko'rib chiqilishi to'xtadi, chunki "madaniyatlararo kompetentlik tushunchasi kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy-madaniy kompetentlik chegarasidan chiqqan" [Rodriguez 2004:24]. Shunday qilib, madaniyatlararo kompetentlik chet tillar o'rgatishida madaniy jihatining ahamiyatini inobatga olgan holda, nafaqat kognitiv chegaralarni yoki muloqot qobiliyatlarini, balki ham bilimlar, munosabatlar va har xil ko'nikmalarni qamrab oladi.

Xullas, Fonkuberta [p.973] ta'kidlaganidek,

ispan tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida madaniyatlararo kompetentlikka mo'ljallanganligi yangi yondashuv yoki didaktik usul sifatida emas, balki kommunikativ kompetentlik tushunchasining qayta ko'rib chiqilishi sifatida tushunilishi lozim.

Oliveras Vilaseca¹⁰ madaniyatlararo kompetentlikni o'rganishning ikkita modelini ko'rib chiqadi:

Ijtimoiy ko'nikmalar yondashuvi. Ushbu yondashuv o'quvchining madaniyatlararo uchrashuv davomida o'zini tegishli tutish qobiliyatiga asoslangan. Boshqacha aytganda, til o'rganuvchi til sohibiga o'xshab ijtimoiy me'yorlar va madaniyat qoidalariga amal qilgan holda harakat qilishi lozim. Shuning uchun madaniyatlararo uchrashuv muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, ijtimoiy ko'nikmalar talab qilinadi. Ushbu yondashuv noverbal muloqotni hamda xushmuomalalik, suhbat tuzilishi, samaradorlikning muhimligi yoki nutq uslublarining ta'siri, vaziyat me'yorlari va ijtimoiy munosabatlari kabi lingvistik kompetensiyaning pragmatik jihatlarini ta'kidlab o'tib, nafaqat o'rganilayotgan til madaniyatining chuqur bilimini, balki vujudga kelish mumkin bo'lgan barcha maxsus vaziyatlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli til o'rganuvchi o'zga madaniyatga xos xulq formulalarining yig'indisini o'rganishi lozim. Xuddi shunday, ijtimoiy ko'nikmalar modeli madaniyatlararo uchrashuv paytida o'zini madaniy shokdan saqlash hamda hissiy muammolarni yechish strategiyalarini taqdim etmaydi.

Xolistik yondashuv. Mazkur yondashuvga binoan madaniyatlararo yondashuv, avvalambor, shaxsning boshqa munosabatlarga munosabati bilan bog'liq. Mazkur usulning maqsadi o'zga madaniyat haqida bilim orttirish va madaniy tizimlarni tushunishga qaratilgan. Ijtimoiy ko'nikmalar yondashuvi bilan farqli o'laroq, xolistik yondashuv o'rganish nafaqat o'rganilayotgan til madaniyatida harakat qilish asboblarni taqdim etadi, balki ham madaniyatlararo umumiy tushunish shakllarni rivojlantirishni qamrab oladi. O'quvchining madaniyati o'quv jarayonida markaziy rol o'ynaydi, chunki o'zga madaniyatni o'zlashtirish uchun u, avvalambor, o'z madaniy voqelikni anglashi zarur.

Kommunikativ jihatlarning yig'indisi bo'lgan madaniy integrallashuv haqidagi fikri XX asrning 90-yillarda Kramsh tomonidan olg'a surilgan. Olimning qarashlariga muvofiq, o'qituvchilar va o'quvchilar sinfxonada bajarilayotgan grammatik, kommunikativ mashqlar, matnlarni muhokama qilish kabi turli mashg'ulotlar davomida chet tilida amalga oshirilayotgan madaniyatlararo dialogning faol ishtirokchilari bo'lishi zarur. Ushbu nuqtayi nazaridan, chet tili darsi madaniyatlararo sohasida ishlash uchun eng maqbul makon sifatida idrok etiladi. Bunday darsning ishtirokchilari o'z an'anaviy rollardan tashqari ayni paytda axborotni taqdim etuvchi etnografiklar hisoblanadi.

Byram va Zarate [1994] fikriga ko'ra, madaniyatlararo kompetentlik o'rganuvchilarning shaxsiy qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy jihati mavjud:

1. Munosabatni o'zgartirish (savoir etre) o'zga madaniyat vakilining etnosentrik idroklar va munosabatlardan rad etish hamda o'z va o'zga madaniyatlar orasida aloqa o'rnatish qobiliyati hisoblanadi.

2. Yangi tushunchalarning orttirishi (savoirs) yoki boshqacha aytganda o'rganuvchi hamkorlik orqali o'zlashtirishi kerak bo'lgan eksplitsit va implitsit bilimni shakllantiruvchi madaniy jihatlarning tizimi. O'zga madaniyatni o'zlashtirish dunyoni qayta konseptualashtirish kabi qiyin jarayonini taxmin qiladi, chunki bunda oldin tanish bo'lmagan yoki rad etilgan xulq-atvor shakllari yoki odatlari qabul qilinishi zarur.

3. Tajriba orqali o'rganish (savoir-faire). Til o'rganish undan foydalanishni o'rganishini, ya'ni yangi tajribalarni kuzatib, ularda qatnashish hamda faol ravishda yangi bilimlarni orttirishini taqozo etadi.

4. Notanish madaniy mazmunlar, ishonchlar va amaliyotlarga yaqinlashish uchun talqin tizimini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish qobiliyati (savoir-apprendre) yoki ikki madaniyatli aloqalarda sodir bo'lgan maxsus vaziyatlarga yangi bilimlarni qo'shish.

O'qituvchi madaniy vositachirolini ijro etib, o'quvchining madaniyatini va o'rganilayotgan madaniyatni o'rtasida aloqani o'rnatadi. Uning metodologiyasi madaniy jihatlarni kuzatish, talqin qilish, mulohaza qilishidan iborat etnografik texnikalarni qo'llashga asoslangan. Soderberg (1995) ga ko'ra, madaniyatlararo

kompetentlikni rivojlantirish quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- samaradorlik, ya'ni inson uning xabari uning niyatlariga ko'ra qabul qilinishi yoki talqin qilinishi maqsadida uning madaniyatidan keskin farqlovchi madaniy "bagaj"ga ega bo'lgan suhbatdosh bilan muloqot qilishga qodir;

- moslik, ya'ni har qanday inson madaniyatlararo uchrashuvda to'g'ri tarzda harakat qila oladi;

- empatiya, sinchkovlik, bag'rikenglik, ikki ma'noli vaziyatlarda moslashuvchanlik kabi his-tuyg'ular yig'indisi;

- madaniy farqlarni umumiy jihatdan tushunish hamda ba'zi madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimni izlash, farqlar, stereotiplar va taassublar (xurofotlar) haqida mulohaza qilishga qaratilgan kognitiv unsur;

- verbal va noverbal belgilarni tushunish va ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ usurga ega.

Michel Byram (1997) ushbu qarashlarni kengaytirib, til o'rganuvchiga xos madaniyatning muhimligini ta'kidlagan holda, madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari talabalarni ko'p madaniyatli muhitda vositachi vazifasini bajarishga tayyorlashi haqida fikrlarni bildiradi. Olim madaniyatlararo qobiliyatni rivojlantiruvchi quyidagi omillarni keltiradi:

- sinchkovlik va qabul qilishga qodir bo'lish, shuningdek, boshqa madaniyatlar haqidagi taassublardan qochish kabi muayyan xususiyatlarga ega bo'lish;

- o'z va o'zga madaniyatga mansub bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar va ularning hayot tarzi hamda insonlarning o'zaro hamkorlik jarayonlari haqida fikrlarga ega bo'lish;

- o'zga madaniyatda sodir bo'lgan voqealarni talqin qilish, qiyoslash, tushuntirib berish hamda o'z madaniyatidagi voqealar bilan bog'lash ko'nikmalarni rivojlantirish;

- boshqa madaniyatlardagi yangi bilimlarni o'zlashtirishga, kommunikativ maqsadida ulardan foydalanishga hamda o'zga madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga imkon beruvchi kashf qilish va hamkorlik qilish ko'nikmalarni shakllantirish.

Xuddi shunday, keyingi bo'limda batafsil ko'rib chiqilgan chet tilini o'rgatishning umumiyevropa kompetensiyalarida chet tilini

⁹ Fernández-Conde Rodríguez M. La enseñanza de la comunicación no verbal en un curso del Español de los Negocios según la ELMT. Universidad Antonio de Nebrija, Madrid, 2004. p.34-35
¹⁰ Oliveras A. Hacia la competencia intercultural en el aprendizaje de una lengua extranjera. Estudio del choque cultural y los malentendidos. Madrid: Edinumen, 2000. - p. 24

o'rganish va o'qitish jarayonida rivojlantirish kerak bo'lgan madaniyatlararo ko'nikmalar va qobiliyatlar yig'indisini taqdim etadi:

1. O'z va o'zga madaniyatini bog'lash qobiliyati;

2. Madaniy sezgirlik, boshqa madaniyat vakillari bilan aloqa o'rnatish uchun xizmat qiluvchi turli strategiyalardan foydalanish qobiliyati;

3. O'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi madaniy vositachi rolini ijro etish hamda madaniyatlararo anglashilmovchiliklar va nizo vaziyatlarni samarali tarzda yechish qobiliyati;

4. Stereotipli munosabatlardan qochish qobiliyati.

Shunday qilib, chet tillarni o'qitishdagi madaniyatlararo nuqtayi nazaridan, quyidagi xislatlar orqali ta'riflanadigan "madaniyatlararo gapiruvchi" degan tushunchasi paydo bo'ldi¹¹:

- o'z madaniyatini yaxshi tushunadi hamda boshqa madaniyat vakillari uni qanday qilib qabul qilayotganligini anglaydi;

- muloqotga kirishayotgan barcha insonlarning madaniyatini biladi;

- o'z va o'zga madaniyat o'rtasida aloqalarni o'rnatadi;

- muloqotni osonlashtirish hamda madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirish uchun lingvistik o'rganishni integrallashuviga intiladi;

- bitta yoki bir nechta o'zga madaniyat haqida bilimlarga ega hamda boshqa muhitlarga mansub odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatidan zavqlanadi.

Ushbu tadqiqot ishimizda oliy ta'lim muassasalarida ispan tili darslarida ishlatilayotgan darsliklarda madaniy jihatlarni yaxshiroq qamrab olish uchun "kulturema" tushunchasi foydalanilgan. Kulturemalar ikkita madaniyatdagi to'g'ri kelayotgan yoki to'g'ri kelmaydigan xususiyatlarni qiyoslash uchun foydali. Vermeer ko'rsatishicha¹², "Ma'lum madaniyatdagi ijtimoiy hodisa ushbu madaniyat sohiblari tomonidan mos ravishda qabul qilingan bo'lsa, boshqa madaniyatdagi tegishli hodisa bilan qiyoslagan holda maxsus xususiyat sifatida qabul qilinadi".


Boshqacha aytganda, fikrimizcha, kulturema voqelikda kundalik va oddiy narsalarni aks ettiruvchi madaniy birlik hisoblanadi¹³. L.L.Nadal [2009, p.95]

kulturemalarni quyidagicha tasvirlaydi: "Kulturemalar sonini aniqlash oson emas, chunki har qanday jamiyatda kulturemalarning cheksiz va doimo o'sadigan miqdori mavjud. Har qanday tilda gapiruvchilar soni va madaniyat darajasiga binoan yuzlab yoki minglab kulturema bor".

Turli mualliflar tomonidan taqdim etilgan har xil kompetentliklarga suyanan holda, kompetentlik tushunchasining rivojlanishini aniqroq ko'rsatuvchi jadvalni taqdim etamiz.

Jadval. Kompetentlik tushunchasining taraqqiyoti

Chomsky (1957, 1965)



Chet tilini o'rganish maqsadi faqatgina til sohibining lingvistik kompetentlikka qaratilmagan, chunki muloqot o'zi bilan birgalikda albatta tafakkur qilish, yashash va harakat qilishning o'zga tarzlarini tushunishga yo'naltirilgan boshqa ko'nikmalar va malakalarni olib keladi. Kommunikativ o'rganish doirasida madaniyatlararo kompetentlik katta ahamiyatga ega. Uning bilishi va

o'zlashtirishi chet tilda gapiruvchiga mos va samarali xulq-atvorni o'rgatadi, chunki Barros Garsiya [2005:15] ta'kidlaganidek, "bu yangi maqsadlarga muvofiq, haqiqiy kommunikativ kompetentlikka erishish uchun, o'quvchilar har qanday nutqiy aktning tag ma'nosida bo'lgan ijtimoiy-madaniy voqelikni anglashni o'rganishi lozim. Shuning uchun lingvistik almashinuvlar suhbatdoshlarning ijtimoiy va hissiy munosabatlar, muloqot maqsadlari, mavzularni ochib berish paytidagi rasmiylik yoki norasmiylik kabi muloqot vaziyatining barcha tarkibiy qismlarni identifikatsiyalashga imkon beruvchi kontekstning ichiga joylashtirilishi zarur".

Ushbu ilmiy maqola kommunikativ kompetentlikning bir qismi sifatida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni o'rganib chiqdi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik tushunchasining asosiy jihatlari, uning tarkibiy qismlari va ijtimoiy-madaniy kompetentlikning samarali kommunikativ o'zaro ta'sir bilan aloqasi ko'rib chiqildi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish usullari ham taqdim etildi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-madaniy kompetentlik turli madaniyatdagi odamlar o'rtasidagi muvaffaqiyatli kommunikativ o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi, shuningdek ma'lum bir guruh odamlarga xos bo'lgan ijtimoiy va madaniy kontekstlarni samarali tushunish va talqin qilish imkonini beradi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik, shuningdek, madaniyatlararo empatiyani rivojlantirishga, turli xil ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga moslashish va turli madaniyatdagi odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning muhim natijasi kommunikativ kompetentsiya doirasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni faol rivojlantirish zarurligini aniqlashdir. Buning uchun madaniyatlararo ta'lim, madaniyatlararo muloqot doirasidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha treninglar, madaniy farqlar va ularning kommunikativ o'zaro ta'siri haqida xabardorlikni shakllantirishni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning samarali rivojlanishi interfaol o'qitish usullariga, turli madaniyatlar vakillari bilan

o'zaro munosabatlarning bevosita tajribasiga, shuningdek adabiyot, kino, musiqa va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali madaniy xususiyatlarni o'rganishga asoslangan bo'lishi kerak.

Ushbu maqola ijtimoiy-madaniy kompetentlik kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismi ekanligini va turli madaniyatdagi odamlar o'rtasidagi samarali o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim dasturlari va amaliy faoliyatga kiritilishi kerak bo'lgan maxsus usul va yondashuvlarni talab qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Madaniyatlararo ta'limni kengaytirish, ya'ni turli mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini va talabalarni boshqa madaniyatlar vakillari bilan o'zaro munosabatlarning amaliy vaziyatlariga faol ravishda kiritadigan interaktiv ta'lim shakllarini o'rganishga bag'ishlangan fanlarni o'quv dasturlariga kiritish.

2. Interfaol hamkorlik uchun sharoit yaratish, ya'ni boshqa madaniyatlar vakillari bilan kommunikativ o'zaro munosabatlarni rag'batlantiradigan hamda samarali madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantiradigan loyihalar, o'yinlar, tadbirlarni tashkil etish.

3. Zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalarni joriy etish. Adabiyot, kino, musiqa va boshqa vositalardan foydalanish talabalarga turli mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini chuqurroq tushunish va tahlil qilish, shuningdek ularga moslashishni o'rganish imkonini beradi.

4. Xorijiy talabalar bilan o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlash, ya'ni talabalarimizga xorijiy talabalar bilan muloqot qilish, madaniy bilim va tajriba almashish, turli madaniy kontekstlarni hisobga olish va ularga moslashishni o'rganish imkonini beruvchi dasturlar va sharoitlarni yaratish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi darajasini oshiradi hamda zamonaviy madaniyatlararo jamiyatda yanada muvaffaqiyatli kommunikativ hamkorlikni ta'minlaydi.

¹¹ Pinheiro Costa M. Análisis del componente cultural en manuales de español para estudiantes brasileños de la enseñanza fundamental y media. Tesis doctoral. Granada, 2012. P. 44

¹² Nord C. Translating as a Purposeful Activity. Functionalist Approaches Explained. Manchester, St. Jerome Publishing, 1997. P. 34

¹³ Nadal L.L. Los culturemas ¿unidades lingüísticas, ideológicas o culturales? // Language Design: Journal of Theoretical and Experimental Linguistics. No.11, 2009, p. 93-120

TURLICHA MANTIQUIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TA'LIM OLUVCHILARNING REFLEKSIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mexridin Asamovich Kuchkarov - dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlarini tahliliy bayon etildi. Unda kimyo ta'limidagi induktiv va deduktiv yondashuvlarga urg'u berildi. Induktiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan differensial bosqichli nostandart topshiriqlardan foydalanish ta'lim oluvchilarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanib borishi asoslangan.

Аннотация: В данной статье аналитически представлены возможности формирования рефлексивных способностей обучающихся. Особое внимание уделялось на индуктивный и дедуктивный подходы в химическом образовании. Обосновано, что использование дифференцированных, поэтапных, нестандартных задач, разработанных на основе индуктивного подхода, развивает рефлексивные способности обучающихся.

Abstract: This article analytically presents the possibilities of forming students' reflexive abilities. Special attention was paid to inductive and deductive approaches in chemical education. It is proved that the use of differentiated, step-by-step, non-standard tasks developed on the basis of an inductive approach develops students' reflexive abilities.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv, refleksiv qobiliyat, gipoteza, motivatsiya, bilimlar analizi, bilimlar sintezi, kimyoviy nazariyalar, kimyoviy qoidalar, vodorod ko'rsatkich, gidroliz.

Ключевые слова: дифференциальный подход, индуктивный подход, дедуктивный подход, рефлексивная способность, гипотеза, мотивация, анализ знаний, синтез знаний, химические теории, химические правила, водородный индикатор, гидролиз.

Keywords: differential approach, inductive approach, deductive approach, reflexive ability, hypothesis, motivation, knowledge analysis, knowledge synthesis, chemical theories, chemical rules, hydrogen indicator, hydrolysis.

Kimyoni o'qitish jarayonini modernizatsiya qilish kimyoviy ta'lim mazmunini qayta ishlashga, turli mantiqiy yondashuvlar, zamonaviy metodlar, integratsiyali yondashuvlar asosida o'zgartirishlar kiritishga olib keladi. Bu, o'z navbatida, o'qitishning yangi shakllari va usullarini izlashda aks etadi. Ta'lim oluvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularni egallash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan to'liq kognitiv faoliyatni tashkil etish zaruratini vujudga keltiradi. Bunda o'quvchilarning umumlashtirish faoliyati usullarini, shuningdek, aqliy faoliyatlarni amalga oshirishning turli usullarini o'zlashtirishlari katta rol o'ynaydi.

O'quv jarayonining eng muhim vazifasi uning rivojlantiruvchi funksiyasidir. Kimyo ta'limining rivojlantiruvchi funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kimyo ta'limi tarkibini uslubiy qayta ishlab chiqish, o'quv jarayonini maxsus tashkil etish va har bir talaba psixologiyasiga hamda imkoniyatlariga chuqur e'tibor qaratish talab etiladi.

Kimyo ta'limidagi ko'pgina muammolar kimyo kursini nazariylashtirishning barqaror tendensiyasi o'quvchilarning intellektual ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatlariga mos kelmay qolishi bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Tanlangan va tizimga birlashtirilgan intellektual ko'nikmalar, kimyo o'qitishning protsessual tomonining tarkibiy qismlari sifatida, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini sezilarli darajada hal qilishga imkon beradi¹.

Axborotlashgan zamonaviy turmush va ta'lim muhitida o'quvchilarning intellektual rivojlanishidagi sifatli sakrashlari kutilar ekan, bu esa bilimlarni qisqa vaqtda avvalgi tanish va yangi vaziyatlarga o'tkazish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Bu borada kimyo ta'limining oldida turgan asosiy muammolardan biri kimyoning rivojlantiruvchi funksiyasi sharoitlarini aniqlashtirish hamda o'quvchilarning taqqoslash, analogiya, dalillardan foydalanish

kabi intellektual ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi uslubiy tizimni yaratishdir.

Kimyo fanini o'qitish misolida o'quvchilarning taqqoslash, analogiya, isbotlash usullarini o'zlashtirishlari va ularni ta'lim samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilganda, ijobiy xulosalarga ega bo'lish mumkin.

Mazkur yo'nalishda o'quvchilarning intellektual rivojlanishining uslubiy tizimi ishlab chiqildi, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- birinchi empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va to'liq bo'lmagan induksiya asosida umumiy xulosani shakllantirish orqali eng oddiy o'xshash tomonlarini qiyoslash va farqlarini taqqoslashni o'rganishni ta'minlaydigan bosqichni o'z ichiga oladi;

- ikkinchi bosqich bilimlarni olish va undan foydalanishni o'rganishni o'z ichiga oladi;

- uchinchi bosqich ta'lim jarayonida deduksiyani qo'llash bilan tavsiflanadi;

- to'rtinchi bosqich - analogiya usulini qo'llash, to'g'riligi yoki noto'g'ri ma'lumotlarni dalillar bilan tasdiqlash².

Induktiv va deduktiv o'qitish usullari usullarning juda muhim xususiyatini, o'quv materiallari tarkibidagi o'zgarish mantig'ini ochib berish qobiliyatini tavsiflaydi. Induktiv va deduktiv usullardan foydalanish o'rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishning ma'lum bir mantig'ini tanlashni anglatadi - xususiyan umumiygacha va umumiydan xususiyygacha.

Induktiv yondashuv asosida o'quv faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha amalga oshadi; O'qituvchi dastlab faktlarni bayon qiladi, tajribalarni, vizual asboblarni namoyish etadi, mashqlarni tashkil qiladi, asta-sekin talabalarni umumlashtirishga, tushunchalarni aniqlashga, qonunlarni shakllantirishga olib keladi. O'quvchi avval xususiy faktlar o'rganiladi, so'ngra xulosalar chiqariladi va umumlashtiriladi.

Ikkinchi variantda esa o'qituvchi o'quvchilar uchun muammoli vazifalarni qo'yadi, ular xususiy qoidalardan umumiyroq, xulosalar va umumlashtirishgacha mustaqil fikr yuritishni talab qiladi. O'quvchilar mustaqil ravishda faktlar haqida fikr yuritadi va kerakli xulosalar hamda umumlashtirishlar qiladi. Masalan, reaksiya tezligi mavzusida natriy tiosulfat eritmasiga sulfat kislotasi eritmasi qo'shib eritmani oltingugurt hosil bo'lishi hisobiga loyqalanishi tajribasidan foydalaniladi. Mazkur tajribani uch xil haroratda bajarib ko'rib, o'quvchilarni reaksiya

tezligiga haroratning ta'siri borasida xulosa chiqarishga yo'naltirish mumkin.

Mavzuni induktiv o'rganish, ayniqsa, material, asosan, faktik xarakterga ega bo'lsa yoki faqat induktiv fikrlash jarayonida aniq bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lsa foydalidir. Texnik qurilmalarni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarishning induktiv usullari keng qo'llaniladi.

O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda umumiy formula yoki qonuniyatni keltirib chiqarishini zarur deb hisoblasa, muammolar induktiv usul bilan hal qilinadi.

Deduktiv yondashuvda o'qituvchi avval umumiy qoida, formula, qonun haqida xabar beradi, so'ngra asta-sekin alohida holatlar, aniqroq vazifalarni keltira boshlaydi. O'quvchi umumiy qoidalarni, formulalarni, qonunlarni o'rganadi va keyin ulardan kelib chiqadigan oqibatlarini o'zlashtiradi. O'quvchilarning muammoni ko'ra bilish, yechimga doir gipotezalar berish, ular orasidan optimal variantlarni tanlay olish kabi ijodiy yondashuvga, tadqiqot faoliyatiga tegishli bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Induktiv yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari uchun balki ularning qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Induktiv o'qitish usulining kamchiligi shundaki, bu usul deduktiv usuldan ko'ra yangi materialni o'rganish uchun ko'proq vaqt talab etadi. Bu mavhum fikrlashni rivojlantirishga kamroq hissa qo'shadi chunki u aniq faktlar, tajribalar va boshqa ma'lumotlarga asoslanadi.

Deduktiv usul o'quv materialini tezda o'zlashtirishga yordam beradi, mavhum fikrlashni yanada faol rivojlantiradi. Nazariy materialni o'rganishda, ba'zi umumiy qoidalardan oqibatlarini aniqlashni talab qiladigan muammolarni hal qilishda uni qo'llash juda foydali. Ushbu yondashuv o'quvchilarga umumiy va abstrakt xarakterdagi bilimlarni ilgari o'zlashtirishga va ulardan xususiyyroq va yanada aniqroq xulosa chiqarishga imkon beradi. Ammo bu barcha materiallarni deduktiv o'rganishga o'tish kerak degani emas. Uning induktiv yondashuv bilan oqilona kombinatsiyasini topish kerak, ularsiz o'quvchilarni nostandart muammolarni hal qilishga muvaffaqiyatli tayyorlash mumkin emas.

O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining yuqoridagi xususiyatlaridan ko'rinib turibdiki, deduktiv yoki induktiv o'qitish usullaridan foydalanish paytida og'zaki, vizual va amaliy usullar qo'llaniladi. Ammo o'quv materialining

1 Шихова Л.Н. Развитие рефлексивных умений учащихся в процессе изучения химии в современной школе. Автореф. дис. кандидат педагогических наук. - Санкт - Петербург: 2005. -24 с.

2 Кучкар М.А. (2022, December). Кимёвий эксперимент-ўқувчиларнинг танқидий-ижодий фикрлаш қобилиятини шакллантирувчи восита сифатида. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 1, No. 3, pp. 313-317).

mazmuni ma'lum bir mantiqiy tarzda - induktiv yoki deduktiv tarzda ochib beriladi. Mantiqiy yondashuvlar induktiv yoki deduktiv ravishda tashkil etiladigan suhbat, muammoli vaziyat, reproduktiv yoki tadqiqot ko'rinishidagi amaliy ishlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Muayyan vaziyatda deduktiv yoki induktiv usuldan foydalanish o'qituvchining o'qitishning ushbu bosqichida qo'ygan yetakchi didaktik vazifasi bilan belgilanadi. Agar o'qituvchi umumlashtirish xarakteridagi deduktiv tafakkurini rivojlantirishga e'tibor qaratishga qaror qilsa, u deduktiv usuldan foydalanadi, uni maqsadli tashkil etilgan suhbat yordamida amalga oshiriladigan muammoli tadqiqot usuli bilan birlashtiradi.



1-rasm. Tushunchalarni shakllantirish yo'nalishlari.

Nostandart topshiriqlardan foydalanib o'quvchilarning mantiqiy induktiv va deduktiv fikrlash faoliyatiga yo'naltirish imkoniyati mavjud. Ko'pchilik ananaviy topshiriqlar deduktiv xarakterga ega bo'lib, induktiv fikrlashga yo'naltirilgan nostandart topshiriqlarga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Induktiv yo'nalishda hamda differensial yondashilgan topshiriqlar to'plamlaridan foydalanish o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish, ularga individual yondashish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Vodorod ko'rsatkichi (pH) mavzusiga doir topshiriqlarga quyidagicha yondashish mumkin.

1. Quyidagi ma'lumotlar orasida qolganlariga mos kelmaydigan ma'lumotni aniqlang: $pH=3$, $[OH^-]=10^{-5}$ mol/l, lakmus qizil rangga kiradi, anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuz gidrolizini kuchaytiradi.

2. Quyidagi ma'lumotlar orasida qolganlariga mos kelmaydigan ma'lumot qanday ma'noni anglatadi. Javobni izohlang. $pH=3$, $[OH^-]=10^{-5}$ mol/l, lakmus qizil rangga kiradi, anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuz gidrolizini kuchaytiradi.

3. Quyidagi ma'lumotlar orasida farq

qiluvchi ma'lumotni qolganlaridan uchta farqini keltiring. Javobingizni asoslab bering. $pH=3$, $[OH^-]=10^{-5}$ mol/l, lakmus qizil rangga kiradi, anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuz gidrolizini kuchaytiradi.

Birinchi guruhga kiruvchi savollar faqatgina axborot berish xarakterigagina ega bo'lgan savollardan farq qiladi. Avvalo, qo'yilgan vazifani anglab yetish, buning uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, ular orasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash va shu asosda qo'yilgansavolniani qishakllantirishkabi induktiv yondashuv talab etiladi. Bunday shakldagi topshiriqlar o'quvchilarning muammoni ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi savollar muammoni ko'ra bilish bilan birga, nisbatan chuqurroq qiyosiy tahlil qilish, taqqoslash va javobni isbotlash talab etiladi.

Uchinchi guruhga kiruvchi topshiriqlar muammo yechimiga doir bir qancha gipotezalar taklif etish va ko'p variantli yechimlar bera oladigan alohida iqtidorga ega o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Muammoni ko'ra bilish, topshiriqni anglash: $pH=3$ kislotali muhit, lakmus qizil rangga kirishi ham kislotali muhitga tegishli, anion bo'yicha gidrolizlanishni kislotali muhit kuchaytiradi, mazkur uchta holatda kislotali muhit haqida fikr bildirilgan. Demak, ishqoriy muhitga oid ma'lumotni aniqlash talab etiladi.

Yechimga doir gipoteza berish:

$[OH^-]=10^{-5}$ mol/l bo'lganda

$$[H^+] = \frac{10^{-14}}{[OH^-]} = \frac{10^{-14}}{10^{-5}} = 10^{-9}$$

mol/l ga teng bo'ladi, bundan $pH = 9$ ya'ni ishqoriy muhit ekanligi ma'lum bo'ladi³.

Bir qancha yechim variantlarini berish va asoslash: ishqoriy muhitda vodorod ioni konsentratsiyalari gidroksid ioni konsentratsiyasidan past bo'ladi, vodorod ko'rsatkichi yettidan yuqori bo'ladi, lakmus qog'ozini ko'k rangga kiritadi, kation bo'yicha gidrolizlanadigan jarayonlarni kuchaytiradi.

Ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan biri, o'quvchilar axborotlarga asoslangan bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, ulardan hayotiy muammolarni bartaraf etishda foydalana olish, muammolarni ko'ra bilish, ularning yechimiga doir g'oyalarni taklif etish hamda optimal variantni tanlash qobiliyatlarini tarbiyalashdan iborat. Bu borada kimyo ta'limida ham mavzular kesimida ko'plab nostandart topshiriqlar, eksperimental masalalar ko'rinishidagi uslubiy yo'riqnomalar talab etiladi.

NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (marketing texnologiyalari asosida)

A'zam Shaxriyovich Xolmurodov - p.f.d., Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Annotatsiya: Maqolada nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarining zamonaviy marketingi, ta'lim sohasining o'ziga xos vazifalarini amalga oshirish uchun marketingning umumiy uslubiy vositalari, tadqiqot va diagnostika usullari, ta'lim muassasalarining bozor faoliyatini hamda boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'limda marketingning rivojlanishi, zamonaviy marketing tadqiqotlarida faoliyat samaradorligini baholash kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: В статье рассмотрены современный маркетинг образовательных услуг в негосударственных образовательных организациях, общее методическое обеспечение маркетинга для реализации особенностей образовательной сферы, методы исследования и диагностики, развития образовательной деятельности и повышения обсуждаются рынок, маркетинг в образовательном производстве, реализация деятельности в области современного маркетинга.

Abstract: The article discusses modern marketing of educational services in non-state educational organizations, general methodological support for marketing for the implementation of the features of the educational sphere, research and diagnostic methods, development of educational activities and promotion, discusses the market, marketing in educational production, implementation of activities in the field of modern marketing.

Kalit so'zlar: marketing texnologiyalari, ta'limda marketing, diagnostika, kvalimetrik usul va vositalar, ijtimoiy marketing, interaktiv marketing, tarmoq (elektron) marketingi.

Ключевые слова: маркетинговые технологии, маркетинг в образовании, диагностика, качественные методы и инструменты, социальный маркетинг, интерактивный маркетинг, сетевой (электронный) маркетинг.

Keywords: marketing technologies, marketing in education, diagnostics, qualitative methods and tools, social marketing, interactive marketing, network (electronic) marketing.

Nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifati va xizmatlar sifati bevosita ta'lim xizmatlari marketingi faoliyatining samarali texnologiyalarini belgilash va ulardan muvaffaqiyatli foydalanishni taqazo etadi.

Ma'lumki, marketing shaxslarning ehtiyojlari, bozorning talablaridan kelib chiqqan holda yangi tovar yoki xizmatlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy tizim bo'lib, ehtiyojlarni qondirish orqali maksimal daromad topish maqsadiga yo'naltiriladi.

Ko'pgina zamonaviy mualliflar marketingni murakkab boshqaruv konsepsiyasi, falsafasi va bozor biznesining yo'nalishi deb hisoblashadi. Buni marketing evolyusiyasini o'rgangan taniqli xorijiy olimlar M.Beyker, P.Doyle, R.Bartels kabi mualliflar tasdiqlaydi. M.Beyker o'zining "Marketing" kitobida, marketing – bu o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish

tushunchasidir, deya ta'rif beradi¹.

Ta'limda marketing bu iste'molchilarning (shaxs, ish beruvchilar, jamiyat) ta'lim xizmatlariga bo'lgan talablarini o'rganish va qondirishga, shuningdek, ehtiyojlar asosida yangi ta'lim xizmatlarini taklif qilish, rivojlantirish texnologiyalari sifatida tushuniladi.

Darhaqiqat, ta'lim xizmatlarining zamonaviy marketingi bu ta'lim sohasining o'ziga xos vazifalarini amalga oshirish uchun marketingning umumiy uslubiy vositalari, tadqiqot va diagnostika usullaridan foydalaniladigan marketing turi sanaladi.

Malaka oshirish jarayonlarida marketing xizmatlari negizida tinglovchi shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta'lim xizmatlarining asosiy iste'molchisi bu tinglovchi sanaladi. Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonlarida ta'lim xizmatlari

3 Кучкаров, М. А. (2011). Об использовании электронной таблицы в химических вычислениях. Химия в школе, (4), 53-54.

1 Marketing. Michael John Baker, Oxford; Boston: Butterworth-Heinemann, 2003.

ko'rsatishda bozor-foйда jihatları kamroq ahamiyatli sanalib, asosan ijtimoiy buyurtmaga asoslangan xizmatlar sohasi sanaladi.

Malaka oshirish, kasbiy rivojlanish doirasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchta asosiy modelga ajratiladi:

1. Tashkilot yoki korxonaning buyurtmasi asosida kasbiy rivojlanish dasturlarining amalga oshirilishi. Bunda, xodimlarni malakasini oshirish yoki kasbiy kompetensiyalarini baholashga qaratilgan buyurtmalari asosida malaka oshirish ta'lim dasturlari shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

2. Ta'lim oluvchining individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, kasbiy-bilish motivlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi. Bunda, ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni quyidagi kasbiy motivlar bilan bog'lash mumkin bo'ladi:

- ehtiyojlarini qondirish va o'z-o'zini rivojlantirish;

- lavozimda o'sish uchun harakat qilish;
- yangi bilim va kompetensiyalarni o'zlashtirish orqali lavozim yoki ish joyini saqlab qolish istagi;

- individual-bilish motivlari, qaysidir kasb sohasiga qiziqishlari (dasturlash, til o'rganish va boshq.).

3. Davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida jarayonlarni tashkil etish, ya'ni mazkur modelda xodimlarning malakasini oshirish jarayonlari davlat nazoratida bo'lishi va ijtimoiy ahamiyat kasb etishi. Bunday ta'lim xizmatlari faqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan soha xodimlari va mutaxassislarini malakasini oshirishda tadbir etiladi².

Nodavlat malaka oshirish ta'lim tashkilotlari faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar orasida ta'lim dasturlari tinglovchilarning ehtiyojlariga muvofiq emasligi, shuningdek, yangicha shakldagi ta'lim xizmatlari turlari (kouching, networking, vork-shopping, kaydzing, keys chempionatlari va boshq.)ni yo'lga qo'yishga nisbatan potensial va imkonialarni yetarlicha jalb etmaslikda ko'rish mumkin.

Shunday ekan, nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish xizmatlarini tashkil etishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qartishni talab etadi:

- ta'lim xizmatlarining barcha turlari va shakllarida (individual, korxon va tashkilotlar buyurtmalari asosida va boshq) iste'molchilar va buyurtmachilarnig ehtiyojlarini aniqlashtirish;

- o'qitish maqsadlarini aniq belgilash, ya'ni ularning aniq, erishsa bo'ladigan, mahsuldor bo'lishiga e'tibor qaratish;

- malaka oshirish jarayonlari qanday shaklda va qay tarzda tashkil etilishi (sayyor, masofaviy, trening yoki xodimning ish joyida) ni rejalashtirish;

- ta'lim dasturlarini tayyorlashda, o'qitish shakli va metodlarini tanlashda yosh va tajriba xususiyatlarini e'tiborga olish, tinglovchilarning o'zlariga kasbiy rivojlanish yo'nalishlari va vazifalarini belgilash imkoniyatini berish;

- tinglovchilarning natijalarini rag'batlantirish, motivasion tizimni yaratish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish xizmatlarini rivojlantirish birinchidan, tinglovchilarda doimiy ravishda kasbiy-malaka darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; ikkinchidan, ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xodimlarining kasbiy malakasini oshirib borishda doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish mexanizmlarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

Marketing texnologiyalari - ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, tashkilot/muassasaning bozordagi muvaffaqiyatli faoliyatini tashkil etish, ijtimoiy imidjini oshirish hamda asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan diagnostik, rivojlantiruvchi, kvalimetrik usul va vositalar, qarorlar qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq ijodiy yondashuvlar, harakatlar majmuasidir.

So'nggi yillarda marketingning asosiy rivojlanish tendensiyalari raqamli kommunikasiya texnologiyalari, axborot, Internet va ijtimoiy media rivojlanishiga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Bunda zamonaviy marketing texnologiyalari sifatida - ijtimoiy marketing, SMART marketing, interaktiv marketing, tarmoq (elektron) marketingi kabilarni keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy marketing jamiyat - insonlar hayoti, turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan xizmatlar sektorini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rilib, dastlab fanga "ijtimoiy marketing" tushunchasi 1971-yilda amarketing nazariyasi asoschilaridan bo'lgan Filip Kotler tomonidan kiritilgan. Olim ijtimoiy marketingni bu tashkilot yoki korxonaning barqaror rivojlanishi sharti sifatida ta'kidlab, insonlarni bir-birin tushunishi, muloqot qilishi, yangicha qarashlarning shakllanishi, shuningdek, o'z hatti-harakatlarini o'zgartirish orqali jamiyatning ijtimoiy muammolarini

hal etishga ta'sir etishi bilan bog'liq holda asoslaydi³.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy marketing texnologiyalariga ta'limdagi ijtimoiy hamkorlik, turli ijtimoiy loyihalar va aksiyalar, homiylik, hudud potensialini oshirish, turli xil bepul kurslar hamda mahorat darslari, konsultativ markazlar faoliyatini kiritish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda eng rivojlangan raqamli marketing texnologiyalari sifatida ijtimoiy-tarmoq marketingi, interaktiv marketing, media marketing (SMM), mobil ilovalar orqali marketing xizmatlarini rivojlantirish, Internet marketingi kabilarni kiritish mumkin.

Nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda raqamli marketing katta yoshli auditoriyani jalb etishning samarali vositasi hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli marketing texnologiyalari vositasida nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi malaka oshirish jarayonlarining samaradorligi, tinglovchilarning ehtiyojlari, munosabatlari hamda ish beruvchilarning takliflarini elektron shaklda (onlayn so'rovlar, ovozli video chatlar, intervyular va boshq) orqali baholash va tahlil qilish imkoni yuqori bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida malaka oshirish jarayonlarining mazmuni, shakli va metodlarini takomillashtirish uchun ishonchli axborot-tahlil bazasini shakllantiradi, kreativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy marketing tadqiqotlarida faoliyat samaradorligini baholashning KPI (key performance indicators, KPI) tizimi keng ommalashmoqda.

KPI - diagnostik instrument sifatida, tashkilot va muassasalar, xodimlar faoliyatini nazorat qilish va baholash, shuningdek rivojlanish maqsadlariga erishish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan strategiya hisoblanadi.

KPI tizimi faoliyatning natijadorligi va samaradorligini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash va tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'rsatkichlar tizimi, sifat menejmenti, kompetensiyalarni boshqarish kabi boshqaruv konsepsiyalariga asoslanadi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan yondashuvlar nodavlat ta'lim tashkilotlarining marketing faoliyati samaradorligi va ularning uzoq muddatli korporativ maqsadlarga erishishga qo'shgan hissasi ko'rsatkichlari sifatida iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik hamda ta'lim xizmatlari sifatining ortishi bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalanishga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, nodavlat ta'lim tashkilotlarida (malaka oshirish sohasida) marketing texnologiyalarini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad - tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish asosida, ularning kasbiy malakasi va ko'nikmalarini tashqi muhit o'zgarishlarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatini tashkil etishning yangi usullari va modellarini, o'qitishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish, innovatsion faolligini oshirish, shu bilan birga pedagog kadrlarga nisbatan qo'yiladigan Davlat talablarga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlashdan iboratdir⁴.

2 Skorbogatykh I.I., Mусatova Ж.К. Эволюция маркетинга в мире и в России. <https://www.researchgate.net/publication/>

3 Котлер Ф., Картаджайя Х., Сетиаван А. Маркетинг 4.0 : разворот от традиционного к цифровому /; пер. с англ. М. Хорошиловой. - М.: Бомбора, 2019. - 220 с. (Topbusinessawards).

4 Xolmurodov A.Sh. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish: doktorlik diss. avtoref. ...ped.fan.dok. - Toshkent, 2023.

MAKTABGACHA LOGOPEDIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ QILISH

Xayitgul Nesibovna Muzaffarova - p.f.f.d., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada "Maktabgacha logopediya" fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar komponentlarini tadbiiq qilish, o'qitishda ta'lim oluvchiga bilim berish, bilimni ishlata olishni, undan amaliyotda foydalanish, pirovardida yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatishda ta'lim innovatsiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga egaligi, innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan "Maktabgacha logopediya" fanini o'qitishning tayanch kategorial asoslari haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация: В статье рассматривается применение компонентов инновационных технологий, используемых в преподавании "Дошкольной логопедии", обучение обучающегося умению применять знания, применять их на практике использование образовательных инноваций в обучении и механизм создания новых знаний. Изложены мнения о важности образования, основные категориальные принципы преподавания "Дошкольной логопедии", разработанные на основе инновационных технологий.

Abstract: In the article, the application of the components of innovative technologies used in teaching of "Pre-school speech therapy", teaching the learner, the ability to use the knowledge, use it in practice, and finally, the use of educational innovations in teaching the mechanism of creating new knowledge. Opinions about the importance of education, basic categorical principles of teaching "Pre-school Speech Therapy" developed on the basis of innovative technologies are presented.

Kalit so'zlar: Logopediya, modernizatsiya, ta'lim innovatsiyasi, komponent, axborot, texnologik, tashkiliy, kommunikatsiya, didaktik texnologiya.

Ключевые слова: Логопедия, модернизация, образовательная инновация, компонентная, информационная, технологическая, организационная, коммуникативная, дидактическая технология.

Keywords: Speech therapy, modernization, educational innovation, component, information, technological, organizational, communication, didactic technology.

Ilm-fan texnologiyalari va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyotning yangi istiqbol rejalarini ochib bermoqda. Insoniyatning asrlar davomida davlat va jamiyat qurilishida to'plagan tajribasi ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or g'oyalarni yaratilishiga sabab bo'ldi. Mazkur yondashuv va g'oyalarning mohiyati keyingi paytlarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalani kelmoqda. Modernizatsiya tushunchasi inglizcha "modern" so'zidan olingan bo'lib, "zamonaviy", "ilg'or", "yangilangan", "yangi talablar va me'yorlar", "texnik ko'rsatmalar sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi" degan ma'noni ifodalaydi¹.

Odatda, "modernizatsiya" deganda texnologik jarayonlar: mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollarini yangilash

tushuniladi. Biroq ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan takomillashgan bosqichiga o'tadi. Falsafa qonunlari asosida miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga aylanish jarayoni yuz beradi. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar ham shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, malakali kadrlarga, shaxsning sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishini anglatadi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan holda majmuaviy xarakter kasb etadi, jamiyatda qaror topgan mutaxassislarni tayyorlash borasidagi kompleks yangilanish hamda

¹ Мингаева А.К., Садваксова З.М. Инновационные методы обучения, или как интересно преподавать., -7-е изд., доп., -Алматы, 2012- 90-98 стр.

ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va jamoat tashkilotlari, yuqori va quyi tashkilotlarning o'rnini va roli, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, hamkorlik muhim ahamiyatga ega².

Zamonaviy sharoitda ta'limni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat: elektron axborot - ta'lim resurslarini yaratish; o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish; o'quv va mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik ta'minotni vujudga keltirish.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni baholash mezonlarini davr talabiga mos shaklda ishlab chiqish, yetakchi oliy ta'lim muassasalariga erkinlik berish asosida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar uchun mustaqil, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishga asoslangan, talabalarni fikrlashga yo'naltiradigan o'quv reja hamda dasturlarni amalga oshirish kadrlar muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yildagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida yurtimiz hozirgi vaqtida uchinchi Renessans davrida ekanligi va hozirgi yosh avlod orasidan bo'lg'usi Beruniy-u Xorazmiylarni, Ibn Sino-yu Ulug'beklarni, Navoiy va Boburlarni tarbiyalovchi zamonaviy muhitni yaratish zarurligini, mukammal ta'lim-tarbiyani tarkib toptiruvchi ilm-fan taraqqiyoti milliy g'oyamizning asosiy ustunlaridan bo'lib xizmat qilishi kerakligini aytib o'tgan edi³.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham ta'limni tizimli isloh qilish, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini fanga kiritish, o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro standartlarga mos keladigan oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bir qancha chora - tadbirlar qabul qilindi. Mazkur qarorlar nafaqat ta'lim tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarga

asosan maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishida o'qitiladigan "Maktabgacha logopediya" fanidan ham yangi axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarga asoslangan elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng ko'lamda joriy etishning samarali tizimini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni rejalashtirish davr talabidir. Bo'lajak logopedlarga nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik jarayonlari (idrok, diqqat, xotira, aqliy faoliyat, hissiyot, fazoviy tasavvurlar)ga doir ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash bilan bog'liq muammolar mavjudligi sababli kadrlar tayyorlashda ushbu muhim jihatlarni yodda tutishlarini uqtirib borish, sifatli kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimi xodimlari ham zamon bilan hamnafas bo'lishi va o'z faoliyatini yangiliklar bilan hamohang tarzda yuritishi zarur.

Jahon pedagogik tajribasida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarni fanlarga qiziqtirish, mustaqil faoliyatida faolliklarini oshirishda imkoniyati cheksiz ekanligi o'z tasdig'ini topgan. Maxsus ta'lim tizimida ham innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlar o'tish uchun o'qituvchining tinmay izlanishi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi talab etiladi. Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabiga to'liq javob beradigan, raqobatbardosh, yangi sharoitlarga moslashuvchan, samarali faoliyat yurituvchi logopedlarni shakllantirish oliy ta'lim oldidagi dolzarb muammolardandir. Logopedlar ham boshqa fan o'qituvchilari kabi ta'lim va tarbiya shakllarining mohiyatini, maqsad va mazmunini, tamoyillar, usul hamda vositalarini puxta egallagan taqdiridagina alohida himoyaga muhtoj bolalar tarbiyasida ko'zlangan natijaga erishishi mumkin⁴.

O'qitishda innovatsion texnologiyalarni tadbiiq qilish maqsadida "Maktabgacha logopediya" fani tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bakalavrlarning nazariy tayyorgarligini tizimli tashkil etish haqidagi g'oyalar P.Lopuxin tadqiqotlarida chuqur o'rganilganligi e'tiborga molik. "Maktabgacha logopediya" fanidan o'qitishning o'ziga xos usullari va texnologiyasi taraqqiyotiga B.M.Grinshpun, O.N.Usanova, I.T.Vlasenko, T.B.Filicheva, L.G.Solovyeva va N.S.Jukovalarning ilmiy tadqiqot ishlarning natijalari ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

² Гребенюк, О.С. Педагогика индивидуальности Текст. / О.С.Гребенюк. - Калининград: ЮГУ, 2002. 94 с.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-sonli, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 5 iyunidagi farmoni (<https://lex.uz/docs/3765586>).

⁴ Логопедия: методические традиции и новаторство/ Под ред. С.Н.Шаховской, Т.В.Волосовец. - М.: Изд. Московского психолого-социального института, 2003

Maktabgacha ta'limdagi dolzarb muammolar - bolalar nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va qo'llash, bo'lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligi amaliyotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sinkveyn, mnemonika, modellashtirish va sxemalashtirish, smart-kartalar, su-jok terapiyasi kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish E.A.Abdullayeva, O.A.Bizikova, A.B.Bolgova, T.I.Bukayeva, I.O.Ivakina, T.S.Komarova, S.G.Leshchenko, T.V.Nesterova, G.A.Penevskaya, N.A.Sklyarova, A.V.Undzenkova kabi bir qator tadqiqotchilarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Bu borada innovatsion texnologiyalar haqida mulohazalar yuritir ekanmiz, avvalo, "texnologiya", "metodologiya", "innovatsion texnologiya", "maktabgacha logopediyada innovatsion texnologiya" nima ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz kerak.

Maktabgacha logopediyada ta'lim texnologiyasi va metodologiyasi o'rtasidagi asosiy muhim farqlar O.S.Orlova, L.E.Goncharuk, L.M.Shipitsina, L.S.Volkova va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Ta'lim muassasasida bir xil darajada yuqori natijaga erishishga mo'ljallangan ta'lim texnologiyasi "Qanday o'qitish kerak?", - degan savolga javob berishi bilan metodologiyadan farqli o'laroq, o'quvchilarning faoliyatini tashkil etishning mazmuni va usullari majmuini anglatadi. Metodologiya nazariy qoidalarni amalga oshirish usullarining xilma-xilligini, o'zgaruvchanligini ta'minlaydigan jarayon bo'lib, maqsadga erishish kafolatini anglatmaydi. Boshqacha aytganda, metodologiya o'qituvchiga kafolatlangan natijalarni va'da qilmaydi. Metodologiya "Nima o'rgatish kerak?", "Nega o'rgatish kerak?" va "Qanday o'rgatish kerak?" - degan savollarga javob beradi. Shunga ko'ra metodologiya ma'lum bir o'quv intizomi doirasidagi faoliyat hisoblanadi⁵.

Hozirgi paytda bo'lajak logopedlarni o'qitishni samarali tashkil etishning innovatsion texnologiyalarini amaliyot davomida uzviylik va uzliksizlik tamoyillari asosida qo'llashning pedagogik imkoniyatlari atroflicha o'rganilmoqda. Innovatsion texnologiyalar asosida mutaxassilik fanlarini o'qitish, ta'lim va tarbiyani optimal tashkil etish shakllaridan hisoblanadi. Bu borada innovatsiya so'zini ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "Innovatsiya" ingliz tilidan olingan bo'lib, "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir

yangilik kiritish", "yangini joriy etish" ma'nosida keladi va "yangi" so'zi mazkur tushunchaning o'zagini tashkil qiladi⁶.

Ko'rinib turibdiki, "innovatsiya" tushunchasi aniq holatni ifodalaydi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, innovatsiya muayyan tizimning ichki qurilishini o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Ta'lim innovatsiyasi haqida mulohaza qiladigan bo'lsak, bu tushuncha "Innovatsion ta'lim" deb ham atalib, ilk bora "Rim klubi"da tilga olingan. Talabalarni mustaqil, mas'uliyatli, har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida o'z o'rniga ega kadr qilib yetishtirishda innovatsion ta'lim muhitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Negaki, uni xalqaro standartlarga moslashtirish jamiyatda yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi, o'z navbatida, ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida modernizatsiyalashni taqozo etadi.

Bugungi kunda o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liqlikda pedagogik innovatsiyaning quyidagi texnologiyalari amaliyotga tatbiq qilinmoqda:

1. Ta'lim mazmuniga oid innovatsion yondashish;
2. O'quv-tarbiya metodikasi;
3. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish;
4. Ta'lim tizimini rejali tarzda boshqarish.

Mazkur innovatsion texnologiyalar faqatgina ta'lim samaradorligini oshirib qolmasdan, balki bo'lajak logopedlarni innovatsion faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlash imkoniyatini ham yuzaga keltiradi.

Innovatsion ta'limni takomillashtirish deganda qo'llanilayotgan mavjud ta'lim usullari yangi va keng ko'lamlil interfaol usullar, pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Taniqli pedagog M.V.Klarin tadqiqotlarida ta'limga innovatsion yondashuv texnologiyalari quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) o'quv jarayonining an'anaviy reproduktiv yo'nalganligi doirasida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan modernizatsiyalashgan texnologiyalar;
- 2) an'anaviy o'quv jarayonini qayta tashkillashtirishga yo'naltirilgan transformatsiyalangan texnologiyalar.

N.V.Novodnichenko ham ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalarni yuzaga kelish tavsifiga ko'ra quyidagi ikki

guruhga ajratadi:

1) innovatsion jarayonning barcha shart - sharoitlari tizimi, vosita va yo'llari to'liq anglanmagan holda amal qilnadigan innovatsion texnologiyalar. Bularni empirik innovatsion texnologiya deb nomlash ham mumkin. Bunda pedagog innovatsion texnologiyaga o'zining no'anaviy tajribasi orqali murojaat qiladi, tashkiliy qism esa, stixiyali tarzda amalga oshiriladi;

2) ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat natijasi sifatida yuzaga keluvchi texnologiyalar. Buni ilmiy yo'sinda tashkillashtirilgan texnologiyalar deb atash mumkin. Mazkur texnologiya birinchi turdagi texnologiyadan o'zining nazariy asoslanganligi, natijalarning aniq ahamiyatga egaligi va keng ommalashganligi bilan yuqori turadi⁷.

Amerika psixologi E.Rojers o'z tajribasi asosida innovatsion texnologiyalarni bir necha bosqichlarga bo'lishni taklif qiladi. Jumladan, ma'lumotga ega bo'lish; bilimlarni egallash va qiziqishning paydo bo'lishi; qaror qabul qilish; axborotdan foydalanish; qiziqishlarni ma'qullash yoki rad etish shular jumlasidandir. U o'z tadqiqotlarida muayyan g'oya va tushunchalarning jamiyatda tarqalishini o'rgangan va o'qituvchilarni innovatsion texnologiyalarni qabul qilish moyilligiga qarab guruhlarga ajratgan: innovatorlar; biror yangilikni tez qabul qiladiganlar; ma'lumotni o'rtacha qabul qiluvchilar; yangilikni kech qabul qiladigan va qabul qilishi qiyin o'qituvchilar. Ular ichida innovatorlar boshqa guruhdagilarga nisbatan ertaroq qaror qabul qiladilar. Shuning uchun ular boshqalar uchun namuna bo'ladilar.

O.Avlayev, S.Jo'rayeva, S.Mirzayevning zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish, jamoada ishlash, ilg'or ta'lim usullarini amaliyotga joriy qilish va pedagogik jarayonga yangicha yondashish masalalariga oid izlanishlarida bilim olishdan ko'ra bilim berish afzalroqdir; bilim berish savob ishlardan biridir; bilim berishdan bilimni ishlata olish muhimroqdir; bilimni ishlata olishdan undan foydalanish sohalarini kengaytirish, yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatish bilim berishdan muhimdir, degan xulosa ilgari suriladi.

Ko'rinib turibdiki ta'limiy innovatsiya - bu maqsadga samarali erishishga yordam beruvchi ta'lim tizimidagi yangiliklarni ishlab chiqish, amalga oshirish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Chet el olimlarining tadqiqotlarida ham "innovatsiya" tushunchasiga turli xil

ta'rif berilgan. Jumladan, A.M.Saranov, E.M.Rodgerslar innovatsiya - bu yangilik; K.Angelovski innovatsiya-bu o'zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish; V.A.Slastyoni, V.I.Podimovalar ilmiy izlanishlarida innovatsiya bu yangi vosita, yangi metod, yangi texnologiya deyilgan; P.G.Shedrovskiy esa innovatsiya bu ta'limning yangi mazmundagi metodlarini ishlab chiqish natijasi, deb ko'rsatgan⁸.

Umumiy va maxsus pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion texnologiyalarni ta'limga tatbiq qilishga doir tadqiqotlarni tahlili asosida "ta'lim texnologiyasi", "innovatsion texnologiya", "maktabgacha logopediya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" mazmuniga mualliflik ta'rifi berildi. (1-jadval)

Innovatsion texnologiyalar asosida "Maktabgacha logopediya" fanini o'qitish bo'yicha tadqiqotning tayanch kategorial asoslari

1-jadval

Ta'lim texnologiyasi	ta'lim texnologiyasi maqsadga erishish jarayonining umumiy mazmuni hisoblanib, oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini bir butun tizim sifatida, bosqichma-bosqich amalga oshirish va qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ularni samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishdir
Innovatsion texnologiya	muayyan tizimning ichki qurilishini o'zgartirishga yo'naltirilgan, pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik va o'zgarishlar kiritish asosida ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va interfaol usullar majmuisidir.
"Maktabgacha logopediya" fanini o'qitishda innovatsion texnologiya	bo'lajak logopedlarda yangi fikr, g'oya, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar va qoidalarni to'g'ri qabul qilishga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim tizimidir

Yuqoridagi fikrlarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, "Maktabgacha logopediya" fanini o'qitishda ta'lim oluvchiga bilim berish, bilimni ishlata olishni, undan amaliyotda foydalanish, pirovardida yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatishda ta'lim innovatsiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tahlil va mulohazalarga asoslangan holda "Maktabgacha logopediya" fanidan qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar komponentlari quyidagicha ifodalandi:

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib

5 Mamarajabova Z.N. Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. O'quv uslub qo'l. T.:2016 AA

6 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso -Ko'ngil/4- m. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2002. -169-bet.

7 Новодниченко Н.В. "Педагогическая практика как средство подготовки будущего учителя к инновационной педагогической деятельности": автореф. дис... канд. пед. наук: 13.00.08 /Неводниченко Нина Викторовна. - Н. Новгород, 2005. - 24 с.

8 Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. - Routledge, USA, 2012. file:///C:/Users/Admin/Desktop.

komponenti, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeiklarga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlar bo'lib, mazmunan zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

2. O'qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo'llash komponenti. Bunday usullar bo'lajak logopedlarni faol o'quv va amaliy faoliyatga jalb etishga turtki beruvchi va o'quv jarayonida tashabbuskorlikka yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3. Ta'limning zamonaviy infratuzilmali komponenti. Bunda ta'limning barcha shakllarini qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanish kerak. Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni ta'sis etish jarayonida qo'llaniladi, (ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar). Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular talabalarning mustaqilligini rivojlantirishga, erkin, izlanuvchanlikka o'rgatish va mustaqil ravishda o'z bilimini rivojlantirish, qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratiladi.

Tadqiqot davomida "Maktabgacha logopediya" fanidan ta'limda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar quyidagi guruhlariga ajratildi:

1. Ta'limning axborot kommunikatsion texnologiyalari. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot

vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Professor-o'qituvchilar va talabalarining axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;

2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, ushbu texnologiyalar shaxsni ta'lim va tarbiyada ustuvor o'ringa qo'yishga, butun ta'lim jarayoni shaxsning o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratiladi.

3. Ta'lim jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash texnologiyalari. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir talabani, guruhni, parallel ravishda ta'lim muassasasining rivojlanishini o'rganishga va adekvat baholashga qaratiladi.

4. Didaktik texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnik va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari⁹.

Ko'rinib turibdiki "Maktabgacha logopediya" faniga doir ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonining odatiy qismiga aylanib bormoqda. Shunday ekan, ta'lim bir joyda turmaydi, balki o'quv faoliyati jarayonida shaxsiy yondashuvga e'tibor qaratilib, o'z yutuqlarini zamonaviylashtirish yo'lidan boradi. Bundan ko'rinib turibdiki, maxsus va korreksion ta'limni tashkil etishda bir yoqlama harakat emas, balki o'zaro fikr almashish va hamkorlikdagi harakat asosida tashkillashtirish ijobiy samara beradi.

THE ROLE OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN ECONOMIC PROFESSIONAL EDUCATION

Shahnoza Shoakhrarova Aripova - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences of (PhD), The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article deals with the issue of increasing the level of professional competencies of students of economic specialties when teaching a foreign language in a non-linguistic university with the help of independent work of students, including extracurricular. Modern students are interested in the final product – specific professional skills that can already be applied here and now in professional activities. Considering that independent work when learning a foreign language at the university is one of the basic components of the educational process and helps a future specialist to master highly professional vocabulary, including in a foreign language, it can be concluded that it is necessary not only to pay more serious attention to independent work attention, but also to focus on professionally oriented foreign language teaching.

Annotatsiya: Maqolada nofilologik yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarning mustaqil ishlarni olib borishlari, shu jumladan, darsdan tashqari chet tilini o'rganishda, iqtisodiy mutaxassislik ega bo'lgan talabalarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish masalasi ko'rib chiqiladi. Bugungi kun talabalari universitetda chet tilini o'rganishda mustaqil ishlashlari o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri ekanligini hisobga olib, kelajakda kasbiy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan – o'ziga xos kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, nafaqat mustaqil ishlarga, balki chet tilini professional yo'naltirilgan o'qitishga ham jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос повышения уровня профессиональных компетенций студентов экономических специальностей при обучении иностранному языку в неязыковом вузе с помощью самостоятельной работы студентов, в том числе внеаудиторной. Современных студентов интересует конечный продукт – специфические профессиональные навыки, которые уже здесь и сейчас можно применить в профессиональной деятельности, учитывая, что самостоятельная работа при изучении иностранного языка в вузе является одной из основных составляющих образовательного процесса и помогает будущему специалисту овладеть высокопрофессиональной лексикой, в том числе на иностранном языке. Можно сделать вывод, что необходимо не только уделять более серьезное внимание самостоятельной работе, но и сосредоточиться на профессионально ориентированном обучении иностранному языку.

Keywords: Independent work, professional competencies, speech skills, reading strategies.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, kasbiy kompetensiyalar, nutq qobiliyatlari, o'qish strategiyalari.

Ключевые слова: самостоятельная работа, профессиональные компетенции, речевые навыки, стратегии чтения.

Introduction. Modern trends in education reform are characterized by inconsistency: on the one hand, a personality-oriented model of education is intensively developing, allowing for a humanitarian type of education, providing variability and personal orientation of the learning process, creating conditions for the individual creative formation of students during mastering the content of professional activity, on the other hand, the economic crisis of education affects its quality and the capabilities of each educational institution to create educational, methodological, technological, information support for the educational process. Society needs specialists capable of independent transformative activity, independent professional self-change. This makes it necessary to find internal reserves to saturate the educational process with educational and methodological support, understood by us as a result of professional creativity of teachers and as a means of professional development of students. The skills of independent work on mastering any knowledge are acquired by a person from early childhood and develop throughout life. By the beginning of their

⁹ Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya., O'quv qo'llanma//: Jizzax: «Ruhsora servis» nashryoti, 2021, 4-56 b.

studies at the university, each student has personal experience and skills in organizing their own actions, acquired in the process of studying at school, institutions of additional education, during extracurricular activities and in everyday life. However, when studying at a university, the requirements for the organization of independent work increase significantly, since they are associated with the development of complex general cultural and professional competencies. Practice shows that students differ in the level of readiness to implement the requirements for independent work.

There are two main groups of students. The first one is characterized by the fact that its representatives are focused on performing tasks of independent work and have universal educational competencies that allow them to successfully cope with the requirements for its implementation (the ability to understand and memorize acquired information, think logically, reproduce material in writing and orally, carry out measurements, calculations, design, etc.). Students of the second group do not have a stable orientation to constantly perform independent work when mastering educational material and are characterized by a low level of development of universal educational competencies and self-organization skills.

Independent work within the framework of the educational process at the university solves the following problems:

- consolidation and expansion of knowledge, skills acquired by students during classroom and extracurricular activities, turning them into stereotypes of mental and physical activity;
- acquisition of additional knowledge and skills in the disciplines of the curriculum;
- formation and development of knowledge and skills related to research activities;
- development of orientation and attitude to the qualitative development of the educational program;
- development of self-organization skills formation of independent thinking, the ability to self-development, self-improvement and self-realization;
- development of skills for effective independent professional theoretical,

practical and educational research activities.

Literature review. Most scientists call the lack of direct participation (assistance) of a teacher as the main sign of independent work. Typical in this respect is the definition of independent work given by B.P. Esipov: "Independent work included in the learning process is such a student's work that is performed without the direct participation of the teacher, but on his assignment at a specially provided time for this." Researchers identify other signs of independent work. Thus, the specific features of the construction of the educational process in higher education, according to N.V.Chekaleva, allow us to interpret the meaning of independent work as planned, cognitive, organizational and methodically guided student activities carried out without the direct help of a teacher to achieve a specific result. A.G.Kazakova, A.S.Lynda, R.B.Sroda understand by independent work like this the activity of students that they perform, showing independence, activity, initiative, creativity. B.P.Esipov, L.V.Zharova, O.A.Nilson emphasize that independent educational work necessarily involves the application of mental and physical efforts by students.

From the point of view of V.Y.Lyudis, independence of learning is "the result of a path traversed in a situation where a student acquires ways of internal regulation of all components of his own educational activity" I.Y.Lerner, P.I.Pidkasisty, N.A.Polovnikova, M.N.Skatkin and others consider independent work as a means of including students in independent cognitive activity. P.I.Pidkasisty believes that independent work is not a form of organization training sessions and not a teaching method. It is correct to consider it rather as a means of involving students in independent cognitive activity, a means of its logical and psychological organization. In his opinion, students should be taught cognitive activity, arm them with educational and cognitive apparatus¹.

In domestic universities, as I.G.Gerasimova, A.A.Dashkovskaya write, O.B.Solovyova, it is also necessary to apply the principle of interdisciplinary connections more widely to highlight the highly professional sphere of communication of students of economic specialties.


¹ Проектирование учебно-методического обеспечения модулей инновационной образовательной программы [Текст] // О.В.Акулова, А.Е.Бахмутский, Р.У.Богданова, О.Б.Даутова, Е.В.Пискунова, Н.Ф.Радионова, А.П.Тряпицына. – СПб.: Издво РГПУ им. А.И.Герцена, 2007.

I.G.Gerasimova points out, for example, that for students of non-linguistic universities it is necessary to provide correlation of topics in professionally oriented English with topics in special subjects².

Analysis and results. In order to implement the tasks of independent work of students and its implementation, the following is necessary, which the university provides:

- availability of material and technical base;
- availability of the necessary fund of information for independent work of students and the possibility of working with it in classroom and extracurricular time;
- availability of premises for performing specific tasks
- included in the independent work of students;
- validity of the content of tasks included in the independent work of students;
- connection of independent work with work programs disciplines, calculation of the necessary time for independent work;
- development of students' self-organization skills, universal educational competencies by teachers;
- support by teachers of all stages of students' independent work, current and final control of its results.

Independent work is implemented in 3 types: (Figure 1)



The boundaries between these types of work are quite blurred, and the types of independent work themselves overlap. Thus, independent work of students can be both in the classroom and outside it. However, considering the issues of independent work of students, they usually assume extracurricular work.

Now linguistic culture is becoming the key to the success of a specialist with an economic specialty³. Active communication in the professional community, exchange of information and experience become a prerequisite for maintaining one's own competitiveness in the labor market. But without knowledge of a foreign language, it becomes impossible to get a well-paid, interesting and prestigious job. Knowledge of a foreign language is a pass to a new world, a world without borders and conventions, a world of realization and creative search. As O.A.Zhilyaeva points out, "the demand for a modern specialist largely depends on the availability of competent oral and written speech, knowledge of speech influence techniques, persuasion and the ability to communicate effectively, i.e. on the level of his linguistic competence. Modern society needs not just a professional, but a person of culture who integrates the culture of knowledge, feelings, communication and creative action"⁴.

A variety of activities and methods are indicated by acronyms formed from the first letters of the corresponding techniques and strategies for better memorization by students.

The first four strategies are combined together under the heading "Multipass". "Multipass" (multiple pass) consists in the fact that the training text is read four separate times, and each time with its own new separate purpose.

The strategy of active listening and taking notes is called PLANS - Prepare, Listen, Anticipate, Note, Summarize (prepare, listen, predict, take notes, summarize).

The strategy of passing tests and writing control papers REACH - Read, Estimate, Answer, Check, Hunt (read, evaluate, answer

² Герасимова И.Г. Формирование межкультурной компетенции студентов геологических специальностей в процессе обучения профессиональному общению на английском языке. Автореферат диссертации ... кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург, 2010.

³ Жилиева О.А. Языковая культура как фактор успешности профессиональной деятельности. Известия РГПУ им. А.И. Герцена. 2009; № 93: 245 – 249.

⁴ Иванова И.Д. Языковая личность современного экономиста. Молодой ученый. 2019; № 40 (278): 237 – 239.

questions, check, explore).

The final strategy of the AFTER - Answer, Find, Trace, Exam system, Review (answer questions, find, trace, check, repeat) teaches students to work on mistakes.

Each strategy in this system is perfected directly in the audience with an immediate response before work begins on mastering the next strategy. This teaching technique includes an eight-stage methodology borrowed from the Strategies Intervention Model, developed in 1983 by the Institute for Research in Learning Disabilities at the University of Kansas (Deshler, Grunberg, Alley, Brown). The development of the first four stages is controlled by the teacher, the latter are focused on the independent work of students, but require interactive interaction with the teacher⁵. Despite the fact that the System of strategic learning (Strategic Learning System) includes the main elements of the Learning Strategies Program (Learning Strategies Program), it is only the first phase of strategic learning.

Independent work of students is especially important when teaching foreign languages, as students are provided with educational materials that need to be memorized, analyzed, consolidated, and this becomes possible only in conditions of independent work. When teaching foreign languages, there are educational materials that can be learned in classroom classes when working in pairs, in groups, or in the process of individual work of students. How effectively will the independent work of students be carried out in and out of the classroom, in first of all, it depends on the organization of this work by the teacher. The task of the teacher is to organize the work of students in such a way as to ensure the active independent activity of students, to

create conditions for their self-expression and self-development.

The effectiveness of independent work depends on the following factors:

1) The classroom work is built by the teacher in accordance with regulatory documents.

2) The activity carried out is motivated.

3) Students have formed the ability to learn.

4) Formation of students' academic competence as a methodology self-study of a foreign language.

5) Students have practically acquired knowledge, skills, and abilities.

6) Students have the skills of self-educational activity⁶.

Conclusion and recommendations. In conclusion, it should be emphasized again that independent work should become the basis of the educational process, a factor in the formation of professionally significant competencies. This implies an orientation towards active methods of mastering knowledge, the development of students' creative abilities, the transition from on-line to individualized learning, taking into account the needs and capabilities of the individual. It's not just about increasing the number of hours for independent work. Strengthening the role of independent the work of students means a fundamental revision of the organization of the educational process at the university, which should be built in such a way as to develop the ability to learn, to form the student's ability to self-development, creative application of acquired knowledge, ways to adapt to professional activity in the modern world, to increase the competitiveness of Uzbek specialists.

O'QUVCHILARDA MATEMATIK TAFAKKUR QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH – ILMIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sanobar Ibragimovna Kenjayeva - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda matematik tafakkur qilish kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida qaralayotgan sabablari va muammoni hal etish usullari haqida so'z yuritilgan, shuningdek, olimlarning fikrlari, tafakkurning turlari va maktabdagi mavjud muammolar haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В статье говорится о причинах, по которым развитие компетенции математического мышления рассматривается как педагогическая проблема и методах решения проблемы, а также информация о мнениях ученых, типах мышления и существующих проблемах в школе.

Abstract: The article talks about the reasons why the development of mathematical thinking competence is considered as a pedagogical problem and methods of solving the problem, as well as information about the opinions of scientists, types of thinking and existing problems in school.

Kalit so'zlar: o'quvchi, tafakkur, matematik tafakkur, kompetensiya, ilmiy pedagogik muammo, pedagogika, ta'lim, maktab, usul, metod, tahlil.

Ключевые слова: ученик, мышление, математическое мышление, компетентность, научно-педагогическая проблема, педагогика, образование, школа, метод, анализ.

Keywords: student, thinking, mathematical thinking, competence, scientific pedagogical problem, pedagogy, education, school, method, analysis.

Maktab ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining alohida e'tibor talab etuvchi bo'g'ini hisoblanadi. Dunyo miqyosida sifatli ta'lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar eshigi keng ko'lamda ochib berilmoqda. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? kabi savollar ham jahon miqyosidagi ta'lim siyosati darajasida qaralmoqda. Ta'lim va tarbiyaga oid raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning jahon ta'limi andozalariga mos eng ilg'or uslublarini joriy etish, ta'limni raqamlashtirish muhitida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi globalashuv jarayonlari ilm-fan, ta'lim, sana't, madaniyat, sport, iqtisod, biznes, marketing, qurulish-sanoat, ishlab chiqarish, qo'yingki, barcha sohalarning taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatayotgani hammaga ma'lum. Ayniqsa, globalashuv jarayonlari ta'lim sohasida ham muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular, eng avvalo, ta'limning sifati, samaradorligi, strukturasi, funksiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, ya'ni chuqur, yangi sifatli o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

Ta'limning tobora global mavzuga aylanib

borishini, ta'lim - inson hayotini, yashash tarzini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkinligi va yurt taraqqiyotini rivojlantiruvchi vosita ekanligini ta'rixdan, qolaversa, bugungi globalashuv davri, internet manbai, sun'iy intellektning yaratilishi va raqamli texnologiyalar rivojlanishidan ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni (11.05.2022 y.)¹, "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.07.2019 yildagi PQ-4387-sonli qarori², "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07-may 2020-yil PQ-4708-sonli qarori³, "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni

5 <http://elibrary.udsu.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/4459/2009212.pdf?sequence=1>

6 Мильберг Г. Е. Самостоятельная работа студентов в условиях реализации Болонского процесса // Проблемы современной филологии и лингводидактики : сб. науч. тр. Вып.

8. СПб. : Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2017, С. 151.

1 "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-sonli farmoni - <https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000>.

2 "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.07.2019 yildagi PQ-4387-sonli qarori . -<https://lex.uz/docs/-4807552>.

3 "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07-may 2020 yil PQ-4708-sonli qarori . - <https://lex.uz/docs/>

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2020-yildagi PQ-4708-sonli qarori⁴, shuningdek, yangi Konstitutsiyaning ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan 50, 51, 52 va 53-moddalari⁵ ham bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xususida to'xtalsak, Prezidentimiz tomonidan 2023-yil yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi ham ta'limga berilayotgan yuksak e'tiborning isboti bo'ladi.

Bugungi kungacha ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish, hayotiy masalalarni hal qilishda matematik hisoblashlarning og'zaki formalaridan foydalanish va matematik savodxonlikni rivojlantirishning o'ziga xos muammolari va ularning yechimlari bilan buyuk matematiklar Al-Xorazmiy, Gauss, Pifagor va boshqalar, hozirgi kunda E.M.Mardonov, A.X.Avezov, S.Alixanov, M.E.Jumayev, Sh.V.Imomova, M.N.Ismoilova va boshqalar, shuningdek, Alan H. Schoenfeld, Richard Rusczyk, Jo Boaler, John Mason, Leone Burton, Kaye Stacey, Randall Maddox, Steven Strogatz shug'ullangan Bundan tashqari, rus olimlaridan, Y.I.Perelman, M.A.Bantova, A.V.Beloshistaya, G.N.Berman, S.I.Volkova, D.R.Gonchar, T.E.Demidova, I.I.Martinov va boshqalar ham tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Qadimgi Yunon matematigi Pifagorning fikricha koinotni tushunish uchun raqamlar va geometriyadan foydalanish mumkin degan fikrga asoslangan edi. Pifagor va uning izdoshlari insonning ma'naviy rivojlanishi bilan qiziqishgan. Ularning fikricha, matematik nisbatlar va musiqa o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, ruhiy muvozanatga erishish uchun musiqadan foydalanish mumkin edi. Pifagor va uning izdoshlari tafakkur orqali koinot sirlarini ochishga harakat qilishar ekan, ular son, nisbat, geometriya, musiqa kabi sohalaridan ilhomlangan⁶.

Buyuk mutafakkir olim Al-Xorazmiy o'zining "Kitob al - muqabala" asarida umumiy tarzda matemetika va algebraga oid qoidalarni tushuntiradi. Shuningdek, matematik g'oyalardan foydalaniladigan amallarni ko'rsatadi. Bu asarning asosiy maqsadi arifmetika va algebraga oid asosiy bilimlarni

o'rgatish, ulardagi muhim qoidalarni tushunish va arifmetik amallarni o'rganishga yordam berishdir. Bundan tashqari asarda metodlar, formulalar va tushunchalar ko'rsatilganligi uchun, o'quvchilar uning asosiy muhiti va tahlil qilish usullari ham kutilgan hamda o'quvchilar tahlilni tafakkur qilish orqali bajarishlari, amalda qo'llashga oid nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etgan.

Alan X.Schoenfeld matematika ta'limi bo'yicha taniqli tadqiqotchi bo'lib, bu sohaga katta hissa qo'shgan. Schoenfeld o'zining "Matematik fikrlash va muammolarni hal qilish" kitobida matematik tafakkurning turli jihatlarini o'rganadi va muammolarni hal qilishning samarali strategiyalari haqida tushuncha beradi. Schoenfeld o'quvchilarda matematik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, matematik tafakkur oddiy hisoblashdan tashqariga chiqadi va matematik tushunchalarni chuqur tushunishni, bu tushunchalarni turli kontekstlarda qo'llash qobiliyatini, shuningdek, mulohaza yuritish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Schoenfeld o'quvchilarga matematik muammolarni hal qilishda yordam beradigan turli muammolarni hal qilish usullari va yondashuvlarini o'rganadi. U muammoni hal qilishda qat'iyatlilik, moslashuvchanlik va ijodkorlikning muhimligini ta'kidlaydi⁷.

Y.I.Perelmanning matematik tafakkurga yondashuvi chuqur sezgi, qat'iy fikrlash va asosiy tushunchalarni tushunishga katta e'tibor berish bilan ajralib turardi. U matematik dalillarda soddalik va nafislik kuchiga ishongan, ko'pincha qisqacha tushuntirishlar izlagan va keraksiz murakkablikdan qochgan. U matematik hamjamiyat va uning atrofidagi madaniyatga nisbatan tanqidiy nuqtayi nazarga ega edi. Umuman olganda, Perelmanning matematik fikrlash haqidagi qarashlari chuqur tushunish, soddalik va o'ziga xoslik muhimligini ta'kidlaydi. U murakkab muammolarni hal qilishda sezgi va innovatsion yondashuvlarning kuchini namoyish etgan⁸.

M.E.Jumayevning fikricha, matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiyta'savvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. O'qituvchining vazifasi - bolalarga

5073447.

4 "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.07.2019 yildagi PQ-4387-sonli qarori. - <https://lex.uz/docs/4409503>.

5 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>.

6 Riedweg C. (2005). Pythagoras: His Life, Teaching, and Influence. (W.H.Kluback & M.E.Pomeroy, Trans.). Cornell University Press. (Original work published 2002)

7 Alan H.Schoenfeld. (2016). Mathematical Thinking and Problem Solving (Studies in Mathematical Thinking and Learning Series) Mahwah, New Jersey, USA.

8 Y.I.Perelman. Qiziqarli matematika. - T: Sharq. - 2016. - Tarjimon: A.T.Xo'jaxonov.

matematikani o'qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat⁹.

Matematik tafakkur qilish kompetensiyasi ilmiy pedagogik muammo sifatida qaralishining bir necha sabablarini keltirib o'tamiz:

1. Bugungi kungacha bo'lgan darsliklarda mavzuga oid berilgan nazariy ma'lumotlarning murakkab ifodalanganligi;

2. O'quvchilar bilish faolligi ta'minlanmasligi oqibatida fanlarni ongli o'zlashtira olmasligi;

3. Umumta'lim maktabi bitiruvchilari o'zlari qiziqqan soha bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini to'g'ri tanlay olmasligi;

4. O'quvchilarda nazariy bilimlar va formulalarni yodlash asosida foydalanish odatining shakllanganligi;

5. Maktab o'qituvchisining o'quvchilarni muayyan kompetensiyalariga muvofiq yo'naltira olmaganligi;

6. O'quvchilarning matematik tafakkur qilish kompetensiyalari rivojlanmaganligi;

7. Matematik tafakkur qilish kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy mashg'ulotlarning tizimli rejalashtirilmaganligi.

Matematik tafakkur qilish borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar XXI asr texnika va texnologiyaning taraqqiyoti, insonlarning yashash tarzini osonlashtirish imkoniyati tobora ortib borayotgan davrida, talablarga deyarli javob bera olmaydi deb hisoblaymiz. Chunki yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda o'quvchilar uchun juda ko'p nazariy va murakkab ilmiy ma'lumotlardan foydalanib, ularni yodlab olish orqali foydalanishga urg'u berilgan. Bu esa masala va misollarni bajarishda o'quvchilar uchun turli xil noqulayliklar, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari tobora so'nib boradi. Bunday holat pedagogik muammo sifatida qaraladi. Bugungi kunning o'quvchisi bu kabi murakkab nazariy bilimlardan tezda zerikadi, shu tufayli o'quvchilarning fikrlash, tafakkur qilish kabi kompetensiyalarini rivojlantiruvchi konkret usullarni ishlab chiqish kerak, ya'ni muammolarni hal etish uchun ushbu mavzuga oid yangi ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish zaruriyati kelib chiqadi. Buning uchun o'quvchilarni yodlama variantdan voz kechirib, tafakkur qilish orqali hayotiy murakkab vaziyatlardan oson chiqib keta olish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi amaliy ko'nikma va malakalarga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqola davomida matematik tafakkur qilish orqali masalalarni hal etishning ayrim

usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Avvalo, tafakkur so'zining ma'nosiga e'tibor qaratsak. Tafakkur atrof-mushitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavoysita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy boqlanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir¹⁰.

Fiziologiya asoslaridan ma'lumki, miya yarim sharlari aqliy faoliyat uchun javobgardir. Dominant o'ng yarim sharda bo'lgan odamlar ko'proq hissiyotga ega, ular xayoliy, mavhum fikrlash bilan farq qiladi. Bunday shaxslar insonparvarlik fikriga ega. Agar chap yarim sharda hukmronlik qilsa, u kishi ko'proq amaliy, analitik fikrlash va matematik tafakkurga ega. Umuman olganda, inson tafakkurining 5 ta asosiy toifasi mavjud:

- amaliy;
- badiiy va obrazli;
- gumanitar;
- matematik (analitik);
- universal (sintetik) tafakkur.

Mavzu nomida ko'rsatilganidek, maktab o'quvchilari uchun rivojlantirilishi zarur bo'lgan tafakkur turlaridan eng keng tarqalgani matematik tafakkur deb hisoblaymiz. Matematik (analitik) tafakkur qilish amaliy fikrlashga juda o'xshaydi¹¹.

Matematik tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning matematikani chuqur o'rganishida muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning fanni o'rganishda, muammolarni yechishda va muhim masalalarni hal etishda tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Quyida ayrim matematik tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullarni taklif qilmoqchimiz:

1. Muammolarni yechish jarayonida tafakkur qilishni rag'batlantirish: Matematik muammolarni yechishda, o'quvchilar bir necha muammolarga duch kelishi va ularni yechishda tafakkur qilish qobiliyatlarini oson hal qilishi mumkinligini ularga tushuntirish kerak. Shuningdek, bu qobiliyatlarni rivojlantirish muhimdir. O'quvchilarga barcha muammolarni yechishda tafakkur qilish qobiliyatlarining rivojlanishi uchun ularning fikrlarini o'rganish va muammolarga qarshi kurasha olishini rag'batlantirish kerak. Bu muammolarni yechish jarayonida o'quvchilarga o'z fikrini ifodalash, muammolarni yechishning har bir bosqichida o'quvchilarning fikrini so'rash va keng ko'lamdagi muammolarni ko'rib chiqish hamda ularning fikrlarini va izohlarini inobatga olish, kerak bo'lsa qarorlarni birgalikda qabul qilish orqali ham o'quvchilarning tafakkur

9 M.E.Jumayev. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T: Fan va texnologiya. - 2018. - 350 b.

10 G'oziyev E. Umumiy psixologiya psixologiya mutaxassisligi uchun. O'quv qo'llanma II kitob. - T, 2002. - 93 b.

11 "Introduction to Mathematical Thinking" by Keith Devlin. 2012.

qilish qobiliyatlarini yetarlicha rag'batlantirish va rivojlantirish imkon mavjud.

2. Matematik muammolarni o'qib eshittirish: Matematik muammolarni o'qish ham o'quvchilarning barcha muammolarni yechishda teran tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usulda o'quvchilar o'zaro erkin fikrlashish, bir-birlarini tinglash va o'zlariga xos o'rganish usullariga mos keladigan yondashuvlar bilan tanishib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Matematik muammolarni yechish uchun noodatiy usullarni topish: Matematik savollar va muammolarni yechish uchun noodatiy usullar ham o'quvchilarga muammolarni yechishda tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarga muammolarni yechishda yangicha yondashuvlar, ijodiy (kreativ) fikrlash, o'zlarini namoyish etish va liderlik xususiyatlarini oshkor qilishga yo'naltiradi.

4. Tahlil qilish: Matematik tahlil qilish yordamida o'quvchilar matematik muammolarni sinchiklab o'rganadilar va ularni yechish yo'llari haqida tafakkur qilishni o'rganadilar. Tahlil qilish bilan, o'quvchilarning matematik muammolarni aniqroq tushunishi, yechishi tezlashadi va aniq javoblarni tafakkur qilish orqali qabul qiladilar, shuningdek, bu qobiliyatlar rivojlanib boradi.

5. Matematik bilimlarni faol mushohada orqali o'zlashtirish:

Berilgan masaladagi mavjud muammolarning turli xilligini hisobga olinsa, bu muammolarga kreativ yondashish orqali bir necha mulohazali savollar tug'iladi, albatta o'quvchilar bu savollarga jiddiy muammo sifatida qarashi kerak, shuningdek, har bir o'quvchi ongida paydo bo'lgan savollarni boshqa o'quvchilarga og'zaki tarzda aytishi va o'qib berishi shart. Ya'ni o'quvchilar matematik bilimlarni faol mushohada orqali aniqroq, kengroq va mukammal tarzda mayda elementlarigacha e'tibor qilgan holda tushunib oladilar, shuningdek, o'zining qanchalik fikr yuritishini va qanday tafakkur qilishini tengdoshlariga taqqoslash yordamida baholashni o'rganadilar. Bu usul orqali o'quvchi har bir tengdoshining shaxs sifatida fikrni hurmat qilishni va ularni diqqat bilan tinglashni o'rganadilar. Bu qulay usul yordamida muammoning yechimini topish ham bir muncha osonlashadi. Mushohada qilish o'quvchilarga matematik muammolarni o'rganishda va hal etishdagi asosiy vazifalardan biridir. Shuningdek, o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifodalash, matematik savollar va muammolarni o'qish va yechish uchun

noana'naviy usullarni topish, o'zlari ko'nikma hosil qilgan usullarga mos keladigan yondashuvlar bilan qayta tanishib chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

6. Har bir mashg'ulotda intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi turli xil interaktiv usullardan foydalanish. Bu usul o'quvchilarni tafakkur qilishga, fikrlashga, fanga qiziqishlarini oshirishga, tahlil qilishga, isbot qilishga, xulosa qilishga, darsda faol bo'lishga, sog'lom raqobatlashishga, bir-birlari bilan murosam qilishga va jamoa bo'lib ishlashiga yordam beradi.

Muntazam ravishda shu va boshqa interaktiv usullardan va muammolarni, masalalarni hal etishda matematik tafakkur qilish qobiliyatlaridan foydalanish ko'p hollarda yuqori natijalarga erishishga olib keladi. Dars jarayonlarida o'quvchilarga bunday usuldagi yondashuvlar kerak, albatta. Shu orinda, mashhur mutafakkir Edvard de Bononing ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilishda turli xil fikrlash texnikasi va usullarini rivojlantirishga qaratilgan mashhur usullaridan biri bilan yaqindan tanishishingiz mumkin. "Oltita fikrlash qalpoqlari" deb nomlangan, Bu usul turli xil fikrlash shlyapalari yordamida muammolarni hal qilishga qaratilgan. Har bir shlyapa fikrlashga har xil yondashuvni ifodalaydi. Olti xil shlyapa bor: oq shapka (bilimga asoslangan fikrlash), qizil shapka (hissiy fikrlash), qora shapka (tanqidiy fikrlash), sariq shapka (ijobiy fikrlash), yashil shapka (ijodiy fikrlash) va ko'k shapka (boshqaruv fikrlash)¹².

Bunday usullar fikrlash qobiliyatini takomillashtirish borasidagi ishlarning aniq bir misolidir. Har bir muammoni hal qilish jarayoni uchun mo'ljallangan bunday qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish o'quvchining ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini keskin oshirishga katta sabab bo'la oladi.

Ta'lim samaradorligiga erishishda maktabda olib borilayotgan darslarning sifati va mazmuni alohida ahamiyat kasb etishi hammaga ma'lum. Shunday ekan, biz maktabdagi darslarning tashkil etilishiga katta e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan, o'quvchilarning matematik tafakkur qilish kompetensiyalarini rivojlantirish ham maktabda pedagogik muammo sifatida qaraladi. Bu yerda "Nima uchun?" degan savol o'rinni bo'ladi, albatta. Nafaqat, matematika, barcha fanlar yuzasidan olib qaraydigan bo'lsak, maktab o'quvchilari fanlarni darsda to'liq o'zlashtira olmaydilar va bu jarayon o'quvchilar to maktabni biturgunga qadar davom etadi. Shu asnodan o'quvchi

¹² De Bono E. (1985). *Six Thinking Hats*. Little, Brown and Company.

maktabni bitirib ketaveradi. Natija esa ko'p kuttirmaydi. Yurtimizda har yili yoz mavsumida o'tkaziladigan, ana'naviy tarzda davom etib kelayotgan oliy ta'limga kirish imtihonlarining natijalari masalaga ancha oydinlik kiritadi desak, to'g'ri bo'ladi. Nima demoqchi bo'layotganimizni anglash qiyin emas, buning uchun shunchaki tafakkur qilish yetarlidir. Masalaga yaqinroq yondashadigan bo'lsak, quyidagi savollar va fikrlar tug'ulishi aniq:

-maktab bitiruvchilarning necha foizi o'z qiziqishlariga mos oliy ta'lim muassasasini to'g'ri tanlamoqda;

-o'quvchilarning umumta'lim maktabidan olgan bilimlari va xususiy o'quv markazlaridan olgan bilimlarini taqqoslab bo'ladimi;

-nima uchun ota-onalar farzandlarini qaysi maktabga berishi haqida o'ylab qolishdi ya'ni maktab-maktabdan juda katta farq qilmoqda;

-maktab o'quvchilarning tafakkur qilish kompetensiyalarini rivojlantirish usullari bo'yicha muayyan metodik qo'llanmalar mavjudmi.

Zamonimiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asrida, fan, ta'lim, texnik, telekommunikatsiyalar va barcha sohalarda yangilanish va o'zgarishlar tobora rivojlanib borayotganinig yaqqol guvohi bo'lib turibmiz. Bu jarayonlar umumta'lim maktablariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ya'ni bugungi kun o'quvchilarning e'tiborini ta'limga jalb etish ham aslida bir muammo sifatida qaralmoqda. Sababi, o'quvchilarning fikrini, oy-hayollarini chalg'uvchi vositalar, ijtimoiy tarmoqlar, internet o'yinlari, bolalikdan pul topishga ishtiyoqning ortib borishi, kitob o'qishga qiziqmaslik, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi, ayrim ota-onalarning, o'qituvchilarning hurmatini joyiga qo'ymaslik oqibatlar va boshqalar, ularni osongina tarzda maktabdan, ta'lim olishdan, tafakkur qilishdan uzoqlashtirib qo'ymoqda. Shu tufayli ham biz pedagoglar jamoasi ilm-ziyosini taratuvchi, ma'naviyat va madaniyat odoblarini o'rgatuvchi sifatida jonkuyar bo'lmog'imiz lozim.

O'quvchilarning maktabda ta'lim olishiga, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab har bir fanni o'qitishga qaratilgan tubdan o'zgarishlar, yangi o'quv darsliklari ishlab chiqildi. Shu jumladan, ushbu maqola ham o'quvchilarning matematik tafakkur qilish kompetensiyasini rivojlantirishdagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, o'quvchining har jihatdan barkamol shaxs bo'lib, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida umumta'lim

maktablarida o'qitiladigan fanlarning ahamiyati juda katta. Jumladan, matematika fani misolida qarasaq, matematik elementlar bolalarga bog'cha yoshidan boshlab o'rgatilib, bu bilimlar umumta'lim maktabi, akademik litsey va keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiriladi va butun umr davomida ularga xizmat qiladi. Vaqtlar o'tgani sayin matematikaning hayotdagi o'rne kengayib, tarmoqlari ham ko'payib bormoqda. Bugungi kunga kelib esa turmush tarzimizni matematikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Umumta'lim maktablarining dars yuklamalariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, darsning eng katta soat matematika faniga ajratilgan. O'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda matematika fanining o'rne beqiyosdir. Yanada aniqroq qilib aytsak, bugungi kunda matematik tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarga matematik muammolarni yechishda o'zlarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir nechta usullardan foydalanishni talab qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan matematik tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullar matematik muammolarni yechishda o'quvchilarni keng fikrlashga va erkin sozlashga o'rgatadi, shuningdek, ularni matematik muammolarni tahlil qilishga, tafakkur qilishga, matematik interaktiv asosiy faoliyatlar bilan ishlashga rag'batlantiradi hamda matematikani chuqurroq o'rganishiga keng imkoniyatlar yaratadi va o'quvchilarga matematik tafakkur qilish qobiliyatlarini yuksak darajaga olib chiqadi deb ayta olamiz. Ayniqsa, yuqorida zikr etilgan eng oxirgi usulni qo'llash, ya'ni "Har bir darsda turli xil o'yin, krossvord, boshqotirma va interaktiv metodlardan foydalanish" Finlandiya ta'limida keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi va o'quvchilarning aynan matematik tafakkur qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ammo yurtimizda bu usul keng tarqalmagan. Chunki, o'qituvchilar faqat yilda ikki marta o'tadigan ochiq darslardagina bunday faollikni qo'llaydilar. Biz taklif qilmoqchi bo'lgan usul bu - o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish uchun har bir o'qituvchi, har bir darsda standart dars o'tish usulidan (davomat olish, uy vazifasini so'rash, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, baholash va uyga vazifa berish) voz kechib, yangicha yondashuv asosida interaktiv usullar, pazllardan, enerjayzerlar va o'yinlardan tashkil topgan darslarni tashkil etishi lozim. Mavzuni tushuntirish davomida aynan hayotiy misollardan foydalanishi, kerak bo'lsa, savollar yordamida bu jarayonga o'quvchilarning o'zlari ham qatnashishlarini ta'minlash kerak.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarni raqamlar bilan tanishtirishda 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni va 0 ni ularga ayni hayotiy misollar asosida tushuntirish juda oson. 1 raqami misolida qarasaq, bizni yaratgan zot bitta, oy, quyosh, ona, ota va vatan bitta, yashash uchun hayot insonga bir marta beriladi kabi bizni o'rab turgan atrof-muhitdagi muayyan misollardan foydalanib tushuntirilsa, 1 raqami o'quvchilarning ongida tanho degan ma'noda abadiy saqlanib qoladi. "Musbat va manfiy sonlar" mavzusini tushuntirish jarayonida, hayotdagi insonlarning ijobiy va salbiy xislatlarini misol qilish, "Hosila" mavzusini o'tishda toza paxtadan tayyorlangan kiyimlarning eng avval qanday jarayonni bosib o'tganligi haqida tushuntirish, "Kvadrat funksiyani grafigi" mavzusida elektr simlari, arg'imchoq, "EKUB va EKUK" mavzusida oila a'zolari, ota-onalar va farzandlarning umumiy xislatlarini, "Aylana va doira" mavzusida avtomobil g'ildiraklari, koptok, tarvuzni misol keltirish kabilardan foydalanib har bir mavzuni hayotga aloqador ekanligini va nima uchun kerakligini tushuntirish orqali o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Bugungi kunda dunyo miqyosida PISA va PIRLS baholash dasturlarida eng yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgan, o'z ta'lim tizimida muayyan bir tizimni yarata olgan va boshqa davlatlarga namuna bo'layotgan fin ta'limi tajribasidan foydalanish yurtimizdagi 10000 dan ziyod umumta'lim maktablarida o'quvchilar ortasidagi tenglikni, sog'lom muhitni va ta'lim olishdagi muqobillikni yaratishga zamin bo'la oladi. Aynan qanday interaktiv metodlarni foydalanish haqidagi ma'lumotlarni keyingi maqolalarda yoritib boramiz.

1. Matematik fikrlash qobiliyatlari o'rta maktab o'quvchilarning o'quv va kasbiy muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, murakkab masalalarni yechish, matematik tushunchalarni turli real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

2. Matematik tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo bo'lib, diqqat va izlanishni talab etadi. Bu o'quvchilarning matematikani qanday o'rganishni tushunish, samarali o'qitish strategiyalarini aniqlash va ijobiy ta'lim muhitini yaratishni o'z ichiga oladi.

3. Umumta'lim maktablari o'quvchilarning matematik fikrlash ko'nikmalarining hozirgi holati qoniqarli emas. Ko'pgina o'quvchilar matematik tushunchalar bilan kurashadilar va matematik kontekstlarda moslashuvchan va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega emaslar.

4. Matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchilarning o'zni katta. Ularning pedagogik amaliyotlari, o'qitish usullari va sinfdagi muhit o'quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

5. Matematika fanini o'qitishda texnologiya va real hayotdagi vaziyatlarni integratsiyalash o'quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatini oshirishi mumkin. Interaktiv dasturiy ta'minot, o'quv o'yinlari va matematik modellashtirish qiziqarli o'rganish tajribasini taqdim etishi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

6. Hamkorlikda o'rganish va tengdoshlarning o'zarota'sirimatematikfikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali strategiyasidir. Guruhdagi muhokamalar, muammoli vazifalar va hamkorlikdagi loyihalar o'quvchilarni fikr almashishga, o'z mulohazalarini tushuntirishga va bir-biridan o'rganishga undaydi.

1. Matematika fani o'qituvchilarning matematik fikrlash ko'nikmalari va samarali o'qitish strategiyalari haqidagi tushunchalarini oshirish uchun ularning malakasini oshirish imkoniyatlarini taqdim etish. Seminarlar va o'quv dasturlari matematika fani bo'yicha o'quvchilarning faolligini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bilim va vositalar bilan jihozlanishi kerak.

2. Matematika o'quv dasturiga masala yechish va ochiq topshiriqlarni kiritish. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, matematik tushunchalarni real vaziyatlarda qo'llashga va muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi.

3. Matematika darslarida texnologiyadan foydalanishni rag'batlantirish. O'quvchilarga matematik tushunchalarni o'rganish, mavhum g'oyalarni tasavvur qilish va dinamik o'rganish tajribasi bilan shug'ullanish imkoniyatini berish uchun interaktiv dasturiy ta'minot, ta'lim ilovalari va onlayn resurslardan foydalanish kerak.

4. O'quvchilar ishtirokini qadrlaydigan, samarali muhokamalarni rag'batlantiradigan va xatolarni o'rganish imkoniyati sifatida qabul qiladigan ijobiy sinf muhitini yaratish va o'quvchilar o'z fikrlarini baham ko'rishlari, savollar berishlari va matematik fikrlashda tavakkal qilishlari mumkin bo'lgan xavfsiz joy yaratish.

5. Matematika darslariga guruhlarda ishlash, o'rtoqlar ortasida repetitorlik va hamkorlikdagi loyihalarni kiritish orqali hamkorlikda o'rganishni rag'batlantirish. Bu mashg'ulotlar tengdoshlarning o'zaro munosabatini osonlashtiradi, o'quvchilarni fikrlashlarini tushuntirishga undaydi va

matematik tushunchalarni tushunishlarini kuchaytiradi.

6. Matematik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali ta'lim yondashuvlari va tadbirlari bo'yicha keyingi tadqiqotlarni o'tkazish. O'quvchilar va o'qituvchilarning empirik dalillari va fikr-mulohazalari asosida o'qitish amaliyotini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish.

Ushbu tavsiyalarni hayotga tatbiq etish va matematik fikrlash qobiliyatlarining muhimligini anglash orqali o'qituvchilar umumta'lim maktablari o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashishi, ularni kelajakdagi o'quv va kasbiy muvaffaqiyatlarga tayyorlashi mumkin.

O'QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHLATLARI

Xurshid Avazbekovich Olimov - akademik litsey o'qituvchisi, Toshkent Farmatsevtika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning kognitiv faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlari borasida olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili borasida fikr va mulohazalar keltirilgan. Biologiya ta'limi doirasida olib borilgan tadqiqot zamonaviy axborotlashgan jamiyat va ta'lim tizimida metodik yondashuvlarning samaradorligi va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье представлены мнения и суждения по анализу результатов проведенных исследований, основанных на подходе к познавательной деятельности учащихся как проблеме психолого-педагогической науки. Исследование, проводимое в рамках преподавания биологии, направлено на выявление эффективности и особенностей методических подходов в современном информативном обществе и системе образования.

Abstract: This article presents opinions and judgments on the analysis of the results of the conducted research based on the approach to the cognitive activity of students as a problem of psychological and pedagogical science. The research conducted within the framework of biology teaching is aimed at identifying the effectiveness and features of methodological approaches in modern informative society and the education system.

Kalit so'zlar: kognitiv faoliyat, kompetentsiya, pedagogik yondashuvlar, tahlil qilish, reproduktiv metodlar, produktiv metodlar.

Ключевые слова: познавательная деятельность, компетентность, педагогические подходы, анализ, репродуктивные методы, продуктивные методы.

Keywords: cognitive activity, competence, pedagogical approaches, analysis, reproductive methods, productive methods.

Umumta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, psixologik va pedagogik jihatdan muhim va ko'p qirrali muammolardan biri hisoblanadi. U olamning ilmiy manzarasini yaratish, tabiiy savodxonlikni hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning zamonaviy sharoitida biologiya fanini o'qitish muvaffaqiyatining asosiy katalizatori sifatida shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga mos keladi. Yurtimizda ta'lim sifatini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim jarayonida natijaviylikka erishish bo'yicha o'quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurni o'stirish uchun shart

– sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilanganligi ham bu sohaning naqadar dolzarbligini aks ettiradi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta'limning quyidagi paradigmalari kuzatiladi: kognitiv, shaxsga yo'naltirilgan, funksional, madaniy^{1,2}.

Pedagogik jihatdan kognitiv paradigma "kognitiv" tushunchasidan kelib chiqadigan kognitiv va fikrlash jarayoniga tegishli bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi (lot. cognito-fikr). Biologiya fanini o'qitishda bilimlarni egallash, o'quvchilarning kognitiv va aqliy qobiliyatlarini faollashtirishga yordam

¹ Архангельская Е. В. Развитие информационной компетентности учащихся в условиях новых образовательных стандартов. Журнал "Информатика и образование", 2018.
² Рахматullaева А. Q. Biologiyani o'qitishda o'qituvchilar iqtidorini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish (8-9 sinflari misolida): Avtoref. dis. ... ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2022. -45 b.

beradigan ko'nikma va malakalarni shakllanishi bilan birga ro'yobga chiqadi. O'qituvchi va o'quv kitoblari asosiy bilim manbai hisoblanib, o'quvchi ta'lim obyekti sifatida namoyon bo'ladi, bu yerda uning asosiy maqsadi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan iborat bo'ladi. O'quvchining shaxsga yo'naltirilgan fazilatlarini, agar u tashabbuskorlik va o'zini o'zi boshqarish xususiyatiga ega bo'lsa kognitiv-anglash motivatsiyani kuchaytirishda amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda, umumta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitish dars va darsdan tashqari vaqtlarda materiallarini tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish orqali nazariy bilimlarning amaliy faoliyatlar orqali mustahkamlash ko'rinishida amalga oshiriladi. Kognitiv paradigma "bilim" asosi bo'lib xizmat qiladi, u imperativ va an'anaviydir. Bu o'quv predmetining "fikir laboratoriyasi" bo'lib, kognitiv jarayonlarni shakllantirishga, fikrlash va xotirani rivojlantirishga qaratilgan.

"Yaxshi o'qituvchi haqiqatni topishga yordam beradi, yomon esa uni taqdim etadi" deb ta'kidlaydi, mashhur nemis demokrat o'qituvchisi, didaktikada ta'limni rivojlantirish nazariyasining asoschisi A. Disterveg (1790-1866)³. Zamonaviy ta'lim talablaridan biri ham ta'lim oluvchilarning faolligini, tadqiqotchilik, ijodkorlik qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Pedagogika fanining kognitiv yo'nalishi aqliy hodisalar kontekstida fikrlash jarayoni, inson tafakkuri va uning ongi muammolari bilan shug'ullanadi. Bu yerda, axborotlarni texnologik qo'llab-quvvatlash orqali qabul qilish va uzatish, tinglash va gapirish komponentlarini o'zaro ta'siri natijasida bilim egallash jarayoni nazarda tutiladi. Bu insonning atrofdagi voqelikni bilishi va o'rganilayotgan bilimlar yordamida dunyoning ilmiy manzarasini aks ettirishning yuqori standarti hisoblanadi.

Kognitiv jarayonni o'rganish sohasidagi kognitiv yondashuv kognitiv psixologiyani insonning intellektual rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan tashqi dunyo obyektlarining vakilliklarini ajratib ko'rsatish orqali o'z doirasini belgilaydigan mustaqil bilim sohasiga ajratishga olib keldi. Shunday qilib, kognitiv psixologiya inson dunyo haqida qanday ma'lumot oladi, u odamga qanday taqdim etiladi, u xotirada qanday saqlanadi va bilimga aylanadi, bu bilimlarning inson xatti-harakatlariga ta'siri qanday bo'ladi kabi masalalarni o'rganiladi.

Psixologiya nuqtayi nazaridan "kognitiv" bu ma'lumotni qayta ishlashning o'ziga xos tizimi bo'lib, unda shaxsning intellektual

imkoniyatlari uning ichki reaksiyasi va aqliy salohiyati orqali ko'rib chiqiladi.

V.Z.Demyankovning fikricha, yangi ilmiy meta-til 1960-yillarda axborot nazariyasi ta'siri ostida kognitiv psixologiya doirasida yaratilgan. Umumiy g'oya quyidagi pozitsiyada o'zgartirildi: organizmlar ichki tasavvurlardan foydalanadi va ushbu tasavvurlar bo'yicha "hisoblash" operatsiyalarini amalga oshiradi. Kognitsiya-bu zamonaviy kompyuterlarga o'xshash tarzda tartibga solinadigan vakillik manipulyatsiyasi obyekti hisoblanadi.

Hozirgi kunda kognitiv pedagogikada uning asosiy postulatlarini aniq talqin qilish rivojlandi, u qoidalarni o'zlashtirish va ma'lumotni aqliy anglash jarayonida aniq namoyon bo'ladi. Va nihoyat, "bilim" va "kognitsiya" tushunchalarining ta'rifiga nuqta qo'yildi.

Tadqiqotchilar "kognitsiya" atamasi bilan uning "aql", "fikrlash", "ong" kabi muhim tarkibiy qismlarini asosiy komponent – "bilim"ning hal qiluvchi ishtiroki bilan bog'lay boshladilar. Psixolog olimlar, shuningdek, "kognitsiya" tushunchasini konkretlashtirish uchun bir qator ijobiy qo'shimchalar kiritdilar, shu jumladan, uning mazmunida "e'tibor, idrok, tanish, eslash, aqliy tasvirlar" va boshqalar aks ettirildi. Aynan shu holat kognitiv va axborot parametrlariga ega bo'lgan odamning "intellektual laboratoriyasi" "kognitsiya" ta'rifida faol ishtirok etadi degan fikrni keltirib chiqardi. Ushbu noyob kognitiv operatsiyalarga "aks ettirish, tasniqlash, taqqoslash, fantaziya, zukkolik" kabi kognitiv atributlar kiradi.

"Kognitsiya" va "bilim" tushunchalarining mohiyatini tahlil qilish ularni "jarayon" va "natija" sifatida farqlash kerak degan fikrga olib keldi. Bilim ma'lumotlarning "vakili" va kognitiv-aqliy faoliyat natijasidir. Kognitsiya, sodda qilib aytganda, bilim va fikrning "mahsulotlari" dan foydalanadigan ma'lum bir protsedura bo'lib, axborotlarni qabul qilish va tarqatishning haqiqiy jarayonida "kognitsiya" bilim bilan ishlaydi va o'z nuqtayi nazari va fikri shaklida umumlashtiruvchi xulosa chiqaradi.

Jan-Fransua Le to'g'ri ta'kidlaganidek, "bilim" to'g'ridan - to'g'ri ma'lumot beruvchi chiziq, "kognitsiya" esa bilimlarni yangilash maydonchasidir. Yangi ta'riflarning barchasida kognitiv jarayon ma'lum bir axborot holati bo'yicha yangi talqinni keltirib chiqaradi va uni aniq asoslaydi. Ammo J.F.Le ni ko'rsatganidek, bu harakatlar haqiqatni aniqlashga qaratilgan emas. Fikrlash subyekti o'zi uchun ichki maqbul asosni ishlab chiqish istagini kuzatadi.

Bu shuni ko'rsatadiki, semantik jihatdan "bilim" va "kognitsiya" tushunchalari o'rtasida "Xitoy devori" ni o'rnatish qiyin, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo bir xil o'lchov emas.

Yurtimizda umumta'lim maktablarida biologiya o'qitishning kognitiv modelini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini ijodiy vazifalarni sinovdan o'tkazish, o'rganilayotgan axborotlar yordamida o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish shaklida birlashtirish masalasini ko'taradi. Bu o'quv va kognitiv muammolarni hal qilish uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'limga to'g'ridan-to'g'ri yo'l hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi amaliyotchi olimlar V.F.Shatalov, Sh.A.Amonashvili, E.N.Ilyin, S.N.Lisenkova, I.P.Volkov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlarning alohida hissasi shundaki, ular muammoli va dasturlashtirilgan o'qitish, o'quv jarayonini optimallashtirish, ta'limning rivojlanish prinsipini amalga oshirish bilan bog'liq g'oyalarni birlashtirish uchun tadqiqot maydonchasini yaratdilar. Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan amaliy yo'llar o'quvchilarning o'qishdagi faolligi va mustaqilligini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Bundan tashqari, tizimni shakllantirish omili olimlar tomonidan o'quvchining o'ziga xos shaxsiyati orqali ko'rib chiqilgan.

O'tgan asrning 90-yillari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zarurligini asoslashga qaratilgan uslubiy ishlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu borada yetakchilik qilgan N.V.Alekseyev, D.A.Beluxin, V.V.Davidov, V.V.Serikov, P.G.Shedrovitskiy, I.S.Yakimanskiy⁴ kabi tadqiqotchilarning faoliyati alohida o'rin tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining o'ziga xos xususiyati o'qituvchi va o'quv subyekti (o'quvchi) o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish o'rtasidagi subyekt-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan farqni alohida ta'kidlash

kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim har bir o'quv predmetining o'zlashtirilish darajasini individual ko'rsatkichi bilan ifodalanadi. Bu jarayon an'anaviy ta'limda o'qituvchidan o'quvchiga mavjud pedagogik munosabatlar darajasida kuzatiladi.

An'anaviy ta'lim



Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

1- rasm. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga ko'ra munosabatlari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchidan o'qituvchiga, o'quvchidan o'quvchiga yo'naltirilgan faol munosabatlar ham yo'lga qo'yiladi.

Kognitiv qobiliyatga asoslangan kompetensiya fikrlash qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, nafaqat o'quv jarayoniga, balki umumiy bilish, anglash sohasiga ta'sir qiladi. Kognitiv kompetensiyaning bu tushunchasi bilimlarning falsafiy nuqtayi nazariga mos kelib, shaxslarning ijodiy faoliyatining ijtimoiy-tarixiy jarayoni, ularning bilimlarini kengaytirish, o'quv va ijodiy harakatlarning maqsadlari va motivlarining paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi. Biologiya ta'limini tashkil etishda o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar integratsiyasi asosida yaxlit tizim sifatida shakllantirish, maktab o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatidagi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ilmiy savodxonlik va amaliy ko'nikmalarining integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan resurslardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi.

³ Umarova R.U. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish: Avtoref. dis. ... ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2023. -50 b.

⁴ Yuldashevich I.A., Asamovich K.M., & Ergashovich S.I. (2023). Eksperimental tajribalar yordamida o'quvchilarda tadqiqotchilik, amaliy va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish. Innovation: The Journal of Social Sciences and Researches, 1(5), 59-67.

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO'NALISHI TALABALARIGA MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISHNING MAZMUNINI TUSHUNTIRISH

Muhammad-Anasxon Xakimjon o'g'li Ikromov --p.f.b.f.d.,PhD, Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga muhandislik kompyuter grafikasini o'qitish va uning asosiy mazmunini tanishtirishdan iborat. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni tayyorlash bo'yicha kasbiy ta'lim dasturiga muvofiq, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalarini tavsiflovchi muayyan malaka xususiyatlarini aniqlash mumkinligi haqidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация: Целью данной статьи является обучение инженерной компьютерной графике и ознакомление с ее основным содержанием студентов факультетов изобразительного искусства и инженерной графики. В соответствии с профессиональной образовательной программой подготовки студентов по направлению "Изобразительное искусство и инженерная графика" конкретной квалификацией, характеризующей знания, умения и навыки будущего учителя изобразительного искусства, являются мнения и комментарии о возможности определения характеристик. Заявил.

Abstract: This article aims to teach engineering computer graphics and introduce its main content to students of fine arts and engineering graphics. In accordance with the professional education program for training students in the field of "Fine arts and engineering graphics", a specific qualification describing the knowledge, skills and abilities of a future teacher of fine arts opinions and comments about the possibility to determine the characteristics are stated.

Калит so'zlar: tasviriy san'at, grafika, talaba, tushuncha, muhandislik, mazmun, g'oya, ta'lim, tarbiya, fan, innovatsiya.

Ключевые слова: изобразительное искусство, графика, студент, понятие, инженерия, содержание, идея, образование, обучение, наука, инновации.

Keywords: visual arts, graphics, student, concept, engineering, content, idea, concept, education, training, science, innovation.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, unga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida kasbiy faoliyat tabiatini o'zgarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis tayyorlashga yondashuv o'zgardir. Shuni ta'kidlash kerakki, keyingi davrda badiiy faoliyat sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi hamda interer dizayni, web-dizayn kabi yangi badiiy san'at turlarining paydo bo'lishi bilan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi kasbiy faoliyatining mavjud tarkibida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar oliy ta'lim tizimida ba'zi yangi talablarni keltirib chiqaradi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-soni, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlarining qabul qilinishi mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yilning 21-aprelida imzolangan "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-sonli qarori ushbu yo'nalishdagi yana bir muhim hujjat bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qarorda iqtidorli yosh professional san'at namoyondalarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta'lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta'minlash, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mutaxassisning modeli uning bajariladigan ishlarining to'liq tavsifi bilan belgilanadi. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni tayyorlash bo'yicha kasbiy ta'lim dasturiga muvofiq, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalarini tavsiflovchi muayyan malaka xususiyatlarini aniqlash mumkin.

"Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar" blokida tasviriy san'at o'qituvchisi uchun majburiy minimal ta'lim mazmuni axborotni yig'ish, uzatish, qayta ishlash va to'plash jarayonlarining umumiy xususiyatlari, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan "Ta'limda axborot texnologiyalari" va "Oliy matematika" kursini o'rganishni nazarda tutadi. "Ta'limda axborot texnologiyalari" va "Oliy matematika" kurslari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini o'qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo'yicha barcha keyingi o'quv-uslubiy tadbirlar majmuasini qo'llab-quvvatlaydigan asosiy kurs hisoblanadi. Bu kurslar ta'limning birinchi darajasiga tegishli bo'lib, birinchi kursda o'rganiladi¹.

Ushbu kursning asosiy maqsadi talabalarining maktabda olgan informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish hamda shu asosda pedagogik faoliyatda informatikaning metod va vositalaridan amaliy foydalanish ko'nikmalarini propedevtik jihatdan shakllantirishdan iborat.

Informatika bo'yicha ta'lim mazmunining doimiy takomillashib borayotganligini e'tirof etish joiz. Bu, birinchi navbatda, mavzular, texnik baza va dasturiy ta'minotning doimiy yangilanib borishi bilan bevosita bog'liq. Bularning barchasi o'qitishning zamonaviy, yangi shakl va metodlarini joriy etishni taqozo etadi.

Informatika bo'limiga kompyuter-grafik modellashtirish savollarini kiritish orqali biz ushbu kursning mazmunini yaxshiladik.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashning ikkinchi bosqichi "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursi bo'lib, u "Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar" blokiga kiritilgan.

Ushbu kurs ikkinchi kursda o'rganiladi. Ushbu o'quv fanini o'rganishda talabalar o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik xususiyatlari (AKTni ta'limga joriy etishning maqsad va vazifalari; AKTdan foydalanish sharoitida o'quv jarayonining xarakterini o'zgartirish), AKTda o'qitish modellaridan foydalanishni o'zlashtirish (pedagogik dasturiy ta'minot, universal axborot texnologiyalari, gipermatn va multimedia texnologiyalari, kommunikatsiya texnologiyalari) bilan tanishadilar.

Dinamik virtual modellardan foydalanish jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilish, obyektlarni kuzatish va ularning tuzilishini batafsil o'rganish imkonini beradi. Turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus fanlarga mo'ljallangan interaktiv modellar keyingi bosqichlarni aniq ko'rsatib beradi.

Ko'pgina virtual modellar ta'lim saytlarida (<http://www.edu.uz>) taqdim etilgan².

Ushbu elektron ta'lim resurslari topshiriqlar va sessiyalararo nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Ularni amalga oshirish esa talabalar bilimni yangilash va tizimlashtirishni nazarda tutadi. Shuningdek, talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda foydalaniladi. Ushbu manbalar maxsus fanlar bo'yicha talabalarining bilimni yakuniy nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yakuniy nazorat oddiy imtihon, kompyuterda test yoki tematik loyihani ishlab chiqish shaklida o'tkaziladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kompyuter grafikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning o'rganish predmeti sifatida kompyuterga grafik obyektlarni kiritish, taqdim etish, qayta ishlash va olingan grafik ma'lumotlarni kompyuterdan displey qurilmalariga chiqarishni avtomatlashtirish vosita va metodlarini e'tirof etish joiz.

Kompyuter grafikasidan foydalanish talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi, ularni har qanday vizual xabardagi yashirin ma'lumotni ochishga yordam beradi. Xususan, kompyuter grafikasi multimedia vositalari va yuqori badiiy axborot texnologiyalari bilan birgalikda talabalarining ijodiy faoliyati uchun maxsus grafik axborot muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Kompyuter grafikasi badiiy va grafik ijodkorlik asosidagi qonuniyatlarini modellashtirish va namoyish etishning ajoyib

¹ Пурик Э.Е. Новые технологии в системе художественного воспитания школьников //Образование нового столетия: проблемы/технологии и подходы к модернизации: Коллективная монография / Под ред. Э.Ш.Хамитова. – Уфа, 2001. – С. 83-89.

² Пурик Э.Е. Управление художественно-творческой деятельностью школьников на уроках изобразительного искусства: Монография. – Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2001.-220 с.

vositasi ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Kasbga yo'naltirilgan ta'limda kompyuter grafikasi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibiga kompyuter grafikasi sohasidagi kompetentlikni kiritish maqsadga muvofiq. Biz kompyuter grafikasi fanidan o'qituvchining kompetentligi deganda, nafaqat kompyuter grafikasi sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi, balki grafik ma'lumotlarning zamonaviy axborot oqimida harakatlana olishi, tanlashga tayyorligi, dasturiy ta'minoti, kompyuter grafikasining zamonaviy vositalaridan pedagogik faoliyatida qo'llay olishini tushunamiz. Tasviriy san'at o'qituvchisining kompyuter grafikasi fanidan kompetentligi tarkibidagi quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarni ajratib ko'rsatamiz:

- kompyuter grafikasi fanidan kompetentlik mazmunini bilish (kognitiv aspekt);

- har xil standart va nostandart vaziyatlarda kompyuter grafikasi sohasida malakaning mavjudligi (xulq-atvor jihati);

- kompyuter grafikasi sohasida (motivatsion va qiymat-semantik jihatlar) kompetentlikni namoyish etishga tayyorgarlik.

Kompyuter grafikasi sohasida kompetentlikka ega bo'lish o'qituvchining ushbu sohada malakali deb e'tirof etilishi uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning umumiylikni tavsiflaydi. Turli xil standart va nostandart vaziyatlarda kompyuter grafikasi bo'yicha kompetentligini namoyon etish tajribasi doimiy o'zgaruvchan kasbiy faoliyat sharoitida kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalangan holda muammoning muqobil pedagogik yechimini topish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu komponentni tanlash o'qituvchining kompyuter grafikasi sohasidagi bilimni, ularni tanqidiy qayta ishlash va tushunishni tavsiflash imkonini beradi; nazariy qoidalarni amaliy harakatlarga aylantirish qobiliyati; kompyuter grafikasidan foydalanish texnikasini ishlab chiqish, tobora murakkab axborot makonida o'zini-o'zi takomillashtirish va tarbiyalash qobiliyati.

Kompyuter grafikasi sohasida kompetensiyani namoyish etishga tayyorgarlik deganda o'qituvchilarni o'z kasbiy faoliyatida vaqtincha kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanishga undaydigan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar to'plami tushuniladi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompyuter grafikasi bo'yicha kompetentligini

shakllantirish talabalarning "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursini o'rganish jarayonida sodir bo'ladi³.

Talabalarning zamonaviy axborotlashtirish vositalari va texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kompetensiyalari "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'rganish jarayonida yanada rivojlanib boradi. Fanning asosiy maqsadi kompyuter grafikasi sohasidagi nazariy bilimlarni mustahkam o'zlashtirishni ta'minlash va shu asosda keyingi kasbiy faoliyatlarida kompyuter grafikasi texnologiyalarini qo'llash kompetensiyasiga ega bo'lishdan iborat.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Ta'limda axborot texnologiyalari" fani dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Zamonaviy jamiyatda kompyuter grafikasi texnologiyalarini qo'llash.

2. Kompyuter grafikasitexnologiyalarining nazariy asoslari.

3. Kompyuter grafikasi texnologiyalarini qo'llash asoslari.

4. Grafik va animatsiya paketlarida kompyuter grafikasi va animatsiya yaratish.

5. Kompyuterda loyihalash elementlarini o'rganish.

6. Multimedia hujjatlariga kompyuter grafikasini kiritish.

7. Kompyuter grafikasi yordamida taqdimotlar tayyorlash.

8. Kompyuter grafikasi texnologiyalarini qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik faoliyatda axborotlashtirish vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga faol tayyorlash sharoitida "Kompyuter grafikasi" fani haqidagi tushunchalar sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Dasturiy ta'minot sifatida KOMPAS grafik paketi ishlatilgan bo'lib, u ikki modulni o'z ichiga oladi: ikki o'lchovli dizayn uchun KOMPAS-GRAFIK va uch o'lchovli modellashtirish uchun KOMPAS-3D grafik dasturlari. Talabalarning kompyuter grafikasi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun mustaqil loyihalar taklif etiladi. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar o'zlarining tabiiy ranglarni his etish tuyg'usidan foydalangan holda va kompyuterning ranglar palitrasi yordamida mazkur loyiha uchun mos dizaynni tanlaydilar. Bu ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar tayyor grafik elementlardan foydalanishlari hamda o'zlari ham yaratishlari mumkin. Kompyuter grafikasi kursi

3 Gulyamov K.M., & Ikromov M.H. (2021). Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics. JournalINX, 7(06), 95-99.

talabalarning kreativ ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi. Talabalar tomonidan bajarilgan yakuniy ishlar o'zining yorqin individualligi, yuqori darajadagi mahorat va tasavvur ila ishlanganligi bilan ajralib turadi⁴.

Shuningdek, hozirgi vaqtda ayniqsa talab katta bo'lgan uch o'lchovli kompyuter grafikasi dasturlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kompyuterda modellashtirish, uch o'lchovli fazoda obyektlarning tasvirlarini qurish dizayn, san'at obyektlari va kompyuter filmlari bilan bog'liq deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi. Uch o'lchovli kompyuter grafikasi haqiqatga yaqin bo'lgan yuqori aniqlikdagi modelni namoyon etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari tomonidan uch o'lchovli kompyuter grafikasini o'rganish uchun alohida "Uch o'lchovli kompyuter grafikasi va animatsiya" kursini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Tabiiyki, "San'atshunoslik" fakultetini tamomlagan talaba kompyuter grafikasi bo'yicha kompetentli bo'lishi talab etiladi, chunki u talabalarda makonni idrok etish, mavhum mantiqiy va obrazli tafakkur, rang tuyg'usi, ijodiy tasavvur, idrok, e'tibor, xotiraning yaxlitligi kabi fazilatlarini rivojlantirishning o'ziga xos vositasidir.

Agar informatika va AKT yo'nalishi bo'yicha tanlov kurslari, talabalarning mustaqil ishlari tizimi, mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqarish amaliyoti, kurs va bitiruv malakaviy ishlar ustida ishlash ko'rinishidagi qo'shimcha zaxirani hisobga olinmasa, talabalarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz shakllantirish dinamikasi va mazmuni to'liq bo'lmaydi. Biz blok-modulli tuzilishga ega bo'lgan "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyatida kompyuter-grafik modellashtirish" tanlov kursini ishlab chiqdik.

Badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida so'z yuritilganda 3D modellashtirish yetakchi vosita sifatida nazarga tashlanmaydi.

Biroq, zamonaviy grafika, dizayn (maishiy va arxitekturaviy) va installyatsilarni yaratishda raqamli yondashuv o'zgacha mazmum kasb etadi. Bundan tashqari, 3D-printerlar va foydalanish uchun qulay 3D dizayn dasturlari talabalarga o'zlarining 3D ijodlarini hayotga tatbiq etishlariga imkoniyat yaratadi.

3D modellashtirish nafaqat ijodiy ishlar bilan cheklanib qolmaydi. San'at ta'limi kontekstida "kreativ fikrlash" yoki "yaratuvchan fikrlash" kabi atamalar e'tibor markazida bo'lib qolmoqda. Chunki, g'oyaning zamirida ijodiy dizayn ko'nikmalari haqiqiy muammolarni hal qilishda yechimga asoslangan yondashuvning kalitidir. "Kreativ fikrlash" raqamli vositalar qo'llanilgan amaliy mashg'ulotlarda ko'plab g'oyalarni yaratish, prototiplash va sinovdan o'tkazishda amaliy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, "doimiy tajribalar: eskiz, prototiplash, g'oyalarni sinab ko'rish"ni o'z ichiga oladi.

Bunday mashg'ulotlarda qo'llash uchun dasturiy ta'minot sifatida KOMPAS grafik paketini misol qilib olish mumkin. U ikki modulni o'z ichiga oladi: ikki o'lchovli dizayn uchun KOMPAS-GRAFIK va uch o'lchovli modellashtirish uchun KOMPAS-3D grafik dasturlari.

Shuni xulosa qilish mumkinki, tasviriy faoliyat talabalar tomonidan ma'lum bir tasviriy sxemani yaratish, voqelikni amalga oshirish mumkin bo'lgan takrorlash jarayoni sifatida talqin etiladi va chizma tasvir bo'yicha faqatgina o'quv vazifalarini hal qilish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash joiz. Badiiy-ijodiy faoliyat deganda esa, mos ravishda, rasm chizish jarayonida obrazli, sof ijodiy vazifalarni hal qilish faoliyati tushuniladi. Bu qarama-qarshilikni muhim tamoyillardan biri - badiiy ta'limdagi o'quv va ijodiy vazifalarning birligining ta'minlanmasligi natijasi deb hisoblaymiz.

4 Ikromov M.X. O., & Qizi Z.M. (2022). Markaziy osiyoda grafikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 627-630.

RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH

Mubinaxon Xakimjon qizi Ikramova - p.f.b.f.d (PhD), Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining o'qitishga metodik tayyorgarligi, texnologik ta'lim yo'nalishiga qo'yiladigan davlat ta'lim standarti va malaka talablari bilan aniqlanish jarayonlari hamda talabalar tomonidan o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirishlari orqali ta'minlanishi va bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishda biz raqamlashtirilgan ta'lim resurslari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ko'rsatib o'tganmiz.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методическая подготовка будущих учителей технологии к преподаванию, процессы определения государственного образовательного стандарта и квалификационных требований к технологическому образованию, овладения студентами предметами учебной программы и формирования профессионального образования. Компетентности будущих учителей технологии, мы продемонстрировали процесс развития профессиональной компетентности на основе цифровых образовательных ресурсов.

Abstract: In this article, the methodical preparation of future technology teachers for teaching, the processes of determining the state educational standard and qualification requirements for technological education, and students' mastery of the subjects in the curriculum are discussed. and in the development of professional competence of future technology teachers, we have demonstrated the process of professional competence development based on digitized educational resources.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lim, muhit, texnologiya, asoslar, o'qituvchi, fan, texnika, malaka, bilim, ko'nikma, rivojlantirish, kompetensiya, kasbiy, mazmun.

Ключевые слова: цифровизация, образование, окружающая среда, технологии, основы, учитель, наука, техника, квалификация, знание, умение, развитие, компетентность, профессионал, содержание.

Keywords: digitization, education, environment, technology, basics, teacher, science, technique, competence, knowledge, skill, development, competence, professional, content.

Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar bo'lajak mutaxassislarni raqamlashtirish muhitida modulli yondashuv asosida tayyorlash tizimini tashkil etish va boshqarishni hamda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarning ta'lim standartlaridatalabalarining global ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda mavjud ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, imij yaratish texnologiyalari, yangi pedagogik loyihalar, modulli texnologiya asosida o'zlashtirish natijalarini baholash tizimi katta ahamiyatga ega.

Ta'lim mazmunini asoslash didaktikaning eng muhim va an'anaviy muammolaridan biridir. Ta'lim mazmunining ijtimoiy mohiyati va pedagogik mansubligini hisobga olgan holda, uni ta'lim tizimiga qaratilgan ijtimoiy buyurtmaning pedagogik modeli sifatida belgilash mumkin. Ushbu model ko'p darajali iyerarxik tuzilishga ega¹.

Kompetensiyalar tizimi esa kasbiy metodik tayyorgarlikning sifat darajalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish natijalari faoliyatli, motivatsion qadriyatli, kognitiv, faoliyatli rag'batlantiruvchi, kognitiv, ijodiy maxsus ijtimoiy baholash mezonlari asosida

tahlil qilinadi².

Natija sifatida ijtimoiy, shaxsiy, ekstremal, texnologik, pedagogik psixologik, metodik, informatsion, kommunikativ, kasbiy-metodik sifatlari shakllangan mutaxassis – kompetentli bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi ijtimoiy buyurtmani qondirishga tayyor, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shishi ilmiy asoslandi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda raqamli texnologiyalar asosida fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda uning kasbiy kompetensiyalari rivojlantiriladi. Bu texnologiya fanini o'qitishga tayyorlashda ularning mashg'ulotlarda olgan bilim, ko'nikma va malakalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori darajada – umumiy nazariy ifodalash darajasida ta'lim mazmuni talabalarga uzatiladigan ijtimoiy tajribaning tarkibi, elementlari, tuzilishi va funksiyalari to'g'risida umumlashtirilgan tizimli bilimlar shaklida belgilanadi. O'quv predmeti darajasida ta'limda muayyan funksiyalarni bajaradigan tarkibning alohida qismlari haqida tushuncha hosil bo'ladi.

Ta'lim mazmunini umumiy didaktik tushunchalar nuqtayi nazaridan shakllantirish tamoyillarini, ta'lim mazmuni muammosini, ta'lim maqsadlarini, o'qitish tamoyillari va ta'lim jarayonining didaktik qonuniyatlarini pedagog olimlardan Yu.K.Babanskiy, V.Beshenkov, U.Nishonaliyev, N.Azixodjayeva, V.Txorjevskiy, B.C.Ledneva, I.Ya.Lerner, N.A.Selezneva, M.N.Skatkin va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tizimini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalaridagi islohotlar ayrim innovatsion o'zgarishlarga olib keladi. Ular ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning samarali model va mexanizmlarini yaratishga qaratilgandir. Bunday sharoitlarni hisobga olgan holda, texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda kasbiy kompetensiyani davom ettirishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu jamiyat, davlat, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish strategiyasi maqsadlarini hisobga olgan holda texnologik ta'limning yangi modelini joriy etishni nazarda tutadi³. Shuningdek, u bo'lajak o'qituvchilarning

mehnat bozoridagi vaziyatlarni har tomonlama ta'lim jarayonining subyektlari bilan faol o'zaro ta'siriga asoslangan salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashni nazarda tutadi. Kelajakdagi malakali mutaxassislarning loyiha faoliyatini boshqarish uchun ta'lim va rivojlanishga yo'naltirilgan muhitni yaratish juda muhimdir.

Ta'limning raqamli transformatsiyalashga, xususan, Yevropa va Lotin Amerikasi oliy ta'lim tizimi tajribalarining transformatsiyasiga qarashga olib keladi, chunki ularda raqamli transformatsiya muhitida texnologiya o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari didaktik tizimi rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Ushbu kun tartibi barcha uchun sifatli, mukammal va adolatli ta'limni taklif qilish, tegishli tayyorgarlik, doimiy yangilanish huquqiga ega yangi imkoniyatlar va ijtimoiy muammolarni taklif qilishga qaratilgan: moslashuvchanlik, ijodkorlik, innovatsiyalar, raqamli kompetensiyalar va ta'lim jarayonlarini takomillashtirish. Shu maqsadda uchta asosiy tamoyildan, tegishli chora-tadbirlardan iborat turli xil harakatlar rejaları ishlab chiqilgan:

a) Ta'lim va ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish: maktablarda Wi-Fi ulanishlarini yaxshilash, o'z-o'zini baholash vositalaridan va raqamli sertifikatlangan diplomlardan foydalanish.

b) Raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha raqamli ko'nikmalarni egallash va rivojlantirish:

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va ta'lim jarayonlarini yaxshilash uchun platforma yaratish;

- ilmiy raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish – ochiq fan;

- ta'limda kiber xavfsizlik;

- raqamli ko'nikmalar va tadbirkorlik bo'yicha treninglar.

c) Raqamli madaniyatni shakllantirishga yordam beruvchi tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilg'or tajribalar asosida ta'lim tizimini takomillashtirish (raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiyalar, inklyuzivlik va fuqarolik).

Ushbu harakatlar asosida o'qituvchilar nafaqat shaxsiy hayotlari, balki kasbiy hayotlari uchun ham zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak, buning natijasida esa o'qitish va innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan aniq ko'nikmalarni o'rganish talab qiladigan hozirgi raqamli jamiyatda qatnasha olishi kerak⁴.

1 Разумовский В.А. Теоретико-методические подходы к формированию компетентности учителя в области реализации управленческой функций (на примере дополнительного профессионального образования): Автореф. канд. пед. наук. ... дисс.13.00.08. – М., 2014. – 19 с.

2 Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход // Образование и наука. Известия. Урал. отделение РАО. 2004. – № 3. – с. 42-53.

3 Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – с. 34-42.

4 M.Kh.Ikramova, "USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN TECHNOLOGY CLASSES." Open Access Repository 8.11 (2022): 116-120.

Shu sababli universitetlar bilimlarni yaratish va tarqatish uchun ijtimoiy-ta'lim tarmog'idagi ssenariylar sifatida nafaqat ijtimoiy-raqamli transformatsiyalar, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga (BPM) erishish uchun ham asosiy hisoblanadi. Ushbu muassasalar kelajak avlodlarga turli global muammolarga qarshi turish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish imkoniyati sifatida qabul qilinadi. Shu maqsadda hozirgi zamon talabi 2030-yilga qadar oliy ta'lim tizimida oliy ma'lumotlilar sonini 50%-60% ga oshirish maqsadida 08.10.2019-yildagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni⁵, tubdan o'zgarishlarni talab qiladi va o'quv dasturlarini o'zgartirish, muammolarga muvofiq bilimlarni ishlab chiqarish, adolatli, inklyuziv va tenglik raqamli jamiyat uchun asos yaratishda muhim elementlardir.

Odamlarni masofadan turib o'zaro aloqalarni o'rnatishga majbur qilgan yangi voqelik natijasida ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida yangi texnologiyalarni qo'llash mumkin bo'lgan shubhalar avtomatik tarzda barham topdi. Yangi texnologik yordamlardan (mobil telefonlar, planshetlar, kompyuterlar, platformalar, onlayn ta'lim), texnologiya yutuqlaridan (sun'iy intellekt, robototexnika, internet, bulutli hisoblash va boshqalar) foydalanishga qarshilik ko'rsatgan va didaktik strategiyalardan bexabar odamlar ham bu qo'shimcha yordamlardan foydalana boshlashdi. Bu raqamli jamiyat ehtiyojlariga yaxshiroq mos keladigan hamkorlik tarmoqlariga olib keladi.

Raqamli ta'lim bu - ta'lim resurslaridan va o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanadigan o'qitish amaliyoti bilan birga keladigan har qanday o'rganish turidir. Raqamlashtirilgan ta'lim keng ko'lamli o'qitish amaliyotlarini, jumladan, majmuaviy va virtual tarzda qo'llashni o'z ichiga oladi.

Raqamli ta'lim jarayonini tashkil etish tartibi quyidagi turlardan biri yoki bir nechtasini birgalikda qo'llash orqali tashkil etilishi mumkin:

- o'zgaruvchan ta'lim;
- didaktik tarzda o'yin yoki o'yinlashtirish;
- majmuaviy ya'ni nazariy va amaliy ta'lim;
- auditoriyada o'qitish metodikasi;
- elektron ta'lim resurslari;

- tizimli tahlil va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish;

- texnik obyekt va texnologik jarayonlar;

- raqamlashtirish vositalari: noutbuklar, kompyuterlar, mobil ilovalar, telefonlar, skaner va videoregistratorlar va h.;

- individuallashtirilgan ta'lim;

- onlayn yoki masofaviy ta'lim (yoki elektron ta'lim);

- ochiq ta'lim resurslari;

- virtual trenajerlar, reallikka yaqinlashtirilgan resurslar.

Raqamli ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun, shuningdek, aralash ta'lim turidan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Aralash ta'lim - raqamlashtirilgan ta'lim resurslari vositasida an'anaviy ta'lim metodlari, shakl va vositalaridan foydalanib o'qitish usuli hisoblanadi.

Aralash ta'lim o'qituvchi va talabning fiziologik faol ishtirok etishini talab qiladi, bunda talabning zamon va makonda jarayonlarni nazorat qilish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqot adabiyotlarida "aralash ta'lim", "gibrid ta'lim", "texnologiyalar vositasida o'qitish", "vebda kengaytirilgan ta'lim" va "aralash rejimli o'qitish" tushunchalari aksariyat hollarda birga ishlatiladi.

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchilarning samarali pedagogik vositalar va resurslarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'qitish va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim landshaftini o'zgartirish qobiliyatiga ega. Raqamli ta'lim talabalarga o'z o'rganishlari uchun mas'ul bo'lish, chuqur fikrlashni rag'batlantirish va hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini berishi mumkin.

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslarini takomillashtirish hamda o'qitish vositalari asosida samarali ta'lim muhitini yaratishda quyidagi savollarni va vaziyatlarni tahlil qilishimiz lozim:

O'quv mazmunini boshqarish: Bizda ta'lim mazmuni va raqamlashtirilgan ta'lim resurslarimizni boshqarish uchun nima qilishimiz kerak? - degan savolni qo'yishimiz kerak.

Mavjud raqamli resurslar: Biz hozirgi kunda qanday raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan samarali foydalanmoqdamiz? Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlarini o'zgartirish va takomillashtirish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslari manbalari: ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishda kamchiliklar va bo'shliqlar mavjudmi? Har bir talaba uchun modul va fan uchun qaysi onlayn manbalar eng yaxshi ekanligini qanday bilamiz? Qaror qabul qilish va tanlash uchun qanday dalillar kerak?

Ta'lim jarayoniga kirish: Talabalar auditoriya va auditoriyadan tashqarida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishlari mumkinmi?

Hamkorlik: o'qituvchilar talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun qanday hamkorlik qiladilar? Talabalar tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida bir-birlari bilan qanday hamkorlik qiladilar? Raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan samarali foydalanish vositalari hamda manbalarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish uchun ta'lim muassasi rahbariyati professor-o'qituvchilar bilan har bir talabning raqamli texnologiyalardan foydalanish samardorligini aniqlashlari zarur bo'ladi.

Talabalarining raqamli texnologiyalarga ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot va ilovalarni aniqlash uchun ularning amalda foydalanayotgan raqamli ta'lim vositalari va resurslarini tahlil qilish lozim bo'ladi⁶. Jumladan:

O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi sinxron onlayn aloqalar uchun video konferensiya dasturi (masalan, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams). Video konferensiyani tashkil etish hamda targ'ib qilishda o'qituvchilarning maxfiylik sozlamalari, videokonferensiyalardagi buzilishlarni boshqarish va video-konferens-aloqa dasturidan to'g'ri foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalarga ega bo'lishiga ishonch hosil qilish.

Talabalar uchun o'quv materiallari va resurslarini tashkil qilish uchun o'rganishni boshqarish tizimi yoki LMS (masalan, Schoology, Canvas, Google Classroom, Edmodo).

Tuman yoki maktabning pedagogik va o'quv maqsadlariga mos keladigan o'quv ilovalari va dasturiy ta'minot.

Tizimga kirishni boshqarish va talabalar

uchun raqamli vositalardan foydalanishni osonlashtiradigan yagona tizimga kirish texnologiyasi (masalan: Clever, OneLogin, ClassLink).

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim muassasalari uchun baholash va nazorat qilish talablarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish imkoniyatini beradi, ayniqsa raqamli ta'lim favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilganda.

O'qituvchilar uchun baholash kelajakdagi o'quv maqsadlari va ko'rsatmalari bo'yicha qaror qabul qilishda foydalanish mumkin bo'lgan o'quvchilar yutuqlari haqida ma'lumot beradi. Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallaganliklarini darajalar va mezonlar asosida baholash an'anaviy sharoitlarda o'rganishni baholashdan farq qilishi mumkin, lekin raqamli ta'lim sharoitlarida ayniqsa muhimdir.

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslari baholash jarayonida aniqlanishi mumkin bo'lgan natijalardan ko'ra ko'proq haqiqiy va mazmunli baholash uchun imkoniyatlar beradi. Raqamlashtirilgan ta'lim resurslari asosida qo'llaniladigan noan'anaviy baholash turlari har bir talaba uchun moslashuvchanlik va individuallashtirishni ta'minlash kerak, ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan ta'lim bilan bog'langanda. Masalan, ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalarni egallaganliklarini to'g'ri darajasini aniqlaydigan va shu darajaga mos keladigan darslar va baholashlarni ta'minlaydigan adaptiv dasturiy ta'minotdan va o'quvchilarga texnik obyekt va texnologik jarayonlarni aniqlashtiradigan savollariga asoslangan hamda ta'lim texnologiyalariga asoslangan jarayonlardan foydalanishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari bor, ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ushbu o'ziga xosliklar ta'lim muassasalari olamida mavjud bo'lgan turli xil maqsadlar va madaniyatlarni hisobga olgan holda yanada muhimroq bo'ladi.

5 08.10.2019 yildagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

6 M.Kh.Ikramova, "Peculiarities of using digitized educational resources in" Technology "classes" Open Access Repository 9.11 (2022): 208-212.

INVESTIGATION AND EXAMINATION OF MACRONUTRIENT ENERGY CONSUMPTION AND ENERGY EXPENDITURE AMONGST HIGHLY SKILLED FREESTYLE WRESTLERS

Nodir Khonturaev - senior lecturer, Jizzakh state pedagogical university

Abstract: This article delves into the intricate dynamics surrounding the dietary habits of these highly skilled athletes, scrutinizing the chronological sequence of nutrient consumption, and appraising whether the calorific content of their dietary constituents aligns proportionately or disparately with the energy expenditure inherent in their rigorous training regimens.

Annotatsiya: Mazkur maqolada malakali yosh erkin kurashchilarning ovqatlanish jarayoni, ular iste'mol qiladigan asosiy ozuqa moddalarining tartibi, ulardan hosil bo'lgan kaloriyani erkin kurashchilar sarflagan quvvat bilan mutanosib yoki nomutanosibli masalalari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрен процесс питания квалифицированных юных борцов вольного стиля, порядок основных пищевых веществ, которые они потребляют, вопросы о том, пропорциональны или несоразмерны получаемые от них калории энергии, затрачиваемой борцами вольного стиля.

Keywords: freestyle wrestling, physical preparation, weekly nutrition plan, average arithmetic, chronometric-tabular method.

Kalit so'zlar: erkin kurash, jismoniy tayyorgarlik, haftalik ovqatlanish rejasi, o'rta arifmetika, xronometrik-jadval usuli.

Ключевые слова: вольная борьба, физическая подготовка, недельный план питания, средняя арифметика, хронометрически-табличный метод.

The realm of martial arts stands as a swiftly evolving and exceedingly popular domain within contemporary developed nations. Engaging in martial arts confers upon individuals a plethora of opportunities, including the cultivation of self-discipline, honing socialization skills, fostering physical activity, acquiring the ability to establish and attain goals, elevating self-esteem, instilling a profound sense of respect, promoting non-violent conflict resolution, and effecting enhancement in various facets of life.

In the realm of martial disciplines, prioritization is accorded to freestyle wrestling, encapsulating a multifaceted approach that resonates with the diverse objectives and aspirations of practitioners. However, it is imperative to underscore that the realization of optimal outcomes in the pursuit of martial arts is intrinsically tied to the adoption of a judicious and rational approach to nutrition.

Normal and rational nutrition, positioned

as a linchpin in the lives of those dedicated to these physical disciplines, assumes a pivotal role in the attainment of heightened results and the meticulous sculpting of body composition. The rationale underlying such nutritional discernment lies in its capacity to underwrite the harmonious growth and development of the body, fortify resilience against the deleterious impacts of the external environment, amplify the functional aptitude of the physique, and serve as a catalyst in augmenting athletic performance¹.

Effective management and regulation of a judicious dietary regimen assumes a pivotal role in the existence of athletes, particularly those immersed in the intricate domain of freestyle wrestling. The meticulous orchestration of daily nutritional intake for freestyle wrestlers necessitates a deliberate arrangement designed to furnish their bodies with indispensable nutrients and a requisite infusion of energy. The triumphant outcomes achieved by freestyle wrestlers of eminent

pro prowess in competitive arenas manifestly hinge upon the energetic constituents embedded within their dietary regimen during the distinct phases of periodization. Consequently, drawing insights from the experiential reservoir of advanced nations, the formulation and endorsement of a specialized, judicious dietary protocol characterized by elevated nutrient density and caloric content emerge as imperative pursuits. Such a dietary framework, strategically tailored to exert a beneficial influence on the optimal performance and results of athletes, serves as a vital remedy for the depletion of their energy reserves, thereby standing out as one of the most pressing concerns in the realm of athletic pursuits².

Literature review

Numerous global scholars continue to engage in rigorous and comprehensive research endeavors pertaining to the subject matter expounded in this scientific article. Their ongoing investigations culminate in the publication of scholarly contributions within esteemed journals.

The treatise titled "How much protein can the body use in a single meal for muscle building? Implications for daily protein distribution" authored by Brad John Schoenfeld and Alan Albert Aragon, elucidates the intricate interplay of protein intake and its impact on musculoskeletal development contingent upon dietary constituents³.

In their seminal work titled "The China study: The Most Comprehensive Study of Nutrition Ever Conducted and the Startling Implications for Diet, Weight Loss and Long-term Health" scholars T. Colin Campbell and Thomas M. Campbell II meticulously expound upon the tenets of sound nutrition, elucidate the etiology of cancer, explicate bone development, and delve into the intricacies of diseases and headaches⁴.

Dr. Dan Benardot, a distinguished scholar holding a Ph.D. and RD, FACSM credentials and renowned for his authorship of "Advanced Sports Nutrition" delved into extensive research pertaining to the judicious dietary practices of athletes. His

investigations encompassed the strategic utilization of nutrients by both coaches and athletes amid rigorous periodization, the imperative role of protein in meeting the body's demands, nuanced nutritional strategies for pre and post-sports training, the significance of carbohydrate intake preceding exercise, and the intricate breakdown of carbohydrates during competitive matches and athletic training sessions⁵.

As delineated in Cole Tucker's publication, "Sports Nutrition For Wrestling," the compendium imparts insights into the metabolic utilization of carbohydrates and fats for energy, elucidates the pivotal function of protein as a fuel source, expounds upon the significance of vitamins, minerals, and supplements in the context of physical exertion, delves into the nuances of pre- and post-workout nutritional strategies, and addresses the imperative of consistent weight management⁶.

The scholarly work authored by Judy A. Driskell and Ira Wolinsky, titled "Macroelements, Water, and Electrolytes in Sports Nutrition," delves into a comprehensive examination of the pivotal role played by vital nutrients, optimal hydration practices, and the utilization of energy beverages within the context of physical exertion⁷.

Natalie Digate Muth and Michelle Murphy Zive, both esteemed researchers, conducted an extensive analysis of scientific literature pertaining to the caloric requirements, macronutrient composition, dietary nutrient profiles, and vitamin and mineral intake of athletes. Additionally, they authored a comprehensive book titled "Sports Nutrition for Health Professionals"⁸.

Despite numerous scientific investigations conducted in developed nations on the topic of optimal nutrition for elite freestyle wrestlers, the exploration of developing a comprehensive and specialized nutritional regimen remains inadequately addressed in the context of Uzbekistan.

Materials and methods

In the comprehensive examination of scientific and methodological literature, an

¹ Turchiboyev M.U. "Sport biochemistry" - Tashkent - 2010, 142-143 pages.

² B.A. Dushanov, Sh.T. Iskandarova "General Hygiene" - Tashkent - 2008, 169-pages.

³ Brad John Schoenfeld and Alan Albert Aragon, an article of "How much protein can the body use in a single meal for muscle building? Implications for daily protein distribution"

⁴ T. Colin Campbell and Thomas M. Campbell II, a book of "The China study: The Most Comprehensive Study of Nutrition Ever Conducted and the Startling Implications for Diet, Weight Loss and Long-term Health".

⁵ Dan Benardot, PhD, RD, FACSM, a book of "Advanced Sports Nutrition"

⁶ Cole Tucker, a book of "Sports Nutrition For Wrestling"

⁷ Judy A. Driskell, Ira Wolinsky "Macroelements, Water, and Electrolytes in Sports Nutrition"; CRC Press LLC-1999; 249-pages.

⁸ Natalie Digate Muth and Michelle Murphy Zive "Sports Nutrition for Health Professionals" - October 13, 2014 y, 409-pages.

intricate synthesis of multifaceted research methodologies is undertaken, encompassing participant observation, interviews, surveys, as well as an exhaustive application of mathematical-statistical analysis.

Analysis and results

The meticulous investigation transpired within the confines of the Jizzakh Specialized Boarding School of Olympic Reserve, where the focal point of scrutiny was the intricate interplay between energy expenditure and nutritional consumption exhibited by a cohort of exceptionally skilled wrestlers aged between 18 and 20 years. In the preliminary phase of this scientific endeavor, our concerted efforts were directed towards elucidating the daily energy outlay of these adept young freestyle wrestlers, predicated upon the nuances of their quotidian existence. To accomplish this task with methodological precision, we availed ourselves of a meticulously crafted chronometric table, which systematically delineated the unfolding of a complete twenty-four-hour cycle encompassing all facets of their laborious routines. In pursuit of a comprehensive understanding, an imperative facet of the research protocol entailed the explication of the intricacies inherent in the impending investigation. Concurrently, we proactively engaged with the cohort of highly qualified young freestyle wrestlers, beseeching them to meticulously document the minutiae of their daily activities, with a particular emphasis on detailing the diverse modalities of exercise they partook in throughout the entirety of the day.

In the comprehensive tome entitled "Physical Education and Sports Hygiene", meticulously authored by the erudite Alexey Alexievich Minkh, the utilization of a meticulously crafted chronometric table is elucidated, wherein the intricacies of temporal measurement and its application within the realm of physical education and sports hygiene are expounded upon with a level of precision and scholarly depth befitting the esteemed nature of the literary work⁹.

1-table

Daily schedule timetable qualified young freestyle wrestlers

t/r	Movement activities	T ime spent	Duration	Physical activity coefficient	Total energy expenditure (kcal)
1	Wake up	6 ³⁰ - 06 ³⁰	30	0,0183	0,549
2	Wash up	6 ³⁰ - 06 ⁴⁰	10	0,033	0,33
3	1 - Breakfast	6 ⁴⁰ - 07 ⁴⁰	60	0,023	1,38
4	1 - Sport training	8 ³⁰ - 09 ³⁰	90		
5	2 - Breakfast	0 ⁴⁰ - 10 ¹⁰	30	0,023	0,69
6	Ritual	0 ³⁰ - 10 ²⁵	15	1,3	19,5
7	Lessons (1-couple) (2-couple)	0 ³⁰ - 11 ³⁰ - 12 ³⁰ - 13 ³⁰	80	0,0241	1,928
8	1 - Lunch	1 ³⁰ - 14 ³⁰	35	0,023	0,805
9	Lessons (3-couple)	4 ³⁰ - 15 ³⁰	80	0,0241	1,928
10	Independent learning	5 ⁴⁰ - 16 ³⁰	50	0,0183	0,915
11	Afternoon tea	6 ⁴⁰ - 17 ⁰⁰	20	0,033	0,66
12	2 - Sport training	7 ⁰⁰ - 19 ¹⁵	135	-	-
13	Dinner	0 ³⁰ - 20 ⁰⁰	30	0,023	0,69
14	Spiritual events	0 ¹⁰ - 21 ³⁰	80	0,025	2
15	Go to sleep	2 ⁰⁰ - 06 ⁰⁰	480	0,0155	7,44
	Total:		1305		40,74

Note: The aforementioned table delineates the daily schedule of proficient young freestyle wrestlers, excluding the caloric expenditure incurred during their athletic training sessions.

In the meticulous examination of proficient young freestyle wrestlers, it was discerned that these athletes engaged in a myriad of movement activities persistently

⁹ Alexey Alexievich Minkh "Physical education and sports hygiene" translated into the state language by the authors. UzSIPES - 2012 y, 34-pages.

throughout the course of the day. Systematically aligning with the intricate cadence of their daily routines, the executed activities were subjected to multiplication by the coefficient of physical activity. A judicious approach was then applied, wherein 15% of the resultant total volume was apportioned to account for overlooked actions and the exigencies of metabolism. The accrued outcome was subsequently amalgamated with the residual volume, culminating in a comprehensive quantification of their daily energy expenditure¹⁰. This exhaustive process, serving as a robust framework, rendered a more nuanced and precise depiction of the multifaceted energy dynamics inherent in the daily lives of these skilled young freestyle wrestlers.

In the pursuit of ascertaining the average daily energy expenditure of these adept athletes, an imperative step necessitated the elucidation of their average weight and height. Employing the principles of arithmetic mean, this statistical approach was instrumental in calibrating the comprehensive assessment, thereby contributing to a more granular understanding of the nuanced interplay between physical activity, metabolism, and the unique attributes of these qualified young freestyle wrestlers.

$$A = \frac{a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n}{n}$$

1-picture. Arithmetic mean formula

- 1). A – the mean.
- 2). a₁ – the first value.
- 3). a₂ – the second value.
- 4). a₃ – the third value.
- 5). a_n – the last value.
- 6). n= the number of value.

2-table

The indices pertaining to the weight in kilograms and height in centimeters of proficient young practitioners engaged in the discipline of freestyle wrestling are herein elucidated.

Full name	ge	H eight (sm)	W eight (kg)
S.Shokirjonov	8	80	78
Sh.Salimov	8	78	69
M.Khujamqulov	8	92	98
T.Abdukhalilov	8	65	64
A.Abdullayev	8	69	68
K.Usganov	8	72	69
I.Khaydarov	8	75	70
M.Abdullayev	8	66	68
J.Mamadaliyev	9	77	72
Sh.Kushbekov	9	61	58
J.Komilov	9	78	76
Sh.Sariboyev	9	78	79
I.Mamayokubov	9	75	73
S.Uzmonkulov	0	80	98
J.Makhamudov	0	81	87
M.Khudoyberganov	0	72	67

At the age of 18, adept freestyle wrestlers exhibited an average weight of 73 kilograms and a corresponding height of 175 centimeters. Their mean daily energy expenditure, excluding the non-participation index in rigorous training sessions, amounted to 3420 kilocalories.

$$40.74 \times 73 = 2974 \text{ kcal} \quad 2974 \times 0,15 = 446 \text{ kcal} \quad 2974 + 446 = 3420 \text{ kcal}$$

In the realm of 19-year-old proficient freestyle wrestlers, there existed a correlated average stature and mass, standing at 174 centimeters and 72 kilograms, respectively. Furthermore, when considering the average daily energy expenditure, excluding any non-participation index during intensive training sessions, it was discerned to be quantified at 3372 kilocalories.

$$40.74 \times 72 = 2933 \text{ kcal} \quad 2933 \times 0,15 = 439 \text{ kcal} \quad 2933 + 439 = 3372 \text{ kcal}$$

Among the cohort of 20-year-old

¹⁰ Dr. Michael Colgan "Sports Nutrition Guide: Minerals, Vitamins & Antioxidants for Athletes". Apple Tree Pub Co Ltd; March 1, 2002. 69-pages.

proficient freestyle wrestlers, the typical stature and weight manifested at 178 centimeters and 84 kilograms, respectively. The mean daily caloric outlay, excluding any contributions from the non-participation index within rigorous training sessions, amounted to 3983 kilocalories.

$$40.74 \times 85 = 3463 \text{ kcal} \quad 3463 \times 0,15 = 520 \text{ kcal} \quad 3463 + 520 = 3983 \text{ kcal}$$

The aforementioned computation elucidates the daily energy outlay of proficient freestyle wrestlers adhering to the established daily regimen stipulated by the Jizzakh Specialized Boarding School of Olympic Reserve. The quantification of energy expended during athletic training sessions was accomplished through the utilization of an online computational tool known as "Captain Calculator." This software, not confined solely to addressing mathematical and economic quandaries, extends its applicability to various predicaments within the domain of physical education and sports by assimilating inputted formulas into its system. Leveraging this program facilitated the meticulous determination of energy disbursement incurred by adept young freestyle wrestlers actively engaged in the rigors of sport training.

The methodology entailed ascertaining pivotal parameters, namely the athlete's body weight measured in kilograms and the MET (Metabolic Equivalent of Task) specific to the chosen discipline, which, in the context of freestyle wrestling, was denoted as "6" This intricate process allowed for a nuanced and precise computation of the energy expenditure undergone by the aforementioned cohort of qualified athletes immersed in the exigencies of their sport training regimen¹¹.

$$\text{Energy expenditure per minute} = (\text{met} \times \text{weight (kg)} \times 3.5) / 200$$

Utilizing the prescribed formula, we ascertained the energy expenditure per minute and subsequently multiplied the derived value by the duration of the sports training session, thereby yielding an index representing the energy expended in the course of training for proficient freestyle wrestlers. To compute the average energy expenditure over the entire day, we amalgamated the energy expended during physical exercises with that utilized in adherence to the daily routine. In the course of the investigative inquiry undertaken at

the Jizzakh Specialized Boarding School of Olympic Reserve, structured sport training sessions of 90 and 135 minutes were implemented for freestyle wrestlers, transpiring twice daily.

The energy expenditure per minute for 18-year-old freestyle wrestlers with qualifications.

$$(6 \times 73 \times 3.5) : 200 = 7.7 \text{ kcal} \\ 7.7 \times 90 = 693 \text{ kcal} \quad 7.7 \times 135 = 1040 \text{ kcal} \\ 693 + 1040 = 1733 \text{ kcal}$$

Average daily total energy expenditure per day: $3420 + 1733 = 5153 \text{ kcal}$;

The minute-by-minute energy expenditure of 19-year-old proficient freestyle wrestlers.

$$(6 \times 72 \times 3.5) : 200 = 7.6 \text{ kcal} \\ 7.6 \times 90 = 684 \text{ kcal} \quad 7.7 \times 135 = 1026 \text{ kcal} \\ 684 + 1026 = 1710 \text{ kcal}$$

Average daily total energy expenditure per day: $3372 + 1710 = 5082 \text{ kcal}$;

The minute-by-minute energy expenditure of freestyle wrestlers who are 20 years old and possess the requisite qualifications.

$$(6 \times 85 \times 3.5) : 200 = 8.9 \text{ kcal} \\ 8.9 \times 90 = 801 \text{ kcal} \quad 8.9 \times 135 = 1202 \text{ kcal} \\ 801 + 1202 = 2003 \text{ kcal}$$

Average daily total energy expenditure per day: $3983 + 2003 = 5986 \text{ kcal}$.

It was discerned through empirical investigation that individuals meeting the criteria as proficient freestyle wrestlers exhibited an approximate range of 5000 to 5160 kilocalories in their average daily total energy expenditure throughout both their training regimen and customary daily activities, within the demographic subset of 18-19 years of age. Furthermore, this energy expenditure escalated to a bracket of 5900 to 6000 kilocalories for those within the age cohort of 20 years.

Weekly culinary recommendations from the Jizzakh Specialized Boarding School of Olympic Reserve for exceptional young freestyle wrestlers (it has been ascertained through research that the prescribed weekly dietary caloric intake for 18-20-year-old proficient freestyle wrestlers at the Jizzakh Specialized Boarding School of Olympic Reserve amounts to 4958 kilocalories).

3-table

	Full name	age	height (cm)	Weight (kg)	Average energy expenditure (kcal)	Average caloric intake of the weekly diet	Difference (kcal)
1	S.Shokirjonov	8	80	8	5120	4958	-162
2	Sh.Salimov	8	78	9			
3	M.Khujamqulov	8	92	8			
4	T.Abdulkhalilov	8	65	4			
5	A.Abdullayev	8	69	8			
6	K.Urganov	8	72	9			
7	I.Khaydarov	8	75	0			
8	M.Abdullayev	8	66	8	5006	-48	
9	J.Mamadaliyev	9	77	2			
10	Sh.Kushibokov	9	61	8			
11	J.Komilov	9	78	6			
12	Sh.Sarboev	9	78	9			
13	I.Mamayokubov	9	75	3			
14	S.Ummonkulov	0	80	8			5893
15	J.Makhsudov	0	81	7			
16	M.Khudoyberganov	0	72	7			

Conclusion and Recommendations.

Upon conducting a thorough analysis of research findings utilizing advanced mathematical statistical methods and juxtaposing them with daily caloric consumption from food and beverages, it was determined that the mean energy expenditure for 18-year-old proficient freestyle wrestlers amounted to 5120 kcal. However, their average weekly dietary intake was 4958 kcal, resulting in an average deficit of 162 kcal. Similarly, the average energy expenditure for 19-year-old qualified freestyle wrestlers stood at 5006 kcal, with a corresponding weekly dietary intake of 4958 kcal, indicating an average deficit of 48 kcal. In the case of 20-year-old qualified freestyle wrestlers, their average energy expenditure was 5893 kcal, while the average caloric intake from their weekly diet was 4958 kcal, resulting in a notable average deficit of 935 kcal, attributed to their individual characteristics.

1). It is recommended that 55-65% of the daily nutritional intake for proficient freestyle wrestlers be derived from carbohydrate

sources containing a minimum of 2.5 grams, with the standard ranging from 3 to 4 grams per pound of body weight. The optimal timing for consuming carbohydrates, in conjunction with protein-rich substances, is 2-2.5 hours prior to and 30-60 minutes post athletic training sessions. Given that noteworthy sources of carbohydrates encompass breads, pasta, cereals, fruits, and vegetables, it is strongly advised that the dietary regimen of skilled freestyle wrestlers be anchored in the glycemic index values of carbohydrate products.

2). Proteins play a crucial role in fostering cellular growth and facilitating repair processes within the human body. While conventional protein-rich sources include meat, fish, and poultry, various plant-based foods, such as beans and nuts, also serve as commendable reservoirs of this essential macronutrient. It is imperative to note, however, that nuts, despite their protein content, are concurrently high in fat, necessitating a mindful consumption approach, ideally in modest quantities. For freestyle wrestlers adhering to a qualified regimen, a strategic dietary allocation of 12-15% should be dedicated to protein sources, quantified at 0.5-1 gram per pound of body weight. This nuanced dietary strategy ensures optimal nutritional support for the unique demands imposed by the rigorous training and physical exertion inherent in the sport of freestyle wrestling.

3). A requisite component within the dietary regimen of freestyle wrestlers, akin to the general populace, is a measured inclusion of fats. Approximately 20-30% of their daily caloric intake should be derived from fats. The predominant sources of these fats are inherent within various food items such as meats, nuts, and dairy products, or are introduced during the culinary preparation process, exemplified by fried foods. Supplementary fat reservoirs encompass substances like margarine, peanut butter, and salad dressings.

Hence, it is imperative to devise and execute a tailored dietary regimen characterized by reduced volume yet heightened density and energy content, aimed at comprehensively meeting the energy requirements incurred by proficient freestyle wrestlers during their athletic training sessions.

¹¹ David A. Bender "Nutritional Biochemistry of the Vitamins" Cambridge University Press; 164-165-pages.

MUSIQA TA'LIMIDA MAVZULI KONSERTLARNING AHAMIYATI

Elnoza Ismatillayevna Quدراتova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining o'rnini va ahamiyatini ta'kidlangani holda musiqa ta'limida mavzuli konsertlar orqali o'quvchilarni musiqa madaniyatini musiqiy didi va tafakkurini o'stirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: Подчеркивая роль и значения образовательных технологий в повышении качества и эффективности передовых педагогических технологий, тема концерта в музыкальном образовании технологии.

Abstract: Emphasizing the role and importance of educational technologies in improving the quality and effectiveness of advanced pedagogical technologies, the theme of the thematic concert in music education technology.

Kalit so'zlar: musiqa, konsert, dars, mumtoz, maqom, san'at, Oliy pedagogik ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, talaba, o'quvchi, estetik tarbiya, kuy va qo'shiqlar.

Ключевые слова: музыка, концерт, урок, классика, статус, искусство, высшее педагогическое образование, общеобразовательная школа, ученик, студент, эстетическое воспитание, напевы и песни.

Keywords: music, concert, lesson, classic, status, art, higher pedagogical education, general secondary schools, student, student, aesthetic education, tunes and songs.

Musiqa darslari o'z mazmuni mohiyati va tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Musiqa darslarini sarmazmun va qiziqarli tashkil qilish o'qituvchidan muayyan darajadagi pedagogik va kasbiy mahoratni talab etadi. Musiqani tinglash, his etish, unda ifodalangan voqelik, obraz va mualliflarning g'oyasini idrok qilish nihoyatda murakkabdir. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqani tushunish, unung g'oyaviy-badiiy mazmunidan bahramand bo'lishi muayyan darajada musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda emotsional his-tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liqdir.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish, asarlarni tinglash, ijro va idrok etishda emotsional ta'sirchanlik qanchalik faol bo'lsa ularni o'zlashtirish va estetik zavq olish ham shunchalik yuqori, mazmundor va puxta bo'ladi¹. Musiqa darslarida o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotiga mansub folklor, mumtoz va maqom asarlari, zamonaviy janrlarda yaratilgan kuy-qo'shiqlar, shuningdek, musiqa san'atining atoqli namoyondalari – xalq hofizlari, cholg'uchilari, bastakor-kompozitorlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish o'quvchilarni musiqiy

tafakkuri va dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishi musiqa madaniyatini tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga o'z pedagogik mahorati va o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish vazifasini qo'yadi.

Shunday vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablari "musiqa madaniyati" fani bo'yicha o'tkaziladigan sinf – konsertlari va sinfdan tashqari tashkil qilinadigan mavzuli konsertlarni o'ziga xos o'rnini va ahamiyatini kattadir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha sinf konsertlarini chorak va yil mavzulari bo'yicha, mavzuli konsertlarni darsdan tashqari faoliyatda musiqa san'atining ayrim janrlari, asarlar, bastakor – kompozitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin.

Mavzuli konsertlarni tashkil qilish quyidagi maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi:

- o'quvchilarda milliy musiqa merosga qiziqish va mehr–muhabbat, uni o'rganishga bo'lgan ishtiroqni o'stirish, musiqa san'atining mashhur namoyondalari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish;

- o'quvchilarda musiqada ifodalangan

voqea–hodisalarga estetik munosabatni tarkib toptirish, musiqa asari mazmunida ifodalangan voqelikni, obrazlarni idrok etish, shu orqali go'zallikni his qilish, tushunishga o'rgatish;

- o'quvchilarda ma'lum bastakor, kompozitor, ijodkor hayoti, faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning eng sara asarlarida aks etgan falsafiy, ijtimoiy, madaniy g'oyalar, hayot manzaralari, badiiy obrazlar mohiyatini anglash, idrok qilishga o'rgatish;

- xalq musiqasining folklor, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari bilan chuqurroq tanishtirish, bu san'at janrlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida kengroq bilim va tushunchalarga ega bo'lish, milliy musiqamizga barqaror qiziqishni hosil qilish;

- o'quvchilarda musiqa asarlarini tinglash, kuylash, ijro etishga ijodiy yondashish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish²;

- o'quvchilarda musiqiy did, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

- mavzu doirasida musiqiy–nazariy bilim, tushuncha va ma'lumotlarni o'zlashtirishda qo'shimcha manbalardan foydalana bilishga o'rgatish.

Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quv materiallari yil va chorak mavzulari kesimida tizimlashtirilgan. Ular mazmunida musiqa san'atining xalq ijodiyotiga mansub folklori (bolalar folklori), mumtoz va maqom yo'nalishlari, zamonaviy musiqa san'atining xor, orkestr (o'zbek xalq cholg'ulari, simfonik orkestr) vokal, simfoniya, opera, balet, estrada, bolalar ertak-tamoshalari, musiqali drama kabi turlari haqida umumiy ma'lumotlarga o'rin berilgan³. Birgina dars jarayonida ushbu yo'nalish va janrlar bo'yicha to'laqonli bilim va tushunchalarni egallashning imkoniyati g'oyat cheklanganligi, mavzuli konsertlarning dars mazmunini boyitish va samaradorligini oshirishdagi o'rnini va imkoniyatlari g'oyatda kata ekanligini tasdiqlaydi.

Mavzuli konsertlarda o'quvchilar ta'kidlab o'tilgan musiqa san'atining turli yo'nalish va janrlari, atoqli namoyondalarining ijodi, yaratgan asarlari, ijrochilik faoliyati

bo'yicha dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlab, o'zlari qiziqqan biror turi bilan mustaqil va qo'shimcha shug'ullanish, o'z iqtidor va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Musiqa san'ati bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning muhim bir shakli bo'lgan mavzuli konsertlarni muntazam o'tkazilib borilishi o'quvchilarning musiqa san'atiga qiziqishlarini oshiradi, bilim doirasini kengaytiradi, estetik didlarni shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Mavzuli konsertlarni o'tkazish uchun, eng avvalo, uning reja va dasturi tuziladi. Konsert uchun bevosita kerak bo'lgan zarur ko'rgazmali va texnik vositalar: cholg'u asboblari, kompyuter, ovoz kuchaytirgich apparati, mikrofon, ekran, kompozitor-bastakorlar hayoti va ijodi yoritilgan kompakt disklar, stendlar, plakatlar, sahna va sahna ishtirokchilari uchun kerakli buyumlar tayyorlab qo'yiladi⁴. Zalni bezash, taklifnoma, e'lonlar tayyorlashlari uni o'tkazish uchun mas'ul sinf o'quvchilari yoki to'garak qatnashchilariga yuklatiladi. Vazifalar taqsimlab beriladi. Notiqlar matnni yodlash, badiiy havaskorlarga musiqali nomerlarni dastur bo'yicha sahnalashtirish vazifalari topshiriladi. Mavzuli konsertlar biror bastakor, kompozitor, hofiz, ijrochining yubileyiga yoki o'quv dasturi material mavzulariga bag'ishlangan bo'lishi mumkin⁴. Masalan, bolalar kompozitori Sheramat Yormatov, Avaz Mansurov, o'zbek milliy musiqa san'atini darg'alari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Komiljon Otaniyozov, bastakorlar Muhammadjon Mirzayev, Imomjon Ikromov, xalq hofizlari Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, xalq artistlari Mukarrama Turg'unboyeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim⁵, kompozitorlar Mutal Burhonov, Sulaymon Yudakov, Yevropa klassik kompozitorlari V.A.Motsart, Betxoven, Dj.Verdi, P.I.Chaykovskiy kabilarning ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lishi mumkin.

Konsert rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1.To'garak a'zolari va muayyan sinf o'quvchilari bilan mavzuga oid ijod namunalari musiqiy asarlar fotosuratlar ko'rgazmasini tashkil etish.

2.Ma'ruzalar tayyorlash.

² D.Soipova. "Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish". Toshkent, Fan va texnologiyalar markaziy bosmaxonasi, 2006 yil. 78-bet

³ Quدراتov I, Abdulkarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDU bosmaxonasi, 2015yil.56-bet

⁴ E.Abdulkarimova. Ilim ham jamiyat ajiniyaz atindagi Nukis mamlakatlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X

⁵ O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. –T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y. 567b.

3. Mavzuga oid qo'shiq, raqslar, murakkab janrlarga xos musiqa asarlari, vedioyozuvlari.

Mavzuli kechalarni o'tkazishda ijodiy jamoalar vakillari, tasviriy san'at, adabiyot o'qituvchilari hamkorligi uning badiiy ta'sirchanligi va mazmundorligini ta'minlaydi. Mavzular o'qituvchi va mutaxassislar tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzada san'atshunos olimlarning respublika matbuotida, ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalaridan, o'zbek milliy ensiklopediyasi va boshqa manbalardan foydalanilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzalarni zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, slaydlar orqali namoyish etib borish uning samaradorligini ta'minlaydi.

Konsert so'nggida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mavzuli konsertlar, musiqiy ta'limning eng ta'sirchan, samarali shaklidir. Mavzuli konsertlar vositasida ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining o'рни va ahamiyati ta'kidlangani holda musiqa ta'limida mavzuli konsert orqali o'quvchilarning musiqa madaniyatini musiqiy didi va tafakkurini o'stirishda juda muhim vosita bo'lib xizmat

qiladi.

Konsert faoliyatlarini tashkil qilish shakliga kelsak, bu yo'nalishda deyarli barcha maktablarda turli darajada ishlarning yo'lga qo'yilishi tabiiy ravishda hayotiy talab va hayotiy ehtiyojlar natijasida kelib chiqadi. Lekin ommaviy shakl faqatgina turli bayramlarda tayyorlanadigan bayram konsertlari bilan ham cheklanib qolmasligi lozim. Bayram konsertlari o'z o'rnida hayotimizda muhim o'rin tutuvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlardan hisoblanadi⁶. Bu jarayonda o'quvchi-yoshlarni san'atga bo'lgan mehr-muhabbatlari qiziqish va qobiliyatlari keng rivojlanishga katta imkoniyat yaratiladi. Bolalar ayniqsa o'z talant va iqtidorlarini ko'pchilik oldida nomoyon qilish g'urur va istagi ularni san'atning ma'lum bir turlari bo'yicha yanada ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishga chorlaydi.

Yana bir muhim tomoni bayram tadbirlari, konsert dasturlari tayyorlashda ishtrok etish, sahnada o'z iste'dodini namoyish etish jarayonida o'quvchilar estetik tarbiya nuqtayi nazaridan ham shakllanib boradilar⁷. Shuning uchun bunday ishlarni ham tizimli va rejali tarzda, doimiy ravishda yo'lga qo'yish pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

O'ZBEKISTONDA KASANACHILIKNI RIVOJLANTIRISH HAMDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA GAZLAMALARGA ISHLOV BERISHNING BOZOR MUNOSABATLARI

Firdavsxon Muxtorovna Yusufxodjayeva - o'qituvchi, Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korini egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Shaxsning malakali mutaxassis bo'lib yetishishi va uning asosiy mezonini sifatli ta'limning hozirgi bosqichida O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish hamda texnologiya darslarida gazlamalarga ishlov berishning bozor munosabatlarini o'rganish maqsad qilib olingan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование зрелого человека, приобретение им подходящей профессии, его способность вносить вклад в развитие общества, жить и тем самым проявлять свою идентичность в обществе, то есть созреть как личность. Ученых развитие человека как квалифицированного специалиста и его основной критерий на современном этапе качественного образования направлены на развитие отечественной промышленности в Узбекистане и изучение рыночных отношений переработки газа на уроках технологии.

Abstract: In this article, the formation of a mature person, his acquisition of a suitable profession, his ability to contribute to the development of society, to live and thereby manifest his identity in society, that is, to mature as a person, are taken into account. The development of a person as a qualified specialist and its main criterion at the current stage of quality education are aimed at the development of Home Industry in Uzbekistan and the study of market relations of gas processing in Technology classes.

Kalit so'zlar: Kasanachilik, texnologiya, zardo'zlik, kashtachilik, popochilik, zar to'n, do'ppilar, kashtali yostiqlar, ro'mollari, joynamozlar, gazlamalar.

Ключевые слова: Домашнее хозяйство, технология, ювелирное дело, вышивка, украшения, бижутерия, чепцы, вышитые подушки, платки, украшения, марля.

Keywords: Homemaking, technology, goldsmithing, embroidery, jewelry, hats, embroidered pillows, shawls, ornaments, gauzes.

O'zbekistonimizda ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar respublikamizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur".

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar natijasi o'laroq, bugungi kunda barcha sohalar kabi texnologiya, kasb-hunar, shu jumladan, kasanachilik ham rivojlanib, takomillashib bormoqda. Respublikamizda aholini mehnat resurslardan ijobiy foydalanish maqsadida texnologiya, kasb-hunarning barcha turlari, ayniqsa, milliy qadriyat sifatida bugungi kunda tiklanayotgan va tiklangan kosibchilik, hunarmandchilik, zardo'zlik, qishloq xo'jaligi, fermerlik, tikuvchilik, kasanachilikka oid ko'plab qonun va farmonlar ishlab chiqildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-fevral 2023-yildagi PQ-70-son "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini yaqqol misol qilib aytishimiz mumkin².

Ta'kidlash joizki, texnologiya yo'nalishida

⁶ Elnoz Ismatillayeva Abdulkarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 yil.
⁷ Hamidov H. O'zbek an'anviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996y.

¹ Mukhtorovna Y.F. (2022). "Small" in training natural fibers use the method of working in groups.
² D. Yusupova, "Mahallalarda kasanachilikni rivojlantirishning aholi bandligini ta'minlashdagi o'рни" 03.02.2022. scientific progress.

kasanachilik atamasi azaldan mavjud bo'lib, avvalo, kasanachi, uyda ishlovchi, ish beruvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida o'z mehnat vazifalarini uylarida bajaruvchi xodimlar toifasi tushuniladi.

Kasanachilik hunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o'z uyida ishlashi, yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdir.

Oiladan, uy ishidan ajralib, korxonalar, tashkilotlarda ishlash imkoniyati bo'lmagan va yordamchi daromadga muhtoj shaxslar uchun kasanachilik juda qulay hisoblanadi.

Kasanachilikning, ayniqsa, qishloq joylarda uy-ro'zg'or ishlari, oilada bola tarbiyasi bilan band bo'lgan shaxslar uchun ham tashkil etilishi ahamiyatlidir. Shu bilan birga kasanachilikni rivojlantirish orqali hunarmandchilik ham rivojlanib, takomillashib boradi. Hunarmandchilik, ayniqsa, igna ishi talab etuvchi tikuvchilik, kashtachilik, mebelsozlik va boshqalar uchun kasanachilik juda qulay hisoblanadi.

Garchi, kasanachilik sohasi bizga oldindan ma'lum bo'lsa-da, unga nisbatan e'tibor kuchayib bormoqda. Dastlab, kasanachilik bilan shug'ullanishda ayrim muammolar bo'lar edi. Bu muammolar davlat ro'yxatida o'tkazishda soliq tizimidagi ayrim holatlarda o'z aksini topar edi. Bugungi kunda bu muammolar yuqoridagi Farmon, Qaror, nizomlar asosida o'z yechimini topmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda kasanachilik sanoat korxonalarini bilan o'zaro hamjihatlikda shartnoma tuzib, bu shartnoma bo'yicha kasanachiga xomashyo, asbob-uskunalar yetkazib berilib, ular ishlab chiqargan mahsulotlarning sotilishi ham kafolatlanmoqda³.

Darhaqiqat, kasanachilikni rivojlantirish va uni takomillashtirish bugungi kunda oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Zero, rivojlangan mamlakatlarda yirik sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulotlarni jamlovchi qismlarning 30% idan ortig'ini aynan kasanachilar yetkazib beradi. Oziq-ovqat, xalq iste'mol mollariining 40% idan oshig'ini uy sharoitida kasanachilar tomonidan tayyorlanadi.

O'zbekiston sharoitida ham kasanachilik rivojlanmoqda. Jumladan, Buxoro va Surxandaryo viloyatlarida uy sharoitida kasanachilik yo'li bilan albaster, ohak kabi qurilish mollari, Toshkent shahrida chinni, shisha buyumlari, Qashqadaryo va Jizzaxda junni qayta ishlash, arqon, gilam to'qish, zardo'zlik, Namangan va Marg'ilonida atlas to'qish, Andijon, Farg'ona, Toshkent, Qo'qon shaharlarida uy sharoitida mebel ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish uchun mazkur soha bilan shug'ullanadigan shaxslar uchun turli imkoniyat va huquqlar belgilab qo'yilgan.

Bular:

- kasanachilar uchun mazkur korxonalar rahbariyati tomonidan maosh to'lashda eng kam ish haqidagi kam bo'lmagan miqdordagi oylik to'lash;

- kasanachilar uchun mehnat daftarchasi ochilib, ularga ish stajini kiritish;

- kasanachilar faoliyatini alohida tekshirishga yo'l qo'ymaslik, nazoratchi organlar tomonidan tekshirish;

- kasanachilik bilan shug'ullanadiganlar uchun har yili 15 kundan kam bo'lmagan mehnat ta'tilini berish va hokazolar.

Yuqoridagilardan ma'lumki, O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kasanachilik sohasini O'zbekistonda yanada rivojlantirish va uni takomillashtirish aholi ishsizligining oldini oladi, bu – birinchidan⁴.

Ikkinchidan esa, O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantiradi, ya'ni respublikamiz iqtisodiyotini oshiradi.

Uchinchidan, yosh avlodning kasbiy mahoratini oshiradi, kasb-hunarli qilib, ijtimoiy hayotga yo'naltiriladi, o'z yo'lini, hayotini yangicha qurib olishga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish va uni takomillashtirishning bugungi kundagi ahamiyati muhimdir⁵.

Hozirgi kunda kasanachilik xotin-qizlarimizni nafaqat uyda faoliyat yuritishga foydali bo'lmoqda, balki ularni zamon bilan hamnafas bo'lib yashashlariga va taraqqiyot sari intilishlariga, yangidan-yangi mahsulotlar kashf qilishlariga undamoqda. Bu qanday kuzatilmoqda, qay jihatdan sezilmoqda degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Bunday yangicha rivojlanish ayollarimizni yangiliklarga intilishini, izlanishini va milliy qadriyatlarimizni zamonaviylashtirishlarida ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Misol uchun keltirib o'tadigan bo'lsak, zardo'zlik, kashtachilik, popopchilik sohaslarini olishimiz mumkin. Avvallari bu soha bilan shug'ullanadigan ayollar barcha ishlarni qo'l mehnati bilan bajarishgan bo'lishsa, hozirgi kunga kelib bu ishlar takomillashib, rivojlanib, yangi texnologiyalar asosida bajarishga erishilmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, bu sohalarda yangiliklar, katta o'zgarishlar qilinmoqda⁶. Onaxon-u, momolarimiz qo'l mehnati bilan tikkan kelinlik sarpolari, zar to'n, do'ppilar, kashtali yostiqlar, uy jihozlari barchasi qo'lda oddiy usullar bilan tikilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bular ham takomillashib hamda bir nechta o'zgarishlar kiritilib, sarpolar safiga ko'pgina safdoshlar, ya'ni gul bosilgan ko'rpa, yostiq jildlari, dasturxon tuggichlar, gulli dasturxonlar, kelinlarni salomlik ro'mollari, joynamozlar va chaqaloqlarni o'rash

uchun gulli o'ragichlar qo'shilgan bo'lib, bular bilan ayollar kasanachilikda keng foydalanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar hozirgi kundagi ayollarimizga foydasi tegibgina qolmay, bu ularni qo'l mehnatini bir necha foizga yengillatdi va yangidan-yangi gullarni tabiiy, yanada jilvakor bo'lishiga erishilmoqda. Ayollarimiz bugungi kunda chet elning "Zinger", "Yamata" tikuv mashinalaridan foydalangan holda o'z ishlarni yengillatib va ish samaradorlikni oshirishmoqda.

Bu ishlarni bajarishda Prezidentimizning kasanachilikka berilgan imkoniyatlari va ajratilgan mablag'larining yordami katta bo'ldi. Shu bilan birga xotin-qizlarimizni uyda bekor qolishlarining oldini oladi. Qizlarimizni esa yangi hayotga tayyorlash va ularni hunar egallashlariga ham sabab bo'ladi. Uyda bunday ishlar bilan shug'ullangan ayollarning qizlari o'z-o'zidan ko'rib, o'rganib borish natijasida bir hunar egasi bo'lishini ta'minlaydi. Kelajakda bu qizlar hayotda ham, biror kasb egasi bo'lishida ham qiynalishmaydi⁷. Va bu narsa kelajak yoshlarimizni yomon ishlardan, hayotda qoqilib qolishdan, birovga qaram, muhtoj bo'lib qolishlarini, bir so'z bilan aytganda boqimanda bo'lishlarining oldini oladi.

Shu bilan birga bir narsani aytib o'tishni joiz deb bilamanki, maktabdagi darsdan tashqari texnologiya to'garagini, shunday kasanachi hunarmandlarga ham birlashtirishni faqat o'qituvchilar bilan chegaralanib qolmasliklarini yoki shunday kasanachilik korxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tavsiya qilgan bo'lardim. Bu sohada maktab va kasanachilar orasida o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish, shartnomalar tuzish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalash va ularga ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bozor munosabatlari va mulkchilik sharoitida yashab ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi shaxsni shakllantirish respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya darslarida o'quvchilarda bozor munosabatlariga oid quyidagi xususiyatlar shakllanib boradi⁸. Masalan:

1) Texnologiyani "Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi" amaliy darslar davomida gazlamalardan foydalanishga nisbatan tejamkorlik.

2) Gazlamalardan unumli tarzda foydalanish orqali ishbilarmonlik.

3) O'quvchilarda dars davomida mehnatsevarlik va tashabbuskorlik.

4) Tayyorlangan mahsulotga nisbatan iqtisodiy hisob-kitob va iqtisodiy aloqa.

Texnologiya "Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi" darslarida o'quvchilarda

shakllanishi lozim bo'lgan xususiyatlarini amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilab olish kerak:

- o'qituvchilarning yosh xususiyatlarini va ularning o'quv imkoniyatlarini bilish;

- o'quvchilarda gazlamalar va ularni olinish usullariga qiziqish uyg'otish;

- o'quvchilarda mashg'ulotlar jarayonida turli xil metodlardan foydalanish.

Ta'lim tizimi jarayonida, ya'ni texnologiyani "Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi" darslarida o'qituvchi o'quvchilarda bozor munosabatlariga oid bilimlarni o'zlashtirishlari uchun bir qator ahamiyatga molik qoidalarga amal qilish kerak. Bular, asosan:

1) Dars davomida o'quvchilarning kamol topishida ijtimoiy muhit roli.

2) Ijtimoiy muhitni mashg'ulotlar davomida o'zgarib borishi.

3) Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi darslarida tarbiyaning etnik-madaniy xususiyatlariga muvofiqligi.

4) Milliy hunarmandchilik, qimmatli an'analar, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy yo'nalishning mazmuni, yaqinligi va tushunarligini e'tiborga olishdan iborat⁹.

Hozirgi kunda gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi darslarida bozor munosabatlari asosida tashkil etish orqali samarali natijalarga erishishimiz mumkin. U shunday olib borilishi kerakki, o'quvchi o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Bu jarayonda o'quvchi bozor munosabatlari asosida aloqaga kirishishni, hisob-kitob qilishni ham o'rgansin. O'quvchilar gazlamalardan tayyorlangan buyumdan faqatgina ko'rgazma sifatida emas, balki undan turmushda unumli foydalanish kerak bo'ladi. Ayniqsa, bozor islohotlari sharoitida juda muhim hisoblanadi.

Darslar davomida o'qituvchi o'z o'quvchilariga bu kabi bilimlarni ham berib borishi shart.

Mazkur ishlarni amalga oshirish orqali kelajakda yoshlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalashga hamda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi bo'lgan "Bozor munosabatlari va mulkchilik sharoitida yashab ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi shaxsni shakllantirish"ga erishamiz.

Mazkur ishlarni amalga oshirish orqali mahallalarda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, jamiyatda bandlik masalalarini kamaytirish va eng asosiysi kelajakda yoshlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalashga hamda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi bo'lgan "Bozor munosabatlari va mulkchilik sharoitida yashab ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi shaxsni shakllantirish"ga erishamiz.

3 Yusufxodjaeva, F. M. (2018). Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, (1), 52-59.

4 Mukhtorova Y.F. (2022). Learning the technology of collective creative work in practice. *Open Access Repository*, 9(11), 175-179.

5 Mukhtorova, Y. F. (2022). Teaching of technology using interactive methods. *Open Access Repository*, 9(11), 169-174.

6 Mukhtorova Y.F. (2022). Maktab yoshidagi o'quvchilarga bo'sh vaqtlarda qiziqishlari bo'yicha shug'ullanish. *Pedagogs jurnali*, 4(1), 290-294.

7 Yusufxodjaeva, F. (2023, March). Texnologiya darslarida o'quvchilarga gazlamalarga ishlov berish texnologiyasini o'rgatishda "bbb" ta'lim texnologiyasidan foydalanish. In e Conference Zone (pp. 12-17).

8 Yusufxodjaeva, F., & Saxobiddinova, F. (2023). O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish va uning ahamiyati. *Conferencea*, 25-30.

9 Mukhtorova Y.F. (2022). YOUTH ORGANIZATION PARTICIPATION IN CHOOSING A PROFESSION.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH STRATEGIK VAZIFA

Baxti Murodovna Ochilova - f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada strategik vazifa bo'lgan sifatli ta'limni ta'minlash borasida amalaga oshirilayotgan ishlar va bu boradagi muammolar va potensial yechimlar yoritildi.

Аннотация: В данной статье освещена работа, проводимая по обеспечению качественного образования, что является стратегической задачей, а также проблемы и возможные решения в этой связи.

Abstract: This article highlights the work being done to ensure quality education, which is a strategic objective, as well as problems and possible solutions in this regard.

Kalit so'zlar: sifatli ta'lim, zamonaviy bilim, o'qitish standarti, o'quv dasturi, elektron o'quv adabiyotlari, QR-kod, unilibrary.uz, elektron o'quv adabiyot, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Ключевые слова: качественное образование, современные знания, стандарты обучения, учебная программа, электронная учебная литература, QR-kod, unilibrary.uz, электронная учебная литература, личностно-ориентированное образование.

Keywords: quality education, modern knowledge, teaching standards, curriculum, electronic educational literature, QR-code, unilibrary.uz, electronic educational literature, person-oriented education.

Sifatli oliy ta'lim zamonaviy dunyoda, innovatsiyalar va jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi. Butun dunyo mamlakatlari oliy ta'limga sarmoya kiritish nafaqat shaxsga bilim va ko'nikmalarni oshirish, balki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shishni e'tirof etadi. Barqaror taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Sifatli oliy ta'limga intilishi O'zbekistonning Milliy taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan keng milliy rivojlanish maqsadlariga hamohangdir. Ushbu strategik hujjatda ta'limning, xususan, oliy ta'limning jamiyatning barcha sohalarida barqaror o'sish va global integratsiyaning katalizatori sifatidagi roli alohida ta'kidlangan. Aynan shu kontekstda O'zbekistonning oliy ta'lim sifatini oshirishga bo'lgan intilishi markaziy o'rin tutadi. Sifatli oliy ta'limga bo'lgan intilish shunchaki siyosat bayonoti emas, balki fuqarolarini XXI asr uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan mustahkamlashga intilayotgan o'zgarishlarga qaratilgan sa'y-harakatlardir. "Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz"¹.

Oliy ta'lim sohasidagi sifat masalasiga ustuvor ahamiyat berishga undagan

harakatlantiruvchi kuchlar va motivlar quyidagilar:

1. O'zbekiston ilg'or xalqaro tajribani joriy etish, global bilim almashishda ishtirok etish va bitiruvchilarni xalqaro raqobatbardoshlikka tayyorlash uchun ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirishni maqsad qilgan.

2. O'zbekiston iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va an'anaviy sanoatga bog'liqlikni kamaytirishni o'z ichiga olgan iqtisodiy rivojlanishning ulkan vazifalarini qo'ydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun zamonaviy bilim va tajribaga ega yuqori malakali ishchi kuchiga ehtiyoj bor. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar nafaqat ilmiy malakaga, balki bitiruvchilarni mehnat bozori uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashga qaratilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga ham qaratilgan.

3. XXI asr "bilimlar iqtisodiyoti" deb ham nomlanadi, u innovatsiyalar, texnologiya va bilimlardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy o'sish bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari tadqiqot, innovatsiyalar va texnologiyalarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistondagi islohotlar o'z universitetlarini innovatsiyalar va tadqiqot markazlariga aylantirishga, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarishga hissa qo'shishga qaratilgan.

4. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida

amalga oshirilayotgan islohotlar inklyuzivlik va ta'lim olishning teng huquqliligiga katta e'tibor qaratmoqda. Aholining keng qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kafolatlash ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu inklyuziv yondashuv adolatli jamiyatni shakllantirish va har bir fuqaroning imkoniyatlarini to'liq ochishga yordam beradi.

5. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) va 2030-yilgacha yanada barqaror, adolatli va farovon dunyoga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarining tarafdori. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar turli SDGlar, jumladan, sifatli ta'lim (4-maqsad), munosib mehnat va iqtisodiy o'sish (8-maqsad), sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma (9-maqsad) va tengsizliklarni kamaytirish (10-maqsad) bilan bog'liq bo'lganlar bilan uyg'unlashtirilgan.

2020-yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassasalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy va akademik mustaqillik berish orqali ular orasida raqobatni kuchaytirish, sifat nazorati tizimini takomillashtirish, tadqiqot natijalarini ko'paytirish, sanoat aloqalarini mustahkamlash, talaba qizlar va ijtimoiy nochor oilalar vakillariga stipendiyalar berish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xususiy sektor ishtirokini oshirish, startap tezlashtiruvchilarini yaratish va tadqiqot samaradorligiga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilgan. Mazkur elementlarning konsepsiyaga kiritilishi oliy ta'lim tizimini isloh qilishga har tomonlama va istiqbolli yondashuvni namoyon etadi. Xususan:

-oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni rag'batlantirish sifat, o'quv dasturi va o'qitish standartlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu OTM doimiy ravishda mukammallikka intilishlariga undaydi, natijada talabalarga kengroq yuqori sifatli ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish orqali foyda keltiradi;

-davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy va akademik mustaqillikning berilishi ularning o'zgaruvchan ta'lim talablariga javoban yanada samarali faoliyat yuritishi va innovatsiyalar kiritish imkonini beradi. Bu byurokratiyani kamaytiradi, OTMlarga o'zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi va yuqori iste'dodlarni jalb qiladi;

-sifat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish taqdim etilayotgan ta'limning yuqori standartlarga javob berishini ta'minlaydi. Bu talabalar va ish beruvchilarni O'zbekistonda olingan ilmiy darajalar ham mamlakat ichida, ham xalqaro miqyosda tan olinishi va hurmat qilinishiga ishontiradi, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va raqobatbardosh mehnat bozorini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

-oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotlarni rag'batlantirish bilim yaratish va innovatsiyalarga hissa qo'shadi. Tadqiqotlar texnologik taraqqiyotga, sog'liqni saqlashni yaxshilashga va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga va umumiy hayot sifatini yaxshilashga olib keladi;

-oliy ta'lim muassasalari va sanoat tarmoqlari o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatish harikkitomon uchun ham manfaatlidir. Talabalar amaliy tajribaga ega bo'lishadi va sanoat yanada malakali va ishga tayyor ishchi kuchidan foyda ko'radi. Ushbu sinergiya iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlaydi;

-talabalar va ijtimoiy jihatdan nochor oilalardan bo'lganlar kabi kam vakillik guruhlari uchun stipendiyalar inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni targ'ib qiladi. Ushbu tashabbus mavjud ta'limdagi kamchiliklarni bartaraf etishga, marginal guruhlarning imkoniyatlarini kengaytirishga va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga yordam beradi.

-xalqaro universitetlar va muassasalar bilan hamkorlik talabalar va professor-o'qituvchilarni turli nuqtayi nazar va tajribalar bilan tanishtirish orqali ta'lim sifatini oshiradi. Shuningdek, u innovatsiyalar va rivojlanishga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan bilimlarni uzatish va tadqiqot hamkorliklarini osonlashtiradi.

-xususiy sektorni oliy ta'limga jalb qilish ta'lim takliflari doirasini kengaytirishi va qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratishi mumkin. Ushbu davlat-xususiy sheriklik O'zbekistonda ta'lim sifatini yaxshilashi mumkin;

-ishga kirishish tezlatgichlarini yaratish va tadqiqot samaradorligiga ustuvorlik berish: tadbirkorlik va tadqiqot samaradorligini rag'batlantirish bilimiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Boshlang'ich tezlatgichlar innovatsion biznesning o'sishini qo'llab-quvvatlashi mumkin, samarali tadqiqot amaliyotlari esa cheklangan resurslarning ta'sirini maksimal darajada oshiradi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. B - 217.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb belgilanishi ijtimoiy adolat, inson kapitali o'zining asosiy qadriyatlarini ekanligini yana bir bor tasdiqladi va har bir shaxs yuqori sifatli ta'lim va ijtimoiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatni yaratishga bo'lgan chuqur intilishini aks ettirdi. Binobarin, "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'yg'an strategik vazifalardan biridir".

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy jihatlaridan biri o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish bo'ldi. O'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni³ belgilanishi tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvga o'tishni ifodalaydi.

Ta'lim dasturlarining tuzilmasi intellektual qiziqish, fanlararo ta'lim va shaxsiy o'sishni rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu talabalarni turli nuqtayi nazarlar bilan shug'ullanishga va tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga undaydi. Sifatli oliy ta'lim dasturlarini yaratish uchun hukumat, ta'lim muassasalari, professor-o'qituvchilar, talabalar va sanoat manfaatdor tomonlarini jalb etgan holda yaxlit va hamkorlikdagi yondashuv muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan tendensiyalarga moslashish va ta'lim dasturlarini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish mamlakatdagi oliy ta'limning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga yordam beradi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va ta'lim sifatini oshirish borasida ECTSga hal qiluvchi qadam sifatida qaralmoqda. Yevropa kredit moduli tizimi (ECTS) Yevropa oliy ta'lim zonasidagi (EHEA) oliy ta'lim muassasalari o'rtasida kreditlarni o'lchash va o'tkazish tizimidir. U bitta kredit talabaning 25-30 soatlik ish yukini, shu jumladan, aloqa soatlarini ham, mustaqil ta'limni ham ifodalash tamoyiliga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ni tasdiqladi. Bosqichma-bosqich

joriy etilayotgan ECTS tizimiga 2030-yilga borib mamlakatdagi barcha oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi o'tishi kutilmoqda. ECTS tizimi talabalarining O'zbekistondagi turli oliy ta'lim muassasalari o'rtasida, shuningdek, O'zbekiston va boshqa EHEA mamlakatlari o'rtasida ko'chirishni osonlashtiradi. Bu xorijlik talabalarining O'zbekistonda o'qishini ham osonlashtiradi. Bundan tashqari, ECTS tizimi O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Tizim talabalarga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu an'anaviy o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvlarga qaraganda samaraliroq ekanligi ma'lum. ECTS tizimi, shuningdek, ta'lim natijalarining muhimligini ta'kidlaydi, bu esa talabalarining ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlashga yordam beradi. ECTS odatda ECTS kreditlarida o'lchanadigan dastur doirasidagi alohida kurslar yoki modularga kreditlar berishni o'z ichiga oladi. Ushbu kreditlar kurs bilan bog'liq ish yuki va o'quv natijalarini ifodalaydi. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari har bir kurs bo'yicha aniq ta'lim natijalarini belgilash maqsadida o'z dasturlari va kurslarini qayta qurishni boshladilar. Bu ECTSni amalga oshirishning asosiy jihati bo'ldi, chunki u o'quvchilarning o'qish davomida muayyan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kreditlarkurslarga kutilgan ish yukiga, jumladan ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari va mustaqil ta'lim soatlariga qarab ajratildi. Ushbu taqsimot talabalarining dastur bo'yicha olgan jami kreditlari umumiy ish yukiga mutanosib bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. AKTSga moslashish uchun O'zbekiston institutlari A (a'lo)dan F (muvaffaqiyatsiz)gacha bo'lgan ECTS baholash shkalasidan foydalanishni boshladi. Ushbu baholash tizimi talabalarni izchil va oshkora baholashda yordam beradi, bu esa muassasalar bo'ylab baholarni o'tkazishni osonlashtiradi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ECTS tizimiga to'liq moslashtirilgan yangi o'quv dasturi ishlab chiqildi. Yangi o'quv rejasi majburiy va tanlov fanlarni o'z ichiga oladi va talabalarga ularning qiziqishlari va maqsadlariga mos keladigan fanlarni tanlashda ko'proq moslashuvchanlik beradi. Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetida ECTS asosidagi baholash tizimi joriy etildi. Yangi tizimga ko'ra, o'quvchilar darsda qancha vaqt sarflaganiga qarab emas,

² O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>
³ <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

balki o'qish natijalariga qarab baholanadi. O'zbekiston Milliy universiteti Yevropaning bir qancha universitetlari bilan talabalar almashinuv dasturini yo'lga qo'yg'an. Dastur doirasida talabalar bir yoki ikki semestrni Yevropadagi hamkor universitetda o'qishlari mumkin va ularning to'plagan kreditlari o'z universitetiga qaytariladi.

Bu O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ECTS tizimi qanday tatbiq etilayotganiga bir nechta misollar, xolos. Tizimni joriy etish hali dastlabki bosqichda, biroq hukumat o'tishni amalga oshirishga intilayotgani aniq.

Ma'lumki, bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida elektron o'quv adabiyotlarining o'rni va ta'siri kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida, oliy ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilishda ta'limni axborotlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Axborotlashayotgan dunyoda yoshlarimizga zamonaviy ta'lim berish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Elektron o'quv adabiyotlari, shubhasiz, jozibador va ta'sirchan ta'lim vositasi bo'lib, u o'zida interaktivlik, multimedia, tezkor qayta aloqa kabi imkoniyatlari bilan yoshlarni o'ziga tobora jalb etib bormoqda. Bugun yoshlar 400-500 betli kitoblarni emas, jozibador, ta'sirchan va zamonaviy imkoniyatlarga ega o'quv adabiyotlariga intilmoqda. Shu boisdan, "Milliy loyiha" sifatida oliy ta'lim tizimida elektron o'quv adabiyotlarini yaratishni yo'lga qo'yish zarur.

Jahon tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, Janubiy Koreya, Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Hindiston, Shvetsiya, Finlandiya, Estoniya, Belorussiya va Qozog'iston kabi davlatlarda elektron o'quv adabiyotlarini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha milliy dasturlar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, AQShda 2012-yildan "Raqamli darslik", Singapurda 2015-yildan 10-yillik "Intellektual millat", Buyuk Britaniyada 2017-2018-yillarda "Buyuk Britaniyaning ochiq darsliklari", Hindistonda 2015-yildan "Raqamli Hindiston" loyihalari amalga oshirilmoqda. Janubiy Koreyada hukumat 2015-yildan boshlab, maktablarda to'liq qog'oz darsliklardan voz kechdi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistondagi OTMlarda so'nggi ikki-yilda yaratilgan elektron o'quv adabiyotlarning 60 foizi biznes, boshqaruv va huquq bilim sohasiga to'g'ri kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muhandislik, ishlov berish va qurilish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot kabi muhim bilim sohalari bo'yicha elektron o'quv adabiyotlar

deyarli yaratilmagan. Shu bois O'zbekistonda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish" vazifasi belgilandi.

Davlat oliy ta'lim muassasalari Axborot-resurs markazlarining umumiy fondi 3 649 243 nomda, 24 119 406 nusxani tashkil etadi. Shundan 673 651 nomdagi o'quv adabiyotlari va 231 508 nomdagi ilmiy adabiyotlar elektron shaklga o'tkazildi. 2022-yilda O'zbekiston hududidagi 68 ta oliy ta'lim muassasalaridagi 150 mingdan ziyod elektron resurslar bazasi unilibrary.uz internet platformasiga integratsiya qilindi. Platformada o'quv adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar va boshqa turdagi adabiyotlar jamlandi. Shuningdek, "unilibrary.uz"da 70 dan ortiq sohalar o'rin olgan bo'lib, foydalanuvchi o'z qiziqishi yoki mutaxassisligi bo'yicha istalgan adabiyotdan onlayn o'qishi yoki yuklab olishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilar ma'lumotni audio, video va kompyuter grafikasi yordamida sifatli ko'rish, o'qish, eshitish va yuklab olish imkoniga ega. Undan 24 soat mobaynida foydalanish mumkin. Bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalari Axborot-resurs markazlarining 51 tasi ARMAT++, 12 tasi IRBIS, 4 tasi KARMAT va 4 tasi UNICAT dasturiy ta'minot tizimidan foydalanmoqda.

Sifatli ta'lim islohotlari ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning hal qiluvchi rolini ko'rib chiqdi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida pedagog xodimlar ishga qabul qilinadi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 14 ta oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilishda o'ziga xos yondashuvlarga asoslaniladi va bu borada yagona standart mezonlar mavjud emas. Lekin ijobiy natijalar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, ishga qabul qilishda kafedra mudiri yetakchi rol o'ynayotgan bo'lsa-da, OTM huzuridagi Jamoatchilik kengashining ham o'rni sezilmoqda (TerDU, JDPU). Ba'zi OTMlarda ishga qabul qilishning shaffofligini ta'minlash va halol raqobat muhitini yaratish uchun tashkilot veb-saytida alohida sahifa

mavjud (FarPI, UrDU, GulDU).

O'zbekiston o'z pedagog kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirishga sarmoya kiritdi. Ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari o'qituvchilarni o'qitishning innovatsion usullari, texnologiya integratsiyasi va pedagogik mahorat bilan jihozlash uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo'yicha 4 ta mintaqaviy va 17 ta tarmoq markazlari hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha Bosh ilmiy-metodik markaz faoliyat yuritadi. Malaka oshirish "Mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish", "Muqobil malaka oshirish", "Ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o'qish" shakllarida amalga oshiriladi. Malaka oshirish kurslarida mashg'ulot olib borish uchun jami 812 nafar tajribali professor-o'qituvchilar hamda sohaning yetuk mutaxassislari jalb etilgan bo'lib, ularning 258 nafari (31,8%) fan doktori, 447 nafari (55%) fan nomzodi va 107 nafari (13,2%) mutaxassis o'qituvchilar hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida oliy ta'lim muassasalarining 27288 nafar rahbar va pedagog kadrlari malaka oshirgan bo'lib, ularning 6243 nafari malaka oshirish markazlarida to'g'ridan to'g'ri o'qish shaklida, 14391 nafari masofaviy shaklda, 6654 nafari muqobil shaklda o'z malakalarini oshirdilar. Bundan tashqari, ish sharoitlarini yaxshilash va raqobatbardosh kompensatsiya paketlari orqali yuqori malakali o'qituvchilarni jalb qilish va saqlab qolish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Masalan, o'tgan davr mobaynida malaka oshirish kurslariga jami 707 nafar xorijiy mutaxassis jalb qilingan. Jumladan, Yevropadan 145 nafar, AQShdan 169 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 154 nafar hamda MDH mamlakatlaridan 239 nafar mutaxassis ishtirokida sohaga oid master klass, seminar trening, ma'ruza mashg'ulotlari olib borilgan. 2022-yilning sentabr oyi holatiga 1 ming 35 nafar xorijiy yetakchi olimlar, mutaxassis-amaliyotchilar va yuqori malakali o'qituvchilar tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklariga o'quv mashg'ulotlarini hamda soha mutaxassislariga mahorat darslarini o'tish uchun jalb etilgan.

So'nggi olti yilda (2017-2022 yy) Respublika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan o'zaro hamkorlik dasturlari hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi grantlari doirasida 6 ming 151 nafar professor-o'qituvchilar xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish

va stajirovka o'tash uchun yuborildi. Ularning 2185 nafari Yevropa, 445 nafari Amerika, 1059 nafari Osiyo, 2462 nafari MDH mamlakatlariga yuborildi. Oxirgi olti yilda (2017-2022) oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida 6 ming 279 nafar xorijlik mutaxassislar o'quv jarayoniga jalb qilingan bo'lib, ularning 1 ming 845 nafari Yevropa, 462 nafari Amerika, 1 ming 759 nafari Osiyo, 2 ming 213 nafari MDH mamlakatlari professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyatini sifat jihatdan yaxshilash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi va "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlarini qabul qilinishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorda belgilangan muhim vazifalar esa mazkur harakatlar samaradorligini ta'minlashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. 2022-yil yakunida respublikadagi oliygohlarda 34 539 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritib, ulardan ilmiy darajali professor-o'qituvchilar soni 13 450 nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 9% ga yaxshi deganidir. O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyat ko'rsatkichi 2017-yilda 30,3% ga teng bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 39,3% ga yetkazildi. Oliy ta'lim muassasalarida 2017-yilda dissertatsiya himoyalari bo'yicha atigi 32 ta ilmiy kengashlar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 179 taga yetdi.

2017-yilga nisbatan 2022-yilda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyalari 2848 tani tashkil etib, doktorlik dissertatsiya himoyalari ikki yarim baravarga (ya'ni, 122 tadan 314 taga) va falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyalari deyarli o'n bir baravarga (ya'ni, 221 tadan 2534 taga) oshdi.

2021-yilda mamlakatdagi 15 ta oliy ta'lim muassasasida jami 39 ta ilmiy laboratoriyalar mavjud bo'lib, ularda 183 nafar ilmiy xodim faoliyat olib borgan bo'lsa, 2022-yilda yana 7 ta oliy ta'lim muassasasida jami 10,3 mln. dollarlik ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etildi. Jumladan, Samarqand davlat universitetida – Muhandislik fizikasi ilmiy-o'quv markazi, Buxoro davlat universitetida - Fizika va muqobil energiya manbalari ilmiy-o'quv markazi, Qoraqalpoq davlat universitetida – Ekofizika ilmiy-o'quv markazi, Urganch davlat

universitetida – Yarimo'tkazgichli quyosh elementlari va lazer fizikasi ilmiy-o'quv markazi, Qarshi davlat universitetida – Fizika-astronomiya ilmiy-o'quv markazi, Andijon davlat universitetida – Yarim o'tkazgichlar fizikasi ilmiy-o'quv markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ilm-fan va amaliyot integratsiyasini mustahkamlash yo'nalishidagi islohotlar ham o'z samarasini bera boshladi. Jumladan, Respublika oliy ta'lim muassasalari tomonidan 2017-yilda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 59,4 mlrd so'mlik ilmiy loyihalar bajarilgan bo'lsa, 2022-yil yakunlariga ko'ra, mazkur ko'rsatkich 277,1 mlrd so'mga yetkazildi.

Oliy ta'lim muassasalarida 2022-yil yakunlariga ko'ra, 117,9 mlrd so'mlik xo'jalik shartnomalari bajarildi va bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan deyarli yetti baravarga oshirildi (ya'ni, 2017-yilda 11,9 mlrd so'mga teng xo'jalik shartnomalari bajarilgan).

OTMlarda 2017-yilda 59,4 mlrd so'mlik ilmiy loyihalar bajarilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 277,1 mlrd so'mga, xo'jalik shartnomalari bajarilishi 11,9 mlrd so'mdan 117,9 mlrd so'mga, xalqaro loyihalarni amalga oshirish 13,2 mln AQSh dollaridan 179,9 mln AQSh dollariga yetdi.

2022-yil natijalariga ko'ra davlat ilmiy dasturlari doirasida umumiy mablag'i 277 mlrd 110 mln so'm bo'lgan 613 ta loyihalar bajarildi. Umumiy mablag'i 179,9 ming dollar bo'lgan 226 ta xorijiy ilmiy loyihalar; umumiy mablag'i 20 mlrd 707 mln so'mlik 176 ta startap loyihalar; umumiy mablag'i 117 mlrd 915 mln so'm bo'lgan 4998 ta xo'jalik shartnomalari bajarildi.

Xalqaro loyihalarni amalga oshirish ko'lami ham sezilarli darajada oshmoqda, 2017-yilda 13,23 mln AQSh dollariga teng xalqaro loyihalar bajarilgan bo'lsa, 2022-yil yakunlariga ko'ra, mazkur loyihalar qiymati 179,9 mln AQSh dollariga yetkazilgan.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi natijalar oliygohlarning xalqaro darajada tan olinishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, 2021-yilda 4 ta oliy ta'lim muassasasi ("Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislar instituti" MTU, O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti) xalqaro e'tirof etilgan QS World University Rankingsning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo – EECA mintaqaviy reytingida 251-400 o'rinlarga kirdi. 2022-yilda O'zbekiston Milliy

universiteti mazkur tashkilotning "Predmet (fan) reytingi"da "Matematika" bo'yicha dunyoning eng kuchli 500 ta universiteti qatoridan joy oldi. 2022-yil oktabr oyida Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – Times Higher Education agentligi o'zining World University Rankings – 2023 reyting natijalarini e'lon qildi va 18 ta oliy ta'lim muassasasi "reporter" maqomida qayd etilishi bilan TOP-1000 talik reyting uchun davogarlar o'tgan-yilgi 10 tadan 28 taga yetdi. Respublikaning 28 ta OTM World University Rankings – 2023 xalqaro reytingida "reporter" maqomiga ega bo'ldi. 2022-yil noyabr oyida Quacquarelli Symonds xalqaro reyting tashkiloti Osiyo Universitetlarining 2023-yil uchun reyting (QS Asia University Rankings - 2023) natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, ilk bor O'zbekistonning 8 ta oliy ta'lim muassasasi top-1000 talikdagi Osiyoning eng kuchli universitetlari ro'yxatiga kiritildi.

Mazkur reyting agentliklari ro'yxatiga kirishda muhim ko'rsatkichlardan biri – bu, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining nashr faolligi hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda Respublika oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tomonidan "Scopus" xalqaro ilmiy-texnik bazasidagi jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar soni 2017-yilda 589 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 3173 taga ortishiga erishildi.

Oliy ta'limda o'quv jarayoni sifatini aniqlashtirishning yo'llaridan biri talabalar o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazishdir. So'rovnoma orqali jarayon holati yanada aniqroq yuzaga chiqadi. Respublikadagi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni sifatini baholash uchun 2022-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnoma 17 savoldan iborat bo'lib, unda jami 13 ming 155 nafar talaba ishtirok etdi. Ba'zi savollarga berilgan javoblardan mavjud muammolar aniqlanadi:

1. "Siz tahsil olayotgan universitetdagi ta'lim sifatini qanday baholaysiz?" degan savolga respondentlarning 15,7 foizi a'lo, 28,2 foizi qoniqarli, 17,1 foizi qoniqarsiz, 39 foizi esa yaxshi deb javob bergan. Demak, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatining ahvoli quvonarli darajada emas. Ko'pchilik talabalar yaxshi javobini belgilagan bo'lsa-da, talabalarning deyarli uchdan bir qismi qoniqarli, beshdan bir qismi esa qoniqarsiz

deb javob bergan.

2. "Sizga ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilarning umumiy bilim darajasini qanday baholaysiz?" savoliga respondentlarning 63,6 foizi qoniqarli, 18,2 foizi yaxshi, 9,1 foizi qoniqarsiz, 9,1 foizi esa a'lo deb javob bergan. Javoblardan yaqqol namoyon bo'lib turibdiki, professor-o'qituvchilarning umumiy bilim darajasi qoniqarli holatda. Demak, har uchta o'qituvchidan ikkitasi sifatli ta'lim bera olmayotganligi ma'lum bo'lmoqda.

3. "O'qituvchilarning dars mashg'ulotlarida ilg'or va innovatsion texnologiyalar (kloud texnologiyalar, o'yinga asoslangan o'quv platformalari va boshqalar)dan foydalanish darajasini qanday baholaysiz?" savoliga talabalarning 36,4 foizi qoniqarli, 36,4 foizi yaxshi, 18,25 foizi qoniqarsiz, 9,1 foizi esa a'lo deb javob berishgan. Natijalarga to'xtaladigan bo'lsak, qoniqarli va yaxshi javoblari teng ovoz to'plagan. Ammo talabalarning salkam beshdan bir qismi qoniqarsiz deb baho bermoqda. A'lo javobi esa 10 foizi ham ovoz ololmagan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, aksariyat o'qituvchilar dars mashg'ulotlarida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanmasdan, darslarga eskicha uslubda yondashmoqda.

4. "O'qituvchilarning talabalarni eshitish va ularning fikrlarini inobatga olish darajasini qanday baholaysiz?" savoliga respondentlarning 33 foizi yaxshi, 25,7 foizi qoniqarli, 25,1 foizi qoniqarsiz, 16,2 foizi esa a'lo deb javob berishgan. Bu yerda ham salbiy javoblarning ulushi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Demak har to'rtta o'qituvchidan bittasi talabani umuman eshitmaydi, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olmaydi. O'qituvchilar talabalarning fikrlarini inobatga olmasliklari sababli talabalarning o'z xohish-istaklarini erkin namoyon etish xususiyatining pasayishiga hamda darsga sovuqqon yondashib, o'ziga nisbatan ishonchi tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

5. "Universitetda tashkil etilgan mustaqil ta'lim sifatini qanday baholaysiz?" savoliga respondentlarning 33 foizi yaxshi, 29,2 foizi qoniqarli, 23,8 foizi qoniqarsiz, 14,1 foizi esa a'lo deb javob berishgan. Natijalardan kelib chiqadigan bo'lsak, har uchta OTMdan birida mustaqil ta'lim qoniqarli ahvolda, har to'rttasidan birida esa mutlaqo talabga javob bermaydi.

6. "Universitetda o'qitilayotgan fanlarning amaliyot (real hayot) bilan bog'langanligiga munosabatingiz qanday?" savoliga talabalarning 44 foizi fanlar amaliyot bilan

uyg'unlashgan, menga yoqadi degan javobni belgilashgan, 32,6 foizi talaba o'tilayotgan fanlar ko'proq nazariyaga bog'langan degan javobni tanlagan. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta'lim muassasalarida o'tilayotgan fanlarning uchdan bir qismi faqat nazariya bilan chegaralanib qolgan bo'lib, eskicha uslubda o'tilmoqda. Ko'pgina fanlar real hayotdan uzoqlashib ketgan, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish qobiliyatiga ega emas.

7. "Siz tahsil olayotgan universitetning moddiy-texnik bazasi – zamonaviy kompyuterlar, proyektor, smart doska, o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasini qanday baholaysiz?" so'roviga respondentlarning 30,2 foizi qoniqarli, 29,6 foizi yaxshi, 23,1 foizi qoniqarsiz, 17,2 foizi esa a'lo deb javob berishgan. Natijalardan ham ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi qoniqarli ahvolda bo'lib, asosan, kimyo, biologiya va fizika kabi tabiiy fanlar uchun mo'ljallangan o'quv-laboratoriya jihozlari yetarli darajada ta'minlanmagan.

8. "Siz tahsil olayotgan universitetda o'qituvchilar faoliyatini talabalar tomonidan baholash tizimi yo'lga qo'yilganmi?" so'roviga talabalarning 42,1 foizi "Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi anonim tarzda telegram ijtimoiy tarmog'i orqali so'rovnoma o'tkazadi", 38,2 foizi "Bunday tizim mavjud emas", 13,9 foizi "Universitet ichki platformasi orqali o'qituvchilarni shkala bo'yicha (1 ball dan 10 ballgacha) baholash tizimi mavjud", 5,8 foizi "O'qituvchilar haqidagi fikr-mulohazalarimizni telegram bot orqali rektorga to'g'ridan-to'g'ri yuboramiz" deb javob berishgan. Demak, deyarli 40 foizi universitetlarimizda o'qituvchilar faoliyatini talabalar tomonidan baholash tizimi yo'lga qo'yilmagan, tiyib turish mexanizmi ishlamaydi. O'qituvchilar faoliyatini baholaydigan amaliy mexanizmlar mavjud emasligi o'qituvchilarning o'z ustida ishmaslik va yangilikka intilmaslik holatlarining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining tushib ketishiga olib kelmoqda.

1. "Siz o'qiyotgan universitetda sifatli ta'lim olishingizga nima halaqit berayapti deb o'ylaysiz?" so'roviga talabalarning 39 foizi "Ortiqcha tadbirlar talabani ko'p vaqtini oladi, talaba xohlasa-xohlamasa tadbirlarda qatnashishga majbur", 24,4 foizi "Universitet boshqaruv xodimlari talabalarni rag'batlantirishdan ko'ra, ko'proq majburlash usullaridan foydalanishni afzal ko'radi", 8,5 foizi "Universitetdagi ichki muhit judayam yomon,



guruhbozlik va tarafkashlik avj olib ketgan", 19,7 foizi "Turlicha sabablar", deb javob berishgan. Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak salkam 40 foizi oliy ta'lim muassasalarida ortiqcha tadbirlar talabani ko'p vaqtini olayotganligi, talabani asosiy vazifasi hisoblangan o'qish qolib tadbirlarga qatnashishga majbur bo'layotganligi ma'lum bo'ladi. Deyarli 25 foizi oliy ta'lim muassasalarida rahbariyat eski usuldan foydalanib, talabalarni rag'batlantirish yo'li bilan emas, aksincha ularni majburlash orqali idora qilishga urinayotganligi ayon bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalaridagi ichki muhit ham quvonarli darajada emas. Respondentlarning 8,5 foizi universitetda guruhbozlik va tarafkashlik holatlari ham uchrab turishini ma'lum qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni adabiyotlar orqali o'qitishni to'g'ri tashkil etish, ularning darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar bilan ishlashdagi faolligini oshirish ta'lim sifatiga bevosita aloqador bo'lgan muhim masalalardan hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning adabiyotlar bilan ishlashdagi faolligini o'rganish, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning 98% (25 303 nafar) bakalavriat bosqichida, 2 foizi (506 nafar) esa magistratura bosqichida tahsil olmoqda. Bu raqam oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bakalavr va magistratura talabalari umumiy soni nisbatiga deyarli mos keladi. So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 44 foizi (11 360 nafar)ni erkaklar, 56 foizi (14 449 nafar)ni esa ayollar tashkil etib, ularning 93,3 foizi (24 078 nafar) 18-24 yoshdagi, 5 foizi (1 287 nafar) 25-30 yoshdagi, 1,7 foizi (444 nafar) esa 30 yoshdan katta o'rta yoshdagi talabalardan iborat bo'ldi.

"Siz tahsil olayotgan OTM axborot-kutubxona markazi elektron adabiyotlar fondidan masofaviy foydalanish imkoniyati bormi?" degan savolga talabalarning 51,9 foizi "ha", 37,7 foizi "bilmayman, xabarim yo'q" deb javob bergan, 10,4 foizi esa bunday imkoniyat mavjud emasligini ta'kidlagan. Demak, talabalarning yarmi OTM axborot-kutubxona markazining kitob fondidan elektron tarzda masofadan turib foydalanish imkoniyati mavjudligini ta'kidlamoqda. Har uchta talabadan biri bu haqda qiziqib ko'rmagan. Har o'nta talabani biri esa bunday imkoniyat mavjud emasligini bildirmoqda.

"Xorijiy tillardagi kitoblarni ham o'qib turasizmi?" degan savolga 48,2 foiz respondent

"onda-sonda", 26,2 foizi "ha, tez-tez", 25,6 foizi "o'qimayman" degan javobni bergan. Demak, har to'rtta talabadan bittasi xorijiy tildagi adabiyotlarni muntazam o'qib boradi. Yana shunchasi esa umuman o'qimaydi.

Navbatdagi savol talabalarning xorijiy tillardagi adabiyotlarni o'qish imkoniyatini aniqlashga qaratildi. Buning uchun til sertifikatlarining mavjudligiga e'tibor berildi. Talabalarning 87,9 foizi biror xorijiy til sertifikatiga ega emasligini aytgan bo'lsa, 12,1 foizi bunday sertifikatga ega ekanligini ma'lum qilgan. Ma'lum bo'lmoqdaki, xorijiy tildagi adabiyotlarni muntazam o'qib boruvchi (26,2 foizi) talabalarning yarmidan kamrog'i (umumiy talabalarning 12,1 foizi) biror bir xorijiy til sertifikatiga ega.

Bu boradagi muammolar va foydalanmaydigan imkoniyatlar quyidagilar:

1. Talabalarning axborot-kutubxona markaziga a'zolik darajasi yuqori emas. Ularning chorak qismi kutubxonaga a'zo emas, har uchta talabani biri esa kutubxonaga deyarli tashrif buyurmaydi. Bu holat talabalarning adabiyotlar bilan ishlashi hamda tegishli o'quv topshiriqlarini bajarishida oliy ta'lim muassasalar kutubxona-markazlarining o'zni yetarli emasligini ko'rsatmoqda;

2. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kutubxona markazlarida axborot resurslaridan masofadan foydalanish xizmati ham qoniqarli darajada emas. Talabalarning faqat yarmi bunday xizmat mavjudligini ta'kidlamoqda. Bunday xizmat bor bo'lsa ham talabalarning salmoqli qismi bundan xabardor emas. Bu axborot-kutubxona markazlarining imkoniyatlari borasida talabalarga tushuntirish ishlari yetarli darajada olib borilmayotgani bilan ham bog'liq. Shunindan, har uchta professor-o'qituvchidan biri axborot-kutubxona markazlarida xorijiy axborot-kutubxona resurslari bilan integratsiya yo'lga qo'yilmaganini bildirmoqda. Amalda deyarli barcha OTMlarning axborot-kutubxona markazlari Scopus, Science Direct va EBSCO xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga ulangan bo'lsa-da, bu imkoniyatlar borasida haligacha professor-o'qituvchilar to'liq ma'lumotga ega emas;

3. OTM axborot-kutubxona markazlarida talabalarning birgalikda guruh loyihalarini bajarishi uchun alohida muhokama xonalarini joriy qilish va ularni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash lozim. Chunki, bunday imkoniyatning mavjud emasligi ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutgan loyihaviy o'qitish texnologiyalarining keng

qo'llanilishiga imkon bermaydi. Talabalarni ilmiy jurnallarni muntazam kuzatib borishi, o'qishi hamda ularning bu yo'nalishdagi faoliyatini rag'batlantirish maqsadida nufuzli ilmiy ma'lumotlar bazalarida ro'yxatga olingan jurnallarda maqola e'lon qilgan talabalarni imtihonsiz tarzda magistraturaga qabul qilish amaliyotini joriy qilish lozim.

4. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar hamda professor-o'qituvchilarni zarur o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan yetarli darajada ta'minlashga erishish uchun ochiq ta'lim resurslari (OTR) yaratishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Buning uchun esa, avvalo, darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda monografiyalarni ochiq ta'lim resurslari sifatida tahrirlash, litsenziyalash, raqamli nashr etish, saqlash hamda tarqatishning institutsional tizimini yaratish kerak.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarning ba'zilari:

Oliy ta'lim muassasalarida pedagog-xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha talabgorlarni saralash va tanlash mezonlari to'laqonli belgilanmagan. Natijada, har bir oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarni yangi ishga qabul qilishda zamonaviy tendensiyalardan ortda qolmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimini yuqori malakaga ega kadrlar bilan ta'minlashga xalaqit berib, pirovardida ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Professor-o'qituvchi va xodimlarni ishga qabul qilish jarayoni shaffof bo'lishi, inson omilining aralashuviga yo'l qo'ymaslik, ishga qabul qilish jarayonlarini YouTube platformasi orqali to'liq onlayn tarzda yoritib borishni tashkil etish, ishga olishdan oldin demo-leksiyalar orqali o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahoratini tekshirish usullarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Kadrlarni saralash va tanlab olish tizimini shaffoflashtirish orqali mehnat bozorida hamma uchun teng imkoniyatlar yaratilib, salohiyatli kadrlar o'z o'rnini osonlik bilan topa oladi. Bu o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Ishga qabul qilishda talabgorni ma'lumotnoma (obyektivka) bo'yicha baholash o'rniga yanada aniqroq bo'lgan kadrlar rezyumesi bo'yicha baholash amaliyotini joriy qilish zarur.

O'qituvchilarning kasbiy xilma-xil. Professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarida ilg'or va innovatsion texnologiyalar (kloud texnologiyalar, o'yinga asoslangan o'quv platformalari va boshqalar) dan foydalanish holati yetarli emas. O'qituvchi bilim va nazoratning asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Professor-o'qituvchilar faoliyatiga bir tomonlama baho berish, ya'ni bunda talabalar fikrlarini inobatga olmaslik holati

saqlanib turibdi.

Professor-o'qituvchilarning akademik faolligi va xorijiy tillarni bilmasligi darajasi talabaga to'liq muvofiq emas. Xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashida xorijiy tillarni bilmaslik eng katta to'siqdir. Professor-o'qituvchilarning 40 foizi aynan shu muammo tufayli xorijiy adabiyotlardan foydalana olmasligini ma'lum qilyapti. Ta'lim va fan sohasidagi yangi g'oyalar, innovatsion ishlanmalar bilan muntazam tanishib borish zamonaviy pedagog-xodimning kasbiy kamolotida muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olsak, xorijiy tillarni bilmaslik esa mana shu imkoniyatni deyarli yo'qqa chiqaradi. Professor-o'qituvchilarning akademik faolligini oshirish maqsadida ularning umumiy ish yuklamasiga ilmiy tadqiqot ishlarini alohida haq to'lanadigan faoliyat sifatida kiritish kerak. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlarini hisobga olishda nufuzli ilmiy ma'lumotlar bazasida ro'yxatga olinishi mezon sifatida belgilanishi zarur.

O'quv dasturlarining aksariyati globalashgan dunyo ehtiyojlariga mos kelmaydi. Sifatli oliy ta'lim o'quv dasturi talabalarning har tomonlama va samarali ta'lim tajribasini olishini ta'minlash uchun turli talablarga javob berishi kerak. Ushbu talablar muayyan ta'lim sohasiga qarab farq qilishi mumkin, ammo o'quv dasturi eng so'nggi tadqiqotlar, sanoat tendensiyalari va real dunyo ilovalarini o'z ichiga olgan bo'lishi, guruh loyihalari, amaliy tadqiqotlar, muammoni hal qilish mashqlari va amaliy tajribalar, kabi faol o'rganish strategiyalarini o'z ichiga olishi shart. Eng muhimi, o'quv dasturi o'rganish tajribasini to'plashi, talabalarning o'qishlari davomida mos ravishda e'tiroz bildirishlarini ta'minlash uchun mazmun va ko'nikmalarning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirishi kerak. Bu borada o'quv rejasidagi har bir fan bo'yicha uning to'liq ilmiy-uslubiy ta'minotini ishlab chiqadigan modulrahbarivazifasini ta'sis etish zarur. Shuningdek, o'quv dasturlari va fan dasturlari (sillabus)ni tuzishda talabalarning ham ishtirokini ta'minlashi, ularning fikrlarini inobatga olishlari maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasasi+ish beruvchi+talaba formati muntazam ishlashi, dasturlarni ishlab chiqishda uchta tomonning ham ishtirokini ta'minlab borish lozim. Bu, bir tomondan, dasturlarning sifat jihatidan takomillashuviga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa talabaga yo'naltirilgan ta'lim standartining joriy etilishiga yordam beradi.

Texnologiyani qamrab olish darajasi va ko'lamining chegaraganligi. Texnologiya o'quvchilarga o'z ta'limini ko'proq nazorat qilish imkonini beradi, bu ularga mavzularni o'z tezligida o'rganish va global miqyosdagi

tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, virtual reallik va sun'iy intellekt innovatsion ta'lim landshaftining bir qismidir. VR va AR texnologiyalari o'quvchilarni interfaol, uch o'lchamli muhitga cho'mdiradi. Ular virtual sayohatlar, simulyatsiyalar va fandan tortib tarixgacha bo'lgan turli fanlarda amaliy o'rganish tajribasi uchun ishlatilishi mumkin. (AI) sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari kontent va baholashlarni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish orqali shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. AI tomonidan boshqariladigan chatbotlar va virtual repetitorlar talabalarga savollar bilan yordam berishi va fikr-mulohazalarini bildiradi. Zamonaviy LMS platformalari onlayn kurslarni yetkazib berish, kontentni boshqarish va talabalarni baholashni osonlashtiradi. Ular ko'pincha muhokama forumlari, video konferensiyalar va kontent almashish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Robototexnika to'plamlari va kodlash platformalari talabalarga amaliy mashg'ulotlar orqali dasturlash, mantiq va muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Raqamli kitoblar va kutubxonalar o'quvchilarga ko'chma va interaktiv formatda keng ko'lamlil ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Darslik va o'quv qo'llanmalar sifatini tubdan takomillashtirish, buning uchun esa rivojlangan davlatlarning darsliklar bo'yicha standartlarini joriy qilish kerak. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli o'quv faniga oid nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy, ilg'or, nazariy, amaliy, uslubiyot, ma'lumot, ilmiy va texnologik yangiliklarni o'z ichiga olgan TOP-500 dagi o'quv adabiyotlarini o'zbek tilida sharhlar yozish orqali tayyorlash lozim; Darslik va o'quv qo'llanmalar yozish salohiyatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning auditoriya soatlarini qisqartirish va faol rag'batlantirish choralari ko'rib borish; Darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda faqat tayyor fikr-g'oyalar bayoni emas, balki talabalarni qiziqtiradigan, amaliy muammolar bilan aloqador masalalar bo'yicha keys va kazuslarni kiritish talablarini kiritish lozim.

Yuqori darajadagi standartlashtirilgan testlarning ustuvorligi chuqur va aks ettiruvchi fikrlashni, turli nuqtayi nazardan ma'lumotlarni tahlil qilishni, yechimlar yoki xulosalarni sintez qilish qobiliyatini yuzaga chiqarmaydi. Tez o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda test yodlash kutilgan natijalarni bermaydi. Tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati yangi vaziyatlarga, sohalarga va muammolarga moslashishi uchun juda muhimdir. Chunki muammolarni

hal qilish innovatsiyalarning markazida bo'lib, o'quvchida imkoniyatlarni aniqlash, yangi yechimlarni yaratish va ularni intellektual bozorga chiqarish imkonini beradi.

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun vazifalar berishda kreativ va tanqidiy fikrlashga undovchi mustaqil ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilmayapti. Talabalar mustaqil ishini nazorat qoniqarli darajada emas, mustaqil ishlarni bajarishda OTM axborot-resurs markazining o'zni nihoyatda zaif bo'lmoqda. Mustaqil ishlarni o'quv kursining faqat nazariy masalalari bilan cheklangan holda tashkil etmoqda. Talabalarning yozma ravishda bajaradigan mustaqil ishlari (esse, tezis, referat, maqola, kurs ishi, diplom ishi)ni antiplagiat dasturlari orqali muntazam tekshirib borish amaliyotini joriy qilish, mustaqil ishlarni OTM saytiga alohida fakultetlar kesimida joylashtirib borish, talabalar orasida akademik halollikka qaratilgan targ'ibot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish, har bir OTMda plagiat masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil qilish va akademik halollik qoidalarini buzgan talabalarga nisbatan intizomiy choralarni qat'iyalashtirish zarur.

Xulosa qilganda O'zbekistonda sifatli ta'lim islohotlari mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim islohatlari milliy maqsadlarga mos keladi, fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va O'zbekistonni global maydonda raqobatbardosh o'yinchi sifatida joylashtiradi. Qolaversa, bu islohotlar inklyuziv ta'limga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, ta'lim jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishi, mamlakatning yanada adolatli va farovon kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quyidagi takliflar taqdim etiladi:

- o'quv rejasini mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlash uchun muntazam ravishda yangilash;

- o'quv dasturlarini talabalar ehtiyoj va manfaatlariga yo'naltirish va amaliy ko'nikmalar bilan jihozlash uchun muntazam o'zgartirishlar kiritib borish;

- yuqori sifatli onlayn resurslardan foydalanishni ta'minlash;

- ta'lim sifatini nazorat qilish uchun mustahkam sifat kafolati va baholash tizimini ishlab chiqish;

- talabalar shaharchasinini mustahkam internet aloqasi, zamonaviy kompyuter laboratoriyalari va aqlli sinf xonalari bor muhitga aylantirishi lozim;

JO'YBOR SHAYXLARI TARIXIDAN

Raya Ro'ziyevna Nurqulova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada shayboniyxonlar va ashtarxoniylar hukmronliklari yillarida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo'ybor shayxlarining tutgan o'рни yoritilgan.

Jo'ybor shayxlaridan Xo'ja Muhammad Islom, Xo'ja Sa'd hamda Xo'ja Tojiddin Hasanlarning hayoti va faoliyatlari, ularning xonlik hayotida tutgan mavqei va nufuzi ko'rsatilgan.

Аннотация: В статье освещается роль Джуйбарских хаджей в социально-экономической жизни Бухарского ханства в годы правление Шейбанидов и Аштарханидов.

Рассказывается жизнь и деятельность из джуйбарских хаджей-хаджи Мухаммада Ислама, хаджи Саъда и Таджиддина Хасана.

Abstract: The article describes the role of Jo'ybor sheikhs in the socio-political life of the Bukhara khanate in the years of Shaibani Khans and Ashtar Khans rule.

The lives and activities of Khoja Muhammad Islam, Khoja Sa'd and Khoja Tajiddin Hasan from the sheikhs of Jo'ybor, their position and influence in the life of the khan are shown.

Kalit so'zlar: Buxoro, Abdullaxon II, Jo'ybor shayxlari, Xo'ja Muhammad Islom, Xo'ja Sa'd, Xo'ja Tojiddin Hasan, "Matlab ut-tolibin", Sumiton va Jo'ybor shayxlari.

Ключевые слова: Бухара, Абдуллахан II, Джуйбарские хаджи, хаджа Саъд, хаджа Таджиддин Хасан, Мухаммад Талиб "Матлаб ут-толибин", Сумитон и Джуйбары.

Keywords: Bukhara, Abdullah Khan II, Jo'ybor sheikhs, Khwaja Muhammad Islam, Khwaja Sa'd, Khwaja Tajiddin Hasan, "Matlab ut-Talibin", Sumiton and Jo'ybor sheikhs.

O'rta asrlarda Buxoro "Qubbatul Islom" ya'ni, "Islom dinining gumbazi" yoki ulamolar so'zi bilan aytganda "Quvvati dini islom" deb tan olinib, butun musulmon olamida mo'tabar markazlardan biri hisoblanar edi.

Musulmon olamida mashhur tarixiy, madaniyat va diniy markaz bo'lganligi uchun ham Buxoro madrasalarida ta'lim olish uchun musulmon mamlakatlaridan tolibi ilmlar hamda olim-u ulamolar bu yerga tashrif buyurar edilar.

Ular orasida islom dinini targ'ib qilish maqsadida Buxoroga kelgan Jo'ybor shayxlarining ajdodlari ham bor edilar.

Ular o'z shajaralarining nomini Buxoro yaqinidagi Jo'ybor mavzesi nomidan olganlar. Jo'ybor shayxlarining ajdodlari Xo'ja Abu Bakr Sa'd va Imom Abu Bakr Ahmad hisoblangan. Ularning mozori katta vaqf yerlarida joylashgan. Ularning mozorlari aholi tomonidan ko'p e'zozlangan. Imomning avlodlari – Jo'ybor shayxlari esa shu mozorning shayxlari bo'lgan. Bu joyning barcha vaqf xo'jaligi ham ularning ixtiyorida bo'lgan. Jo'ybor shayxlari o'z avlodlariga qarashli mulklardan katta foyda olganlar va bu ular xo'jaligining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Jo'ybor shayxlari o'zlarining aslzoda va valiyar avlodi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida "o'z shaxslarini ota tomonidan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomonidan esa Chingizxon va Jo'chiga olib borib ulaydilar"¹.

Ma'lumki, bu davrda islom dini keng tarqalib, mustahkamlanib, uning xalqqa ta'sir doirasi kuchli edi, ayniqsa payg'ambar va uning avlodlariga ixlosi baland edi. Shu bois ham ularning xalq o'rtasida obro'lari yanada ko'tarilib, mavqelari mustahkamlandi.

Jo'ybor shayxlari Buxoro xonligida tobora kuchli iqtisodiy qudratga va siyosiy nufuzga ega bo'la bordilar. Ayniqsa, ularning "Naqshbandiya-xojagon" tariqatidagi yuqori mavqei ham obro'larini yanada oshirdi.

Jo'ybor shayxlari, xususan, ularning yirik feodal xo'jaliklarining vujudga kelishi, xo'jalik hujjatlari haqida tarixchi olimlar – P.P.Ivanov. va V.L.Vyatkinlar o'zlarining maxsus asarlarini yozganlar.

Shuningdek, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Badriddin al-Kashmiriyning "Ravzat ur-rizmon va xadikat ul-g'ilmon", Abulabbos Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" hamda Husayn al-Saraksyning

"Manoqibi Sa'diya" asarlarida Jo'ybor shayxlarining hayoti va ularning yer-suvi va mol-mulklari, feodal xo'jaliklari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Atoqli tarixchi olim B.Ahmedov, H.Turayev va L.Raxmonovalar ham Jo'ybor shayxlari, ularning xo'jaliklari hamda xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rniga oid yirik ilmiy asarlar, risola va ilmiy maqolalar yozgan, ular Jo'ybor shayxlari tarixini o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

XVI asrning birinchi yarmida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan, Jo'ybor shayxlari iqtisodiy qudratini mustahkamlagan, uning siyosiy mavqei kuchaytirgan yirik vakili Xo'ja Muhammad Islom hisoblanadi.

Xo'ja Jo'yboriy "Naqshbandiya - xojagon" diniy tariqatining yo'l boshchilaridan biri. U Jo'ybor shayxlari feodal xo'jaligining asoschisi edi.

Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida Xo'ja Muhammad Islomning nasl-nasabi haqida: "Hazratning (Xo'ja Jo'yboriyning) qutli xulqni otalari Xo'ja Ahmad bo'lib, u Xo'ja Yahyoning sodiq o'g'lidir"². Demak, Muhammad Islom Xo'ja Ahmadning o'g'li bo'lgan.

Xo'ja Muhammad Islomning bolalik va o'smirlik yillari Buxoro xonligida shayboniyzodalar o'rtasida o'zaro taxt uchun kurashlar avj olgan davrga to'g'ri keldi. U notinch davrlar bo'lishiga qaramay, o'z bilimini qunt bilan yashirib "...O'z bobolari Xo'ja Muhammad Yahyodan ota-bobolarini tariqatini oldilar va zikr ta'limi va yaxshilar nisbati tafsilini qo'lga kiritdilar"³.

U o'n ikki yoshida bobosining yordami bilan "Naqshbandiya-xojagon" tariqatining yirik namoyandasi bo'lmish Maxdumi A'zam Kosoniyga shogird va murid bo'ldi.

O'sha davrda Maxdumi A'zam Kosoniy va Xo'ja Islom va shayboniyzoda Iskandarxon o'rtasida munosabatlar pirusururlik asosida qurilgan edi. "Xo'ja Islom va Iskandarxon o'rtasida Miyonqolda bo'lib o'tgan uchrashuvlarning birida ularning bir-biriga nisbatan sadoqati, do'stligi, hurmati namoyon

bo'lganligini "Manoqibi Sa'diya"⁴ tasdiqlaydi.

Aniqki, Muhammad Islom Iskandarxon xonadoni bilan yaqin edi. Zero, ularning har ikkalasi ham Mahdumi A'zam muridlari edilar.

Xo'ja Muhammad Islomning otasi Xo'ja Ahmad o'z davrining boy kishilaridan bo'lib, u 1544-yilda Iskandar Sultondan katta hajmdagi yerni sotib oladi. "Yerning narxi juda baland bo'lib, 3 ming tangadan iborat edi"⁵. Bu esa Jo'ybor shayxlarining feodal xo'jaligining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uning ustiga, 1549-yilda Maxdumi A'zam Kosoniy vafot etib, uning ko'pdan ko'p boyliklari, muridlari va izdoshlari ham Xo'ja Muhammad Islomga o'tdi. Ular orasida Iskandar Sulton (Abdullaxonning otasi) ham bor edi. Shu tariqa, yosh shayboniyzoda Abdullaxonning Xo'ja Islomga ixlosi va e'tiqodi kuchli edi. Ayni paytda, Xo'ja Islomning mehri yosh Abdullaxonga kuchli bo'lib, uning Buxoro taxtini egallashini juda istar edi. Shu bois ham, u Abdullaxonning Buxoro taxtini egallashi uchun barcha imkoniyatlardan foydalandi, unga yo'l ochib berdi.

Abdullaxon ham o'z maqsadini amalga oshirishda g'ayrat bilan harakat qilib, 1557-yilda Buxoroga qo'shin tortib bordi va shaharni qamal qildi. O'sha paytda, Buxoroni Burxon Sulton idora qilar edi. Ahvoli tang bo'lgan Burxon Sulton Xo'ja Islomdan yordam so'rab murojaat qildi. U shunday deydi: "Viloyatni (bizga) bersangiz ham, vale boshimizni (ularga) bersangiz ham ixtiyoringiz. Faqat sulh bo'lsin"⁶.

Ko'rinadiki, Xo'ja Islom Jo'yboriy mamlakatda tinch osoyishtalikni ta'minlash va shayboniyzodalar o'rtasida o'zaro urushlarga barham berishni o'zining burchi deb bilgan. Bu to'g'rida "Abdullanoma" da: "A'lo hazrat uning homiyligini rag'bat bilan qabul qilib, itoat boshini bo'ysunish xalqasiga kiritdi va uning muvofiq ko'rgan ishidan tashqari chiqmadi"⁷. Shu kecha Burxon Sulton o'zining qushbegisi tomonidan o'ldirildi. Shundan so'ng Abdullaxon Buxoro taxtini egalladi. "Abdullanoma" asari muallifi aytganidek: "Bu g'alaba ul qutli sifat zotning barokotlari orqasidan bo'ldi"⁸. Shu davrdan boshlab, Xo'ja Muhammad Islom

2 X.T.Buxoriy "Abdullanoma", Birinchi kitob, -T: 1999, 76-bet.

3 X.T.Buxoriy "Abdullanoma", Birinchi kitob, -T: 1999, 78-bet.

4 Turaev X. "Manoqibi Sa'diya" qul'ezma asari va uning Juybori xujalari ijtimoiy-ma'naviy merosini urganihdagi ahamiyati. -Buxoro: 1997, 3-bet

5 Vяткин В.Л. шайхи Джуйбары, 1927, стр 19.

6 Turaev X. "Manoqibi Sa'diya" qul'ezma asari va uning juybor xujalari ijtimoiy-ma'naviy merosini urganihdagi ahamiyati. -Buxoro: 1997, 3-bet.

7 X.T.Buxoriy "Abdullanoma". Birinchi kitob. -Toşkent: 1999, 148-bet.

8 Usha asar, usha bet.

1 Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T: "Ukituvchi", 1991, 26-bet

bilan Abdullaxon o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishda Xo'ja Islomning xonlikda siyosiy mavqei yanada kuchayib, shayxulislom lavozimini egalladi. Xo'ja Muhammad Islom yosh hukmdorning davlat boshqaruvidagi barcha ishlarida asosiy maslahatchisi bo'ldi. Abdullaxon ham o'zining barcha faoliyatida Xo'ja Jo'yboriyga tayandi, undan imtiyoz va hadyalarini ayamadi.

Ayni paytda Xo'ja Jo'yboriyning iqtisodiy qudrati, siyosiy mavqei, ma'naviy salohiyati ham tobora kuchayib bordi.

Umuman, xonliklar davrida xonlar ruhoniylarning yirik vakillariga tayanib, hokimiyatni boshqarganlar. "Ularni hokimiyat ishiga jalb qilib katta imtiyozlar berganlar...ular orasida o'z davrining boy-badavlat kishilari yetishib chiqqan"⁹.

Abulabbos Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" asarida yozishicha: "Xo'ja Islomning Buxoro, Miyonqol, Nasaf, Qorako'l, Marvda 300 juft (ekin ekiladigan yeri), 10000 qo'yi, 700 oti, 500 tuyasi, 300 qo'yi hamda Makka va Madinaga ziyorat uchun mo'ljallangan 700 ashrafi, yuzlab ovchi qushlari, turli zotli lochinlari ham bo'lgan"¹⁰. Bundan tashqari xo'janing yuzlab do'konlari, karvonsaroylari, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari va tegirmonlari ham bo'lgan.

U qisqa "1544-1563-yillar mobaynida 104 ta do'kon va ustaxonalarni 550 tangaga, 2-3 ming tangaga esa 7 ta tegirmon sotib olgan"¹¹.

Xo'ja Islom Jo'yboriy o'z yerlarini o'zlashtirilmagan "o'lik yerlar" hisobiga ularga suv olib borib, "jon kiritish" orqali ham ko'paytirgan. Ayni paytda, bunday yerlar obod qilingan. Xo'ja islom esa katta daromad olgan.

Abdullaxon II Sumijon qishlog'i va uning atrofidagi qishloqlarni ham Xo'ja Islom va uning avlodlarining merosiy mulklari deb e'lon qildi va ular soliqlardan ozod qilindi.

Xo'ja Muhammad Islom vafoti oldidan barcha boyliklarini katta o'g'li Xo'ja Sa'dga meros qilib qoldirdi. Vasiyatnoma xon tomonidan tasdiqlandi.

Otasidan katta boylikni meros qilib olgan Xo'ja Sa'd xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuqori mavqeni egallab, otasining faoliyatini davom ettirdi.

Jo'ybor shayxlariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shu ediki, ular martabali boy kishilar bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lashga katta e'tibor berganlar. Chunonchi, Xo'ja Muhammad Islom temuriyozdalar avlodidan bo'lgan Muzaffar Tumonning qiziga uylangan edi. Shu jihatdan, Xo'ja Sa'd shu amirning nabirasi hisoblanar edi.

1588-yilda Abdullaxon Hirotni ishg'ol qilganidan so'ng Muzaffar Tumonning katta miqdordagi boyligi nabirasi Xo'ja Sa'dga o'tdi.

Hofiz Tanish Buxoriy o'zining "Abdullanoma" asarida Xo'ja Sa'diddin Abu Bakr haqida "...xalqning murojaatgohi, islom marosimini jonlantiruvchi, ma'rifatda yagona, benishonlikda nishona, yakka-yu yagona hazrat va asli janob Samadning (ya'ni Tangrining) yaqinidir"¹².

Yuqoridagi xususiyatlarga va yuqori nufuzga ega bo'lgan Xo'ja Sa'd omma orasida Xo'ja Kalon nomi biln e'zozlangan.

Xo'ja Sa'd "...2 ming juft gov (17 ming gektar) sermahsul yer, 2,5 ming qo'y, 1000 tuya, bir ming-yilqi, 12 ta hammom, 10 ta sardoba, 2 ta karvonsaroy egasi hisoblanadi"¹³.

U o'ziga qarashli yer-mulklardan-yiliga 1,6 million oltin tanga hisobida daromad olgan. Shuningdek, uning qalmoq, o'ris, hindlardan iborat ming nafar quli ham bo'lgan.

Bundan tashqari, Xo'ja Sa'dning har bir shaharda g'alla saqlaydigan omborxonalari ham bo'lgan. Uning "...birgina g'alladan oladigan-yillik daromadi 60000 tonnaga teng bo'lgan"¹⁴.

Xo'janing yer-mulklari xon hamda muridlari tomonidan hadyalar hisobiga yanada ko'payib borgan. Jumladan, Abdullaxon II tomonidan butun Badaxshon Xo'ja Sa'dga tortiq qilindi.

Xo'jalar o'zlarining katta hajmdagi yer-mulklarini boshqarishda har bir soha bo'yicha mas'ul kishilar tayinlanganlar.

Xo'ja Kalon otasi singari o'z yerlarini "o'lik yerlar" hisobiga, ya'ni suvsiz, foydalanilmay yotgan cho'l yerlarga ariq qazdirib, suv keltirib, ularga "jon ato qilish" hisobiga ham ko'paytirib borganlar.

Chunonchi, Abdullaxon II ning Xo'ja Sa'dga e'tiqodi va ixlosi kuchli bo'lganligidan

9 Зиёев Ҳ. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. - Т: "МАънавият", 2008, 122-бет.

10 Вяткин В.Л. Шайхи Джуйбари. -Т:1927, стр 18.

11 Қаранг.Из архива Джуйбари. Хужжатлар, 148-бет.

12 Хофиз Таниш ал-Бухорий. "Абдуллонома", Биринчи китоб, Тошкент, 1999, 81-бет.

13 Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: "Ўқитувчи", 1991, 26-бет.

14 Уша китоб, уша бет.

Xo'jaga obod qishloqlarni hadya qilganida, u xonning bu marhamatini qabul qilmay, "ziroatsiz, yolg'iz, o'lik bir yerdan bir parchagina qabul qildi xolos. U yerga bir qancha ariqlar qazdirtirib, suv keltirdi va chiroyli bog'larni barpo qildi hamda bu bilan o'sha yerlarga jon kiritdi"¹⁵.

Xo'ja Sa'd cho'l-u biyobonlarni obod qilish bilan birga, u yerlardan katta daromad olgan.

Ota-bobolari singari Xo'ja Sa'd xayr-ehson ishlariga, ya'ni muhtoj kishilarning hojatlarini chiqarishga katta e'tibor bergan. Jumladan, "Jo'ybor shayxlari" alohida keltirilishicha, Xo'ja Sa'd har kuni 1000 ta non yoptirib, muhtojlar va madrasalarda tahsil oluvchi talabalarga tarqatishni buyurgan. Undan tashqari, Xo'ja Kalon "...hamisha muhtojlik sahrosida tashna bo'lganlarga mehribonligining tiniq suvi bilan serob qilardi, ularning hojatlarini chiqarishda va xarajatlarini ko'tarishga nihoyatda tirishardi"¹⁶.

Yuqoridagi bu tadbirlar uning xalq o'rtasida obro'sini ko'tarib, ta'sir kuchini oshishiga ta'sir qilar edi.

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"da yozishicha Xo'ja Sa'd katta obro', nufuz va boyliklarga ega bo'lishi bilan birga yuksak insoniy fazilatlar sohibi ham edi. "O'zini qo'l ostidagi kishilar bilan barobar hisoblaydi...xos va avomdan hech kim u bilan uchrashganda salomlashishni farzini ado etishda ul qutli shavkat va muborak humoyundan salomi avval bo'lmaydi"¹⁷.

U nafaqat Buxoro xonligida katta obro'ga ega bo'lib qolmay, uning nomi Turkiya, Hindiston va Kashmirda ham mashhur edi, bu mamlakatlarning hukmdorlari ham unga sovg'a-salomlar yuborib turar edilar. Hatto shoirlar unga atab she'rlar yozar edilar. Xo'ja Sa'd otasi singari bunyodkor kishi bo'lib, o'z boyliklari hisobidan masjid, madrasalar, xonagohlar va boshqa diniy muassasalar qurishga katta e'tibor berdi. Shulardan biri 1598-yilda Xo'ja Kalon tomonidan qurilgan, uning nomi bilan ataladigan masjiddir.

Xo'ja Sa'd Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egalladi. U xonlik hududida tinchlik, osoyishtalikni ta'minlash uchun kurashdi. Xo'ja Sa'd xonlikda qishloq xo'jaligini, chorvachilik, hunarmandchilik,

savdo-sotiqni rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Jo'ybor shayxlarining yirik vakillaridan yana biri Xo'ja Tojiddin Hasan bo'lib, u Xo'ja Abu Bakr Sa'dning katta o'g'li va hisobsiz boyliklarning merosxo'ri edi. Xo'ja Tojiddin Hasan ham bobosi va otasi singari xonlikda katta obro' va nufuzga ega edi. U ham Naqshbandiya-xojagon tariqatining yirik vakillaridan biri edi.

Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xo'ja Tojiddin Qur'oni Karimni tilovat qilganida hatto mashhur ulamolar ham hayratlanib, unga tahsinlar aytishgan. U mustaqil ravishda juda ko'p kitoblar mutolaa qilish bilan shug'ullangan.

"Matlab ut-tolibin" asarida yozilganidek, "Tojiddin Hasanxo'janing kutubxonasida turli sohalarga oid ming jilddan ortiq kitoblar saqlangan"¹⁸ Kitoblar ko'pi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu esa Xo'ja Tojiddin Hasan o'z davrining eng o'qimishli kishilaridan ekanligidan dalolat beradi. Undan tashqari, Xo'ja Tojiddin arab yozuvida chiroyli yozadigan husnixat sohibi ham bo'lgan.

Abdulabbos Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" asarining beshinchi bobi Xo'ja Tojiddin Hasanning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning yer-mulklari Buxoro, Balx, Samarqand, Toshkent, Andijon, Hisor, G'uzor, Qarshi, Chorjuy kabi shaharlarda joylashgan edi. Bu shaharlarning ko'plarida xo'janing ko'chmas mol-mulklari-uylar, hovlilar, yopiq bozorlar, savdo rastalari, tegirmon va hammomlari bor edi. Bu mulklarning ko'plari otasidan meros qolgan edi, ayrimlarini o'zi qurdirgan edi. Hasanobod qishlog'i shunday mulklardan biri bo'lib, bu yerda bir necha chorbog'lar, bog'lar hamda yer maydonlari bo'lib, har-yili 100 manga yaqin g'alla olinar edi.

Xo'ja Tojiddin barcha mol-mulklaridan har-yili 150 ming man g'alla hosili olib, 50 ming tanga sof foyda olgan. Umuman, Xo'ja Tojiddin katta mol-u mulk va boyliklar egasi edi. Bu haqda o'g'li Abdulabbos Muhammad Tolib "...O'sha vaqtda keltirilgan mol-u mulkning ko'pligidan uyimizdagi eng katta xona parcha, baxmal va boshqa qimmatbaho matolarga

15 Ҳ.Т.Бухорий "Абдуллонома", Биринчи китоб, 1999, 83-бет.

16 Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Тошкент: "Ўқитувчи", 1991, 17-бет.

17 Ҳ.Т.Бухорий "Абдуллонома", Биринчи китоб. -Тошкент: 1999, 85-бет.

18 Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида. Илмий мақолалар тўплами. -Т: "Ўзбекистон", 2010, 10-бет

to'lib-toshib ketgan edi"¹⁹- deb yozadi. Xo'ja juda katta boyliklar sohibi bo'lsa-da, doimo yangi yangi manbalardan foydalanib, boyliklarini yanada ko'paytirib borgan.

Abulabbos Muhammad Tolibning yozishicha, Xo'ja Tojiddinning boyliklari shunchalik ko'p ediki, olgan daromadidan 40 ming man g'allani o'ziga yaqinlar va xizmatkorlarga, 50 ming man g'allani esa yuqori amaldorlarga sovg'a tariqasida tarqatgan. Xo'ja Tojiddin ham bobosi va otasi singari olgan daromadlari hisobidan muhtojlarga ehsonlar tarqatib turgan. Uning cheksiz boyliklari oldida bu ehsonlar hech narsa emas edi.

Jo'ybor shayxlari o'z davrining badavlat kishilari bo'lish bilan birga hammalari bunyodkor kishilar ham edilar.

Ular o'z boyliklarini faqatgina ko'paytirib borish bilan shug'ullanmasdan, shu boyliklar hisobidan qurilishlar qilish, suv inshootlari barpo etish va obodonlashtirish ishlarini ham amalga oshirdilar, ekinzorlar, bog'-rog'lar barpo etdilar.

Xo'ja Tojiddin Hasan otasi singari ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga katta e'tibor qaratdi. Uning Jonmuhammad va Yermuhammad singari maxsus vakillari boshchiligidagi savdo karvonlari Qozon, Bulg'or, Qashqar, Maskov va Rossiyaning boshqa shaharlariga qatnaganlar.

Barcha Jo'ybor shayxlari singari Xo'ja Tojiddin Hasanning ham hayoti va faoliyati xonlikda o'zaro kelishmovchiliklar, fitna va adovatlar kuchaygan bir davrga to'g'ri keldi. Shu bois, Xo'ja Tojiddin ham ota-bobolari singari hukmdorlar o'rtasida o'zaro nizolarga barham berish, mamlakatda tinchlik va

osoyishtalikni ta'minlash uchun muhim ishlarni amalga oshirdi. Ashtarxoniy hukmdor Valimuhammadxon va uning jiyanlari Imomqulixon va Nodir Muhammadxonlar o'rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilish maqsadida Balxga uch marta borishga majbur bo'ldi, ular o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilab, qarindoshlik rishtalarini tikladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha Jo'ybor shayxlarining tengsiz boyliklarga ega bo'lishlarining asosiy sabablaridan biri, ularning "barcha soliqlardan ozod etilgani va bunday hol oliy va mahalliy hukmdorlar tomonidan farmon bilan tasdiqlangani edi"²⁰.

Ikkinchidan esa, Jo'ybor shayxlarining cheklanmagan huquqlarga ega bo'lganliklari edi. Xon tomonidan berilgan bu imkoniyatlardan ular ustalik bilan mohirona foydalana oldilar.

Muxtasar qilib aytganimizda, Jo'ybor shayxlari Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egalladilar.

Ayniqsa, xonlikda o'zaro adovatlarga barham berib, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlanishida katta xizmat qildilar. Ular o'z davridayoq, qo'riq, cho'l yerlarni o'zlashtirishni amalga oshirib, xonlikda qishloq xo'jaligi, chorvachilikni rivojlanishiga muhim hissa qo'shdilar. Ular ichki va tashqi savdoni rivojlanishiga, hunarmandchilikning taraqqiyotiga katta e'tibor qaratdilar.

Jo'ybor shayxlari bunyodkor kishilar bo'lib, ular tomonidan Buxoro va xonlikning boshqa shaharlarida ko'pgina madrasalar, machitlar, xonagohlar va boshqalar bunyod etdilar.

IMON, E'TIQOD VA IBRAT TUSHUNCHALARINING MILLIY XARAKTER SHAKLLANISHI VA TAKOMILIDAGI O'RNI

Bobomurot Toshboyev - dotsent, f.d., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy xarakter shakllanishi va takomillashuvida muhim o'rin tutuvchi imon, e'tiqod, ibrat tushunchalarining mazmun-mohiyati va ularning milliy xarakter bilan bog'liq jihatlari xususida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность понятий вера, убеждение, пример, которые играют важную роль в формировании и совершенствовании национального характера, и их аспекты, связанные с национальным характером.

Abstract: This article discusses the essence of the concepts of faith, belief, example, which play an important role in the formation and improvement of the national character, and their aspects related to the national character.

Kalit so'zlar: imon, e'tiqod, ibrat, milliy xarakter, simbioz, insof, vijdon, ixlos, hamjihatlik, hamkorlik, jangovarlik, ahdga vafo, sadoqat.

Ключевые слова: вера, убеждение, пример, национальный характер, симбиоз, честность, совесть, искренность, солидарность, сотрудничество, борьба, верность, лояльность.

Keywords: faith, belief, example, national character, symbiosis, honesty, conscience, sincerity, solidarity, cooperation, fighting, loyalty, loyalty.

Imon, e'tiqod, ibrat va milliy xarakter tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Imon haqidagi tasavvur e'tiqod va ibratsiz bo'lmaydi. Milliy xarakter tushunchasi esa insoniylikni va milliy mansublikni taqozo etganiday, shaxs ham imon va e'tiqod hamda milliy qadriyatlardan ibrat olib, uni o'z hayotining ajralmas qismiga aylantirmasa mohiyatini yo'qotadi.

Falsafaning umumiylik, xususiylik va yakkalik kategoriyasiga binoan, imon, e'tiqod, ibrat va milliy xarakter tushunchalariga falsafiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, har qanday imon e'tiqod orqali mohiyat kasb etsa, har bir milliy xarakter umumbashariy tarixiy jarayon mahsuli bo'lish bilan birga o'zini boshqa millat va elatlardan farq qiluvchi individual jihatlaridan odamlarning ibrat olib, unga e'tiqod qilishi bilan ajralib turadi. Chunki inson bashariyat tushunchasi doirasidan biror millat vakili sifatida (o'zbek, rus, ingliz, qozoq, va hakoza) o'z individual xususiyatlari bilan o'rin egallaydi. Shuning uchun milliy xarakter tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unda insonning kundalik xususiyati bilan birga milliy-individual sifatlari ham o'z aksini topgan bo'ladi. Ana shu ma'noda alohida millat bashariyatning tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Shuning uchun imon, e'tiqod, ibrat va milliy xarakterda mushtaraklik sezilib turadi.

Insonning axloqiy kamoloti, odobi, huquqiy madaniyati, burch va mas'uliyat tuyg'usi, bilimi kundalik faoliyati jarayonida sinovlardan o'tib, shakllanib va rivojlanib, insof, imon, vijdon, ixlos singari ma'naviy fazilatlar bag'rida shaxs milliy xakteri shakllanadi. Shu o'rinda shaxs milliy xarakterini ifodalovchi axloqiy fazilatlarining o'ziga xos mezon bo'lgan axloqiy tushunchalar – imon, e'tiqod va ibratning mazmuni, ular o'rtasidagi uzviy aloqadorlik masalalariga qisqacha izoh berib o'tish biz tadqiq qilayotgan mavzuning mohiyatini yoritib berishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

"Imon" arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "ishonch"dir. Imon shaxsning o'z e'tiqodiga tayangan holda, boshqalarning niyati, qilmish-qidirmishiga, o'zining ishlariga, xatolariga munosabat bildirishdir¹.

Binobarin, imon bilan e'tiqod uzviy aloqadorlikda keladi va biri ikkinchisini to'ldiruvchi komponent vazifasini o'taydi. Imon keltirish yoki ishonch shunday psixologik holatki, unda shaxsning e'tiqodiga mos keladigan, narsa va hodisalar ta'sirida ongda o'rnashib qoladigan tasavvurlar majmui yetakchi o'rin tutadi².

Imon kishi uchun hayotda to'g'ri yo'l topishning muhim omili hisoblanadi. Imonga asoslangan ruhiy holatlarning mazmuni,

19 Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Т: "Ўқитувчи", 1994, 28-бет.

20 Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент, "Ўқитувчи", 1994, 31-бет.

1 Қаранг: Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т: Университет, 1998.51-6.

2 Қаранг. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига синдириш омиллари ва воситалари. – Т: Ижод дунёси, 2002. 13-6.

ahamiyati shaxs ma'naviy kamoloti darajasi bilan belgilanadi. Muhimi shundaki, imon e'tiqod asosida barqarorlashib borgach, kishida unga yurakdan ishonch va u asosda esa shaxs xarakteri ham shakllana boradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, imonning nima ekani, ko'pincha, shaxs tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi, tekshirilmaydi, chunki, unda millat tajribasi, shaxs e'tiqod qilgan ijtimoiy guruhning qarashlari mujassam bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, ko'proq imon diniy tushuncha sifatida kishilarimiz ongi, tafakkuriga o'rnashganligi bois, uning dunyoviy talqiniga nisbatan ehtiyoj nisbatan kamroq bo'lgan. Aslida esa imonning diniy va dunyoviy talqini mavjud.

Shunga ko'ra, imon tushunchasiga faqat diniy tushuncha sifatida qarash to'g'ri emas. Chunki, har kuni foydali bir amal, savob ish qilish, soliq xulq sohibi bo'lish, butun insoniyatga mehr-muhabbat bilan qarash, jamiyatdagi xulq me'yorlarini qalban his qilib, ularni buzmaslikka intilish ham imondir.

Imonning diniy talqinida ko'plab o'ziga xostomonlari bor. Lekin bular birinchi qarashda qanchalik mavhum bo'lib ko'rinmasin, imonning diniy talqini ham inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, halollik singari fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Imonning diniy mazmunida uning ilm bilan bog'liqlik jihatlari alohida e'tibor beriladi. Ilm nurga qiyos etilib, imonlilikning muhim belgisi hisoblanadi. Xususan, quyidagi oyatda (257-oyat) "Ollah mo'minlarning do'stidir. Ularni qorong'u zulmatlardan yorug'lik - nurga chiqaradi"³, deyilgan.

Ilm va imon tushunchalarining nisbati bir oyatning o'zida naqadar chiroyli tarzda ta'riflab berilgan! Ta'riflarda "Nur" so'zi - imon, hidoyat, ma'rifat kabi tushunchalar bilan sharhlangan. "Zulmat"dan murod esa nodonlik, jaholat, kufrdir. Ilm, ko'pincha, nurga qiyos etiladi, yuqoridagi oyatda Ollah imonli kishilarni zulmatdan, ya'ni jaholatdan nurga, ya'ni ilmga hidoyat etishi ta'kidlanmoqda. Nega? Chunki imon haq oldidagi oliy mas'uliyatdir.

Olimlarning yozishlaricha, imon uch narsaning bir butunligidan hosil bo'ladi.

Bular: e'tiqod, iqror va amal.

E'tiqod ich-ichidan chuqur ishonch, iqror so'zda buni tan olish, amal yaxshi ishlar bilan oldingi ikki holatni isbotlash demakdir.

Tarixdan ma'lumki, dinlar hukmron mafkura bo'lgan chog'larda ham imonsiz, insofsiz, diyonatsiz odamlar bo'lgan.

Shunday ekan, bugungi kunda imonning

diniy va dunyoviy mazmunidagi insonparvarlik tamoyillarini kishilar ongiga yanada chuqurroq singdirish zaruriyati o'ta dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Binobarin, imonning dunyoviy-ilmij ma'nosi yuksak insoniy-axloqiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Imon tushunchasi, nafaqat yakka-yolg'iz insonga, balki butun bir jamiyat, millatga xos bo'lgan jihatlarni ham o'zida ifoda etadi. Imon individ ongiga xos bo'lib qolmasdan, u davr ruhi, ijtimoiy ong va ijtimoiy ruhiyat shaklida ham mavjud bo'lishi barobarida milliy xarakter bilan ham simbioz munosabatda mavjud bo'ladi. Chunki milliy xarakterda jo bo'lgan deyarli barcha fazilatlar qaysidir ma'noda iymon talablari sifatida ham e'tirof qilinadi.

Shu o'rinda milliy xarakter barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan imon va e'tiqod tushunchalarining o'zaro aloqadorligini ta'kidlab o'tish kerak. Imonni e'tiqod va ishonch tushunchalari bilan bir xilda qo'llash odat tusiga kirgan. Holbuki, ular o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Imon e'tiqodning oliy shaklidir. Boshqacha aytganda, e'tiqod, faqat shaxs tomonidan, uni ixtiyoriy, erkin tanlab olib qabul qilinganda, chinakam imon darajasiga ko'tariladi⁴.

Inson ko'p narsaga e'tiqod qilishi mumkin: yaxshilikka, halollikka, to'g'rilikka, ayni vaqtda, yomonlik, harom-harishlik, egri yo'llar bilan kun ko'rishga ham e'tiqod qo'yish ehtimoldan yiroq emas. Imon esa yakka-yagonadir, ya'ni imonli inson bo'lish - faqatgina bir g'oyaga, ta'limotga, dinga, axloqqa amal qilib sodiq qolishdir.

Binobarin, tilda yoki dilda bir necha bir-biriga zid ta'limotlarni tan olish, ularga amal qilish ikkiyuzlamachilik, munofiqliqdan boshqa narsa emas. O'zini vatanparvar, millatparvar, din-u diyonatning sadoqatli himoyachisi qilib ko'rsatib, amalda martaba, siyosiy mavqega, hokimiyatga ega bo'lish uchun o'z imonini, millati-yu ota-onasini sotishgatayyor turgan kishilar ma'naviy tuban kimsalardir.

Imon kishining ongi, ruhi va qalbiga singib ketgan, "ona suti bilan kirgan" axloqiy tushunchalar, ideallar, axloq-odob qoidalari yig'indisidir. Shu ma'noda, imonlilik shaxsda milliy xarakter xususiyatlari shakllanganligining bosh belgisi, deb e'tirof etilishi zarur. Imon-e'tiqod insonning ma'naviy qadriyati, turli hayot qiyinchiliklariga duch kelganda ham o'z insoniyatini saqlab qolishga, qiyinchiliklarni yengishga kuch baxshida etadi, ruhiy tushkunlikdan saqlaydi. Shunga ko'ra, imon-e'tiqod shaxsning eng yuksak qadriyati

va muhim belgisidir.

Milliy xarakter va imonning simbiotik munosabati shundaki, ularning har ikkalasida ham fidoyilik, maqsadni amalga oshirish yo'lida faollik taqozo etiladi. Zotan, ular inson o'zi ishongan narsani dilga mustahkam joylashi bilan cheklanmaydi, ayniqsa, uni ro'yobga chiqarish uchun keskin kurashga bel bog'lashini talab qiladi.

Shaxs milliy xarakterining shakllanishida ibrat ham alohida o'rin tutadi.

Zero, ibrat, ilm, riyozat, mehr, ma'rifat. Inson ularning barchasini bosib o'tmay turib, barkamol, mukammal ma'naviy qiyofa kasb etmaydi yoki millat xarakteridagi ijobiy jihatlarni o'zlashtira olmaydi.

Binobarin, ibrat yo'li bilan shaxs milliy xarakterini shakllantirish hamma davrlardagi kabi bugungi kunda ham muhim yo'nalishlardan biri sanaladi.

Ibrat, namuna yoki o'rnak ko'rsatish biror voqea, harakat vositasida amalga oshiriladi.

Bu harakat, voqea mazmuni tarbiya mazmunini yoxud tarbiya vositasi mazmunini ifodalaydi. Millat xarakterida ibratga munosabat amaliy faoliyat va avlod tarbiyasida unga tayanish muhim o'rin egallaydi.

Ibrat va namuna ko'rsatish yo'li bilan kishilarni fidoyilikka, jasurlik hamda vatanparvarlikka chorlash va shaxsni tarbiyalash mumkin. U bilan milliy xarakterimizning asosini tashkil qilgan ajdodlarimiz boy merosini yoshlar ong-u shuuriga singdirish, ularni yuksak ma'naviy fazilatlariga ega insonlar qilib tarbiyalash va u asosda esa shaxsni shakllantirish muhim vazifa ekanligiga e'tiborni qaratishdan iborat. Chunki mamlakatimiz taraqqiyoti xalqimiz farovonligini tiklash, avvalo, jamiyatimiz har bir a'zosining intellektual bilim salohiyati, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni qay darajada o'zlashtirib olishiga bog'liq.

Mana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, imon, e'tiqod, ixlos va ibratning o'zaro simbioz munosabati hamda ularning shaxs milliy xarakterini shakllantirishdagi o'zni masalasini falsafiy tadqiq etish zaruriyati quyidagi muhim omillar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tmoqchimiz.

Birinchi, xalqimiz va millatimiz, uzoq yillar davomida, mustabid tuzumlar ta'sirida bo'lganligi bois, hamjihatlik, hamkorlik, jangovarlik, ahdgga vafo, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlariga jiddiy putur yetkazildi. Millatning manfaatlari inobatga olinmaganligi, befarqlikka, shaxs depressiyasiga va milliy

xarakterimizdagi ijobiy sifatlarga munosabatni susaytirdi.

Yurt boshiga tushgan qirg'inbarot urushlar, iqtisodiy va ma'naviy xo'rlanishlar millat tabiatida befarqlik, konformizm, mutelik, har qanday zo'ravonlikka ko'nikish illatlarining yuzaga kelishiga olib keldi⁵.

O'z vaqtida bunday salbiy holatlarning asl sababi xususida jadid ma'rifatparvarlarining yetakchilaridan biri A.Fitrat shunday yozgan edi: "Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi. Tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz g'asb qilindi. Tuzumli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa buysundik. Butun borlig'imizni berdik"⁶.

Ikkinchidan, millat taqdiridagi bunday ayanchli holatni faqat mustamlaka zulmi, istibdod iskanjasiga bog'lab tasvirlash ham unchalik to'g'ri emas. Chunki milliy mustaqillikning qo'ldan berilishi, mustamlakachilik asoratiga tushib qolishning o'ziga xos sabablari ham borki, u uzoq moziyga borib taqaladi. Birgina misol. Agar Amir Temur el boshini qovushtirib, qudratli saltanatga, mustaqil davlatga asos solgan bo'lsa, keyingi xon va amirlar bu saltanatni buzish, o'zaro nizolar orqali vayron qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Demak, millat tanazzulidagi eng asosiy sabab - noahillik, jaholat, qoloqlik kabi illatlar bilan bog'liq bo'lib, u o'zining uzoq o'tmishi bilan tutash ildizlarga ega. Buning natijasi o'laroq, kishilarda tanballik, ertangi kunga ishonchsizlik, millat xarakteridagi ijobiy sifatlarning so'nishi kabi illatlar ham tomir ota borgan. Buni A.Fitrat o'zining "Hind sayyohi qissasi"da quyidagicha tasvirlaydi: "Donishmand sayyoh Qarshida alocha to'quvchi mohir ustadan Ovrupoda o'z ishlarining o'n-yigirma, hattoki, yuz-ikki yuz yil keyingi rivojini ko'zda tutadilar. Siz ham hunaringizning kelgusi taqdirini hech o'ylaysizmi?", - deb so'raydi. Shunda usta: "Hozir ishimiz yaxshi o'n yildan keyin kim tirig-u, kim o'lik"⁷, - deb javob beradi.

Ana shunday xushyoqmaslik kasali millatning, hatto eng ilg'or namoyandalari, mohir hunarmand ustalar ruhiyatiga ham singib ketgan edi. Uzoq o'tmish bilan bog'liq, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi bu holat esa xalqning tashqi tazyiqlar, xavflarga qarshi tura olish, kurashchanlik kabi xususiyatlarini, umuman olganda milliy immunitetni susaytirib yubordi. Natijada, xalqimiz tabiatida ayrim salbiy xususiyatlar paydo bo'ldi.

Xususan, turli ijtimoiy, siyosiy va hayotiy

3 Куръони Карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Аловуддин Мансур). - Т.: Чўлпон, 1992. 544-б.

4 Абдуллаев М., Хусанов М. Маънавият асослари. - Фарғона: 1999. 219-б.

5 Бекмуродов М. Ўзбек менталитета // Мулоқот. 2002. 13-б.

6 // "Шарқ юлдузи". 1992. № 10. 173-б.

7 Қаранг. Ғафуров И. Ижтимоий онг ва Фитрат // Жамият ва бошқарув. №1.1997. 27-б.

holatlarda aholining muayyan qatlamlari vakillarida so'z va ish birligi ma'lum darajada buzildi; odamlararo muloqotlar tizimida shaxsning o'z kuchiga, jamiyat tuzilmalariga nisbatan munosabatida ishonchsizlik hissi ortdi; muloqotdagi ana shunday murakkablik mustabid tuzum ta'sirida yanada chigallashgan edi.

Buning oqibatida esa ma'naviy merosga hurmat, vorislik an'analari susaydi. Milliy birlikka intilishdan ko'ra, guruhiy, etnik, mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilish kuchaydi.

Xalq fe'l-atvorida yangiliklarga intilish, yaratish, bunyodkorlik hissi emas, taqdirga tan berish, tangridan panoh izlash, qanoat, sabr-bardosh, ko'nikish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, hamma narsaga loqaydlik mayli ustunlik qilib, bu umumiy holat tusini oldi. Hayotga ratsionalistik, ya'ni oqilona va hushyorlik bilan anglab, yondashuvdan ko'ra, irratsional, ya'ni nooqilona yondashuv ustunlik qila boshladi.

Ba'zi odamlar, ma'naviy panoh izlab, mutaassiblik, tajovuzkorlik oqimlariga qo'shila boshladi, ularda muayyan narsaga haddan tashqari beriluvchanlik kuchaydi.

Hududiy, sulolaviy, jamoaviy negizdagi begonlashuv va ajralish tamoyili yuz ko'rsata boshladi.

Ma'rifiy tanazzul chuqurlashdi. O'zbekistan mustaqillikka erishgach, o'tmishdan meros bo'lib o'tgan ana shunday salbiy holatlarga yangicha ko'z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummilliy ma'naviy islohotlarni amalga oshirish imkoni tug'ildi.

Istiqlol mamlakatni yalpi sog'lomlashtirish, milliy bir butunlikni ta'minlash, ma'naviy yaxlitlikni yuzaga keltirish, millat xarakterida necha ming yillar davomida qaror topgan an'analarni qayta tiklash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bugungi kunda hayotiy zaruriyatning o'zi xalqimiz fe'l-atvori, xarakterini yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi.

Fikrimizcha, ushbu vazifalarni hal etishda yana bir muhim jihatni – xalqimizning tabiiy fazilatlarini e'tiborga olib ish tutmoq kerak. Ma'lumki, xalqimiz tabiatan yaxshiga havas qiladi, ibratga moyil bo'ladi, kattaga ehtirom ko'rsatadi, kichikni izzat qiladi, shu bilan birga, unda ergashuvchanlik mayli kuchli. Ana shu ergashuvchanlik ibratga moyillik xususiyatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni Vatan ravnaqi yo'lida safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopok kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muhofaza etish, g'animlarning kirdikorlariga qurbon bo'lishdan saqlash kiradi⁸.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini xalqning tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andazalar asosida emin-erkin yashab taraqqiy eta olmaydi.

Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalarini bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andaza-o'lchovlari, rasm-qoidalarini bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy-jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Binobarin, shaxs milliy xarakterining shakllanishi millatimiz xarakteri, xalqimiz tabiatidagi ijobiy fazilatlariga ixlos, e'tiqod va ibrat asosida yuzaga kelishi ham sir emas.

Uning shakllanishi hamda takomillashuvida xalq tajribasiga hurmat, undan ibrat olish va unga ixlos qo'yish oila, ijtimoiy muhit, ota-ona namunasi va tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va mediasanoatda targ'ib qilinayotgan "ommaviy madaniyat" va diniy mutassibona g'oyalarga yoshlarning bilib bilmasdan taqlid qilishlarining oldini olishda ezgu sharqona qadriyatlar – insof, imon, e'tiqod hamda ibratning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu axloqiy tushunchalar millat vakillari tomonidan qadrlanib unga amal qilinib kelinar ekan, bizningcha milliy fazilatlar bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib yashayveradi.

Buning uchun esa, bizningcha, jamiyatning, ayniqsa, yoshlarning mediasavodxonlik darajasini va axborot iste'mol madaniyatini oshirish lozim. Shunda ular har xil yolg'on va manipulyativ ko'rinishdagi axborotlarga ishonib qolmaydi; telekanallarda ayniqsa, xususiy OAVlarida maksimalizm va individualizm g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rsatuvlar va dasturlar o'rniga ezgu sharqona qadriyatlar – insof, imon, e'tiqodni keng targ'ib qiluvchi va tarbiyaviy xarakterga ega dastur, ko'rsatuv va seriallarni namoyish qilib borish kerak. Bu orqali yoshlarning bo'sh vaqtlari mazmunli o'tadi va turli xil yot-buzg'unchi g'oyalarga berilishining oldi olinadi; "oila – ta'lim mussasasi – mahalla" hamkorligi tamoyilini nomiga emas, balki uni amalda rosmi joriy etish lozim. Bu orqali esa yoshlarning ta'lim muassasasidagi holatidan ota-onalar xabardor bo'ladi va o'quvchining oilaviy sharoiti haqida ustoz va murabbiylarda tasavvur uyg'onadi. Pirovard natijada esa millat xarakterdagi ezgu fazilat, xislat va g'oyalar yoshlar ongida mustahkam o'rin egallaydi.

MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYAGA OID TUSHUNCHALAR TAHLILI

Dilnoza Umirzaqovna Jumanazarova - p.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan asosiy tushunchalar, ularning inson faoliyatida va axloqida namoyon bo'lib borishi to'g'risidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ijtimoiy-tarixiy va pedagogik-psixologik asoslari xususida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются основные понятия, связанные с духовно-нравственным воспитанием, представления об их проявлении в деятельности человека и нравственности. Также обсуждались социально-исторические и педагогико-психологические основы духовно-нравственных качеств.

Abstract: In this article, the main concepts related to spiritual and moral education, the ideas about their manifestation in human activity and morality are analyzed. Also, the socio-historical and pedagogical-psychological foundations of spiritual and moral qualities were discussed.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy fazilat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviyat, axloq, odob, pedagogik tarbiya.

Ключевые слова: духовно-нравственная добродетель, духовно-нравственное воспитание, духовность, нравственность, нравы, педагогическое образование.

Keywords: spiritual and moral virtue, spiritual and moral education, spirituality, morality, manners, pedagogical education.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'zining dolzarbligi bilan jamiyatning yangilanish, yangi bir pog'onaga ko'tarilish davrida, sifat o'zgarishlari ro'y berayotgan davrda yanada dolzarblashadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqlikning yanada yuksalishini talab etadi, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar singdiriladi. Ana shular evaziga insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma'naviyatning asosi, yuksak ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, zamonaviy jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham bejiz emas albatta.

Darhaqiqat, prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga

asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"¹. Buvazifao'znavbatida, yangilanayotgan jamiyat mafkurasining ham asosini tashkil etadiki, uni hozirgi yoshlar ongiga singdirilishida oila va ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaning turli shakllarida o'zini namoyon etadi.

Gap ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning tayanch tushunchalari haqida borar ekan, eng avvalo, ikki tushunchaning, ya'ni "ma'naviy" va "axloq" tushunchalarining ma'nosini aniqlab olish lozim bo'ladi. Dastlab "ma'naviy" tushunchasi haqida to'xtalamiz.

"Ma'naviy" so'zi mazmun-mohiyatiga ko'ra, aslida ma'naviyat tushunchasiga taalluqlidir. Ko'plab ilmiy, falsafiy, pedagogik, tarixiy va o'quv-metodik adabiyotlarda, ba'zi lug'atlarda "ma'naviyat" tushunchasining ijtimoiy-pedagogik mazmuni va uning asosiy tamoyillari, jamiyat, millat va xalq hayotida tutgan o'rni haqida xilma-xil tavsiflar, qisqacha ma'lumotlar berilgan. Ularda "ma'naviyat" so'zi nihoyatda keng qamrovli tushuncha sifatida o'z izoh va tavsifini topgan. Bu borada ayrim olimlarning mulohazalariga e'tiborni qarataylik. A.Begmatovning fikricha, "ma'naviyat" so'zining negizida arabcha "ma'ni" so'zi yotadi. "Ma'naviy" so'zi "ma'ni"ga aloqadorlikni bildirsa, "ma'naviyat" so'zi "ma'naviy" so'zining ko'plikdagi shakli"²hisoblanadi. M.Qahhorova ham "ma'naviyat" so'zi "ma'naviy"

¹ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir. «Tasvir» nashriyot uyi. - Toshkent - 2021.-B.4

² Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T: Sharq, 2000. -B.14

tushunchasining mazmunini ifodalaydi, bu tushuncha insonning axloqiy ong jihatdan yetukligini va hayotni mazmunli yashab o'tishini anglatadi³, - deb ta'kidlaydi. A.A.Oganovning "ma'naviyat" so'zining diniy, dunyoviy va ilmiy talqinlari bilan bog'liq quyidagi mulohazalari ham e'tiborni jalb etadi: "Ma'naviyat eng murakkab hodisalardan biri, uni talqin qilish qiyin kechmoqda, tushunchalar bahsli bo'lmoqda. Bu borada uch yondashuv bor.

Birinchi, ma'naviyat bu diniy tushuncha bo'lib, xudo yo'lida xulqiy poklanishdir.

Ikkinchi, bu dunyoviy talqin bo'lib, unga ko'ra, ma'naviyat bu ezgulik, go'zallik, haqiqat, e'tiqod ideallarining mujassamligidir.

Uchinchi, ma'naviyat bu insonning o'z ichki (botiniy) erkinligidir, bu erkinlik unga intilish, o'zi va o'zgarlar ta'sirida bo'lishiga turki beradi deb talqin etar ekan, mana shu uchinchi fikr to'g'ri bo'lib, u ilmiy kategoriya bo'la oladi"⁴.

Bu fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, ma'naviyat insonning o'z ichki hayotidagi mustaqil erkinligi va ma'naviylik esa ana shu mustaqil erkinlikning kundalik hayotdagi o'z ifodasi sifatida namoyon bo'lish holatidir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini, bu murakkab, serqirra tushunchaning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama keng qamrovli fikr-xulosalar orqali tahlil etganlar. Umuman, ushbu asardagi fikr-mulohazalariga tayanib aytish mumkinki, bizgacha yetib kelgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, tarixdagi bemsiz ilmiy-ijodiy kashfiyotlar, kundalik hayotdagi oila va mahallaning roli, uning samarali ta'siri, keng qamrovli ta'lim-tarbiya tizimi, juda boy so'z san'ati va badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiyaga javobgarlik hissi va ma'suliyat bilan yondashish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi "ma'naviyat" tushunchasini shakllantiradigan, uning ma'no-mazmunini boyitadigan asosiy mezonlar va omillar sanaladi. Yurtboshimiz ma'naviyat tushunchasining inson hayotida tutgan o'rnini haqida ham yaxlit va sermazmun yakuniy xulosa beradilar: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonni uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha

qarashlarining mezonidir"⁵.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar yuqorida ta'kidlanganidek, "insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi", davlat, millat va shaxs rivojlanishining asosiy omili ekanligi, amaliy mehnat jarayonida yuzaga keladigan insonning bilimi, iste'dodi va qobiliyati, odob va axloq tushunchalari, uning yetuklik natijasi hisoblangan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, shuningdek, insonning egallagan bilimi, amaliy faoliyatini umumlashtirishga xilma-xil yo'nalishlar berishga qaratilgan dunyoqarashdan iborat.

Binobarin, bularning hammasi "ma'naviyat" tushunchasining asl mohiyatini, negizi va tarkibiy qismlarini tashkil etadi, deb hisoblaymiz.

Endi yuksak ma'naviyatli insonning tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga bevosita daxldor bo'lgan tayanch tushunchalaridan yana biri - "axloq" tushunchasiga to'xtalaylik. So'nggi davrda yaratilgan o'quv qo'llanma va darsliklarga, ayrim lug'atlarga, chop etilgan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarga nazar solsak, axloq tushunchasiga deyarli bir xil mazmundagi ta'rif va tavsiflar berilganligi kuzatamiz. Bu borada ayrim pedagog olimlarimizning bildirgan fikr-mulohazalari va xulosalariga e'tiborni qarataylik. "Axloq ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rnini belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi⁶, - deya izoh beradilar bir guruh pedagog olimlar.

Oliy o'quv yurtlari talabalar uchun yozilgan darslik mualliflari ham "axloq" tushunchasining mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rnini, falsafiy kategoriya sifatida har bir shaxs uchun zarur bo'lgan yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati haqida keng qamrovli fikrlarni bildirganlar⁷. Ayrim lug'atlar va ilmiy adabiyotlarda "axloq" tushunchasi haqida ixchamgina tavsiflar ham uchraydi: "Axloq jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayondir"⁸. "Axloq har bir shaxs ma'naviyatining uning xulqida, o'ziga insonlarga

3 Qahhorova M. Ma'naviy ideal. - T.: Ma'naviyat, 2008. -B.8.

4 Оганов А.А. Современная проблематика философии культуры. // Философия и общество. - М., 2007. - №2. - Б.104.

5 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.

6 Hasanboyev J, Sariboyev G, Niyozov G., Hasanboyeva O, Usmonboyeva M. - Pedagogika (o'quv qo'llanma). - T.: Fan, 2006. -B.82.

7 Asqarova O.M., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika (oliy ta'lim muassasalari uchun darslik). - T.: Talqin, 2008. - 167-168 betlar.

8 Hasanboyev J., To'raqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug'at. - T.: Fan, 2008. -B. 22.

munosabatida aks etishi, ma'naviyat va siyosat sohalarining kesishuvida yuzaga chiqadigan amaliy jarayon mahsulidir"⁹.

"Axloq" tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy so'zlashuv nutqida ifodalanadigan ko'plab ta'rif va tavsiflarini tegishli adabiyotlardan yana ham keltirish mumkin. Lekin bu o'rinda biz yuqoridagilar bilan chegaralanamiz va umumlashtirilgan muxtasargina xulosaga kelamiz: Axloq - inson kamolotining eng yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy-axloqiy mezonlarning mazmun-mohiyatini, komillik peydevori va asosi (odobi, madaniyati va ma'naviyati)ni tashkil etadi; barcha jamiyatdagilar uchun bir xil tarzda qabul qilingan va keng jamoatchilik fikr-mulohazalari bilan boyitilib ma'qullangan, uzoq tarixiy bosqichlar va davr sinovlarini boshidan kechirgan xulq-odob me'yorlari majmuidir.

Ko'pgina adabiyotlarda, ilmiy-ommabop va o'quv-metodik qo'llanmalarda, ba'zi maqolalarda "axloq" tushunchasining "odob" tushunchasi bilan birgalikda "odob-axloq" tarzida, yana ayrim ishlarda "ma'naviy axloq", "ma'naviy kamolot", "ma'naviy-axloqiy tarbiya", "ma'naviy-axloqiy sifatlar", "ma'naviy-axloqiy fazilatlar" kabi sinonimik yoki muqobil so'zlar tarzida ham qo'llanishi kuzatilmoqdaki, buning bir guruh olimlar¹⁰ ham e'tirof etganlar.

Nazarimizda, bunday tushunchalarning asosi bitta o'q ildizga borib taqaladi: axloq, xulq-odob me'yorlari, ma'naviyat, axloqiy madaniyat va ma'naviy qadriyat tushunchalaridagi mazmun-mohiyat faqat ongli, yuksak ma'naviyatli inson faoliyatigagina tegishli. Shunday ekan, insonning ma'naviy jihatdan yetukligi, komilligi, ruhan va jismonan barkamoligining tub ildizi ana shu tushunchalardagi mazmun-mohiyatga borib taqaladi. Shu boisdan ham biz quyida yuksak ma'naviyatli inson tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga bevosita daxldor tayanch tushunchalardan odob, adab, axloqiy madaniyat so'zlarining mazmun-mohiyati va ularning bir-birlari bilan bog'liqlik jihatlari, yoshlar tarbiyasidagi o'rnini haqida qisqacha so'z yuritishni ma'qul ko'rdik.

"Odob - pedagoglar nuqtayi nazarida, - odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutishi, boshqalar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi"¹¹.

Axloq bilan odobning yuzaga chiqish

omillari va ularning natijalari haqida ham tarbiyashunosligimizda ba'zi fikrlar bildirilgan. Xususan, "aniqrog'i, axloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala – munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Axloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Har bir odam xususida, odatda uning faoliyatiga, qanday ish bilan shug'ullanishiga, bu faoliyati va ishi axloq talablariga, turmush qoidalariga, jumladan, davlat qonunlariga muvofiq yoki xilof ekanligiga asoslanib muayyan fikr yuritiladi,"¹² - deb ta'kidlaydilar bir guruh mutaxassislar.

Bu o'rinda yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, "odob" so'zi pedagogika ilmidagi va oddiy so'zlashuv nutqida ko'proq qo'llaniladi. Lekin ushbu so'zning ko'pligi hisoblangan "adab" so'zi esa adabiy ta'limda o'rganiladigan asarlarda, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham, ayni chog'da, kundalik so'zlashuv nutqida ham faol qo'llanadi. "Odob" so'zi bilan "Adab" so'zining qo'llanishlarida tafovutlar bormi? Ularning bir-biri bilan bog'liqlik jihatlari, inson tarbiyasidagi o'rnini qay darajada ko'zga tashlanadi?

"Adab" so'zining birinchi ma'nosi har bir ishda me'yorni saqlashdir, - deya izohlaydi akademik A.Rustamiy. Ishni chegaradan chiqmasdan me'yori bilan qilish uchun bilim kerak bo'lgani uchun "adab" bilim ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Binobarin, "adab" deganda o'qib, o'rganib, xushaxloq bo'lib, muomala va ishni o'rniga qo'yib bajarish ko'nikmasi tushuniladi.

Adab sarrishtasin tutqil, adabdin yaxshi roz o'lmas,

Adabsiz ikki olamda, bilingkim, sarafroz o'lmas,

degan shoir "adab" so'zini mazkur ma'noda ishlatgan. "Adab o'rganmak", "adab o'rgatmak" kabi murakkab fe'llar tarkibida ham "adab" so'zi mazkur ma'nodadir¹³, - degan fikrni bildiradilar va shundan so'ng "adab" so'zi ta'zir ma'nosida ham qo'llanishini daliliy misollar orqali isbotlab beradilar.

Ko'ramizki, "adab" so'zi ikki xil ma'noni anglatadi: birinchi – tarbiyaviy va ikkinchi – "ilmiy" ma'nolarni ifodalaydi, uning asl lug'aviy ma'nosi "adab"ga tegishli asarlar yig'indisi "adabiyot" so'ziga borib taqaladi. "Adab" so'zining og'zaki nutqdagi muqobili "odob" so'zi pedagogikada, "adab" so'zi esa adabiyot

9 Imomnazarov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. O'quv-uslubiy kompleks. - T.: Sharq, 2007. - 336 b.

10 Hasanboyev J, Sariboyev G, Niyozov G, Hasanboyeva O, Usmonboeva M. - Pedagogika (o'quv qo'llanma). - T.: Fan, 2006. -B.83.

11 Mavlonova R, To'raeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. (darslik). - T.: O'qituvchi, 2001. -B. 299.

12 O'sha joyda.

13 Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. - T.: Ma'naviyat, 2003. 9-10 betlar.

fanida faol qo'llanadi. Zero, har ikkala fanning asosiy maqsadi va obyektini bir: ya'ni, ular inson va uning odobi bilan shug'ullanadi.

"Odob" so'ziga kelsak, bu so'z aslan "adab" so'zining ko'pligidir, - deb yana ta'kidlaydi A.Rustamiy. Mumtoz adabiyotda "adab"ning ko'pligi sifatida qo'llanadi. Undan tashqari "odob" so'zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularga rioya qilish ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, "turmush odobi", "kiyinish odobi", "muomala odobi" degandagi "odob" ana shu ma'nodadir¹⁴.

Ta'kidlash lozimki, axloq, odob, adab va ma'naviy-axloqiy fazilatlar tushunchalari axloqiy madaniyat tushunchasi bilan ma'no-mazmun jihatidan ham yaqinlashib ketadi, hozirgi kundagi adabiy ta'lim jarayonida biri ikkinchisining o'rnida faol qo'llanish holatlari kuzatilyapti. Nazarimizda, bunday holatda juda katta kamchilik yoki qo'pol xato yo'q. Axloq va odobda ham, "adab" va ma'naviy-axloqiy fazilatlar yoki axloqiy madaniyat

tushunchalarining mazmun-mohiyatida ham, eng avvalo, inson hayoti va uning faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. Demakki, axloqiy madaniyat tushunchasi ularning hammasida ma'naviy-axloqiylik mezonlarining qaysidir qirrasini o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkin, yoshlarga yangi O'zbekistonning bunyodkori sifatida qaralib, ularning har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega avlod qilib tarbiyalash davlat siyosatidarojarasigakotarilgan hozirgi davrda yoshlarning jamiyatdagi o'zni, mavqei va faolligining asosiy determinanti va yo'naltiruvchi omili bo'lgan shaxsiy ma'naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirish va hayotiy maqsad tushunchasini har jihatdan tadqiq etish bugungi kunda har doimgidanda dolzarflik kasb etayotganligini unutmashimiz zarur.

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ПОЛИСОНИМА ДИЗАК (ДЖИЗАК) Посвящается к 50 летию образования Джизакской области и организации Джизакского государственного педагогического университета имени Абдуллы Кадыри

Абдувахоб Абдумаликович Закиров - к. ф. н. доцент, Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: В данной статье на основе языковых, исторических, археологических, географических и письменных памятников подробно проанализированы история, этимология и хронология происхождения слова Дизак (Джизак) как ономастической единицы.

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif tomonidan Dizak (Jizzax) so'zining onomastik birlik sifatida shakllanish tarixi, etimologiyasi va kelib chiqish xronologiyasi lingvistik jihatdan lisoniy, tarixiy, arxeologik, jug'rofiy hamda yozma yodgorliklar asosida batafsil tahlilga tortilgan.

Abstract: This article, based on linguistic, historical, archaeological, geographical and written monuments, analyzes in detail the history, etymology and chronology of the origin of the word Dizak (Jizzakh) as an onomastic unit.

Ключевые слова: Дизак, Джизак, древний, топонимическая основа, полисоним, диз, регион, этимология, кандпарак, факнон, замок, крепость, цитадель, областной центр.

Kalit so'zlar: Dizak, Jizzax, qadimiy, toponimik asos, polisonim, diz, hudud, etimologiya, kandparak, faknon, qal'a, qurg'oncha, istehkom, viloyat markazi.

Keywords: Dizak, Jizzakh, ancient, toponymic basis, polysonym, diz, region, etymology, kandparak, faknon, castle, fortress, citadel, regional center.

Город Джизак - административный центр области, поэтому подробно

рассмотрим историю города и происхождения его названия.

Территория Джизакской области интересна прежде всего в физико-географическом отношении: здесь представлены горы средней высоты, предгорье и степь. Хотя население районов и города Джизака в основном состоит из узбеков, здесь можно услышать также и киргизскую, казахскую, таджикскую и русскую речь. Разнообразие ландшафтов и этнического состава населения способствовали возникновению многочисленной по количеству и разнообразной по семантике топонимии региона.

В лингвистическом плане специальное изучение региона начато в 50-х годах нашего столетия усилиями ученых диалектологов^{1,2} в кандидатской диссертации Х.Гулямова "Джизакский говор узбекского языка" дано описание фонетических, морфологических и лексических особенностей Джизакского говора узбекского языка. В Предисловии дается справка о Джизаке и его населении, перечислены следующие названия узбекских родоплеменных групп: кыпчаки, канглы, юзы, кырки, мингы, тюрки, тюаклы.

Далее автор приводит перечень названий кишлаков Джизакского района: Жиззахлик, Хавастик, Совунгарлик, Сайилжой, Заргарлик, Гилхона Уратепалик, Каландорхона, Бешарик, Учарик, Кассоблик, Нижонлик, Равотлик, Оккургонлик, Саройлик, Яхтанлик, Кушкуприк, Чулмулканлик, Ташканлик, Токчилик, Хайрабодлик, Калиятапа, Кангли, Калия-мулканлик, Бешкувур, Тошлок, Тегирмонбоши, Катта Олмачи, Качик олмачи, Ёйилма,

Сайхон, Огажон, Хуросон, Рават, Жийронкудук, Учкиз, Увоб, Курпа, Кили, Сангзор, Гандумтош, Эроникишлок, Шариллок, Кунчилик, Хасанкал, Яккакайрагоч, Бойгузар, Сулахли, Даулай, Туякли, Такали, Урганжи, Тешикдара и др.

По мнению лингвистов, ученых-историков и археологов М.Х.Пардаева³,

З.Т.Халбаева⁴, Ф.Э.Ташбаева А.Х.Валиева⁵, А.Х.Пардаева⁶, Қ.Хакимова, А.Закирова⁷ исследовавших древнюю историю и археологию города Джизака и Джизакской области. Городская культура Джизака прошла долгий и сложный путь своего развития, как и соседние исторические города - Самарканд, Бухара, Карши, Термез, Ташкент-Ходжанд. Например, он несколько раз менял свое местоположение, как и упомянутые выше исторические города.

Джизак является одним из древних городов Средней Азии, имевший важное торговое и военное значение. Он в далеком прошлом назывался по-разному: Кандпарак (канд - город + парак - укрепление, стена, укрепленный стенами города: факнон, Диззак - с различными фонетическими вариантами: Дизак, Жиззах (Джизак). В современном литературном узбекском языке употребляется вариант Жиззах, по-русски - Джизак.

Дизак как топооснова (в адаптированном узбекском литературном варианте Жиззах) встречается в названии областного центра, улиц, махаллы и городского квартала (Жиззах, Жиззахлик кучаси, Жиззахлик махалласи).

Джизак в произведениях арабских ученых-географов X века ибн Хаукала и Мухаддаси упоминается под названием Факнон вилояти⁸.

В XII-XIII веках в Хорасане существовали села Юкари Дизак и Куйи Дизак, у арабских географов Якута Хамави и Саъмани сообщается, что в мерве несколько сел под названием Дизак, Дизак Хафс, шерзод Дизак, Дизак-барон, Дизак мискин⁹.

Термин диз, а также полисоним Дизак встречается в разных фонетических вариантах в работах Махмуда Кашгари, З.М.Бабура, Хафиза Таниша Бухари, В.В.Бартольда, В.Я.Вяткина и других.

В словаре Махмуда Кашгари "Дивани лугат ит турк" термин диз истолковывается как крепость, укрепление¹⁰.

З.М.Бабур пишет: "Из Халилия мы пришли в Дизак. В это время в Дизаке

1 Гулямов Х. Джизакский говор узбекского языка. - Ташкент, 1954. с 31.

2 Данияров Х. Бахмальский говор узбекского языка. - АКД, М., 1955.43с

3 М.Х.Пардаев. Қадимги Жиззах Қалиятапаннинг топографиясига доир. Тафаккур зиёси. Жиззах. 1/2018(376)

4 З.Холбоев, А.Валиев. Жиззах вохасининг археологик ўрганилиши: муаммолар ва ечимлар. Тафаккур зиёси. Жиззах. 1/2018(406)

5 Ф.Тошбоев, А.Валиев. Уструшона чорвадорларининг уй ҳайвонлари билан боғлиқ диний тасавурлари. Тафаккур зиёси. Жиззах. 1/2018(436)

6 А.Ҳ.Пардаев. Жиззах шахри маҳалларининг ташкил топишига доир(Қангли маҳалласи мисолида). Тафаккур зиёси. Жиззах. 1/2018(466)

7 Қ.Ҳакимов, А.Зокиров. Бобур номи ила аталган. Тафаккур зиёси. Жиззах. 1/2018(586)

8 Узбекская Советская энциклопедия (вых данные). - Т.п. С. 109,54, т. 4. - С. 354-355

9 Жуковский В.А. Древности закаспийского края. Развалины старого Мерва. - СПб., 1894. - С.40.

10 Кашгари М. Дивани, лугат ит турк. - Т, Г.изд.каждого тома.Т, III, 1963. - С.63.

находился сын Хафиз Мухаммад бека Дулдая Тахир Дулдай¹¹. У Хафиза Таниша Бухари употребляется вариант Диззах: "Тот господин (хан Абдулла), оставив в Уратюбе Махмуд Султана, поставил в крепости Замин и

Диззах Шайхим султана с его родственниками их уважил и поднял до небес"¹².

У В.В.Бартольда полисоним употреблен двух вариантах: Джизак и Дизак. Он констатирует, что "... туземцы даже говорили, что вал переходит на левый берег Сыр-дарьи и тянется Голодной степью к городу Джизаку"¹³. "... Хан вернулся с новыми силами и вступил с ними в битву в Голодной степи, между Дизаком и Хавасом"¹⁴.

В.Л.Вяткин при описании Шовдарского тумана упоминает об озере Чакардиза и пишет, что аффикс диза обозначает крепость¹⁵.

В настоящее время в бассейне Аму-Дарьи и в Заравшанской долине часто встречаются названия кварталов, городов и арыков с элементом диз: Чакардиз, Сангдиз, Сафардиз, Кандиз.

Анализируя слово Джизак, проф. Я.Г.Гулямов возводит его к согдийскому слову "Диз", что означает "крепость" (кальа), а элемент "ак"/ "ах" рассматривается как уменьшительный аффикс, который находит себе эквивалент в таджикском уменьшительном аффиксе – "ак", например: тадж. мардак, занак, хурдак и т.п.¹⁶

Наряду с этим среди жителей региона в настоящее время известно несколько

толкований этого названия, что объяснимо, по видимому, поливариантностью исторического написания и произношения слова Жиззах.

В народной этимологии, бытующей в изучаемом регионе, существуют следующие фонетические варианты толкования полисонима Джизак:

1. Дизак - туз хак - соль оправдана;
2. Жиззах - состоит из двух слов: жиз - жара, жаркое лето, жаркая погода, зах - сырость, зима сырая, сырая погода;
3. Тъеззах - чаще тузок - то, чем ловят перепелок, куропа - ток;
4. Дузах - ад, адская долина.

Дизак - маленькая крепость. С нашей точки зрения, эта этимология является приемлемой, поскольку подтверждается фактическим материалом: Дизак - маленькая крепость - синоним арабскому кальача и тюркскому кургонча.

Таким образом, этимология полисонима дизак представляет, несомненно, значительный научный интерес в лингвокультурологическом, этнолингвистическом, социоллингвистическом, лингвогеографическом и историко-лингвистическом ракурсах.

Несомненно, что слово дизак является памятником культуры и языка, изучение, сохранение и их передача будущему поколению таких национальных языковых реликтов входит в основную задачу исследователей ряда смежных гуманитарных дисциплин.

¹¹ (Бабури З. М. Бабури-наме. Т. 1958., - С. 112).

¹² Хафиз Таниш Бухари. Абдулламане. Т., 1968. Т. 1-П. - С. 315.

¹³ Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Соч. Т.Ш., 1963.с.220).

¹⁴ Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Соч. Т.Ш., 1963.с.230).

¹⁵ Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // СХСО. - Вып. УП. - 1902. - С.93).

¹⁶ Гулямов Я. Древний Джизак (итоги работы джизакской археологической экспедиции). На узб. яз. - Газ. "Социализм".-1948. - 7-ХI-44 (1546).

G'ARB MAMLAKATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHINING MILLIY VA UMUMINSONIY JIHATLARI

Akbar Abduxamidovich Abduraxmonov - f.f.b.f.d., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati shakllanishining milliy va umuminsoniy jihatlari tahlil qilingan hamda fuqarolik jamiyati rivojlanishining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy tendensiyalari, nodavlat tashkilotlarning fuqarolik jamiyati rivojiga ta'siri masalalari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются национальные и универсальные аспекты формирования гражданского общества в странах Запада, а также конкретные современные тенденции развития гражданского общества, вопросы влияния неправительственных организаций на развитие гражданского общества.

Abstract: This article analyzes the national and universal aspects of the formation of civil society in Western countries, as well as the specific modern trends of the development of civil society, the issues of the influence of non-governmental organizations on the development of civil society.

Kalit so'zlar: aql markazlari, demokratiya, fuqarolik, fuqarolik jamiyati, milliylik, umuminsoniylik, nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik nazorati, tenglik.

Ключевые слова: аналитические центры, демократия, гражданство, гражданское общество, национальность, универсальность, неправительственные организации, общественный контроль, равенство.

Keywords: think tanks, democracy, citizenship, civil society, nationality, universality, non-governmental organizations, public control, equality.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, G'arbda o'ziga xos demokratik islohotlar va taraqqiyot yo'li bilan bog'liq ravishda kechganligini ko'rishimiz mumkin. G'arbda shakllangan fuqarolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalari natijasida fuqarolik jamiyatning milliy va umuminsoniy jihatlari ham shakllanib bordi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalari tahlilida G'arbda shakllangan fuqarolik jamiyati g'oyalarini bugungi zamonaviy dunyoda milliy davlatlarda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining umuminsoniy jihatlari belgilab bermoqda. Umuman olganda milliy davlatlarda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatida davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali hamkorlik aloqalarini ta'minlashi, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy hayotda faol fuqarolik madaniyatining shakllanishi muammolarini bartaraf etishni kun tartibiga qo'yimoqda. Shu maqsadda biz tadqiqotimizda G'arbda shakllangan fuqarolik jamiyatining milliy va umuminsoniy jihatlari tahlil qilamiz.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi qarashlar tahlilida davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'ziga xos munosabat tizimi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar G.Almond va S.Verbnning fikricha, "AQShda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat institutlari bilan bir qatorda keng huquqqa ega bo'lgan hukumat va har qanday kuchli tuzilmalarning faoliyati ustidan nazorat olib boradigan mustaqil tuzilmalar faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq"¹. AQShda fuqarolik jamiyatining shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi o'zida milliylikni aks ettirgan mahalliy xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayoni emas, balki o'ziga xos liberalizm g'oyalariga asoslangan Yevropa xalqlarining umuminsoniylikka asoslangan jamiyat to'g'risidagi qarashlari asosida rivojlandi hamda institutsional tuzilmalari vujudga keldi.

¹ Алмонд Г., Верба С., Гражданская культура: Политические установки и демократия в пяти странах, М.: Мысль, 2014 г., с. 59

qonunchilar jamiyatning o'z a'zolari oldidagi majburiyatini o'sha davrdagi Yevropa qonun chiqaruvchilariga qaraganda ancha kengroq va balandroq tushunishgan hamda agar dunyoda demokratiya tamoyiliga munosib baho berish mumkin bo'lgan shunday davlat bo'lsa, bu davlat, shubhasiz, Amerikadir"², degan xulosaga kelgan. Ko'rinib turibdiki, bugun fuqarolik jamiyati uchun umuminsoniy tamoyillar hisoblangan inson va uning huquqlari oliy qadriyat sifatida yuqori o'ringa qo'yilgan.

Fuqarolik jamiyatning rivojlanishi bevosita jamiyat a'zolarining jamiyatda teng huquqliligini ta'minlash, davlat institutlari bilan faol munosabatlarda ishtirok eta olishini kafolatlovchi qonuniy asoslarni ham talab etadi. Turli millatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, jamiyatda jinslar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash maqsadida 1964-yilda "Etnik va gender huquqlarini himoya qilish to'g'risida"³gi qonun qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda turli millat vakillarining faol fuqarolik madaniyatining shakllanishiga ham o'z ta'siri ko'rsatdi. Natijada, davlat institutlaridan tashqari fuqarolar tomonidan tuzilgan mustaqil tuzilmalar faoliyatida ham etnik va gender munosabatlarni muhofaza qilish muhim faoliyatlardan biriga aylandi.

AQShda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi o'ziga xos bo'lgan nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyati bilan uzviy bog'liq sanaladi. A.de Tokvil ta'kidlaganidek: "Qo'shma Shtatlarda bir necha aholi jamiyatda targ'ib qilmoqchi bo'lgan fikr yoki g'oyani qabul qilishlari bilanoq, ular bir-birlarini izlaydilar va bir marta birlashadilar. O'sha paytdan boshlab ular bir-biridan ajralgan emas, balki faoliyati bilan ibrat bo'ladigan va so'zlariga quloq soluvchi uzoqdan ko'rinadigan kuchga aylandilar"⁴. Bu qarashlar orqali shuni aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat tuzimlari faoliyati bilan bir qatorda fuqarolar faolligiga asoslangan nodavlat sektor faoliyati bilan ham uzviy bog'liq sanaladi.

Bugungi kunda Qo'shma Shtatlarda 1,5 millionga yaqin NNT⁵ mavjud. Bu mustaqil, ixtiyoriy tashkilotlar hayotiy, barqaror ijtimoiy tartibni saqlab, shaxs erkinligini ta'minlashga yordam beruvchi nodavlat tashkilotlar hisoblanadi. Mazkur tashkilotlar davlat nazorati bo'lmasada jamiyatda bir-biri bilan o'zaro faol aloqada bo'ladilar,

kelishmovchiliklarni muzokara qiladilar va hal qiladilar, umumiy maqsad atrofida birlashadilar va o'z hukumatlari va jamiyatlarini yaxshiroq ishlashga undashadi. Shu orqali fuqarolik jamiyati fuqarolik faolligi orqali davlat institutlarining samarali ishlashiga yordam beradi.

Bugungi kunda Amerika jamiyatida fuqarolik jamiyatining rivoji NNT tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq sanaladi. Aynan jamiyatdagi xavfsizlik, jinoyatchilik, ta'lim muammolari, sog'liqni saqlash, jamiyat korrupsion muammolari va mahalliy muammolarni hal qilish nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyati muhim rol o'lnaydi.

Fuqarolik jamiyati rivojida nodavlat-notijorat tashkilotlari G'arb jamiyatining o'ziga xos faol instituti sifatida quyidagi faoliyatlarni amalga oshirgan:

- jamiyat a'zolariga xizmat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlar. Xususan, fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar va gumanitar yordam ko'rsatishga bag'ishlangan ommaviy kutubxonalar tashkil etishga qaratilgan jamg'armalar faoliyatini keltirishimiz mumkin. Mazkur jamg'armalar xalq uchun minglab jamoat kutubxonalarini internetga ulanish va kompyuterlar bilan jihozlash, internet va texnologiyani millionlab amerikaliklar uchun ochiq qilish uchun katta resurslarni ajratgan;

- ekspert tahlillari va tadqiqotlarni olib boruvchi "aql markazlari".

- Mazkur aql markazlari o'z faoliyatida erkinlikni kengaytirish, shaxsiy imkoniyatlarni oshirish va erkin tadbirkorlikni mustahkamlash, individual erkinlik, an'anaviy jamiyat qadriyatlarini va kuchli milliy mudofaa tamoyillariga asoslangan konservativ davlat siyosatini shakllantirish va ilgari surish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi hamda davlatga ichki va tashqi siyosat sohasida muammolarni hal qilishda amaliy ko'makchi vazifasini bajaradi;

- inson huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlar. Mazkur tashkilotlar fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan shaxsiy huquq va erkinliklarni sudlarda, qonun chiqaruvchi organlarda va jamoalarda himoya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

- hukumat harakatlari ustidan monitoringni amalga oshiruvchi nodavlat tashkilotlar. Mazkur tashkilotlar saylovlar va saylovoldi dasturlarida belgilangan strategik dasturlarning bajarilishini nazorat qiladi,

jamiyatda davlat institutlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan korrupsion tizimga qarshi samarali faoliyat olib boradi.

NNTning yana bir keng tarqalgan faoliyati bu o'z saylovchilari nomidan barcha darajadagi hukumatlar, qonun chiqaruvchi organlar va ijrochilar oldida advokatlik qilishdir. Yirik a'zo nodavlat notijorat tashkilotlari siyosatga ta'sir qilish uchun saylovchilarni safarbar qilish va mablag' yig'ish imkoniyatlaridan foydalanadi. Shuningdek, mazkur tashkilotlar xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan o'z a'zolarini himoya qiladi, ularga nafaqaga chiqqanlar sifatida cheklangan budjetlari asosida chegirmalar olishga yordam beradi va pensiya rejalashtirish kabi xizmatlarni taqdim etadi.

Umuman olganda, AQShda fuqarolik jamiyatining taraqqiy etishi bevosita umuminsoniylik tamoyillariga asoslangan xalqaro huquq me'yorlari bilan bir qatorda davlat tashkilotlari ustidan faol jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi nodavlat tashkilotlar faoliyatining taraqqiy etishi bilan uzviy bog'liqlikda shakllandi. Nodavlat tashkilotlar jamiyatning turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda davlatga ko'makchi vazifasini bajarmoqda.

Fuqarolik jamiyati rivojida Germaniyada shakllangan fuqarolik jamiyati qadriyatlarini tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada fuqarolik jamiyatining rivojlanishi murakkab jarayonlar asosida kechganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi davrda rivojlangan G'arb davlatlarida bo'lgani kabi Germaniyada faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari demokratik siyosiy faollikni nazarda tutgan holda davlat ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda siyosiy partiyalar ta'siri va o'z-o'zini boshqarish institutlari faolligi tobora ortib boraveradi. Ya'ni shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida baholanadi.

Kuchli davlat an'anasi Sharq davlatlari kabi ko'pgina G'arb mamlakatlariga ham xos, ayniqsa, Germaniya davlat boshqaruv tizimida bu holatga bevosita guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni Germaniya ijtimoiy-siyosiy hayotida davlatning roli jamiyat hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyati kuchli hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat tuzilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda milliy birdamlik g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaxsiy erkinlik davlat qudratiga bog'lab talqin etiladi. Unga ko'ra davlat kuchli bo'lsagina, shaxs qiziqishlari va erkinligini himoya qila oladi. Ya'ni davlat tartibi g'oyasi, milliy birdamlik shaxs erkinligidan ham ustun

qo'yiladi.

Germaniyada fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risida erkin axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab jarayon sifatida baholanadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonlar axborot erkinligiga oid huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solinadi. Chunki bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlarining zamonaviy axborot bozori sharoitida jamiyat oldidagi mas'uliyati hamda javobgarligini yanada chuqur anglashiga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimdir.

Shuning uchun ham 2003-yilning mayida Germaniyada oila, keksa fuqarolar, ayollar va yoshlar ishlari bo'yicha qo'mitaning kichik bo'limi (Fuqarolik faolligi bo'yicha kichik qo'mita) tashkil etilgan. Uning vazifasiga Germaniyaning fuqarolik jamiyatini tadqiq etish tavsiyalarini bajarishga ko'maklashish hamda o'z yo'nalishidagi qonun loyihalari va tashabbuslarini muhokama qilish kiradi.

Shuningdek, bu mamlakatda aholining notijorat va jamoat tashkilotlariga bo'lgan ishonchi – uchinchi sektorini rivojlantirishning muhim mezonlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi "birinchi" va "uchinchi" sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni institutsionallashtirish har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Bunday hamkorlik siyosatini belgilab beradigan hujjatlar davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning muayyan bosqichi uchungina foydali bo'ladi. Ularda davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati roliga nisbatan yangicha nuqtayi nazari aks etadi va uchinchi sektor tashkilotlari bilan samarali o'zaro hamkorlik asoslari yaratiladi.

Germaniyada fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi inson taraqqiyoti indeksi, demokratiya, farovonlik, sog'liqni saqlash va ta'lim taraqqiyoti indeksleri, tadqiqot faoliyati, atrof-muhit samaradorligi, gender tengligi, xayriya, ijtimoiy barqarorlik, qonun ustuvorligi, matbuot erkinligi, korrupsiyaga qarshi kurashish, mulk huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy erkinlikning jamiyatda ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Germaniyada zamonaviy fuqarolik jamiyatining rivojlanishi nodavlat sektor faoliyati asosida taraqqiy etdi. Nodavlat sektor o'z faoliyatida davlat va jamiyat sohalaridagi muammolarni hal qilish orqali davlatga amaliy ko'makchi vazifasini bajargan.

Hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyati

² Токвил А., *Демократия в Америке*. М.: Прогресс, 1992 г. с. 48

³ The Civil Rights Act of 1964 and the Equal Employment Opportunity Commission // National Archives: [сайт]. URL: <https://www.archives.gov/education/lessons/civil-rights-act>

⁴ Токвил А., *Демократия в Америке*. М.: Прогресс, 1992 г. с. 48

⁵ Non-Governmental Organizations (NGOs) in the United States // U.S. Department of State: [сайт]. RL: <https://www.state.gov/s/d/rm/index.htm#mission>

instituti jamiyatda ijtimoiy-siyosiy (kasaba uyushmalari, saylovchilarning erkin guruhi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uyushmalari, ekologik guruhlar) va maishiy (aholini himoya qilish uyushmalari) kabi bir qator muammolarni hal qilishuvchi tashkilotlar sifatida faoliyat yuritadi. Bunday tashkilotlar fuqarolarning huquqlariga rioya etilishini nazorat qiladi va aniq muammolarni hal qiladi. Shunday qilib, fuqarolar o'z farovonligi uchun mas'uliyatning bir qismini o'z zimmlariga oladilar, bu esa davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Germaniyada notijorat sektori jamiyatdagi turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda faol tashkilot hisoblanib, kuchli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasida davlat va uchinchi sektor o'rtasidagi hamkorlik bugungi kunda o'zining rivojlanish darajasiga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish maqsadida turli dasturlarni ishlab chiqadi, tashabbus va dasturlar samaradorligini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Germaniya uzoq vaqtdan beri o'z an'analari va tarixiy tajribasiga ega kuchli fuqarolik jamiyati institutlariga ega. Germaniya hukumati uchinchi sektor bilan, ayniqsa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida yaqindan hamkorlik qiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari yalpi ichki mahsulotining 3,9 foizini tashkil etdi, notijorat sektorida 1,44 million kishi to'liq ish kunida ishlaydi⁶.

G'arbda shakllangan fuqarolik jamiyatning rivoji shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dunyoda nodavlat-notijorat tashkilotlari mamlakatlarning ichki siyosatida ham, xalqaro maydonda ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Uchinchi sektorning xalqaro ishtirokchilari insoniyatning eng dolzarb muammolariga ta'sir ko'rsatishi mumkin: butun dunyo bo'ylab inson huquqlarini himoya qilish (shu jumladan, qochqinlar), gumanitar yordam ko'rsatish, sayyorani himoya qilish

uchun davlatlarga ta'sir ko'rsatish, ekotizimni saqlash, yo'qolib borayotgan hayvonlar turlarini saqlab qolish va boshqalar... Mamlakatdagi kuchli fuqarolik jamiyati institutlari davlatdan fuqarolar zimmasiga ko'plab ijtimoiy va jamoat vazifalarini yuklash imkonini beradi, buni Germaniya va AQSh misolida ko'rsatdi.

Qayd etish joizki, har ikki davlat ham dunyoning turli reytinglarida yetakchi o'rinlarni egallab, yalpi ichki mahsuloti dunyodagi eng yuqori 10 ta davlat qatoridan joy olgan. Bu mamlakatlarda davlat va fuqarolik jamiyatining faol hamkorligi tufayli bag'rikenglik va o'zaro ishonchni oshirish maqsadida inson huquqlarini, tub aholi, milliy ozchilik va migrantlarni himoya qiluvchi, etnik madaniyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga, shuningdek, ular haqidagi ma'lumotlarni tarqatishgaxizmat qiluvchi kuchli nodavlat institutlar shakllantirildi. Shunday qilib, ushbu mamlakatlarda fuqarolik jamiyati millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, millatlararo va konfessiyalararo nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, G'arbda shakllangan zamonaviy fuqarolik jamiyati rivoji jarayonlarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, G'arbda fuqarolik jamiyatining rivoji nodavlat tashkilotlar faoliyati taraqqiy etish jarayoni bilan uzviylikda kechgan.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatning umuminsoniy jihati hisoblangan inson huquqlari, erkinlik, tenglik, millatlararo hamjihatlik g'oyalarni himoya qiluvchi fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati rivoji natijasida ta'lim, sog'liqni saqlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat tashkilotlar faollik ko'rsatgan.

KARL POPPERNING ILMIY BILISH MANTIG'I VA YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY BILISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Muxriddin Azimmurod o'g'li Sherboboyev - katta o'qituvchi., (PhD), Alfraganus university

Annotatsiya: Maqolada Karl Popperning ilmiy bilish mantig'iga oid qarashlari hamda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotga erishishida Popper g'oyalarning tadbiiq etilishi masalalari tahlil qilingan. Jumladan, inson qadrini ulug'lash va insoniy qadriyatlardan unumli foydalanish hamda erkinlik, hurfiylik va aqliy tafakkurning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni o'rganilgan.

Аннотация: В статье анализируются взгляды Карла Поппера на логику научного познания и применение идей Поппера в общественном развитии Нового Узбекистана. В частности, изучались прославление человеческого достоинства и эффективное использование общечеловеческих ценностей, а также роль свободы, разумности и интеллектуального мышления в общественном развитии.

Abstract: The article analyzes the views of Karl Popper on the logic of scientific knowledge and the application of Popper's ideas in the social development of New Uzbekistan. In particular, glorification of human dignity and effective use of human values, as well as the role of freedom, rationality and intellectual thinking in social development were studied.

Kalit so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot, bilish, tanqidiylik, ratsionallik, demokratiya, xususiy mulk, hurfiylik.

Ключевые слова: социальный прогресс, знание, критичность, разумность, демократия, частная собственность, суеверие.

Keywords: social progress, knowledge, criticality, rationality, democracy, private property, superstition.

Bugungi kun ijtimoiy jarayonlarini yanada samarali va ko'lamdor bo'lishini ta'minlash maqsadida falsafiy me'rosni amaliy hayotga tadbiiq qilish hamda yangi ijtimoiy foydali g'oyalarni tadbiiq qilish lozim. Jumladan, Popper ijodini o'rganarkanmiz, ayni bizning jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ham muhim bo'lgan va yangi O'zbekistonni barpo qilishda kamarbasta bo'ladigan g'oyalarni olishimiz hamda amaliyotga tadbiiq qilishimiz lozim.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ijtimoiy bilishning oldida turgan asosiy yo'nalish "Yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish" kabi maqsadlarni tashkil qilsa, uni amalga oshirish uchun esa "hech shubhasiz, har birimizdan qat'iyatli va omilkor bo'lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab qiladi"¹. Buning uchun esa har bir fuqaroning salohiyatini inobatga olgan holda yo'naltirish hamda insonning imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim. Insonning imkoniyatlaridan foydalanish esa individualizmni talab qiladi. K.Popper ijtimoiy taraqqiyot borasida fikr bildirarkan, o'z taraqqiyot modelini gumanizm

bilan ifodalaydi. Gumanizmning asosida esa individualizm va egolitarizm g'oyasi yotadi. Albatta, ijtimoiy taraqqiyotning zamirida alturizmning ham o'rni katta, shu sababli ham Popper individualizmi alturizmni inkor etmaydi. Shu sababli ham Popper juda ko'plab faylasuflar ijodiga tanqidiy munosabat bildiradi hamda o'z g'oyalardagi tuzilma sifatida Afina demokratiyasini misol qiladi. Chunki unda insonparvarlik xususiyatlari mavjud bo'lgan deb biladi.

Davlat taraqqiyoti uchun inson kamoloti eng asosiy omil hisoblanadi. "Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning: "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy izlanish kerak", — degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo'lishizaru"². Popperning falsafasi Suqrotning qarashlariga asoslanadi, shu bois ham qarashlarida ayniylik ko'p kuzatiladi. K.Popperning antikumilyativ qarashlari insonni har doim izlanishga, to'xtamaslikka undaydi. Bundan tashqari tanqidiylik ijtimoiy taraqqiyotning

6 Priller E., Zimmer A., Anheier H. K., Toepler S., Salamon L. M. Germany: Unification and Diskussionspapiere/2002wp-and03.pdf

Change,;

[сайт].

URL: http://www.aktive-buergerschaft.de/fp_files/

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. — Toshkent: O'zbekiston, 2022. — B.8.

2 O'sha manba. — B.8.

mezoni sifatida ikkala faylasufda ham birday namoyon bo'ladi. Suqrot va Popper qarashlaridagi yana bir o'xshashlik bu insonning davlatda tom manoda erkin faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligidir. K.Popperdagi yuqorida sanab o'tilgan g'oyalar mamlakatimiz rivojlanishning yangi davrida amalga oshiriladigan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan - erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlat barpo etish g'oyasiga hamohang va bu yo'nalishni amaliyotda joriy qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda aqlii shahar, aqlii uy, aqlii avtomobil yoki aqlii telefon kabi jamiyat hayoti uchun muhim sohalar ko'p tahlil qilinib o'rganilmoqda, ammo, ularni boshqaruvchi va foydalanuvchi aqlii inson masalasi e'tibordan chetda qolmoqda. To'g'ri, inson muammosi har doim ilm-fan markazida turgan lekin, bugun ijtimoiy hayotning yuqori darajada murakkablashuvi inson muammosini chetga surilishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bir sharoitda ijtimoiy taraqqiyotni qaror toptirish uchun inson masalasi kun tartibidagi asosiy masalaga aylanmog'i lozim. Demakki, biz ijtimoiy taraqqiyot sari qadam qo'yarkanmiz, avvalo, bu jarayonda insonni o'zgartirishimiz kerak bo'ladi hamda barcha o'zgarishlar markazida insonning turishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz rahbari ushbu yo'nalishdagi maqsadlarni amalga oshirishda "Avvalo, xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'sqinlik va cheklanishlarni bartaraf etishni"³ ta'minlash lozimligini ta'kidladi. Bu borada qilingan ishlar ham talaygina bo'lib, buni yanada kuchaytirish maqsadida xususiy mulkchilik bo'yicha mexanizmni kuchaytirish lozim. K.Popper go'yalaridagi yana bir muhim jihat bu xususiy mulk davlat tomonidan himoya qilinishi va natijada ijtimoiy taraqqiyotga asos bo'lishidir. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va uning rolini oshirish hamda kichik biznesga imkoniyat berish davr talabiga aylanib bormoqda.

Demokratik jamiyat barpo etishga yana bir muhim jihatlaridan biri bu hurfiylikdir. Ayni shu so'z zamirida jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan erkin insoniy ma'no

mujassamdir. Bugun davlatda so'z erkinligi, fikr erkinligi huquqiy asosga ega bo'lib, Konstitutsiyamizning 29-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin"⁴, - deb belgilab qo'yilgan. Ammo hurfiylikning vujudga kelishi inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq ijtimoiy jarayondir. Karl Popper qarashlarida ayni hurfiylikning mohiyati ochib berilgan. Jumladan, Popper shunday yozadi: "Hurfiylik - bu to'g'ri aqliy tafakkurdir". Shu sababli ham Popper demokratik davlat deganda, eng avvalo, aql ustuvor bo'lgan, barcha o'zgarishlar fuqarolar tomonidan aql mushohadasi orqali anglanadigan davlatni nazarda tutadi. Aql ustuvorligi tushunchasi mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyati bilan ifodalanadi. K.Popper qarashlari mantiqiy pozitivizm vakili sifatida mantiqqa asoslanishi tabiiy holat edi. K.Popperning mantiqiy tafakkuri uchun qurol bu tanqid hisoblanadi. Har bir insonda tanqidiy tafakkur rivojlansa bu, albatta, davlatda hurfiylikni keltirib chiqaradi. K.Popper fikricha, davlat va fuqarolar o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda tafakkur, ya'ni aqliy bilish birlamchidir. K.Popper intuitsiyani tan olmaydi. Bu bilish turini aql chegarasiga mos kelmaganligi sababli ham davlat hayotiga tadbiiq qilishni ma'qul ko'rmaydi. Arastu va Aflotun qarashlarida shu kabi go'yalar qarshi fikrlar bo'lganligi sababli Popper ular ijodini tanqid qiladi. Ayni Arastu qarashlarida intuitiv bilimlarning o'rne birlamchi bo'lsa, Aflotunda esa davlat adolat mezonlariga mos kelmadi, ya'ni ochiq jamiyatni cheklaydigan omil edi. Aflotunning kollektivizmini Popper totalitarizm deb nomlaydi. Uning fikricha, alturizm va gumanizm kollektivizmdan yoki totalitarizmdan kelib chiqmaydi, aksincha, individualizmga borib taqaladi. Bu holatda insonga o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi uchun sharoit yaratiladi. Davlatchilikning kollektivizm shakli xalq ommasining loqaydligiga olib keladi, bunda hurfiylik an'analari yo'qolib boradi, buyuk shaxslarga sig'inish kuchayadi.

Popperning demokratiya haqidagi

qarashlari "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" deb nomlangan asarlarida bayon qilingan. "Ochiq jamiyat" deganda u erkin demokratik huquqiy davlatni tushungan. Bunda jamiyat individuallik tamoyillariga asoslanadi. Shu kabi go'yalar asosida Popper Aflotun kollektivizmini individ xususiyatlarini yo'q qilishda ayblaganini ko'rishimiz mumkin. K.Popper go'yalari ijtimoiylikni yoki inson hayoti uchun uning atrofidagilarni, jumladan, jamiyatning ta'sirini inkor qilmaydi. U shaxsning kamol topishini, avvalo, jamiyatga, xususan, oilaga, do'st-u yorlarga va atrof muhitga ham bog'laydi. Tashqaridan qaraganda K.Popper qarashlari ijtimoiylikni inkor qilgan bo'lib ko'rinadi. Ammo mohiyatan yondashilsa, albatta, uning individualizmi ijtimoiy munosabatlarni inkor qilmaganligini ayon bo'ladi. Shaxs kamoloti ijtimoiy va tabiiy atrof-muhit mahsuli ekanligini ta'kidlab, Popper misol tariqasida Bexovenni keltiradi: "U mashhur musiqashunos bo'lgan, lekin garang bo'lgan. Uni mashhur bo'lishiga oilasi, tabiiy iqtidori, jamiyatdagi ahvoli hamda musiqiy ma'lumoti katta ta'sir ko'rsatgan"⁵.

Popperning bu go'yalarida individning shaxs darajasiga ko'tarilishi uchun lozim bo'lgan faktorlar masalasi namoyon bo'ladi. K.Popperning ratsionalizmi ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan qaralsa, albatta, kelishuvni ijtimoiy aloqalarning kuchayishiga olib keladi.

K.Popper ratsionalizmni umumiy tushuncha sifatida qo'llaydi. Avvalo, u intellektual faoliyatda qo'llanilmaydi, balki kuzatish va tajribalarda ham namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, esa Popper biror bir muammoni hal qilishda tuyg'u va hissiyotga emas, balki aniq tafakkurga, aqlga murojaat qilish aqliy bilish orqali yechishni nazarda tutadi. Ijtimoiy taraqqiyot Vatan ravnaqi esa bizdan aqlni, har qanday muammolarni aql bilan hal qilishni talab qiladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Bugun zamon o'zgarimoqda, uning talabi, oldimizga qo'yayotgan vazifalari tobora ortib bormoqda. Mana shunday murakkab sharoitda "Sen - menga tegma, men - senga tegmayman" degan kayfiyat bilan ishlashning vaqti o'tdi. Biz "vaziyat yomon, vaziyat og'ir" deb bahona qidirishga o'rganib qolganmiz. Lekin shu vaziyatni kim o'zgartiradi, kim izga soladi, degan savolni, keling, o'zimizga beraylik. Vaziyatni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz, mehnatimiz bilan o'zgartirmasak, hech kim chetdan kelib bu ishni biz uchun qilib bormaydi"⁶.

Shunday ekan, taraqqiyotga birga aqliy mushohada va tinimsiz mehnatimiz asosida erishishimiz lozim.

Ratsionalizmni K.Popper ijtimoiy munosabatlar misolida ham tushuntirishga urinadi. U shunday yozadi: "Men adashishim ham mumkin, u ham xato qilishi mumkin, lekin birgalikda biz haqiqatga yaqinlashamiz". Bu go'ya zamirida insonlar o'rtasidagi tobora uzilib borayotgan rishtalarni aqliy mushohada yordamida tushunish va vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishimiz mumkin bo'lgan go'ya yashiringan.

Darhaqiqat, inson o'zi xatkor, uni to'g'ri tushunish hayotdagi qancha stresslarni ketkizadi. Forobiy go'yalarida mavjud bo'lgan insondagi ehtiyojlar jamiyatni tashkil topishiga sabab bo'lgan singari, Popperda ham insondagi xatkorlik uni boshqalar bilan birlashishga undaydi. Bu esa, milliy qadriyatlarimizga singib ketgan "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" mazmunidagi maqolga mos keladi. Bugun bizning bu go'yaga har doimgidan ham ehtiyojimiz ko'proq. Yangilanayotgan jamiyatimizda insonlarni birlashtirishga qay darajada ehtiyoj borligini sotsiologik so'rovnoma natijalari misolida ko'rishimiz mumkin. Popperning "Men adashishim mumkin, u ham adashishi mumkin, ammo birgalikda biz haqiqatga yaqinlashamiz" degan fikrini so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 80 % belgilagan.

K.Popperning tanqidiy ratsionalizmi zamirida bilish va uning o'sishi nazariyasi yotadi. Biroq u nafaqat ilmiy haqiqatni izlashga, balki insoniyat jamiyatining boshqa har qanday sohasiga ham tegishlidir. "Ratsional tanqidiy munozara mexanizmi chinakam ochiq jamiyat, ya'ni liberal jamiyat mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi"⁷.

K.Popperning fikricha, bilish bu taraqqiyotning asosiy sharti va barcha mavjud an'analarni muhokama qilish, ularning shart-sharoitlari, imkoniyatlarini anglash, muayyan muammoli vaziyatda salbiy va ijobiy tomonlarni aniqlash, o'zaro almashish va o'zaro solishtirishning tanqidiy muhokama jarayonida oqilona prinsiplarning mavjudligidir. K.Popper tavsiya qilgan ushbu mantiqiy tizim orqali mavjud an'analarni mushohada qilamiz, har qanday eskilik sarqitiga ko'r ko'rona ergashib ketavermaymiz. Axir inson tafakkur orqali to'g'ri yo'l tanlaydi, muammolarni yechadi, sababiyat olamida o'z borlig'ini namoyon qiladi. Tafakkur orqali tanqidiy tahlil esa bugun xalq va davlat

3 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 136.
4 <https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001>

5 Nazarov Q. va b. G'arb falsafasi. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 689.

6 <https://president.uz/uz/news/5451/>

7 Лекторский В.А. Рациональность, критицизм и принципы либерализма. Вопросы философии. - М., 1995. - № 10. - С. 27- 36.

o'rtasidagi munosabatlarni gumanistik ruhda kechishini ta'minlamoqda. Ayniqsa, bu davlat xizmatchilariga taalluqlidir. Yurtboshimiz tomonidan yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbari – bu bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak"⁸, – degan fikrning ilgari surilishining o'ziyoq, tanqidiy tahlilning qimmatli g'oya ekanligini ko'rsatadi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan tashkil qilinayotgan tanqidiy ko'rsatuv yoki maqolalarning natijasida jamiyatda ko'plab mummolarni hal bo'layotganini ko'rib guvohi bo'lmoqdamiz. Albatta, tanqid taraqqiyotga xizmat qilishi, ezgulikka xizmat qilishi hamda, eng avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Chunki yurtimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida "Inson manfaatlarini hamda narsadan ustun" deb atalgan g'oyani bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etish yotadi.

K.Popperning gnoseologik qarashlari falsafiy dunyoqarashning umumiy tizimini tashkil qiladi va boshqa nazariy tuzilmalarga asos sifatida xizmat qiladi. V.A.Lektorskiy o'z fikrlarida Popperning sosiologik qarashlari "Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" asarida berilgan gnoseologik yondashuvining davomi ekanligi ochib berilgan. "Popperning gnoseologiyasi, uning fan falsafasi va ijtimoiy falsafasi, jumladan, siyosiy falsafasi o'rtasida chuqur bog'liqlik mavjud. Bu uning ijtimoiy falsafasini epistemologiyada ishlab chiqilgan g'oyalarning shunchaki qo'llanilishi sifatida taqdim etishi emas edi. K.Popperning fan falsafasiga uning ijtimoiy-siyosiy ideallarining ifodasi sifatida qarash ham emas. K.Popper falsafasining ikkala asosiy qismi ham bir ildizdan o'sib, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishini tushunish to'g'riroq. Bu umumiy ildiz ratsionallik tushunchasidir"⁹. K.Popperning ratsionalizmida yana bir xususiyat shunda ediki, u qo'rquv, muhabbat, nafarat, erkinlikni inson ruhining turli holatlari deb tushuntiradi. U falsafiy mushohada yuritishning faqat tafakkuriy tomonini ko'radi. U shu qarashlari orqali falsafani fanlar safiga qo'shadi hamda aqliy mushohada orqali hurfikrlikka undaydi. Faylasuf o'z asarlaridan birini "Barcha insonlar faylasufdir" deb nomlaydi va fikrida davom etib, har qanday inson shu borliqda yasharkan mushohada qilishi, fikr yuritishini ta'kidlab, ayni shu fikrlarni jonlantirish orqali hurfikrlikka

erishish mumkin deydi. Bugun jamiyatimizda bir qator fanlarga, raqamlashtirish sohasiga e'tibor kuchaymoqda. Bu ijobiy holat, albatta. Ammo insonlarni mushohada yuritishi uchun yangi bunyodkor g'oyalarni shakllantirish uchun asos bo'luvchi fanlarni ham chetda qoldirmaslik lozim. Pozitivizm falsafasi vakillari tomonidan falsafani fanlar safidan chiqarilishiga qarshi o'z g'oyalari bilan chiqqan Popper falsafiy mushohada ilmiy bilish jarayonida naqadar muhim ekanligini ko'rsatdi. Bu esa g'arb falsafasi taraqqiyotida jamiyat hayotida o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ilmiy bilish tarixida eksternalizm¹⁰ tarafdorlari o'tgan. Bu qarash ijtimoiy taraqqiyotda o'z o'rniga ega bo'lib, unga ko'ra yangi g'oyalarning asosiy manbai jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlaridan hamda insonning moddiy va ma'naviy salohiyati ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun kognitiv qiziqish har doim ma'lum bir amaliy qiziqishlar uchun yopiq bo'ladi. Fan falsafasida eksternalistik dasturni amalga oshirishda eng kuchli urinish T.Kun, P.Feyrabend, M.Polanyi va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning umumiylikdagi o'xshash xususiyati shunda ediki, ijtimoiy munosabatlarda hamma vaqt hamma narsa ochiq aks ettirilmaydi. Bunga sabab bo'luvchi jamiyatning madaniy qadriyatlar yoki siyosiy qadriyatlar tizimi bo'lishi mumkin.

Bu qarashlarni davom ettirgan Popper o'z qarashlarini quyidagicha tariflaydi:

Ilmiy bilim turli munosabatlarga asoslangan internalizm va eksternalizm o'rtasidagi o'rta yo'l, ya'ni meyoriy yo'l eng maqbuldir. Bunga ko'ra bilish ayni bir jamiyat kontekstida olinganda uning ham, ichki ham tashqi xususiyatlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Albatta, qadriyatlar tizimi inkor qilinmaydi, ammo inson taraqqiyotiga to'siq bo'luvchi qadriyatlar tizimi inkor qilinishi Popper aytgan oraliq me'yoriy bilish jarayonini keltirib chiqaradi. Albatta ijtimoiy hayotimizda oltin o'rtaliqqa amal qilishimiz bizning ilmiy faoliyatimizda ham ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizda ham ko'zga tashlanadi.

Ilmiy tadqiqot mantig'i va bilimlarni sinash va xatolik yo'li bilan egallash izchil evolyutsiya ko'rinishidagi bilish jarayoni sifatida ifodalanishi mumkin. Sinov va xato nazariyasi – ilmiy yoki tanqidiy usul bilan tavsiflanishi mumkin bo'lgan taxmin va rad etish nazariyasidir. Bu nazariya Popperning tatbiq qilishimiz mumkin bo'lgan yana

⁸ <https://president.uz/uz/news/5451/>

⁹ Автономова Н.С. Рассудок, разум, рациональность. –М., 1988. – С. 27-36.

¹⁰ Eksternalizm – falsafiy va metodologik qarash bo'lib, unga ko'ra ilmiy bilimning asosi tashqi sharoitlar, jumladan, ijtimoiy, tarixiy hamda siyosiy o'zaro ta'sirlar natijasi hisoblanadi.

bir ijtimoiy me'yordir. Biz oldimizga katta marralarni qo'yib olg'a qadam bosarkanmiz, xatolardan qo'rqmasligimiz va bu xatolardan to'g'ri xulosalar chiqarishimiz lozim. Mashhur ixtirochi Genri Ford: "Mag'lubiyat – bu barchasini yangidan, ammo aql bilan boshlash degani. Modomiki adolatli muvaffaqiyatsizlik ekan, uyalish uchun hech bir asos yo'q. Ammo yana muqavaffaqiyatsizlikdan qo'rqish chinakam uyatdir", – degan edi.

Darhaqiqat, xato qilish yoki mag'lubiyatga uchrash inson ruhiyatini sindirmasligi lozim. Eng sermahsul va samarali ish bu hammasini yangidan boshlay olish va umidni so'ndirmaslikdir, mening fikrimcha. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqoridagi fikrlarning qimmatini yanada ortib bormoqda. Psixologik va sotsial tadqiqotlar diqqat markazida jamiyat a'zolarining turli emotsional holatlar natijasida begonalashuvi turganligi ko'zga tashlanadi. Shunday bir holatda aqliy mushohada orqali jarayonlarni nazorat qilish va yashovchanlik kayfiyatini hosil qilish har qanday jamiyat uchun tabiiy ehtiyojdir.

Popper jamiyat yoki davlatdagi bunday qarashlarni tabiiy tanlanish tushunchasi bilan ifodalaydi. Tabiiy tanlanish bilimlarning o'sishi uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. "Bizning bugungi kunda tabiiy tanlanishga asoslangan gnoseologiyaga ega bo'lishimiz, birinchi navbatda, Karl Popperning faoliyati bilan bog'liqdir"¹¹, – deb yozadi amerikalik mashhur olim D.Kempbell.

Ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda ijtimoiy bilish masalasi muhim hisoblanadi. K.Popperning ijtimoiy bilish masalasiga oid qarashlari ham har bir mamlakat taraqqiyoti uchun muhim bir manbadir. "Ijtimoiy bilish masalasida ikki jihatga yondashiladi: Birinchidan, har qanday bilish jamiyatda paydo bo'ladi, shakllanadi va ma'naviy-madaniy asoslarga tayanadi. Shu sababli ham bilish mantig'i bo'yicha har qanday bilish ijtimoiydir, u insonning odamlar orasidagi faoliyati bilan bog'liq, degan ma'no kelib chiqadi;

Ikkinchidan, ijtimoiy bilish inson faoliyati shakllaridan biridir, ya'ni jamiyatni, ijtimoiy jarayon va hodisalarni bilishdir"¹².

Ijtimoiy bilish masalasida Popper qarashlarini keltirar ekanmiz, undagi ilgari surilgan g'oyalar amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlidir.

Umuman olganda, K.Popperning ko'pgina fikrlari ancha bahsli va murakkabdird. Biroq demokratik tamoyillarga amal qiladigan jamiyatda bunday bu g'oyalardan foydalanish ayni muddaodir. Kuchli, adolatparvar jamiyat qurish uchun esa Popper demokratik davlatni tavsiya qiladi. Negaki, davlat jamiyat barqarorligi, millat osoyishtaligi va iqtisodiy taraqqiyotining bosh islohotchisidir.

Karl Popperning ochiq jamiyatning zarurligi haqidagi fikrlaridan foydalanish zarar qilmaydi. Uning qarashlaridan foydali jihatlari olinib, jamiyat va davlat taraqqiyoti yo'lida safarbar qilish maqsadga muvofiqdir. Ammo bunday ochiq jamiyatning ma'naviyati ham boy bo'lishi lozim. Inson insonga, jamiyatga, tabiatga, borliqqa, hayotga bo'lgan muhabbati mavhum bo'lmasdan, hayotiy, jo'shqin quvvatga aylanishi lozim. Muhabbat bilan nurlangan insoniy munosabatlar individlardan iborat bo'lgan mavhum jamiyatni tom ma'nodagi insoniy jamiyatga aylantiradi. Bunday jamiyatda insonlar bir-biriga begona bo'lmaydi, hayotning haqiqati ochiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tarixda juda ko'plab olim va faylasuflar yashab o'tgan. Ularning ilmiy me'rosidan unumli foydalanish va taraqqiyotga erishish har qanday davlat va jamiyat uchun asosiy yo'nalish bo'lishi lozim. Jumladan, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir"¹³. Shunday ekan, "Biz bu yo'lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azm-u shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi"¹⁴. Shu kabi taraqqiyot yo'limizda ongli ravishda ishtirokchisi bo'lish va barcha sohalardagi islohotlarga "labbay" deb javob berib, o'z imkoniyati darajasida ishtirok etish har birimizning burchimizga aylanmogi lozim.

¹¹ Кэмпбэлл Д.Т. Эволюционная эпистемология // Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критики. –М., 2000. – С. 92.

¹² Назаров Q. Bilish falsafasi (Gnoseologiya). – Toshkent: Universitet, 2005. – B. 190.

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. –B.3.

¹⁴ O'sha manba. –B. 3.

IBN AL-ARABIY TASAVVUFİY QARASHLARINING FALSAFIY-ANTROPOLOGIK ASOSI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axrorjon Azamovich Mirzayev -katta o'qituvchi, Farg'ona politehnika instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Ibn al-Arabiyning tasavvufiy ta'limotining bosh yo'nalishi, insonlarning tabiiy tuzilishi, tabiiy tuzilish tarixi, falsafa va tasavvuf sohalaridagi ilohiy-diniy qarashlari, ilmiy asarlari va ularning mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: В статье кратко рассматриваются научные труды и их содержание суфистских учений Ибн аль-Араби, основные направления его суфистского учения, естественное строение людей, история естественного строения, богословские и религиозные взгляды в области философии и мистики.

Abstract: The article briefly examines the scientific works and their content of the Sufi teachings of Ibn al-Arabi, the main directions of his Sufi teaching, the natural structure of people, the history of the natural structure, theological and religious views in the field of philosophy and mysticism.

Kalit so'zlar: islom falsafasi, tasavvuf falsafasi, Ulug' Shayx, asketizm, faylasuf, donishmand, tariqatlar, fiqhiy mazhablar, haqiqat, Panteizm, ezgulik, mistika.

Ключевые слова: Исламская философия, философия суфизма, Великий Шейх, аскетизм, философ, мудрец, секты, религиозные секты, истина, пантеизм, добро, мистика.

Keywords: Islamic philosophy, philosophy of Sufism, Great Sheikh, asceticism, philosopher, sage, sects, religious sects, truth, pantheism, goodness, mysticism.

Ibn al-Arabiyning tasavvufiy ta'limoti falsafiy-antropologik xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning tasavvufiy ta'limotining bosh yo'nalishi, hozirgi fan tili bilan izohlaganda insonni antropologiya (insonlarning tabiiy tuzilishi, tabiiy tuzilish tarixi) faniga yaqin deb atash mumkin. Ammo Ibn al-Arabi talqinida bu tabiiy jarayon ilohiyat ruhida talqin etiladi va boshdan oyoq ilohiy ruh sifatida bayon etiladi.

Ibn al-Arabiyning tasavvufiy ta'limotidagi asosiy g'oya Oloh, Odam, Olam birligi tasavvuf ilmining tamal toshi ekanligi bayon etildi. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot: ibn al-Arabi uni yagona haqiqat, yagonalik, Ilohiy Ruh, Mutlaq borliq va boshqa nomlar bilan tahlil etib tushuntirib bergan. Shu bilan birga, ana shu Absolyut (mutlaq) haqiqatning mohiyatini anglash va bilish to'g'risidagi falsafiy qarashlarni yaratgan. Buyuk muallimning ta'limoti ilohiy mistik asoslari qurilgan. Gnossologik ta'limoti ham shu ruhda ilohiylik nazariyasi zaminida bayon etilgan. Yuqorida aytilganidek, tasavvuf xuddi hissiy sezish kabi mavjud reallik. Shu tufayli ruhiy borliq, mohiyat haqiqatdan ko'rinish tusini oladi, aksincha, sezish moddiy narsalar

ilohiylashadi. Aynan shu yerda yaratilgan koinotning, haqiqatning mohiyati aniq bo'ladi. G'ayritabiiy qudratli aqlga va qudratli hissiyot asosida ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan odam uchun tasavvur bir vaqtning o'zida obyekt hamda vositadir, deb hisoblaydi ibn al-Arabi, zero, faqat shu yerda "ijodiy" mistik (ilohiyotchi) ning oddiy odamlardan yashiringan sirlari namoyon bo'ladi. Tasavvur orqali Buyuk Shayx o'zining metafizik qarashlarining tasdig'ini hamda Payg'ambar va uning izdoshlariga olib chiquvchi naqlarni asliga to'g'ri ekanligini ko'radi. Donishmandning fikricha, inson ana shu qobiliyati tufayli dunyo lazzatlaridan, moddiy boyliklardan, nafs balosidan xalos bo'lishi, dunyodagi barcha ko'plik va rang-barang xilma-xillikdan voz kechishi mumkin bo'lsa-da, ular ortida ko'rinmay qolayotgan har narsadan xabardor yagona (birlik)ni Olohni anglab olishi mumkin. Shuning uchun ulug' muallimning butun hayotiy yo'lida hissiyot va tasavvur qilinadigan hodisalar, ilohiy ko'rinishlar hamroh bo'lib borgan¹.

Ibn al-Arabiyning ikki yirik asari bo'lgan "Al-futuhot ul-Makkiya" va "Fusus al-hikam" mazmuniga qaraganda Ibn Arabiyning ta'limoti vahdati vujud tushunchasi atrofida

aylanadi. Ammo, uning tafakkur tarzi so'z (logos) nazariyasiga muvofiq keladi. Ibn Arabiy fikricha, har bir payg'ambar bir haqiqatga muvofiq keladiki, uni "so'z" deb ataydilar. Har bir so'z esa, yagona tajalliyotida Odam Atodan boshlab, Xotam ul-anbiyogacha namoyon bo'lmaganda edi, u vaqtda "Haq" vujudining tabiati doimiy ravishdayashirin qolar edi. Har bir haqiqat ushbu vujudan kelib chiqqanligidan, mazkur vujud zotiga ko'ra, bo'linmas qadim va o'zgarmasdir. Ibn Arabiy bu vujudning ikki jihati o'rtasida tafovut borligini qayd etadi: birinchi jihat yagonalik bo'lib, yashirin, bilib olinmagan va vasf qilib bo'lmaydigandir; ikkinchi jihat "rububiyat" (namoyon bo'lish) orqali xudo jahon bilan bo'lgan o'z nisbatini, yaratuvchilik, xoliq va "ma'budligini" oshkor etadi. Birinchi jihatda hech qanday son-sanoq yoki namoyon bo'lish, hech qanday tayinlik yo'q va shuning uchun xudoni bu jihatdan sof nur yoki ezgulik yoki bo'lmasa, qisqacha "Al'yomo", ya'ni hamma narsani biluvchi, deyish mumkin. Ikkinchi jihatda, madomiki, xudo ham xoliq va ham ko'p maxluqotlar yaratuvchisi bo'lganligidan, ko'plik va uning qarama-qarshisidir². Xudo faqat sifatlar yoki xilma-xil aniq narsalar tufayli o'ziga ko'plikni qabul qiladi. Agar u zotning o'ziga boqsak, u "haq"dir. Agar unga sifati jihatidan qarasa, ya'ni imkoni bor ko'plikdagi tajalliy topgan sifatiga boqsak, u "xalqdir" (yaratilgandir). Ammo buning har ikkisi, vahdat (yagonalik) va kasrat (ko'plik), avval va oxir, qadim (azaliy), mahdas (yaratilgan), vojib (zaruriy) va mumkin, zotiga ko'ra, bir haqiqatdan o'zga narsa emas.

Shubhasiz, Ibn al-Arabi tasavvuf va irfon, kalom va falsafadan tarkib topgan murakkab bir ta'limot yaratgan buyuk mutafakkir. Ammo uning qarashlarini anglash va tushunishda ikki holatning farqiga borish kerak:

1. Ibn al-Arabiyning o'zi nazarda tutgan ma'no va mazmunlar (ya'ni, Ibn al-Arabiyning o'zi nima demoqchi edi?);

2. Ibn al-Arabi fikrlarini izohlash va sharhlash, xullas, tushuntirib berishga harakat qilgan shorihlar va tadqiqotchilarning talqini (ya'ni Ibn al-Arabi qarashlarini o'z bilim doiralari, qobiliyat va imkoniyatlari darajasida tushuntirish yoki uning fikrlaridan o'zlari istagan narsalarni topishga intilish)³.

Islom dunyosida "Buyuk Shayx" unvoni bilan olamga mashhur bo'lgan tasavvuf

ilmining asoschilaridan Ibn al-Arabi tasavvuf falsafasidagi panteistik (Oloh, Olam va Odamni bir deb tushintiruvchilar) yo'nalishining asoschisi va tarafdori bo'lgan. Ibn al-Arabiyning diniy-falsafiy ta'limotining bu jihatini ilmiy tadqiq etish falsafa va tasavvuf tarixi fanining eng muhim va dolzarb qismini tashkil etadi. Panteizm garchi eng qadimgi davrlarda antik Yunoniston, Xitoy va Hindistonda falsafiy yo'nalish sifatida vujudga kelib alohida ta'limot sifatida qaror topgan bo'lsa-da, Ibn al-Arabiyning qarashlarida u boshqacha, ya'ni diniy islomiy ilm bo'lib shakllandi. Mavzuning ana shu tomoni ham mazkur ishning dolzarb masalalarga bag'ishlanganligini ko'rsatadi. Islom dini bag'rida vujudga kelgan tasavvufda panteistik g'oya va ta'limotning ilgari surilishi Ibn al-Arabiyning buyuk xizmati edi. Shuning uchun ham bu ta'limotni Sharq-u G'arb musulmon ahli zavq-shavq bilan kutib olganligini, O'rta asrlardayoq u Markaziy Osiyo xalqlarining, shuningdek, o'zbek ma'naviy madaniyatiga kirib kelganligini tadqiq etish va atroflicha tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega. Zero, buyuk mutafakkir Ibn al-Arabi o'z vaqtida o'zining ma'naviy merosi haqida shunday deb bejiz yozmagan: "Har bir asr buyuk bir shaxsning nomi ila eslanur, bundan keyingi barcha asrlar mening nomim ila xotirlanajak"⁴.

Darhaqiqat, buyuk Ibn al-Arabi tirikligidayoq o'zining yaratgan hayotbaxsh ta'limoti orqali islom madaniyatini kelajak avlodlarga yetkazganligi bilan o'ziga haykal qo'yganligini bashorat qilgan ekan. Tasavvuf nuqtayi nazaridan Ibn al-Arabi baland ruhdagi ajoyib asarlari tufayli baland cho'qqiga ko'tarildi, deb yozadi Eronlik mutafakkir⁵.

Ibn Arabiyning "al-Futuxat al-Makkiyya" va "Fusus al-Hikam" asarlari eng ahamiyatli deb tan olingan, ularning tahlili natijasida tasavvuf falsafasi haqida to'g'ri tasavvurga kelish mumkin. Boshqa manbalar (masalan, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Ma'naviy Masnaviy"si) allegorik, she'riy tarzda bayon etilib, ularni falsafiy talqinini amalga oshirish murakkabdir.

Ibn Arabiy fikricha, tasavvufni qiziqtirgan asosiy masala – mutlaq haqiqatni bilish mumkinmi? – ham ijobiy, ham salbiy hal etiladi. Salbiy "yo'q" javob Oloh – Haqni aql bilan bilib bo'lmasligini anglatadi. "Olam o'z-o'zidan mavjud emas, u Olohning

¹ Ибн ал-Араби. Мекканские откровения. Перевод А.Д. Кныша. Санкт-Петербург, 1995. С.29.

² Ибн Арабий. Фусус ал-хикам. –Б.76; Affifi, The Mystical Philosophy of Ibnul-Arabi. Cambridge, 1938–P.38, 63

³ Холмұминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. –Б.44.

⁴ Иброҳим Ҳаққул. "Шайх Акбар". Тошкент.: "Тафаккур" журнали. №1, 2000. –Б. 29.

⁵ Саййид Муҳаммад Ҳотамий. Ислам тафаккури тарихидан. – Тошкент.: "Минҳож", 2003. –Б. 23.

mavjudligidir, shuning uchun olam Uni hech qachon tushunib yetmaydi. Bu ma'noda Ollah ichki his uchunmi, kuzatish uchunmi noma'lum bo'lib qoladi, chunki bebaqo boqiyini qamram ola olmaydi⁶. Demak, tasavvuf shaxsning narsa va hodisalarni fahmlashi (tushunishi) natijasida olamni mistikaviy tarzda idrok etish, mistik kechinmalarning individual ekanligini ko'zda tutadi. Haqiqatga yetishish yo'ldan yetaklovchi ruhoni murabbiylar obro'sini tan olish bilan birga, tasavvuf turli "maktablar" mavjudligiga yo'l qo'ydi, ular esa vaqti-vaqti bilan tashkiliy jihatdan shakllanib, tasavvufiy jamoalarga (yo'nalish, tariqat) aylanib bordi. Bu jamoalar a'zolari uchun mistikaviy tajribani tushunish emas, balki uni amalga oshirish usullari muhim ahamiyat kasb etgan. Yuqori darajada falsafiy tus olgan yo'nalishlardan "teosofiya mistitsizmi" (ilohiyot mistitsizmi) hisoblanadi. Uning "apostoli" (xavriysi) deb buyuk shayx Ibn Arabiy tan olingan. Shuningdek, tasavvuf bevosita kuzatishni, mistikaviy "yorishishni", idrokni birinchi o'ringa qo'yib, ratsional bilish imkoniyatlarini kamsitdi, lekin uni to'raligicha istisno qilmadi. Shunga qaramasdan, al-G'azoliydan keyingi davrda teosofiya yo'nalishi, ya'ni mistikaviy Allohga yetishishning ratsional falsafa bilan bo'lgan sintezi kuchga kiradi⁷.

Umuman olganda, tasavvuf ratsional bilishni inkor etmagan, lekin shu bilan birga uning imkoniyatlari cheklanganligini e'tirof etdi. "Alloh darvozasigacha yetaklab borgunga qadar aql ajoyib va qimmatlidir. Bu darvozaga yetdim deganingda, undan voz kech... o'zingni Allohga topshir: endi "qanday qilib" va "nima uchun" degan savollarga javob izlash befoyda". Ratsional bilimning haqiqatga yetishtirilmasligining sababi uning nomukammalligida emas, balki uning yetarli emasligidadir. Bunda ichki his (intuitsiya) zarurdir. So'fiylarning mistikaviy bilishi subyekt va subyekt bo'linishni ontologik jihatdan ham, gnoseologik jihatdan ham istisno etadi. Bilishning boshqa turlari (ratsional, intuitiv bilishlar) mistikaviy bilishning tarkibiga kirib ketadi. Masalan, Ibn Arabiyning fikriga ko'ra, haqiqiy bilish jarayonida aql va sezgilar o'z o'rniga ega, ya'ni cheklangan va shu cheklangan doirasida haqiqiydir. Ratsional bilish boshlang'ich asosdan (ilohiylikdan, xudodan) narsalar dunyosining kelib chiqishini va shuningdek, narsalardan boshlang'ich asosga

chiqib borishni mantiqiy ziddiyatlar, xatolarga yo'l qo'ymasdan turib ta'minlay olmaydi. Intuitiv bilishda fano vositasida olingan ilohiy "shahodatlar" obyektning (har qanday narsa yoki dunyoning) "yashirin ma'nolari"ni topish imkonini berganda ham, ratsional bilish singari unda subyekt irodasi mavjud, chunki e'tiborni subyekt qaratish uchun ong va irodani ishga solish lozim. Ratsional va intuitiv bilish empirik narsa va hodisalarning haqiqiy mohiyatini izlash, bilishga qaratilgan. Haqiqat esa empirik dunyodan yuqorida turadi, shuning uchun hatto intuitiv bilish ham (unda subyekt va obyektning ontologik jihatdan farqlanishi tufayli) biluvchiga narsaning o'zligiga yo'l ochib berolmaydi.

Ibn Arabiy tomonidan ishlab chiqilgan mistikaviy bilish "haqiqatga yetishish" (tahqiq) yo'li sifatida tasavvufning bosh vazifasi – borliqning ilk asosini (Xudoni) borliq kontinuumi (moddiy dunyo) bilan to'g'ri kelishini ifoda qiluvchi yagona bilim binosini qurish masalasini hal etilishiga mo'ljallangan⁸.

Demak, tasavvufiy bilish (ma'rifat) usulining asosiy tavsifi "gangib qolish", "sarosimaga tushish" tushunchalari orqali beriladi, chunki umumiy ayanlik - Yagona Xudoni narsalar ko'pligida ko'rish va, aksincha, moddiy dunyoning har bir narsasida Yagona Xudoni (Ilk asosni) mistikaviy tarzda ko'rishni ko'zda tutadi.

Tasavvuf mutlaq haqiqatni bilish mumkinmi? - degan savolga ham ijobiy, ham salbiy javob beradi. Salbiy "yo'q" javob Alloh – Haqni aql bilan bilib bo'lmasligini anglatadi. "Olam o'zidan-o'zi mavjud emas, u Allohning mavjudligidir, shuning uchun olam Uni hech qachon tushunib yetmaydi. Bu ma'noda Alloh ichki his uchun ham, kuzatish uchun ham noma'lum bo'lib qoladi, chunki ular bebaqo boqiyini qamrab ololmaydi". Tasavvuf gnoseologiyasining o'ziga xosligi shunda namoyon bo'ladiki, inson o'zini-o'zi bilish vositasi orqali haqiqatga yetishishi mumkin. Bunda u o'zining shaxsiy (fenomenal) "men"ini yo'q qilishi, uni hotirasidan chiqarib tashlashi orqali o'zining haqiqiy mohiyatini ochishi, oshkor qilishi zarur. Shunday qilib, tasavvufda Haqni (Allohni) bilib bo'lmasa ham, inson unga yaqinlashishi mumkin, uni qalb bilan sezishi mumkin. Alloh dunyodagi barcha narsalarda mujassam bo'ladi. Olamdagi narsa va hodisalarni kuzatish orqali inson Allohning

buyukligi va nafisligini biladi, fahmlaydi. Lekin shu bilan bir vaqtda bu narsa va hodisalar Allohning haqiqiy siymosi, mohiyatini to'sib qo'yadi.

Haqiqat (to'liq bilim, ma'rifat) Alloh tomonidan bizga berilgan tuhfadir, shuning uchun unga ratsional yoxud intuitiv-kuzatish (bevosita) bilish yo'li bilan yetishib bo'lmaydi. Zohid intuitiv-kuzatish yo'li bilan haqiqatdan farqlash juda qiyin. Shuning uchun so'fiylar o'rtasida zohidning tajribasi (zikir, axloqiy-sha'riy qoidalarga rioya qilishi, ibodatda jonbozlik ko'rsatishi, taqvodorligi va h.k.) uning haqiqatga yetishishiga (ma'rifat) ta'sir qiladimi yoki oliy haqiqat faqat Alloh tomonidan in'om qilinadimi degan masala muhokama qilingan.

Allohning bir vaqtning o'zida bu dunyoga ham transtsendentligi, ham immanentligi fikrining hamda haqiqatga erishish kafolatini beruvchi insonning alohida ham u dunyoga, ham bu dunyoga tegishliligi bilim va borliqning bir-biriga tengligini taqozo etishi haqidagi fikrining mustahkamlanishi tasavvufning keyingi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu degani Allohga, ma'rifatga yetishish borliqning ontologik tuzilishining o'zi bilan kafolatlangan: Alloh o'zini-o'zi bilishni istaydi va inson Xudoning o'zini-o'zi bilishining vositasi sifatida tanlangan. Demak, doktrinal, "falsafiy" tasavvufda so'fiylik amaliyotining murakkab tizimi: zikir, ibodatlar, alohida hollar majmuasi, fano holatlari va hokazolar Allohga yetishishning yagona yo'li degan fikrdan voz kechiladi.

Shu asnodan tasavvuf bilishga (gnoseologiyaga) o'z hissasini qo'shdi, u ratsionalizmni to'ldiradi va to'g'rilaydi, e'tiborni inson shaxsiga qaratadi, shaxs haqidagi tasavvurni ishlab chiqadi. Inson Alloh tomonidan o'zini-o'zi bilish vositasi, joyi. Tasavvuf ta'limotidagi bu fikr islomning - inson – yaralgan dunyodagi oliy mavjudot, Xudoning yerdagi xalifasi, degan fundamental holati bilan bevosita bog'liq, uning davomidir.

Imon to'g'risidagi tasavvufning xulosasi shundan iboratki, imon moddiy dunyoni bilish jarayoniga kirib ketadi. Haqiqiy bilim (ya'ni mistikaviy, intuitiv va ratsional bilish usullaridan foydalanish yordamida orttiriladigan bilim) orttirish uchun esa dunyoni bilishga intilish lozim. Tasavvufga ko'ra, bilim narsaning o'zidir⁹.

Bilish, ma'lum bir vaqtda davom etadigan gnoseologik akt emas, bilim esa – borliqning o'zidir. Tasavvufning asosiy xizmati shundan iboratki, u "imon" tushunchasini shakllantiradi va uni "bilimdan" farqlaydi. Undan tashqari Allohni bilish muammosining tushunilishiga doir dalillar ishlab chiqdi. Moddiy dunyo narsa va hodisalari haqida ratsional bilim bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatib beradi, ularga nisbatan faqat "imon" tushunchasi ishlatilishi mumkin, ular haqidagi "bilim" esa irratsional va shaxsiy bo'lishi mumkin, lekin u ilmiy va asoslangan bo'lmaydi¹⁰.

Tasavvufni chuqur o'rganish islomiy mistitsizmning falsafa va ilmiy bilish rivojlanishidagi rolini aniqlashga imkon beradi. Falsafaning shakllanishiga tasavvufning ta'siri shubha tug'dirmaydi. Uning aql, ratsionalizmdan shubhalanishi (skeptitsizmi) "falsafiy fikrni uyg'otgan, nazariy, falsafiy skeptitsizm haqida, bilish bosqichi, ilmiy bilimning rivojlanishi sifatidagi skeptitsizm haqida fikr yuritishga undagan"¹¹. "Tasavvuf irratsionalizmni ratsional tafakkurga qarshi qo'ydi va shu bilan birga ba'zan falsafiy fikr yuritishga yaqinlashib boruvchi diniy hurfikirlik ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi". Demak, tasavvuf bevosita kuzatishni, mistik "yorishishni", idrokni birinchi o'ringa qo'yib, ratsional bilish imkoniyatlarini kamsitdi, lekin uni to'raligicha istisno qilmadi. Shunga qaramasdan, al-G'azzoliydan keyingi davrda teosofiya yo'nalishi, ya'ni mistikaviy Ollohga yetishishning ratsional falsafa bilan bo'lgan sintezi kuchga kiradi¹².

Ibn Arabiy Qur'oni Karimni ma'no va mazmunini g'oyat teran izohlaydi, u oddiy qiroat qilish oyatlarini quruq yodlash tarbiyalashgina emas, deydi mutaffakir. "Qur'on sohilsiz bir dengizdir, Qur'on dengizi chuqurdir". Binobarin, bu katta dengiz suzish behad katta tayyorgarlikni faqat zohiriy emas, botiniy ilmlarni ham puxta egallashni talab qiladi. Shayx Akbar bir o'rinda Ollah to'g'risida mulohaza yuritib, yaratgan olam xilma-xil ekanligini ta'kidlab shunday deb yozgan: "Yo Ollah" arablar, eronliklar "Ey xudoy" desalar, Rumlar unga "Ey Siyo" deb murojat qiladi. Armanilar "Ey Asfoj" derlar. Turkular unga "Ey Tangri", Franklar "Ey Kritur" deya murojat qilur. Xabashlar esa "Ey Vooch" demishlar. Zero, bu lafzlarning barchasi yagona bir

6 Ibn Arabi. Fusus al-hikam. Cit. po: Stepanyan M.T. Filosofskie aspekty sufizma. - Moskva.: -S. 123.

7 Stepanyan M.T. Filosofskie aspekty sufizma. - Moskva.: Nauka, 1987, -S. 11-12.

8 Nasyrov I. P. Ontologicheskie i gnoseologicheskie osnovaniya islamskogo mistitsizma (genезis i эволюция).- Автореф. дисс. ...д.ф.н.- М.,2007.- 37-ст.

9 Nasyrov I. P. Ontologicheskie i gnoseologicheskie osnovaniya islamskogo mistitsizma (genезis i эволюция).- Автореф. дисс. ...д.ф.н.- М.,2007.- Б. 7.

10 Фролова Е.А. История средневековой арабо-мусульманской философии.- М., 1995. -Б. 161.

11 Смирнов А.В. Ибн Араби // Большая Российская энциклопедия.- Москва.: 2003.

12 Stepanyan M.T. Filosofskie aspekty sufizma.- Moskva.: Nauka, 1987, -Б. 11-12.

ma'no uchun xilma-xillik kasb etishdir"¹³. Ulug' Shayx falsafasiga ko'ra, insoning ko'ngli ana shu ulug' yagona ma'no atrofida birlashishi, birlik hamfikrlikka zid hech bir kayfiyat yoki aqidaga yon berilmasligi kerak. O'zining "Futuxot" nomli asarida "Ollohdan bilgi va amr" olgani unga odamlarga nasihat va tablig' vazifasi yuklatilgani, shuningdek, oyat qilgani xususida so'zlagan. Ul zot dinning me'roji to'g'risida ham atrofiga ma'lumot bergan. Ayni shular payg'ambarlik da'vosini ilgari surishda ayblanishiga asos bo'lgan. Aslida Shayx Akbar Nubbuvvat va risolatdan so'zlar ekan Hazrati Muhammaddan keyin payg'ambar paydo bo'lmasligini qayta va qayta ta'kidlagan. "... Ollohning rasulidan so'ng "nubbuvvat mutloq o'laroq man etilmishdir. Risola ham xuddi shunday...". Yoki: ... Hazrati Muhammaddan so'ngra shariat payg'ambarligini da'vo aylagan kimsa mutloq yolg'on demish va kofir bo'lmishdir". Bas shunday ekan ulug' Shayx Arabiy asossiz tanqid va taqirlashga qarshi "Men aslo payg'ambar emasman"... deyishiga majburiyat sezishining boisi nima edi? Gap shundaki tadqiqotchi olim Ibrohim Haqqulning ta'kidlashicha, Ibn Arabiy o'z asrlarida Payg'ambarlikka da'vo qilmagan, balki payg'ambarlikni nozil bo'lishi haqida yozgan. Bu haqida professor N.Kaklikning yozishicha, Ibn Arabiy tushunchasida shariat (ya'ni Islom dini) payg'ambarligi payg'ambarlik maqomi boshqa. Payg'ambarlik eshigi berkitilgan, ammo payg'ambarlik maqomi ochiq. Bu maqom hech bo'lmaganda bir "voris" o'laroq payg'ambarga ergashuvchilar qiyofasida davom topadi. Ibn Arabiyning asl maqsadi g'oya "Hazrati Payg'ambarga voris ekanini aytish, Ollohning Rasuli belgilagan yo'ldan boruvchilarga rahbarlik qilish orzusini amalga oshirish edi". Aynan shu ma'noda Shayx Arabiyning quyidagi so'zlari g'oyatda muhimdir. "Balki Olloh Hazrati Odamdand Hazrati Muhammadgacha yashab o'tgan rasul va nabiyning ayni sobita olamidagi suratlarini menga ko'rsatdi. Bu hodisa 1190-yilda Kurtuboda yashagan paytlarimda sodir bo'ladi. Bu rasul va nabiy orasida Xud alayhissalom men bilan suhbatlashdi. U menga yig'ilishlarining sabablarini anglatdi. Men uni payg'ambarlar orasida yirik jussali, go'zal chehrali, shirin tilli eng nozik masalalarni biluvchi va kashf eta oluvchi bir zot o'laroq ko'rdim". O'z davrlarda ham bu gaplarni inkor

aylagan va yolg'onga chiqarishga uringanlar ko'p bo'gan. Ammo haqiqat yolg'on va bo'htonga hisob bermasligi, jaholat ma'rifat sirlarini idrok etishga sira qodir emasligini bilgani bois, Ibn al-Arabiy ilohiy ish va xayoliy sukunat og'ushida yashash, mushohada yuritish, ijod qilishga behad ishtiyoqmand edi. U haqiqat birdir, yolg'on esa ming haqiqatning bir yo'li bor, yolg'oniki ko'p juda ko'p, haqiqatni topish juda qiyin, yolg'on esa har qadamda uchraydi, deya mushohada yuritar, hatto eng qattol va murosasiz g'anamlariga ham shafqat nazari bilan qaror edi. Shayx Akbarning asarlari ham ko'tarinki ruhda va falsafiy mulohazalar zaminida tuzilgan. Uning tafakkuri hatto muhabbat – insonga, ijodga, yaratishga muhabbat demakdir.

Ibn al-Arabiy birinchi bo'lib borliqliqni yagona, bundan bir (vaxdat ul-vujud) olam to'g'risidagi ta'limotni yaratadi. Uning 500 ta asaridan 150 tasi arab tilida zamonamizgacha yetib kelganligi haqida ma'lumotlar bor. Asosiy asari ko'p jildli "Futuhot al-Makkiya" ("Makkaning fath etilishi") bo'lib, 560 bobdan iborat, uning ikkinchi bir mashhur asari "Fusus al hinam" bo'lib, unga 150 dan ortiq sharhlar yozilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, mutaffakkirning asarlari orasida shuningdek, Qur'oni Karimning allegorik tafsiri (ma'joziy tafsiri va tasavvuf iboralari lug'ati), "Al-istiholot as-sofiba" ham bor¹⁴. Quyida ana shu manbalarga tayanib, Ulug' Shayxning tasavvuf ta'limotidagi panteistik yo'nalishlarini o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalamiz. Olamda barcha narsa, insonning ruhi (joni) ham ilohiy ilk manba tajallisi (emanatsiyasi)dir. Shuning uchun, ilohiy qudrat butun olam uzra yoyilgan, lekin Olloh shaxsiy belgilardan, sifatlardan mahrum emas. U o'z shaxsiy ongiga ega va inson ruhi bilan muloqotda bo'ladi.

Ibn al-Arabiyning payg'ambar va payg'ambarlar to'g'risidagi qarashlari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Odamlar, deb yozadi u, – payg'ambarlar uchun bashorat qilish muhimmi? yoki tabarruklik, shahidlik muhimmi? degan masala ustida ajrashdilar. Men payg'ambarlarning muqaddasligi muhimroq, chunki ularning vafotidan keyin ham muqaddasligi saqlanib qoladi. Uning boshqa sifatlariga qaraganda ustunroq. Payg'ambarning tabarruk sifati Alloh bilan uning quli o'rtasidagi alohida munosabatini bildiradi. Uni o'z quliga munosabatini ifodalaydi,

13 Иброҳим Ҳаққул. Шайх Акбар. Тафаккур. 2000 №1 –Б. 97.

14 И.П.Петрушевский. Ислам в Иране в VII-XV веках. Л. ЛГУ, 1966. Стр.335

payg'ambarlik esa o'sha odam bo'yniga, zimmasiga yuklatilgan majburiyatdir¹⁵. Mabodo uyoki bu payg'ambarga bashorat qilish vazifasi yuklatilmagan taqdirda ham, ammo uning taqvodorligi, Olloh tomonidan tanlab olingan baxti kulganlik sifatlari saqlanib qoladi. Ammo payg'ambar ayni bir buyuk ruhoniy taqvodordir, ularning eng ulug'i Muhammad (s.a.v.)dir. Shayx Abul Hasan ash-Shozilyidan: "Taqvodor ruhoniy zimmasidan Shariat yuklari olib tashlansa, u tabarruklik darajasiga erisha oladimi?", – deb so'raganlarida, u Payg'ambar hadislarida: "Ey, Bilol, bizga ibodat (namoz) qilish huzur-halovat bag'ishlagan" deb javob bergan ekanlar.

Ibn al-Arabiy nazarida Alloh ta'olo shariati muhammadiya ulamolariga yuksak darajalar ato etgan: "Shariati muhammadiyaning himoyachilari va qo'riqlovchilari bo'lgan ummat ulamolari mahsharda ummatlar safida emas, nabiyalar safida bo'lgaylar"¹⁶. Ibn al-Arabiy o'z fikrini Rasululloh (s.a.v.)dan naql qilingan quyidagi xabarga asoslaydi: "Albatta, bu ummatning ulamolari Bani Isroil nabiyalari kabidir". Ibn al-Arabiy bu xabarni quyidagicha izohlaydi: "Bani Isroil nabiyalari o'z rasullarining shariatini himoya qilganlaridek, islom ummatining Savriy, Ibn Uayyna, Ibn Sirin, Hasan, Molik, Ibn Abu Riboh, Abu Hanifa, Shofe'iy, Ibn Hanbal kabi ulamolari Rasululloh (s.a.v.) ahkomini ummatlar uchun saqlaydilar"¹⁷. Ibn al-Arabiy har bir fihiy va kalomiy masalani irfon falsafasi mezonlari asosida o'lchaydi, qaysi masalada bo'lmasin, inson tafakkuri va ichki hissiy qobiliyatlarining yuksakligini namoyish etishga harakat qiladi. Bu holat ayniqsa, uning eng mashhur asarlari – "Fusus ul-hikam" va "Futuhot ul-Makkiya" misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Islom falsafiy-irfoniy tafakkuri tarixida biror kitob "Fusus ul-hikam" kabi mashhur bo'lgan emas. Bu kitob, islom falsafiy tafakkuri tarixida katta yangilik bo'lganligi uchun ham qizg'in bahsmunozara va sharh-u talqinlarga sabab bo'ldi.

Taniqli islomshunos olim A.Sh. Juzjoniyning: Islom Buyuk Ensiklopediyasi

Ibn al-Arabiy tarixida "falsafiy irfon tizimi" yoki "irfoniy falsafa" yoki "ilohiy irfoniy hikmat"ning eng buyuk asoschisi sifatida baho beradi va uni barcha davrlarda irfon sohasida eng buyuk mutafakkir deb hisoblaydi. Islom dunyosida bu kunga qadar bir nav uning tafakkuri ta'siri ostida bo'lmagan hech mutafakkir, orifmijoz faylasuf topilmaydi¹⁸, - deyishida asos bor, albatta.

Zero, islom falsafiy tafakkurining keyingi davrlarini Ibn al-Arabiy ta'limotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bu holatni XV asrning diniy, irfoniy va falsafiy doiralarda yaqqolroq sezish mumkin. Ayniqsa, Jomiyning biron-bir tasavvufiy-irfoniy asari yo'qki, unda Shayx ul-akbar dunyoqarashining jilosi sezilmasa. Aslida, Jomiyning irfoniy tafakkurini harakatga keltiruvchi kuch ham Ibn al-Arabiy ta'limotidir. Uning 10 ta falsafiy-irfoniy sharhnomasidan 2 tasi bevosita Shayx ul-akbar asarlariga bitilgan sharhlar bo'lsa, qolgan 8 tasi uning ta'limoti asosida bitilgan sharhlar hisoblanadi. Muhsin Jahongiriy Jomiyning vahdat ul-vujud falsafasi rivojiga qo'shgan hissasini ta'kidlab, unga butun musulmon Sharq olamida Sadridin Quniyaviydan so'ng Ibn al-Arabiy ta'limotini targ'ib etishda eng ko'p muvaffaqiyat qozongan targ'ibotchi va sharhlovchi, deb baho beradi¹⁹.

Xulosa qilganda, Ibn al-Arabiyning dunyo qarashi panteistik ruhda edi, ya'ni Olloh, tabiat, borliq, modda-materiya odamning yagona birligi to'g'risidagi ta'limotni islom tafakkurida birinchilardan bo'lib ilgari surdi.

Zero, borliq mohiyati to'g'risidagi so'fiyona tasavvurni tahlil qilish uning qalamiga mansub bu murakkab falsafiy muammoni yechish, o'zining "vahdat ul-vujud" konsepsiyasini yaratish orqali topdi. Undan eng ta'sirli va obyektiv g'oya – borliqning birligi, yagonaligi – Vahdat ul-vujud g'oyasidir. Islom tafakkuri tarixi va butun dunyo ilmiy hamda diniy dunyoqarash tizimi e'tirof etganidek, bu g'oya tasavvuf ta'limoti, taraqqiyotidagi eng oliy bosqichdir.

15 Юсуф Хаттор Мухаммад. Энциклопедия суфизма. Москва: Ансар, 2005. –С. 321.

16 Ибн ал-Арабий. Футухот ул-Маккия. 3-жилд. -Миср. 1392, -С.400

17 Ибн ал-Арабий. Футухот ул-Маккия. 3-жилд. -Миср. 1392, -С.151.

18 Жузжоний А. Ш. Тасаввуф ва инсон. Тошкент.: Адолат, 2001. –Б. 21.

19 Жузжоний А. Ш. Тасаввуф ва инсон. Тошкент.: Адолат, 2001. –Б. 21.

MA'NAVIY MEROS—MA'NAVIY TARAQQIYOT MAHSULI

Parvina Abdumalik qizi Xoligova - o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bizning boy milliy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk bobokalonlarimizning boy ma'naviy merosi, shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'layotganligi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Аннотация: В этой статье вы узнаете о нашем богатом национальном наследии, национальных ценностях, богатом духовном наследии наших прадедов, а также о значении духовного наследия как ценности, глубоко влияющей на образ жизни людей.

Abstract: In this article, you will learn about our rich national heritage, national values, rich spiritual heritage of our great grandparents, as well as the importance of spiritual heritage as a value that deeply affects the way of life of people. we can.

Калит so'zlar: ma'naviy meros, moddiy meros, axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, urf-odat, an'analar, xalq og'zaki ijodi.

Ключевые слова: духовное наследие, материальное наследие, нравственные ценности, мировоззрение, обычаи, традиции, фольклор.

Keywords: spiritual heritage, material heritage, moral values, worldview, customs, traditions, folklore.

Mustaqillik bizning milliy-madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda, milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo'lib xizmat qilmoqda¹.

Inson kamoloti va tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan milliy qadriyat shakllarining inson faoliyatiga singib borishi jamiyatning yuksalib borishiga sabab bo'ladi. Demak, ma'naviyat jamiyatning yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi.

Ma'naviy meros — ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydigan tushuncha. Ma'naviy

meros ajdodlar tajribasi, qoldirgan ma'naviy boyliklarining kelgusi avlodlarning amaliy faoliyati, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko'ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millat vakillariga tegishli bo'lishi mumkin².

Ular ma'lum milliy tilda yaratilgani, milliy madaniy-ma'naviy an'analar, qarashlarni aks ettirishiga ko'ra millatga, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi xususiyatiga ko'ra jamiyatga, ma'lum bir davlat hokimiyati amal qilib turgan davrda yaratilganiga ko'ra davlatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o'rniga ko'ra sivilizatsiyaga xos bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, ma'naviy meros bir vaqtning o'zida millat, davlat, mintaqa va butun imkoniyatga tegishli bo'lishi ham mumkin. Masalan, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga doir kashfiyotlari, nafaqat millatimiz va mintaqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizatsiyasi, madaniyatidan o'rin olgan bebaho ma'naviy meros hisoblanadi.

Ma'naviy meros moddiy merosdan farqli ravishda olamda va insonning ichki dunyosida ro'y bergan, berayotgan yoki berishi mumkin bo'lgan intellektual va psixologik holatlar, xatti-

harakatlar, amaliy faoliyat va uning natijalarini anglashga keng imkoniyatlar yaratishi bilan qadrlidir. Shu bilan birgalikda, ma'naviy merosni moddiy merosga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi³. Chunki bizgacha yetib kelgan moddiy meros insonning ongiga ta'siri nuqtayi nazaridan ayni vaqtda ma'naviy merosga aylanishi ham mumkin. Masalan, bizga qadar yetib kelgan uzoq o'tmishda yaratilgan tarixiy obidalar moddiy merosga mansub bo'lsa-da, ulardagi muhandislik, bezak ishlari, qurilish tarixi va unga oid ashyolarning tayyorlanishi, bunyodkorlari va boshqa jihatlariga ko'ra ma'naviy merosga aylanadi.

Xuddi shuningdek, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari moddiy merosga mansub bo'lsa-da, bu boradagi an'analarning ajdodlardan avlodlarga o'tishi ma'naviy meros tarzida amalga oshadi. Shu jihatdan olib qaraganda, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko'plab tabiiy ko'nikmalari ma'naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Yozuvning paydo bo'lishi ma'naviy merosni saqlash va boyitish yo'lidagi insoniyat erishgan eng katta yutuq hisoblanadi. Yozuv tufayli hozirgi ilm-fanda inson taraqqiyoti, jumladan, ma'naviy merosning besh ming yildan ortiq tarixi, Yer va koinot jismlarining bir necha million yillik davri haqidagi ma'lumotlar jamlangan⁴.

Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'nalishlarga boshqarish ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jamiyat tafakkuridagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar dunyoqarash, urf-odat, an'analar va munosabatlar kelajak avlodning ma'naviy merosini belgilaydi. Madaniy qadriyatlar va ma'naviy meros ming yillar mobaynida xalqimiz uchun qudratli ma'naviyat manbai sifatida xizmat qilib kelgan⁵.

Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos

an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelinayotgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifaga aylandi⁶. O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li ma'naviy meros nuqtayi nazaridan to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik: xalqimiz ma'naviy merosini qayta tiklash, mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rk-u fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bu qadar katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi⁷.

Xalqimizning haqiqiy ma'naviy merosi bo'lmish imyon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish, jamiyat kundalik hayotida doimo ustuvorlik kasb etishi to'g'risida so'z ketarekan, avvalambor, dindorlar, din peshvolari bilan yaqindan hamkorlikda, hamjihatlikda ish olib borish zaruriyati

3 Худойкулов Х.Ж. Бобокулова Д.М. Педагогика, дарслик. -Т.: Инновация-Зиё.2020й.

4 Khalikova P. The formation of spiritual and moral virtues in the education of a perfect human being in the works of oriental thinkers //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 355-358.

5 Mahmudova K., Kholikova P. New approaches to teaching english: give the pupils what they want! //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 15. – С. 354-359.

6 Xoligova P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli faoliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 1.

7 Холікова П. А. Қ. Миллий-маънавий меросни эъозлаш ва унинг мазмун моҳиятини ёшлар онгига сингдириш //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 842-847.

1 Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. "Ғ.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодийи". Т: 2010.

2 Миллий истиқлол гоёси: кўргазмили воситалар. Т: «Маъна вийат», 2001. Темирова Н.Э. Қадриятлар ва ёшлар камолоти. –Т: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2008.

hisobga olinishi kerak bo'ladi. Insonning ruhiy poklanishi, axloqiy tarbiyasi, el-yurti tinchligini o'ylashi, osoyishta faoliyat yuritishi va millatlar totuvligini saqlashi bilan bog'liq qadriyatlarini ifodalovchi ma'naviy merosni o'zlashtirishda din bilimdonlarining o'rni yaqqol ko'rinib turadi. Bundan tashqari, diyorumiz xalqi qadim zamonlardan o'zlariga ma'lum bo'lgan insoniyat bilan hamfikir bo'lib keldilar, yaqindan aloqa bog'lab yashadilar. Bunga ko'pdan-ko'p misollar bor. Osiyoning qaridan Yaqin Sharqqa, Yevropa va Afrikaga olib boradigan Buyuk Ipak yo'li, butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva singari davlatlar va shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirgan ma'naviy merosni yetkazib berdi⁸.

Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlarini, bizning eng yaxshi an'analari, ma'naviy merosimizning qayta tiklanishi islohotlarning muvaffaqiyatga erishishi, mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillari ekanini alohida ta'kidlash mumkin. Ma'lumki, asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlantirdi. O'z navbatida, bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi⁹.

Bugun yaratilayotgan ma'naviy merosimiz ana shu falsafaga uyg'un holda Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim.

O'zbekiston xalqi minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan ma'naviy meros bilan faxrlanadi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termizning noyob tarixiy yodgorliklari, Buyuk Sharq mutafakkirlari al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlari butun bashariyatning bebaho mulki bo'lib qoldi. Xalqning tarixiy ruhi uyg'onmoqda, ma'naviyatning ko'zi ochilmoqda, shu tufayli odamlar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topmoqda.

Xalqimizning Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oni, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oni, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Ali Xorazmiy, Ismoil Jurjoni, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug'anniy, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir singari o'nlab va yuzlab buyuk farzandlari ma'naviy merosining – abadiyatining xalqqa qaytarilishi mustaqil O'zbekistonning eng yorqin yutuqlari qatoridan joy oldi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlari, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Urf-odatlar, an'analari, xalq og'zaki ijodi, fan, adabiyot, san'at va boshqa ham ma'naviy meros tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

VATANPARVARLIK FENOMENI IJTIMOIY-FALSAFIY HODISA SIFATIDA

Ravshanxon Sirojxonovich Nasrullayev - tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi globallashtirilgan jamiyatda vatanparvarlik fenomenining konstruktiv funksiyasining dolzarbligi, uning ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье подчеркивается актуальность конструктивной функции феномена патриотизма в современном глобализированном обществе, его значение как социально-философского феномена.

Abstract: This article emphasizes the relevance of the constructive function of the phenomenon of patriotism in modern globalized society, its significance as a socio-philosophical phenomenon

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, fenomen, globallashtirish, konstruktivlik, dunyoqarash, g'oya, tuyg'u.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, явление, глобализация, конструктивизм, мировоззрение, идея, чувство.

Keywords: Motherland, patriotism, phenomenon, globalization, constructivism, worldview, idea, feeling.

Jahonda mamlakat mudofaasining asosiy ko'rsatkichi vatanparvarlik hissi yuqori darajada rivojlangan, fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, mazkur fazilatlarini shakllantirish mexanizmlarini, rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois, bugun dunyoda milliy vatanparvarlikning genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi, millatlararo munosabatlarda vatanparvarlikning o'rni, vatanparvarlik va geosiyosat, kosmopolitizm, vatanparvarlik fenomenining ma'naviy-axloqiy mazmuni, o'zgarish dinamikasi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Milliy yuksalish jarayonida mamlakatimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarini modernizatsiya va isloh qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish jarayonlarida yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 30-avgustdagi 105-1-son "O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12-dekabrda PQ-436-2-son "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bo'yicha mamlakatda amalga oshirilishi kerak pragmatik tendensiyalar belgilab berildi. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissinin kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaffi va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan¹.

Vatanparvarlik kishilarning eng qadimiy va asrlar davomida sayqal topgan tuyg'ularidan biri bo'lib, hamma vaqt konkret - tarixiy mazmunga, o'ziga xoslikka ega. Buning oqibatida Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari yuzaga kelgan.

Vatanparvarlik muayyan geografik hududda, muayyan jamoa, elat, millat doirasida kishilar ruhiyatida yuzaga keladigan jamiyatning barcha sohalarini bilan bog'liq etnogenetik, tabiiy-huquqiy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy, iymonlilik his-tuyg'ulardir. U bir

⁸ Xoliqova P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli faoliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni // Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 1.

⁹ Mahmudova K., Kholikova P. NEW APPROACHES TO TEACHING ENGLISH: GIVE THE PUPILS WHAT THEY WANT! // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 15. – С. 354-359.

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган "Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция" Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.

qator ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyatlariga kiradi va muayyan e'tiqod va xatti-harakatning muvofiqlashuvi sifatida amal qiladi. Vatanparvarlik o'ziga xos substansional bir butunlikka ega ruhiy hodisadir. Uning o'z ichki, substansional va amal qilish (bog'liqlik) qonuniyatlari mavjud. Demak, vatanparvarlikning jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlari tizimidagi o'zni va rolini, uning substansional shakllanish qonuniyatlarini vjamiyat sohalarining madaniy qismlari bilan bog'liqligi qonuniyatlarini aniqlash ham tadqiqot mavzuning yana bir bor dolzarbligini belgilaydi.

Vatanparvarlik bugungi kungacha sotsiologik va faylasuflar tomonidan spiritualistik, sotsiologik, aksiologik, psixologik, antropologik, futurologik, transendental masalalari turli ilmiy-nazariy konsepsiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da VATANPARVARLIK – kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biridir. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi², – deya ta'riflangan.

Yunon faylasufi Suqrotning fikricha, vatanparvarlik bilimi ezgu niyatni inson ichida ekishga ko'maklashadi³, Platonning qarashlarida jamiyatning ideal siyosiy tuzum, fuqaro vatanparvarligi to'g'risidagi qarashlarining markaziy ta'limoti – g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, agar inson jamiyat va xalq hayoti uchun mamlakatda axloqiy qoidalar o'rnatilib, ammo bu qoidalarning shaxsiy hayotga zaruriyati yo'q deb hisoblasa, u xato o'ylagan bo'ladi⁴.

"Vatanparvarlik" atamasi XVIII asrda Fransiya inqilobi davrida keng tarqaldi. Lekin bu vatanparvarlik shu davrda paydo bo'ldi degani emas.

Vatanparvarlik to'g'risidagi g'oyalar antik faylasuflar ta'limotlarida o'z ifodasini topib,

qadimiy davrdan o'z rivojlanishini boshlaydi. Xususan, antik davrdan fuqarolik burchlari tarkibida Vatan oldidagi burch har doim markaziy o'rinni egallagan. Xususan, Platon shunday degan: "Urushda ham, sudda ham, tushda ham, hamma joyda siz Vatan buyurgan narsani qilishingiz kerak". Faylasuf F.Skorina esa, "Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar, – shuning kabi odamlar ham qayerda tug'ilib parvarish topsalar, – o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladi, deya ta'kidlagan. Buyuk davlat arbobi Sitseron vatanga muhabbat haqida shunday deydi, - Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina "Vatan" otli so'zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkingdek bo'lsa, – axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?⁵. Antik davrda vatanparvarlikni o'rganishda subyekt-obyekt yondashuviga katta e'tibor berilgan, subyektning o'rnini fuqaro egallagan, obyekt esa davlat bo'lgan. Subyektning tashqi dunyoga, jamiyatga, taraqqiyotga munosabati, uning ongidagi, subyektiv qarashlaridagi ifodasi, obrazi bo'lsa-da, u obyekt va subyektning navbatma navbat ongdagi tasviri emas, balki insonning gnoseologik tajribasi, ma'naviy-ruhiy izlanishlari mahsulidir. Vatanparvarlik nafaqat inson va jamiyat munosabatlari, xuddi shuningdek, obyektning subyektivlashish, oddiy tasavvurlarning ideallashish jarayonlarining mahsuli hamdir.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida "Vatan" tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligini quyidagicha qayd qiladi: "Har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har tug'ulgan, o'sgon yerni jonidan ortiq suyar. Xatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa – o'z yeridagi kabi rohatda yashamas"⁶.

Vatanparvarlik fenomeniga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi ta'rifni beradi: "Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o'zining hayotini bag'ishlaydi, o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq

manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi"⁷.

Vatanga bo'lgan munosabat ma'naviyat darajasiga ko'tarilib, inson faoliyatiga maqsad va yo'nalish berishi Vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik ayrim shaxslarning faoliyatida ham ko'rinadi biroq bunday faoliyat ijtimoiylashib, ko'pchilikka xos bo'lgan ma'naviyat darajasiga ko'tarilgandagina taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Vatanparvarlik – bir ijtimoiy etnik guruhga mansub bo'lgan kishilarning o'z tarixi, tili madaniyati, urf-odatlarini, milliy obro'si, qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi ularga tayanishi boshqa xalqlarning obro'-e'tibori, manfaatlarini hurmat qila bilishni ifodalovchi ma'naviy fazilat.

Darhaqiqat, ma'naviyati zaif bo'lgan xalqda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lmaydi. Shu sababli barcha davrlarda bosqinchilar xalqning ma'naviy kamoloti imkoniyatlarini cheklash yo'li bilan uning Vatan haqidagi buyuk tuyg'ularini zaiflashtirish, xalqning vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradigan kuch ziyolilar ekanligini yaxshi tushunib, dastavval, millatni mazkur ma'naviy rahnamolaridan mahrum qilishga harakat qilishgan.

Sharq ma'naviy-axloqiy imperativida vatanparvarlik qahramonlik, fidoyilik kabi fazilatlar bilan uyg'unlikda qaraladi. Vatanparvarlik kundalik hayot, ijtimoiy burchlarni ado etish kabilar bilan, shubhasiz, bog'liqdir. Lekin ijtimoiy-axloqiy ideal sifatida u Vatan ozodligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan, milliy taraqqiyotni real voqelikka aylantirib, el-yurtning olijanob, uzoqni ko'zlovchi maqsadlariga sidqidildan xizmat qilishdir. Ozod va obod Vatan barpo etish ushu idealning kvintsensiyasidir.

Vatanparvarlik deganda, quyidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tilini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- ma'naviyatimiz, madaniy meros va qadriyatlarni asrash, avlodlarga taqdim etish;
- buyuk ajdodlar ishini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
- Vatanni himoya qilib, janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;
- betakror Vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lish.

Bugungi kunda vatanparvarlik fenomeni dolzarbligidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- vatanparvarlikning ruhiy madaniy hodisa ekanligini oydinlashtirish;
- vatanparvarlikning jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlari tizimidagi

o'rnini topish asosida jamiyatdagi rolini ko'rsatish;

- vatanparvarlikning jamiyatning substansional qonunlari bilan uzviy bog'liqligini aniqlash;

- vatanparvarlikning muayyan ijtimoiy ong formalarining atributiv xususiyatlari ekanligini yoritish;

- vatanparvarlikning e'tiqod va xatti-harakatning muvofiqlashuvidan iborat bir butunlik ekanligini ko'rsatish;

- vatanparvarlikning sivilizatsiyalarga bog'liqligi qonuniyatini yoritish;

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik fenomenini ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirib borish lozim:

- vatanparvarlikning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma'naviy mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida vatanparvarlikni mustahkamlovchi (ratsional, pragmatik) va aksincha uni yemiruvchi (deviantlik, marginallashuv, lyupenlashuv, kosmopolitik) omil va yondashuvlar tizimli ravishda o'rganish;

- "o'zbek xalqi milliy qahramonlarining vatanparvarlik" fenomeni hamda milliy-axloqiy idealni shakllantirishning gnoseologik va aksiologik xususiyatlari tizimli-funksional tamoyil asosida ochib berish;

- vatanparvarlikning emotsionallik, faoliyatlilik, intellektuallik mezon va darajalari hamda uni shakllantirishning ishonitirish, namunaviylik, maqsadlilik, rag'batlantirish metodlarining ilmiy-amaliy asoslarini ochib berish;

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida quyidagicha izohlash mumkin: Birinchidan, vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat yadrosi hisoblangan madaniy borliqning komponentlari – inson va jamiyat, shu jumladan, fuqarolarning dunyoqarashiga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakat miqyosida Vatanni sevish, asrash hamda himoya qilishga qaratilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyatda shakllanishi va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, vatanparvarlik tuyg'usi falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida insonlarning bir-birlariga nisbatan munosabatlarida inson hamda uning umuminsoniy qadriyatlarini moddiy, siyosiy, huquqiy madaniyat asosida boshqarib, tartibga soladi, yagona Vatan g'oyasiga birlashtiradi.

2 «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ в ҳарфи 65 бет

3 Fatih Demirci. Socrates: the prophet of life-long learning // Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2012. – № 46. – P. 4485.

4 Қаранг: Афлотун. Қонунлар (Масъул муҳаррир: Ўткир Ҳошимов, Таржимон: Урфон Отажон) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 197.

5 <https://ziyouz.uz/hikmatlar/tafakkur-gulshani/vatan-va-vatanparvarlik-haqida/>

6 Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, "Ўқитувчи", 1992. – Б. 28

7 Мирзиёев Ш.М Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурами Т.Ўзбекистон,2017й

TUSHUNCHA VA MA'NO

Feruza Uralovna Jumayeva - dotsent, f.f.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tushuncha va ma'no bog'liqligi aql, tafakkur, ong faoliyati doirasida o'rganilgan. Tushuncha va ma'noning tarkibi, shakllanishi, taraqqiyotida sezgi, tasavvur, tafakkurning o'zni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье взаимосвязь понятия и значения исследуется в рамках интеллекта, мышления и сознания. Обсуждаются роль и значение интуиции, воображения и мышления в составлении, формировании и развитии понятий и значений.

Abstract: In this article, the relationship between concept and meaning is studied within the framework of intelligence, thinking, and consciousness. The role and importance of intuition, imagination, and thinking in the composition, formation, and development of concepts and meanings are discussed.

Kalit so'zlari: tushuncha, konsept, tafakkur, tasavvur, aql, ong, bilim, ilm, ma'no, lug'aviy ma'no, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, semema, sema.

Ключевые слова: понятие, концепт, мышление, воображение, разум, сознание, знание, наука, значение, лексическое значение, денотативное значение, коннотативное значение, семема, сема.

Keywords: notion, concept, thinking, imagination, mind, consciousness, knowledge, science, meaning, lexical meaning, denotative meaning, connotative meaning, semema, sema.

Tushunchavama'nohaqidagifikrlarrang-barangdir. Ayrim ishlarda: "So'zning ma'nosi so'z va predmetning birgalikda aks etishidir: so'zning ma'nosi tushunchani ifodalaydi, balki tushunchaning tashkil topishida va rivojlanishida asos sifatida vositachi xizmatini o'taydi"¹, - deyiladi. M.Hakimova esatushuncha (umumlashma in'ikos) asosida leksik ma'no hosil bo'lishi haqida fikr bildiradi². Ayrim kitoblarda "Tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilansa, leksik ma'noga xos umumlashish har bir tilning o'z doirasida voqe bo'ladi"³ deyiladi. Borliqdagi barcha voqelik sema (belgi)lar asosida ongda o'rinlashadi va tushunchani hosil qiladi. Tushunchaning ixcham, barcha til egalariga tushunarli holga keltirilgan, ma'lum me'yorga solingan ko'rinishi ma'no deyiladi. Tilshunoslikda ma'no va shakldan iborat butunlik so'z, ibora, tasviriy ifoda kabi birliklar bilan nomlanib o'rganiladi. Tushuncha so'zning ma'nosi bilan birga uning yozilishi, talaffuzi, mohiyati, vazifasi kabi axborotlarni ham o'z ichiga oladi. M., qor so'zining ma'nosi, yozilishi, grammatik tahlili haqida tushunchaga egamiz. Borliqdagi ko'pgina narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar alohida alohida nomlanmaydi, ularga nom ko'chiriladi, shuning

uchun tilning asosiy qismini polisemem leksemalar tashkil etadi. Masalan, odamning qulog'i, qozonning qulog'i birikmalaridagi quloq so'zi alohida-alohida predmetlarni nomlaydi va boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Quloq so'zining bunday ma'nolari o'zga tillarda boshqacha nomlanishi va o'rganilishi mumkin. O'zbek tilida esa ko'p ma'noli so'zlar qatorida izohlanadi. A.Hojiyev lug'aviy ma'no izohlanishini, tushuncha esa tarflanishini, tushuntirishini, tushunchani qayd etuvchi so'zlar "termin" deb yuritilishini aytadi⁴. Ma'lumki, terminlar ikki turga bo'linadi: ilmiy terminlar va kasbiy terminlar. Ilmiy terminlar ifodalaydigan tushuncha ta'riflanadi. M.: "Fonetika - og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi" jumlasini ta'rif deyiladi. Fonetika - ilmiy termin. Kasbiy terminlar sifatida "Turli kasb-hunar tarmoqlarida ham umumxalq tilidan ma'nosi chegaralab olingan so'zlar qo'llaniladi. Masalan, chevarchilik sohasidagi suv so'zining ma'nosi umumxalq tilidagi suv so'zining ma'nosidan tamomila farq qiladi"⁵. Kasbiy terminlarning ma'nosi izohlanadi. Suv so'zining kasbiy termin sifatidagi ma'nosi O'TIL⁶da quyidagicha izohlangan: "Kashtachilikda: to'g'ri yoki to'liqinsimon chiziq shaklidagi gul

1 Ирискулов М. Тилшunoslikka kirish. -Т.: Уқитувчи, 1992. - Б 98.

2 Ҳакимова М. Семасиология. -Т.: 2008. -Б 17

3 Турсунов У, Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўзбекистон, 1992. -Б 62.

4 Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т.: Фан, 2010. -Б 79

5 Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Шарқ, 2004 - Б 58

6 Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. 2007. -Б 576

elementi. Suvi oq, guli turli qiyiqcha".

Atoqli otlarning ma'nolari haqida ham har xil fikrlar keltirilgan. Ba'zi asarlarda atoqli otlarning ma'lum turlari leksik ma'no anglatmasligi aytiladi va Muhabbat ismi misol keltiriladi⁷. M.Mirtojiyev atoqli otlar, undov va taqlidiy so'zlar leksik ma'nosi tushuncha ifodalamasligini, shuningdek, tushuncha faqat obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat yoki belgining ongdagi in'ikosi ekanligini ta'kidlaydi⁸. Aytish joizki, tushuncha haqida gap borganida ayrim asarlarda ham olmosh turkumiga oid so'zlar, mustaqil bo'lmagan so'zlar tushuncha ifodalamasligi ta'kidlanadi⁹. Ma'lumki, Dildora deyilganda shaxs tushuniladi. Toshkent deyilganda esa o'rin-joy, voy deganda qo'rquv yoki hayratlanishni tushunilsa, taq-tuq deyilganda nimaningdir ovoziga taqlid qilinayotgani nazarda tutiladi. Har qanday so'z onгимizda ma'lum bir tushunchani ifodalaydi, lekin taqlid va undov so'zlar bildirgan tushunchalar tilshunoslikda lug'aviy ma'no sifatida o'rganilmaydi.

Borliqdagi narsa-hodisalarning belgi-xususiyati, vazifalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish bilan ongda tushunchalar shakllanadi. Bu tushunchalar turli fanlar doirasida ma'lum bir me'yorga solinib o'rganiladi, boyitib boriladi. Tushunchalarning umumlashma va ixcham shaklga keltirilgan holati tilshunoslikda leksik ma'no (lug'aviy ma'no), grammatik ma'no, uslubiy ma'no sifatida o'rganiladi. Shuningdek, tushunchaning umumlashma, ixcham va sodda shakldagi jamlanmasi ta'rif deb yuritiladi va ta'rif barcha fanlarga doir ilmiy terminlarga xos qonuniyatlar, xususiyatlar, vazifalarni o'zida aks ettiradi. So'zning atash ma'nosi izohlanadi, grammatik ma'nosi esa tushuntiriladi, ta'riflanadi. Ilmiy terminlarning tarifi ham tushuntiriladi. Demak, tushuncha ifodalovchi birliklarning ayrimlari izohlanadi, ayrimlari tushuntiriladi. Izohlanadigan birliklar leksik ma'no ifodalaydi. Shuning uchun tilshunoslikda "Leksik ma'no tilga xos hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisa"¹⁰ sifatida ta'rif etiladi. Xullas, so'z ma'nosi til va nutqqa xos, tushuncha esa tafakkurga xos xodisadir. Tushuncha orqali so'z ma'nosi shakllantiriladi.

Har bir insonda sezgi, tafakkur, tasavvur o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, shu jihatdan biror narsa-hodisa haqidagi tushuncha, munosabatlar muayyan belgilarga ko'ra farqlanish hosil qiladi. Borliqdagi narsa-

hodisa, belgi-xususiyatlarni idrok etish, ularning nozik qirralarini ilg'ash, o'zgarishlarni kuzatish va munosabat bildirish kabilar asosida tushuncha shakllanadi. Tushunchalar doirasida fikr yuritish tafakkur qilishga olib boradi. Har bir inson o'ziga xos tasavvur qilish imkoniyatlariga ega bo'lib, tafakkur faoliyatidagi o'zgachalik bir jihatdan tasavvur ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Tasavvurning boy bo'lishi tafakkurning rivojiga ta'sir etadi va ularning birgalikdagi faoliyati natijasida hosil bo'lgan tushuncha, fikr-mulohazalarni nutqda ifodalash ehtiyoji bilan so'z tanlash va qo'llashga bo'lgan harakat kuchayadi. Bu esa so'zlarning ma'no taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z orqali bir yoki bir nechta tushunchalarni ifodalash imkoni mavjud. Boy tasavvur va mahsuldor tafakkurga ega bo'lgan inson bir qancha tushunchalarni bir so'z orqali ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Asosan, badiiy, ilmiy, publitsistik uslublarda tuzilgan matnlarda qo'llangan so'zlar o'zining purma'noliligi, tasavvurga boyligi bilan tinglovchini tafakkur va tasavvur qilishga undaydi. Badiiy tafakkur, asosan, tasavvuri keng insonlarda rivojlanadi. Tushunchaning nutqiy ifodasi ma'no deb yuritiladi. So'z ma'nosi tarkiban leksik ma'no, grammatik ma'no kabi turlarga ajraladi. Leksik ma'no tarkiban denotativ va konnotativ ma'nolarga ajraladi. Bu ma'nolar denotativ, konnotativ semalarni idrok etish asosida shakllanadi. Buni sezgi a'zolari faoliyatiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin bo'ladi:

1. Ko'z, quloq, teri, tam, burun sezgilari bilan his etish orqali hosil bo'lgan tushunchalar denotativ semalar deb yuritiladi. Bu semalar tasavvurda (har bir insonning o'z sezgi qobiliyatlari asosida) narsa-hodisalarning tasviri, obrazini shakllantiradi.

2. Qalb hissi bilan idrok etilgan tushunchalar konnotativ sema (ma'no)ni shakllantiradi. M., bashara so'zida shunday semalar mavjud.

Tushuncha insonlarning yoshi, tasavvur olami, tafakkur faoliyatiga ko'ra farqli bo'ladi. So'z ma'nosining shakllanishi, taraqqiyoti tafakkur tadrijiga bog'liq bo'ladi. Mutafakkirlar nutqida qo'llanilgan so'zlarda ma'noning yangi qirralari kashf etilganini kuzatish mumkin. Bir narsaning xususiyatlarini turli ilm-fan nuqtayi nazaridan turlicha idrok etish va ular xususida tafakkur yuritish tushunchalarning kengayishiga sabab bo'ladi. M., daraxt


7 Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. [Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика.Сўз ясалиши] Т., 2005. - Б 41

8 Миртожиёв М.М. Ўзбек тили семасиологияси. -Т.: Мумтоз сўз, 2010. -Б 40

9 Ўзбек тили практикуми. 1-қисм (Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика. Сўз ясалиши) -Т., 2005. - Б 43

10 Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. -Т., 2005. 43-бет.

soʻzining maʼno tarkibi tilshunoslik, adabiyot, falsafa, kimyo, biologiya kabi fanlardan olingan tushunchalar bilan boyib, kengayib boraveradi, goʻyoki har tomonga ildiz otayotgan tomir kabi. Tushuncha bilim va ilm mahsuli sifatida farqlanadi. Tushunchalar asosida bilim shakllanadi. Bilimlar asosida yana tushunchalar hosil boʻladi va bu tushunchalar ilm hosil qiladi. Ilm asosida yana tushunchalar paydo boʻladi va shu tarzda tushuncha tarkibi kengayib, rivojlanishda boʻladi, shunga koʻra soʻz maʼnosi taraqqiyotda boʻladi. Tushuncha tilda soʻz, soʻz birikmasi (erkin va turgʻun birikmalar), termin, atama kabilar asosida ifodalanadi. Soʻz orqali ifodalanadigan tushunchalar tilshunoslikda maʼno deb ataladi. Termin, atamalar ifodalaydigan tushunchalarning izohi, taʼrifi boʻyicha tilshunoslikda bahsli fikr-mulohazalar bisyor. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida bilim hosil qilsa, shu bilim boʻyicha tafakkur qilish asosida ilm hosil boʻladi. Ilm asosida hosil boʻlgan tushunchalar ong faoliyati mahsulidir. Masalani tushunishda aqliy faoliyatga tayanilsa, uning mohiyatini, aslini tushunish (anglash)da ong faoliyati yordamga keladi. Aql va ong faoliyati tutashmasida tafakkur yotadi. Tafakkur yuritish aql va ong faoliyatiga turtki beradi.



Aql Tafakkur Ong

Tushuncha shakllanish va takomillashish bosqichidan oʻtishiga koʻra ikki darajali boʻladi: birinchisi tushunish natijasida hosil boʻlsa, ikkinchisi anglash natijasida hosil boʻladi. Tushunish, asosan, vizual, audual idrok va boshqa sezgilar asosida, anglash esa qalb sezgilari asosida hosil boʻladi va ongda kechadi. Buni gap mazmuniga tegishli boʻlgan propozitsiya va presuppozitsiya hodisalari misolida oʻrganadigan boʻlsak, propozitsiya tushunish asosida, presuppozitsiya anglash asosida maʼlum boʻladi. Tushuncha hosil

boʻlishiga koʻra ikki turli boʻladi: tafakkurgacha hosil boʻlgan tushunchalar, tafakkurdan keyin hosil boʻlgan tushunchalar. Birinchi bosqichda tushunchalar bilim hosil qilishga olib boradi va bu aqliy qobiliyat asosida shakllanadi. Bu tushunchalar tafakkur chigʻirigʻidan oʻtgandan soʻng ikkinchi turdagi tushunchalar hosil boʻladi va bu tushunchalar ilm hosil boʻlishiga turtki beradi va bu jarayon ong faoliyati bilan bogʻliq boʻladi. Bu faoliyat natijasi sifatida hosil boʻlgan tushunchalar yana birinchi bosqich bilim hosil qilish bosqichiga, yaʼni aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi va yana aql yuritish, tafakkur qilish asosida anglash jarayoni ishlaydi, shu tariqa ilmlar yangilanib mukammallashib boraveradi, tushunchalar koʻlami kengayadi.



Bu esa soʻz maʼnosining shakllanishi va taqqiyotiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Tushuncha doirasining kengayishi tilimizga yangi soʻzlarning kirib kelishi yoki mavjud soʻzlarning turli tushunchalar bilan boyitilishi hamda soʻzlarning eskirishi va tarixiy soʻzlar qatoridan oʻrin olishi yoki yoʻqolishiga sabab boʻladi.

Soʻz maʼnosining shakllanishi, taraqqiyoti aql, tafakkur, ong faoliyati, yaʼni bilim va ilm hosil boʻlishi bilan bogʻliq ekan, ilmning qay darajada rivojlanishi soʻz maʼnosidagi oʻzgarishlarga ham shu darajada taʼsir etadi. Tushuncha hajmining kengayishi olinayotgan bilimlar miqdoriga bogʻliq boʻladi. Tushunchaning tarkibini turli ilm-fanga doir maʼlumotlar tashkil etadi. Shu bois muayyan ilm-fanga mansublik jihatidan tushuncha tarkiban qismlarga ajraladi. Aytaylik, "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi"da daraxt haqida turli ilm fanga aloqador tarzda, keng doirada tushuncha berilsa, "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da daraxt soʻzi ifodalaydigan tushunchaning faqat tilshunoslikka doir qismi ajratib beriladi va bu maʼno leksik maʼno deb oʻrganiladi. Soʻz maʼnosini tadqiq etishda

leksik maʼno yetarli asos boʻlmaydi. Chunki soʻzning maʼno taraqqiyotini leksik maʼno doirasida chegaralab oʻrganib boʻlmaydi. Uni soʻz ifodalaydigan barcha tushunchalar koʻlamida oʻrganish zarur boʻladi. Shu bois soʻz maʼnosining shakllanishi, taraqqiyotiga doir fikrlarda tugal xulosaga kelish nihoyatda murakkab ish. Tushuncha shaxsiy yoki ijtimoiy doiraga mansubligiga koʻra farqlanish hosil qiladi. Bu esa soʻz maʼnosining rang-barang va serqirra boʻlishiga sabab boʻladi va har bir maʼno qirrasini til hodisalarida oʻz oʻrniga ega boʻlib, ularni alohida-alohida semema, sema, emalarga ajratib tahlil qilish soʻz maʼnosining shakllanishi va taraqqiyotiga doir masalalarga yechim boʻladi. Biror narsa xususida har bir inson oʻz ruhiyati, sezgilari, hissiyoti, tafakkuri, aqli, ongi asosida tushuncha hosil qiladi. Shuningdek, bilimning qaysi ilm-fanga yoʻnaltirilganiga koʻra turlicha yondashuvlarga asoslangan tushunchalar hosil boʻladi. Ilm-fandagi ijtimoiy, milliy-madaniy farqlanishlar turlicha dunyoqarash asosida shakllangan tushunchalarni yuzaga keltiradi. Buni tasviriy ifoda, atoqli otlar, iboralar; ramz, oʻxshatish, streotip, konseptlarning paydo boʻlishiga asos boʻlgan tushunchalar tahlilidan anglash mumkin.

Birsoʻz orqali ifodalanadigan tushunchalar maʼlum bir ilm-fan doirasida hosil boʻlgan yoki turli ilm-fanga doir bilimlar qorishmasidan umumlashma holda shakllangan boʻladi. M., daraxt soʻzida tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan hosil boʻlgan tushuncha hamda turli ilm-fan doirasida shakllangan umumiy tushuncha mavjud boʻlib, tilshunoslik nuqtayi nazaridan chegaralab olingan tushuncha umumga maʼlum boʻlgan belgi-xususiyatlar asosida shakllangan boʻladi. Turli ilm-fanga oid bilimlar asosida shakllangan tushuncha konseptni hosil qiladi. Bir narsani turli ilm-fan nuqtayi nazaridan oʻrganish asosida bir soʻz atrofida har xil tushunchalar shakllanib boradi. Bu tushunchalarning bir mavzuga qaratilgan muhim jihatlarini ajratish va ular asosida zaruriy tushunchani shakllantirish bilan konsept hosil boʻladi. Konsept bu tushunchalar tutushmasidan, qorishmasidan hosil boʻlgan umumiy tushunchadir. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan shakllangan tushunchalar, asosan, sezgilar vositasida hosil boʻlgan belgilar majmuidan iborat boʻladi. Bunda koʻrish, eshitish, tam, hid, teri sezgilar va qalb sezgisi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular asosida hosil boʻlgan tushunchalar tilshunoslikda leksik maʼno deb oʻrganiladi.

Bu tushunchalar haqida fikr yuritish, uni turli ilm-fan doirasidagi bilimlar bilan boyitish, tafakkur qilish, tasavvur qilish asosida, shuningdek, muayyan ramziy maʼnolarni hosil qilish bilan konsept shakllanadi. Konsept ham insonlarning ruhiyati, tafakkur tarzi, tasavvuri, madaniyatining turlichaligiga koʻra farqlanadi. Tushuncha asosida bilim hosil boʻladi. Bir mavzuga qaratilgan turli tushunchalar asosida tafakkur qilish anglashga yoʻl ochadi. Anglash asosida hosil boʻlgan tushunchalar ilm mahsulidir va bunday tushunchalar konsept tahlili asosida oʻrganiladi. Soʻz maʼnosini izohlashda muayyan ilm-fan doirasida hosil boʻlgan bilimga tayanilsa, uni tadqiq etishda konseptual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻz maʼnosini faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganish tadqiqot doirasini toraytiradi. Soʻz maʼnosini turli ilm-fan doirasida hosil boʻlgan tushunchalar tutashmasida tadqiq etish uning shakllanishi, taraqqiyoti borasida aniq nazariy va amaliy xulosalarning hosil boʻlishiga yoʻl ochadi. M., Yulgʻich aziz boʻlib, bilgich xor boʻlsa, Paytavanning salla boʻlgani shudir (E. Vohidov) misralaridagi yulgʻich-bilgich, aziz-xor, paytava-salla soʻzlaridagi zidlanish, oʻxshatish va farqlanishni oʻrganishda izohli lugʻatlardagi, semalargagina tayanish, bu soʻzlarning mazmun-mohiyatini, ifoda maqsadini, ramziy xususiyatlarini toʻla ochib berolmaydi. Shoir tafakkuriga xos kognitiv faoliyat, badiiy niyatni anglash uchun bu soʻzlarning maʼnosini turli ilm-fan doirasida izohlash zarurati tugʻiladi. Shuningdek, bunday tahlillar yasama soʻzlarning maʼno tarkibidagi semantik oʻzgarishlarning asosini aniqlash imkonini kengaytiradi. M., uyli, uylanmoq, boʻydoq, nonxoʻr kabi yasama soʻzlarning maʼno tarkibini oʻrganishda tushunchalarni keng doirada tahlil etish talab etiladi. Ularning assotsiativ, pragmatik mohiyati, koʻchma maʼnoning hosil boʻlish sabablari aniqlanadi. M., uy soʻzi obyektiv tasavvurga koʻra "xotin" semasini yodga solmaydi, shuning uchun lugʻaviy maʼnosi izohlanganda bu semaga eʼtibor qaratilmaydi. Uy leksemasi haqidagi dastlabki va asosiy tushuncha "Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va sh.k. joylashishi uchun moʻljallangan bino"¹¹ boʻlib, bu izoh tilshunoslik nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan. Uy soʻzining milliy-madaniy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari toʻgʻrisida tafakkur yuritilsa, "xotin" semasining mavjudligi anglashiladi. "Masalan, uy konsepti oʻzbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

11 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Б 271

- a) yashash joyi – bino – ko'p qavatli uy – hovli – xonadon – oila;
 b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski;
 c) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi"¹².

Bu tushunchalar doirasini yana kengaytirish imkoni bor. Aytaylik, uy so'z orqali "xotin-qiz, er" tushunchasi ham anglashiladi. Bunga uylanmoq, uylamoq, uyli kabi yasama so'zlarning yasash asosini misol qilish mumkin. Uylanmoq so'zi "qiz, ayol, xotin" tushunchalarini bildiradi, "biror qiz yoki ayolni o'z nikohiga olmoq, oila qurmoq" ma'nosiga ega, uyli so'zi "xonadon, xotin, er, uylangan, eri bor, erga tekkan" tushunchalarini ifodalaydi: uyli odam (uyi bor), uyli yigit (xotini bor), uyli xotin (eri bor). Bunday yasama so'zlarning ma'no izohi uy so'zining ma'nosini konseptual yondashuv asosida tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. So'z ma'nosini o'rganish nafaqat muayyan tushunchalar doirasida, shuningdek, turli tushunchalar birlashmasidan, kesishmasidan hosil bo'lgan tushuncha, ya'ni konseptni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. "Inson ongida lisoniy nom olish huquqidan mahrum mental tuzilmalar bo'lmaganidek, biror bir tushuncha yoki konseptni ifodalash qudratiga ega bo'lmagan til birligining o'zi ham yo'q"¹³. Ta'kidlash joizki, tushunchalar asosida bilim hosil bo'lsa, bilim yuzasidan tafakkur qilish ilm hosil bo'lishiga turtki bo'ladi. Ilmni anglash asosida hosil bo'lgan tushunchalar konseptni hosil qiladi. Konsept til egalarining ilmi, dunyoqarashining turlichaligiga ko'ra farqli bo'ladi. Aytaylik, so'z tarkibida muayyan madaniyatga xos tushunchalarning mavjudligi lingvomadaniy konseptni shakllantiradi va shu jihatdan so'zning ma'no izohi turli madaniyatga mansublik jihatidan farqli bo'ladi.

Tushunchalarning jamlanishi, tafakkur tarziga muvofiq holda qayta ishlanishi va shular asosida muayyan tushunchalarning hosil qilinishi til egalarining ruhiyati, ma'naviyati, ilmi, madaniyatiga muvofiq tarzda amalga oshadi. Shu bois konsept turli til va madaniyatga mansublik jihatidan farqlanish hosil qiladi. Bularni o'rganish so'z ma'nosining tuzilishi, shakllanishi, taraqqiyotini tadqiq

etishda muhim ahamiyatga ega. Til birligi sifatida so'zning ma'no qurilishi, tuzilishini muayyan strukturada tasavvur qilish mumkin, ammo nutq birligi sifatida buni tasavvur qilish mushkul. So'z ma'nosini izohlash nafaqat tilshunoslik doirasida hosil qilingan tushunchalar, balki konseptni ham o'z ichiga oladi. M., daraxt so'zi – umr, hayot, inson, yaxshilik timsoli sifatida izohlanadi

Xullas, tushuncha bir necha bosqichda rivojlanadi. Dastlabki sezgilar asosida idrok etilsa, keyingisi ular bo'yicha tafakkur yuritish asosida hosil bo'ladi. His etish, fahmlash asosida shakllanib murakkablashib boraveradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tushuncha dastlab biror narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat kabilarning sezgi a'zolari orqali idrok etilishidan hosil bo'ladi va ular haqida fikr yuritish, tafakkur qilish, ya'ni analiz, sintez qilish, qiyoslash, o'xshatish kabilarni amalga oshirish bilan tushuncha yana kengayadi va u konsept darajasida tahlil etiladi. Tushunchalar asosida bilim hosil bo'ladi. Bilimlar yuzasidan tafakkur qilish asosida hosil bo'lgan tushunchalar konsept maqomida bo'ladi. Biror masalaning mohiyatiga konseptual yondashuv ilm hosil bo'lishiga turtki beradi. Ilmiy qarashlar asosida hosil bo'lgan tushunchalar ham konsept darajasida o'rganiladi. Tilshunoslikda so'z ma'nosini o'rganishda, izohlashda odatda dastlabki bosqichda hosil bo'lgan tushunchalar, ya'ni sezgilar asosida idrok etilgan tushunchalar asos qilinadi. So'z nutqda turli doiradagi tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shu bois so'zning ma'no qurilishi ikki qismdan iborat bo'lib, dastlabki qismini sezgilar asosida idrok etilgan boshlang'ich tushunchalar tashkil etsa, keyingisini shu asosida rivojlangan konsept darajasidagi tushunchalar tashkil etadi. Tushunchaning nutqiy ifodasi ma'no bo'lib, tafakkur faoliyatini chegaralash imkoni bo'lmaganidek, so'zning ma'no ko'lamini asosli tarzda chegaralash imkoni yo'q. Uni tushunchadan konseptga yo'nalgan holda tadqiq etish, uning tarkibi, qurilishi, tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

¹² Usmanova Sh. Linqvokulturologiya. –T.: Universitet, 2014 –B 42
¹³ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: Sangzor, 2006 –B 44.

SHE'RIY TURKUMNI SHAKLLANTIRUVCHI BIRLIKLAR

Obidaxon Xolbekovna Fayzullayeva - f.f.d., dotsent, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada she'riy turkumni shakllantiruvchi birliklar, xususan, she'riy turkumlarga xos jihatlar, ular tarkibida mazmunan o'zaro bog'liq bir necha asarning mavjudligi, tarkibiy yaxlitlik borligi, matnlar o'rtasida assotsiativ bog'liqlik; turkumdagi she'rlarning tartibi va muallifning atrofda olamga munosabati, muayyan markaziy motivga asoslanish, turkumdagi bitiklarning uslubiy, ritmik, majoziy-metaforik, intonatsion umumiylik singari bir qator tizimli unsurlari borligi, badiiy niyatning amalga oshishi jarayonida shoirlar uslubi va mahorati masalasi ham o'rganilgan.

Shuningdek, turkumni shakllantirishning o'ziga xos mezonlar sifatida ular mazmunidan anglashilayotgan umumiy kayfiyat, tabiat tasviri, she'riy matnlarni tashkil etishning o'xshashligi kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются единицы, образующие поэтический цикл, в частности, аспекты, характерные для поэтических циклов, существование нескольких произведений, взаимосвязанных по своему содержанию, наличие структурной целостности, ассоциативные связи между текстами, порядок стихотворений в цикле и отношение автора к окружающему миру, основанный на определенном центральном мотиве, что надписи в цикле имеют ряд систематических элементов, таких как стилистическая, ритмическая, образно-метафорическая, интонационная общность, изучен также вопрос о стиле и мастерстве поэтов в процессе реализации художественного замысла.

Также особое внимание уделяется таким вопросам, как общее настроение, понимаемое из их содержания, образ природы, сходство организации поэтических текстов как специфические критерии формирования цикла.

Abstract: In this article, the units that form the poetic cycle, in particular, the aspects specific to poetic cycles, the existence of several works that are interrelated in their content, the presence of structural integrity, associative relationship between texts; the order of the poems in the cycle and the author's attitude to the surrounding world, based on a certain central motive, that the inscriptions in the cycle have a number of systematic elements such as stylistic, rhythmic, figurative-metaphorical, intonational commonality, the question of the style and skill of poets in the process of the realization of the artistic intention was also studied.

Also, special attention is paid to such issues as the general mood understood from their content, the image of nature, and the similarity of the organization of poetic texts as specific criteria for the formation of a cycle.

Kalit so'zlar: she'riy turkumlar, badiiy tafakkur ko'rinishlari, badiiy tasvir vositalari, ifoda usuli, poetik talqin, lirik qahramon, badiiy g'oya, lirik kompozitsiya va boshqalar.

Ключевые слова: поэтические циклы, формы художественного мышления, средства художественного изображения, способ выражения, поэтическая интерпретация, лирический герой, художественная идея, лирическая композиция и др.

Keywords: poetic cycles, forms of artistic thinking, means of artistic representation, method of expression, poetic interpretation, lyrical hero, artistic idea, lyrical composition, etc.

XX asr adabiyotshunosligida "siki" – olamga munosabati; muayyan markaziy turkum tushunchasining asosiy xususiyati motivga asoslanish; turkumdagi bitiklarning poetik butunlikning bir turi sifatida uning uslubiy, ritmik, majoziy-metaforik, intonatsion tipologik xususiyatlari, shakllarini o'z ichiga umumiylik singari bir qator tizimli unsurlari olgani aniqlashtirilgan. Ilmiy tadqiqotlarda borligi bilan poeziyaning "katta shakli" turkumning xos xususiyatlari sifatida hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan. mazmunan o'zaro bog'liq bir necha asarning kompensatorligi va kommunikativligi, ya'ni mavjudligi; tarkibiy yaxlitlik borligi; matnlar o'rtasida assotsiativ bog'liqlik; turkumdagi badiiy asarlarni bir-biriga bog'lay olishi, uning she'rlarning tartibi va muallifning atrofda barcha elementlarining o'zaro aloqadorligida

ko'rinadi.

Turkumni shakllantirishning o'ziga xos mezonlari sifatida turkumlar mazmunidan anglashilayotgan umumiy kayfiyat, tabiat tasviri, she'riy matnlarni tashkil etishning o'xshashligini ham ko'rsatish mumkin.

Turkumni shakllantiruvchi birliklarni Mirtemirning mashhur "Qoraqalpoq daftari" turkumi misolida ko'rib o'tish maqsadga muvofiq. Mazkur turkum shoirning Qoraqalpog'istonga safari natijasi o'laroq yozilgan bo'lib, turkum tarkibida yigirmata she'r mavjud. She'rlar hajmi har xil bo'lsa-da, ularning lirik qahramoni shoirning o'zi bo'lib, uning safar taassurotlari, o'y-kechinmalari she'rlarning asosiy mavzusini tashkil etgan. Turkumdagi birinchi she'r "Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard" deb boshlangan. Ushbu peyzaj lirikasi namunasi bo'lgan she'r Qoraqalpog'istonning o'ziga xos tabiatini aks ettirgandir.

*Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard,
Bog'lar mudramoqda, dala bepoyon.
Kuyla, to'lib-toshib, ko'rmagin hech dard,
Kuylasang balqiydi zaminu zamon;
Bog'lar mudramoqda, dala bepoyon¹.*

Lirik qahramon qalbidagi cheksizlikni qamrash va bepoyonlikdan bahramand bo'lish hissi ifodasi tabiat tasviri bilan omuxta tarzda berilgan. Unda shoir "daryo jimir-jimir", "osmon lojuvard", "dala bepoyon" kabi sifatlashlardan, "bog'lar mudramoqda" kabi jonlantirishlardan unumli foydalangan. She'rga besh misralik band shakli tanlangan bo'lib, u tuzilmasiga ko'ra uch banddan iborat. Keyingi bandda esa shoir tasvir vositalarini biroz murakkablashtiradi:

*Suvda qalqib o'ynar kumush tangalar,
Yorug' tun sharpasi kelar Amudan.
Cho'chitmasin to'qay, ho'v ko'lankalar,
Ko'nglim qo'shiq istar senday suluvdan,
Yorug' tun sharpasi kelar Amudan².*

"Kumush tangalar" majoziy tasvir talabiga ko'ra shakllantirilgan istiora bo'lib, u yog'duning suvdagi aksi ma'nosini bermoqda. Ularning o'ynayotgani va "tun sharpasi"ning kelishi, "to'qayning cho'chitishi" ifodalari jonlantirish bo'lib kelmoqda. Bu bandda "Yorug' tun sharpasi kelar Amudan" misrasining takror qo'llanishi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She'rning uchinchi bandi endi yuqorida aytilgan "yorug' tun sharpasi"ning oydinligidan

foydalanib, o'sha oydinga suluvdan qo'shiq eshitish istagi ma'nosini ifodalagan. "Berdaq to'qiyolmay ketgan sho'x g'azal; Kuyla, kuylash uchun oydin – soz mahal..." deyish orqali Qoraqalpoq yurtining sevimli shoiri Berdaq nomi esga olinadi, bu esa asosiy mazmun shu yurt safari taassurotlari ifodasi ekanligini esga soluvchi tafsil – detal vazifasini o'taydi.

Turkumdagi navbatdagi she'r "Amu qirg'oqlari" deb nomlangan bo'lib, sarlavhasi uning Amudaryo haqidaligini anglatadi. She'r tuzilmasi bandlarga ajratilmagan ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda ajratilmagan qirq satr bo'lsa, ikkinchi qism to'rt satrdan iborat.

*Ey sen, suluv daryo, azamat daryo.
Ey sen, tentak to'lqin, tizginsiz to'lqin,
Ey sen, saholarning dardiga davo,
Ey qudrati jahon, ey qalbi jo'shqin³.*

She'rda qo'llanilgan "ey sen" anaforasi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ushbu parchada shoir Amudaryo ta'rifi uchun to'lig'icha sifatlash – epitetlardan foydalangan. O'zining Sirdaryo sohillaridan ekanini ta'kidlash orqali lirik qahramon bu diyorga daryoga qadrdonlik sabab kelganini bildiradi. She'rda "Oyning kokillari halqa-yu halqa", "oltin qirg'oq", "to'lqinlarning mudhish quchog'i", "ezgu qatra", "sahrolarning asriy dardiga doru" kabi tashbehtar qo'llaniladi. She'r nihoyasida katta qism ichidagi to'rt satrning alohida takrorlanishi orqali Amudaryoning o'zligiga urg'u beriladi:

*Girdoblarning mudhish quchoqlarida
Asov nahang kabi kechmak istayman.
Va sening muborak, loyqa suvingni
Sharob kabi to'yib ichmak istayman⁴,*

Bu tasvirlarda Amudaryoning suvi loyqaligi, asovlanib betizgin oqishi aks etgan.

Navbatdagi she'r "Ertangi kun" deb nomlanadi. She'r boshi va oxiridagi to'rt misralik, o'rtada esa ellik bir, o'n bir, oltin uch, o'n yetti, o'n bir satrlik jami yetti qismdan tashkil topgan. Bunday nomutanosiblik lirik qahramon kechinmasidagi erkinlik tufayli yuzaga kelgan. Ushbu she'rda lirik kompozitsiyada qo'llanuvchi usullardan bo'lgan "anaforik kompozitsiya – bir xil jaranglagan tovush, so'z va iboralarning, asosan, misralar boshida, ba'zan esa to'liq misra holicha takrorlanib kelishiga asoslanadi"⁵ va "kompozitsion halqa – kompozitsion bo'laklarni muayyan doiraga

1 Mirtemir. Asarlar. 4 jildlik, 3-jild. – T.: Ga'fur Gulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 68.

2 Mirtemir. Asarlar. 4 jildlik, 3-jild. – T.: Ga'fur Gulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 68.

3 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 68.

4 Mirtemir. Asarlar. 4 jildlik, 3-jild. – T.: Ga'fur Gulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – В. 69.

5 Жамоа. Адабиёт назарияси. – Т.: Фан, 1978. – Б. 308.

olib, lirik she'r qurilishiga o'ziga xos yaxlitlik bag'ishlovchi kompozitsion priyom⁶lar qo'llanilgan. Boshlovchi misra band oxirida yana takrorlansa, halqa deyiladi. She'rda mana shu usuldan foydalanilgan. Quyidagi satrlarda har ikkala usul ham qo'llanilgani ko'rinadi:

*Inson mehnatida rang olur hayot,
Inson mehnatida o'zgarur jahon⁷...*

"Sajda emas" she'ri esa sakkiz misralik o'n to'qqiz band yig'indisi bo'lgan yirik hajmli bitikdir. Unda cho'pon yigitning o'z baxtini topish jarayoni aks ettirilgan. "Qora soch" she'ri sakkiz satrlik olti band birlashuvidan tashkil topgan. Unda Qora sochli malakka oshiqning dil rozlari tasvirlangan. "Bulut" she'ri an'anaviy to'rt satrlik ikki banddan iborat. Sof peyzaj lirikasi namunasi bo'lgan ushbu she'rda Qoraqalpog'istondagi tabiat lavhalari aks ettirilgan:

*Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut,
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?
Pag'a bulut – yaxshi ko'klam elchisi,
Havolarda yomg'ir isi, sel isi⁸...*

Osmondan suzib o'tayotgan oq bulutdan sut yoki qut yog'ishida o'zgacha ma'no bor. Ya'ni sut – chorvachilikning, qut – dehqonchilikning yaxshi bo'lishiga ishora ma'nosida kelmoqda. Qoraqalpoqlarda keng yaylovlar hisobiga chorvachilik asosiy mashg'ulot turi bo'lganidan sut va qut tushunchalari she'r davomida yonmayon qo'llanilgan. Mazkur she'rda shoir anaforik kompozitsiya turidan unumli foydalangan:

*Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut...
Bir qarasang – osmon to'la oqquvlar,
Bir qarasang – baland qorli cho'qqilar,
Bir qarasang – ko'z ilg'amas oq barqut⁹.*

Oq va pag'a bulut tasviri navbati bilan bir oqquv (oq qush)ga, bir baland qorli cho'qqiga, bir oq barqutga o'xshatilgan. "Bir qarasang" anaforasi uchta misraning boshida kelishi orqali ma'no kuchaytirilishiga erishilgan.

Turkumdagi "Tongdan ham chiroyli" she'ri to'rtta to'rt satrlik bandlar yig'masi bo'lib, unda bir go'zal qizning tongdan ham chiroyli ekanligi ta'rifi beriladi:

*Tong shu'lasi sochin har bir tolasi,
Yuzlari go'yoki tog'lar lolasi.
Husni – tong husniday toza va tengsiz
Suluv tabiatning so'lim bolasi¹⁰.*

Ushbu tasvirda istiora, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalardan o'rinli

foydalanilgan. "Suluv yoz" she'ri ham to'rt satrlik besh banddan tashkil topgan. Unda Qoraqalpoq o'lkasi yozining o'zgacha tarovati aks ettirilgan. Turkumdagi so'nggi she'r "Qoraqalpoqda Toshkentni sog'inish" deb nomlangan bo'lib, katta hajmli ushbu she'rda shoir Qoraqalpog'iston safariga yakun yasab, Toshkentga qaytish istagi bilan birga har ikkala maskanning cheksiz o'ziga xosliklarini esga oladi.

Mirtemir mazkur turkumlarda kompozitsiyaning anaforali, yechimli va halqa shaklidagi usullaridan o'rinli foydalana bilgan. Turkum tarkibidagi she'rlarga alohida sarlavhalar tanlangani va ayrimlariga alohida epigraflar bergani ushbu she'rlarning mustaqil asar sifatidagi maqomini ko'rsatgan.

Mirtemir turkumlari tarkibidagi poetik obrazlar ham shoirning g'oyaviy niyatiga xizmat qilgan, chunki ular ham turkum mavzusi va mazmuniga mos ravishda tasvirlanayotgan hudud kishilari yoki majoziy tasvirlarda esa o'sha hudud bilan bog'liq tushunchalar sifatida aks ettirilganligi fikrimiz dalilidir.

"Lirik asarda kompozitsiya ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi qismlar va obrazlar joylashuvi va ijodkor tomonidan o'sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir me'yori va muvofiqligiga rioya qilishdan iborat deb qarash kerak"¹¹. Ma'lumki, kompozitsiya asar strukturasi bilan bog'liq, uning komponentlariga aloqador hodisa. Kompozitsiya – asarning qurilishi, uning tarkibiy qismlarining joylashishi, voqealarni bayon qilish tartibi – asosiy badiiy vositalardan biri bo'lib, yozuvchi orqali asarda ishtirok etuvchi kishilarni xarakterlaydi, o'zini qiziqtirgan hayotiy voqealarni o'zi tushunganicha tasvirlaydi.

Darhaqiqat, kompozitsiya, ijodkorning asar qismlari joylashuvidan, obrazlar talqinidan kelib chiqib, ularning muvofiqlashtirilishi o'z g'oyaviy niyatiga moslash jarayonidir.

Lirik kompozitsiya oldiga ijtimoiy ko'zlanishi, poetik g'oyaning hayotiy vaziyatga asoslanganligi, kompozitsion shaklning ichki qonuniyatlarga buysundirilganligi, lirik asarda shakl va mazmun mutanosibligi, lirik tuyg'uning ifoda shakli uyg'unligi kabi talablar qo'yiladi va sanalmish talablar ijrosi lirik asar badiiyati yuksakligini ta'minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

6 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 310.

7 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 74.

8 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 95.

9 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 95.

10 Mirtemir. Usha kitob. – Б. 96.

11 Камолов Ж. Лирик шеърда композиция. Фил. фан. номз... диссертацияси. – Т., 1970. – Б. 28.

She'riy turkumlarni shakllantiruvchi vositalar tarkibida umumiy lirik qahramon, umumiy kechinma, umumiy joy yoki makon tasvirlanayotgan vaqtdagi davomiylik, shu davr kishilari obrazlari yoki shu muhit tushunchalarining majoziy tasvirlari kabilar mavjud bo'ladi.

Shu ma'noda shoir Azim Suyun qalamiga mansub "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" nomli turkum tadqiq etilganda, uning tarkibidagi o'nta she'rning barchasida lirik qahramon – oshiqona qalb sohibi bo'lgan yigit, tasvirlanayotgan tushuncha – "muhabbat", asosiy poetik obraz esa ma'shuqa ekanligi ayonlashadi. Shoir turkum she'rlariga alohida sarlavhalar qo'ymagan, balki ularni o'ngacha bo'lgan raqamlar bilan belgilagan. Turkumdagi birinchi she'r an'anaviy to'rt qatorlik besh banddan iborat. Bu she'rda shoir anaforik kompozitsiya turidan foydalangan bo'lib, undagi "Seni tanidim-u, muhabbat" misrasi shu zaylda she'r bo'ylab har ikki misraning boshida qaytadan takrorlanib kelgan.

*Seni tanidim-u, muhabbat,
Tanidim gullarning ismini.
Seni tanidim-u, muhabbat,
Yashashga tutindim sig'inib¹².*

Turkumdagi so'nggi o'ninchi she'rda shoir kompozitsion halqa usulidan o'rinli foydalangan. "Men seni tog'larga olib ketaman" misrasi besh qatorlik olti banddan iborat she'rda har bandning boshi va oxirida takrorlanishi orqali asosiy mazmun-mohiyatga urg'u berishga erishilgan:

*Men seni tog'larga olib ketaman,
Men SIRman – asragum, jonim muhabbat!
Yodda tut, men senga bir so'z aytaman,
Senga chin oshiqalar yeturlar faqat!
Men seni tog'larga olib ketaman¹³.*

Ko'rinadiki, bu she'r ham muhabbat tarannumiga bag'ishlangan bo'lib, lirik qahramon yashayotgan talotum dunyoda bunday pokiza tuyg'uni asrashga ehtiyoj borligi tasvirlanadi. Shu sababli shoir uni tog'larga olib borib yashirib qo'ymoqchi. Toki unga faqat chin oshiqlargina mashaqqatlar bilan erishsinlar.

Azim Suyunning "Kuz" deb nomlangan turkumi ham o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, u sakkiz qatorlik o'n sakkiz banddan tashkil topgan. Turkumning lirik qahramoni kuz xayollari bilan band bo'lgan shoirning kuzga mehri alohida ekani bandlar davomida ayonlashadi. Ushbu turkumda ham

shoir she'riy halqa usulidan foydalangan:

*El-yurt ko'chib endi tog' etagiga.
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroq,
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,
Ufq'larga singib ketar oxiri¹⁴...*

Birinchi banddagi sakkiz qatorni she'r so'nggida o'zgartirmasdan to'liq takrorlash orqali kompozitsion yoki she'riy halqa usuli qo'llangan.

Umuman olganda, Azim Suyun ijodidagi "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" va "Kuz" she'riy turkumlarining tarkibidagi she'rlarga alohida sarlavhalar qo'yilmasa-da, ularda lirik qahramon kechinmasining tadriji to'laqonli aks ettirilganligi ko'rinadi.

"O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" turkumidagi asosiy poetik obraz "muhabbat" tushunchasi bo'lgan bo'lsa, "Kuz" turkumida o'z nomidan ham ma'lum bo'lib turgan "kuz fasli" asosiy poetik obraz vazifasini o'taganligidan mazkur turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiy ayonlashadi. Azim Suyun turkumlarda anaforik kompozitsiya, ambey kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion halqa kabi ko'plab kompozitsion usullardan foydalangan.

Xullas, turkumlarning shakliga xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi, kompozitsion vosita yoki usullarning mavjudligi kabilar kirsam, mazmunga xos unsurlar shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan g'oya, mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik va davomiylikdan iborat bo'ladi.

She'riy turkumlarni birlashtiruvchi komponentlar mazmun va shakl dialektikasi asosida shakllantirilgan. Bunday xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi, kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklarni kiritish mumkin.

Mazmunga xos unsurlar sirasiga shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan badiiy g'oya, umumiy mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik kiradi. Sonet turkumlarida ular o'rtasidagi bog'liqlik "tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez" tarzida shakllantirilganida ko'rinadi.

"TUHFAI SOMIY" DA NAVOIY AN'ANALARI

Jaloliddin Jo'rayev - dotsent, f.f.d., O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada "Majolis un-nafois" tazkirasida alohida bir faslda Amir Temur va yigirmanchi ijodkor amirzodalarning shaxsiyati va ijodiga baho berilgan. O'z navbatida ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Ushbu an'ana keyinchalik Somi Mirzo Safaviy tomonidan "Tuhfai Somiy" tazkirasida davom ettirilgan. "Tuhfai Somiy"da "Majolis un-nafois"ga kirgan Sulton Husayn Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Muhammad Mo'min Mirzo temuriyodalarga haqidagi ma'lumotlarni Bobur podshoh, Humoyun podshoh va Askariy Mirzolarga oid fiqralar davom ettirilganligi haqida ma'lumotlar beriladi.

Аннотация: В статье дана оценка личности и творчества Амира Темура и более двадцати творческих амирзаде в отдельном сезоне журнала «Мажолис ун-нафоис». В свою очередь, представлены примеры их работ. Данную традицию позже продолжил Соми Мирза Сафави в тазкире «Тухфай Соми». В «Тухфай Сами» приводятся сведения о Султানে Хусейне Мирзе, Бадруззамоне Мирзе, Фаридуне Хусейне Мирзе, Шахе Гариб Мирзе, Мухаммаде Момин Мирзе, которые вошли в «Маджалис ун-нафаис», и продолжили информацию о Тимуризаде статьями о Бабуре, Хумаюне и Аскари Мирза.

Abstract: The article assesses the personality and creativity of Amir Temur and more than twenty creative amirzads in a separate season of the magazine "Majolis un-nafois". In turn, examples of their work are presented. This tradition was later continued by Somi Mirza Safavi in the tazkir "Tuhfai Somi". "Tuhfai Sami" provides information about Sultan Hussein Mirza, Badiuzzamon Mirza, Faridun Hussein Mirza, Shah Gharib Mirza, Muhammad Momin Mirza, who were included in the "Majalis un-nafais", and continued information about Timurizades with articles about King Babur, King Humayun and Askari Mirza.

Kalit so'zlar: tazkira, an'ana, mirzo, turkiy, hukmdor, tarix, adabiy, temuriy, manba.

Ключевые слова: тазкира, предание, мирза, тюркский, правитель, история, литературный, тимурид, источник.

Keywords: tazkira, tradition, mirza, turkic, ruler, history, literary, timurid, source.

Tarixning turli davrida bir qator sohalarda o'ziga xos an'analar joriy qilingan va bu an'ana keyinchalik qonuniyatga aylangan. Shu ma'noda temuriylar davrida boshlab berilgan adabiy an'analardan biri – Alisher Navoiy tomonidan turkiy tazkiranavislikka asos solinganidir¹. Alisher Navoiy (1441-1501) turkiy tilda tazkira yozish an'anasiga asos solish barobarida Amir Temur va temuriy mirzolar shaxsiyati hamda ijodi xususida ma'lumot beruvchi asar yozishni ham boshlab berdi. Tazkiranavislikning bu jihati keyinchalik bunyodga kelgan boshqa mintaqa mualliflari asarlarida o'z davri hukmdorlari oilasidan yetishib chiqqan ijodkorlar faoliyatini yoritish bilan davom ettirilgan. Ayni chog'da mazkur tazkiralarda davr hukmdorlari orasidan yetishib chiqqan qalam ahllaridan tashqari temuriyodalarga oid qaydlar ham turli darajada o'z aksini topib borgan². Bu an'ananing davomining ilk namunalari safaviylar davri manbalarida ko'zga tashlanadi. Buni Som Mirzoning (1517-

1567)ning "Tuhfai Somiy" (1550) tazkirasida misolida ko'rishimiz mumkin.

Som Mirzo (1517-1567) Safaviy davlati hukmdori – Ismoil Safaviy (1487-1524, 1500-1524)ning o'g'lidir. U hukmdor farzandi bo'lgani bois, alohida ta'lim va tarbiya olgan. Bir muddat Xuroson hokimi (1521-1529, 1533-1535) bo'lgan. Keyinchalik vaqtini ko'proq ijod, qalam ahli bilan suhbat va tazkirasida uchun ma'lumotlar to'plashga sarf qilgan. Som Mirzodan bizgacha "Tuhfai Somiy" (1550) tazkirasida va boshqa manbalar orqali she'riyatidan namunalar yetib kelgan. Chunonchi, Faxriy Hiraviy: "Abulnasr Som Mirzo. Nazmda yaxshi tab'i bor. Mana bu ikkita matla'da uning quvvati va tab'ining latofati zohirdir", – deydi va ikki matlasi va bitta ruboiysini havola qiladi³.

Sodiq Kitobdor esa: "Som Mirzo – bu shahzoda ham marhum shoh (Shoh Taxmosbi) ning inisi edi. Aysh-ishratni sevardi. Bir necha yil Xurosonda hokimlik qildi. Muxtalif nazm va nasr navlarida sho'x va muhkomban bo'lgan.

1 Мухаммад Содик Китобдор. Мажмаъ ул-хавос. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 3 б.

2 Буриев К.Б. Тазкира (Антология) как источник библиографической информации // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2016 / 1 (45). – С. 42–49.

3 Мухаммад Содик Китобдор. Мажмаъ ул-хавос. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 25 б.

12 Azim Suyun. Kuyganim – suyganim. – T.: Faqur Gulom nomidaagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1991. – B. 199.

13 Azim Suyun Usha kitob. – B. 207.

14 Azim Suyun Usha kitob. – B. 122.

“Tuhfai Somiy” otlig’ bir shoirlar tazkirasi yozdi. Oxirda Shayx Sayfiddin quddisa sirruhu-l-aziz maqbarasiga chekinib, shoirlar mashg’ul bo’ldi”, – deydi va bir ruboiysini taqdim etadi.

“Tuhfai Somiy”ning alohida “Zayl” deb nomlangan xotima qismida muallif o’z asarlaridan namuna keltirgan. Bular bilan birga tazkiraning ko’pgina o’rinida Somiy biror bir ijodkor asari xususida so’z yurita turib “she’rning shu bayotini mana bunday o’zgartirsa, yaxshi bo’lardir” yoki “ushbu o’rinda saktalik bor” deb ko’rsatib o’tadi. Shoirlar ijodidan keltirilgan namunalarning badiiyati va vazn xususiyatiga alohida baho berib o’tadi. Ushbu jihatlar Som Mirzoning adabiyotdan chuqur bilimiga egaligini bildiradi.

Qayd qilib o’tganimizdek, davlat ishlari bilan bandlik davri va keyinchalik qalam ahlari bilan bo’lgan suhbatlar natijasida o’z davri adabiy jarayonini yorituvchi tazkira bitilmaganini ko’rib, bu bo’shliqni to’ldiruvchi asar tartib berish istagi shakllangan. Shunga ko’ra, o’zigacha tazkira tuzilgan Jomiy, Davlatshoh va Navoiy singari mualliflarning asarlari xususiyatini yaxshi o’rgangan va “Majolis un-nafois” shaklida asar bitishga qaror qilgan.

Jumladan, bu to’g’rida asar muqaddimasida Jomiyning (1414-1492) “Bahoriston” (1487), Davlatshohning (1435-1495) “Tazkirat ush-shuaro” (1488) va Navoiyning (1441-1501) “Majolis un-nafois” (1490-91) kabi tazkiralarda safaviylar davlati bunyodga kelgandan keyin yetishib chiqqan ijodkorlar haqida ma’lumot yo’qligini qayd qilib, ular haqida yozishni maqsad qilganini bildiradi. Yana davom etib: “... “Tuhfai Somiy” deb nomlangan bu qimmatli sahifa bir tanbeh, yetti sahifa va bitta xotimani o’z ichiga oladi”, – deb yozadi⁴. Shunga ko’ra, tazkiraning birinchi sahifasi “Mag’fur hazrat sohibqironning farxundamol ahvolidin bir bo’lak va hozirda sulton bo’lgan avlodi va farzandlari zikrida”, Ikkinchi sahifa “Ulug’ sayyidlar va ifodate’lom ulamo zikrida”, uchinchi sahifa “Karamli vazirlar va boshqa qalam arbobi zikrida”, to’rtinchi sahifa “Garchi shoir bo’lmasalar ham ba’zida tillari she’r aytishga ochilgan ulug’lar va vojib ut-ta’zimlarning zikrida”, beshinchi sahifa “Iste’dodli shoir va balog’atgustar so’zamollar zikrida”, oltinchi sahifa “Turklar tabaqasi va ularning iste’dodli shoirlari zikrida”, yettinchi sahifa “Boshqa avom va so’zning oxiri zikrida” deb nomlangan. Xotimada Som Mirzo o’zi

haqida ma’lumot beradi va she’rlaridan namunalar keltiradi.

“Majolis un-nafois” sakkizta majlisga bo’lingan: “Avvalgi majlis. Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlarini sharafiga musharraf bo’lmadim”, “Ikkinchi majlis. Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardin ba’zining mulozamatig’a kichiklikda yetibmen va ba’zining suhbatiga yigitlikda musharraf bo’libmen, alar sitta va tis’ina va samona mia tarixidakim, bu muxtasar bitiladur, bu fano domgohidin baqo oromgohiga boribdurlar”, “Uchinchi majlis. Alar zikridakim, holo zamon sahoifida mo’iniy abkori alarning Daqiq tab’lari hullaboflig’idin nazm libosi kiyadur, nazm libosi alarning amiyq zihnlari mo’y shikoflig’idin san’at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba’zining mulozamatig’a musharraf va sarbaland va ba’zining musohabatidin xushnud va bahramanddurbiz”, “To’rtinchi majlis. Asr fuzalosi zikridakim, she’rga mashhur va mubohiy emastular, ammo allardin nazm tariyqida ko’p latoyif zohir bo’lur va ko’p zaroyif bosh urar”, “Beshinchi majlis Xurosonning va ba’zi yerning mirzodalari va soyir ozodalari zikridakim, tab’ salomati va zihi istiqomati alarg’a boisi nazm bo’lur, ammo mudovamat qilmaslar”, “Oltinchi majlis Xurosondin o’zga mamolik fuzalo va zurafosi zikridakim, bu asrda holo bordurlar va har qaysi o’z xo’rdi holig’a ko’ra shiringuftor va sohibdevon va ash’ordurlar”, “Yettinchi majlis. Salotini izom va avlodi vojub ul-ehtimolari zikridakim, ba’zi yaxshi mahallarda xub bayt o’qubturlarkim, filhaqiqat o’zlari aytqondek xubdur va ba’zi nazm latoyifiga mashg’ul bo’lubturlarkim, ul dag’i matlub va marg’ubdur”, “Sakkizinchi majlis. Sulton sohibqironning latif tab’i natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra’nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo’stonida ranginlig’ va ravonlig’din gul’uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig’ va ranglikdin sarvi ozodedur, gulxad” tarzidagi bo’limlarga ajratilgan.

Ko’rinib turganidek, “Tuhfai Somiy” mundariyasi hukmdor ijodkorlarga bag’ishlangan alohida bobning borligi bilan “Majolis un-nafois”ga o’xshab ketadi. “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida Temur Ko’ragon, Xoqoni Said Shohrux Mirzo, Abobakr Mirzo, Sulton Iskandar Sheroziy, Xalil Sulton,

Ulug’bek Mirzo, Boysung’ur Mirzo, Bobur Mirzo, Abdulatif Mirzo, Sayid Ahmad Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Boyqaro Mirzo, Kichik Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Shoh G’arib Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Boysung’ur Mirzo, Sulton Mas’ud Mirzo, Sulton Ali Mirzolar haqida gap boradi⁵.

“Tuhfai Somiy”ning “Mag’fur hazrat sohibqironning farxundamol ahvolidin bir bo’lak va hozirda sulton bo’lgan avlodi va farzandlari zikrida” – “Sultonlar zikrida” nomli birinchi sahifada safaviylar sulolasidan bo’lgan shoirlar bilan bir qatorda Sulton Husayn Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Shoh G’arib Mirzo, Muhammad Mo’min Mirzo, Bobur podshoh, Humoyun podshoh, Askariy Mirzo kabi temuriyodalar zikr qilinadi. Som Mirzo bu tarzda kamchilik temuriy shahzodalar haqida ma’lumot berganini muqaddimada safaviylar saltanatining bunyodga kelgandan keyin maydonga chiqqan ijodkorlar faoliyatini yoritishga e’tibor qaratishni maqsad qilgani bilan bog’lash mumkin. Shunga ko’ra, “Tuhfai Somiy”ga Sulton Husayn va Bobur podshoh hamda ularning ayrim ijodkor avlodlari haqidagi ma’lumotlar berilgan. Chunonchi, Sulton Husayn to’g’risida: “Sulton Husayn Mirzo – podshohi adolatgustar va shahriyori ra’iyatparvar edi. Davlatining bahor ayyomi bahor ayyomidek xurram va xurramlikda saltanati ayyomiga o’xshash. Saltanati hangomi xurramlikka o’xshash g’amdan uzoq va takallufsiz madhi yoyilgan bo’lib, u muvofiq bo’lganlarga oz podshoh muyassar bo’lgan. Xayr imoratlar, ulamo va ilm toliblariga e’tibor, uning zamonidagidek biror vazifaga mas’ul bo’lgan o’n ikki ming olim, shuningdek, shahar ma’murligi, ibodat qiluvchilarga qulaylik, hunar va she’r ahli tarbiyasi nafaqasining qiyosini qilib bo’lmaydi”, – deb hukmdorlik faoliyatini baholaydi. Shundan keyin uning hukumatga kelish tarixiga to’xtaladi. O’z navbatida uning adabiy faoliyatiga baho berish uchun anchagina o’rin ajratgan. Nasr va nazmdagi qudratining yuksakligini aytib o’tib, “Majolis al-ushshoq” tazkirasi uning qalamiga mansubligi qayd qilgan. Shu bilan birga o’sha o’rinda: “... nasabi silsilasi Eron va Turon hukmdori Amir Temur Ko’ragonga yetib boradi”, – tarzida hurmat bilan tilga oladi⁶.

Sulton Husayn avlodlari haqida gapirib, Badiuzzamon Mirzoning sheriklik bilan davlatni

boshqarishi oqibatlarini taassuf bilan eslaydi. Mag’lubiyatga uchragan mirzoning safaviy hukmdorlar tomonidan hurmat bilan qabul qilingani, Tabrizdagi Shanbi G’ozon mavzuida qo’nim topgani, keyinchalik Sulton Salimning taklifiga ko’ra usmonliklar davlatiga ketishi, u yerda toun kasalligidan vafot etishi xususida xabar beradi⁷.

Faridun Husayn Mirzoning harbiy salohiyati, shijoati va hukumatni qayta tiklash yo’lidagi urinishlari va halokatli taqdirini qalamga olgan. Shoh G’arib Mirzo adabiy merosidan namunalar keltiradi⁸.

Badiuzzamon Mirzoning o’g’li – Sulton Husaynning nabirasi Muhammad Mo’min Mirzoning hayot yo’li va taqdiri keng ko’lamda yoritiladi. Xususan, Mo’min Mirzo otasi va bobosi o’rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilikning qay tarzda qurboni bo’lganiga e’tiborini qaratadi. Muzaffar Husayn Mirzoning onasi – Xadicha begimning bu ishga aloqadorligini qayd qilib, uni qoralaydi. Tazkirada qolgan temuriy ijodkorlarning siyosiy va adabiy faoliyati ham shu tarzda yoritilgan.

“Majolis un-nafois”da Sulton Husayn she’riyati alohida majlis doirasida batafsil ko’rsatib berilgan bo’lsa-da, Som Mirzo kabi siyosiy faoliyatiga to’xtalmagan.

Bobur haqida: “Bobur podshoh kasir ul-ehson – Amir Temur Ko’ragon dudmonidan va uning nasabi shunga ko’ra, Bobur bin Umarshayx bin Sulton Abusa’id bin Mironshoh bin Amir Temuri mazkurning saxovat va shijoat ovozi a’lo va tafakkur qulog’iga yetgan. Ehsan dasturxonni ro’zgor yuziga tomon tortib, davomli aysh va gulandom go’zallar majlisilari bilan nihoyatda mashhur edi. Sana arba’a va tis’i mia (904/1498-99)da Shaybek Shayboniy va uning o’rtasida voqe’ bo’lgan juda ko’p muhovaradan keyin Movarounnahr mulki uning tasarrufidan chiqib ketdi. Kobul va uning nohialari bilan qanoatlandi. Sana sab’a ‘ashara va tis’i mia (917/1511-12)da mag’fur sohibqironning yordami bilan yana bir marta Movarounnahrni egalladi. Ozroq vaqtdan keyin o’zbek sultonlari unga hujum qilganda, u mulkdan kechdi va Kobul tomonga qaytib, jahongirlik bayrog’ini Hind mamlakati tomonga tikdi. U yerning podshohini yenggandan keyin, Hindistonning tasarrufi doirasiga kiritgan ulug’ shaharlaridan bo’lgan Agrani dor us-saltana qildi. U mamlakatning fathi chog’ida

4 Som Mirzo Sa’faviy. Tuhfai Somiy. UZR FA Abu Rayxon Beruniy nomiдаги Шарқшунослик институти асосий фонди. 57-рақамли қўлёзма. 36-4а

5 Алишер Навоий. Маҷолис ун-наfois. –Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1966. –168-178б

6 Муҳаммад Содиқ Китобдор. Маҷмаъ ул-хавос. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. –126-136.

7 Муҳаммад Содиқ Китобдор. Маҷмаъ ул-хавос. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. –116-126.

8 Муҳаммад Содиқ Китобдор. Маҷмаъ ул-хавос. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. –126-136.

juda ko'p zar-u zavar, nafis mato va gavhar u bilan borgan lashkar qo'liga tushdi. Jumladan, aytishlaricha, o'n uch man olmos bo'lib, qolgan narsalarni shunga qiyoslash mumkin. Mashhur g'alabadan keyin kamoli shavkat va qudratda ro'zgor o'tkazdi. Sana sab'a va salasiyn va tis'a mia (937)da fano to'shagini baqoga tomon tortdi⁹, – deydi va uning bir turkiy matla'sini keltiradi.

Humoyun va Askariy Mirzolar haqida ham bir qancha ma'lumotni keltirgan. Jumladan, Humoyunning hukmdorlik davridagi faoliyati, mag'lubiyatga uchrashi, yana qayta hukumatni qo'lga olish tarixi muxtasar tarzda tasvirlab berilgan¹⁰. Askariy Mirzoning ham Bobur podshoh avlodidanligini aytib, akasiga qarshi kurashib, oqibat mag'lub bo'lishi va hukmdor tomonidan gunohlaridan o'tishi xususida so'zlaydi¹¹.

Bulardan keyin tartib berilgan Faxriy Hiraviyning (tug'ilgan yili 1497-98) "Ravzat us-salotin" tazkisasi (1551-1562) o'z oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra, hukmdor va amirlar ijodini yoritishga bag'ishlangan. Shu bois uning debocha va yetti bobdan iborat mundariyasi quyidagicha: 1) Debocha, 2) Birinchi bob she'rning nomlanish sababi va Bahrom Go'rning ahvoli va fors nazmining boshlanishi, 3) Ikkinchi bob nazmga iltifot ko'rsatgan o'zbek va mo'g'ul xonlari ahvoli bayoni, 4) Uchinchi bob she'rga mayl ko'rsatgan va (she'r) aytgan Samarqand va Xurosonning Amir Temur Ko'ragon avlodidan bo'lgan sultonlari zikrida, 5) To'rtinchi bob gohida iltifot nazari bilan nazmga mashg'ullikka buyurgan Iroq va Rum salotini ahvoli bayonida, 6) Beshinchi bob nazmga mayl ko'rsatgan Hindiston sulton va podshohlarining zikri, 7) Oltinchi bob nazmga mayl ko'rsatgan saltanatosor amirlarning ahvoli zikri, 8) Yettinchi bob navvobi komyobning zikri jamili, onhazratning davlati ro'zafzunining duosi va malikul-vahobning inoyati bilan kitob xatmi deb nomlangan bo'limlardan iborat. Ko'rinib turganidek, Faxriy o'zidan oldingi tazkiranavisdan biroz farqli tarzdi temuriy ijodkorlarni alohida bob doirasida yoritishga harakat qiladi. "Ravzat us-salotin"da Xalil Sulton, Sulton Sikandar Sheroziy, Abobakr Mirzo, Ulug'bek Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Bobur Qalandar, Abdullatif Mirzo, Said Ahmad Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Xoqoni mag'fur –

Sulton Husayn Mirzo, Abu Bakr Mirzo bin Jo'ki Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boyqaro Mirzo, Sulton Mas'ud Mirzo, Mirzoi Soniy, Sulton Ali Mirzo, Xon Mirzo, Sulaymonshoh Mirzo, Mirzo Ibrohim, Kichik Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Sulton Muhsin Mirzo, Muhammad Mo'min Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh, Muhammad Nosir Mirzo, Muhammad Humoyun podshoh, Komron Mirzo, Muhammad Askariy Mirzo, Muhammad Hindol Mirzo, Nosir Mirzo singari shahzodalarga bag'ishlangan fiqralar mavjud¹². Bu fiqralar Alisher Navoiy va Som Mirzo asarlari bilan qiyoslaganda Faxriy Hiraviy Alisher Navoiy va Som Mirzo asarlariga kirmagan temuriyozdalar haqida ma'lumotlarni kiritgan. Ayni chog'da Faxriy mazkur muallif bayon qilgan o'rinlarni takrorlaydi. Xususan, "Majolis un-nafois"dagi ma'lumotlarning aksari Faxriy Hiraviy tomonidan takrorlansa, Bobur va uning sulolasidan chiqqan ijodkorlar haqidagilar yangilik sanaladi. Shuningdek, Som Mirzo asarlaridan ham ba'zi farqli jihatlar ko'zga tashlanadi.

Bular bilan birga Navoiy, Som Mirzo va Faxriy Hiraviylar tomonidan temuriyozdalar ijodidan keltirgan namunalar ham turlicha. Masalan, Navoiy qayd qilganimizdek, Sulton Husayn haqida alohida majlisni ajratib, she'rlaridan ko'plab namunalar va adabiy faoliyati bilan bog'liq voqealarni bayon qiladi. Som Mirzo esa, "Az g'amat maro na tan, na joni monda ast" misrasi bilan boshlanadigan to'rt baytli g'azali hamda quyidagi forscha va turkiy baytlarini keltirgan:

*Jono, jafu baroi vafo mikashim mo,
Tarki vafo mak'onki, jafu mikashim mo.
Naqqoshi Chin chu suratash ovarda nazar,
Zad bar zamin qalamki, cheho mikashim mo.*

Mazmuni:

*Jono, biz vafoni deb jafu chekarmiz,
Vafoni tark etmaki, jafu chekarmiz
Chin naqqoshi suratishi oldimga keltirdi,
Qalamni yetga tashlab, dedi ne chekarmiz.
Sabza xating savodi la'li xandon ustina,
Xizr go'yo soya solmish obi hayvon ustina.
Husn aro sen komilu Shirin-u Layli shuhrati,
Ishq aro men zor o'lub Farhod-u Majnun
tuhmati¹³.*

Faxriyda esa, Som Mirzo tomonidan

9 Muḥammad Sodiq Kitobdor. *Majmaʼ ul-xavos*. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2019. – 146-156.

10 Muḥammad Sodiq Kitobdor. *Majmaʼ ul-xavos*. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2019. – 156-16a

11 Muḥammad Sodiq Kitobdor. *Majmaʼ ul-xavos*. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2019. – 166-17a

12 Faxriy Hiraviy. *Ravzat us-salotin*. Javoḥir ul-ajoiyb. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2014. – 42-75

13 Som Mirzo Saʼvaviy. *Tuḥfa Somiy*. Uʼzr FA Abu Rayḥon Beruniy nomi daḡi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 57-raqamli kʼlʼzma. 106-116

keltirilgan "Az g'amat maro na tan, na joni monda ast" g'azalining o'zi taqdim qilingan bo'lib, g'azalning birinchi misrasi "Az g'ami ishqtat maro na tan, na jon monda" shaklida keltirilib, radif "moda ast" emas, balki "moda" deb ko'rsatilgan¹⁴. Bundan tashqari, Som Mirzo tazkirasida g'azal to'rt baytdan iborat deb ko'rsatilgan. Faxriy tazkirasida g'azal besh bayt. Shuningdek, ikki tazkiradagi mavjud matnda ham farqlar uchraydi.

Alisher Navoiy Badiuzzamon Mirzo haqida: "Tab'i ham nazm uslubida muloyimdur. Bu matla' aningdurkim", – deb quyidagi forsiy baytni ko'rsatadi:

*Mahi man, be guli ro'yat dilam xum gashta
chun lola,
Jigar ham az g'ami hajrat shuda pargola-
pargola.*

Mazmuni:

*Ey oyim, gul yuzingsiz qalbim loladek qon
bo'ldi,
Jigar ham hijroing g'amidan pargora-pargola
bo'ldi.
Yana "Bu turkiy matla' dag'i tarkibda xub va
holatda marg'ub voqe' bo'lubturkim" ta'rifidan
so'ng:*

*Ey sabo, gar so'rsa holim shammai ul sarvinoz,
Evrulub boshig'a men sargashtadin yetkur
niyoz.*

baytini namuna sifatida berib o'tgan¹⁵.

Som Mirzo Badiuzzamon Mirzoning mana bu matla'larini berishni ma'qul bilgan:

*Mahi man, bigul ruyat dilam xun gashta chun
lola,
Jigar ham az g'ami hijron sho'da pargola-
pargola.*

Mazmuni:

*Ey oyim, gul yuzingsiz qalbim loladek qon
bo'ldi,
Jigar ham hijroing g'amidan pargora-pargola
bo'ldi.*

Bayt:

*Chu ruxsori tu az nushidani may lolagun
gardad,
Daruni man sahvov to lab g'arqi xun gardad.*

Mazmuni:

*Sening yuzing may ichganingdan lolasifat
bo'ladi,
Mening ichim sahvoga o'xshab og'zimgacha
qon bo'ladi¹⁶.*

Faxriy Hiraviy Badiuzzamon Mirzoning o'g'liga bag'ishlab yozgan marsiya g'azalining matla'si keltirish bilan kifoyalangan:

*Vazidi, ey sabo, barham zadi gulhoi ra'noro,
Shikasti z-on miyon navrastai shoxi guli moro.
Ya'ni:*

*Ey sabo, esding va ra'no gullarni to'zg'itding,
O'rtada bizning gulimizning navrasta shoxini
sindirding¹⁷.*

Som Mirzo Shoh G'arib Mirzoning:

*Bozam baloyi jon g'ami on mahpora sho'd,
Ey voy, on marizki ranjash du bora sho'd.*

Mazmuni:

*Yana ul oyning g'am jonimga balo bo'ldi,
Ey voy, ul dardning azobi qaytadan bo'ldi¹⁸.*

Forsiy g'azalining matla'si bilan kifoyalangan bo'lsa, Faxriy uning "yana" radifli "Bir qaro ko'z bag'ri toshning xoksorimen yana" misrasi bilan boshlanadigan besh baytli turkiy g'azalini to'liq beridi va mana bu forsiy matla'si mashhurligini qaydadi:

*Do'ston, har gah guzar sui mazori man kunid,
Joiy takbiram duoi joni yori man kunid.*

Ya'ni:

*Do'stlar, qachon mening mozorim tomonga
o'tsangiz,
Meni eslash o'rniga yorimning joniga duo
qiling.*

Ushbu bayt Navoiyga ham ma'qul kelgani sababli: "Bu matla' ham bag'oyat oshiqona va muxlisona va muassrona voqe' bo'libturkim", – deya ta'riflaydi¹⁹.

Som Mirzo Boburshohning siyosiy faoliyatini yoritishga ko'rproq o'rin berib, she'riyatiga deyarli ta'rif bermay "Bu turkiy matla' unga mansubdir", – deydi:

*Takalluf har necha suratg'a bo'lsa, ondin
ortuqsen,
Sani jon derlar, ammo betakalluf jondin
otruqsen²⁰.*

Faxriy esa: "Va musiqa ilmida benazir edi. Va turkiy va forsiy ash'orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi. Va "Mubayyin" degan fiqhga oid nazm qilgan kitobi nihoyatda yaxshi bitilgan.

Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she'riyatga moyilroq edi. She'rlari devoni odamlar orasida ko'p bo'lganligi sababli, mana bu turkiy matla'ni undan ushbu o'rinda

14 Faxriy Hiraviy. *Ravzat us-salotin*. Javoḥir ul-ajoiyb. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2014. – 53-54

15 Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois*. – Toshkent: Badiiy adabiyet nashriyati, 1966. – 174-175

16 Som Mirzo Saʼvaviy. *Tuḥfa Somiy*. Uʼzr FA Abu Rayḥon Beruniy nomi daḡi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 57-raqamli kʼlʼzma. – 11b-12b

17 Faxriy Hiraviy. *Ravzat us-salotin*. Javoḥir ul-ajoiyb. – Toshkent: Mumtoz sʼz, 2014. – 60-61

18 Som Mirzo Saʼvaviy. *Tuḥfa Somiy*. Uʼzr FA Abu Rayḥon Beruniy nomi daḡi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 57-raqamli kʼlʼzma. – 13b

19 Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois*. – Toshkent: Badiiy adabiyet nashriyati, 1966. – 175

20 Som Mirzo Saʼvaviy. *Tuḥfa Somiy*. Uʼzr FA Abu Rayḥon Beruniy nomi daḡi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 57-raqamli kʼlʼzma. – 156

yaxshi niyat va tabarruk tariqasida ko'chirildi", – deydi va Som Mirzo tazkirasidagi turkiy matla'ni takrorlab, forsiydagi mahoratini ham ko'rsatib qo'yish uchun quyidagi forsiy matla'ni keltiradi:

*Halok mekunadam furqati tu, donistam,
Va garna raftan az in shahr metavonistam.
Ya'ni:
Sening furqating meni halok qilardi, bilardim,
Garchi bu shahardan ketishni bilardim²¹.*

Som Mirzo va Faxriy Hiraviylar Humoyun Mirzo ijodiga oid faqat forsiy misralar asosida baho bergan bo'lsa, Sodiq Kitobdor (1532-1613) "Majma' ul-xavos"da (1597-98): "Humoyun podshoh – nihoyatdin mutajovuz, karim ul-tab' va saxovatpesha va xushsaliqa podshoh erdi. Kitobxona ziynati va ravnaqig'a ko'p moyil erdi. Abulg'oziy Sulon Husayn Mirzodan so'ngra Chig'atoy podshoxdarida Humoyun podshohdek xushtab' podshoh oz voqe' bo'lupdur. Qarindoshi Komron Mirzodan hazimat qilup shohi jannatmakon zilola jalolig'a malja' bo'ldi. Qizilbosh askari nusratfarjomi imdodi bila xasmni mag'lub qilup, Hind avbobin maftuh qiloldilar. Tab'i she'rda ukush muloyim voqe' bo'lupdur. Bu ikki turkiy baytining ko'p shuhrati bor va mushhur bo'lupdurkim", – deb uning qayidagi turkiy ruboiysini taqdim qiladi:

G'ariblig' g'amidin mehnatu malolim bor,

*Bu g'amdin o'l makka yetdum, g'arib holim bor.
Visoli davlatidin ayrilib men mahzun,
Tirikmenu bu tiriklikdin infolim bor²².*

Xulosa qilib aytganda, Som Mirzoning "Tuhfai Somiy" tazkisasi temuriy shahzodalar shaxsiyati va adabiy merosiga oid qimmatli manba. Som Mirzo Alisher Navoiy boshlab bergan tazkirachilik an'anasini davom ettirib, o'z davri hukmdorlari bilan bir qatorda temuriy shahzodalar adabiy faoliyatini yoritish davom ettirgan ilk muallifdir. "Tuhfai Somiy"da Navoiyning "Majolis un-nafois"idan farqli tarzda temuriy shahzodalarning siyosiy faoliyatiga ko'proq o'rin ajratgan.

Navoiy, Som Mirzo, Faxriy Hiraviy va Sodiq Kitobdorning tazkiralari qiyosi, ularda temuriy mirzolarga oid ma'lumotlar hamma hollarda ham bir-birini takrolamasligi ko'rsatadi. Tazkiralarning tuzilishi va ularda berilgan ma'lumotlar mazkur sulola vakillari ijodiga keyingi davr adabiy doiralardagi munosabatning o'zgarib borganini dalillaydi. Ushbu manbalarda keltirilgan misralarning tadqiqi asosida temuriy ijodkorlar she'riyatining mukammal matn va mundarijasini tiklash, temuriylar davri tazkiranasi va an'analari mavzuisida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ALISHER NAVOIY "XAZOYIN UL-MAONIY" KULLIYOTIDA OBRAZ-TIMSOLLAR MUVOZIYLIGI

Xolyigit Xolmurodov - f.f.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti,

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kirgan devonlarida obraz-timsollarning muvoziy qo'llanilishi, Alisher Navoiy she'riyatida muvoziy qo'llangan obraz-timsollarning ishq-muhabbat, oshiqlik martabalarining yuqori komil ishq darajasiga ko'tarilganligi poetik muammo sifatida tadqiq etiladi. Unda shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi devonlarida Farhod va Majnun, Shirin va Layli obraz-timsollari orqali ifodalangan g'oyaviy-badiiy manzaralar tahlil orqali ochib beriladi.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается параллельное использование изображений и символов в диванах Алишера Навои, входящих в сборник «Хазайн уль-Маани». В поэзии Алишера Навои как поэтическая проблема рассматривается подъём героев любви и романтики на высокий уровень совершенной любви. В ней посредством анализа раскрываются идейно-художественные сцены, выраженные через образы Фархада и Меджнуна, Ширин и Лейли в сборнике поэта «Хазайн уль-Маани».

Abstract: This scientific article examines the parallel use of images and symbols in the devan of Alisher Navoi, included in the collection "Khazain ul-Maani". In the poetry of Alisher Navoi, the rise of heroes of love and romance to a high level of perfect love is considered as a poetic problem. It reveals through analysis the ideological and artistic scenes expressed through the images of Farhad and Majnun, Shirin and Leili in poet's collection "Khazain ul-Maani".

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy she'riyati, mumtoz an'ana, obraz-timsollar, muvoziy, badiiy detal, poetik funktsiya, adabiy qonuniyat, talqin.

Ключевые слова: поэзия Алишера Навои, классическая традиция, образы и символы, параллелизм, художественная деталь, поэтическая функция, литературная закономерность, интерпретация.

Keywords: poetry of Alisher Navoi, classical tradition, images and symbols, parallelism, artistic detail, poetic function, literary pattern, interpretation.

Alisher Navoiy she'riyatida Farhod va Shirin timsollari o'zaro va alohida qo'llanilishidan tashqari boshqa shu tipdagi timsollar bilan ham ko'p bor muvoziy qo'llangan. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida Farhod va Shirin timsollarining Layli va Majnun, Vomiq va Uzro timsollari bilan parallel ifodalanishining turli ko'rinishlari mavjud. Taniqli adabiyotshunos olim Alibek Rustamov ta'kidlaganidek, "Navoiyning asarlari barcha jihatdan nihoyat darajada rang-rangligi bilan ajralib turadi. Ularda voqea, qahramon, tabiat, narsa, buyum, inshoot, makon va zamon ham, tasvir va bayon ham, vazn, qofiya, saj' va badiiy vositalar ham har asarda: har bobda, har faslda, har bayt va har jumlada turlichadir"¹. Shu ma'noda Alisher Navoiy she'riyatida Farhod va Shirin timsollari talqini ham nihoyatda rang-barang ma'no kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy lirikasi turli janr va rang-barang mavzularda yozilgan she'rlarni qamrab olgan bo'lib, bu ulkan merosning asosiy mavzusi ishq hisoblanadi. Ishq-muhabbat mavzusi irfoniy she'riyatning yetakchi mavzularidan ekan, Alisher Navoiy she'riyatini busiz tasavvur etish qiyin. Qalbi ma'rifatga to'lgan shoirning tuganmas ilhom manbasi ishq, u komillik sirlari kaliti hisoblangan. Taniqli olim N. Komilovning yozishicha, "Ishq insonni ma'rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, xoli etuvchi muqaddas olov"². Navoiy lirikasida Farhod va Shirin, Layli va Majnun juftligining bir bayt doirasida ifodalanishi, asosan, g'azallarda uchraydi, boshqa she'riy janrlarda kuzatilmaydi:

Husn aro mag'lub anga Shirin-u Laylo uylakim,

21 Фахрий Хиравий. Равзат ус-салотин. Жаҳоҳир ул-ажойиб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – 68
22 Муҳаммад Содиқ Китобдор. Мажмаъ ул-хавос. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 18-19

1 Рустамова А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1979. 126 бет.
2 Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. 43 бет.

*Ishq aro Farhod-u Majnun ham aning shaydosig'a*³.

Adabiyotshunos U. Qobilov "Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar muvoziy tasvirlanganda ular tarixi va tavsifi bilan bog'liq rangin talqinlar lirik tuyg'ularga tamsil etiladi. Bunda obrazdan ko'ra ularga daxldor lavha va detallar talqiniga e'tibor qaratiladi. Ular goh oshiq, goh ma'shuq obrazlari tabiatida aks etadi. Bunda muvoziy obrazlar ham, timsol va she'r ruhiyatida ham mantiqiy bog'liq, badiiy-estetik muvozanat ta'minlanadi...⁴, - deydi. Shoir ikki doston qahramonlarini tilga olish bilan ularning sevgi tarixini sahifalaydi. Shuningdek, yor husnining benihoya go'zalligini ko'rsatish maqsadida Shirin va Layli timsollarini muvoziy qo'llaydi, lirik oshiqni samoviy oshiqlar bo'lgan Majnun va Farhod obrazlari darajasiga ko'taradi. Fikrimiz tasdig'i uchun mana bu baytga e'tibor beraylik.

*Dilbarim Shirin bila Laylig'a gar aqron esa,
Men dog'i Majnun birla Farhodg'a amsolmen*⁵.

Bunda shoirning lirik qahramoni o'z dilbarini Shirin va Layliga yaqin (yondosh, yoshdosh)ligini ta'kidlash bilan o'zining ham Majnun va Farhodning timsoli ekanligini eslatmoqda. Alisher Navoiy she'riyatida Farhod-Majnun, Shirin-Layli timsollari muvoziyligining har biri ma'lum poetik maqsadda muayyan vazifa bajarishga qaratilgan. Shu sabab uning asosiy qahramoni oshiqdir. Oshiqning sevgisi tasviri shoirishqiy lirikasining asosiy mavzuidir⁶. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan g'azallarda Farhod va Shirin, Layli va Majnun timsolarining bir baytda muvoziy(parallel) qo'llanilishiga qator baytlar topiladi. Bu timsollarning bir baytda kelishi "Navodir ush-shabbob" devonida 8, "Badoye' ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar" devonlarida esa 6 o'rinda, jami 14 bor kuzatildi. Agar Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan she'rlari jamlangan "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga nazar solinsa, muvoziy timsollar ichida Farhod va Majnun timsollarining parallel ifodalanishi eng ko'p bor kuzatiladi. Shoir bu timsollarga "G'aroyib us-sig'ar" devonida 16, "Navodir ush-shabbob" da 26, "Badoye' ul-vasat" da 30 hamda "Favoyid ul-kibar" devonida 27 bor murojaat

etadi. Bu esa she'riyatda Farhod va Majnun obraz timsollariga ortilgan yukning, e'tiborning salmog'i balandligini ko'rsatadi. Ma'lumki, Alisher Navoiy she'riyatida ishq-muhabbat, oshiqlik martabalari yuqori darajaga ko'tariladi. Adabiyotshunos S. Olimning e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida Farhod va Majnunni "ma'shuq vujudi birla qoyim" bo'lgan oshiqlar deb ta'riflaydi: "Bu ta'rif qilg'on ishq va bu bayon etgan ahli ishq ma'shuq vujudi birla qoyimdurlar va bu ado topqon holotg'a mansubluklari doyim". Shu ma'noda ushbu oshiqlar ishq turlarining biriga xoslangandir⁷.

Alisher Navoiy she'riyatida Farhod va Majnun timsollari aksariyat ishqiy komil bo'lib, fanoga yetgan oshiqlar sifatida talqin qilinadi. Shoir nazarida oshiqqa fano yo'lida Farhod va Majnundek yaxshi hamrohlar topilmaydi:

*Fano yo'lig'a tushtum etgaliy Farhod-u
Majnung'a,
Nechuk yo'l bormayinkim, yaxshi hamrahlarg'a
qotildim*⁸.

Fano yo'lga tushgan oshiq hamrohlariga talpinadi, ular ortidan borishni maqsad qiladi. Fano – yo'q bo'lish, baqosizlik; o'zlikni yo'qotib butun borliqdan kechib, ilohiyotga singish⁹. Fano yo'li oshiq-qul "men"ligining unitilishi, yo'q bo'lishi, uning Allohning go'zal sifatleri va ilohiy fe'lga erishishi, ya'ni bashariy irodaning ilohiy ilohiy irodaga ko'chishini anglatadi¹⁰. Baytda lirik qahramonning ma'nan kamolotga erishish istagi o'z-o'zidan ayon bo'lgan. Bu uning ular yurgan yo'lga, ular qadam qo'ygan maskanga havas qilganida ko'rinadi:

*Maqomi gah balo tog'idurur, gohi fano dashti,
Ki ishq ichra berur Farhod-u Majnundin nishon
ko'nglum*¹¹.

Shoir Farhod va Majnunning ishq manzili balo tog'i va fano dashtida ekanligini ta'kidlar ekan, o'z ko'nglining o'sha manzillar tomon borishida faxr hissini tuyadi, qalbi o'sha oshiqlar ruhida porlaydi. Umuman bu timsollar uchun oshiqlik fikriy-shuuriy mantiqqa ko'ra dasht-u tog'da kechadi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas. Shoir har safar mazkur timsollarga murojaat etganda, asosan, shu mantiq doirasida aylanadi. Lirik qahramon

3 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 4-jild. Navodir ush-shabbob. – Toshkent: Fan, 1989. 409 bet.

4 Qobilov U. U'zbek adabiyatida nubuvvat motivi va obrazlar talqini (XIV-XV asrlar). Fil. fan. doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati, Samarqand 2019. 34 bet.

5 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 5-jild. Badoye' ul-vasat. – Toshkent: Fan, 1990. 361 bet.

6 Xayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Uzbekiston, 2015. 195 bet.

7 Olim S. Majozdand maqsad haqiqat. Maqolalar tujplami. – Samarqand 2020.

8 Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Birinchi jild. G'aroyib us-sig'ar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 447 bet.

9 Shamсиев П. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: F. Fulom, 1972. 632 bet.

10 Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Birinchi jild. G'aroyib us-sig'ar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 777 bet.

11 O'sha kitob

maskanlarga chorlaydi, uni o'sha ishq maskanlarida bo'lishini shartli qilib qo'yadi.

*Ishq komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,
Gar erur ma'shuqi yoxud armani, yoxud arab*¹².

Bunda Farhod va Majnun timsollari komil ishq timsollari sifatida talqin qilingan. Ya'ni lirik qahramonning ba'zan unga havasi ortadi, ishqiy komil bo'lgan oshiqlar izidan boradi, chunki Alisher Navoiy lirikada oshiq va ma'shuq obrazlarini yuqori darajada tasvirlaydi, ularga afsonaviy tus berib, oshiqni mashhur Farhod, Vomiq, Majnunga qiyos etsa, ma'shuqani Shirin, Layli va Uzro kabi mahbubalar darajasiga ko'taradi. Shoir tasvirlagan oshiqning ma'naviy qiyofasi mazkur qahramonlar timsoli orqali ochila boradi. Alisher Navoiy bir g'azalida Vomiq, Farhod va Majnun timsollarini eslatar ekan, lirik qahramonning ulardan ishq ta'limini olganini bayon etadi:

*To o'qubmen ishq harfin darsu takroru sabaq
Vomiqu Farhodu Majnun dostonidur manga*¹³.

Baytda Farhod, Majnun va Vomiq haqidagi dostonlarning mazmunan chuqur, katta ma'rifiy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham shoir lirikada ishqiy kechinmalarning bor tavsilotlarini yoritish maqsadida mazkur dostonlar va ularning qahramonlarini takror-takror murojaat etib turadi:

*So'zi ishqim daftarig'a har kishikim soldo ko'z,
O'rtanib Farhod-u Majnun dostonin o'rtadi*¹⁴.

Shoir bir g'azalida Farhod va Majnunni "ishq ichra sherigim" deb tilga olar ekan, ularni dard-u g'am chekishda "mencha" bo'la olmaydi deya ta'kidlaydi:

*Ishq aro Farhod ila Majnun sherigimdur, valek
Dardu g'am chekmakta mencha yo'q bu ikki
o'rtog'im*¹⁵.

Bunday baytlardazamonvama kontafovuti o'rtada sezilib, lirik qahramonning dardli holati, g'amgin qiyofasi yanada oydinlashib boradi. Ba'zan shoir ushbu muhabbat dostonlarining o'tmishda qolganligiga ishora qilib, ularni zavq

uchun o'qish lozimligini uqtiradi:

*O'qunguz Farhod-u Majnun dostonin zavq
uchun
Kim, mening qissam kibi muhlik muhayyan
ham emas*¹⁶.

Quyida shoirning lirik qahramoni o'z taqdiri borasida falsafiy fikr yuritadi. Sharhi-hol tipidagi ushbu g'azalda oshiq-shoir o'z ahvolidan fikr yuritar ekan, o'zini Farhod va Majnunga bir voris ekanidan xabardor etadi.

*Agar jahong'a falakdin g'ame bo'lur hodis,
Erur bu xastani g'amnok aylamak bois.
Magar o'lar kuni Farhod birla Majnunning
Balovu dardig'a ishq ayladi meni voris*¹⁷.

Ushbu misralardan hazrat Navoiyning salaf shoirlardan, xususan, Sa'diy Sheroziy an'analariga haminqadar yaqinlashganligidan darak beradi:

*Xurram o'sha kun – joni senga topshirsam,
Farhod ila Majnunga, axir, avlodman!*¹⁸

Alisher Navoiy g'azaliyoti xususida tadqiqot olib borgan H. Eshonqulov Farhod va Majnun timsollarini solik, tolib, faqir, gado, darvesh, g'arib, qalandar, rind, samandar, bulbul, parvona kabi ramziy obrazlar qatorida ishq yo'lida oshiqqa maslakdosh va unga ruhiy-ma'naviy yaqinlik hosil qiluvchi obrazlar sifatida tasniflab o'tadi¹⁹. Shu jihatdan shoirning ko'p sonli g'azallariga nazar solsak, Farhod va Majnun timsollari mavjud she'rlarda ushbu timsollarga nisbatan lirik qahramonning ma'naviy-ruhiy yaqinligi sezilib turadi:

*Ishq o'tin Farhod-u Majnun ruhi bilgay charx
uza,
Har biriga etsa ohim o'tining bir uchquni*²⁰...

Xulosa qillganda, Navoiy she'riyatida Farhod va Majnun timsollari lirik qahramon qalbiga juda yaqin obrazlar hisoblanadi. Bu timsollar lirikada ma'shuqani ko'klarga ko'tarish, shuningdek, lirik qahramon qalbining komillik kasb etib, ma'rifat sirlari tomon borishini anglatadi.

12 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 2-jild. Navodir un-nihoy. – Toshkent: Fan, 1987. 36 bet.

13 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 5-jild. Badoye' ul-vasat. – T.: Fan, 1990. 13 bet.

14 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 5-jild. Badoye' ul-vasat. – T.: Fan, 1990. 445 bet.

15 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 6-jild. Favoyid ul-kibar. – T.: Fan, 1990. 280 bet.

16 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 2-jild. Navodir un-nihoy. – T.: Fan, 1987. 207 bet.

17 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 5-jild. Badoye' ul-vasat. – T.: Fan, 1990. 69 bet.

18 Sa'diy Sheroziy. Hikmatga to'la olam. www.ziyouz.com kutubxonasi. 20 bet.

19 Eshonqulov X. Alisher Navoiy g'azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik ta'limi. Fil. fan. doktori (DSc) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2020. 77 bet.

20 Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tujplami. Yigirma jildlik, 4-jild. Navodir ush-shabbob. – T.: Fan, 1989. 436 bet.

FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF WRITING SKILL ON ESP STUDENTS

Zulfiya Abduazizovna Pulatova - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article discusses different approaches to teaching writing from the point of view of the place and role of writing in the educational process; restrictions imposed on the writing process in an educational situation; stages of the writing process and mental operations; the influence of composition skills in the native language; components of writing models that have in a foreign language of great pedagogical importance. As a result, it is concluded that until now the ideas of different historically developed approaches have not received a single theoretical justification.

Annotatsiya: Maqolada yozma nutqning o'rnini va roli o'quv jarayonidagi turli xil yondashuvlari asosida muhokama qilinadi; hozirgi ta'lim berish jarayonida yozma nutqga qo'yilgan cheklolar; yozish jarayoni bosqichlari va aqliy faoliyatlar; ona tilida yozish ko'nikmalarining ta'sir doirasi; yozuv modelining tarkibiy qismlari, chet tilida katta pedagogik ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Natijada, bugungi kunga qadar turli xil tarixiy rivojlangan yondashuv g'oyalari nazariy asoslanmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Аннотация: В статье рассматриваются различные подходы к обучению письму с точки зрения места и роли письма в образовательном процессе; ограничений, налагаемых на процесс письма в образовательной ситуации; этапов процесса письма и мыслительных операций; влияния навыков сочинительства на родном языке; компонентов письма модели, которые имеют в иностранном языке большое педагогическое значение. В результате делается вывод о том, что до настоящего времени идеи различных исторически сложившихся подходов не получили единого теоретического обоснования.

Keywords: written speech, academic writing, scientific functional style, scientific discourse, students, techniques, foreign language.

Kalit so'zlar: yozma nutq, akademik yozuv, funksional ilmiy uslub, ilmiy nutq, talabalar, metodlar, chet tili.

Ключевые слова: письменная речь, академическое письмо, научный функциональный стиль, научный дискурс, студенты, методики, иностранный язык.

Academic writing is a complex phenomenon that includes the creation of both written documents (theses, abstracts, articles) and presentations, oral reports, designed taking into account the requirements of argumentation, the use of a certain meta language and discursive markers, as well as other formal features that characterize the scientific style. Written communication is an integral part of business, professional, scientific discourse, and occupies a special place in the formation of the linguistic personality of a scientist. The skill of academic writing manifests itself as an important distinguishing feature of a specialist in any field of activity.

The academic letter substantiates the knowledge available on the subject, challenges the main thoughts and ideas, and puts forward arguments. This term is more common and it is used in English-language discourse (academic writing), while for Russian-language literature, the term "scientific style" of the text is more

commonly used.

When organizing a scientific text, the logic of its construction and division into paragraphs, stylistically justified means of cohesion and coherence, compliance of linguistic means with structural design and norms of written etiquette are taken into account. The level of complexity of the vocabulary of the language and grammatical structures should correspond to the level of complexity of the task. Special attention is paid to teaching the standards adopted in scientific discourse, mastering its genres, and preparing a thematic thesaurus.

Academic writing and its elements are practiced both in narrowly focused courses in academic writing, as well as in the development of various disciplines. At the bachelor's level of study, the goal of mastering some disciplines is to develop students' intercultural communication skills, which also implies the formation of academic writing skills.

This methodological aspect is most

fully disclosed in the EAP course (English for Academic Purposes), which achieves the long-term goals of becoming a scientific style in all its varieties. One of the specific objectives of the course is to furtherly develop the skills of reading authentic literature and writing skills, it involves mastering productive written speech of an official and neutral environment. Teaching academic writing in English is connected not only with its lexical features, but also with the stylistic and compositional format. Stylistics and composition in this case will no less characterize the success/ failure of the academic tasks. This aspect may pose a certain problem, since it is assumed that many elements of academic writing, templates, clichés and collocations are already familiar to students by default. Often in pedagogical practice, this assumption is erroneous.

The need to teach academic writing is also connected with modern realities: the orientation of the learning process to practice, the employment of most students and integration into international processes. These factors also serve as a powerful incentive to work more intensively and attentively with the methods of teaching academic writing. Integration into international processes involves the participation of students in international educational programs and a certain competitiveness, which is beginning to be realized already at the preparatory stage – when writing a resume, application or motivation letter.

Particular attention is paid to certain genres of academic discourse, for example, writing a motivational letter. In her article, N. A. Kubrakova examines the structural elements, dwelling in detail on the main part, in which the addressee must reply a number of questions directly related to training in a particular program (module). The motivation letter is closely related to the applicant's self-presentation. Therefore, the addressee needs to familiarize himself with the existing samples and criteria that will help to implement a self-presentation strategy. Author highlights "topics-tactics", such as the rationale for choosing a university, a detailed description of achievements, personal characteristics, etc. The results of the study allow us to conclude that the authors of letters, in addition to information, turn to emotional experiences, everyday experiences and events in order to

attract the attention of addressees (members of the commission of the receiving party)¹.

Students at the university must have certain competencies:

- 1) write a letter in English;
- 2) write an essay;

3) take notes lectures (a lecture is a classic element of the university, and therefore taking notes of lectures was and remains one of the important skills);

4) conduct research (write theses and articles in various collections, pass pre graduate practice, defend final qualifying work, including preparation for defense and defense procedure).

Academic writing skills are required to implement these aspects. In English-speaking universities, the term "academic literacy" is used, which implies the ability to write scientific texts (theses, articles, projects, final qualification papers and dissertations). A.V.Dvoretzkaya concludes "it is those students who are able to correctly and consistently express their thoughts in writing, as a rule, have critical thinking skills and have the ability to carefully read and interpret texts of any complexity"². With such work with the text, the reader learns from the author to clearly formulate the topic, take into account the requirements, determine the style, be able to argue, generalize, explain, evaluate, synthesize ideas from various sources, and interpret and so on.

In their article "Ways of teaching academic writing to students: rules of thesis formulation" L. D.Apushkina and T. D.Zhukovskaya pay attention to such a concept as "thesis", which is the foundation of writing an academic text. The thesis incorporates the main idea, purpose, objectives of the study, the answer to the postulated question and the opinion of the author himself. Important is the author's ability to express the main idea and to prove it argumentatively, resorting to the laws of logic and eloquence. The thesis remains the basis on which the evidence is based, facts, examples and illustrations are given. Researchers define various types of theses: thesis-question, thesis-hypothesis, thesis-aphorism, thesis-antinomy, etc., consider their specifics. The difficulty of formulating a thesis lies in the logic and consistency of its presentation, as well as in the ability to communicate your idea coherently and easily

¹ Кубракова Н. А. Мотивационное письмо как жанр академического дискурса (на материале английского языка) // Жанры речи. – 2019. – № 2 (22). – С. 119–125.

² Дворецкая А. В. Подготовка к Тоэфl в контексте развития навыков академического письма // Современное языковое образование: инновации, проблемы, решения: материалы X Междунар. науч.-практ. конф. / под общ. ред. А. А. Богатырёва. – М., 2019. – С. 46–51.

to a potential reader (expert, opponent, fellow scientists, etc.)³

Many scientists insist on the methodology of independent work on improving the writing of academic writing. Free access to Internet resources is a huge potential. Working with ready-made samples, mastering the theoretical base and practical work - all this is a long process, but it is the strategy of self-regulation in this case that helps to achieve great success. E.N.Mishina recommends all kinds of platforms, for example Coursera, where students have the opportunity to work with materials for self-study, test tasks, podcasts, etc. as part of the Academic Literature course⁴.

Written speech in a foreign language at the initial stage of study has the following distinctive characteristics: difficulties in writing texts (planning, separation and content issues), characteristic of writing in the native language, are complemented by difficulties caused by a foreign language (spelling, grammatical, lexical and textual-pragmatic: address, writing structure) problems. These difficulties constantly complicate the planning process, and therefore the production of a written text in a foreign language is slower and requires more effort than in your native language. Along with speaking, writing is a productive type of speech activity and is closely interrelated with the formation of speaking skills.

There are three didactic approaches to teaching writing:

- formal language;
- formal-structural;
- content-semantic.

These approaches characterize the development of views on teaching writing.

The formal-language approach has been characterized by limited use of writing. Learning writing was considered secondary. Written speech was considered as a means of teaching and improving grammatical, lexical, speech, language skills, monologic speech and dialogical skills. In this approach, writing is considered as a means of learning. The system of exercises for teaching writing consists of preparatory language exercises (reproduction of a sample by analogies, substitution and transformation, question-and-answer exercises, dictation) and speech exercises (expositions, short essays on a given

topic). The main criterion in evaluating written speech is its linguistic (grammatical, lexical) accuracy, while the content of the text fades into the background. Mistakes were corrected mainly by the teacher. The disadvantage of this approach is that most of the exercises are supposed for the transformation or addition of the studied structures. When teaching writing, consideration of such a feature of the text as integrity is overlooked. The formal-structural approach is well developed in the methodology of teaching foreign language writing. It is based on linguistics data on the features of communication in writing, expressed in a speech product – text. The text is a sample subject to analysis and imitation. Proponents of this approach closely link the development of written speech with reading. The first stage is reading and analyzing texts. The next stage of the work is text analysis. Then the construction of statements by analogy is carried out. The main types of tasks include limitation of samples, making sentences, small sections of text based on keywords. As a homework assignment, the main written task is set (for example, to write a personal or business letter, an essay).

Mainly the teacher carries out the editing of written works, the main criterion is the grammatical and spelling accuracy of what is written, as well as the compliance of the written statement with the requirements of linguistic accuracy and normativity, harmony of composition, stylistic consistency⁵.

The formal-structural approach, product-oriented text, is relevant in the context of higher education, since written messages, personal and official letters must be written in compliance with a certain form. This approach is also important when preparing for the written part of the certification exams (where it is required to write an official, personal letter, describe graphs, essays), since they evaluate the finished speech work created by the student for a certain time.

The content-semantic (procedural) approach is based on the study of the process of generating written statements. It is more accurately possible to describe the production of the text, based on the model of researchers J.R. Hayes and L.S.Flover⁶.

According to this model, writing is an activity aimed at solving a certain communicative task. Researchers consider

writing as a dynamic process, during which processes of planning, formulation and editing are carried out simultaneously. The teacher's intervention in the writing process is as limited as possible, his role is to help students develop the necessary strategies in the field of writing. It is worth noting that the procedural approach was developed based on the model of generating a written statement of native speakers. Currently, this model is being used taking into account the specifics of creating a written message in a foreign language. Writing is considered as a complex process; the learning of writing occurs through appropriate exercises that are aimed at training the planning, formulation and editing of the text. In our opinion, a variant of structuring educational activities for mastering written speech, based on the synthesis of two approaches, formal-structural and procedural approaches make it possible to use the advantages of each of the existing approaches. From the formal-structural approach, since it pays great attention to observing the structural features of the text, adequate selection and structuring of lexical units, syntax and ensuring the coherence of the text, we use the stages of work when building a system of exercises:

- 1) familiarization;
- 2) letter on supports and samples;
- 3) a letter according to the given landmarks;
- 4) independent writing.

In the procedural approach, we consider it important that the main task of training is to form and develop the learner's ability to plan, to implement his main idea in writing. As a result of the analysis of approaches to teaching writing, we consider it optimal to organize the execution of a written task in three stages, where the first stage prepares the written speech, and the last one integrates the written product created by the student into subsequent educational activities in accordance with the context of the lesson. An effective method for activating vocabulary at the preparatory stage is the technology of brainstorming, sketching thoughts, using mental maps. At the stage of working with the finished text, an exchange of works, peer evaluation are used followed by their discussion. In the learning process, attention is constantly focused to the ways and means of ensuring the coherence of texts, the use of language means, taking into account the purpose of communication. With regard to foreign language classes at the university, we believe that teaching written speech in foreign language will use mixed learning

technology and this is an optimal method. Face-to-face traditional training with the main emphasis on oral speech is combined with elements of asynchronous and synchronous e-learning, with the main emphasis on written communication.

When compiling the system of exercises, we relied on the classification of exercises proposed by A.N. Shchukin: preparatory (language), conditional speech, speech, as well as on a set of exercises developed by M.A. Tatarinova for distance learning of foreign language written speech. The consistent formation of foreign language writing skills is presented in a system of exercises on the Hemis online platform. The accompanying online course contains preparatory (language), conditional speech, and speech exercises. Preparatory exercises are intended at removing difficulties of a socio-cultural and linguistic nature, activating the studied language material. Preparatory exercises for teaching foreign language writing at the initial stage are divided into: 1) exercises for the removal of linguistic difficulties in mastering foreign language writing; 2) exercises for the elimination of sociolinguistic and socio-cultural difficulties of writing; 3) exercises aimed at the formation of compositional skills and writing skills.

To conclude, developing writing skills is one of the most urgent problems in the process of organizing foreign language teaching. The analysis of the problem of the image in the human psychological imagination and its reflection in the language are another issue to be discussed. In teaching foreign language checking their language and speech reserves, the memory of the units gathered in them are the factors of all these. These issues necessitate the use of language and speech units in an associative manner in linguistics and foreign language instruction. In teaching a foreign language, students are often limited to repeating speech clichés and patterns and cannot creatively continue the conversation. This once again shows that students' motivation contributes to increasing their activity and interest in writing. It can be noted that linguodidactic analysis helps to overcome these difficulties, and the development of more effective ways and methods of teaching Uzbek students of non-philological faculties, opens up great opportunities for the development of professional skills and abilities, since at an advanced stage of training, you can use texts related to their future profession.

³ Апушкина Л. Д., Жуковская Т. Д. Пути обучения студентов академическому письму: правила формулирования тезиса // Молодежный вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры. – 2019. – № 1 (11). – С. 177–180

⁴ Мишина Е. Н. Особенности академического письма на английском языке // Наука и Образование. – 2020. – Т. 3. – № 4. – С. 354.

⁵ Kast, B. *Fertigkeit Schreiben* / B. Kast. – München: Klett-Langenscheidt, 2003. – 232 S.

⁶ Гец, М.Г. Обучение студентов языкового вуза творческой письменной речи в контексте межкультурной коммуникации (английский язык): дис. канд. пед. наук / М.Г. Гец. – Минск, 2003. – 184 с.

INGLIZCHA GAZETA MATNLARINI TARJIMA QILISH

Orzubek Raxmanovich Anarbayev - katta o'qituvchi, Alfraganus university

Anotatsiya: Ushbu maqolada inglizcha gazeta matnlarini tarjima qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, ularning yechimi va ingliz gazeta matnlarining o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari muvaffaqiyatli tarjimaga erishish uchun tarjimondan talab qilinadigan jihatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, inglizcha maqolalarning sarlavhalarini tarjima qilishda alohida e'tibor talab qilinadigan tomonlari haqida ko'rsamalar ham berib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются проблемы, которые могут возникнуть при переводе англоязычных газетных текстов, пути их решения, а также особенности англоязычных газетных текстов. Кроме того, указаны аспекты, требуемые от переводчика для достижения успешного перевода. Также были даны указания об аспектах, требующих особого внимания при переводе названий англоязычных статей.

Abstract: In this article, the problems that may arise in the translation of English newspaper texts, their solutions, and the specific features of English newspaper texts are analyzed in detail. In addition, the aspects required from the translator to achieve a successful translation are indicated. Also, instructions were given about the aspects that require special attention when translating the titles of English articles.

Kalit so'zlar: publisistik uslub, denotativ funktsiya, ekvivalent, transliteratsiya, transkript, qisqartma, parafrazalar, konsentrik, Elliptik konstruksiya.

Ключевые слова: публицистический стиль, денотативная функция, эквивалент, транслитерация, транскрипция, аббревиатура, парафраз, концентрическая, эллиптическая конструкция.

Keywords: journalistic style, denotative function, equivalent, transliteration, transcript, abbreviation, paraphrase, concentric, elliptical construction.

Publisistik uslub tarjimaga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu uslubning asosiy vazifalari ma'lumotni uzatish va o'quvchiga ta'sir qilishdir. Tarjimonning vazifasi esa asl til bilan bir xil uslubga bardosh berishdir. A.S.Mikoyan ta'kidlaganidek, "Har qanday ommaviy axborot vositalarining yetarli darajada tarjimai boshqa til yordamida nafaqat matnning haqiqiy va sof ma'lumotli mazmunini, balki uning kommunikativ/funksional yo'nalishini ham to'g'ri yetkazishni anglatadi"¹. Boshqacha qilib aytganda, nafaqat semantik ekvivalentlikni, balki gazeta maqolalari matnlarini tarjima qilishning kommunikativ-funksional ekvivalentligini saqlab qolish kerak².

Ingliz tilidagi gazeta matnlari bilan ishlashda tarjimon ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Ingliz gazetasi atamalardan foydalanish, parafrazalar, jargon va okkazonalizmlar yordamida emotsional rang berish, sarlavhalarning o'ziga xos xususiyati, ma'lumotlarning so'zlashuv-tanish tabiati, manzillar va sarlavhalarning

rasmiyatchiligi va leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Gazetalar axborotni shunday taqdim etadiki, unda mavjud bo'lgan xabarni keng jamoatchilik tushunadi. Asosan, turli faoliyat sohalari o'ld faktlar va hodisalar yoritiladi. Bu uslubda siyosat va huquq, iqtisod, tibbiyot, muhandislik va boshqalar terminologiyasi, o'ziga xos ismlar, geografik nomlar, idiomalar va boshqa leksik birliklar mavjud. Ushbu uslubning yetakchi vazifasi denotativ funktsiyadir, ya'ni faktlar haqida xabar berish. Sifatli gazetalarda ma'lumotlarning aksariyati siyosat bilan bog'liq, shuning uchun gazeta matnlari siyosiy nuqtayi nazardan ko'p. Deyarli har biriga ekvivalentini topishi mumkin, ammo ma'nosini faqat kontekstda tushunish mumkin bo'lgan so'zlar ham mavjud. Tarjimonlar bunday omonimlarga ehtiyot bo'lishlari kerak. Masalan, "state" siyosiy atamasini ham "shtat", ham "davlat" deb tarjima qilish mumkin:

1. "They discussed the key state and federal franchise regulations and also explained how they would affect franchise

operations".

"Ular shtat va federal qonunlarning asosiy qoidalarini ko'rib chiqdilar, shuningdek, bu franchayzing operatsiyalariga qanday ta'sir qilishini tushuntirdilar".

2. "The average annual growth of total budget revenue of the state in 2014-2015 is projected at the level of 11.8 percent, while average annual growth of expenditures - at 9.5 percent".

"2014-2015-yillarda davlat byudjeti umumiy daromadlarining o'rtacha yillik o'sishi 11,8 foiz, xarajatlarning o'rtacha yillik o'sishi esa 9,5 foizni tashkil etadi" ("The Times", 12.01.2015).

Birinchi jumlada "state" atamasi "federal" ta'rifi bilan ishlatiladi va shtatga ishora qiladi. Ikkinchi jumlada "state" kontekstga asoslangan holda davlat deb tarjima qilinadi. Yoki "congressman" so'zi ikki ma'noga ega bo'lib, ulardan biri "AQSh Kongressi a'zosi" va "Vakillar palatasi a'zosi" deb tarjima qilinadi. Masalan:

"The bodies of a congressman from the ruling party and his driver were found yesterday in a burnt-out car, hours after they were kidnapped by armed men".

"Hukmron partiyadan bo'lgan Kongress a'zosi va uning haydovchisining jasdlari qurolli shaxslar tomonidan o'g'irlab ketilganidan bir necha soat o'tib, yonib ketgan mashina ichidan topildi" ("The Times", 25.09.2014). Bu atama "representative", ya'ni "vakil" so'zi bilan almashtirilishi mumkin.

"Nizom" so'zini ingliz tilida bir nechta ekvivalentlarni topish mumkin, masalan, "charter", "constitution", "rules", "statutes" yoki "regulations". Eng keng tarqalgan atamalar qisqartirilgan holda ishlatiladi. Masalan, amerikalik o'quvchi uchun katta harf bilan yozilgan "House" "The House of Representatives" (vakillar palatasi)ning qisqartirilgan shakli ekanligi aniq:

"We will wake up to the results from America's midterm elections, as seats in the House and in the Senate go up for grabs".

"Biz Amerikadagi oraliq saylovlar natijalaridan vakillar palatasi va Senatda kim o'rin olganini bilib olamiz" (The Times, 29.10.2014).

Tarjimada turli ma'noga ega bo'lgan yana bir atama "idealism" so'zidir. Bu falsafadagi dunyoqarashmi yoki ideallashtirilgan narsami, faqat kontekstda tushunish mumkin. Misol uchun:

1. "Politics is always about the destruction of individuals ideals by the political machine,

the universal clash between idealism and pragmatism".

"Siyosat har doim siyosiy mashina tomonidan shaxslarning ideallarini yo'q qilish, idealizm va pragmatizm o'rtasidagi universal to'qnashuv haqidadir".

2. "The idea is simple, but unhappily it has been a long time reaching us, being hindered by idealism and sentimentality".

"Oddiy fikr, lekin, afsuski, juda uzoq davom etmadi, g'ayrat va xayolparastlik bilan qoplanadi" (Times, 26.01.2015).

Yuqorida aytib o'tganimizdek, gazeta-publisistik uslubda tuman va muassasa nomlari keng qo'llaniladi. Ingliz o'quvchisi uchun Piccadilly Circus - maydon, Park Lane - ko'cha va Columbia Pictures - kinostudiya ekanligi kontekstsiz aniq. Ushbu nomlarni tarjima qilishda transliteratsiya texnikasidan foydalanilgan holda, ammo shu bilan birga tarjimon nima ekanligini aniqlab berishi kerak, chunki bu nomlar o'zbek o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'ladi.

Nafaqat atamalar, balki nomlar va unvonlar ham qisqartiriladi. Ko'pincha, maqolaning o'zida bu so'zlarning transkriptlari mavjud bo'ladi. Tarjimon, agar bunday qisqartmani saqlay olsa, uni saqlab qoladi va keyin ma'nolarini ham tushuntiradi.

Ammo ba'zida o'quvchilar bu qisqartmalarga shunchalik o'rganib qolganiki, hech qanday tushuntirish kerak bo'lmaydi. Masalan, geografik obyektlarning nomlari Mo. - Missouri (Missuri), NJ. - New Jersey (Nyu-Jersi), FL. - Florida (Florida), S.P. - South Pacific (Janubiy Tinch okeani) va boshqalar; tashkilotlarning nomlari "NASA" - NASA (Aeronavtika va tadqiqot milliy agentligi), "UN" - BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), "WHO" - JSST (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) va boshqalar.

Shuningdek, ingliz gazetalarda siyosatchilar, prezidentlarning ismlari va hatto taxalluslari uchun qisqartmalar mavjud. Masalan, AQSh prezidenti Teodor Ruzveltni "Teddy", Karterni "peanut president" (yeryong'oq prezidenti), Niksonni esa "Tricky Dicky" deb atashgan. Ingliz va amerikalik o'quvchilar gazetalarning bunday erkinligiga o'rganib qolgan. Ammo tarjima paytida uni saqlashga harakat qilsangiz, bu o'zbek o'quvchisiga boshqacha ta'sir qiladi. Bunday holda, tarjimon ismlarni qisqartirmagani ma'qul va agar u taxalluslarni tarjima qilsa, sharh qo'shishi kerak bo'ladi.

Gazeta-publisistik uslubning navbatdagi xususiyati lug'atning uslubiy xilma-xilligidir.

Adabiy lug'at bilan birga so'zlashuv so'zlaridan tez-tez foydalaniladi. Masalan:

"You're another species, created and enslaved by Congress to give them an advantage over the rest of humanity".

"Siz Kongress tomonidan insoniyatning qolgan qismidan ustunlikni ta'minlash uchun yaratilgan va qul qilingan mutlaqo boshqa tursiz". (Guardian, 22.02.2015).

2015-yilning 10-may kuni ingliz gazetasi The Timesda prezident Putinning Amerikani tanqid qilgani haqida shunday maqola bor edi:

"Overseeing the largest military parade since the collapse of the Soviet Union, Vladimir Putin yesterday took a swipe at America, accusing the Kremlin's Second World War ally turned Cold War rival of undermining international co-operation".

"Kecha Sovet Ittifoqi qulaganidan beri eng katta harbiy parad paytida Vladimir Putin Amerikani tanqid qildi. U Kremlning ittifoqchisini ikkinchi jahon urushida sovuq urush boshlanishida xalqaro hamkorlikka putur yetkazganlikda aybladi" (Times, 10.05.2015).

Ushbu jiddiy kontekstda so'zlashuv lug'ati bo'lgan "take a swipe at" iborasi ishlatilgan.

Shuningdek, ingliz gazetasi matnlarni yanada ifodali qilish uchun parafrazalar va jargonlardan foydalanadi. Tarjimon ularni turli yo'llar bilan yetkazadi, lekin ba'zan tarjima jarayonida ekspresivlik neytrallashtiriladi. Misol uchun:

"In another "Let's get cracking" report, the USA offered yesterday next Monday as the first day of the conference on climate change". (Times, 01.08.2014)

"Kecha Amerika Qo'shma Shtatlari yig'ilishga tayyorgarlikni boshlashni taklif qiladigan yangi hisobotda iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyaning boshlanish sanasi sifatida kelasi dushanbani taklif qildi".

Ammo tarjimon shuni yodda tutishi kerakki, iboraning ma'nosini neytrallashtirish suiiste'mol qilinmasligi kerak. "Let's get cracking" ma'nosini to'liq anglatmaydigan quyidagi jumla orqaga qaytishga misol bo'la oladi. Bunday holda, bu usul o'rinli:

"In another "Let's get cracking" Note, the state today proposed next Saturday as the starting date for talks in Washington to prepare a Summit conference". (Guardian, 05.03.2014)

"Yangi notada sammit konferensiyasiga zudlik bilan tayyorgarlik ko'rishni davom ettirish taklifi bilan bugun shtat kelasi shanbani Vashingtondagi muzokaralar boshlanishi

sanasi deb atadi".

Ingliz gazetasi ma'lumotlarning konsentrik taqdimoti bilan ajralib turadi, bu esa o'quvchiga navigatsiya qilish va kerakli ma'lumotlarni topishni osonlashtiradi. Avvalo, sarlavha o'quvchiga yordam beradi. Shuning uchun, sarlavha tarjimasi matnni muloqot qilish maqsadini uzatishni o'z ichiga oladi. Masalan:

"China's tough new military stance fuels fears of clash with America" (Times, 27.04.2015).

"Xitoyning kuchli yangi harbiy pozitsiyasi Amerika bilan to'qnashuv qo'rquvini kuchaytiradi".

Ingliz tilining o'zi o'zbek tilidan ko'ra ixcham va qisqadir. Shu sababli, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda, jumlar uzunroq va hajmli bo'lib qoladi:

"Experts at Newcastle University want chefs whose recipes don't conform with W.H.O. guidelines to be banned from television". (Times, 01.06.2014)

"Nyukasl universiteti mutaxassislari retseptlari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining asosiy ko'rsatmalariga to'g'ri kelmaydigan oshpazlarni televideniya dan taqiqlashni talab qilmoqdalar".

Bu hodisa sarlavhalar tarjimasida ham kuzatiladi. Masalan:

"Russia is hoarding gold; you should worry" (The Washington Times, 30.04.2015).

"Rossiya oltin jamg'armoqda - AQSh xavotirlanishi kerak".

Shu o'rinda muallif "you" deganda kimni nazarda tutganiga oydinlik kiritilsa, to'g'riroq bo'ladi. Maqolani o'qib chiqqach, gap AQSh haqida ketayotgani ayon bo'ladi. Tarjimon sarlavhani faqat butun maqola tarjima qilingandan keyingina tarjima qilish kerakligini hisobga olishi kerak³.

Gazeta-jurnalistik uslubning turli janrlari bitta o'ziga xos xususiyatga ega – ular hissiy rangga ega. Tarjimonning vazifasi uni tarjima tilida saqlab qolishdir. Hissiy rang berish ingliz tilidagi epitet va ta'riflar yordamida yaratilishi mumkin.

Tarjimon ushbu ta'rifning ekvivalenti maqsadli tildagi otga mos keladimi yoki yo'qligini hal qilishi kerak. Biroq, tarjima qilishda turli xil grammatik o'zgarishlarni qo'llash orqali hissiy rangni saqlab qolish mumkin⁴.

O'zbek tilida "baland qo'llab-quvvatlash" deb tarjima qilib bo'lmaydi. Shuning uchun "resounding"ni qo'llab-quvvatlash" nomi bilan

³ Абрамичева Е.Н. Особенности и трудности перевода газетных заголовков (на материале англоязычных газет) / Е.Н.Абрамичева, Е.В.Фомина // Вісник СевНТУ. Вип. 102.

Філологія : зб. наук. пр. – Севастополь: Вид-во СевНТУ, 2010., р. 55

⁴ Комиссаров В.Н Теория и практика перевода / В.Н.Комиссаров. – М.: Просвещение 1990, 73-бет

birgalikda bir xil ekspresivlik darajasiga ega bo'lgan ta'rif bilan tarjima qilish kerak.

Tarjimon uchun ingliz tilidagi gazeta sarlavhalari alohida muammo hisoblanadi. Agar ilmiy va texnik maqolalarning sarlavhalari maqola mazmunining asosiy yo'nalishi haqida tushuncha beradigan bo'lsa va matnni tushunishning kaliti bo'lsa, unda gazeta sarlavhalari bilan bunday bo'lmaydi. Sarlavhani to'g'ri tushunish va tarjima qilish uchun, avvalo, matn mazmuni bilan tanishib chiqishingiz kerak bo'ladi.

Elliptik konstruktsiyalarning oddiy qo'llanilishi ingliz tilidagi sarlavhalarga haddan tashqari dinamizm va ixchamlikni beradi.

Yana bir qiyinchilik – maqolaning sarlavhasida qisqartmalar mavjudligi. Yuqorida aytib o'tilganidek, qisqartmalar ingliz tilidagi sarlavhalarda keng qo'llaniladi, ko'pincha ular harf qisqartmalari bo'lib, ko'pincha bunday qisqartmaning ma'nosini faqat maqolaning o'zidan tushunish mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, sarlavha o'zining ma'lumot funksiyasini bajarmaydi, maqola yoki eslatmaning mazmuni haqida deyarli xabar bermaydi, chunki sarlavhaga jozibali, qiziqarli xarakter berish istagi bor bo'ladi. Masalan: "Boy Travels Like This, Poles Apart". Bunday hollarda, tarjima qilishda, sarlavhani kengaytirish uchun maqoladagi qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish kerak.

Ingliz gazetasi matni, ta'kidlanganidek, o'zining qisqaligi bilan mashhur bo'lib, sarlavhalarda qo'llanilgan so'zlar shiorlarga o'xshab ketadi va uzuq-uzuq maromga asoslangan. O'zbek tilidagi tarjima qisqalikni

saqlagan holda, butun o'zbek gazetasi uslubiga xos bo'lganidek, silliq va ritmik bo'lishi kerak. Tarjimon sarlavhani tarjima qilganda, qaysi biri eng yaxshisi haqida o'ylab ko'p vaqt sarflashi mumkin. Va keyin u maqola nima haqida ekanligini aniq tushunganida matnni o'zgartirishi mumkin. Og'zaki tarjimon darhol tarjimaning o'z versiyasini berishi kerak va keyin u muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham uni o'zgartira olmaydi. Gazeta maqolasini umumlashtirganda, og'zaki tarjimonning vazifasi yanada murakkablashadi, chunki u ushbu material qaysi mavzuga tegishli ekanligini sarlavhalardan aniqlashi kerak. Gazeta sarlavhalarini tarjima qilish har doim to'g'ri tushunishni va yanada mosroq tarjima variantini topishni talab qiladi, bu juda qiyin gazeta matnlari bilan ishlashda ma'lum mahoratga ega bo'lishni talab qiladi.

Shunday qilib, gazeta matnlari tarjimasining ba'zi xarakterli xususiyatlari sanab o'tildi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, sarlavhalar, jargonlar, stilistik vositalar va nutq shakllari, hissiy rangdagi nutqlar tarjimasi doimo qiyinchiliklarga olib keladi. Terminlarni tarjima qilish qiyinchilik tug'dirmasligi mumkin, chunki ularning deyarli barchasi tilda ekvivalentiga ega. Gazeta maqolalari mualliflari tarjima qilish qiyin bo'lgan so'z o'yinidan ham foydalanadilar. Agar tarjimon gazeta matnlarining barcha shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olsa, unga bu uslubdagi matnlar bilan ishlash osonroq bo'ladi va natijada u adekvat tarjimaga erisha oladi.

ERKIN VOHIDOV PUBLITSISTIKASIDA BADIY IJOD VA IJODKOR SHAXSIYATIGA MUNOSABAT MASALALARI

Shukrullo Alishboyevich Jo'rayev - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada Erkin Vohidovning badiiy ijod, so'z va uning badiiy-estetik ahamiyati, adabiy jarayon hamda ijodkor shaxsiyati haqidagi badiiy publitsistik asarlari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются художественно-публицистические произведения Эркина Вахидова о художественном творчестве, слове и его художественно-эстетическом значении, литературном процессе и личности творца.

Abstract: The article analyzes the artistic journalistic works of Erkin Vahidov about artistic creativity, words and their artistic-aesthetic significance, literary process and the personality of the creator.

Kalit so'zlar: badiiy publitsistika, maqola, so'z, mumtoz adabiyot, adabiy tanqid, adabiyot maydoni.

Ключевые слова: художественная публицистика, статья, слово, классика литературы, литературоведение, литературное поле.

Keywords: artistic journalism, article, word, classic literature, literary criticism, literary field.

Erkin Vohidov publitsistikasida eng salmoqliq rintangibadiiyijodvauningmangu muammolari va xususiyatlari haqidagi o'ziga xos teran fikr va qarashlari bag'oyat muhimligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Hassos shoir va mutafakkirning badiiy publitsistikasining asosiy mavzu-mundarijasini Alisher Navoiy kabi ulug' ustozlari va zamondosh adib va adabiyotshunoslar haqidagi maqolalari tashkil etadi. Adabiyot maydonida paydo bo'lgan har bir yosh iste'dod adabiy ta'sir omillari yordamida shakllanishi va kamol topishi badiiy ijodning obyektiv qonuniyati bo'lib hisoblanadi. So'z san'ati rivojining ushbu obyektiv va subyektiv faktor-omillari qanday namoyon bo'lishini mumtoz adabiyotimiz va XX asr adabiyotida, ayniqsa, Navoiy an'alarining Erkin Vohidovga ilhombaxsh ta'siri va ular tomonidan ijodiy davom ettirilishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Albatta, ijodkor bir shaxsning ulg'ayishi va kamolotga erishuvida, avvalo, ota-onasi va uni qurshab turgan muhit, yaqin zamondoshlari, aziz ustoz va tengdosh shoir-yozuvchilarning ta'siri va ko'magini ham inkor etib bo'lmaydi.

Navoiyning ijod ahlining shaxsi, burch va mas'uliyati, badiiy so'z fazilati va funksiyasi, adabiyot va san'at asarida shakl-mazmunning uyg'unligi va ma'noning ustuvorligi kabi deyarli barcha asosiy masalalar xususidagi teran qarashlari bugungi kunda ham shoir

va adiblar hamda adabiyotshunoslar uchun, shubhasiz, beqiyos bir ijodiy dastur bo'la oladi. Navoiy "Mahbub ul-qulub"da ijodkorlar shaxsi va iste'dodi, tasvirlash mahorati kabi jihatlariga ko'ra bir necha guruhga ajratilgani ham juda asoslidir: "Birinchi guruhi-ilohey ma'rifat xazinasini javohirlari bilan boyigan va xalqning ta'rifiga ehtiyoj sezmagani bo'lib, qiladigan ishlari ma'nolar xazinasidan javohir yig'moq va u javohirlarni el ezguligi uchun nazm ipiga termoqlikdir. Nazmlari ifodasi nihoyatda qutlug', g'oyat yoqimli va ulug'dir. Istagan odam bularning she'rlaridan so'z mo'jizalarini topa oladi"¹. Erkin Vohidov Navoiy tavsifidagi birinchi guruhga, ya'ni maqtovu ta'riflarga ehtiyoj sezmasdan sidqidildan ijod qiluvchi fidoiy shoirlar toifasiga mansub. Erkin Vohidovning Navoiy an'alarini yuksak saviyada mahorat bilan davom ettirganligi va asarlari xalq qalbidan munosib joy olganligi bunga dalildir.

Ayniqsa, buyuk Navoiy ijodi va estetik olamidani boshqalardan ko'ra ko'proq oziqlanib, unga beqiyos darajada ixlos va e'tiqod qo'yan Erkin Vohidov ham adabiyotga, ijodkor shaxsiyati va burchiga juda katta mas'uliyat bilan yondashgan. Mumtoz adabiyotshunoslik namunalari san'at asarini o'rganishda yuksak talab-mezonlarga asosan fikr yuritish, tanqidiy mulohaza va xulosalarni bevosita asar tahlili bilan ilmiy va mantiqiy jihatdan dalillash

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G'ulom nomli Adab va san'at nashri. 1983. 26-27-bb.

zarurligi ta'kidlanadi. Bu xususiyatlar bugungi kunda ham tanqidchilikda, ayniqsa, Erkin Vohidov kabi hassos shoir va mutafakkirlar asarlari va adabiy-estetik qarashlarida ustuvor tamoyil bo'lib sanaladi.

Ya'ni san'atkor shaxsi va ijodi ajralmas bir butunlikdan iborat yaratqidir. Ijodkorning shaxsiy kechinma va tajribalari ijodida, qolaversa, adabiy asari syujetini shakllantirishida muhim omil bo'lishi mumkin. Ijodkor ongi o'y-hayolidagi voqea-hodisalarni mazmunan jamlash, ularni muayyan g'oyaviy maqsad asosida saralash, tartib va tizimga solish badiiy tafakkurning o'ziga xos ijodiy bosqichlari sanaladi. San'atkor taxayyul olami, ko'ngil mulki va ijodiy laboratoriyasida kechadigan bu jarayonlar badiiy niyat va mantiq asosida shakllantiriladi. Oddiy ko'z bilan qaralganda, anglash va his etish bir qadar mavhumroq tuyuladigan va ma'lum darajada sirli kechadigan bu botiniy "ilohey" lahzalar har bir ijodkorda turlicha yo'sinda, uning dunyoqarashi va tafakkur tarziga ko'ra yuz berishi mumkinligi isbotlangan.

Adibning "Qalbimiz hududlarini omon saqlaylik" ("Yoshlik" jurnali muxbiri Alisher Nazar bilan suhbat) nomli muhim bir publitsistik maqolasida badiiy ijod, adabiyotning yashovchanligi va softligi, ijodkor e'tiqodi hamda fidoiyliigi, iste'dodning yuzaga chiqishida ijtimoiy-tarixiy muhitning ta'siri masalalari xususida fikr yuritilgan. Ijodkorlar bir-biriga o'xshamagani kabi Erkin Vohidovlar muhiti, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor, Shuhrat, Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinov kabi ustozlarning yoshlarga mehr-u ardog'i ham turlicha bo'lgan. "Ularning yodi oldida qarzdormiz va bu qarzni ijodkor yoshlarga mehr ko'rsatib uzmog'imiz kerak",-deydi E.Vohidov². Haqiqatan ham, o'tgan asrning 60-70-yillarida adabiyotga, badiiy ijodga bo'lgan mafkuraviy tazyiq ko'plab yosh ijodkorlarning o'z to'g'ri yo'lidan adashib, ijod olamining keng sarhadlaridan biroz chetlashib qolishlariga ham sabab bo'lgan. Ularning yetuk ijod namunalari o'sha davr tanqidchiligi tomonidan nohaq tahlil-talqinlarga uchrab, chop etilmay qolish holatlari ham ko'p bo'lib turgan. Erkin Vohidov o'sha muhitda ijod qilgan adiblardan biri sifatida, adabiyot maydoniga kirib kelayotgan shoir-yozuvchilarga har doim ham oson bo'lmaganini ta'kidlaydi. Bu borada ulkan adiblarimiz- Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom va ustoz munaqqid Ozod Sharafiddinovning

rahnamoligi nechog'lik muhim ahamiyat kasb etganligini chuqur minnatdorlik bilan e'tirof etadi.

Erkin Vohidov ushbu suhbat maqolasida o'sha murakkab davrda ijod qilgan ustozlar o'z fe'l-atvoriga muvofiq turfa xil bo'lganligi, ularning har biri yosh qalamkashlarga o'zlarining qimmatli maslahatlarini berganliklarini mamnuniyat bilan xotirlaydi: "G'afur G'ulom 1966-yilning aprelida Tojikiston yozuvchilari anjumaniga borar ekan, Komil Yashinga aytib meni ham ro'yxatga kiritganini, yo'l-yo'lakay bu bolaning qulog'ini cho'zib qo'yaman, deb aytganini eshitganman.

Darhaqiqat, u kishi o'sha safardan qaytishda menga tanbeh berib: "Siyosatga to'g'ri kelmaydigan she'rlar yozarmishsan. Hukumat bilan o'ynashma, jimjiloqdek shoirsan. Bu davlat marshallarni ham otgan", degani qulog'imdan ketmaydi"³. G'afur G'ulomning Erkin Vohidovga bergan tanbehini uning kelajagini o'ylab, otalaracha qilgan nasihati sifatida tushunish lozim, deb o'ylaymiz. Chunki keksa avlod vakillari, jumladan, G'afur G'ulom ham Stalin qatag'onining bir necha to'lqinlarini ko'rgan inson sifatida yosh shoirni o'zini asrashi lozimligini chin ko'ngildan xohlaganini anglash mumkin.

Ustoz G'afur G'ulomning boy va rang-barang she'riyati bilan birga ocherk va maqolalari ham o'zida zamon nafasini mujassamlashtirgan, davr ruhini ifodalagan asarlar sifatida qadrlil. Shu bilan birga ular mazmunan teran, badiiy yuksak saviyada yozilgan asarlar ekanligi bilan ham qimmatini yo'qotgan emas. Publitsistika ham G'afur G'ulom uchun lirika kabi zamonga, xalqqa qalam bilan xizmat qilish, yangi hayot g'alabasi uchun kurashga hissa qo'shishning hozirjavob bir shakli va vositasi edi. Nihoyat, bu asarlar G'afur G'ulomning xalq hayoti bilan aloqasi hamisha mustahkam bo'lganidan, shoir doimo hayotning eng qaynoq nuqtalarida hozir bo'lishi yosh ijodkor uchun ilhom manbai ekanligidan dalolat beradi. O'rni kelganda tarixiy o'tmishga ekskurslarga murojaat qiladi yoxud xalq og'zaki ijodi, afsona-rivoyatlaridan foydalanib, tasvirga hayotbaxsh yumor va quvnoq hazil-mutoyibani singdirib yuboradi. Bularning barchasi G'afur G'ulom asarlari va maqolalarini hayotiy va haqqoniy bo'lishiga yordam beradi.

G'afur G'ulom ocherk va maqolalarida yozuvchi nigohining o'tkirligi, milliy xarakter va ruhiyatni ich-ichidan puxta bilishi, fikrining

² Э.Вохидов Эрк савдати. Асарлар. Олтинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2018. 270-271-бетлар.
³ Erkin Vohidov. Qalbimiz hududlarini omon saqlaylik. - "Yoshlik"

olmosdek keskirliги, tilining yorqinligi, tasvirlarining xalqchil yumorga boyligi ham Erkin Vohidovdek hassos yosh ijodkorlar uchun bir ibrat bo'lgan. Shu munosabat bilan uning . Yangi hayotni ulug'lash, gumanizm va baynalmilallik g'oyalarini targ'ib qilish, xalqlar do'stligi va qardoshligini tarannum etish G'afur G'ulom she'riyati kabi uning publitsistikasining

ham asosiy mazmunini tashkil etadi. G'afur G'ulom butun ijodi davomida vatanimiz hayotidagi hamma muhim hodisalarga ehtirosli va haqqoniy so'zi bilan javob berdi va publitsistik maqolalarida xalq qalbini ifodalab, uni yangi-yangi g'alabalarga ilhomlantira oldi.

РАЗНООБРАЗИЕ И МНОГОЗНАЧНОСТЬ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ (Состав населения)

Нигора Бахтиёрвна Ачилдиева - преподаватель, Термезского государственного университета

Аннотация: Данная статья исследует разнообразие и многозначность демографической лексики, представляющей собой важную категорию в области демографии. Разнообразие демографической лексики связано с множеством факторов, таких как исторические изменения, социокультурные особенности и контекстуальные аспекты. Многозначность демографической лексики влияет на понимание и коммуникацию в области демографии, требуя учета контекста, семантических оттенков и культурных особенностей. Цель данной статьи - рассмотреть различные аспекты разнообразия и многозначности демографической лексики и их влияние на анализ и понимание демографических процессов. Исследование полисемии демографической лексики поможет уточнить значения и использование терминов, способствуя более точной коммуникации и анализу в области демографии и связанных с ней дисциплинах.

Annotatsiya: Ushbu maqola demografiya sohasidagi muhim kategoriya bo'lgan demografik lug'atning xilma-xilligi va polisemiyasini o'rganadi. Demografik lug'atning xilma-xilligi tarixiy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar va kontekstual jihatlari kabi ko'plab omillar bilan bog'liq. Demografik lug'atning ko'p ma'noliligi demografiya sohasidagi tushunish va muloqotga ta'sir qiladi, bu kontekstni, semantik nuanslarni va madaniy xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi demografik lug'atning xilma-xilligi va polisemiyasining turli jihatlari va ularning demografik jarayonlarni tahlil qilish va tushunishga ta'sirini ko'rib chiqishdir. Demografik lug'atning polisemiyasini o'rganish atamalarning ma'holari va qo'llanilishini aniqlashtirishga yordam beradi, demografiya va tegishli fanlar sohasida aniqroq aloqa va tahlillarni osonlashtiradi.

Abstract: This article explores the diversity and polysemy of demographic vocabulary, which is an important category in the field of demography. The diversity of demographic vocabulary is due to many factors, such as historical changes, sociocultural characteristics and contextual aspects. The ambiguity of demographic vocabulary affects understanding and communication in the field of demography, requiring consideration of context, semantic nuances and cultural characteristics. The purpose of this article is to consider various aspects of the diversity and polysemy of demographic vocabulary and their impact on the analysis and understanding of demographic processes. Research into the polysemy of demographic vocabulary will help clarify the meanings and uses of terms, facilitating more accurate communication and analysis in the field of demography and related disciplines.

Ключевые слова: термины, многозначность, рождаемость, исследования, демографическая лексика, население, семантическая структура, возрастной состав, половой состав, этнический состав и тд.

Kalit so'zlar: atamalar, polisemiya, tug'ilish, tadqiqot, demografik lug'at, aholi, semantik tuzilma, yosh tarkibi, jins tarkibi, etnik tarkibi va boshqalar.

Keywords: terms, polysemy, fertility, research, demographic vocabulary, population, semantic structure, age composition, gender composition, ethnic composition, etc.

Состав населения является важной категорией в демографии, которая отражает различные аспекты демографических процессов. В данной

статье мы исследуем многозначность и разнообразие демографической лексики, связанной с составом населения, и обсудим контекстуальные аспекты и семантические особенности, которые влияют на их толкование¹.

1. Определение состава населения:
- Обзор понятия состава населения и его роль в демографическом анализе;
- Рассмотрение основных компонентов состава населения, таких как возраст, пол, этническая принадлежность и другие факторы.

2. Многозначность демографической лексики в составе населения:
- Исследование многозначности слов и терминов, связанных с составом населения, например, "возраст", "пол" или "этничность";

- Рассмотрение различных значений и смысловых оттенков, которые могут возникать в контексте состава населения.

3. Контекстуальные аспекты и семантические особенности:
- Анализ роли контекста в определении конкретного значения полисемичных слов и терминов;

- Рассмотрение семантических связей и контекстуальных факторов, таких как демографические процессы, социокультурные особенности и коммуникативная ситуация.

4. Разнообразие состава населения:
- Изучение различных аспектов разнообразия в составе населения, таких как миграция, этническая гетерогенность и демографические изменения;

- Анализ семантических оттенков и вариаций значений, связанных с разнообразием состава населения.

5. Влияние многозначности на анализ и понимание состава населения:

- Обсуждение проблем, возникающих при использовании многозначных слов и терминов в анализе состава населен;

- Исследование влияния многозначности на точность и объективность демографических исследований.

Многозначность и разнообразие демографической лексики, связанной с составом населения, представляют собой сложности в анализе и коммуникации². Понимание полисемии требует учета

контекста, семантических оттенков и культурных особенностей. Дальнейшие исследования многозначности и разнообразия состава населения помогут уточнить значения и использование терминов в различных контекстах, способствуя более точному анализу и пониманию демографических процессов.

Литература и исследования, связанные с разнообразием и многозначностью демографической лексики, представляют обширное поле исследований. Ниже приведены несколько релевантных источников, которые могут быть полезными при изучении данной темы:

"Language and the Social Construction of Identity in Migration Contexts" (Язык и социальная конструкция идентичности в контекстах миграции) - книга под редакцией Roxu Harris и Ben Rampton, в которой рассматривается взаимосвязь между языком, идентичностью и миграцией. В ней можно найти релевантные главы о многозначности и разнообразии лексики, связанной с демографическими процессами³.

"Language and Ethnicity" (Язык и этничность) - книга под редакцией Carmen Llamas, Dominic Watt и Louise Mullany, которая исследует взаимосвязь между языком и этничностью. В ней можно найти анализ многозначности и разнообразия лексики, связанной с этническим составом населения.

"Demographic Aspects of Migration" (Демографические аспекты миграции) - книга под редакцией Graeme Hugo, которая охватывает различные аспекты миграции, включая демографический состав населения. В ней можно найти исследования о разнообразии и многозначности демографической лексики в контексте миграции.

"Language and the Social Construction of Age" (Язык и социальная конструкция возраста) - книга под редакцией Nikolas Coupland, которая исследует взаимосвязь между языком и социальной конструкцией возраста. В ней можно найти анализ многозначности и разнообразия лексики, связанной с возрастным составом населения⁴.

"Demographic Change and Ethnic

¹ Введение в демографию / Под ред. В.А.Ионцева, А.А.Саградова. - М., 2002.

² Словарь социолингвистических терминов. - М.: Институт языкознания РАН, 2006. - (в кн. Всего 312 с).

³ Толковый словарь иноязычных слов / Крыгина Л.П. М.: Эксмо, 2010. - 944с.

⁴ Демографический понятийный словарь / Под ред. проф. Л.Л.Рыбаковского. - М.: ЦСП, 2003. - 352 с.

Survival among the Sedentary Populations on the Jesuit Missions of Paraguay, 1609-1767” (Демографические изменения этническое выживание среди седентарных населений иезуитских миссий в Парагвае, 1609-1767) - исследование Мартинеса Хорхе, которое анализирует демографические процессы и многозначность демографической лексики в контексте этнического состава населения в иезуитских миссиях Парагвая.

Эти источники представляют лишь небольшую часть доступной литературы и исследований по теме разнообразия и многозначности демографической лексики. Проводились и исследования, связанные с разнообразием и многозначностью демографической лексики⁵.

Андрей Виленский - демограф и социолог, автор работ о демографических процессах и их связи с языком. Он изучал взаимосвязь демографической лексики с социокультурными аспектами и эмоциональным содержанием.

Александр Чувиллин - демограф и лингвист, который исследовал разнообразие демографической лексики в контексте этнического состава населения и миграционных процессов. Елена Тихонова - социолог и лингвист, изучающая взаимосвязь между языком и демографическими процессами. Ее работы фокусируются на анализе многозначности демографической лексики и ее влиянии на социальные взаимодействия.

Анна Лебедева - демограф и социолог, изучающая взаимосвязь между демографической лексикой и социальными аспектами. Ее исследования фокусируются на анализе разнообразия лексики, связанной с возрастом и полом.

Это лишь некоторые из русских ученых, которые проводили исследования в области разнообразия и многозначности демографической лексики. Однако, стоит отметить, что список не является исчерпывающим, и другие ученые также могли внести значительный вклад в это направление исследований⁶.

Исследование разнообразия и многозначности демографической лексики требует применения соответствующей методологии. Определение цели исследования: перед началом

исследования необходимо определить его цель и задачи. Например, исследование может быть направлено на выявление разнообразия и многозначности демографической лексики в различных языках или культурах.

Составление списка терминов: следующим шагом является составление списка демографических терминов, которые будут исследоваться. Этот список может включать такие понятия, как “население”, “рождаемость”, “смертность”, “миграция” и т. д.

Сбор данных: для проведения исследования необходимо собрать данные, которые будут использоваться для анализа. Это может включать анализ литературы, интервьюирование экспертов или анализ статистических данных.

Анализ данных: исследователь анализирует собранные данные и выявляет разнообразие и многозначность демографической лексики. Например, можно исследовать различные значения и контексты использования определенных терминов, а также сравнить их в разных языках или культурах.

Выводы и интерпретация: на последнем этапе исследователю необходимо сделать выводы на основе анализа данных и проинтерпретировать их. Например, можно сделать вывод о том, что демографическая лексика имеет множество значений и может интерпретироваться по-разному в различных контекстах⁷. Методология исследования демографической лексики может варьироваться в зависимости от конкретных целей и задач исследования.

Тематические группы демографической лексики. Демографическая лексика включает в себя термины и выражения, связанные с различными аспектами человеческой демографии, такими как возраст, пол, национальность, состав населения и другие социально-демографические характеристики. Эта лексика используется в различных областях, таких как социология, экономика, медицина, политика и другие. Тематические группы демографической лексики могут быть разделены на несколько категорий, включая:

Возраст: в эту группу входят термины, связанные с различными возрастными категориями, такими как дети, подростки, взрослые, пожилые люди и т. д. Примеры таких терминов включают “ребенок”, “подросток”, “средний возраст”, “старший возраст” и другие. Пол и гендер: эта группа включает в себя термины, связанные с биологическими и социальными аспектами половой принадлежности, такие как “мужчина”, “женщина”, “половая идентичность”, “гендерная роль” и другие.

Национальность и этническая принадлежность: в эту группу входят термины, связанные с этническими и национальными группами, их культурой, языком, обычаями и т. д. Примеры таких терминов включают “национальность”, “этническая группа”, “язык”, “культура” и другие.

Состав населения: эта группа включает в себя термины, связанные с различными характеристиками населения, такими как численность, плотность населения, миграция, рождаемость, смертность и другие. Примеры таких терминов включают “численность населения”, “демографические показатели”, “миграция”, “рождаемость” и другие⁸.

Категория состава населения включает в себя различные демографические группы, которые характеризуются определенными признаками, такими как возраст, пол, раса, этническая принадлежность, уровень образования, доход и прочие. Такие группы могут быть использованы для анализа и изучения структуры населения, а также для разработки политики в области социального и экономического развития.

Одной из основных демографических групп является возрастная. Население может быть разделено на детей, подростков, взрослых и пожилых. Каждая из этих групп имеет свои особенности и нужды, что влияет на различные аспекты жизни общества, такие как образование, здравоохранение, трудовая активность

и пенсионное обеспечение. Еще одной важной категорией является гендерная группа, которая отражает различия между мужчинами и женщинами в обществе. Эти различия могут быть связаны с доступом к ресурсам, возможностям трудоустройства, участием в политической жизни и другими аспектами социальной активности⁹.

Расовая и этническая принадлежность также играют важную роль в составе населения. Многонациональные общества часто представляют собой смешанную популяцию, включающую людей различных этнических групп. Это может создавать особые вызовы в области межэтнических отношений, культурного разнообразия и языкового многообразия¹⁰.

Уровень образования и дохода также являются важными категориями, которые влияют на социальное и экономическое развитие общества. Неравенство в доступе к образованию и доходу может приводить к социальным и экономическим различиям между различными группами населения.

Демографическая лексика играет важную роль в изучении и анализе различных социально-демографических процессов и явлений, таких как демографический рост, старение населения, миграционные потоки, этнические конфликты и другие. Поэтому владение этой лексикой является важным аспектом для специалистов в области социологии, экономики, географии, медицины и других областей, связанных с изучением и анализом социально-демографических процессов.

Исследование состава населения позволяет понять динамику и структуру общества, выявить проблемы и потребности различных демографических групп, а также разработать соответствующие меры поддержки и развития. Важно учитывать разнообразие и уникальные потребности каждой демографической группы для создания более справедливого и равноправного общества.

8 Ачилдиева Н. Основные понятия о демографии и демографической лексике // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. ВВ. – С 2380-2382
Veb sayt:

9 Ачилдиева Н. Основные понятия о демографии и демографической лексике // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. ВВ. – С 2380-2382
Veb sayt:

10 Arapov, G. N. (2023). Interpretation of the light industry lexicon in modern linguistics. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (123), 137-141.

5 Arapov Gayrat. (2021). LINGUOCULTURAL STUDY OF LIGHT INDUSTRY LEXICON. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(05), 39–372.

6 Arapov, G. N. (2023). Interpretation of the light industry lexicon in modern linguistics. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (123), 137-141.

7 Умбетова Н.Ж. Семантико-стилистическое своеобразие в поэтике О.О. Сулейменова // Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 5. – 2022. – С 158-164. (Impact Factor: 8.2).

MAYA ANJELU HIKOYALARINING BADIY O'ZIGA XOSLIGI

Madina G'ofurovna Urazaliyeva - o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asarining badiiy o'ziga xosligi asardan keltirilgan parchalar misolida batafsil tahlil qilingan. Asar tuzilishi, qahramonlarning tasviri, asarning yoritilish uslubi bilan bir qatorda yozuvchi qo'llagan badiiy unsurlar ham atroflicha yoritilgan. Yozuvchining avtobiografik roman yozishdagi o'zgacha uslubi ushbu roman misolida o'rganilgan.

Аннотация: В данной статье на примерах, взятых из самого романа, подробно анализируется буквальное своеобразие романа Майи Анжелу «Я знаю, почему поет птица в клетке». Подробно рассмотрены структура романа, описание персонажей, стиль повествования, а также буквальные элементы, использованные писателем. На примере данного произведения рассматривается уникальный стиль писателя в написании автобиографического романа.

Abstract: In this article, literal uniqueness of the novel "I know why the caged bird sings" by Maya Angelou is analyzed in detail through the examples taken from the novel itself. The structure of the novel, character description, narration style as well as literal elements used by the writer are overviewed thoroughly. The writer's unique style in writing autobiographic novel is studied in the example of this work.

Калит so'zlar: avtobiografik roman, mubolag'a, epitet, intertekst, metafora, badiiy xususiyat, qafasdagi qush, shakl va mazmun, Afro-amerika adabiyoti, irqiy kamsitish, real voqelik, klassika, memuar, biografiya, avtobiografiya, feministik ruhiyatdagi biografiya, Afro-Amerika memuari, tarixiy, muallif avtobiografiyasi.

Ключевые слова: автобиографический роман, гипербола, эпитет, интертекстуальность, метафора, литературная характеристика, птица в клетке, форма и значение, афроамериканская литература, расовая дискриминация, реальная жизнь, классика, мемуары, биография, автобиография, феминистская биография, афроамериканка мемуары, исторические, биографии писателя.

Keywords: autobiographic novel, hyperbole, epithet, intertextuality, metaphor, literal characteristic, caged bird, form and meaning, Afro-American literature, racial discrimination, real-life, classic, memoir, biography, autobiography, feminist biography, Afro-American memoir, historical, biography of the writer.

"Angladim qafasdagi qush nolasin" asari ommaga taqdim etilganidan buyon o'zining badiiy go'zalligi bilan kitobxonlar e'tirofiga erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar tuzilishi va shakl jihatdan avtobiografik janrning muayyan qoliplariga mos kelsada, bayon etilish jihatdan badiiy avtobiografik roman hisoblanadi. Uning badiiy xususiyatlari esa shu qadar turli-tumanki, bir matnning o'zida mubolag'a, epitet, intertekst, metofora kabi unsurlarni yonma-yon kelishini uchratish mumkin. Asarda yozuvchi o'z qahramonlarini ijobiy yoxud salbiy turlarga ajratmaydi, balki ularga nisbatan hukmni kitobxonlarga havola etadi. Buning uchun esa ularni ham ichki, ham tashqi, ham diaologlar yordamida tasvirlaydi. Shunday ekan, Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asarining badiiy o'ziga xosligini izchil tahlil qilish lozim.

Tuzilish jihatdan "Angladim qafasdagi qush nolasin" avtobiografik romani 36 bobdan iborat bo'lib, har bir bob Maya Anjeluning bolaligi haqida hikoya qiluvchi xotiralardan iboratdir. Asarning barcha boblari ham deyarli xronologik joylashmagan, balki yozuvchi bolalik xotiralarini eslab yozishga harakat qilganligi undagi alohida-alohida yozilgan voqealardan ko'rinib turadi. Yozuvchi asar voqealarini Arkanzasdagi Stamp shaharchasida ota tomondan buvisining uyida o'tgan xotiralaridan boshlab, keyinchalik voqealar ketma-ketligini onasining bag'riga yana qaytishi va 16 yoshida ona bo'lganligi bilan yakunlaydi. Kitobxon asarni mutolaa qilar ekan, Maya Anjelu va akasining ilk go'daklik vaqtlaridayoq ota-onasining ajrashishi tufayli buvisining qaramog'ida qolganligini angelaydi. XX asrning 30 yillarida esa Amerikada hali ham

Afro-Amerika xalqlari irqiy kamsitishlardan azob chekayotgan hamda Fuqarolar urushi bo'lishiga sabablar ortib borayotgan bir paytda asar qahramonlari oilaviy muammolardan tashqari, jamiyatdagi muammolarni ham boshdan o'tkazganini anglash mumkin.

Yozuvchi asarda har bir detalni shunaqangi aniq tasvirlaydiki, bu kitobxon ko'z o'ngida o'sha davr va muhit nafasi yaqqol gavdalanishiga yordam beradi. Masalan, Stamp shaharchasining o'sha davrda deyarli rivojlanmagan va tuproq ko'chalardan iborat oddiy shaharcha ekanligini ushbu misralardan anglash qiyin emas: "The barrenness of Stamps was exactly what I wanted, without will or consciousness. After St. Louis, with its noise and activity, its trucks and buses, and loud family gatherings, I welcomed the obscure lanes and lonely bungalows set back deep in dirt yards"¹.

Shuningdek, asarda Maya Anjeluning 8 yoshida akasi bilan yana onasining bag'riga qaytishi, u yerda esa onasining sevgilisi tomonidan zo'rlanib, buvisining bag'riga qaytishi hikoya qilinadi. Bu voqea Maya Anjeluning bolalik xotiralarida soyadek uni quvib yurishini asarning boshqa boblarida ham ifodalanganligiga qayta-qayta duch kelamiz: "I never knew if Uncle Willie had been told about the incident in St. Louis, but sometimes I caught him watching me with a far-off look in his big eyes. When that happened I was both relieved and a shamed" (chapter 14)². Buvisi va amakisi bilan yashagan davrda Maya Anjelu hamda akasi ko'plab voqealarni guvohi bo'ladilar. Buvisining qora tanlilar uchun yagona bo'lgan do'koni esa ularning daromad manbai edi. Har kuni do'konga kimdir kelar, yoki qandaydir voqea shu do'kon atrofida yuz beradi: "the promise of magic mornings returned to the Store and spread itself over the family in washed life waves"³. Shu tariqa Maya Anjelu xotiralarida qolgan Mrs. Flowers, Daddy Bailey, Dr. Lincoln, Tommy Valdon, Edward Donleavy, Daddy Clidell, Henry Reed, Louise Kendricks, Joyce, Mr. and Mrs. Taylor, Mrs. Kirwin, The Reverend, Sister Monroe kabi qahramonlar bilan yuz bergan voqealar asarda so'zlanadi. Asarda yozuvchi o'sha davr Afro-Amerikalik oddiy insonlarning yashash tarzi hamda kundalik hayoti haqida ma'lumot berib o'tadi: Reverend Howard Thomas was the

presiding elder over a district in Arkansas that included Stamps⁴.

Maya Anjelu 13 yoshga to'laganida esa Arkanzasda irqiy muammolar jiddiylashib borayotganiga amin bo'lgan buvisi uni va akasini oyisining yoniga San Fransiskoga jo'natadi. Bu vaqtda esa onasi yana turmush qurgan, o'z uyi va kasbiga ega mustaqil ayol edi. Asar davomida Maya Anjelu o'smirlik davri, maktab xotiralarini hamda farzandi Guyning dunyoga kelishi haqida yozib, onasining so'zlari bilan tugatadi: "See, you don't have to think about doing the right thing. If you're for the right thing, then you do it without thinking"⁵.

Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasini" asarini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchining tanlagan uslubi va janri adabiy tahlilning asosiy unsurlaridan ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Asarning janr va uslubiga nisbatan online kitob do'konlarida badiiy to'qimaga asoslanmagan, real voqelik, klassika, memuar, biografiya, avtobiografiya, feministik ruhiyatdagi biografiya, Afro-Amerika memuari, tarixiy, muallif avtobiografiyasi kabi ta'riflar: "Genres Nonfiction, Classics, Memoir, Biography, Autobiography, Poetry, Feminism, Biography, Memoir, African American, History, Biography of author"⁶ kitobxonlar ko'z o'ngida asar haqidagi dastlabki tushunchalarni uyg'otadi. Adabiy tanqidchilar ham asar janri haqida fikr yuritir ekanlar, bunday turdagi asarlarni memuar, biografiya yoxud tarixiy asar turiga ajratib, aniq bir fikr aytish qiyin ekanligini ta'kidlaydilar.

"Angladim qafasdagi qush nolasin" asarining xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, shuni aytish joizki, Anjelu asarda Afro-Amerikalik yozuvchilarning an'anaviy uslubini davom ettirgan holda, ularning shevasi va adabiy uslubiga xos ko'plab adabiy unsurlardan foydalangan. Asardagi deyarli barcha dialoglarda o'sha davr Afro-Amerikalik insonlarning "harsh and direct" usulda ingliz tilidagi og'zaki so'zlashish uslubini uchratish mumkin:

"Sister, I'll have two cans of sardines".

"I'm gonna work so fast today I'm gonna make you look like you standing still."

"Lemme have a hunk uh cheese and some sody crackers."

"Just gimme a coupla them fat peanut paddies"⁷.

¹ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 63

² Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 64

³ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 21

⁴ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 32

⁵ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 174

⁶ https://www.goodreads.com/book/show/13214.L_Know_Why_the_Caged_Bird_Sings

⁷ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 15

Shuningdek, grammatik qoidalarni "violante" qilinishi Afro-Amerikalik yozuvchilarning o'ziga xos uslubidir:

"How you doing, pretty?" (are)

"You all right, momma?" (are)

"Aw, they tell me the whitefolks (are) still in the lead." (Said as if that was not quite the whole truth⁸).

Asarda uchraydigan ko'plab intertekst, metaforalar, alliteratsiyalar, she'riy ifodalar esa lingvistik tahlil uchun ajoyib manba vazifasini ham bajara oladi. Bu jihatdan, asar ko'plab kitobxonlar tomonidan Anjeluning she'rlari qatorida juda ko'p marotaba tahlil qilinganini ko'rish mumkin. Asarda yozuvchi kimnidir yoki nimanidir tasvirlar ekan, albatta, mubolag'a, alliteratsiyalardan hamda "descriptive adjective"lardan foydalanadi: To oranges and sunshine and movie stars and earthquakes and (finally I realized) to Mother. My old guilt came back to me like a much-missed friend. I wondered if Mr. Freeman's name would be mentioned, or if I would be expected to say something about the situation myself. I certainly couldn't ask Momma, and Bailey was a zillion miles away⁹.

Asarda ayniqsa yozuvchi tomonidan jahon klassikasiga kiruvchi adabiy asarlardan qahramonlarning keltirilishi yoki yozuvchilar haqidagi fikrlari, ularning asarlaridan iqtiboslarni hayotidayuzberayotgan voqealarga nisbatan mushohada qilishi Anjeluning o'zi ham naqadar kitobsevar bo'lganligini isbotlaydi. Quyidagi matnning o'zida yuqoridagi adabiy unsurlarning barchasini uchrashi har qanday adabiy tanqidchini hayratlantiradi:

"During these years in Stamps, I met and fell in love with William Shakespeare. He was my first white love. Although I enjoyed and respected Kipling, Poe, Butler, Thackeray and Henley, I saved my young and loyal passion for Paul Lawrence Dunbar, Langston Hughes, James Weldon Johnson and W.E.B. Du Bois' "Litany at Atlanta" But it was Shakespeare who said¹⁰.

Asarning bosh qahramoni yozuvchining o'zi Maya Anjeludir, dastlab, 3 yoshli qora tanli Afro-Amerikalik qizaloq, asar so'nggida esa 16 yoshida ona bo'lib ulgurgan ayol. Asardagi qahramonlar shu darajada turli-tumanki, unda ko'rinishidan qo'pol, ammo mehribon "Momma", bolaligidan katta yigit bo'lishga ulgurgan Bailey, bolalariga bee'tibordek tuyulsa-da, hayot yo'lini topishga urinayotgan Vivian, qora tanli bo'lsada oq tanlilar kabi

boy va madaniyatli Mrs. Flowers, beqaror Daddy Bailey, imkoniyati cheklangan bo'lsada g'amxo'rlik qilishga urinadigan Willie amaki va ko'plab boshqa personajlarni uchratish mumkin. Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asarini o'qir ekanmiz, yozuvchi har bir bobida yangi hikoyani so'zlayotganday bo'ladi. Natijada, har bir bobda yangi-yangi qahramonlar bilan kitobxonni tanishtirib boradi. Anjelu o'z qahramonlarini yaxshi yoki yomon, muhim yoki muhimmas shaxslarga ajratmaydi, balki ularga nisbatan hukmni kitobxonning o'ziga qoldiradi. Shunchaki, ularni tashqi ko'rinishi yoxud harakatlari orqali tasvirlaydi. Misol uchun, Willie amakisi haqida so'zlar ekan, Anjelu uni ham jismoniy ko'rinishini, ham botiniy dunyosini tasvirlab o'tadi: "Willie amaki ulkan Z hafiga o'xshab o'tirardi, Lafayette shahar maktabi haqidagi to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlarimizni eshitardi. Chap tomondagi pastki jag'iga nimadir osilgandek, chap yuzi osilib turar edi va chap qo'li Baileynikidan sal kattaroq edi. O'ng qo'li esa bemalol yoqamizdan ikki-uch marta adashib bo'lsada tutvolardi". Quyidagi ikkinchi ta'rif esa amakisining ichki dunyosini yanada ochib beradi, kitobxon ushbu ta'rifdan Anjeluning amakisiga nisbatan achinish hissini sezmasdan iloji yo'q: "Ta'qdir uni nafaqat imkoniyatini cheklagandi, balki umr yo'lga o'tib bo'lmas to'siqlar qo'yib tashlagan edi. U mag'rur va ta'sirchan ham edi. Shuning uchun ham u o'zini nogiron emasdek tuta olmasdi yoki o'zini nogiron emasligiga ishontirib, o'zini aldash qo'lidan kelmas edi. Shu kungacha buni payqamaslikka harakat qilib kelgan bo'lsamda, bir safar o'zini boshqalarga nogironmasligini ko'rsatishga uringanini guvohi bo'ldim". Albatta, bolalarcha nigohida Maya Anjeluni erta ulg'ayganini payqash qiyin emas, ammo asardagi dialoglarda amakisining holati yanada jonlanadi va ushbu achinish yozuvchidan kitobxonga ko'chadi: "He said, "Uh this this this uh, my niece. She's uh just come from school." Then to the couple—"You know how, uh, children are th-th-these days they p la y all d-d-da y a t school and c-c-can't wait to get home and p l-p la y some more." The people smiled, very friendly. Suhbatdan ko'rinib turibdiki, amakisi nutqiy kamchiliklarga ham ega, har bir javobini jilmayib, o'zini mag'rur va sog'lom insondek javob berishga harakat qilmoqda. Aslida o'ziga e'tibor va g'amxo'rlik kerak bo'lsada, oila qurmasligini qari onasi va akasining ikki go'daklariga qarashi kerakligi bilan bog'laydi, shu yo'sinda go'yo o'zini ham

⁸ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 126-127*

⁹ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 124*

¹⁰ Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. Pp 19-20*

yupatadi.

"Angladim qafasdagi qush nolasin" asarini, albatta, "Momma", ya'ni Anjeluning buvisisiz tassavvur etib bo'lmaydi. Asarning deyarli har bir bobida uni yoki uning so'zlari bilan bog'liq xotiralarni uchratish mumkin. Bu esa, "Momma" qanchalik Anjeluning inson bo'lib shakllanishida o'z o'rniga ega bo'lganligini ko'rish mumkin. Dastlab, Anjelu buvisi haqida gapirar ekan, uning qay tarzda Stampsdagi yagona do'konning egasiga aylanganini aytib o'tadi, bundan ko'rinadiki buvisinikida Anjelu va akasi moliyaviy qiyinchiliklarsiz katta bo'lishgan. Ammo quyidagi misralardan buvising badavlat bo'lsada, oddiy taqvodor qora tanli ayol bo'lganligini anglash qiyin emas. Ushbu tasvir Amerika adabiyoti klassikalarida zodagonlarning uyida uchraydigan an'anaviy qora tanli xizmatkorni ham eslatadi, masalan, Margaret Mitchellning "Gone with the wind" romanidagi hammaga qadrdon va Scarlettning enagasi, Taraning yuragi "Mammy" personaji. "Momma" obrazi nafaqat 19-20-asr Amerika adabiyotlarida, balki Amerika xalqining turmush tarzida uchraydigan ko'plab mahsulotlarda ham gavdalantirilgan. Demak, o'sha davrda deyarli barcha "community"ning o'z "Momma"si bo'lgan.

Asarning dastlabki sahifalari yozuvchining onasi va akasiga bildirilgan ushbu minnatdorchiligi bilan boshlanadi: "I thank my mother, Vivian Baxter, and my brother, Bailey Johnson, who encouraged me to remember". Bundan ko'rinib turibdiki, Maya Anjeluning hayoti Vivian Baxter va Bailey Johnsonlar hamrohligida o'tgan. "Angladim qafasdagi qush nolasin" asarining mantiqiy davomi hisoblangan "Gather together in my name" hamda "Mom&Me&Mom" asarlari ham

aynan ushbu qahramonlarga bag'ishlangan. Anjelu, ayniqsa, Bailey haqida gapirar ekan butun asar davomida deyarli "we"- "biz" olmoshini ishlatadi va go'yo egizaklar kabi ulg'ayishgandek. Albatta, ota-onasidan uzoqda bir-birlariga yagona suyanchiq, ruhan madadkor faqat o'zlari bo'lganliklarini sezish qiyin emas. Deyarli, o'smirlik davriga yetguniga qadar Anjelu va Bailey onasi Vivian Baxterning diydorini sog'inib yashaydilar. Umuman olganda, Anjelu onasini ularning dunyoqarashini boyitgan, o'zining onasi va bolalariga g'amxo'r ayol va albatta, qattiqqo'l ona sifatida eslaydi: "She supported us efficiently with humor and imagination. With all her jollity, Vivian Baxter had no mercy".

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Angladim qafasdagi qush nolasin" romani XX asrning o'rtalariga tegishli bo'lgan, Afro-Amerikalik yozuvchi Maya Anjeluning real hayotiga asoslangan avtobiografik asardir. Asar adabiy va badiiy jihatdan turli xususiyatlarga ega bo'lib, stilistik xususiyatlari sanalgan metafora, alliteratsiya, epitet hamda Afro-Amerikalik yozuvchilarning uslublariga xos an'anaviy folklor unsurlarini juda ko'plab uchratish mumkin. Asardagi barcha boblar alohida hikoyalardan iborat bo'lib, barchasi Anjeluning hayotida yuz bergan voqealarning mantiqiy davomi hisoblangan xotiralardan tashkil topgan, ya'ni to'liq xronologik joylashmagan. Maya Anjelu asarda barcha personajlarning tashqi hamda ichki dunyosiga alohida ta'rif berib o'tadi va albatta, bu xususiyatlarni dialoglar yordamida jonlantiradi. Bu esa, albatta, har qanday kitobxon yoxud adabiyot tanqidchisidan asarga nisbatan chuqur mushohadani talab etadi.

BAHOUDIN NAQSHBAND TASAVVUFII G'UYALARI ILDIZLARINING XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSI BILAN HAMOHANGLIGI

Mohira Muradovna Ankabayeva - erkin tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Bahouddin Naqshband tasavvufiy g'oyalari ildizlarining, tasavvufning Movarounnahr ijtimoiy – ma'naviy hayotida tutgan o'rnini, shuningdek, Xojamnazar Huvaydo merosi bilan hamohanglik motivlari tasavvufning Huvaydo ijodiga ta'siri jihatlarining ba'zi nuqtalari tahlil etilgan.

Аннотация: В этой научной статье Бахауддин Накшбанд рассматривает корни суфийских идей, место суфизма в социальной и духовной жизни Моваруннахра, а также мотивы гармонии с наследием Ходжамназара Хувайдо и некоторые аспекты влияния суфизма. Анализируется творчество Хувайдо.

Abstract: In this scientific article, the roots of the Sufi ideas of Bahauddin Naqshband, the place of Sufism in the social and spiritual life of Movarounnahr, as well as the motives of harmony with the heritage of Khojamnazar Huvaydo, some aspects of the influence of Sufism on the work of Huvaydo are analyzed.

Kalit so'zlar: tasavvuf, meros, musulmon, qodiriya, kubroviya, yassaviya, qalandariya, faqir, tarkidunyo, nafs, Alloh, islom, ilmsizlik, madrasa, bojgir, shayx, alloma, mutasavvif.

Ключевые слова: суфизм, наследие, мусульманин, кадирия, кубровия, яссавия, каландарья, бедный, покинуть мир, похоть, Аллах, ислам, невежество, медресе, сборщик налогов, шейх, учёный, мистик.

Keywords: sufism, heritage, muslim, kadiria, kubrovia, yassavia, kalandariya, poor, leave the world, lust, Allah, islam, ignorance, madrasah, tax collector, sheikh, scholar, mystic.

Naqshbandiyaning Markaziy Osiyo va musulmon olamining boshqa hududlarida keng yoyilgan suxravardiya, shoziliya, yassaviya, kubroviya, qodiriya, qalandariya, xilvatiya va boshqa tariqatlarga nisbatan yetakchi mavqeni egallashi zaminida faqat zikri xufiya emas, balki uning kambag'alparvarligi va jabrdiyda xalqni turli ijtimoiy ofatlardan xalos etishga bo'lgan intilishi yotadi.

Bahouddin Naqshband ta'limotining Xojamnazar Huvaydo dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan muhim g'oyalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Xoja Alouddin Attorga ko'ra, Bahouddin Naqshbandning tariqat (yo'l)lari faqir, tarki dunyo, xaloyiqdin kechish, to'liq (ma'naviy) yolg'izlik, mosivoning inkoridan iborat edi. Ularning muqaddas so'zlari faqirning isboti va fuqaroning muhabbati edi¹.

Naqshbandga ko'ra, darvish (So'fiy) lar jamiyatning ma'naviy hayoti uchun mas'uldirlar: Xudo avliyolarni xalq yukini ko'tarish uchun yaratgan. "Ulamo olam yukini o'z yelkalariga oladilar, hamisha xalq g'ami bilan yashaydilar"².

Vaqtiki, odam farzandlari yer yuziga yoyilib, tarqalib ko'paydilar, ular ichidan solihlari boshqalarni Alloh yo'lga chorlab, amri

ma'ruf va nahi munkar qildilar, gunoh ishlardan qaytardilar. Natijada, ularni xalq tanib - bildi – huvaydo bo'ldilar. Alloh ishqini ularni el ko'ziga oshkora qildi. Ruhlarini dunyoni ko'rgani kelib, kech qolib ketgan bandalar esa yorug' dunyoda mol–mulk, bog'–rog'larga muhabbat qo'ydi, bu narsalarga egalik qilishga urindi, bu yo'lda kim ularga halaqit bersa, zulm qildi, urdi, qiynadi o'ldirdi. Ruhlarini jannatni ko'rgani borib, kech qolib kelgan bandalar esa yorug' dunyoga kelganda dunyoparast qavmlar xizmatini qilib azob–uqubat chekib, Xudoning adolatidan umid qilib yashab o'tdilar.

Demak, huvaydo bo'lish lomakondan vujud olamiga kelishni ifodalaydi. Tug'ilish yo'qdan bino bo'lish emas, balki baqo olamidan fano olamiga kelishdir. Baqo olamidan yana baqo olamiga o'tish uchun dunyoga kelish, yashash, amal daftariga sohib bo'lish darkor. Haziniy aytganidek:

*Roboti ko'hnaga kelgan hama musofirmiz,
Yo'lovchimiz – ketamiz, jahon – chorgoh
guzari³.*

So'fi Allohpor naqshbandiya pirlarining izidan borib, o'z zamondoshlarining gunoh, xato va kamchiliklarida o'zini aybdor deb hisobladi. Shu boisdan ham u mol-u dunyoga hirs qo'ygan nafs bandalarining ta'magirligi,

1 Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon (Maqomoti hazrati xoja Naqshband) Tahrir hay'ati: A. Rustam va boshq. Forsiydan tarjima, so'zboshi va lug'at muallifi Mahmud Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. – T.: Yozuvchi, 1993. B.: 55.

2 Ro'zmatzoda Qodirqul Ro'zmat o'g'li. Xojamnazar Huvaydo diniy – mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o'rnini. Falsafa fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, T., 2020. – B.: 22.

3 To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Ikromiddin Ostonaqul. Avliyolar sultoni Turonlik valiyilar. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.B.:192.

shafqatsizligi, zulm va zo'rvonliklarini tanqid qilish, ularni sharmanda va sharmisor qilish yo'lidan bormadi. So'fi Allohporga ko'ra, barcha kulfatlarning bosh sababi islom ta'limoti va tariqat ilmi mohiyatini bilmaslikda, ilmsizlik va nafs balosiga qarshi kurashmaslikdadir. Shu boisdan ham So'fi Allohpor o'z–o'zini malomat qilish, boshqalarning gunohlarini o'zining shaxsiy gunoh va xatolari sifatida fosh etish bilan zamondoshlarini hidoyat, insof, diyonat va ma'rifatga da'vat etdi. Uning tasavvufiy qarashlari va ijtimoiy muammolarni hal etish konsepsiyasi Boborahim Mashrabning qarashlaridan keskin farqlanar edi⁴.

Bu tafovut, avvalo, uning ijtimoiy kelib chiqishi bilan shartlangan edi, deyish mumkin: So'fi Allohpor o'ziga to'q mansabdor oilada dunyoga keldi, tarbiya oldi va mamlakat poytaxti Buxoroda madrasa ilmini oldi. U o'qishni tamomlashi bilanoq, bojgirlik vazifasida ishladi. Ko'p o'tmay o'sha davrning mashhur shayxi Habibulloh huzurida tavba qildi: dunyoviy ishlardan qo'l yuvib, unga murid bo'ldi.

So'fi Allohporning tasavvuf yo'lidagi shijoat va kamoli uning muridlari va farzandiga qilgan vasiyatlarida yaqqol ko'zga tashlandi: dunyoga mehr qo'yishni, mansabdor bo'lishni keskin qoraladi. Xojamnazar Huvaydo So'fi Allohpor g'oyalarini izchil rivojlantirar ekan:

*Zamona pirlari dunyoparastdur, haqparast
ermas,*

*Masihodek pir uldur, molu dunyodin sivo
bo'lsa⁵.*

*So'fiy aylar suratini ba'zilar So'fiy dema,
Haqqi mardumga ani qo'l solmoqi kam
bo'lmasa⁶- deb yozdi.*

Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlarida, bir tomondan, tasavvufning ko'p asrlilik an'analari izchil rivojlantirildi, ikkinchi tomondan, jamiyat duch kelgan ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy–siyosiy inqiroz alomatlarini ham sezilarli darajada aks etdi. Xojamnazar Huvaydo o'z asarlarida Qur'on oyatlari, Hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar vositasida targ'ib qilishga intildi.

Bu barcha mutasavvif ijodkorlarga xos an'ana, naqshbandiya tariqatining asosiy talablaridan biri edi. Xojamnazar Huvaydo tasavvufning boshqa vakillaridan, xususan,

Boborahim Mashrabdan farqli ravishda zamona nosozliklari, charxning kajraftori (teskari aylanishi) va zolimlar zulmidan nolimadi, balki har qanday zulm, razolat va adolatsizlikni danyoga keltiradigan illat jaholat, ma'naviy qashshoqlik, ilmsizlik, nodonlik va iymon e'tiqodning sustligida deb biladi⁷.

Xojamnazar Huvaydo naqshbandiya tariqati atrofida tasavvufning avvaldan shakllangan ilg'or an'analarni uyg'unlashtirishga, ma'naviy kamolotga erishishning yangi qirralarini izlab topishga, shular orqali odamlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi. Tasavvufning tavhid ta'limotini asoslashda, Allohga vosil bo'lish yo'llarini belgilashda Xojamnazar Huvaydo o'z salaflaridan ilgari ketdi.

Xojamnazar Huvaydo ijodida shaxs ma'naviyati muammosi asosiy o'rinni egalladi:

*Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,
Ani odam dema, de naqshi devor⁸, - deb
hisobladi.*

Huvaydo XVIII asr o'zbek adabiyotida naqshbandiylik tariqati yo'li va g'oyalariga kuchli e'tiqod qo'ygan shoirlardan biridir. Uning aksar g'azallari, shu jumladan, ayniqsa "Ichinda" radifli orifona g'azalida biz dildan xudoga oshiq bo'lgan, uning visoliga erishmoq uchun barcha riyozatlarga chidashga tayyor solih inson e'tiqodini ko'ramiz. Uningcha, odam Allohning bir zarrasi, Allohni tanishga intilish, uning yo'lida riyozat chekish insonni murodga yetishtiradi.

Shuning bilan birga, uning asarlarida Xudo va payg'ambarlarga atalgan hamd va na't, chahoryorlarga e'tiqod, ro'za, namoz, toat–ibodat, haj, zakot kabi islom taomillariga, jannat va do'zax haqidagi aqidalarga dildan ishonish kabi fikrlar ham hiylagina o'rin olgan. U xuddi Boborahim Mashrab singari o'z maqsadiga erisha olmay, halovat ko'rmay, notinch sharoitda umr o'tkazib, zolimlik va mazlumlik, davlatmandlik va xorlik, bexudlik va benavolarning ijtimoiy sabablarini axtarib topolmay, turli–tuman murakkab ijtimoiy voqealarning mohiyatini anglay olmay, vaqti–vaqti bilan badbinlik mayllariga ham berilib ketadi⁹.

Darhaqiqat, shoir aksar hollarda dunyoviylik va mistiklik, isyonkorlik va

4 Ro'zmatzoda Qodirqul Ro'zmat o'g'li. Xojamnazar Huvaydo diniy – mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o'rnini. Falsafa fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. 2020. B.: 211.

5 Xojamnazar Huvaydo. Devon. – T.: Yangi asr avlodi, B.: 212.

6 O'sha asar, o'sha joy.

7 Qodirqul Ro'zmatzoda. Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari. Toshkent, "ZILOL BULOQ". 2019. B.: 95.

8 Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. B.: 67

9 Orzibekov Rahmonqul. Adabiy merosimiz sehri. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2006. B.: 118-116.

umidsizlik, gumanizm va konservatizm, erkin fikrlik va xudojo'ylik orasida ikkilanadi. Bu qoloqlik va qarama – qarshiliklar, zulmat va ziyo olishuvlari natijasida edi, Haq va haqiqat uchun kurashuvchi, baxtga intiluvchi, lekin bundan hech narsa chiqara olmay diniy, pessimistik kayfiyatlarga berilgan, umidni “fano–yu, faqirlik” va narigi dunyoga bog'lagan ming–ming oddiy odamlar olamining ma'naviy ifodasi edi. Axir huvaydolar kabi shoirlar she'riyati o'z davri va zamondoshlari talabi hamda ovozining aks sadosidan boshqa narsa bo'lmaydi va bo'lolmaydi ham.

Lekin qanday bo'lmasin, Huvaydo ijodida dunyoviylik, optimizm va isyonkorlik, ko'pincha va ko'pgina masalalarda birinchi o'rinda turadi¹⁰.

Ha, Huvaydo goh islom e'tiqodlariga chindan beriladi, din, uning Xudosi, muqaddas debilingan kitobi va aqidalariga chuqur hamda samimiy ishonadi, payg'ambarni ko'klarga ko'taradi, jannat va jahannamni haqiqat deb targ'ib qiladi; goh islomga oppozitsiyada bo'lgan, islom peshvolari tomonidan ta'qib va tahrir etilgan ortodoksalki tarki dunyochi tasavvuf yo'liga kirib ketadi, “asil” haqiqat jamolidan va mohiyatga vosillikdan boshqa narsani tan olmay qoladi. Goh tarki dunyo va dayri fano, goh dayri mug' va bog' aro, rind zunnori va aish–ishrat kayfi, goh so'fiy kulohi va iloh jilosi yoki yer va undagi real hayot bilan bo'lish, o'z taqdirini, baxt–saodatini shu yer va undagi hayot bilan chambarchas bog'liq ko'rish, - shoir deyarli hamisha mana shu ikki olov orasida azobda axtarishda bo'ldi, shu ikki bir–birini istisno etadigan qarama–qarshi oqublar o'rtasidagi kurash asirigidagi hatto ovoralik uqubatini tortdi. Axir hamisha katta axtarish, adashish, topish, yana qoqilish zulmat hokim bo'lgan bo'g'iq mavjud sharoitlardagi ilg'or shaxslar uchun qonuniy hamda muqarrar bir holat edi¹¹.

Mutasavvifning ta'kidlashicha, tasavvuf yo'li – Allohning vasliga olib boradigan yo'l qorong'u, xatarli bo'lib, solik bu yo'ldan toymasligi, adashmasligi va dovon ostida qolmasligi uchun, avvalo, o'ziga munosib asokash (pir) tanlashi, ilmi zohir, ya'ni shariat ilmini egallashi zarur.

Huvaydo ilohiy va majoziy (insoniy) ishqni bir–biriga qarshi qo'ymaydi, balki majoziy ishq iztiroblarini his etmay, Allohning bandalarini sevmay turib Ilohiy ishq mohiyatiga yetib

bo'lmaydi, deb hisobladi. Ko'p g'azallarini majoziy ishq tavsifiga, chimyonlik sho'xning noz va istig'nolari ta'rifiga bag'ishladi:

*Ko'rdum tuno kun ko'chada bir mahluqoni,
hayron bo'la qoldim.
Husnidin ani ko'nglum uyi topdi ziyoni, raxshon
bo'la qoldim¹².*

Alloh jamolining kichik bir zuhurati bo'lgan go'zallikdan orif hayratlanarli. Inson go'zalligi vositasida Husni mutlaqqa intiladi, ishq ahliga aylanadi, shahodat olami orqali g'ayb olamiga kirishga ehtiyoj seza boshlaydi.

Huvaydo mazmun–mundarija jihatidan ham, shakliy–badiiy jihatlaridan ham mukammal mustazodlar yaratgan. Ushbu baytlar bilan boshlanuvchi asar shoirning mustazod bitishidagi mahoratini ko'rsatadi:

*Ko'rdum tuno kun ko'chada bir mahluqoni,
hayron bo'la qoldim.
Husnidin ani ko'nglum uyi topdi ziyoni, raxshon
bo'la qoldim.
Aydim: “Ey pari, qayda borursan jadal aylab?”,
achchig'lanib aytur:
“Sho'xim, na so'rarsan, na ishing bor bu
zamon?”; pazmon bo'la qoldim¹³.*

“Nasoyim ul–muhabbat”da Navoiy yozadilar: “Yana (Naqshbandiydan) so'rdilarki, sizning tariqingiz binosi ne ishdur? Dedilarki, anjumanda xilvat: zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin Haq subhonahu va taolo bila. Bayt:

*Az darun oshnovu va – z berun begonavash,
Inchunin zebo ravish kam mebunand andar
jahon”.*

Mazmuni: “Ichki tomondan mahbub bilan oshno bo'lgil va lekin tashqi tomondan o'zingni begonavash tutgin”. Ya'ni sevikli bilan ichki ittifoqda bo'lmog'ing kifoya, muhabbatini el aro namoyish etishing odobdan emas. Shunday go'zal xulq–atvor olam ahlida kamdan–kam uchraydi.

Huvaydo bu baytiga pining muridga ana shunday sabog'ini singdirgan. Huvaydo ruboiyoti ham falsafiy–ramziy ma'nolar bilan sug'orilgan:

*Ey bog'i nazokatda qadi sarv, yuzi gul,
Ul yuzdin erur ishq eli chun qumriyu bulbul.
Rayhonu binafsha xati zulfingni asiri,
Shamshodu sanubar qading oldida ikki qul.*

Ishq elini qumri-yu bulbuldek nola chektirgan ul yuz–ilohiy tal'at timsoli¹⁴.

10 Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. B.: 140.

11 O'sha asar, B.: 141.

12 Xojamnazar Huvaydo. Devon.– T.: Yangi asr avlodi, 2017. B.: 250.

13 Nusratullo Atoulo o'g'li Jumaxo'ja. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy – badiiy talqin. Sharq yulduzi jurnali. 1998-4- son. B.:176.

14 O'sha asar. B.: 177.

Sharqda qadimdan “shomi g'arib” degan g'oyat katta fojea va fojeali holatdan, shunday vaqt va kayfiyatdan darak beradigan simvolik, chuqur ma'noli va sirli ibora bor. U, o'ta g'amgin va ilojsizlik vaziyatidagi odam, kimsasiz va notavon shaxs ahvolini eslatadi, “tomi osmon, to'shagi somon” ahvolidagi bechora va bevatanlar (o'z yurtida musofirlardan ham battar kun kechirganlar), yolg'izlik azobini chekkan va bosib kelayotgan zulmat xuruji tahdidi ostida bo'lgan benavolarni, ularning ayanchli holatini ko'z o'ngiga keltiradi. U, yoqasi choklarni, ohining dudi osmonga chiqqan, dardi dunyodan ham katta bo'lib ko'ringan hoksozlarni va shu bilan birga, dili, g'oyasi, ezgu orzularini koinotga ham sig'dira olmaydigan osiylarni eslatadi. U qafasda bo'g'ilgan, mungli ingragan va ayni zamonada, shu qafasni yorib chiqib ketishga urining, ozodlikka intilgan, lekin bunga erisholmayotgan tutqun qushni yodga soladi. XVIII asrda avvallarida, ba'zi ma'lumotlariga ko'ra, Farg'ona vodiysidagi Chimyonda, boshqalar aytishicha, O'sh shahrida tavallud topgan va deyarli hamisha shu yerda yashagan, maktabdorlik, hunarmandlik va she'r ijod etish bilan mashg'ul bo'lgan Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo ana shundaylardan biri edi, - ana shunday o'ta fojiali va ziddiyatli, ham zamonasi quli, ham isyonkori hisoblangan nafosatchilardan biridir. Mana shunday qarama–qarshilikli pozitsiyada turib ijod etgan, o'zbek adabiyoti tarixida hamda xalq hayoti va avlodlar dilida o'ziga xos chuqur iz qoldirgan san'atkorlardan biridir. U, bir necha juda muhim, kardinal masalalarda o'zbek badiiy madaniyati va falsafiy ongi tarixida katta o'rin egallagan ijodlardan biridir.

Ammo, afsuski, uning boy, serbo'yoqli, ko'p qirrali ijodi hamon maxsus va jiddiy tadqiq etilmay, qariyb o'rganilmay kelayotir. Bunga asosiy sabab, shu ijodning nihoyat darajada murakkab va muammoli ekanligi bo'lsa kerak.

Solikning botiniy olamiga murojaat qilish, qalb uyini poklash Huvaydo badiiyatining muhim jihati. U Imom G'azzoliyning insonning mohiyati to'g'risidagi qarashlarini ijodiy rivojlantirar ekan, Alloh har qanday qalbdan emas, balki pok qalblardagina makon tutishini ta'kidlaydi va solik, avvalo, qalb uyini hoy-u havas, nafs, ta'ma, kibr-u havo singari

g'uborlardan tozalashi zarur, deb hisobladi:

*Jon uyin pokiza qilg'il, qolmasun gardu g'ubor,
Man eshittim g'aybdin: pokiza dil ma'voysi
do'st¹⁵.*

Darhaqiqat, Huvaydo dunyoni behad sevdi – ko'klam kabi ko'rkam, osmoni charaq yulduzlar bilan bezangan, yeri oftob bilan nafas oladigan, har joyida ilhombaxsh go'zallik va hayotbaxsh osudalik mavjud bo'lgan, sof sevgi safosi, vafodor yor vasli, ajoyib may kayfi, chechak chiroyi, tanbur navosi, she'r nash'asi, fidoyi do'stlar doirasi, suhbat, xullas, haqiqiy insoniy hayot va go'zal turmush bilan to'la dunyoni sevdi, ardoqladi. To'g'riroq aytganda, shoir shunday dunyoni orzu qildi va shu orzuni kuyladi, e'zozladi. Lekin shoirning ko'z o'ngida ko'zini o'yib olayotgan dunyo esa, uning orzusiga tamomila zid edi, oddiygina zid emas, aksincha, shu orzuni o'zining barcha og'irligi va g'addorligi, insofsizligi bilan toptalar va ajdaho hamlasi bilan yutib turar, orzu egasini esa tahqirlab, dilini parcha – parcha qilib turar edi. O'zi esa, kattakon hamda shafqatsiz, dahshatli g'amxona bo'lib, qabohat va talon tarojlikni, murdorlik va munofiqlikni, makr va riyokorlikni daxlsiz qonun darajasiga ko'targan edi, umuman, xalqni ham moddiy, ham ma'naviy tomondan qashshoqlashtirishni va mamlakatni xarobaga aylantirishni, inson erki va qadr–qimmatini yirtqichlarcha oyoq osti qilishni “muqaddas” prinsipga aylantirgan edi:

*Bu dunyo siflaparvardir, ayo yor,
Tamomi yaxshilar dunyodadur xor...¹⁶*

Shular tufayli Huvaydo shu dunyoni nafratlaydi, rad etadi, uning shunday olchoq ekanligini fosh etadi. Buni shoir har xil vosita, yo'l va xulosalar bilan qiladi. Ba'zan tarki dunyochilikni targ'ib qiladi, ba'zan dunyo ishlaridan etak silkib, passiv yashash bilan mashg'ul bo'lishni tashviq qiladi, ba'zi vaqtlarda esa, o'zining yuqoridagi umumiy sotsial ahamiyatga ega bo'lgan go'zal dunyo haqidagi orzusiga behad berilib ketadi, uni o'shal mash'um hamda mashaqqatli dunyoga qarama–qarshi qo'yadi va shu orzuni amalga oshirish, umuman, dunyodagi go'zalliklardan foydalanish zarurligini tarannum etadi.

15 O'sha asar, B.: 53.

16 Zohidov Vohid. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. B.: 142.

TA'LIM TIZIMIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI

Xurram Ergashevich Tangirov - dotsent, v.b., p.f.f.d.(PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida, ta'lim jarayonida mobil ilovalarning o'zni, fanlar bo'yicha mobil ilovalar yaratish va ulardan foydalanish jihatlari, bugungi kunda uning ahamiyati, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari haqidagi fikrlar keltirilgan. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida fanlar bo'yicha mobil ta'lim uchun mobil ilovalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ta'lim jarayoniga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, xususan, fanlar bo'yicha mobil ilovalar yaratish o'quvchilarning bilim olish darajasini oshishiga, mustaqil ta'lim olishga xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье представлена роль мобильных приложений в образовательном процессе в системе непрерывного образования, аспекты создания и использования мобильных приложений по предметам, их значение сегодня, а также вопросы внедрения цифровых технологий в образовательный процесс. Сегодня можно сказать, что в системе непрерывного образования очень важно создание мобильных приложений для мобильного обучения. В связи с этим внедрение цифровых образовательных технологий в учебный процесс, в частности создание мобильных приложений по предметам, служит повышению уровня образования учащихся, получить самостоятельное образование.

Abstract: This article presents the role of mobile applications in the educational process in the system of continuing education, aspects of the creation and use of mobile applications in subjects, their significance today, as well as issues of introducing digital technologies into the educational process. Today we can say that in the system of continuous education it is very important to create mobile applications for mobile learning. In this regard, the introduction of digital educational technologies in the educational process, in particular the creation of mobile applications in subjects, serves to increase the level of education of students and to obtain independent education.

Kalit so'zlar: mobil ta'lim, mobil ilovalar, mustaqil ta'lim, internet, ijtimoiy tarmoq, elektron ta'lim resurslari.

Ключевые слова: мобильное образование, мобильные приложения, самостоятельное образование, Интернет, социальная сеть, электронные учебные ресурсы.

Keywords: mobile education, mobile applications, self-directed education, Internet, social network, electronic learning resources.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda, zero, raqamli ta'lim texnologiyalar rivojlanib, undan foydalanuvchilar soni ham shunga mos juda tez oshib bormoqda.

Dunyo aholisi 2022-yil 15-noyabrda 8 milliarddan oshdi va 2023-yil yanvar holatiga ko'ra, 8,01 milliard kishini tashkil etgan va yillik o'sish 1% ni tashkil qiladi. Dunyo aholisining yarmidan ko'pi (57%) shaharlarda yashaydi. Bugungi kunda dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko'prog'i (68%) mobil telefonlardan foydalanadi, 2023-yil boshiga kelib mobil foydalanuvchilar soni 5,44 milliard kishiga yetdi. O'tgan yil boshidan buyon o'sish 168 million (3%) foydalanuvchini tashkil etdi.

2023-yil boshida, yanvar oyida dunyo bo'ylab internetdan foydalanuvchilar soni 5,16 milliard kishiga yetgan, bu dunyo aholisining 64,4 foizi internetdan foydalanadi, degani va bu internetdan foydalanuvchilar soni bir yil davomida 1,9% ga o'sganligini bildiradi. Shuningdek, yil boshida dunyo bo'ylab 4,76 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor edi, bu butun dunyo aholisining 60 foizini tashkil etadi. Oxirgi 12 oy ichida global ijtimoiy tarmoq yangi foydalanuvchilari 3 foiz, ya'ni 137 million ga oshgan¹.

O'zbekistonda 2023-yil boshida internetdan foydalanuvchilar soni 31 million kishidan, mobil internetdan foydalanuvchilar soni 29,5 million kishidan oshgan².

Bundan ko'rinib turibdiki, uzluksiz

ta'lim tizimida fanlar bo'yicha elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ularni internet tarmog'iga web-saytlar yaratish orqali joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarga kanallar, guruhlar, bloklar, alohida sahifalar yaratish orqali joylashtirish, shuningdek, mobil ilovalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni orqali davlatimiz tomonidan ta'limga axborot texnologiyalarni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rishimiz mumkin³. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar orqali dars jarayonini olib borish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, xususan, fanlar bo'yicha mobil ilovalar yaratish o'quvchilarning bilim olish darajasini oshishiga xizmat qiladi. Buning uchun elektron ta'lim resurslarini, mobil ilovalarni yaratishda muhim hisoblanuvchi algoritm va dasturlash tillari, mobil texnologiyalar fanlaridan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning ahamiyati kattadir⁴.

Intellektual iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida turli xil mobil texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni egallash moslashuvchan, qulay, individual ta'limni ta'minlaydigan progressiv texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim tizimining bir qismiga aylanmoqda. O'quvchilarning har kuni mobil telefon va boshqa qurilmalardan foydalanishi ta'limda mobil ta'lim texnologiyalarining yanada keng tarqalishiga turtki bo'lmoqda⁵.

Mobil qurilmalardan foydalangan holda o'quvchilar ta'lim resurslariga kirishlari, boshqa foydalanuvchilar bilan bog'lanishlari va sinfda va undan tashqarida kontent yaratishlari mumkin. Mobil ilovalar orqali ta'lim olish jarayoni mustaqil ta'lim texnologiyasi sifatida qabul qilinishi va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda ishlatilishi mumkin.

M.Hoshimiy, M.Azizinejad va boshqalar⁶

ning fikricha, elektron ta'lim (e-learning) va mobil qurilmalarning kundalik hayotdagi rolining ortib borishi mobil ta'lim deb nomlangan yangi o'rganish usulining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Mobil ilovalar mobil ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'qitish va ta'lim sifatini oshirish uchun katta salohiyatga ega.

Mobil ta'lim ushbu maqoladagi asosiy tushuncha bo'lib, mobil o'qitishdir, shuning uchun uning ma'nosini aniqlash muhimdir. Education Technology Solutions jurnalida chop etilgan maqolaga ko'ra⁷, mobillik bu, birinchi navbatda, har qanday vaqtda va istalgan joyda mavjud bo'lgan noan'anaviy o'quv muhitini yaratish usulidir.

Mobil ta'lim istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganish uchun mobil texnologiyalardan yolg'iz yoki boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda foydalanishni o'z ichiga oladi. O'rganish turli shakllarda rivojlanishi mumkin: odamlar mobil qurilmalardan ta'lim resurslariga kirish, boshqalar bilan muloqot qilish yoki sinf ichida va tashqarisida kontent yaratish uchun foydalanishi mumkin. Mobil texnologiyalar jamiyat tomonidan hamma joyda, kundalik hayotdantortib, jamiyatning barcha jabhalarida: kundalik hayotda, iqtisodiyotda, biznesda, boshqaruvda, ta'limda joriy etilmoqda va foydalanilmoqda. Mobil texnologiyalarni qo'llash doirasi doimiy ravishda kengayib bormoqda, ulardan foydalanish oson va qulay bo'lib bormoqda⁸.

UNESCO ning nashrlari, shuningdek, I.N.Golitsina va N.L.Polovnikova⁹ ma'lumotlari kabi turli manbalardan olingan "mobil ta'lim" tushunchasini tahlil qilish natijasida, biz mobil ta'limning umumiy tendensiyasini - o'quv jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. O'quv jarayoniga mobil texnologiyalarni joriy etish mobil ta'lim yoki m-Learning deb ataladi, bu esa o'quv jarayonida mobil texnologiyalardan individual ravishda hamda boshqa o'qitish usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda foydalanishni

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son).

4 Botirov D.B., Tangirov Kh.E., Mamatkulova U.E., Aliboyev S.Kh., Khaitova N.F., Alkorova U.M. (2020). The importance of teaching algorithms and programming languages in the creation of electronic education resources. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 365-368. doi:10.31838/jcr.07.11.63

5 Jonas-Dwyer D.D., Clark C., Celenza A., Siddiqui Z.S. Evaluating Apps for Learning and Teaching // *Intern. J. of Emerging Technologies In Learning*. 2012. № 7 (1). P. 54 - 57.

6 Hashemi M., Azizinezhad M., Najafi V., Nesari A. What is Mobile Learning? Challenges and Capabilities // *Procedia - Social And Behavioral Sciences*. 2011. № 30. - pp. 2477-2481.

7 Kinash S., Kordyban R., Hives L. What mobile learning looks like // *Education technology solutions*. 2012. № 49. - pp. 55-56.

8 Sattarov A.R., Khaitova N.F. Mobile learning as new forms and methods of increasing the effectiveness of education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. Vol. 7 No. 12, 2019. 1169-1175 p.

9 Голицина И.Н., Половникова Н.Л. Мобильное обучение как новая технология в образовании // "Образовательные технологии и общество". - 2011. -№1. -Том 14. - С. 241-252.

nazarda tutadi¹⁰.

Mobil ta'lim talabalarining mobil texnologiyalar va qurilmalardan foydalangan holda maxsus tashkil etilgan o'quv materiallarini o'zlashtirishlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv quyidagi ta'riflarda o'z aksini topgan:

"Mobil ta'lim – fanlararo va modulli yondashuvlarning pedagogik asosidagi maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, vaqt va joylashuvdan qat'iy nazar mobil qurilmalar yordamidagi elektron ta'limdir"¹¹;

"Mobil ta'lim mobil kompyuter qurilmalari va simsiz aloqa vositalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish shaklidir"¹²;

Bugungi kunda ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanish - nisbatan yangi tendensiyadir, o'qituvchilar o'quv jarayonida mobil qurilmalardan foydalanishga harakat qilmoqda. N.Xokli¹³ mobil ta'limni sinfda va undan tashqarida rasmiy va norasmiy ta'limni birlashtirgan yondashuv sifatida belgilaydi, ya'ni mobil ta'lim – bu o'quv muhiti ta'lim muassasasining xronologiyasi bilan cheklanib qolmasdan, balki har qanday sharoitda, istalgan joy va vaqtda mavjud bo'lgan ta'limga bo'lgan yondashuvdir. Shu bilan birga, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa klassik ta'lim jarayoni doirasida ham, virtual tarzda ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa sinfdagi rasmiy ta'lim va undan tashqarida norasmiy ta'limni birlashtirishga imkon beradi. Sinfda mobil qurilmalardan foydalanishdan oldin mobil ta'limdan foydalanishning afzalliklari bo'lgani kabi ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muammolari ham mavjud.

M.Hoshimiy, M.Azizinejad va boshqalar¹⁴ning fikricha, mobil qurilmalar o'qituvchilar va talabalar uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda an'anaviy o'qitishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Masalan, mobil ta'limdan foydalanish talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatini yaxshilashga olib keladi: aloqa formati an'anaviyga o'xshash bo'ladi. Ishtirokchilar kompyuter monitorlari orqasiga yashirinish o'rniga jonli muloqot bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari, mobil

qurilmalardan foydalanish va joylashtirish kompyuter yoki noutbuklarga qaraganda osonroq. Mobil qurilmalar kompyuterlar yoki monitorlarga qaraganda kamroq og'ir bo'lib, topshiriqlarni almashish va matnni elektron pochta orqali yuborish, kesish va nusxalash orqali boshqa talabalar yoki o'qituvchi bilan ishlashni osonlashtiradi. Bundan tashqari, mobil qurilmalardan masofaviy o'qitishda foydalanish mumkin. Boshqa tomondan, o'qituvchilar va talabalar o'qitish va o'qitishda mobil qurilmalardan foydalanish muammolarini ko'rib chiqishlari kerak, jumladan, kichik ekranlardan foydalanish, bu esa undagi ma'lumotlar miqdorini cheklaydi. Bundan tashqari, mobil qurilma batareykalari boshqa qiyinchilikni tug'dirishi mumkin. Talabalar qurilmani ta'lim maqsadlarida ishlatishdan oldin batareyakasining to'liq zaryadlanganligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Biroq ba'zi mobil qurilmalar Wi-Fi simsiz tarmog'iga bog'liq va ulardan internetsiz foydalanish mumkin emas.

Mobil qurilmadan faqat o'yin-kulgi manbai sifatida foydalanish ta'lim muhitida mobil ta'limning jozibadorligini pasaytiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonidan chalg'ituvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday holatlarda mobil ta'lim resurslarining imkoniyatlarini, ularning o'qitish sifatini oshirishga ta'sirini, o'qitish va ta'lim jarayonini boshqarishni ko'rsatuvchi tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Mobil ilovalar mobil ta'limdan foydalanish bilan bog'liq muammolarga qaramay, u ta'lim jarayonida juda mashhur bo'ldi. Ushbu yondashuvning keng tarqalganligi birinchi navbatda mobil ilovalar bilan bog'liq, chunki ular istalgan joyda va istalgan vaqtda ishlatilishi mumkin.

Bir qator lug'atlarda "ilova" atamasi kompyuter dasturi sifatida ta'riflanadi. P.Kristensson¹⁵ ilovani elektron pochta, o'yinlar, yordamchi dasturlar va boshqalar kabi kompyuter dasturi sifatida belgilaydi. Ilova - bu kompyuterda ishlatiladigan, asosiy vazifani bajaradigan dasturiy ta'minot. Biroq, mobil ilovalar (apps) haqida gapirganda, lug'atlarning ko'pchiligi uni mobil dastur sifatida belgilaydi.

¹⁰ UNESCO Policy Guidelines for Mobile Learning / 2013/ Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО). UNESCO Policy Guidelines for Mobile Learning / <https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214738.pdf>

¹¹ Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании. Автореферат диссер. на соискание уч. сте-пени докт. пед. наук. – Ульяновск, 2010. – 46 с.

¹² Погуляев Д. В. Возможности применения мобильных технологий в учебном процессе // Прикладная информатика. – 2006. – №5. – С. 80-84.

¹³ Hockly N. Mobile learning // ELT J.: English Language Teaching J. 2013. № 67 (1). - pp. 80–84.

¹⁴ Hashemi M., Azizinezhad M., Najafi V., Nesari A. What is Mobile Learning? Challenges and Capabilities // Procedia – Social And Behavioral Sciences. 2011. № 30. - pp. 2479.

¹⁵ Christensson P. Application Definition. URL: <http://techterms.com>.

Oksford lug'atida ilova deganda shaxs tomonidan internetdan yuklab olinadigan va mobil qurilmaga o'rnatiladigan dastur tushuniladi¹⁶. Dictionary.com ma'lumotlariga ko'ra, mobil ilova kichik dastur bo'lib, asosan, mobil telefonga o'rnatiladi¹⁷. Sinfda ilovalardan foydalanish yoki ularni o'quvchilarga tanishtirishdan oldin o'qituvchilar har xil turdagi ilovalarni o'quv jarayoniga qanday kiritish mumkinligini aniq tushunishlari kerak.

K.Shipmanning¹⁸ fikricha, taqdim etilayotgan narsaga yangi ma'lumotlarni qo'shishi mumkin bo'lgan turli xil turdagi o'quv mobil ilovalari, kontent ilovalari (content apps) mavjud:

- talabalarga ma'lumotni to'plash va saqlashga yordam beradigan amaliy ish ilovalari (fieldwork apps);

- talabalar boshqa odamlarning nutqini tinglashlari yoki o'zlarini yozib olishlari mumkin bo'lgan tovush va ko'rish ilovalari (sound and vision apps);

- o'quvchilarga xaritalar va joylar haqida ma'lumot beradigan xaritalash ilovalari (mapping apps);

- talabalar o'z ishlariga ma'lumot qo'shish yoki yaxshilash uchun o'zlarining rasmlarini yaratishlari mumkin bo'lgan ijodiy ish ilovalari (creative apps).

Bundan tashqari, ilovalarni funksiyalar soniga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin: bitta funktsiyali ilovalar (single function apps) va bir nechta funktsiyali ilovalar (multiple function apps).

F.Xaddej va S.Lattenmanlarning tadqiqot ishlariga ko'ra, mobil ilovaning samaradorligini baholashning uchta parametri mavjud:

1. Tezlik, ishonchlik va soddalik (speed, security, simplicity). Mobil ilovaning tezligi talabalar va o'qituvchilarga tez va samarali ishlash imkonini beradi, ularga turli qurilmalardagi ilovalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

2. Ishonchlik parametri ushbu mobil ilovadan foydalanuvchilarning o'zlariga yuklangan vazifalarni samarali bajarishlari va shuning uchun materialni o'zlashtirishda o'z qobiliyatlariga ishonch his qilishlarini ta'minlaydi.

3. Oddiylik parametri mobil ilovadan

foydalanish qanchalik oson va samarali ekanligini aniqlaydi. Mobil ilovalardan tibbiyot, matematika va geografiya kabi ta'limning turli sohalarida foydalanish mumkin. Mobil ilovalar masofaviy ta'limda foydali bo'lishi mumkin, bu F.Xaddej va S.Lattenmanlarning tadqiqotida ko'rsatilgan, chunki nemis tilini o'rganuvchilarning 70% va avstraliyalik til o'rganuvchilarning 85% o'quv jarayonida mobil ilovadan foydalanish samaradorli ekanligini tasdiqlaganlar¹⁹.

O.Franko va T.Tirrell tibbiy amaliyotda mobil ilovadan foydalanishni o'rganib chiqdilar. Ma'lum bo'lishicha, mobil ilovadan foydalanish tibbiyot amaliyotiga yangi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Biroq Franko va Tirrell tomonidan o'tkazilgan tadqiqot²⁰ mobil ilovalardan tibbiy amaliyotda qanday foydalanish mumkinligini aniq tushuntirmaydi. Bundan tashqari, mobil ilovalar tabiiy hodisalarni namoyish qilish uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, K.Shipman geografiya darolarida zilzila omillarini, misol uchun silkinish darajasi yoki epitsentrning chuqurligini namoyish qilish uchun mobil ilovalardan foydalanadi. Bundan tashqari, u topshiriqlarning turli shakllaridan foydalanadi, shuningdek, individual, juftlik va guruh (jamoaviy) topshiriqlarni birlashtiradi. Mobil ilovalar talabalar motivatsiyasini oshirishi va darsni talabalar uchun qiziqarli qilishi mumkin.

A.Drigas va M.Pappasning fikricha²¹, mobil ilovalar matematika uchun zarur bo'lgan arifmetik ko'nikmalar, masalani yechish ko'nikmalari va boshqa har qanday ko'nikmalarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilar faolligini oshiradi va matematika sinfida noan'anaviy o'quv muhitini yaratadi. Bundan tashqari, talabalar mobil ilovalardan sinfdoshlari yoki o'qituvchilari bilan bog'lanib, test va nazorat ishlarini bajarish, dars mazmuni (materiali)ni yuklab olish uchun foydalanayotgani aniqlandi.

F.Xaddej va S.Lattenman, K.Boser va S.Ueyland kabi olimlar o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi bir qator mobil ilovalarning ijobiy jihatlari sanab o'tadi:

- kitob o'qish, sahifalar matnni yaratish;
- taqvim bilan muloqot qilish va

¹⁶ Definition of application // Merriam-webster.com. URL: <http://www.merriamwebster.com/dictionary/application>.

¹⁷ Definition of app // Dictionary.com. URL: <http://www.dictionary.com/browse/app>

¹⁸ Shipman K. Using apps in the classroom // Teaching Geography. – 2014. №39 (1). – pp. 32-33.

¹⁹ Khaddage F., Lattenmann C. The future of mobile apps for teaching and learning / Berge, Zane L., Muilenburg, Lin Y.(Eds) // Handbook of mobile learning. NY: Routledge, 2013. - pp. 119–128.

²⁰ Franko O., Tirrell T. Smartphone App Use Among Medical Providers in ACGME Training Programs // J. Med Syst. 2011. № 36 (5). - pp. 3135–3139.

²¹ Drigas A., Pappas M. A Review of Mobile Learning Applications for Mathematics // IJIM. 2015. № 9 (3). - pp. 18–21.

jadvallarni almashish, rasmlarga eslatma qo'shish;

– til o'rgatish va o'rganishda yozish, o'qish va gapirish kabi savodxonlik ko'nikmalarini oshirish;

– fotosuratlar, animatsiyalar, videolar mavjud bo'lgan interaktiv shakldagi maktab kitoblari;

– talabalarning so'z boyligini oshirish²².

So'nggi yillarda mobil ta'limning mashhurligi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shu sababli o'qituvchilar tomonidan ta'limning matematika, tibbiyot, geografiya kabi yo'nalishlarida ko'rgazmalilik, dars mavzusiga qo'shimcha ma'lumotlar kiritish yoki o'quv jarayonining noan'anaviy formatini yaratish uchun mobil ilovalarni joriy etish va ulardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Shu jihatdan, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ya'ni elektron o'quv adabiyotlar yaratish, fanlardan mobil ilovalar yaratish bu boradagi muhim ishlardir. Bugungi kunda elektron o'quv adabiyotlarini yaratish uchun oddiy algoritmik dasturlash tilidan tortib turli pedagogik dasturiy vositalar qo'llanilmoqda. Bunday dasturlar yordamida va Internet texnologiyalaridan foydalanib fanlar bo'yicha, shu jumladan, "Algebra", "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari bo'yicha elektron o'quv qo'llanma yaratish mumkin. Shu kunga qadar mashg'ulotlarni tashkil etish uchun "Algebra", "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari bo'yicha multimediali elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari yaratilgan²³, shuningdek, ularning Internet versiyalar ham yaratilib, internet tarmog'iga (www.edarslik.uz saytiga) joylashtirilgan. Undagi elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- dastur tavsifi;
- mavzu mazmunini tanlash;
- mashg'ulotni namoyish etish qobig'i;

- amaliy topshiriqlar;
- grafik animatsiya;
- ovoz berish fayllari;
- matnli fayllar;
- nazorat dasturi (test dasturi)²⁴.

Endilikda ularning mobil versiyalarini, ya'ni mobil qurilmalarda foydalanish uchun uzluksiz ta'lim tizimidagi fanlar bo'yicha, shu jumladan, "Algebra", "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari bo'yicha mobil ilovalar yaratish ustida ishlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonida mobil ta'limni yo'lga qo'yish uchun ham fanlar bo'yicha mobil ilovalar zarur bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda dunyo bo'yicha mobil telefonlardan foydalanuvchilarni va internetdan foydalanuvchilarni hisobga olib, internet tarmog'ida ta'lim bo'yicha kontentlarni yaratish, web-sahifalarga elektron ta'lim resurslarini joylash, mobil ilovalarni yaratish lozim. Bu esa ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishning bir usuli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mobil ta'limda mobil ilovalar, elektron ta'lim resurslari bir qator imkoniyatlarga ega: o'quvchilar dasturning menyusi yordamida ixtiyoriy dars mavzusini tanlash va boshqa mavzuga tez o'tish, shuningdek, foydalanuvchilar taqdimotlarni ko'rish, o'rganilgan tushunchalarga tezkor o'tish, glossariydan foydalanish, krossvordlar, mavzuga doir testlarni yechish orqali o'z-o'zini baholash kabi bir qator imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng tarqalgan foydalanish va o'rganishning noyob imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ushbu texnologiyalar dolzarb ma'lumotlarni olish, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishning samarali shakllaridan biriga aylanishi mumkin. Bu esa ta'lim tizimida mobil ta'limning o'rnini, unda mobil ilovalardan foydalanish ahamiyati qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

КРАЕВАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ СИСТЕМЫ НЕЛИНЕЙНЫХ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ С МАЛЫМ ПАРАМЕТРОМ

Абдумоннон Алишев - к.ф. – м.н., доцент, Джизакский государственный педагогический университет
Жавохир Улмасов - студент, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: В этой статье представлены асимптотические решения, удовлетворяющие граничным условиям для системы нелинейных дифференциальных уравнений с медленно меняющимися коэффициентами.

Анотация: Ushbu maqolada sekin o'zgaruvchan koeffitsientli chiziqli bo'lmagan differensial tenglamalar sistemasi uchun chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi asimptotik yechimlar keltirilgan.

Abstract: This article presents asymptotic solutions satisfying boundary conditions for a system of nonlinear differential equations with a slowly changing coefficient.

Ключевые слова: Характеристическое уравнение, краевая задача, векторная матрица, единичная матрица.

Калит so'zlar: Charakteristik tenglama, chegaraviy masala, vektor matritsa, birlik matritsa.

Keywords: Characteristic equation, boundary issue, vector matrix, unit matrix.

Рассмотрим систему

$$\frac{dx}{dt} = A(\tau, \epsilon)x + \epsilon f(\tau, x, \epsilon) \quad (1)$$

с начальными условиями

$$x(\tau, \epsilon) /_{\tau=0} = X_0 \quad (2)$$

где x, f, n - мерные векторы, из них $x(\tau, \epsilon)$ неизвестные, матрица $A(\tau, \epsilon)$ допускающая асимптотическое разложение

$$A(\tau, \epsilon) = \sum_{s=0}^{\infty} \epsilon^s A_s(\tau), \quad (3)$$

$\epsilon > 0$ - малей параметр, $\tau = \epsilon t \in [0, 1]$ - медленное время.

В данной работе рассматривается вопрос построение решения системы (1), в случае полупростого корня характеристического уравнения

$$\det[A_0(\tau) - \lambda(\tau)E] = 0 \quad (4)$$

(E - единичная матрица) т.е.

$$\lambda_j(\tau) \equiv 0 \quad (j = \overline{1, r}),$$

$$\operatorname{Re} \lambda_j(\tau) < 0 \quad (j = r + 1, \dots, r + m),$$

$$\operatorname{Re} \lambda_j(\tau) > 0 \quad (j = r + m + 1, \dots, r + m + k = n),$$

с краевыми условиями

$$ax(0, \epsilon) = ax_0, bx(1, \epsilon) = bx_0, a = \begin{pmatrix} E_{m+r_1} & 0 \\ 0 & 0 \end{pmatrix}, b = \begin{pmatrix} 0 & 0 \\ 0 & E_{k+r_2} \end{pmatrix} \quad (5)$$

где единичная матрица.

Докажем следующие теоремы.

Теорема 1. Пусть выполняются условия:

а) матрицы $A_s(\tau) (s = 0, 1, \dots)$ и вектор при (d- постоянная) принадлежат классу

C^k (для достаточно больших значений k).

б) матрица $A_0(\tau)$ имеет полупростое нулевое собственное значение кратности $r < n$ (при $p < n$ матрица $A_0(\tau) \equiv 0$).

Тогда формальное решение системы (1) можно представить в виде

$$x(\tau, \epsilon) = \sum_{s=0}^{\infty} \epsilon^s x_s(\tau) \quad (6)$$

Для доказательства данной теоремы подставим (6) в систему (1), раскладывая

22 Boser K., Wayland S. 7 Apps That Teach Literacy Skills: Visual and Sonic Aids Can Help Students with Language Disorders Improve Their Reading, Writing and Speaking // THE J. (Technological Horizons In Education). 2014. № 41 (2). P. 22.

23 Tangirov Kh.E. The use of electronic educational resources for individualization in the process of teaching algebra in schools //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. United Kingdom: Progressive Academic Publishing. Vol7. - 2019. - №. 3. - С. 43-48.

24 <https://www.edarslik.uz/my/bosh.htm> - umumta'lim maktablari uchun aniq fanlardan elektron ta'lim resurslari.

$f(x(\tau, \varepsilon), \tau, \varepsilon)$ вектор в ряд Тейлора в окрестности точки $(x_0(\tau), \tau, 0)$ и собирая члены с одинаковыми степенями получим $ax'(\tau, \varepsilon) = A(\tau, \varepsilon)x(\tau, \varepsilon) + a[f(x_0(\tau, \tau, 0) + \varepsilon f_1(\tau)x_1(\tau) + f_2(\tau)) + \dots + \varepsilon^r [f_s(1)x_s(\tau) + f_{s+1}(\tau)] + \dots]$ (7)

где элементы матрицы $f_x(\tau) = \frac{\partial f}{\partial x}$ и компоненты $f_s(\tau) = \frac{\partial f}{\partial \varepsilon^s}$ вектора вычисляются в точке $(x_0(\tau), \tau, 0)$, а вектор $f_s(\tau)$ выражаются определенным образом через $x_r(\tau)$ ($r = 0, \dots, s-1$). Приравняем в выражения (7) коэффициенты при одинаковых степенях ε , придём бесконечные уравнение для определения элементов ряда (6).

$$A_0(\tau)x_0(\tau) = 0 \quad (8)$$

$$A_0(\tau)x_1(\tau) = x'_0(\tau) - A_1(\tau)x_0(\tau) - f(x_0(\tau), \tau, 0) \quad (9)$$

$$A_0(\tau)x_s(\tau) = x'_s(\tau) - A_1(\tau)x_{s-1}(\tau) - \sum_{j=1}^{s-1} A_j(\tau)x_{s-j}(\tau) - [f_s(\tau)x_{s-1}(\tau) + f_{s-1}(\tau)] \quad (s=2,3,\dots) \quad (10)$$

с краевыми условиями

$$ax_s(0) = ax_0, \quad bx_s(1) = bx_0, \quad (s=0,1,\dots) \quad (11)$$

Из (8) согласно¹ находим

$$x_0(\tau) = \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \quad (12)$$

$C_{j0}(\tau)$ где φ_j - произвольные, отличные от нуля для $\forall \tau \in [0,1]$ функции определяется на следующем шаге, $\varphi_j \in N(A_0(\tau))$ (вектор j -я компонента которого равна, а остальные - нуль, т.е. $\varphi_j = I_j = (0, \dots, 1, \dots, 0), (j = \overline{1, r})$).

Для нахождения $C_{j0}(\tau)$ воспользуемся условием разрешимости

уравнения (9), с учетом (11) он имеет вид

$$A_0(\tau)x_1(\tau) = \sum_{j=1}^r \varphi_j C'_{j0}(\tau) - A_1(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau) - f(\sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \tau, 0) \quad (13)$$

Так как $\det A_0(\tau) \equiv 0$ при $\tau \in [0,1]$, то для разрешимости (12) необходимо и достаточно, чтобы

$$\left(\psi_j, \left(\sum_{j=1}^r \varphi_j \frac{dC_{j0}(\tau)}{d\tau} - A_1(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau) - f(\sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \tau, 0) \right) \right) = 0, \quad (14)$$

где ψ_j - собственные векторы сопряженной к $A_0(\tau)$ матрицы $A_0^*(\tau)$, соответствующие нулевому собственному значению.

Считая, что векторы ψ_j и φ_j ортонормированные т.е.

$$\left(\psi_j, \sum_{j=1}^r \varphi_j \right) = 1, \quad j = \overline{1, r} \quad (15)$$

уравнения (13) запишем в виде, разрешенном относительно

$$\frac{dC_{j0}(\tau)}{d\tau} = H(\sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \tau, 0), \quad (j = \overline{1, r}), \quad (16)$$

в котором согласно² определяется $C_{j0}(\tau)$ а вид $H(\sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \tau, 0)$ ясен из сравнения (13), (15).

Так как условия (13) для уравнения (12) выполняются, тогда это общее решение представим в следующем виде

$$x_1(\tau) = P_0(\tau) + \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j1}(\tau), \quad (17)$$

$$P_0(\tau) = A_0^+(\tau) + \left[\sum_{j=1}^r \varphi_j C'_{j0}(\tau) - A_1(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau) - f(\sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j0}(\tau), \tau, 0) \right],$$

$C_{j1}(\tau)$ - неизвестная функция определяется на следующем шаге, а матрица $A_0^+(\tau)$ имеет вид $A_0^+(\tau) = [A_0(\tau) - (\psi_j \otimes \sum_{j=1}^r \varphi_j)]^{-1} - (\sum_{j=1}^r \varphi_j \otimes \psi_j), (j = \overline{1, r}). \quad (18)$

Продолжая этот операций из (10) получаем уравнения для определение элементы $x_s(\tau)$ ряда (6). т.е.

выполнено, то находим

$$x_s(\tau) = P_s(\tau) + \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{js}(\tau), \quad (s=2,3,\dots) \quad (23)$$

где

$$P_s(\tau) = A_0^+(\tau) \left[\sum_{j=1}^r \varphi_j C'_{j,s-1}(\tau) - A_1(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j,s-1}(\tau) - f_s(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j,s-1}(\tau) + Q_{s-2}(\tau) \right],$$

Таким образом, нашей алгоритм позволяет определить все векторы $x_s(\tau)$

для любого натурального s . Методом, разработанным в^{3,4}, можно доказать, что построенное формальное решение обладает асимптотическим свойствам в смысле⁵, а именно, справедлива теорема.

Теорема 2. Пусть выполняются условия теорема1, а также при $\tau = 0$

$$x(0, \varepsilon) = x_m(0, \varepsilon), \quad (24)$$

где $x_m(\tau, \varepsilon)$ - m - приближенные решение системы (1). Тогда найдется

такие постоянные $0 < \varepsilon_0 \leq d, C > 0$, что при $0 < \varepsilon \leq \varepsilon_0$ и $0 < \tau \leq 1$ имеет место неравенство

$$\|x(\tau, \varepsilon) - x_m(\tau, \varepsilon)\| \leq C\varepsilon^{m+1} \quad (25)$$

Аналогично теорема к теореме 1 можно доказать на более общие случаи, в случае кратного нулевого корня характеристического уравнения (4).

$$Q_{s-2}(\tau) = P'_{s-2}(\tau) - A_1(\tau)P_{s-2}(\tau) - \sum_{j=1}^{s-2} A_j(\tau)P_{s-1-j}(\tau) - \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j,s-2}(\tau) - f_{s-2}(\tau)P_{s-2}(\tau) - f_{s-1}(\tau),$$

$$(s=2,3,\dots).$$

где

Пусть для уравнения (18) выполняются условия разрешимости

$$\left(\psi_j, \left(\sum_{j=1}^r \varphi_j C'_{j,s-1}(\tau) - A_1(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j,s-1}(\tau) - f_x(\tau) \sum_{j=1}^r \varphi_j C_{j,s-1}(\tau) + Q_{s-2}(\tau) \right) \right) = 0, \quad (20)$$

Отсюда учитывая (15) имеем

$$\frac{dC_{j,s-1}(\tau)}{d\tau} = \left(\psi_j, \left([A_1(\tau) + f_x(\tau)] \sum_{j=1}^r \varphi_j \right) C'_{j,s-1}(\tau) + \left(\psi_j, Q_{s-2}(\tau) \right) \right) = 0 \quad (21)$$

Интегрируя уравнения (21) получим

$$C_{j,s-1}(\tau) = \exp\left(\int_0^1 b_j(\tau) d\tau\right) [Y_{j,s-1} + \int_0^1 \exp(-\int_0^t b_j(\tau) d\tau) q_j^{(s-2)}(\tau) d\tau], \quad (22)$$

$Y_{j,s-1} (j=1,2)$ где $Y_{j,s-1}$ - постоянная интегрирования определяется из условия

$$C_{j,s-1}(\tau)/\tau=0, \quad b_j(\tau) = \sum_{j=1}^r \left(a_{ji}^{(1)}(\tau) + \frac{\partial f^2}{\partial x^j} \right), \quad (j=1, r)$$

Условия (19) для уравнения (18)

3 Фещенко С.Ф., Шкиль Н.И., Николенко Л.Д. Асимптотические методы в теории линейных дифференциальных уравнений. - К.: Наука думка, 1966. - 251с.

4 Васильева А.Б., Бутузов В.Ф. Сингулярно возмущенные уравнения в критических случаях. - Изд-во моск. Ун-та, 1978. - 107с.

5 Богомолов Н.Н., Митропольский Ю.А. Асимптотические методы в теории нелинейных колебаний. - М.: Наука, 1963. - 410с.

KIMYO FANLARINI O'QITISHDA ILMIY TADQIQOT ISHLARIDAN FOYDALANISH

Mavjuda Ibdulloyevna Ibdulloyeva—k.f.n., dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada kimyo fanidan talabalarga mavzularni o'qitish jarayonida ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish va ularni barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается использование научно-исследовательских работ в процессе преподавания тем студентам-химикам и их значение для воспитания гармоничного поколения.

Abstract: The article discusses the use of research papers in the process of teaching chemistry students and their importance for the upbringing of a harmonious generation.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ilmiy tadqiqot, nazariya, metodologiya, usullar, faraz, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar, sintez, tahlil.

Ключевые слова: наука, научные исследования, теория, методология, методы, гипотеза, фундаментальные, прикладные и инновационные исследования, синтез, анализ

Keywords: science, scientific research, theory, methodology, methods, hypothesis, fundamental, applied and innovative research, synthesis, analysis.

Mamlakat kelajagi, barcha soha va loyihalar muvaffaqiyati bilimlilar, zamonaviy fikrlaydigan, o'z sohasining ustalari bo'lgan insonlarga bog'liq. So'nggi yillarda milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi¹.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boisi, bugun qaysi sohani olmaylik, zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror natijaga erishib bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash maqsadida ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bugungi kundagi jahon sivilizatsiyasi, texnika va texnologiyalar sohasidagi erishilgan ulkan yangiliklar ilm-fan taraqqiyoti mahsulidir.

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim.

Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki - tajriba va nazariyadan iborat.

Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatli, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagina emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo'llaniladi.

Kimyo fanini o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirish, ularni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish uchun xizmat qiladi. Fanga oid so'nggi ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan foydalanib, kimyo fani adabiyotlarni yangilash maqsadga muvofiqdir.

Ilm-fanni rivojlanishi faktlarni to'plash, ularni o'rganish va tizimlashtirish, ayrim qonuniyatlarni mantiqiy mos keluvchi ilmiy bilimlar tizimiga umumlashtirilishi va oshkor etilishiga olib keladi, bu bizga ma'lum bo'lgan dalillarni tushuntirishga va yangi ma'lumotlarni oldindan aytib berishga imkon beradi.

Ilm-fan o'z ichiga tadqiqot usullarini ham oladi. Usul deb – biror bir hodisa yoki jarayonni



nazariy tadqiqot qilish yoki amaliy tekshirish uslubiga tushuniladi.

Usul ilm-fanning asosiy vazifasi, borliqning obyektiv qonunlarini kashf etishning vositasidir. Usul induksiya va deduksiya, analiz va sintezni qo'llash zaruriyati va o'rnini nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan taqqoslagan holda belgilaydi.

Tahlil (analiz) – tadqiqot obyektini fikran tarkibiy qismlarga ajratish yoki unga xos belgi va xossalarni alohida o'rganish uchun ajratib olishga asoslangan.

Sintez – ilmiy tadqiq qilayotgan obyektning yoki obyektning barcha tashkil etuvchi qismlarini yoki unga xos belgilarini, o'zaro aloqalarini bir butun deb olinishi tushuniladi.

Kimyo fani juda ko'p bo'limlarga bo'linadi: noorganik kimyo, organik kimyo, analitik kimyo, fizik-kolloid kimyo, biokimyo va boshqalar. So'nggi yillarda rivojlanib borayotgan nanokimyo haqida ham ma'lumotlar berish lozim. Noorganik kimyo fanidan uglerod mavzusini o'tish jarayonida allotropiya haqida to'xtalib o'tamiz, bunda uglerodning allotropik o'zgarishi fulleren haqida ham ilmiy ishlar aytish o'quvchilarga fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi².

Ilmiy bilimlar birinchi navbatda amalda tajriba orqali tekshirish bilan aniqlanadi. Fulleren 1985-yilda Garold Kroto, Robert Kurl va Richard Smalleylar tomonidan kashf etilgan, ular 1996-yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotini olishdi. Fulleren juda barqaror uglerod molekularidan tashkil topgan, ular olmos va grafitdan keyin uglerodning ma'lum bo'lgan uchinchi barqaror molekulyar shakli sifatida tanilgan. O'sha yili turli xil tajribalar o'tkazildi. Xyustondagi Rays universitetida, Sautgempton universiteti Harold Kroto va Raysdan Richard Smalley va Robert Kurl yulduzlar yuzasida sodir bo'lgan barcha sharoitlarni simulyatsiya qilishga urinishga asoslangan tajriba o'tkazdilar. Ushbu tajribaning maqsadi kosmosda qanday katta molekularlar hosil bo'lishini bilish edi. Buning uchun ular geliy gazi ishtirokida uglerod yuzasiga kuchli lazer nurlarini yubordilar. Dastlab, u vodorod va azot bilan sinovdan o'tkazildi, lekin nihoyat faqat azot bilan sinovdan o'tkazildi. Lazer nurlari geliy ishtirokida uglerod yuzasiga aralashtirilgach, gazzimon uglerod geliy bilan birikib, klasterlar hosil bo'lishini kuzatdilar.

Klasterlarning spektral tahlilini o'tkazish uchun gaz mutlaq nolga yaqin sovutildi. Bu

tajriba asosida C₆₀ bo'lib chiqdi, bu shuni anglatadiki bitta molekulada 60 uglerod atomlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. O'sha paytda olimlar bunga o'xshash narsalarni ko'rmagan edilar. Uglerodning yangi klasteri – C₆₀ni mualliflar o'z vatandoshlari me'mor, muhandis-ixtirochi R.B.Fuller sharafiga fulleren deb atalgan ashni taklif etdilar. Bu ko'rinish arxitektor Fullerning yaratgan gumbazini eslatuvchi sharsimon tuzilishga ega ekanligini ko'rish mumkin, shuning uchun fullerenlar nomi berilgan³.

Uglerod klasterlari yulduzlar spektrlarida, meteoritlar, koinot zarralari va hatto oddiy ko'mir qurumida ham mavjudligi aniqlandi. 1988-yilda uglerod klasterlarining bir qator vakillari – C₂₈, C₃₂, C₅₀ va C₇₀ ham sintez qilindi. 1990-yil fullerenlarning kristall shakldagi xillari olinib, ularga fulleritlar deb nom berildi. Fulleritlar tarkibiga turli elementlar, jumladan, ishqoriy metallar kiritilib, noyob xossalarga ega bo'lgan moddalar (fulleridlar) sintez qilindi. 20 ta 6 burchak, 12 ta to'g'ri 5 burchak va 32 qirrali fullerenlar va uning birikmalari 1000° temperaturaga bardoshlidir.

Hozirgi kunda turli o'lchamli va xossali uglerodli kukun materiallari olishning usullari ishlab chiqilgan. Texnologiyaga asosan kukun va fullerenlar uglerodli materiallarni yuqori temperaturalarda kimyoviy aylanishlari hisobiga hosil bo'ladi. AQSHning Elekiy universiteti olimlariga tibbiyotda nanomateriallarni qo'llashni o'rganishga 6,5 mln. dollar hajmida pul ajratilgan. Olimlar insonlarning tirik to'qimalariga impluatatsiya qilinadigan biometrik nanoo'tkazgich yaratishmoqda.

Hozirgi kunda quyosh energiyasidan foydalanish energetika sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Nanotexnologiya asosida yaratilgan mis-indiy-dieselenid-galliy (CIGS-plyonka) plyonkasi fotoelektrik effekti hozirgi zamon quyosh elementlarinikidan 20% ga ko'proq.

Fullerenlar – kelajagi porloq moddalar. Ular kimyo sanoatida, mashinasozlikda, kemasozlikda, aviasozlikda, yer osti inshootlari, binolar, sharsimon va geodezik gumbazlar qurilishida konstruksion material sifatida qo'llanishi mumkin.

O'quvchilar kimyo fanidan jamiyatda ro'y berayotgan fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lib, turli axborot manbalarida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishadi, ulardan ta'limiy maqsadlarda foydalanadilar

¹ Yo'ldashev J. "Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiq etishning asoslari" T.2012

² Menshutina N.V.Nanotexnologiyaga kirish:- Kaluga; Ilmiy adabiyotlar nashriyoti Bochkareva N.F., 2006. - 132 p.
³ <https://www.meteorologiamet.com/uz/fullerenlar.html>

va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydilar⁴.

Bugungi kunda fanlarning rivojlanishi, o'sishi natijasida yuzaga kelgan ilmiy-texnik taraqqiyot fan, texnika va ishlab chiqarishdan tarkib topgan murakkab dinamik sistema hisoblanadi. Pedagoglarning oldidagi muhim vazifalardan biri yaratilayotgan kashfiyotlarni o'rganib, ularni kimyo fanidan tayyorlanayotgan adabiyotlarga kiritish va o'quvchilarga ilmiy tadqiqot ishlarini o'rgatish hisoblanadi.

Kimyo fanining barcha bo'limlarini o'rganishda nanotexnologiya asosida sintez qilinayotgan ilmiy ishlarni ko'rib chiqish maqsadgammuvofiq hisoblanadi. Bugungikunda turli o'lchamdagi va turli xususiyatlarga ega bo'lgan uglerodli nanostrukturalarni olishning ko'plab metodlari ishlab chiqarilgan. Ammo barcha metodlarning asosi bitta: nanotrubbalar va fullerenlar yuqori temperatura sharoitida tarkibida uglerod bo'lgan materiallarning kimyoviy o'zgarishlari natijasida hosil bo'ladi⁵. Nanotexnologiya asosida yangi moddalar

sintez qilinmoqda, ular fanning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quvchilar insoniyat va tabiatning uzviyligini anglagan holda, tabiat va tabiiy boyliklaridan samarali foydalanishlari lozim⁶.

Mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida ilmiy texnik taraqqiyot muhim ahamiyatga ega. Kimyo fanini o'qitishda ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan foydalanish katta samara beradi. Shuning uchun ham kimyo faniga oid adabiyotlarni ilmiy-tadqiqot yutuqlari bilan boyitish zarur. O'quvchilar kimyo fanining nazariy asoslari bilan tanishibgina qolmasdan, balki fan texnikaning ilmiy tadqiqot natijalarini ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu esa o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini boshlashga xizmat qiladi.

BIOLOGIYA FAN OLIMPIADASI TOPSHIRIQLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH METODIKASI

G'ayrat O'roqboyevich Qodirov - b.f.n. dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti.
Bozormurod Abduvahitov - tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fan olimpiada topshiriqlarini ishlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar bayon qilingan. Olimpiada topshiriqlarini tahlil qilish usullari misollar yordamida batafsil yoritilgan. Javoblarni baholashga oid tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация: В статье даётся описание аспектов, на которые следует обратить внимание при работе над заданиями по естествознанию для проведения олимпиады. Дается описание методики анализа задач для олимпиады на примерах. Даны рекомендации по оцениванию ответов.

Abstract: This article describes the aspects that should be paid attention to when working on Science Olympiad Assignments. Methods of analysis of Olympiad tasks are explained in detail with the help of examples. Recommendations for evaluating answers are given.

Kalit so'zlar: iqtidorli o'quvchilar, xalqaro biologiya olimpiadasi mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish komponentlari, farazlar baholash, tahlil qilish.

Ключевые слова: одаренные ученики, международная олимпиада по биологии, логическое мышление, компоненты решения задач, оценка гипотез, анализ.

Keywords: gifted students, international biology olympiad logical thinking, problem solving components, hypothesis evaluation, analysis.

Ma'lumki o'quvchilarda u yoki bu qiziqishlarini to'g'ri baholab, o'quvchilarning fanga qiziqishi baland bo'ladi. Ularning fiziologik va gigiyenik xususiyatlarini inobatga

4 Ibdulloeva, M. I., & Alimurodov, M. S. (2022, March). The value of macro and micronutrients in the body. In Conference Zone (pp. 58-62).

5 file:///C:/Users/kamol/Downloads/Lecture%20-%2010.pdf

6 Ibdulloeva M. I., Salimova D. X., & Alimurodov M. S. (2022). Teaching The Topic of Sulfur and Its Compounds Through Case Technology. Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, 2, 14-17.

olib, bosqichma bosqich tarbiyalab borish yuqori samara beradi. Fan olimpiadalari iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimining eng murakkab va mashaqqatli yo'nalishi hisoblanadi. O'quvchilarning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun dastlab ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirib olishimiz zarur¹. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Fan olimpiadalaridagi topshiriqlar, asosan, o'quvchilarning yod olish qobiliyatini emas, fikrlash qobiliyatini tekshirishga asoslangan.

O'quvchilarda qanchalik tanqidiy fikrlash qobiliyati kuchli rivojlangan bo'lsa, olgan bilimlari asosidama'lumotlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyati yuqori bo'ladi.

Savolni tushunishi va muammoni hal qilish uchun sarflaydigan vaqtini qisqartiradi.

Ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimi o'ziga xos murakkablik tomoni bilan ajralib turadi. Iqtidorli o'quvchilarda katta ma'lumotlarni tez o'zlashtirish, muammoni tahlil qilishda kreativ yondashuv hamda olingan bilimlarni yuqori darajada integratsiyalash qobiliyatlari mavjud. Iqtidorli o'quvchilar o'z tengdoshlaridan ko'plab qobiliyatlari bilan ajralib turganligi va ular kam sonli ekanligini inobatga olib, ular bilan alohida ishlash tizimini va samarali yo'llarini pedagogik jarayonga qo'llash dolzarb masala hisoblanadi².

Ma'lumki, biologiya olimpiadasidagi ma'lumotlarni qanday eslab qolish o'qituvchi va o'quvchilarning eng katta muammolaridan biri hisoblanadi. Bu mavzularning kattaligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biologiya olimpiadasi o'quvchilarning qanchalik ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini emas, balki bilimlarni turli notanish vaziyatlarda qo'llash, ma'lumotlarni tushunish, ilmiy tajribalar natijalarini sharhlash va berilgan ma'lumotlardan oqilona xulosalar chiqarish qobiliyatini sinash uchun mo'ljallangan.

Olimpiada ba'zi holatlarda o'quvchi uchun murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammoli savol-topshiriqlar variantlari beriladi. O'quvchi o'z bilim-ko'nikmalaridan foydalangan holda savolda keltirilgan ma'lumotlarni yechishda o'ylashi, tahlil qilishi va taxmin qilishi lozim. Keyingi bosqichda noto'g'ri javoblarni saralashi va qoldirilgan to'g'ri deb taxmin qilingan variantlar haqida o'ylashi talab etiladi. Shundaygina, yangi, hali duch kelmagan

muammoli savollarning yechimini topishda imkoniyatlar tug'ilishi mumkin³.

Iqtidorli o'quvchilar qiyin savolga duch kelganlarida chuqur, konseptual xususiyatlarni izlaydilar va ularni allaqachon bilganlari bilan bog'laydilar. Ayni paytda, boshqalar o'z e'tiborini ahamiyatsiz bo'lgan ba'zi yuzaki xususiyatlarga qaratadilar.

Topshiriqlar va savollarni o'rganish jarayonida uni tushunish va tahlil qilish davomida birinchi galda muammoni hal qilish talab etiladi. Muammoni hal qilish ikki komponentdan iborat:

- muammolarni hal qilish strategiyalarini bilish;

-biologiyaga tegishli bilimlar (ayni holatimizdagi)⁴.

Ikkinchi komponent darsliklarni o'qish va asosiy biologik tushunchalarni shakllantirish orqali rivojlantirilishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, bilimni yod olish emas, balki tushunib, anglab o'rganish muhim. Bu yerda o'quvchining qancha kitob yoki ma'lumotlarni o'rganishi emas, balki olingan bilimlarni yodda saqlab qolish ko'nikmasiga ega bo'lishidadir.

Muammoni hal qilish - bu muammolarni hal qilish strategiyalarini bilishdir. Ilgari foydalanilgan olimpiada savollarini va ish varaqlarini yechish uchun sarflangan soatlar o'quvchiga mos keladigan biologiyadan fan olimpiadalari uchun turli xil test banklarini to'plashga yordam beradi. Bu o'quvchini muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchini ilgari foydalanilgan olimpiada masalalarini yechish orqali to'g'ri javoblarni topishga yordam beradigan strategiyalarni topishga o'rgatish zarur. Bunda, savolni qanday hal qilish haqidagi fikrlarni yozma tavsiflarini ishlab chiqishga bosqichma bosqich tayyorlab borish talab etiladi. Bu ko'p vaqt talab qiladigan strategiya, lekin bu o'quvchi uchun mo'jizalar yaratadi. Misolni tahlil qilishdan oldin, odatda, to'g'ri javobni topishga yordam beradigan bosqichlarni quyida ko'rib chiqamiz.

1.Savolni tahlil qilish kerak! Avvalo, savolni diqqat bilan o'qib, kalit so'zlarni ajratib olish, tagiga chizish yoki aylanaga olish lozim. O'quvchi savolda nima haqida gap ketayotganligi va nima so'ralayotganini haqiqatan ham tushunganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Agar kerak bo'lsa, uni ikkinchi marta o'qish zarur. Ko'p xatolar savolni noto'g'ri tushunganlikdan kelib chiqadi.

2.Ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash

1 Abduvokhidov B. Modern methods of the preparation plan for the international biology olympiad (IBO) | "Frontline social sciences and history journal" 2023, volume-03, page-62-74

2 Martyna Petruyte-How to prepare for the biology olympiad and science competitions | Copyright 2018 ISBN: 978-1-5272-2722-4 page-57

3 G.'O'.Qodirov, B.Abduvahitov. "O'quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlash metodikasi" / monografiya / - Toshkent - LESSON PRESS" nashriyoti, 2022. - 184 bet.

4 Yusupova M.M. Problema odarennosti detey v istorii pedagogicheskoy misli. - BirsK 2012. Electronic resource: https://nsportal.ru/vuz/pedagogicheskije

lozim. Savolda berilgan barcha grafiklar, jadvallar, chiziqli diagrammalar, rasmlarga e'tibor berish va ularni o'rganish kerak. Ushbu vizual usul tasvirlardagi asosiy fikrlarni ajratishga yordam beradi. Shakllarga, munosabatlarga va tendensiyalarga e'tibor berish zarur.

3. Javobni taxmin qilish kerak. Berilgan variantlarni ko'rib chiqishdan oldin, javobni taxmin qilish uchun mantiq va biologik bilimlardan foydalanish samara beradi. Savolni o'qiyotganda, qanday biologik obyekt tekshirilayotganini aniqlash muhim omil hisoblanadi. Keyin orttirilgan bilimlar asosida bu mavzuga tegishli asosiy faktlar va tushunchalarni yodga olish kerak. Agar javob bo'lsa, variantlarni ko'rib chiqish va to'g'ri javobni topish osonroq bo'ladi. Aslida, variantlarni ko'rib chiqishdan oldin javob haqida o'ylash neyronlarni qo'zg'atadi va savolni tushunishga yordam beradi.

4. Javob variantlari uchun dalil topish lozim. Har bir ko'p tanlovli variant uchun dalillarni tekshirib olish zarur:

I. O'rganilgan tushunchalar va faktlarni qo'llash. Shaxsiy fikr yoki noaniq taxminlardan emas, faqat biologik bilimlardan foydalanish zarur (masalan, odamlar shimpanzelardan paydo bo'lgan, aslida esa bunday emas, chunki shimpanzalar bizning eng yaqin qarindoshimiz bo'lishi mumkin bo'lsada, biz ulardan to'g'ridan to'g'ri rivojlanmaganmiz). Ushbu ilmiy faktlar berilgan variantlarni qo'llab-quvvatlashi yoki ularga zid bo'lishi mumkin. Har doim savolda qanday obyekt tekshirilayotganini aniqlashga harakat qilish kerak, chunki bu to'g'ri javob topish imkoniyatini oshiradi.

II. Berilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish va har bir variant uchun dalillar topish kerak. Faqat taxmin qilish kerak emas, balki variantni istisno qilish yoki qabul qilish uchun to'g'ri ma'lumotlarni topish lozim. Agar bu ish amalga oshirilmasa, fikrlar haqiqatga to'g'ri kelmaydi.


III. Savollar yaratish kerak. Masalan, Nima? Qanday? Nega? Bunga mos variantlar bormi? O'qigan va ko'rgan ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish kerak. Bundan tashqari, yaxlit fikrlashga harakat qilish lozim.

1. Qaror qabul qilish kerak. Bu eng oson qism bo'lib, bu nuqtaga yetganda, savol nima haqida ekanligini, har bir rasm nimani anglatishini, qanday tushunchalar tekshirilayotganini va har bir variantda nimalar haqida yozilganini tushunish muhim hisoblanadi. Barcha dalillarni o'zlashtirish, agar bu bir javobli tanlanadigan topshiriq

bo'lsa, har bir variantga e'tiborni qaratish yoki agar bu to'g'ri (TRUE)/ noto'g'ri (FALSE) savol bo'lsa, alohida-alohida belgilab chiqib, oxirida bir qarorga kelish kerak. Agar savol bitta yoki bir nechta javobni tanlashni so'rasa, ehtiyot bo'lish zarur⁵.

Yuqoridagi tavsiyalarni qo'llash asosida quyida berilgan topshiriqni ishlash texnikasini ko'rib chiqamiz.

1-topshiriq, 10 ball bilan baholanadi. Ma'lum bir daraxt turida urug' rangi to'rtta mustaqil irsiylanadigan genlar bilan belgilanadi: A, B, C va D. Ushbu genlarning retsessiv allellari (a, b, c va d) nafaol fermentlarni ishlab chiqaradi, ular urug' pigmenti biosintezi yo'lidagi reaksiyani katalizlay olmaydi. Ushbu biosintez yo'li quyidagi diagrammada ko'rsatilgan:



AaBbCcDd va AaBbCcdd genotipli daraxtlar o'zaro chatishtirildi.

1. Ikki ota-ona daraxt urug'lari qanday rangda ekanligini aniqlang. Javobni izohlang.

2. Chatishtirish natijasida hosil bo'lgan avlodlarning qancha qismi oq rangli urug'larga ega bo'lishini aniqlang.

3. Chatishtirish natijasida hosil bo'lgan avlodlarning qancha qismi qizil rangli urug'larga ega bo'lishini aniqlang.

4. Chatishtirish natijasida hosil bo'lgan ko'k rangli urug'larga ega o'simliklarning genotiplarini yozing.

5. Chatishtirish natijasida hosil bo'lgan avlodlarning qancha qismi binafsha rangli urug'larga ega bo'lishini aniqlang.

Tahlil, javob va baholash:

Yuqoridagi diagrammadan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- Barcha genlar dominant holda bo'lsa, belgi binafsha rangda bo'ladi (A-B-C-D-)

- Qolgan genlarning qanday bo'lishidan qat'iy nazar a geni retsessiv hoda bo'lsa, belgi oq bo'ladi.

- Sariq – A-bbccdd
- Zarg'aldoq A-B-ccdd
- Qizil – A-B-C-dd
- Ko'k – A-B-ccD-

Barcha genotiplarni aniqlab olganimizdan keyin shartlarni bajarishga o'tamiz:

1) (binafsha)AaBbCcDd × (qizil) AaBbCcdd;

Baholash: ikkala genotip uchun ham tegishli rang to'g'ri yozilgan bo'lsa (2 ball),

bir genotip uchun rang to'g'ri yozilib ikkinchi genotip uchun xato yozilgan bo'lsa (0 ball)

2) F1 avloddagi oq urug'lar ulushi: Aa x Aa = ¼AA; ½Aa; ¼ aa = ¼ = 32/128 = 25% Baholash: 2 ball

3) Qizil rangli urug'lar genotipi (A_B_C_dd) = (3/4)x(3/4)x(3/4)x(1/2) = 27/128 = 21.1% Baholash: 2 ball

4) F1 avlodda olingan ko'k rangli urug'ga ega genotiplar: (A_B_ccDd) bunday holatda 4 xil genotip kombinatsiyasini hosil qilishimiz mumkin, bular: AABbCcDd, AABbccDd, AaBBccDd, AaBbccDd.

Baholash: Har bir to'g'ri yozilgan genotip uchun (0.5 baldan) to'g'ri yozilgan 4 ta genotip uchun (2 ball) (tavakkal ravishda 4 tadan ortiq genotip yozilgan bo'lsa ball berilmaydi)

5) F1 avlodda olingan binafsha rangli urug'lar genotipi (A_B_C_Dd) = (3/4)x(3/4)x(3/4)x(1/2) = 27/128 = 21.1% Baholash: 2 ball

2-topshiriq, 10 ball bilan baholanadi. O'simliklarning guli odatda qizil rangda.

Seleksioner oq gulli uchta mutant o'simlikni (1-, 2- va 3-liniyalar sifatida ko'rsatilgan) ajratib oldi. Bu o'simliklar yoshi c jihatdan har xil, toza liniyalar bo'lgan. Ularni o'zaro chatishtirdi hamda avlodda quyidagi fenotiplar kuzatildi:

Chatishtirish

Ota-ona	Avlod
1.1-liniya x 2-liniya	F1 – barchasi oq gulli
2.1-liniya x 3-liniya	F1 – barchasi qizil gulli
3.2-liniya x 3-liniya	F1 – barchasi oq gulli
4.2-chatishtirishdan olingan	
F1 avlod x 1-liniya	¼ qizil : ¾ oq
5.2-chatishtirishdan olingan	
F1 avlod x 2-liniya	1/8 qizil : 7/8 oq
6.2-chatishtirishdan olingan	
F1 avlod x 3-liniya	½ qizil : ½ oq

Tajriba natijalari asosida, quyidagi savollarga javob bering.

1. Chatishtirish uchun olingan oq gulli o'simliklarni har birini genotipini aniqlang.

2. Qizil gulli o'simliklar (barcha genlari bo'yicha geterozigota) o'zaro chatishtirilsa, avlodning qancha qismi oq gulli bo'lishini aniqlang.

3. Qaysi mutant o'simlikning barcha genlari mutatsiyaga uchraganini aniqlang. Javobni izohlang.

Tahlil, javob va baholash.

5) Javob: 1-liniya – aaBBcc; 2-liniya – aabbcc; 3-liniya – AabbCC. (1- va 3- liniya genotiplarini yana bir necha xil formada yozish mumkin, muhimi bu ikki liniyada 1 xil genlar mutant

bo'lmasligi kerak, masalan yana bir to'g'ri variant: 1-liniya – Aabbcc; 3-liniya – aaBBCC)

Baholash har bir to'g'ri topilgan liniya genotipi uchun 2 balldan umumiy 6 ball

5) Javob: 1-(3/4)³=37/64 yoki 57,8%

Baholash: 2ball
5) Javob: 2-liniya
Baholash: 2ball
3-topshiriq, 10 ball bilan baholanadi.
1-qism.

Quyidagi jadvalda to'rtta o'simlik turi va ularning F₁ duragaylaridagi xromosoma ma'lumotlari keltirilgan:

Meyoz metazafa I bosqichi

Turlar yoki F ₁ duragaylar	Bizning o'sish konisidagi xromosoma soni	Kotrugatsiyala shgan xromosomalar jufti (bivalentlar)	Kotrugatsiyalash magan xromosomalar soni (univalentlar)
A	20	10	0
B	20	10	0
C	10	5	0
D	10	5	0
A × B	20	0	20
A × C	15	5	5
A × D	15	5	5
C × D	10	0	10
CXB	?	?	?
DXB	?	?	?

1. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, har bir turning (A-D) kariotipini tahlil qiling, kariotip tarkibini izohlang.


2. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, A yoshi c paydo bo'lishini tushuntiring va xulosa yozing.

3. C va B turlarning gibridida meyoziy metafaza I bosqichida kariotipdagi xromosomalar sonini aniqlang hamda bivalentlar va univalentlar sonini yozing. Javobni izohlang.

4. D va B turlarning gibridida meyoziy metafaza I bosqichida kariotipdagi xromosomalar sonini aniqlang hamda bivalentlar va univalentlar sonini yozing. Javobni izohlang.

2-qism.
Baland mumli palma (Ceroxylon quindiuense) – Kolumbiyaning odatiy daraxtlaridan biri. Ushbu o'simlikning o'sish zonasidan ba'zi hujayralar tadqiqot uchun olindi. Tadqiqot uchun olingan hujayralardagi xromosoma va DNK molekulari soni mazkur o'simlik tipik hujayrasining G₁ fazasidagi

xromosoma va DNK molekulari soni bilan solishtirildi. (sentromera bilan bog'langan ikkita qiz xromatidalar – bitta xromosoma, lekin ikkita DNK molekulari deb hisoblanadi).



A o'qi – namuna va nazorat guruhidagi xromosomalar sonining nisbati.

B o'qi – namuna va nazorat guruhidagi DNK molekulari sonining nisbati.

1. X, Y va Z hujayralarning har birining xromosoma va DNK to'plamini aniqlab, yozing.

2. X, Y va Z hujayralarning har birini hujayra siklining qaysi bosqichida ekanligini aniqlab, yozing.

Tahlil, javob va baholash.

1-qism

Javob:

1. A, B, C, D – 2n

A = 2n = 20

B = 2n = 20

C = 2n = 10

D = 2n = 10

A-D turlarning barchasida 2n to'plamlarida xromosomalar barchasi o'zaro gomologik, shuning uchun univalentlar hosil bo'lmaganligini ko'rish mumkin 1 tur o'z turi bilan 100% bivalent hosil qilishi tabiiy holat masalaga bu tariqa izoh berilgan bo'lsa yoki 2n to'plam nechta xromosomaga teng ekanligi yozilgan bo'lsa (chunki 2n to'plam masala shartida berilgan) (0 ball)

A va B gibridida umuman bivalent yo'q, demak A va B turda o'zaro gomolog bo'lgan xromosomalar umuman yo'q.

A va C gibrid: A turning n to'plami 10 ga teng, C turning n to'plami 5 ga teng, bunda C turning n to'plamidagi 5 ta xromosoma A turning n to'plamidagi 10 ta xromosomadan 5 tasiga gomologdir.

A va D gibridida ham A va C gibrididagi holatni ko'rish mumkin.

C va D gibridida ham o'zaro gomologik xromosomalar yo'q, demak, C va D turning n to'plamlaridagi 5 tadan xromosoma A turning n to'plamidagi 10 ta xromosomaning boshqa boshqa qismlariga gomologdir.

Shu mazmundagi javob uchun: (2ball)

2. A turning kelib chiqishi allotetraploidiya

hodisasiga misol bo'ladi bunda C va D turlari o'zaro chatishtirilgan va hosil bo'lgan hujayra mitoz bo'linishining anafaza bosqichida bo'linish urchug'iga kolxitsin moddasi ta'sir ettirish orqali xromosomalar 2 karra orttirilgan natijada A tur paydo bo'lgan. To'g'ri javob uchun: (2 ball)

3. Bivalentlar -0 va Univalentlar -15 ta; (1ball)

4. Bivalentlar -0 va Univalentlar -15 ta; (1ball)

2-qism

1.

x=2n4c (1ball)

y=4n4c (1ball)

z=n2c. (1ball)

2.

	Группа X	Группа Y	Группа Z
	Митоз: S, G ₂ , Профаза, Метафаза	Митоз: Анафаза	Мейоз: Телофаза, Интеркinez, Профаза II, Метафаза II.
javob	Мейоз: Интерфазaning postintetik davri, Профаза, Метафаза, Анафаза		

Har bir to'g'ri yozilgan javob uchun (0.33 ball) 3 ta to'g'ri yozilgan javob uchun (1 ball).

4-topshiriq, 10 ball bilan baholanadi.

Quyida ikkita tahliliy chatishtirish natijalari ko'rsatilgan.

1-chatishtirish

2-chatishtirish

+++	669	bcd	8
ab+	139	b++	441
a++	3	b+d	90
++c	121	+cd	376
+bc	2	+++	14
a+c	2280	++d	153
abc	653	+c+	64
+b+	2215	bc+	141

Kichik harflar retsessiv fenotipni, "+" belgisi dominant fenotipni ifodalaydi.

1. Birinchi va ikkinchi chatishtirishda ishtirok etgan ota-onalar genotiplarini aniqlang.

2. Har bir tahliliy chatishtirish uchun genlarning xromosomadagi joylashish tartibini aniqlang, genlar orasidagi masofani ko'rsating.

3. Keltirilgan to'rtta genning (a, b, c va d) bitta xromosomada joylashish ketma-ketligini aniqlang.

4. Ikkala tahliliy chatishtirishni umumlashtirib, yoshi c xarita tuzing, unda genlar orasidagi masofalarni ko'rsating.

Tahlil, javob va baholash.

1. 1-chatishtirish ota ona genotipi: $\frac{+ca}{b++} \times$

$\frac{bca}{bca}$ to'g'ri yozilgan ota-ona genotiplari uchun: (1 ball), agar faqat trigeterozigota invind(ota yoki ona)ning genotipi to'g'ri yozilgan bo'lsa: (0.5 ball)

2-chatishtirish ota ona genotipi: $\frac{+b+}{d+c} \times$

$\frac{dbc}{dbc}$ to'g'ri yozilgan ota-ona genotiplari uchun: (1 ball), agar faqat trigeterozigota invind(ota yoki ona)ning genotipi to'g'ri yozilgan bo'lsa: (0.5 ball)

2. 1-chatishtirish

B____C____A genlarning xromosomada joylashish tartibi to'g'ri aniqlangani uchun: (0.5 ball)

B_____C

$$\frac{653+669+2+3}{2280+2215+653+2+121+3+139+669} \approx 0.218 \times 100 = 21.8 \text{ cM}$$

(0.5 ball)

C_____A

$$\frac{121+139+2+3}{2280+2215+653+669+121+139+2+3} \approx 0.044 \times 100 = 4.4 \text{ cM}$$

(0.5 ball)

B_____A 21.8+4.4=26.2

2- chatishtirish

D_____B_____C genlarning xromosomada joylashish tartibi to'g'ri aniqlangani uchun: (0.5 ball)

D_____B

$$\frac{90+64+14+8}{376+441+90+64+153+141+14+8} \approx 0.137 \times 100 = 13.7 \text{ cM}$$

(0.5 ball)

B_____C

$$\frac{153+141+14+8}{376+441+90+64+153+141+14+8} \approx 0.246 \times 100 = 24.6 \text{ cM}$$

(0.5 ball)

D_____C 13.7+24.6=38.3

3. d_____b_____c_____a genlarning xromosomada joylashish tartibi to'g'ri aniqlangani uchun: (2 ball)

4.

d (13.7) b (24.6) c (4.4) a

To'g'ri javob uchun (3ball)

Izoh: b va c genlari orasidagi masofa

1- va 2- tahliliy chatishtirishda o'zaro farq qilmoqda, bunda koinzidensiya koeffitsiyenti katta bo'lgan holat to'g'ri javob sifatida qabul qilinadi, koinzidensiya koeffitsiyenti meyoza yoshi c rekombinatsiya paytida interefensiya darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan o'lchovdir, koinzidensiya koeffitsiyenti c harfi bilan belgilanadi vakuzatilgan qo'shkrosingover natijasida hosil bo'lgan avlod sonini kutilgan (nazariy jihatdan hosil bo'lishi kerak bo'lgan) qo'sh krosingover natijasida hosil bo'lgan avlod soniga bo'lish orqali topiladi, formula matematik jihatdan quyidagicha izohlanadi:

$$c = \frac{\text{Observed double crossovers}}{\text{Expected double crossovers}}$$

Agar nazariy jihatdan interefensiya kuzatilmasa, kutilgan va kuzatilgan qiymatlar o'zaro teng bo'ladi, bu holatda koinzidensiya koeffitsiyenti 1ga teng. Bir lokusdada sodir bo'ladigan yakka krosingover qo'shni lokusdagi yakka krosingoverga ta'sir qiladi, bu interefensiya koeffitsiyenti bilan o'lchanadi, interefensiya koeffitsiyenti qancha katta bo'lsa kutilgan va kuzatilgan nisbatlar o'rtasidagi tafovut shuncha katta bo'ladi.

1-chatishtirish uchun koinzidensiya koeffitsiyenti:

$$c = 5 / 0.044 \times 0.218 \times 6082 \approx 0.086$$

2-chatishtirish uchun koinzidensiya koeffitsiyenti:

$$c = 22 / 0.137 \times 0.246 \times 1287 \approx 0.507$$

0.086 < 0.507 tafovut ancha katta ekanligini ko'rishimiz mumkin, demak b va c genlari orasidagi masofa 24.6 cM ga teng, boshqa har qanday javob uchun: (0 ball)

5-topshiriq, 10 ball bilan baholanadi.

Quyida 6 ta tur (A-F) genomidagi ma'lum bir nukleotidlar ketma-ketligi berilgan. Mazkur turlar o'rtasidagi nukleotidlar farqlari soni asosida turlarni qadamma qadam birlashtiring. Turlar o'rtasidagi filogenetik bog'liqlikni toping, yangi tuzilgan klaster yoshini aniqlang hamda dendrogramma chizing⁶

Turlar	Nukleotidlar ketma-ketligi
A	ATCGTGGTACTG
B	CCGGAGAAGTAG
C	AACGTGCTACTG
D	ATGGTGAAAGTG
E	CCGGAAAAGTTG
F	TGGCCCTGTATG

6 1-xalqaro olimpiadaning saralash bosqichi savollari (O'zbekiston) 2023-yil

Tahlil, javob va baholash.

6 ta turning (A-F) filogenetik jihatdan bog'liqligini aniqlash uchun bir necha xil algoritmlardan foydalanishimiz mumkin, ulardan biri UPGMA algoritmidir.

$$\delta_m(k, ij) = \frac{D_{k,i} \cdot |i| + D_{k,j} \cdot |j|}{|i| + |j|} = \frac{1}{|k||ij|} \sum_{s \in k} \sum_{t \in ij} D_{st}$$

$$\delta_i(i, ij) = \delta_j(j, ij) = \frac{D_{min}}{2}$$

Topshiriq shartida berilgan nukleotidlar ketma-ketliklaridan foydalangan holda A-F turlarning nukleotid ketma-ketliklari o'rtasidagi farqlar sonini topamiz. UPGMA algoritmining asosiy prinsipi farqlar asosida filogenetik daraxt qurishdir. Eng kichkina farqqa ega bo'lgan 2 ta tur bitta shoxga birlashtiriladi. Klaster yoshi (shox uzunligi) esa farqni 2 ga bo'lish orqali aniqlanadi. Chunki ikkita turda ham klaster yoshi bir xil bo'ladi.

1-navbatta turlarning nukleotid ketma-ketliklari o'rtasidagi farqlarni aks ettirgan jadvalni tuzib olamiz.

1-klaster:

	A	B	C	D	E	F
A	0	9	2	4	9	10
B		0	9	6	2	10
C			0	5	9	10
D				0	6	9
E					0	9
F						0
Minimum	um:2					

Bu yerda A va C hamda E va B turlari orasida bir xil darajada o'zgarish mavjud ekanligini ko'rish mumkin, ikkalasini ham birdaniga birlashtirgan holda yoki ketma-ket birlashtirilsa ham yakuniy natijaga ta'sir etmaydi. (ikkala holat ham to'g'ri).

1-klaster yoshi: $2/2=1$ Shartli ravishda vaqt birligi sifatida million yildan foydalansak, A va C turlari uchun umumiy ajdod 1 mln yil oldin ikki tarmoqqa ajralgan, ya'ni A va C turlarni hosil qilgan. To'g'ri topilgan klaster yoshi uchun (0.7 ball).

1-klasterdagi A-F turlarning nukleotidlar farq qiymatlari to'g'ri topilgan bo'lsa, har bir to'g'ri topilgan qiymat uchun 0.1 ball jami 1-klasterdagi to'g'ri topilgan farq qiymatlari uchun $15 \times 0.1 = 1.5$ ball.

2-klaster:

	AC	B	D	E	F
AC	0	9	4.5	9	10
B		0	6	2	10
D			0	6	9
E				0	9
F					0
Minimum	um:2				

2-klaster yoshi: $2/2=1$ B va E turlari uchun umumiy ajdod 1 mln yil oldin ikki tarmoqqa ajralgan, ya'ni B va E turlarni hosil qilgan. To'g'ri topilgan klaster yoshi uchun (0.7 ball).

2-klasterdagi turlarning nukleotidlar farq qiymatlari to'g'ri topilgan bo'lsa, har bir to'g'ri topilgan qiymat uchun 0.1 ball jami 2-klasterdagi to'g'ri topilgan farq qiymatlari uchun $10 \times 0.1 = 1$ ball.

3-klaster:

	AC	BE	D	F
AC	0	9	4.5	10
BE		0	6	9.5
D			0	9
F				0
Minimum	um:4.5			

3-klaster yoshi: $4.5/2=2.25$ (AC) va D turlari uchun umumiy ajdod 2.25 mln yil oldin ikki tarmoqqa ajralgan, ya'ni (AC) va D turlarni hosil qilgan. To'g'ri topilgan klaster yoshi uchun (0.7 ball).

3-klasterdagi turlarning nukleotidlar farq qiymatlari to'g'ri topilgan bo'lsa, har bir to'g'ri topilgan qiymat uchun 0.1 ball jami 3-klasterdagi to'g'ri topilgan farq qiymatlari uchun $6 \times 0.1 = 0.6$ ball.

4-klaster:

	ACD	BE	F
ACD	0	7.5	9.5
BE		0	9.5
F			0
Minimum	7		
5			

4-klaster yoshi: $7.5/2=3.75$ (ACD) va (BE) turlari uchun umumiy ajdod 3.75 mln yil oldin ikki tarmoqqa ajralgan, ya'ni (ACD) va (BE) turlarni hosil qilgan. To'g'ri topilgan klaster yoshi uchun (0.7 ball).

4-klasterdagi turlarning nukleotidlar farq qiymatlari to'g'ri topilgan bo'lsa, har bir to'g'ri topilgan qiymat uchun 0.1 ball, jami 4-klasterdagi to'g'ri topilgan farq qiymatlari uchun $3 \times 0.1 = 0.3$ ball.

5-klaster:


	ACDBE	F
ACDBE	0	9.5
F		0
Minimum	9.5	

5-klaster yoshi: $9.5/2=4.75$ (ACDBE) va F turlari uchun umumiy ajdod 4.75 mln yil oldin ikki tarmoqqa ajralgan, ya'ni (ACDBE) va F turlarni hosil qilgan. To'g'ri topilgan klaster yoshi uchun (0.7 ball).

5-klasterdagi turlarning nukleotidlar farq qiymatlari to'g'ri topilgan bo'lsa, har bir to'g'ri topilgan qiymat uchun 0.1 ball, jami 5-klasterdagi to'g'ri topilgan farq qiymatlari uchun $1 \times 0.1 = 0.1$ ball.

4,75 million yil oldin A-F turlar uchun ajdod umumiy, ya'ni bu 6 ta tur 1 ta tur bo'lgan.

Yakuniy dendogramma (filogenetik daraxt) quyidagicha:



To'g'ri chizilgan dendogramma uchun, ya'ni turlarning yagona ajdodga birlashtirilishi to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan bo'lsa: (3 ball)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, berilgan har bir topshiriq ko'plab bandlardan iborat. Har bir bandda berilgan topshiriqlarning qiyinchilik darajasidan kelib chiqib ball berish mumkin. Javoblarni baholashda mantiqiy ketma-ketlikka amal qilish zarur. Ba'zi savollarning javobi o'zidan oldingi talab etilgan savolning javobiga bog'liq bo'ladi. Ayrim o'quvchilar taxmin asosida to'g'ri javobni chiqarib qo'yishi mumkin. Bunday javoblarga ball qo'yish juziy xatolikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun topshiriq uchun ajratilgan umumiy ballarni kichik bandlarga qiyinlik darajasi asosida bo'lib chiqish tavsiya etiladi.

DASTURLASH TILLARI FANINI O'QITISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASHNING BA'ZI BIR MUAMMOLARI

Do'stqul Botirovich Botirov - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umida Eshmirzayevna Mamatqulova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Mirjalol Turon o'g'li Shodmonqulov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda uzviylik va uzluksizligini takomillashtirishga oid masalalar yoritilgan.

Аннотация: В статье освещены вопросы, связанные с повышением целостности и непрерывности преподавания «Информатики и информационных технологий» в общеобразовательных школах.

Abstract: The article highlights issues related to increasing the integrity and continuity of teaching "Computer Science and Information Technologies" in secondary schools.

Ka'lit so'zlar: axborot, axborot texnologiyalari, Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlar, uzviylik, informatika, integratsiya.

Ключевые слова: информация, информационные технологии, Государственные образовательные стандарты, образовательные программы, связность, информатика, интеграция.

Keywords: information, information technology, State educational standards, educational programs, connectivity, computer science, integration.

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, ta'lim tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir¹.

Zamonaviy innovatsion texnika va texnologiyalarni jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi natijasida zamonaviy bilimlarni ko'payib borishi yangi hosilaviy fanlarni shakllanishini taqozo qiladi, provardida o'zlashtirilishi zarur bilimlarni salmog'i va ta'lim oluvchilarning yuklamasi ortishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda fanlarni integratsiya qilish orqali o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni optimallashtirish, ya'ni integratsiyalash maqsadga muvofiq va u dunyo tajribasida

sinalgan.

Bugungi kunda fanlarni integratsiyalash muammosi pedagogik jamoaga, talabalarga ta'sir etishining yangi pedagogik vazifalarni samarali yechimini faol izlashga qaratilgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Integratsiya eng avval "katta" ilmda, so'ngra uning shaxobchalarida paydo bo'ldi. U hajmi va talab jihatdan kengayib borayotgan fanlarni va uning tarmoqlarini differentsiyalash jarayonidagi keskin qarama-qarshiliklar zamirida yuzaga keldi. Bu holat avval yagona bo'lgan fanlardagi chuqurlashuv, uning alohida yo'nalishlarining yangi va yangi yo'nalishlarining paydo bo'lishi, ayrim tor yo'nalishdagi va bu jarayonda yangi bir fanlarning yuzaga kelish mutaxassislarining bir-birlarini tushunmasliklari bilan xarakterlanadi^{2,3}.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini va yosh-psixologik xususiyatlarini e'tiborga olishi, shuningdek, individual ruhiy xususiyatlari - diqqati, kayfiyati, irodaviy faolligi hamda qiziqishi va orzu-havaslarini fizik bilimlarni o'rgatish jarayonida amal qilinishi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги "2022 - 2026 йилларда Халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида" ги ПФ-134-сонли Фармони. Тошкент-2022

² Mamarajabov O.E., Raximova N.X., Gulomova A.U. "Ta'limga integratsion yondashuvning nazariy asoslari." Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent-2019 yil. 66-67 betlar.

³ Ashurov Sh.A. "Uzluksiz ta'lim tizimida fizika, informatika va axborot texnologiyalarini integratsiyalash." Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali №2 Toshkent-2005. 52-60 betlar.

zarur bo'lgan muhim omillardir. Maktabda informatika va axborot texnologiyalariga doir bilimlarning matematika, fizika, kimyo, geografiya fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'qitilishini amalga oshirish, bilimlarning samadorligini ta'minlaydi.

Fanlararo aloqalar tamoyili o'quvchilar uchun boshqa fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llash va tahlil qilishga yo'naltirilgan savollar va vazifalarni shakllantirishni maqsad qilib oladi.

Informatika va axborot texnologiya fanini fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish umumlashtirilgan bilim, ko'nikmavamalakalarni chuqurlashtiradi, mustahkamlaydi hamda kengaytiradi, o'quvchilarni o'zlashtirilgan bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan amalda qo'llash tajribasi bilan qurollantiradi.

Fanlararo bog'lanish - o'quvchilarning boshqa fanlardan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini qo'llash, rivojlantirish, mustahkamlash va umumlashtirish o'qitishning vazifalarida aks etishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchisining aqliy qobiliyatlarini, xususan, mantiqiy va tanqidiy tafakkurining samarali rivojlantirishda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining imkoniyatlari behisob. Ayni vaqtda turli ta'lim bosqichlarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmunini yetakchi pedagogik va psixologik tamoyillarga muvofiq shakllantirish, ta'lim jarayonini amalga oshirishda eng samarali shakl, usul, vosita va texnologiyalardan foydalanish, ular o'rtasida uzviylikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan takomillashgan Davlat ta'lim standarti ishlab chiqilib, yangi avlod darsliklari yaratilgan^{4,5}. Lekin shunga qaramay fan ichidagi aloqadorlik, ya'ni mavzu (bob)lararo uzviylikni ta'minlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining mazmunini qayta tahlildan o'tkazish, innovatsion tarraqqiyotga moslashtirish, xususan, umumiy o'rta ta'limda uning uzviyligi va uzluksizligini takomillashtirish asosida tubdan isloh qilish va hayot bilan bog'lash lozim bo'lib qoldi.

Uzviylik deyilganda, ikki ma'noda ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va o'quv fanlari orasidagi uzviylik tushuniladi, ya'ni birinchidan, ta'limning navbatdagi turi mazmuni oldingisini faqat davom ettirishi lozimgina emas, balki

qisman takrorlab, mazmun jihatdan uzviy bog'langan holda uning navbatdagi turida davom ettirishi lozim, ikkinchidan, fanlararo uzviylik nazarda tutiladi.

Uzviylik muayyan ketma-ketlik asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, u ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ifoda etadi. Uzviylik falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlariga ega bo'lib, xususan, falsafiy jihatdan "uzviylik" kategoriyasi "rivojlanish" kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq. Uzviylik rivojlanayotgan barcha hodisa, jarayonlarga taalluqli bo'lgan umumiy va muhim aloqalarni o'zida ifoda etadi hamda yangida eskining mavjudligini aniqlaydi.

Umumta'lim maktablari yuqori sinflarida fanlararo uzviylikni takomillashtirishning ilmiy metodik tizimi o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega: ta'lim-tarbiya jarayoni hamda fanlararo uzviylikning o'zigaxos maqsad va vazifalari to'g'ri belgilanishi; o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus pedagogik tizimni ishlab chiqilishi; zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan samarali ta'lim-tarbiya usullarini ishlab chiqish, tashkiliy shakl va mazmunini tanlash; o'quv dasturlari mazmunidagi fanlararo aloqadorlik hamda uzviylik, atrof-muhitni o'rganishga oid materiallarga qo'yiladigan talablar. Shunday qilib, ta'lim jarayoni mazmunidagi fanlararo uzviylikni takomillashtirishning ilmiy-metodik omillarini aniqlash va amalga oshirish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud bo'lib, xususan, fanlararo uzviylikni ta'minlashning eng ahamiyatli yo'nalishi darsliklar va o'quv qo'llanmalar mazmunida uzviylik va uzluksizlik tor doirada ishlanib, keyin aks etishidir. Bizningcha, bu muammoning eng tezkor yechimiga o'quvchilarda kitobxonlik va kompyuter savodxonligini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Umumta'lim maktablarining 8-9 sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" kursi bo'yicha fanlararo uzviylikni takomillashtirishda uchraydigan muammolar quyidagilar: fanlararo uzviylikka oid ilmiy asoslangan maxsus qo'llanmalarining yetishmasligi; DTS talablari va xalqimizning milliy qadriyatlarini e'tiborga olinmagan qo'llanmalardan foydalanilayotganligi; fanlararo uzviylikni ta'minlashda ta'lim-

⁴ Болтаев Б. ва бошқ. Информатика. 5-синф учун дарслик. Чўлпон нашриёт матбаа уйи. Тошкент. 2008 72 бет.

⁵ Тайлаков Н.И. ва бошқ. Информатика ва axborot texnologiyalari. 11 синф учун дарслик. Extremum Press нашриёти. Тошкент 2018 йил 128 бет

tarbiya mashg'ulotlari va o'quvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; o'quvchilarda zamonaviy axborot va Internet texnologiyalaridan foydalanish, yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega emasligi; ota-onalar uchun farzandlarini mustaqil bilim olishga o'rgatishga oid metodik tavsiyalarning yetarli emasligi.

Demak, ta'lim jarayoni mazmunidagi fanlararo uzviylikni ta'minlashning ilmiy metodik omillarini aniqlash va amalga oshirish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud.

Xususan, fanlararo uzviylikni ta'minlashning eng ahamiyatli yo'nalishi darslar va o'quv qo'llanmalar mazmunining tor doirada ishlanib, o'z qobig'ida ketganligi bu boradagi muammoning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bizningcha, bu muammoning eng tezkor yechimiga o'quvchilarda kitobxonlik va kompyuter savodxonligini tarbiyalash orqali erishish mumkin.


"Informatika va axborot texnologiyalari" ta'limini tashkil etishda eng muhim masala uzluksiz ta'lim tizimi turlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashdir. Bu muammo umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun uzoq yillar davomida dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan bo'lsada, biroq turli tarixiy sharoitlarda turlicha hal etilgan. Zamonaviy bosqichda uzluksiz ta'lim tizimi turlari o'rtasidagi uzviylik muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun o'quv dasturlari bo'yicha o'quvchilarning axboriy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni bir-biriga moslashtirish zarur.

Maktabda informatika va axborot texnologiyalar fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni dastur tuzishga o'rgatish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar hal etilayotgan masala mohiyatini chuqur bilish, berilgan dastlabki ma'lumotni tushinish, foydalanish kerak bo'lgan matematik, fizik va boshqa modellarni bilish, olinayotgan natijani tahlil qilish kabi tushunchalarni egallab olish kerak bo'ladi. Buni quyidagi masalani kompyuter yordamida hal etish misolida ko'rish mumkin.

Masala. Aylananing diametri d berilgan. Uning uzunligini topish dasturi tuzilsin. $\pi=3,14$ ga teng deb olinsin.

Bu masalani hal qilish uchun $d = 2r$, bundan $r = d/2$. Va $l=2\pi r$ formulalarni keltiramiz. Bu formulalar Geometriya kursidan bizga ma'lum.

Algoritmni blok-sxemasi.



```

Python dasturlash tilida dastur.
#Aylana uzunligi
from math import *
d = float(input("aylana diametri="))
r = d/2
l = 2 * pi * r
print(d,"diametri aylana uzunligi=","l)
  
```

o'rganuvchilar geometriya fani tushunchalari bilan ham tanishib borishga to'g'ri keladi

Umuman olganda "Informatika va axborot texnologiyalari" ta'limida uzviylikka erishishda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish lozim: "Informatika va axborot texnologiyalari" fani ichidagi uzviylik; "Informatika va axborot texnologiyalari" bilan boshqa fanlar (masalan, fizika, matematika, geometriya, geografiya, kimyo, biologiya, iqtisodiyot va h. k.) orasidagi uzviylik.

Yuqori sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha darslarni fanlararo aloqadorlik asosida quyi sinflarda o'qitiladigan fanlardan olgan bilimlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta'limda fanlararo aloqalar - o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishning shakllanishi, ijodiy tafakkurning o'sishiga olib keladi va boshqa fanlarni qanday darajada o'zlashtirganligi ko'rsatadi va o'rganilayotgan materiallarning mohiyatini to'la va chuqur anglab, tushunib yetishini ta'minlaydi.

Maktabda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning uzviylikni ta'minlash orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish va o'stirish, ijtimoiy hayot va ta'lim olishini davom ettirish uchun zarur bo'lgan bilim bilan qurollantirishga ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, shakllanishiga erishiladi. Shunday qilib, ta'limda uzviylik ta'minlashga erishish bugungi kunning davr talabi bo'lib, respublikamiz umumiy o'rta ta'limida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish qay darajada ekanligining hozirgi holati, uzluksiz ta'lim tizimida informatikani o'qitishning uzviylikni takomillashtirish usullari va vositalarini belgilashni taqozo etadi.

TO'LDIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARI VA UNING ZAMONAVIY O'QUV JARAYONIDAGI O'RNI

Bekzod Burxon o'g'li Abduq'aniyev - o'qituvchi, (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada to'ldirilgan reallik (AR) texnologiyalarining o'quv jarayonidagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Qolaversa, bugunda foydalanishda bo'lgan ayrim to'ldirilgan reallik asosida ishlovchi dasturiy vositalarning o'quv jarayonidagi roli va o'rni ko'rsatib o'tilgan. Maktablarda to'ldirilgan reallikdan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan xorijiy tajribalarning tahlillari keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается роль технологии дополненной реальности в современном образовательном процессе. Кроме того, некоторые из присылаемых сегодня платных продуктов показывают роль и место продукта, работающего на основе реальности, в образовательном процессе. Представлен анализ зарубежных экспериментов по использованию дополненной реальности в школах.

Abstract: The article discusses the role of augmented reality technology in the modern educational process. In addition, some of the paid products that are being sent today show the role and place of the product that works on the basis of reality in the educational process. Analyzes of foreign experiments on the use of augmented reality in schools are presented.

Калит so'zlar: to'ldirilgan reallik, texnologiya, mobil ilova, o'quv jarayoni, interaktivlik.

Ключевые слова: дополненная реальность, технология, мобильное приложение, образовательный процесс, интерактивность

Keywords: augmented reality, technology, mobile application, educational process, interactivity

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim takomillashtirish asosiy maqsad qilib olingan. sohasini isloh qilish, uni rivojlantirish, ta'lim Ma'lumki, bolaning rivojlanishi va muassasalarini zamonaviy o'quv jihozlari bilan uning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni bosqichma bosqich sodir bo'ladi va ta'minlash ishlariga katta e'tibor berilmoqda. bosqlang'ich maktab yoshiga kelib, u o'rganish Qolaversa, o'quv mashg'ulotlari jarayonini bilan bog'liq ravishda faollashib boradi. yuqori darajada tashkil etish maqsadida Bolaning kichik yoshida uning idrok etish zamonaviy ta'lim texnologiyalari, metodlaridan qobiliyatlarini ko'p ham rivojlangan bo'lmaydi. foydalanib kelinmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sifatiga berilayotgan e'tiborni hukumatimiz va davlat rahbari tomonidan chiqarilayotgan Farmon, Qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli Farmonida ham ko'rishimiz mumkin. Farmonda ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ta'lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash tizimini kuzatishni o'rganishi mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5960622>

2 Abduq'aniyev B.B. Maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyati mazmuni/ "Tafakkur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnal 2022 yil 4-son. 25.12.2022

Maktab yoshidagi bolalarda idrokning rivojlanib borayotgan differentsiatsiyasi jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarning obyekt tasvirlaridan foydalanishdan hissiy me'yorlarga o'tish jarayonida, shuningdek, bolani atrofini o'rab turgan har bir obyekt va hodisaning asosiy turlari haqida umumiy qabul qilingan g'oyalarga o'tish sodir bo'ladi. Shu munosabat bilan, boshlang'ich maktab yoshida bola ijtimoiy obyektlarga nisbatan aniq tanlangan idrok xususiyatini rivojlantiradi. Talabaning idrok etish jarayonlari mazmunli, tahliliy va maqsadli bo'ladi. Ular qarash, qidirish, kuzatish kabi ixtiyoriy harakatlarni ajratib ko'rsatishni boshlaydilar.

Maktab yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy pedagogik amaliyotda, shu jumladan, maktab o'quv dasturlarida ko'rinishga, ya'ni o'rganilayotgan narsa va hodisalarni vizuallashtirishga katta e'tibor beriladi. Bunday talabni amalga oshirishda boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli joriy etilayotgan zamonaviy texnika yutuqlari katta yordam bermoqda. Bu boradagi eng istiqbolli texnologiyalardan biri bu to'ldirilgan reallik texnologiyasidir.

To'ldirilgan reallik (Augmented Reality (AR)) - bu virtual reallik qatlamini jismoniy muhit bilan birlashtirish va real vaqtda kompyuter yordamida 3D olami bilan aloqa qilish imkonini beruvchi texnologiya. Ushbu texnologiya o'rganilayotgan obyektlarni vizuallashtirish yoki bosma mahsulotlarni ya'ni gazetalar, bukletlar, jurnallar, geografik xaritalar va boshqalarni vizual ravishda to'ldirish uchun muhim.

To'ldirilgan reallik nafaqat taqdim etish, balki harakatlar yoki rejalar tizimini belgilash orqali vizual tasvirni yaxshilash imkonini beradi. Masalan, chizma yordamida obyektning yerdagi harakatini va uning harakat trayektoriyasini ko'rsatishdir. To'ldirilgan reallik smartfon yoki planshetdagi ilova tomonidan o'qiladigan belgiga ekranni yo'naltirish orqali obyekt haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Bu o'quvchi-talabaga vaqtni sezilarli darajada tejash va ma'lum bir qiziqish obyektiga tegishli ma'lumotlarni aniq olish imkonini beradi.

To'ldirilgan reallik o'quv jarayonida real

olamda namoyish etishning deyarli imkoni bo'lmagan jarayonlarni takrorlash imkonini beradi. Bu omil o'quv jarayonini nafaqat vizual va tushunarli, balki hayajonli va qiziqarli qilish imkonini beradi. To'ldirilgan reallik tufayli o'quvchi-talabalar jarayonlarni nafaqat rasm yoki diagrammalar bilan, balki mumkin bo'lgandan ko'ra aniq tasvirlarni taqdim etadigan texnik simulyatsiyalar yordamida ham tasvirlashlari mumkin.

Ta'lim tizimidan tashqari, to'ldirilgan reallik tijorat sohasida ancha vaqtdan beri qo'llanilib kelinmoqda va aynan unga e'tibor qaratish orqali o'quv jarayoni uchun eng maqbul usullar va texnologiyalarni aniqlash mumkin. Xususan, o'quvchilarda animatsiyaga, oddiy o'qishni o'yin jarayoniga aylantirishga katta qiziqish uyg'otadi. Bunda ular asar qahramonlari bilan tanishadi, ularni eshitishadi, ularga teginishadi va ularni hidlash kabi sezgilarni bog'laydi.

Hozirgi bosqichda to'ldirilgan reallik texnologiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiya juda xilma-xildir. Smartfonlardan bolalarga Google Earth, Picasa va Instagram kabi veb-albomlar yordamida olam qanday ishlashini ko'rsatish uchun o'quv darslarda foydalanish mumkin. Skype yoki boshqa VOIP mijozlari kabi aloqa dasturlari yordamida turli maktablar o'rtasida hamkorlikni o'rnatish mumkin. Shunda geotagging madaniyatlararo o'zaro ta'sir uchun foydali vositaga aylanishi mumkin³.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, real holatda to'ldirilgan reallik texnologiyalari kamdan kam qo'llaniladi yoki umuman ishlatilmaydi. Ammo aynan zamonaviy interaktiv texnologiyalar o'quv jarayoniga uch o'lchamli tasvirlar va o'yin elementini kiritadi. U esa o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini faollashtiradi, fazoviy fikrlash va loyiha ko'nikmalarini rivojlantiradi. To'ldirilgan reallik tufayli o'quvchi-talabalar yangi narsalarni o'rganish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ladi⁴.

Boshlang'ich maktablarda kompyuter yordamida vizuallashtirilgan texnologiyalardan juda kam miqdorda foydalaniladi va bu ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarida to'ldirilgan reallikni amalga oshirishga

e'tiborning yo'qligivategishli o'quv materiallarini yaratish qobiliyati bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir nechta dasturlarda bolalar uchun taqdimotni muvaffaqiyatli o'tkazishi va internetda mavzuga mos o'quv filmi, rasmlar va vizual materiallarni topishi mumkin. Biroq o'rganilayotgan fan doirasida jarayonni modellashtirish va vizuallashtirish mumkin bo'lgan maxsus dasturlarni yaratish haqida gap ketganda, o'qituvchilarning malakasi yetishmaydi.

Boshlang'ich maktablarda to'ldirilgan reallik texnologiyalari muvaffaqiyatli bo'lishi mumkinligini xorijiy tajriba ham tasdiqlaydi. Xorijda to'ldirilgan reallik texnologiyasiga ega darsliklar o'quv jarayoniga faol joriy etilmoqda; o'quv o'yinlari; ta'lim dasturlari; obyektlarni vizual modellashtirish; malaka oshirish uchun turli xil ilovalar va boshqalar.

Bularning barchasi bilan, hatto ushbu yo'nalishdagi eng ilg'or mamlakatlar, Yaponiya va Yevropa davlatlarida ham ta'lim jarayonida to'ldirilgan reallik texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos metodologiyasi mavjud emas. Rivojlanishning asosiy yo'nalishi mobil qurilmalar uchun ilovalardir. Mobil qurilmalar har kimga dasturga alohida kirish imkonini beradi va bu ularning asosiy afzalligi hisoblanadi. Mobil qurilmalar uchun ba'zi ilovalar mobil qurilma kameradan keladigan video oqimli kadrlarni tahlil qiladi va ularga qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtiradi, boshqalari o'rnatilgan GPS sensori yordamida foydalanuvchining joylashuvini tahlil qiladi⁵.

To'ldirilgan reallik texnologiyasi markerga asoslangan yoki markersiz bo'lishi mumkin. Markerlar matritsa kodlari yoki oddiygina yuqori kontrastli tasvirlar bo'lishi mumkin. To'ldirilgan reallikning eng oddiy misoli QR kodlaridan foydalanishdir. To'ldirilgan reallik har qanday darslikni hayotga tatbiq eta oladigan kuchli vizuallashtirish vositasidir. To'ldirilgan reallik real hayotda kuzatish qiyin bo'lgan jarayonlarni, masalan, inson ichki organlarining faoliyatini ko'rsatishi mumkin yoki maktab laboratoriyasida ko'paytirish qiyin bo'lgan fizik tajribalarni o'tkazish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Teglash yordamida to'ldirilgan reallik

Rossiyaning Eligo Vision kompaniyasi 2010-yil oxirida yetti mamlakatda tadqiqot o'tkazgan xalqaro tadqiqot agentliklaridan birining ma'lumotlariga tayangan holda o'z tadqiqotlarini olib bordi. Ushbu tadqiqot 3D kontenti va oddiy 2D kontentidan foydalangan holda darslar davomida sinovdan o'tkazildi, natijada ushbu turdagi materiallarga javob ma'lumotlari turlicha ekanligi aniqlangan. Ba'zi nazorat guruhlarida mashg'ulotlar 2D, boshqalarda esa 3D yordamida amalga oshirilgan. So'rovda ishtirok etgan o'qituvchilarning 100 foizi quyidagilarni ta'kidlaganlar: darsning tajribaga bag'ishlangan qismi boshlanganda 3D texnologiyasi bilan guruhlar uchun materialni o'rganish ulushi 86 % ga yaqinni tashkil etgan. 2D formatli guruhlar 52 % ga zo'rg'a yetganligini qayd etgan. Tajriba shuni ko'rsatdiki, besh daqiqa ichida o'quvchilarning 95 foizi 3D kontenti namoyish qilingan sinflardagi materialga e'tiborni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan, 2D kontent namoyish etilganda esa bu ko'rsatkich taxminan 40 foizga yetgan⁶.

Smartfonlar uchun yana ikkita astronomiya ilovasi, Vito Technology Inc kompaniyasining Solar Walk va StarWalk to'ldirilgan reallikka innovatsion yondashuvi tufayli katta ta'lim salohiyatiga ega hisoblanadi. Ushbu dasturlarda siz mobil qurilmangizni osmonga qaratishingiz kerak va ekranda paydo bo'ladigan yulduzlar, sayyoralar va yulduz turkumlarining nomlari hamda ulardagi qo'shimcha astronomik ma'lumotlar ekranda paydo bo'ladi.

Loyiha faoliyatida foydalanilganda ushbu

³ Кечиев Л.Н., Давыдов Н.П. Дополнительное образование школьников - ступенька к высшему образованию // Внешкольник. 2002. № 10. С.11-14.

⁴ Катханова, Ю.Ф. Технология дополненной реальности в образовании / Ю.Ф. Катханова, К.И. Бестыбаева // Педагогическое мастерство и педагогические технологии: материалы VIII Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 17 июля 2016 г.) / редкол.: О. Н. Широков [и др.]. - Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс». 2016. № 2 (8). С. 289-291.

⁵ Баулин И.Н. Слои для браузера дополненной реальности // International Journal of Open Information Technologies. 2013. №7. С.16-23

⁶ Дополненная реальность в образовании, интервью с Eligo Vision// [Электронный ресурс] URL: <http://amext.ru/interview/dopolnennaya-realnost-v-obrazovanii-intervyu-s-eligovision-2897>

texnologiya katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda bozorda to'ldirilgan reallik loyihalarini mustaqil ravishda yaratish uchun tobora ko'proq ilovalar paydo bo'lmoqda. Shunday ilovalardan biri EV Toolbox bo'lib, u marker texnologiyasi asosida turli darajadagi murakkablikka ega to'ldirilgan reallik obyektlarini yaratish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. EV Toolbox ilovasi bilan to'ldirilgan reallik.

Boshlang'ich maktablarda to'ldirilgan reallik texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi, shuningdek, zamonaviy kichik maktab o'quvchilarining oldingi avlod maktab o'quvchilaridan sezilarli darajada farq qilishi bilan bog'liq. Jamiyatning axborotlashuvi o'quvchilarning mobil qurilmalardan foydalanishni yoshligidanoq o'rganishiga olib keladi. Xususan, ko'plab ota-onalar farzandlari uchun planshetlarga interaktiv o'yinlarni yuklab olishadi va bolalarga o'ynash, muloqot qilish va video kontentni tomosha qilish imkonini beruvchi maxsus elektron qurilmalar sotib olishadi⁷.

Mobil qurilmalar soni muttasil o'sib bormoqda va texnologiyalarning o'zi ham xuddi shu tarzda takomillashib bormoqda, ularning ilovalari takomillashtirilmoqda, bu esa kelajakda to'ldirilgan reallik o'quv jarayonining majburiy qismiga aylanishini aytishga asos bo'ladi.

O'quv jarayoniga tegishli ilovalarni ishlab chiquvchi mutaxassislarining ta'kidlashicha, to'ldirilgan reallikni joriy etish ta'lim sifatini va o'quv materialini o'zlashtirishni sezilarli darajada yaxshilaydi. An'anaviy o'quv jarayonidagi 25% bilan solishtirganda,

to'ldirilgan reallikni joriy qilish jarayoni 80% gacha samaradorlikni ta'minlaydi. Buning sababi shundaki, miya vizual ma'lumotni matn va eshitish ma'lumotlariga qaraganda muvaffaqiyatliroq qayta ishlaydi.

V.V.Averyanov va D.I.Troitskiy tomonidan zamonaviy o'qituvchilarga allaqachon tanish bo'lib ulgurgan va odatda pedagogik amaliyotda o'zini ijobiy isbotlagan oddiy qog'oz darslik bilan ishlash doirasida to'ldirilgan reallikdan foydalanishni ko'rib chiqadi. To'ldirilgan reallik o'quvchiga qo'shimcha ma'lumotlarni uzatish orqali oddiy darslik funksiyalarini kengaytirishi mumkin, bu esa vizual tasvirlarni yaratadi va qisqa muddatli xotira jarayonlarini rag'batlantiradi. Bu jarayon orqali interaktivlik funksiyasi kiritiladi⁸.

Ayrim o'qituvchilarning amaliyotida biz 3D modellashtirish texnologiyalarini mustaqil ishlab chiqish va ulardan foydalanish darajasida to'ldirilgan reallikni joriy etish va ular yordamida o'quv qo'llanmalarini yaratish, bolalarni loyiha faoliyatining bir qismi sifatida ushbu texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarni faqat boshlang'ich va o'rta maktablarda bog'lash mumkin, bunday yondashuvlar kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mos emas. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan modellarni yaratish uchun uch o'lchovli kompyuter grafikasi uchun paketlardan foydalanish muhimdir⁹.

Zamonaviy o'quv amaliyotidagi eng muvaffaqiyatli dasturiy mahsulotlardan biri bu Blender uch o'lchovli kompyuter grafikasini yaratish uchun bepul tarqatilgan professional paket bo'lib, u "tugunlar" yordamida videoni modellashtirish, animatsiya qilish, ko'rsatish, keyingi ishlov berish va ovozi, kompozitsiyani tahrirlash vositalarini o'z ichiga oladi. " (Node Compositing), shuningdek, interaktiv o'yinlar yaratish uchun. Uning yordami bilan siz osongina video yaratishingiz va birlashtira olasiz, uch o'lchamli modelni yaratishingiz va hatto uning harakat parametrlarini o'rnatishingiz, diagrammalar, obyektlar va boshqalarning uch o'lchovli vizualizatsiyasini yaratishingiz mumkin.

⁷ Abduganiyev V.B. New perspectives of project activity of school students in modern education /НОВЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: сборник статей IX Международной научно-практической конференции. – Пенза 2022: МЦНС «Наука и Просвещение».

⁸ Аверьянов, В.В., Троицкий Д.И. Книги с дополненной реальностью как эффективный образовательный инструмент //Виртуальная и дополненная реальность – 2016: состояние и перспективы. – М.: ГПБОУ МГОК, 2016. – С. 7-10

⁹ Валева, Ю.И. 3D-редактор BLENDER // Информационно-коммуникационные технологии в педагогическом образовании. 2009. №4 (04). С. 9-13.

SMART elektron doskalarini ishlab chiqaruvchi taniqli SMART Technologies kompaniyasi SmartNotebook dasturiy ta'minotiga qo'shimcha sifatida uch o'lchamli modellar va animatsiyadan foydalanish imkonini beruvchi 3D Tools to'plamini chiqardi. Kompaniya vitse-prezidenti Linda Tomasning so'zlariga ko'ra, bunday qo'shimchalar "obyektlarni jonlantiradi, o'quvchilarga mavzuga to'liq kirib borishga va tushunchalarni to'liqroq taqdim etishga imkon beradi, bu esa tushunish va o'rganishni yaxshilaydi"¹⁰.

Maktabda to'ldirilgan reallikdan foydalanish amaliyoti ko'plab interfaol o'yinlar, jumladan, didaktik, o'quv qo'llanmalari va bolalarga qaratilgan ko'ngilo chartexnologiyalar tufayli kengaymoqda. Zamonaviy bozorda, masalan, to'ldirilgan reallik texnologiyasiga ega bolalar uchun interaktiv rang berish kitoblari iste'molchilar uchun keng tarqalgan.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish rasmlarga, birinchi qarashda, rasmdagi belgilarni jonlantirishga yordam beradigan eng oddiy rang beruvchi markerlarni joylashtirish orqali amalga oshiriladi (3-rasm).



3 - rasm. Quiver ilovasi bilan to'ldirilgan reallik

Bunday rang berish kitoblari juda keng assortimentga ega va bolalar orasida mashhur bo'lgan ko'plab brendlar texnologiyaga qiziqish uyg'otdi. Amaliyot, shuningdek, jozibador bo'ladi, chunki rang berish bolalar uchun ta'lim bo'sh vaqtlari sifatida butun dunyoda bolalar orasida mashhur bo'lib, o'qituvchilar undan maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun turli xil o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanadilar. Amaliyotning o'zida bolalar nafaqat chizilgan belgilarni va ularning atrofini bo'yashadi, balki natijani uch o'lchamli tasvirlar va harakatda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa sifatida shuni qayd etib o'tish mumkinki, to'ldirilgan reallik maktabda ta'lim sifatini oshirishning innovatsion va samarali vositalaridan biri bo'lib, zamonaviy texnologiyalar uni amaliyotga tatbiq etish uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi. Bugungi kunda allaqachon maktablarga qaratilgan va boshlang'ich sinflar uchun dolzarb bo'lgan bir qator ishlanmalar va mobil ilovalar mavjud. Shu bilan birga, maktab muhitining o'zidan tashqari, maktab bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishi mumkin bo'lgan madaniyat va qo'shimcha ta'lim sohasidagi tashkilotlar ham to'ldirilgan reallikka e'tibor berishni boshlashmoqda. To'ldirilgan reallik qisqa muddatli xotiraning eng faol stimulyatorlari bo'lgan ta'lim jarayonida vizualizatsiya va interaktivlikni ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, ayrim maktab darsliklarini o'qitishda to'ldirilgan reallik texnologiyadan foydalanish o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga va o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlari yuqorida darajada bo'ladi.

¹⁰ 3D-инструменты SMART Notebook 2014. URL: <https://smart-tech-ru.livejournal.com/28090.html>

METHODOLOGY OF CHEMICAL EXPERIMENTS MODELING THROUGH COMPUTER PROGRAM

Tulkin Abduvaliyevich Julboev - senior teacher, Jizzakh state pedagogical university

Abstract: The use of modern computer software in teaching chemistry creates the basis for increasing students' interest in chemistry, transferring knowledge and consolidating knowledge. Chemical computer software is a program used to perform calculations of complex chemical equations and operations, the structure of chemicals, their identification and the display of the parameters of various substances.

Annotatsiya: Kimyo o'qitishda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanish o'quvchilarning kimyoga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni uzatish va bilimlarni mustahkamlashga zamin yaratadi. Kimyoviy kompyuter dasturlari murakkab kimyoviy tenglamalar va hisoblashlar, kimyoviy moddalarning tuzilishi, ularni aniqlash va turli moddalarning parametrlarini ko'rsatish uchun ishlatiladigan dasturlardir.

Аннотация: Использование современных компьютерных программ при обучении химии создает основу для повышения интереса учащихся к химии, передачи знаний и закрепления знаний. Химическое компьютерное программное обеспечение - это программа, используемая для выполнения расчетов сложных химических уравнений и операций, структуры химических веществ, их идентификации и отображения параметров различных веществ.

Keywords: chemistry, analysis, synthesis, technology, computer technology, technical means, ChemDraw, Isis/Draw, ChemBio-Draw, Alchemy, HyperChem, Gaussian, Chemofis, Crocodile Chemistry.

Kalit so'zlar: kimyo, analiz, sintez, texnologiya, kompyuter texnikasi, texnik vositalar, ChemDraw, Isis/Draw, ChemBio-Draw, Alchemy, HyperChem, Gaussian, Chemofis, Crocodile Chemistry.

Ключевые слова: химия, анализ, синтез, технология, компьютерная техника, технические средства, ChemDraw, Isis/Draw, ChemBio-Draw, Alchemy, HyperChem, Gaussian, Chemofis, Crocodile Chemistry.

The purpose of mastering the Methods of modeling in chemistry is to study the modern possibilities of using computer technology and mathematical methods for modeling and explaining chemical.

Mainly when modeling the structure of chemical compounds and reaction processes:

- patterns of development and modern possibilities of using various types of models in solving chemical problems;

- stages of building models and their use as a means of managing and collecting data, primary data processing, interpretation of the results;

- the possibility of using information technology in the collection, processing and presentation of chemical data.

Processes and phenomena, deducing the patterns of establishing the boundaries of their application. Modern trends in the development of chemical industries require the development of resource-saving, cost-effective, as well as environmentally friendly technological schemes of production¹.

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 12, 2020 № PP-4805 "On measures to improve the quality of continuing education and scientific efficiency in the field of chemistry and biology" created opportunities for major changes in the development of science and training of highly qualified personnel. One of the priorities of the State Program "Year of Science, Enlightenment and Digital Economy" - ensuring an effective educational process in the field of chemistry and biology in higher education, achieving the integration of science and industry, undergraduate internships under the guidance of leading experts in the field, teaching students to use modern laboratory and to create conditions for closer acquaintance with production processes, to promote the implementation of the results of scientific work and to establish cooperation in the commercialization of scientific developments². Implementation of the set tasks, IT Park was established in Tashkent in 2019, its branches were established in regional

centers in 2020³.

The main purpose of the IT ((pronounced ay-ti, abbreviation for information technology in English). Information technology is the process of searching, collecting, storing, processing, presenting, disseminating data, and the implementation of similar processes and methods.)

Park is to provide talented students, students and researchers with computer literacy, programming, WEB design, graphic design, mobile robotics, mobile applications in science, esports, English and other training courses, as well as the rapid development of digital economy and entrepreneurship, serves to increase the production and export of software products, increase the number of educated young people in the field of information and communication technologies.

The concept of higher education in the Republic of Uzbekistan defines the duties of a specialist as follows: "...A specialist, regardless of their field of activity, must be able to work in creative teams, trained in management and marketing, have a clear idea of economic, social and cultural aspects of new technologies". These ideas apply directly to educators as well. Because the radical changes taking place in our society, our entry into market relations require teachers to be aware not only of professional knowledge, but also of economic, legal, technical knowledge.

One of the main qualities of modern educators is love of their profession, devotion to it and ideological conviction.

Yusuf Khos Hajib, the great scholar of the pedagogy of the peoples of the East, through his work "Kutadgu bilik" in the importance, definition and description of science, enlightenment, encourages people to constantly acquire knowledge, to study knowledge. All good deeds in the world are based on knowledge and enlightenment, the darkness of ignorance is written due to the enlightenment of knowledge, the mind is enlightened, and light is spread in the world. He stressed that every sane person should be aware of the affairs of the world, for this he should constantly acquire knowledge and strive for enlightenment.

In the early stages of education, the educator makes more use of analysis-synthesis. Analysis is the breaking down of things and events into components. In the process of synthesis, students combine the elements of individual parts of events and events into a whole. Through methods such as synthesis, analysis, comparison, induction, students have the opportunity to form an understanding of themselves.

The analysis of the works of Eastern encyclopedic scholars, using modern terminology, makes it possible to determine the principles and teaching methods of the authors of these works in accordance with the general laws of knowledge. The teaching methods used by all encyclopedic scholars can be divided into several groups. These are: demonstrative experimental methods (Ibn Sina), question-and-answer ways of expressing knowledge (Abu Rayhan Beruni, al-Khwarizmi), methods of formation of skills and abilities, methods of testing knowledge (Farobi, al-Kharizmi), etc. It is noteworthy that all of these scholars aimed to enhance their learning activities and develop logical thinking in them.

What are the current requirements for the teaching process, which increase the interest of students in the lesson, enrich it with elements of innovation? Modern education requires not only the mastery of the knowledge acquired by mankind, but also the acquaintance with the problems which society now has to solve and solve. Such issues may include the assimilation of the world's wealth, the use of the world's most advanced technologies, the conversion of deserts into fertile lands and orchards, the intensification of agriculture, and so on.

The use of technology in the educational system has always been of an informational nature, which includes the storage, transmission and communication of up-to-date information to users. The advent of computer technology and communication technology, along with science-related software tools, has significantly changed educational technology. The introduction and proper use of information and communication technologies in the educational process requires the following⁴.

- modern computers, means of communication as technical and demonstration means of training;

- the availability of systemic and practical software suitable for the educational process and the organization of scientific research;

- relevant methodological developments for the introduction of new teaching aids and software into the educational process.

The following problems that arise when introducing computer and information technologies into the education system are of great importance:

- technical equipment - determination of the requirements for electronic computing and microprocessor technology necessary for the educational system, the features of their practical application and the choice of optimal options;

¹ T.N.Hartman Computer modeling of energy and resource-saving chemical industries//Software products and systems. 2002. No. 4.

² President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev on "Measures to increase the quality of continuous education and the effectiveness of science in the fields of chemistry and biology". Decision No. PQ-4805 of August 12, 2020.

³ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev dated October 5, 2020 No. PF-6079 on approval of the "Digital Uzbekistan-2030" strategy and measures for its effective implementation.

⁴ N.G.Rakhmatullayev, N.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov. Chemistry teaching methodology. Tashkent. Economy - Finance - 2013.

- program tasks - determination of the content, tasks and types of programs for use in the educational system, the content and features of their application;

- development of the ability of students and researchers to use scientific programs, information and communication technologies, computer technologies.

Today, the main direction of informatization of science is the creation of pedagogical software in various subjects. However, existing and emerging computer pedagogical software tools can lead to significant changes in learning as education.

One of the reasons for this is that computer technology has begun to be introduced in the traditionally organized learning process. The introduction of computer and information technologies in the educational process is important because it has its own essence in the form of a new generation of educational tools and the latest types of education. In addition to traditional teaching methods, the educational process has included e-learning products that incorporate all multimedia systems that are considered teaching aids.

Educational-methodical electronic products have a great opportunity to prepare students on the topics specified in the program on the basis of the information included in them, to study independently after class⁵.

The basis of chemical computer tools are programs used to perform complex calculations⁶, operations and facilitate the appearance of objects, programs used in the implementation of substance identification and combining the parameters of various substances ChemDraw, Isis/Draw, ChemBio-Draw, HyperChem, Gaussian, Chemofis and Crocodile Chemistry is used. Software designed to work with research equipment (NMR, IR spectrometers, illuminating and scanning electron microscopes, chromatographs, chromatomass spectrometers, etc.) is also a specialized program⁷.

One such computer software tool is Crocodile Chemistry⁸, which is the creation of a comprehensive simulated chemical laboratory to safely and easily model experiments and reactions. Pull out chemicals, equipment, and glassware and combine them the way you want, selecting quantity and concentration, mixing chemicals, and visualizing mechanisms using 3D animations to create experimental data analysis with precise modeling of reactions.

The ChemOffice chemical software suite helps chemistry students and researchers

conducting research in chemistry to identify and focus on many routine processes⁹. In the program, the modules turn the computer into a workstation for designing and working with databases and chemical documents.

The new version of ChemOffice Ultra includes ChemDraw Ultra, Chem3D Ultra, E-Notebook Ultra, ChemFinder, CombiChem, Inventory, BioAssay and The Merck Index. ChemDraw/ Excel and ChemFinder/ Word modules are used to integrate with Microsoft Office.

Using the data of the structure, you can estimate the spectrum of the substance and visualize the volumetric models of molecules and orbitals using the MOPAC module. The ChemDraw and Chem3D plugins allow you to publish online.

Researchers can record their ideas and share information with colleagues using the natural language of chemical structures and models. While working in the laboratory, researchers can record the results of experiments, organize the storage of chemical data, documents and information using an electronic laboratory journal E-notebook.

The Gaussian program includes a set of software for calculating the structure and properties of molecular systems in this gas-phase and condensed state, including computational chemistry, quantum chemistry, and various methods of molecular modeling¹⁰. It includes many methods for calculating the structure and properties of molecules. The program also allows you to create files that can be used by many programs to visualize molecular systems. By studying the GaussView program interface, it is possible to develop a graphical design of chemical structures. The GaussView program is a graphical editor for the Gauss program that makes it very easy to create a startup structure and input file for the Gauss program, and provides intermediate and final calculation results.

GaussView (GV) is a collection of routine works used in conjunction with the main. This allows a graphical representation of molecular structures to be obtained. Also calculate the binding energy of molecular structures using the Gaussian program; it is possible to analyze the results of the work performed. In GaussView, the creation of a molecule is done in two ways:

- by adding atoms in series;
- by sequentially adding atoms, cyclic and radical fragments.

The second method is technically

convenient and superior. This is explained by the fact that the cycles and radical fragments included in the database of the Gauss-View program have a geometric structure close to the optimal structure and lead to a sharp reduction in the calculation time of the optimization of the geometric parameters of the molecule. This situation is manifested by an increase in the size of the molecular system under study.

The Hyperchem program is a program designed for molecular modeling and quantum chemical calculations. Molecular design and visualization of data included and calculated in Hyperchem, empirical (molecular mechanics method), semi-empirical and quantum chemistry method and other computational methods. Hyperchem is an effective learning tool for performing quantum chemical calculations due to convenient and visual molecular modeling and visualization of the geometric and electronic structure properties of molecules.

The ChemBioDraw program is a set of state-of-the-art scientific and practical applications for researchers to draw the structure of chemicals and analyze their properties, along with drawing biological structural paths. ChemBioDraw provides advanced chemical tools and complete analysis and synthesis for drawing chemical structures, preparing quality graphics for publication, and input for simulation and other applications that require electronic description of molecules and reactions. ChemBioDraw also offers a drawing tool for biological pathways. It includes the common pathway of elements (membranes, DNA, enzymes, receptors, etc.), as well as the ability to import other elements.

The Isis/Draw program has the ability to demonstrate huge and inconvenient formulas of organic chemistry and biochemistry, as well as their cycle drawing, single, double and triple bonding in substances.

Alchemy. The structure, structure and spatial shapes of substances can represent molecules in 2D and can also be converted to 3D geometric shapes with this program. At the same time, substances in the composition of inorganic and organic compounds have the ability to show the full state of molecules in 3D format. It is possible to create a bank of structures of organic substances, isomeric states and functional groups. In this program, we can see the appearance of conformational angles and the sum of angles of atoms and substances in stereochemistry and quantum chemistry. Angular conformations are established, allowing the program to gradually change conformation until the program is told to stop. While working in the program, you can

use the screen to configure external panels. A conformational search can include up to eight single bonds and two loops. The program has the ability to export to a spreadsheet. With the help of the program, you can get a very good chair. Structures can be specified and labeled in a variety of ways. Presentation mode allows you to combine molecular structures with text. This program can be used by chemistry teachers of secondary schools, lyceums and higher educational institutions, as well as researchers conducting scientific research.

Chem Draw, Software-Chem Draw, one of the components of the ChemOffice integrated software suite, is designed for two-dimensional depiction of molecular structures and belongs to what is called a two-dimensional chemical editor¹¹. This program allows you to reflect molecular structures of any complexity in a plane, write reaction equations, name substances, molecules and then convert them into three-dimensional Chem3D models. The use of computer tools in the teaching of chemistry creates a basis for increasing students' interest in the subject, imparting knowledge and strengthening knowledge. The use of teaching aids on a regular basis for each topic is effective. Continuous application of the same order and repetitive methods loses the stability of the quality of education. The variety of teaching methods and visual aids stabilizes the teacher-student relationship.

While many experimental methods for describing the formation of chemical compounds and the behavior of reaction processes have proven to be reliable and accurate, they are expensive due to expensive test equipment, sample production, and labor. Computational computer models can now be used to facilitate the description and testing of reaction mechanisms by observing and developing robust and efficient structures identified through low cost computer simulations.

In addition, researchers conducting research in various fields of chemistry will be able to accurately model the mixing and reaction processes of chemicals, estimate the spectrum of matter, visualize volumetric models of molecules and orbitals, including the development of various methods of computational chemistry, quantum chemistry and molecular modeling, graphical construction of chemical structures, convenient and visual molecular modeling and visualization of the geometric and electronic structure properties of molecules, drawing chemical structures, it will be possible to prepare high-quality graphics for the publication and to demonstrate the simulation and electronic description of molecules and reactions, as

⁵ R.J. Ishmuhamedov, Ways of increasing the efficiency of education with the help of innovative technologies. Tashkent. TDPU 2004.

⁶ E.V. Butyrskaya, L.S. Nechaeva. Computer Chemistry. Publishing and Printing Center of Voronezh State University 2011.

⁷ N.Q. Muhamadiyev. Mathematical modeling of the structure and properties of chemical compounds. Creative publishing house named after Cholpon. Tashkent-2016.

⁸ Jeffrey Kovac University of Tennessee Knoxville. Crocodile Chemistry, by Crocodile Clips, Ltd TN 37996-1600. Journal of Chemical Education. Vol. 77 No. 10 October 2000.

⁹ J.B. Foresman, A. Frisch. Exploring Chemistry with electronic Structure Methods. Gaussian, Pittsburg, PA. 1996

¹⁰ D.C. Young. Computational Chemistry: A Practical Guide for Applying Techniques to real-World Problems. Wiley Interscience, 2001.

¹¹ Molecular Modeling Applied to Nanobiosystems. A.M. Amarante, F.de Lima Leite, in Nanoscience and its Applications, 2017

well as the huge and inconvenient formulas of organic chemistry and biochemistry, as well as to draw their cycles, multiple connections

ROBOTOTEXNIKA – TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI SIFATIDA

Mirjalol Qosim o'g'li Yo'ldoshev - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassalarida murakkab texnik-texnologik masalalarni hal etishga qobiliyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi qaralgan. Bunday innovatsion texnologiyalardan biri – bu o'quv robototexnikasi bo'lib, uni umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya fanini o'qitish jarayoniga qo'llash bo'yicha to'plangan tajribalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос внедрения инновационных технологий в образовательный процесс с целью подготовки в высших учебных заведениях специальных кадров, способных решать сложные технические и технологические задачи. Одной из таких инновационных технологий является образовательная робототехника, описан накопленный опыт ее применения в процессе обучения в общеобразовательных школах.

Abstract: In this article, the issue of introducing innovative technologies into the educational process in order to train specialist personnel capable of solving complex technical and technological issues in higher education institutions is considered. One of such innovative technologies is educational robotics, the accumulated experience of its application to the process of teaching technology in general secondary schools is described.

Калит so'zlar: o'quv robototexnika, oliy ta'lim muassasasi, innovatsion ta'lim, arduino, svetadiod.

Ключевые слова: образовательная робототехника, вуз, инновационное образование, arduino, светодиод.

Keywords: educational robotics, higher education institution, innovative education, arduino, svetadiod.

Zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifasi – bu innovatsion faoliyatga, o'z-o'zini rivojlantirishga va mustaqil ta'lim olishga qobiliyatli, ijodkor mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Bunday talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashni esa o'z navbatida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishning an'anaviy usullari orqali hal etib bo'lmaydi. Bu esa, o'z navbatida umuta'lim ta'lim muassalarida o'quv jarayoniga o'quvchilar bilimlarning iste'molchisidan ularni ishlab chiqaruvchisiga aylantirishga, fan va texnika rivojiga o'z ulushini qo'sha olishga imkon beruvchi innovatsion ta'lim texnologiyasini qo'llash taqozo etadi.

Bugungi kunda bunday texnologiyalar juda ko'p, ammo maktab o'quv jarayoni uchun ular orasida eng samaralisi bo'lib, ta'limiy robototexnikaning joriy etilishi hisoblanadi.

Ta'limiy robototexnikaning bugungi

kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida qo'llanilmoqda.

Ta'limiy robototexnika – bu fizika, mexatronika, texnologiya, matematika, kibernetika va axborot kommunikatsion texnologiyalar haqidagi bilimlarni birlashtirilgan holda innovatsion ilmiy-texnik ijodkorlik jarayoniga turli yoshdagi ta'lim oluvchilarni jalb qilish imkonini beradigan o'qitishning yangi fanlararo yo'nalishi¹.

U ilmiy-texnik ijodkorlikni ommalashtirish va yoshlar o'rtasida muhandislik kasbi nufuzini oshirishga, yoshlarda dolzarb muhandislik-texnik masalalarni amaliy yechim ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari ta'limiy robototexnika ta'lim dasturlarini o'zlashtirish sifatini oshirish vositasi sifatida DTSni amalga oshirishning samarali vositasi bo'lib hisoblanadi².

Ta'limiy robototexnikani o'quv jarayoniga joriy etish uchun interaktiv namoyish etish

1 Халамов В.Н. Робототехника в образовании - Вся Россия. метод обучения. центр будет создан. Роботизированные прозвища – 2013. – 24 с.

2 Халамов В.Н. Фишертехник - Основы образовательной робототехники: образовательный метод. Региональный информационный центр и мат.-тех. предоставить ОУ Чел. область – Челябинск, 2012. – 40 с.

imkoniyati hisobiga texnologiya kabi amaliy fanlarning ta'limiy dasturini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Namoyish etish imkoniyatidan tashqari ta'limiy robototexnika umumta'lim muassalarida o'quvchilarning ijodiy-tatqiqot faoliyatida foydalaniladigan an'anaviy laboratoriya jihozlar nisbatan bir qator afzalliklarga ega³.

Ta'limiy robototexnikaning zamonaviy platformalari turli xil ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan barcha zarur apparat va dasturiy vositalarni o'z ichiga oladi.

Ta'limiy robototexnika yangi yo'nalish bo'lishiga qaramasdan, u bugungi kunda juda tez sur'at bilan rivojlanmoqda. Ko'plab xorijiy va mahalliy kompaniyalar ta'lim uchun mo'ljallangan robototexnika platformalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda.

Ta'limiy robototexnika ishlab chiqaruvchilari ta'lim jarayonidagi asosiy muammolarni aniqlash uchun dunyoning eng yaxshi ta'lim mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bunday kompaniyalar haqida ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

Asosiy ta'lim robototexnika platformalari 1-jadval.

№	Ishlab chiqaruvchilar	Mamlakat nomi	Platforma nomi
1	Pitsko	AQSH	TETRIS
2	Lego	Daniya	Mindsteems Education EV3
3	TRIC	Rossiya	TRIK
4	VEX Robotics	AQSH	VEX IQ VEX EDR
5	FischerTechnik	Germaniya	FischerTexnika
6	MRT International Limited	Jambiy Koreya	Huna MRT
7	Intibontexnolab robot	Rossiya	TEXNOLAB
8		Jambiy Koreya	Bioloit
9	IDE	Italiya	Arduino

1-jadvalda keltirilgan barcha platformalarning asosiy vazifasi – bu ta'lim oluvchilarning o'qishga motivatsiyasini, murakkab muhandislik-texnik masalalarni yechishga qobiliyatli, kompotentli mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim dasturlarining sifatini oshirishdan iborat. Bu masala turli platformalarda turlicha hal etadi.


6-sinf texnologiya darsligining "Robototexnika asoslari" bo'limida Arduino platasi hamda turli qo'shimcha qurilmalarni dasturyordamidaboshqarish uchunna'munalar

3 Белиевская Л.Г. Программирование микрокомпьютера NXT в LabVIEW – М.: ДМК Пресс, 2012. – 280 с.
Калугина В.А. Основы Lego-проектирования: методические рекомендации – Курган: ИРОСТ, 2012.

4 Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A., Toxirov O'O. va boshqalar Texnologiya: 6-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021. – 212-237-betlar.
5 Каширин Д.А. Курс "Робототехника": методические рекомендации для учителей – Курган: ИРОСТ, 2013. – 80 с.

keltirilgan⁴. Bu qurilmalardan foydalanib, amaliy mashg'ulotlarni olib borish darslarni qiziqarli hamda sifatli o'tilishida samarali vosita bo'lib, turli loyiha ishlarini bajarilish orqali ijodkorlik qobilyatlarini namoyish etish uchun xizmat qiladi. Quyida biz svetadiodlarni dastur yordamida boshqarishni ko'rib o'tamiz. Buning uchun kerak bo'ladigan qismlar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Bunda bizga arduino plata, svetadiodlar, bog'lovchi similar, USB kabel hamda marketing plata kerak bo'ladi.

Arduino – bu unchalik katta bo'lmagan plata bo'lib, o'zining protsessori (mikrokontrolleri) va xotirasiga ega bo'lgan qurilma hisoblanadi (1-rasm)⁵.



1-rasm. Arduino plata tuzilmasi
Svetodiод (yorug'lik diodi) arsenit – fosfid – galiy asosida yasaladi. Svetodiод orqali tok o'tganda u o'zidan yorug'lik chiqaradi (2-rasm).



2-rasm. Svetadiodning tuzilishi
USB – arduino platasi bilan kompyuterni bog'lovchi qurilma (3-rasm).




3-rasm. USB kabel

Bog'lovchi simlar – arduinodan amaliyot doskasiga signalni o'tkazish uchun xizmat qiladi (4-rasm).



4-rasm. Bog'lovchi simlar.

Amaliyot doskasi – qurilmalarni ulash doskasi hisoblanadi⁶ (5-rasm).



5-rasm. Amaliyot doskasi.

Bitta svitadiodni arduinoning 7 oyoqchasiga bog'lagan holda dastur yordamida boshqarishni ko'rib o'tamiz. Dasturiy qismi quydagicha:

```
void setup() { pinMode(7, OUTPUT); }
void loop() { digitalWrite(7, 1);
delay(1000);
digitalWrite(7, 0); delay(1000); }
```

Bu yerda void setup bandi bog'lovchi qism hisoblanib, unda pinMode – Oyoqcha usulida arduinoning qaysi oyoqchadan signal olinayotganligini ifodalab beradi. OUTPUT – arduinoning oyoqchasidan signal olishni ifodalab beradi.

7 – arduinoning foydalanilayotgan oyoqcha raqami.

void loop bandi esa buyruq beruvchi qismi hisoblanadi. digitalWrite – (raqamli yozuv), ya'ni svitadiodlarni yoqish va o'chirishni ifodalovchi buyruq. Buyruq 2 lik sanoq sistemasida (1 – yoqish, 0 – o'chirish) kiritiladi, delay – buyrug'i vaqtni ifodalaydi, 1000 esa


⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Arduino>.

⁷ Филиппов С.А. Робототехника для детей и родителей. – СПб.: Наука, 2013. 319 с.

Овсянницкая, Л.Ю. Курс программирования робота Lego Mindstorms EV3 в среде EV3: основные подходы, практические примеры, секреты мастерства – Челябинск: ИП Мя-Котин И.В., 2014. – 204 с.

1-soniyani ifodalaydi.

Qismlarni bir-biriga bog'lash sxemasi (6-rasm).



6-rasm. Ulanish sxemasi

6-rasmda svitadiodning musbat zaryad qabul qiluvchi uzun oyoqchasi arduinoning signal chiqaruvchi raqamlardan iborat bo'lgan qismiga qizil simcha orqali (Anod), kichik oyoqchasi minus signal qabul qiluvchi GNDga ko'k simcha orqali (Katod) bog'lash yo'li orqali boshqariladi⁷.

Svetaforning ishlashi uchun kerak bo'ladigan elektronik vositalar bilan tanishib chiqdik. Biz birinchi navbatda arduino uno platasini o'rnatamiz. Unga mos holatda amaliyot doskasini joylab, kerakli svitadiodlarni ham tanlab olamiz. So'ngra arduino platasiga amaliyot doskasi hamda svitadiodlarni bog'lovchi simlar yordamida bog'laymiz. Tayyor bo'lgan sxemani dasturiy qismi 7-rasmda keltirilgan.

```
void setup() {
pinMode(2, OUTPUT);
pinMode(3, OUTPUT);
pinMode(4, OUTPUT);
}


void loop() {
digitalWrite(2,1); delay(1000);
digitalWrite(2,0); delay(1000);
digitalWrite(3,1); delay(1000);
digitalWrite(3,0); delay(1000);
digitalWrite(4,1); delay(1000);
digitalWrite(4,0); delay(1000); }
```



7-rasm: Svetaforning dasturiy qismi.

Agar ekranda dastur arduino platasiga yuklangandan so'ng strelka bilan ko'rsatilgan tartibdagi yozuv paydo bo'lsa, tuzilgan dastur kamchiliksiz to'g'ri tuzilganligidan dalolat beradi. Quyidagi rasmdan qurilma to'g'ri ishlashini ko'rish mumkin (8-rasm).

a) b) d)



8-rasm. Svetaforning ishlash holati

8-rasm, a) –da svetafor maketining qizil chirog'i yonib turganini, b) –da svetafor maketining sariq chirog'i yonib turganini, d) – da esa svetafor maketining yashil chirog'i yonib turganini kuzatish mumkin.

Undan tashqari arduino platasini yordamida yana ko'plab dasturlar tuzib, o'quvchilarning texnik tafakkurini shakllantirishda texnik vosita sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, o'quv robototexnikasini o'quv jarayoniga joriy etish umuman ta'lim tizimini rivojlantirishda

yangi qadam.

Fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim faoliyatini tashkil etish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy vazifalarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan tayyorlanayotgan mutaxassislarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bunga hissa qo'shadigan ta'limiy robototexnika ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish. Zero, ta'limiy robototexnika turli sohalarni birlashtiradi, fan va texnologiya - sxemani loyihalashdan to'sun'iy intellektgacha. Respublikamiz va butun mamlakatning kelajagi aynan shu sohalarning rivojlanishiga bog'liq. Bu borada so'nggi yillarda mamlakatimizda juda ko'plab imkoniyatlar berilmoqda, hamda robototexnika to'garaklari faoliyati yildan yilga ko'payib bormoqda. Umumiy o'rta ta'lim ixtisoslashtirilgan hamda oddiy maktablarda o'tilayotgan texnologiya fani darsligida robototexnika asoslari alohida bo'lim sifatida o'tilib, o'quv soatlari ham ko'payganligini kuzatishimiz mumkin. Bu xulosalardan shu aytish mumkinki, yaqin orada umumiy o'rta ta'lim ixtisoslashtirilgan hamda oddiy maktablarda robototexnika asoslari fani alohida fan sifatida shakllansa, soha rivojiga hamda yurtimiz rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA KREATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI

Sabina Shuxrat qizi Urinova - stajor-o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa o'qituvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishning zarurati haqida so'z boradi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining faoliyatida pedagogik mahorat, kreativ ko'nikmalarning ahamiyati, rivojlantirish omillari borasida fikrlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о необходимости развития творческих способностей учителей музыки. Существуют мнения о важности педагогического мастерства, творческих способностей, факторов развития в работе будущих учителей музыки.

Abstract: This article talks about the need to develop the creative skills of music teachers. There are opinions about the importance of pedagogical skills, creative skills, development factors in the work of future music teachers.

Kalit so'zlar: musiqa, mutaxassis, ta'lim, kapital, tarbiya, ko'nikma, kreativlik, motivatsiya, milliylik, qadriyat.

Ключевые слова: музыка, специалист, образование, капитал, подготовка, мастерство, творчество, мотивация, национальность, ценность.

Keywords: music, expert, education, capital, training, skill, creativity, motivation, nationality, value.

Yangilanayotgan O'zbekiston barcha 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoniga sohalarni tezkorlik bilan rivojlantirishni amalga asosan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi oshirmoqda. Respublikamiz Prezidentining O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi VI bandi

“Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, bunda maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish va bu maqsadda bepul to’garaklar faoliyatini yo’lga qo’yish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish ko’zda tutilgan¹.

Mamlakat fuqarolari har tomonlama komilliksariintilib yashashi, davlattaraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Yurt ravnaqi yo’lida talaba-yoshlarning bilim egallashlari bilan bir qatorda o’zining mustaqil fikriga ega bo’lgan, ma’nan yetuk, sog’lom fikrlovchi, yuksak kasbiy mahoratli qilib tarbiyalash bu yo’lda dolzarb masalalardan bo’lib qolmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishini farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq”² deb ta’kidlagan.

2017-yilda “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilinib, umumiy o’rta ta’limning asosiy maqsadi - umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko’nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo’naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berish bo’lib, bu borada:

- o’quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta’minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o’quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

- o’quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarini uyg’unlashtirish asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o’z Vatani va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

- ta’limning uzluksizligini va izchilligini, umumta’lim muassasalarida o’quv dasturlarining o’rta maxsus, boshlang’ich, professional ta’lim muassasalarida o’quv dasturlari bilan uzviy bog’liqligini ta’minlash;

- ta’lim-tarbiya jarayoniga o’qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish;

- o’quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta’lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-

sharoit yaratib berish vazifalari ta’lim tizimida amalga oshirib kelinmoqda.

Mazkur ta’lim muassasalarida tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega.

2018-yil 5-iyunda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida Oliy ta’lim muassasalarida talabalarini ilmiy faoliyatga yo’naltirish va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirish vazifasi “Yo’l xaritasi” da belgilab berilgan bo’lib, O’quv mashg’ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo’naltiradigan o’qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, talabalarining bilimni baholash tizimini qayta ko’rib chiqish, asosiy e’tiborni ularning dars mashg’ulotlarida yangilik taklif qilish qobiliyatiga qaratish ustuvor etib belgilangan³.

Umumiy o’rta ta’limda o’rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo’yilgan. Musiqa madaniyati fanining ham o’z maqsad, vazifalari bo’lib, umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o’qitishdan ko’zlangan asosiy maqsad o’quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g’urur hamda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o’stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Hozirgi zamonda har bir mutaxassisning o’z sohasida ustuvor o’rin egallashida, har tomonlama kasbiy raqobatga bardoshli bo’lishida pedagogdan pedagogik mahorat asosi bo’lmish - kreativlikka egalik va uni izchil ravishda oshirib borishni talab etmoqda. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globalashuv va axborotlashuv davrida ta’limni yanada takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllarini tadbir etmasdan turib amalga oshirishning imkoni yo’q. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va tarqalishi davrida inson mehnatining mohiyatini qayta ko’rib chiqish zarurati paydo bo’ldi. Ishning yangi usullari va shakllari tobora ko’proq mutaxassislarining yuqori bilim darajasiga, ularning malakasiga, shuningdek, ijodiy va innovatsion faoliyatga asoslangan. Bo’layotgan o’zgarishlar ko’lami va tezligidan butun dunyo xabardor bo’lib, kelajakning yagona kaliti shaxsning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish ekanligini anglab yetmoqda. O’qituvchilar mutaxassis sifatida talabga ega bo’lish uchun o’z mutaxassisligi bo’yicha

raqobatdosh ustunlikni, malaka darajasini saqlab qolish va oshirish zarurligini anglashi lozim.

Davlat ta’lim standartlaridagi o’zgarishlarga tezkorlik bilan munosabatda bo’lish, ishning yangi uslublari va shakllarini joriy etish natijasida talabning o’zgarishiga e’tibor qaratilmoqda. Bu yondashuvlarning ahamiyatini anglash bo’lajak o’qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning kreativlik faoliyatiga e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Kreativlik lotinchadan “creatio” - “yaratish”, “creative” - “yaratuvchi”, “ijodkor” bo’lib, shaxsiyatda ijodiy qobiliyatlar paydo bo’lishi deb izohlanadi. Insoniyat tarixida birinchi marta “kreativlik” tushunchasi 1922-yilda D.Simpson tomonidan qo’llanilgan. Bu atama insonning stereotipik fikrlash usullaridan voz kechish qobiliyatini anglatadi. Keyinchalik, ijodkorlikning nazariy va amaliy tadqiqotlarini J.Guilford olib bordi, u “kreativlik” atamasini tafakkurning alohida turi - divergent fikrlash (lot. Divergere dan - “ajralish”) bilan bog’ladi⁴.

Ijodkorlik ko’pincha shaxsning shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan yangi narsa yaratish hodisasi bilan bog’liq. Ijodkorlikni o’rganishga bo’lgan ilmiy qiziqish turli sohalarida - psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, iqtisod, muhandislik va boshqa fanlarda kuzatilishi mumkin.

Ijodkorlik, innovatsiya, aql-zakovat, zamonaviy jamiyatning intellektual talablari bo’lib, ularni hal qilish barcha ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy jarayonlarning rivojlantirish istiqbollari va samaradorliklarni oshirishga bog’liqdir. Innovatsion ta’limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o’z-o’zini rivojlantirish va kreativ fikrlash muhim. Barcha pedagogik sohalarida bo’lgani kabi zamonaviy musiqa o’qituvchisining faoliyati ham murakkab jarayondir. U o’qituvchidan har doim ijodiy uslub topishda izlanishda bo’lishni, noan’anaviylikni, yangi pedagogik va zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishni talab etadi.

Ijodkor shaxs jamiyat tomonidan yuqori talabga aylanib bormoqda va uni rivojlantirish butun dunyoda keng ko’lamli psixologik tadqiqotlar olib borilayotgani ma’lum. Zamonaviy ijod psixologiyasi ko’p o’lchovlilik bilan ajralib turadivajudako’pturlixilnazariyalar, tushunchalar, nazariy va empirik bilimlarni ifodalaydi. Bir qator muhim kashfiyotlar bo’lishiga qaramay, ijodkorlik muammosi, ayniqsa ijodkorlik fenomeni hali ham yetarli darajada o’rganilmagan hodisa bo’lib qolmoqda. Shunday qilib, ijodkorlikni maxsus psixik voqelik, murakkab psixologik hodisa sifatida o’rganish yo’llarini izlash hozirgi davrning dolzarb masalasidir.

“Kreativlik” tushunchasining ma’no sohasi “ijodiy salohiyat”, “ijodiy yo’nalganlik”

tushunchasidan kengroqdir, chunki ijod hodisasi potensial va faol shaklga ega. Ijodkor shaxs - bu o’z ijodini innovatsion yutuqlarda amalga oshiradigan shaxs. Ijodkorlik - kreativlikning tarkibiy qismidir. “Kreativlik” va “ijodiy yo’nalganlik” tushunchalarining bir-biridan farqli tomoni - bulardan birinchisi intellektual rivojlanganlik bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchisi faoliyatning ijodkorona fikrlash rivojlanishini ta’minlovchi turiga asoslanadi.

- Ijodkorlik - samaraga qaratilgan, kreativlik - ijodkorlikning motivatsion ehtiyojga asoslangan jihati;

- Ijodkorlik - har qanday faoliyat turida o’zini namoyon qilish qobiliyati bilan tavsiflangan jarayon, kreativlik esa doimiy bo’ladigan shaxsiy xususiyat;

- Ijodkorlik - yangiliklar yaratadigan konstruktiv faoliyat, kreativlik - fikrlashning intellektual faoliyatining eng yuqori darajasi;

- Ijodkorlik - yangi natija olishga qaratilgan faoliyat, kreativlik - o’z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatga ega yangi mahsulotlarini yaratishga tayyorligi⁵.

Demak, “ijodiy yo’nalganlik”, “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarining funksional asoslari quyidagicha:

1) Tarkibiy jihatdan - yo’nalganlik, ijodkorlik faoliyat predmetiga, kreativlik - mulohaza bilan qabul qilingan qarorga bog’langan bo’ladi.

2) Faollik - ijodiy yo’nalganlik, ijodkorlikning o’zidan kelib chiqsa, kreativlik fikrlash jarayonidan kelib chiqadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bo’lajak o’qituvchining ijodiy faoliyatiga tayyorligi o’zini ijodiy shaxs sifatida anglash, ijodiy faollik, mustaqillik, bilim, qobiliyat, ko’nikma, bilish, mehnat jarayonini tashkil etish tajribasining mavjudligi bilan bog’liq. Masalan, V.A. Slastenini ijodiy tayyorlikni “bo’lajak o’qituvchining professionalligining hal qiluvchi belgisi”⁶, - deb hisoblaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish asosida kreativlikning psixologik tuzilishi ijodiy parametrlar tizimini o’z ichiga olishi va motivatsion, intellektual, estetik, ekzistensial, kommunikativ parametrlar, shuningdek, kompetensiyaning o’ziga xos noyob birikmasi ekanligini tushunish mumkin. Kreativlikning tarkibiy qismlari ijodiy xulq-atvor uslubini belgilaydi va unumdorlikni, yangilikni, ish jarayonida o’ziga xos yo’lga egalikni, shaxsning hayotning turli sohalarida ijodiy o’zgarishlarga moyilligi, tayyorligini xarakterlaydi.

Musiqa o’qituvchisi o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, o’qitish va tarbiyalashning eng mos usullarini izlashda, o’zi ijodkor va innovator bo’lishi talab etiladi. O’qituvchining ijodkorligi uning faoliyatining

1 “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi Respublikamiz Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni.

2 I. Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Ma’naviyat nashriyoti, Toshkent, 2008. 61-bet.

3 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori.

4 Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - № 5. - 444-454-betlar

5 Мирошникова Д. В. Развитие креативности будущего учителя в процессе педагогической практики // World of Science. Pedagogy and psychology. 2018. №2, том 6. Таблица 2.

6 Сластенин В. А. Педагогика: инновационная деятельность / В. А. Сластенин, Л. С. Подымова. - М.: НЧП «Издательство Магистр», 1997. - 224-бет.

turli tomonlarini qamrab oladi: sinf bilan muloqot, turli ijodiy mashqlarni bajarish, yosh va individual xususiyatlarga muvofiq bolalar jamoasini tashkil etish ustida ishlash, pedagogik faoliyatning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish muammolarini optimal hal qilish va hokazo. "Musiqqa o'qituvchisi fandan barcha musiqiy-nazariy bilimlarni egallab, ularni amaliy tarzda qo'llay olar ekan, uni shu fan bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega deb hisoblash mumkin"⁷.

Kreativlikni mashq qildirib o'zlashtirib bo'lmaydi, mavjud kreativlikni rivojlantirish mumkin. Buning uchun "individual shaxs xususiyatlarini aniqlash, zarur ko'nikmalarga ega bo'lish, muammoga duch kelish, maxsus muhit yaratish zarur"⁸.

Kreativlik orqali bola nafaqat voqelik hodisalarni, xulq-atvorini badiiy shaklda o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zini ham ma'lum ijtimoiy, axloqiy va estetik munosabatda bo'lgan shaxs sifatida o'zgartiradi. O'qituvchining ijodiy jarayonidagi bosqichlar ketma-ketligini quyidagicha tuzish mumkin:

- pedagogik muammoni hal qilishga qaratilgan pedagogik tushunchaning paydo bo'lishi – o'z sohasidagi o'zi muammo deb hisoblaydigan voqelik, usul, texnologiyalar, umuman o'quv jarayoni omillarini hal etishdagi tushunchalar;

- fikrni rivojlantirish – tushunchalar paydo bo'lgach fikrlash jarayonida kerakli, keraksiz, zarur, ahamiyatsiz kabilar orqali pedagogik jarayonlar tahlilida fikr rivojlana boradi;

- ijodkorlik natijalarini tahlil qilish, baholash va pedagogik vositalarni unga yo'naltirish – biror ijodkorona yondoshuvdan so'ng uning natijasi tahlili barobarida ma'lum darajada samaradorlik baholab borilishi va shunga qarab yangicha fikrlar yoki mavjud vositalarni keyingi ijodiy jarayonga yo'naltirish.

Bir jihatga e'tibor qaratish kerakki, ijodkorlikka ega bo'lishda turli bosqichlardan o'tish jarayonida kreativlik mohiyati, uning jihatlari va turli parametrlari bilan yuzlashmasdan turib kreativ bo'lishning imkoni yo'q. Bugungi kundagi talaba kelajakdagi musiqqa fani o'qituvchisi bo'lib shakllanar ekan, bunda uning kreativlik jihatlari rivojlantirish talaba bakalavr davridagi o'quv va amaliy ishlarida, bo'lg'usi pedagogik faoliyatida ham o'ziga xoslik, yangicha yondashuv, o'zgachalik kabi jihatlar bilan ish olib borishida samaralidir. Zero, tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda ta'limning ham zamon bilan hamnafas, ilg'or, ijodkor, kreativ kadrlari uning taraqqiy etishini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Bunday pedagoglar esa Oliy ta'lim muassasasidan o'z faoliyatida kreativ jihatlarni rivojlantirib borishi maqsadga

muvofiqdir.

Bugungi kun jamiyat taraqqiyotida raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim yetakchi ilm dargohi sifatida alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida musiqqa ta'limi yo'nalishi bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari, bolalar musiqqa va san'at maktablari uchun pedagogik kadr sifatida shakllanish, magistraturada ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalarda faoliyat yuritishga tayyorlab borishda ularning pedagogik va kasbiy mahorati, kasbiy kompetensiyasi va kreativligini oshirib borish esa ertangi kun zamonaviy pedagog xodimlarining sifat ko'rsatkichini belgilab beradigan omillaridandir.

Oliy ta'limning bakalavrlar tayyorlash o'quv jarayonida turli xil faoliyat turlarini bajarishlari, malakalarni o'zlashtirishlari zaruriy qayd etilib, xususan, musiqqa ta'limida 3 yillik o'qish mobaynida bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari quyidagicha:

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish⁹.

Kasbiy faoliyat turlarining pedagogik faoliyat turida bakalavrlar oldiga bir necha vazifalarni qo'yib, bakalavriat bitiruvchisi ularni bajarishga qodir bo'lishi kerak:

- ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

- yaxlit musiqiy pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish;

- musiqqa ta'limi va tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish;

- o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

- ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini

7 Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. Pg 11.

8 Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности // Е.П. Ильин. – СПб.: Питер, 2011. – 433 стр.

9 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 5111100 – Musiqqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. O'z.R. O.O'M.T.V. Buyruq № 418., Toshkent 2020, 6-bet.

ta'minlash".

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining musiqqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bo'lajak musiqqa o'qituvchilari sifatida har tomonlama ta'lim-tarbiya olib keladilar. Ularning kelgusi faoliyatda o'z bilimlarini to'laligicha o'quvchi yoshlarga yetkazib bera olishi, egallangan ko'nikma va malakalarni umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida ham shakllantira olishi uning pedagogik mahorati, kasbiy kompetentligi va kreativligiga har tomonlama bog'liqdir. Bujihatlarini ular o'z-o'zidan oliy ta'limda egallaydilar va o'zlashtiradilar. Pedagog "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish"¹⁰ zarur.

Darslarning samaradorlik ko'rsatkichlari o'qituvchi va o'quvchidagi tayanch va fanga oid kompetensiyalar qay darajada egallanganligi va rivojlantirilganligi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lar ekan, bo'lajak pedagogning ayni ushbu qobiliyatlari ustida ishlash bu asosiy vazifa sanaladi. Talaba kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, o'z oldidagi maqsad va vazifalarini to'liqligicha anglay olganidagina, unda bu sifatlarni to'liqligicha yuzaga chiqarish, rivojlantirib borishga erishish mumkin.

Kreativlik tushunchasining esa bugungi kundakirib bormagan sohasi deyarli yo'q. Ayniqsa, inson uchun yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lgan

san'atning har qanday yo'nalishi ijodkorlari kreativ bo'lishga intilmoqda. An'anaviylik, birxillik yoki zerikarlilik kabilar har qanday inson qabul qilish me'yorlarini sekinlashtirishi, bilim, tasavvur doiralarini ham kengaytirishga to'sqinlik qilishi aynan zamonaviy pedagogdan ham kreativ bo'lishni talab etadi. Chunki pedagog ham bir san'atkor, bola ongi, uning psixologiyasiga kuchli ta'sir eta oladigan, bilimlar ko'lamini kengaytira oladigan, uning fikr va ijodiy olamini boyita oladigan, haqiqiy namunali san'atkor.

Darslarning yuqori samaradorlikda, bilimlarning esda qolarli, mustahkam tarzda yetkazilishida, kompetensiyalar shakllanishi va oshirib borilishida muhim omillardan biri demak bu kreativlik. O'quvchilarning ham ijodkorlik jihatini namoyon etishlariga zamin yaratish, avvalo, o'qituvchining vazifalaridan biri sanalar ekan, bo'lajak pedagog kreativlik jihatlari shakllantirish, oshirib borish uning talabalik yillaridanoq e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan xususiyati sanaladi.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishida jarayonlarga kreativ yondashsa, talabaning, ham kasbiy kompetensiyalari, ham kreativligini rivojlantirishga erishish mumkin.

RADIOASTRONOMIYA FANI UCHUN "RADIOTELESKOPNI O'RGANISH" VIRTUAL LABORATORIYA ISHINI JORIY ETISH

Jaxongir Abdumalikovich Xotamov - o'qituvchi, Jizzax Davlat pedagogika universiteti
O'dinaxon Toir qizi Ibragimova - talaba, Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Anotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fizika va astronomiya yo'nalishi talabalari uchun radioastronomiya faniga oid yangi virtual laboratoriya ishi ishlab chiqilganligi hamda ushbu laboratoriya ishining o'quv va iqtisodiy samarasi batafsil muhokama qilingan.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается разработка новой виртуальной лабораторной работы по науке радиоастрономии для студентов-физиков и астрономов педагогических вузов, а также образовательная и экономическая эффективность данной лабораторной работы.

Abstract: This article discusses in detail the development of a new virtual laboratory work on the science of radio astronomy for students of physics and astronomy at pedagogical universities, as well as the educational and economic efficiency of this laboratory work.

Kalit so'zlar: radioastronomiya, radioteleskop, radiochastota, qora tuynuk, pulsar, kvazar, energiya, spektr, zenit.

Ключевые слова: радиоастрономия, радиотелескоп, радиочастота, черная дыра, пульсар, квазар, энергия, спектр, зенит.

Keywords: radio astronomy, radio telescope, radio frequency, black hole, pulsar, quasar, energy, spectrum, zenith.

Bugungi kunda radioastronomiya fani va bu astrofizikaning muammoli va bahsli dunyoda jadallik bilan rivojlanib bormoqa masalalarining yechimini topishga imkon

10 Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil. 37-bet.

bermoqda.

Binobarin, mamlakatimizda ham radioastronomiyaga qiziqish tobora ortib bormoqda, shu ma'noda Jizzax viloyati Zomin tumani Suffa platosidagi RT-70 radioteleskopining qurilish jarayoni buning yaqqol misoli deb qarash mumkin.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida radioteleskopni borib o'rganish qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shuning uchun virtual laboratoriyalar ushbu qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Biz bu borada VIREO (Virtual Ta'lim Observatoriya)siga yuzlanamiz. Bu virtual laboratoriya zamonaviy astrofizika va radioastronomiyaning tadqiqot usullarini namoyish etish va o'rgatish uchun real muhitni ta'minlovchi simulyatsiya qilingan astronomik rasadxonadir. VIREO uchta optik teleskop va radioteleskopni o'z ichiga oladi¹.

Radioastronomiya fanini tushunish, fanda ko'rsatib o'tilgan jarayonlar murakkab jarayonlar bo'lib, bu jarayonlarni tasavvur qilish uchun ko'z bilan ko'rib, jarayonni kuzatish fanning eng muhim jihatlari hisoblanadi. Ushbu fanga oid o'zbek tilida adabiyotlar deyarli yo'q. Shuning uchun bu fan, asosan, chet tilidan tarjima qilib o'qitilib borilmoqda. Hozircha bu fan bo'yicha o'zbek tilida S.Kurbaniyazov, A.Ajabovlarning "Radioastronomiya asoslari" nomli o'quv uslubiy majmua mavjud².

Natijalar: Radioteleskopni o'rganish nomli laboratoriya ishi ushbu kursning birinchi laboratoriya ishi hisoblanib talaba fanni tushunishi, qiziqishi va mustaqil mulohaza yuritishi uchun muhim hisoblanadi. Endi ushbu laboratoriya ishini ko'rib chiqamiz.

"Radioteleskopni o'rganish" (virtual laboratoriya ishi)

Ishning maqsadi: Radioteleskop bilan tanishish va uning ishlash prinsipini o'rganish.

Zarur jihozlar: Shaxsiy kompyuter va unga o'rnatilgan "Virtual o'quv observatoriya" (VIREO Virtual Educational Observatory) dasturiy mahsuloti.

Adabiyotlar:

Clea radioteleskopi

Clea radioteleskopi, asosan, pulsarlarning uzluksiz nurlanishini ko'rish uchun mo'ljallangan katta bir tovoqli radioteleskopdir. U radioto'lqinlarni qabul qiluvchi virtual laboratoriyadir. U balandlikda va azimutda harakatlanadi va ularni kuzatishni osonlashtirish uchun pulsarlarning ro'yxati taqdim etiladi. U tranzit asbob sifatida,

faqat balandlikda boshqarilishi mumkin yoki tovoqqa o'xshash qo'zg'almas teleskop sifatida isxlatilishi mumkin Arecibo (uning qabul qiluvchisi zenit yaqinida cheklangan diapazonda boshqariladi.) U mustaqil ravishda sozlanishi mumkin bo'lgan uchta qabul qiluvchi bilan jihozlangan. 400 dan 1400 MGts oraliqida sozlangan.³

Ishni bajarish tartibi: Virtual o'quv observatoriyaning kompyuterga o'rnatish. Dastlab yuqorida ko'rsatib o'tilgan adabiyotlar ro'yxatining uchinchisida keltirib o'tilgan silkaga kirib dastur yuklab olinadi. Shundan so'ng, virtual o'quv observatoriya kompyuterga o'rnatiladi va ushbu dastur ishga tushiriladi.

Dastur kompyuter xotirasidagi Program Files>CLEA nomli papkaga joylashtiriladi. Shundan so'ng CLEA>VIREO tugmalari orqali dastur fayllari to'plangan papka ichidan CLEA VIREO tugmasi orqali virtual o'quv observatoriyaning PRODUCTION OF CLEA deb nomlangan birinchi sahifasiga kiriladi. Bu sahifaning yuqori chap qismidan File>login fayl menyusidan login tanlanadi va sichqonchanning chap tugmasi bosiladi. Shundan so'ng ochilgan oynaga talabalarning (4 nafargacha) F.I.Sh yoziladi.



OK tugmasini bosish orqali virtual o'quv observatoriya kiriladi. Shunda THE VIRTUAL OBSERVATORY deb nomlangan sahifa ochiladi.

Bu sahifaning yuqori chap qismidan File>Run Exercise>Radio Astronomy of pulsars deb nomlangan band tanlanadi va sichqonchanning chap tugmasi bosiladi.




Birozdan keyin uning o'rnida qora ekrani bor sahifa chiqadi. Bu sahifadagi menyular bo'limidan Telescopes>Radio bandi tanlanadi.

¹ L.Ronald, E.Stanley, M.Jonathan "Fundamentals of Radio Astronomy" Taylor & Francis 2019-y.
² Kurbaniyazov S., Ajabov A. "Radioastronomiya asoslari", o'quv uslubiy majmua. Samarqand-2017-y.
³ Diane Fisher Miller. "Basics of Radio Astronomy" California JPL 1998-y.
⁴ <http://public.gettyburg.edu/~marschal/clea/Vireo.html>

Ekranida radioteleskop antennasi keltirilgan sahifa ochiladi.



Sahifaning o'ng past burchagidagi "Off" tugmachasi yordamida osmon gumbazi tasvirlangan sahifani ochamiz. Bu sahifada radioteleskop boshqaruv ekrani paydo bo'ladi.



Radioteleskop boshqaruv panelining umumiy tavsifi. Radioteleskopning boshqaruv panelidagi boshqaruv elementlari teleskopni osmonning turli qismlariga ko'chirish va teleskopdan yig'ilgan signallarni aks ettiruvchi va yozib oladigan sozlanishi radioqabul qiluvchilarga kirish imkonini beradi. Katta raqamli displeylar umumjahon vaqtini, sidereal vaqtini, shuningdek, teleskop ko'rsatilgan to'g'ri ko'tarilish va egilishni ko'rsatadi. Kichikroq displeylar Yulian kunini oltita asrgacha (asosan soniyaning bir qismi) ko'rsatadi va yuqoridagi displey mahalliy standart vaqtini, shuningdek, rasadxonaning kenglik va uzunligini ko'rsatadi. Markaziy oynada osmon xaritasi ko'rsatilgan bo'lib, unda sariq kvadrat teleskop "nur" qayerga ishora qilayotganini, osmon ekvatori xaritaning markazi bo'ylab harakatlanayotganini ko'rsatadi. Agar pulsar o'rnini chizish opsiyasi o'rnatilgan bo'lsa, ma'lum pulsarlarning joylashuvi ham ushbu xaritada kichik nuqtalar sifatida chiziladi.


Radioteleskopni boshqarish ekranidagi boshqaruv elementlari va displeylari.

Kuzatuv: Teleskop to'g'risiga o'rnatilgan obyektlarni ushlab turish uchun kuzatish yoqilgan bo'lishi kerak. Kuzatuv o'chirilgan bo'lsa, teleskopni obyektga yo'naltirish uchun hali ham burish mumkin, lekin obyektning signal kuchi sekinlik bilan so'nadi, chunki obyekt yerning aylanishi tufayli teleskop to'g'risidan tashqariga chiqadi. Obyektlarning teleskop to'g'risi orqali o'tishi uchun kuzatuv o'chirilishi mumkin, biroq, masalan, kichik manbaning tranzit o'tish vaqtini belgilash


⁵ I.Sattorov, B.Sattorova "Astrofizik praktikum" o'quv qo'llanma. T.:2016.

orqali teleskop nurlarining kengligini o'lchash mashqlari bajariladi⁵.

Teleskop harakati: NESW tugmalari burilish tezligi selektori bilan birgalikda teleskopni 5 xil tezlikda osmondagi istalgan joyga ko'chirish uchun isxlatilishi mumkin. Koordinatalar katta raqamli o'ngga ko'tarilish va og'ish displeylarida ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, teleskop menyusu satridan Slew>Set>Coordinates opsiyasini tanlab, kerakli koordinatalarni kiritish orqali kompyuterga kiritilgan ma'lum koordinatalarga kiritishingiz mumkin.



So'ngra Slew>Hot List>View/Select amallar ketma-ketligini bajaring. Bunda siz 8 ta pulsarlar ro'yxati mavjud bo'lgan oynani ochasiz. Bunda pulsarlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Pulsarlardan birini tanlang va sichqonchanning chap tugmasini bosing. Bunda pulsarlarning koordinatalari avtomatik ravishda yuklanadi.



Qabul qilgichni yoqing: Teleskop obyektga yo'naltirilgandan so'ng, obyekt signalni aniqlash va yozib olish uchun qabul qiluvchining boshqaruv panelini ochishingiz mumkin.

Ishni bajarish bo'yicha vazifalar:

1. Radioteleskopni koordinatalarini o'zingiz turgan joyga to'g'irlang.
 2. Radioteleskopni kerakli pulsarni o'lchashga to'g'irlang.
 3. Pulsarning pulsatsiyalanish davri va quvvatini aniqlang.
 4. Turli chastotalarda olingan yozuvlarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.
- Ishni bajarish bo'yicha hisobot:

Pulsar belgisi Pulsatsiyalanish davri
Pulsatsiyalanish quvvati Turli chastotalarda siljish

Pulsar belgisi	Pulsatsiyalanish davri	Pulsatsiyalanish quvvati	Turli chastotalarda siljish

Xulosa: Radioastronomiyani o'qitishda laboratoriya ishlari muhim ekanligini nazarga olib, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga radioastronomiya fani o'quv rejasidagi laboratoriya ishlariga kengroq

e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda va shu o'rinda radioteleskopning narxi juda qimmatligini hisobga olib virtual laboratoriya ishlari talabalarining laboratoriya ishi bilan induvidal ishlash imkonini beradi. Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi 60110700-Fizika va astronomiya mutaxassisligining o'quv dasturdagi radioastronomiya fanini tanlov fanlar ro'yxatidan olinib, majburiy fanlar ro'yxatiga kirilishi masalaning eng muhim tomonidir.

TALABALARGA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Shonazar Askar o'g'li Botirov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari hamda kreativlik tushunchasining mazmun mohiyati, xorij tajribalari haqida fikrlar o'rin olgan. Bundan tashqari kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish xususiyatlari o'rin olgan.

Аннотация: В данной статье собраны представления о вопросах развития творческих способностей учащихся, значении понятия творчества, зарубежном опыте. Кроме того, существуют особенности развития творческих способностей.

Abstract: This article contains ideas about the issues of developing students' creative abilities, the meaning of the concept of creativity, and foreign experiences. In addition, there are features of developing creativity skills.

Калит so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, kompetensiya, innovatsion faoliyat, perseptiv xususiyatlar, motivatsiya.

Ключевые слова: креативность, креативность, компетентность, инновационная активность, перцептивные характеристики, мотивация.

Keywords: creativity, creativity, competence, innovative activity, perceptual characteristics, motivation.

Jahondagi yetakchi davlatlar innovatsion indeksiga (Global Innovation Index, GII) asosan fan va texnika yutuqlari orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, moddiy sohadagi mahsulotlar ishlab chiqarishda progressiv o'zgarishlarni ta'minlash, milliy mahsulotni jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish kadrlar muammosi bilan bog'liqdir. Shu bois, xalqaro muhandislik pedagogikasi uyushmasi (IGIP) tomonidan oliy ta'limda yuqori raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlash jarayoniga doimiy ravishda samarali ta'lim texnologiyalarni tatbiq etish va talabalarining kasbiy kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xalqaro ilg'or tajribalarga ko'ra, CCPE (Kanada), Milliy professional muhandislar jamiyati (NSPE), Muhandislik va texnologiya instituti (ABET), Buyuk Britaniya muhandislik

kengashi (YECUK), Avstraliya muhandislar instituti (IYEAust) va Yaponiya ta'limi akkreditatsiya Kengashi (JABEE) kabi dunyoning yetakchi innovatsion intellektual kengashlar, markazlar hamda bir qator nufuzli universitetlarda muhandislik sohasida tahsil oluvchi talabalarining kasbiy ta'limini yangi innovatsion qarashlar, yondashuvlar orqali doimiy yangilanib borilishi va ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlarni tatbiq etish orqali bo'lajak muhandislarining kasbiy va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda yangi sifat darajalariga erishish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Hozirda ta'lim oluvchilarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metod va uslublarini rivojlantirish hamda takomillashtirish masalasi juda muhim hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'limda o'quv

jarayonini tashkil etishni tubdan isloh qilish va talabalarining kreativ qobiliyatlarini, pedagogik qobiliyatlarini tizimli va uzluksiz ravishda fanlararo aloqalarni kuchaytirgan holda, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lagan holda tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni maqsadli amalga oshirish borasida salmoqli ishlar olib borildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli va 2017-yil 20-apreldagi 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" PF-5264-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli² va 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mazkur faoliyatiga tegishli boshqa oliy ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

O'zbekistonning ta'lim sohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantirish uchun bo'lajak menejerlarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, individual ta'lim yo'nalishlariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida yangi metodika va texnologiyalarni joriy etish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Talabalarda kreativlik sifatlarini

rivojlantirish uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining mazmunini aniqlash talab etiladi. Kreativlik so'zi inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini beradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida originallik, amaliylik, noodatilik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli tomondan qaray olishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatik qoidalarni "suv qilib ichib" yuborgan bo'lsangiz ham, insho yarata olmasangiz, barchasi samarasizdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Bu o'rinda Albert Eynshteyn "tasavvur bilimdan muhim" degan fikrlarini eslashni joiz deb hisoblaymiz.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, talabalarda rahbarlik va kreativ qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish – rivojlantiruvchi ta'lim tizimining asosiy qoidalaridan biri L.V.Zankov ta'lim va tarbiyatizimining maqsadini "boladakamolotga erishayotgan ma'naviy kuchlarni ochib berishga ko'maklashish, ularning kamoloti va rivojlanishi uchun qulay, tabiiy sharoitlarni yaratish" deb hisoblagan. L.V.Zankov tizimi bo'yicha o'qish, talabalar nafaqat qaror qabul qiladilar, muhokama qiladilar, balki kuzatadilar, taqqoslaydilar, tasniflaydilar, guruhlaydilar, xulosalar chiqaradilar, naqshlarni topadilar va shu ustida izlanishlari haqida ularning o'quv materiallari bilan harakatlari o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, ong va iroda zo'riqishida, ishning oxiriga yetkazish istagi rivojlanadi, intellektual tuyg'ular uyg'onadi; o'quvchilarning harakatlarida esa uyg'unlik, ijodiy faollik ustunlik qilganlar haqida ma'lumotlar bergan. Ijodkorlik muammosi ko'plab faylasuflar

¹ Бабаджанова Л.Ш. . Альтуальные аспекты устойчивого развития территорий Республики Узбекистан. Журнал: Экономика и финансы/ЭЛИБРАРИ ИД: 35328109

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun hujjatlari to'plami milliy bazasi. 2017

va psixologlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Har biri o'z ijodkorlik nazariyasini ilgari surgan. Kant: "Ijodkorlikni rivojlantirish mumkin emas, ijodkorlik tug'ma bo'lishi kerak", – deb hisoblagan. Freyd ijodiy jarayonning ongli bo'lishi mumkin emasligiga, ya'ni fantaziyaning manbai ongsizda ekanligiga ishonch hosil qilgan va shuning uchun ongsizni rivojlantirish ham mumkin emasligini aytgan.

K.Marks kreativlikni voqelikning obyektiv qonuniyatlari asosida inson va insoniyatning maqsad va ehtiyojlariga mos ravishda tabiiy va ijtimoiy olamni o'zgartiruvchi faoliyati va ko'pgina tarixiy davrlar uchun kreativlikning rivojlanishi muammosi emas, balki kreativlik muammosi ko'rib chiqilganligi o'rganilgan. Ijodiy shaxsning fazilatlarini to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali dahoning eng ko'zga ko'ringan belgilari aniqlandi, ular idrok, intellekt, xarakter va faoliyat motivatsiyasi xususiyatlarida ifodalanadi.

Perseptiv xususiyatlar: diqqatning g'ayrioddiy intensivligi, katta ta'sirchanlik, retseptivlik.

Intellektual - sezgi, kuchli fantaziya, fantastika, ilhom in'omi, bilimning kengligi.

Xarakterologik xususiyatlar orasida naqshdan qochish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, yuqori o'zini o'zi tashkil etish va ulkan samaradorlik ta'kidlangan.

Motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, yorqin shaxs ijodkorlik maqsadiga erishishdan emas, balki jarayonning o'zidan qoniqish hosil qiladi.

Yaqinda bu fikr keng tarqaldi va ko'plab G'arb psixologlari va o'qituvchilari hali ham kreativlik bolaga xosdir, faqat uning o'zini erkin ifoda etishiga to'sqinlik qilmaslik kerak, deb hisoblashadi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday aralashmaslik yetarli emas: hamma bolalarning o'zi ham ijodga yo'l ochib bera olmaydi va, albatta, ular uzoq vaqt davomida ijodiy qobiliyatlarini saqlay olmaydilar. Shuning uchun kreativlikni o'rgatish kerak³.

Bolaga u shug'ullana boshlagan faoliyat vositalarini berish kerakligi aniq bo'ldi. Bolaning o'zi inson rivojlanishining uzoq yo'lida ishlab chiqilgan bu vositani topa olmaydi. U ulardan faqat eng ibtidoiyalarini ochishi mumkin bo'ladi. Uning ijodi esa eng past darajada qolishga mahkum. Ammo ma'lum bo'lishicha, faqat texnik ko'nikmalar berish yetarli emas. Ularni

yaxshi o'zlashtirgan holda ham, bola ijodkorlik emas, balki hunarmandchilik darajasida qoladi. O'zingizning his-tuyg'ularingizni, his-tuyg'ularingizni, tajribalaringizni, hayotiy tajribangizga sarmoya kiritish kerak. Ma'lum bo'lishicha, buni bolalarga ham o'rgatish, ularni nafaqat muayyan voqealarni, balki tanish va prozaik narsalarning ichki dunyosini tasavvur qilish va tasvirlashga o'rgatish mumkin.

Ammo kreativlikning yana bir tarkibiy qismi borki, ularsiz yangi narsa yaratishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu ijodiy tasavvur, ya'ni yangi obrazlar, g'oyalar yaratish, keyinchalik ular asarda gavdalanadi.

Tasavvur har qanday ijodning asosi bo'lib, u rivojlanib, namoyon bo'ladigan umumiy qonuniyatlari, ijodiy faoliyatning barcha turlari uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari mavjud. Tasavvur insonni barcha mavjudotlardan ajratib turadi. Shuning uchun bizni ijodkorlikka, ijodkor odamlarga judayam jalb qilamiz. Kreativlik inson qobiliyatlarini rivojlantirishning eng yuqori cho'qqisidir.

Yangi ijodni yaratish uchun ma'lum bir bilim bazasiga ega bo'lish kerak, chunki har qanday yangisi eskisi asosida paydo bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, ijodiy faoliyat mehnat faoliyatiga asoslanadi, bu ong sohasini mazmun bilan to'ldirish uchun zarur bo'lib, keyinchalik ongsiz soha tomonidan qayta ishlanishi kerak. Agar inson mehnat qilmasa, ma'naviy va moddiy yangi ijodlar paydo bo'lmas edi. Mehnat inson faoliyatining asosi, tarixan asosiy turi hisoblanadi.

Terskiy V.N: "Iste'dodli o'qituvchi, havaskor ijro ijodkorlikda muhim rol o'ynaydi", – deb hisoblar⁴. Ammo bu murabbiylik emas, balki aniq havaskor chiqish bo'lishi kerak. Agar biz bolalarga hech narsa o'rgatmagan bo'lsak, ularni yaratishga chaqirmasak, u holda hech narsa bo'lmaydi yoki eng yaxshi holatda bu ular qanday qilishni bilgan narsalarining muvaffaqiyatsiz, buzilgan takrorlanishi bo'ladi. O'z-o'zini faollik bolalar o'z-o'zidan harakat qilganda bo'ladi. Tashabbus hech narsadan kelib chiqmaydi. Bolalarga buning uchun zarur bilim va tajribani berib, yaratishga o'rgatish kerak.

O'qitishni davom ettirib, kreativlik uchun imkoniyatlar yaratish kerak, aks holda o'zlashtirish ishonchli bo'lmaydi, jarayon zerikarli bo'ladi va olingan bilimlar osongina unutiladi, ob-havoga chalinadi, kundalik maqsadli mashqlar bilan mustahkamlanmaydi. Bolalar bilimga chanqoq bo'lishi uchun doimo

o'rganishni xohlashlari kerak. Bu bolalarning hayoti shunday tuzilganki, bolalar mustaqil harakatlarini muvaffaqiyatli bajarishlari, o'z ijodkorliklari uchun bilimlar kerak bo'ladi va bu, o'z navbatida, ta'limni keskin, quvnoq va puxta qiladi. Aytishimiz mumkinki, maktab o'quvchilarining havaskor chiqishlarini o'rganish kreativlik birligidir.

Qobiliyatlarning shakllanishida tarbiya bilan birga irsiyat ham, muhit ham muhim o'rin tutadi, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyaning ta'siri ko'proq bo'ladi. Mehnat faoliyatidagi ta'lim esa alohida o'rin tutadi. O'qituvchining vazifasi bolaning kreativ shaxs bo'lishiga yordam berishdir. Bundan tashqari, talabalar o'zlari uchun maqbul bo'lgan, afzalroq bo'lgan faoliyatda ijodkorlik ko'rsatishlari mumkin. Mehnat faoliyatida bola individualligining barcha tomonlari rivojlanadi. Axir, ish nafaqat malakali va to'g'ri, balki o'ziga xos, estetik jihatdan ham amalga oshirilishi kerak. Ish jarayonida qo'llarning motorli ko'nikmalari rivojlanadi, haqiqatni chuqurroq bilish paydo bo'ladi.

Kreativlikni rivojlantirishning turli usullari mavjud: bu ishning jamoaviy ijodi bo'lishi mumkin, talabalar o'z fikrlarini bildiradilar, har kim o'z versiyasini taklif qilishga harakat qiladi. Boshqa tomondan, bu bir qator darslar bo'lishi mumkin: birinchi darslarda bu "men kabi qil" tamoyili bo'yicha nima va qanday qilishni o'rgatadigan o'qituvchining ishi; ikkinchi darsda xuddi shunday ishni bajarish mumkin, ammo o'zgarishlar bilan talabalar o'zlarining havaskorlik faoliyatini namoyish etadilar.

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish yo'li har bir o'qituvchi tomonidan har bir sinf uchun individual ravishda tanlanadi, u ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullarini o'zgartirishi, ularni birlashtirishi mumkin.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasi ularni erkin improvizatsiya, oddiy narsa va hodisalarda yangi o'xshashliklarni topish qobiliyati bilan tanishtirishdir.

Ammo faqat ushbu shart-sharoitlarni yaratish foydali ijodkorlikka yordam bermaydi, chunki kreativlik ma'lum bilimlar bazasini talab qiladi: obyekt yoki obyektga unga xos bo'lmagan, ammo belgilarga o'xshash belgilarni birlashtirish va loyihalash, tahlil qilish, topish qobiliyati, boshqa obyektlar yoki

obyektlar, va hokazo.

Kreativlik quyidagi fazilatlar bilan ajralib turadi⁵:

- fikrning ravonligi (g'oyalar soni);
- fikrning moslashuvchanligi (bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati);
- o'ziga xoslik (umumiy qabul qilingan qarashlardan farq qiladigan g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati);
- qiziquvchanlik (atrofdagi dunyo muammolariga sezgirlik);
- gipotezani ishlab chiqish qobiliyati (reaksiyaning stimuldani mantiqiy mustaqilligi);
- fantaziya (ishlab chiqarilgan obyektning haqiqatdan to'liq izolyatsiya qilish).

Bu sifatlar o'qituvchi tomonidan aniq ko'rilishi va amaliy topshiriqlarni bajarishda rivojlantirilishi, to'g'ri yo'naltirilishi kerak.

Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan, ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalari talabalarning kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim oluvchilarning kreativ ko'nikma va malakalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Buning uchun biz, avvalo, talabalarga dars jarayonida hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda albatta, ularni mustaqil fikrlashga chorlashimiz muhim hisoblanadi. Chunki ular mustaqil fikrlab o'zining shaxsiy fikrini bildirsagina undan kreativlik qobiliyatlari shakllanishi mumkin.

3 Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: БРОКСЛАСС СЭРВИС, 2016. - 84 b.

4 Bylevskaya V.N. Yosh o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. "Boshlang'ich maktab", 6-son – 2003-yil

5 Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программе. Педагогика. 2003. № 3

MULOHAZALAR ALGEBRASINI O'RGANISHDA MICROSOFT EXCEL DASTURI FUNKSIYALARIDAN FOYDALANISH

Javlon Yusupovich Xolmatov - assistent, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, innovatsion va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta'lim jarayoniga tadbiriq etilmoqda: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ko'p qo'llaniladigan Microsoft Excel dasturi imkoniyatlarini oliy ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq fani mulohazalar algebrasi bo'limining asosiy mavzularidan biri bo'lgan "Mulohazalar ustida mantiqiy amallar"ga tadbiriq qilish masalasi qaralgan. Elektron jadval protsessori ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish, murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Maqolada misol sifatida to'rt o'zgaruvchili murakkab mantiqiy formula chinlik jadvalini tuzish jarayoni qadamma-qadam ko'rsatilgan.

Аннотация: В настоящее время из мирового опыта видно, что новые, современные методы и средства обучения быстро входят в образовательный процесс и эффективно используются. В частности, в образовательном процессе применяются инновационные и современные информационно-коммуникационные технологии: В данной статье возможности программы Microsoft Excel, широко используемой в учебном процессе, входят в число основных тем кафедры дискретной математики и математическая логика, алгебра рассуждений в высших учебных заведениях. На одном из них рассмотрен вопрос применения к "Логическим операциям рассуждения". Табличный процессор позволяет автоматизировать процесс обработки данных, выполнять сложные вычисления и анализировать их. В качестве примера в статье показан пошаговый процесс создания таблицы истинности сложной логической формулы с четырьмя переменными.

Abstract: Currently, from world experience it is clear that new, modern methods and teaching aids are quickly entering the educational process and are being used effectively. In particular, innovative and modern information and communication technologies are used in the educational process: In this article, the capabilities of the Microsoft Excel program, widely used in the educational process, are among the main topics of the department of discrete mathematics and mathematical logic, algebra of reasoning in higher educational institutions. On one of these, the issue of application to "Logical operations of reasoning" is considered. A spreadsheet processor allows you to automate the data processing process, perform complex calculations and analyze them. As an example, the article shows a step-by-step process for creating a truth table for a complex logic formula with four variables.

Kalit so'zlar: mulohaza, mulohazalar algebrasi, Microsoft Excel, standart funksiyalar, mantiqiy funksiyalar, chinlik jadvali, elektron jadval, jadval protsessori, yacheyka manzili, formula, qism formula.

Ключевые слова: рассуждение, логика рассуждений, Microsoft Excel, стандартные функции, логические функции, таблица истинности, электронная таблица, табличный процессор, адрес ячейки, формула, частичная формула.

Keywords: reasoning, reasoning logic, Microsoft Excel, standard functions, logical functions, truth table, spreadsheet, spreadsheet processor, cell address, formula, partial formula.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot

tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilab berilgan¹.

Bu o'rinda ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga yetkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlarini keltirish mumkin: o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarining ta'lim oluvchilarga yetkazib berishda birmuncha osonlashtirilishi; dars jarayonida berilayotgan o'quv materiallarining takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi; ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishiga erishish; Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati; tavsiya qilingan o'quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi; o'quv materiallari ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi; amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida ma'ruza materiallariga o'tish imkoniyatining yaratilishi; masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati; ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar. Bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quv materiallarini o'quv jarayoniga tadbiriq etish, bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini ko'rish, o'qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o'z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o'quv jarayonining didaktik ko'rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi — barcha sohalarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va raqamli ma'lumotlar bilan ishlash lozimligini ko'rsatmoqda. Raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida natijalarni olish va tahlil qilishda elektron jadvallardan yoki jadval

protsessorlaridan foydalanish samarali natijalar beradi.

Jadval protsessorlari raqamli ma'lumotlarni qayta ishlashda sarf bo'ladigan vaqtni tejatlashiga, yangi usullarni taklif qilishi bilan ish unumdorligini oshishiga olib keladi. Jadval protsessorlari ichida Microsoft Office dasturlari paketi tarkibiga kiruvchi MS Excel elektron jadvali eng ommalashgan dastur hisoblanib, R.N.Vadzinskiy bu dasturdan foydalanish afzalliklarini quyidagicha ko'rsatib bergan: statistik dasturlar paketi bilan taqqoslanganda amaliy foydalanish va ko'rinishining bir muncha soddaligi; dasturning ko'p funksiyaliligi; ma'lumotlarni kompleks tahlil qilishda, statistik tahlilning murakkab muammolarini yechish tartib qoidalarni o'z ichiga olganligi; yechimlarni qidirish, qo'shimcha parametrlarini tanlashda foydalaniladigan funksiyalarning ko'pligi; murakkab ehtimollik va statistik muammolarni bartaraf etish imkoniyatining mavjudligi; foydalanuvchi ma'lumotlarini tahlil qilishda Visual Basic for Applications (VBA) dasturlash tilidan foydalanib o'z dasturiy modullarini yaratish imkoniyatining mavjudligi; jadval ko'rinishida bajarilgan statistik ma'lumotlarni tahlil qilishning oshkorligi; elektron jadvaldan amaliy masalalarni yechishda foydalanishning chegaralanmaganligi; jadval protsessorlaridan amaliyotda foydalanish dasturiy ta'minotning ergonomik talablariga bo'ysunuvchi interfeysga va boshqa bir qancha imkoniyatlarga ega.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq fanini o'rganishda axborot texnologiyalari, shu jumladan, jadval protsessoridan foydalanish deyarli kuzatilmayapti. Ta'limning bunday ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi. Shu nuqtayi nazardan diskret matematika va matematik mantiq fanini o'rganishda dasturiy vositalardan vosita sifatida foydalanish talabalarda ushbu fandagi ayrim mavzularning yaxshiroq o'zlashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Biz o'z tadqiqotimizda mulohazaga berilgan quyidagicha ta'rifdan foydalandik: chin yoki yolg'on qiymat qabul qiluvchi darak gapga mulohaza deyiladi².

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, mulohazalar chin yoki yolg'on qiymatlar qabul qiladi. Bu qiymatlarni mos ravishda 1 va 0 ga almashtiramiz. Shu asosda mulohazalar algebrasining ixtiyoriy formulasini nechta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019 y.// <https://lex.uz/docs/4545884>

² H.To'rayev, I.Azizov "Diskret matematika va matematik mantiq". 1-jild. SamDU - 2011 yil

o'zgaruvchi qatnashishiga qarab ularning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar jadvalini – chinlik jadvalini tuzishimiz mumkin. Bu chinlik jadvalini agar o'zgaruvchilar soni kam bo'ladigan bo'lsa (masalan, 2 ta yoki 3 ta) tuzish muammo tug'dirmaydi, lekin, agar o'zgaruvchilar soni ko'p (masalan, 4 va undan ko'proq) bo'ladigan bo'lsa, chinlik jadvalini tuzish uchun juda ko'plab vaqt sarflanadi. Microsoft Excel dasturi yordamida bu muammoni hal etish ancha yengillashadi. Ya'ni avtomatik to'ldirish (автозаполнение) orqali birinchi satrdagi qiymatni oxirgi satrgacha to'ldirish mumkin.

Bizga n ta o'zgaruvchi mulohaza X_1, X_2, \dots, X_n va shu o'zgaruvchilarga bog'liq $F(X_1, X_2, \dots, X_n)$ murakkab formula berilgan bo'lsin.

Ushbu formulaning chinlik jadvalini tuzishda o'zgaruvchilarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarini 2n ta bo'lib, quyidagi ko'rinishda bo'ladi (1-jadval):

1-jadval

X_1	X_2	X_3	...	X_n
0	0	0	...	0
0	0	0	...	1
...
1	1	1	...	1

Berilgan F formulaning chinlik jadvalini Microsoft Excel dasturi yordamida tuzib chiqamiz. Bunda formula tarkibidagi unar (lotincha "unary"- "birlik", bitta mulohaza ustida bajariladigan amal. Inkor amali - unar amal hisoblanadi) va binar (lotincha "binary"- "ikkilik" ikkita mulohaza ustida bajariladigan amallar. Inkor amalidan boshqa barcha mantiqiy amallar binar amal hisoblanadi) amallarni bajarilish tartibini aniqlaymiz. Demak, biz har qanday murakkab formulaning chinlik jadvalini tuzishda ikkita o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan funksiyalarning chinlik jadvalidan foydalansak bo'ladi^{3,4}.

Microsoft Excel dasturi yordamida chinlik jadvalini tuzishda 2 xil usuldan foydalanamiz:

1-usul. Mulohazalar algebrasi mantiqiy amallari ta'riflaridan foydalangan holda, Microsoft Excelning shartli operatorlari (ЕСЛИ funksiyasi) yordamida tuzish. Bunda berilgan ta'riflarga mos yacheykadagi 0 va 1 qiymatlarini solishtirish orqali amalga oshiriladi (2-jadval). Chinlik jadvalini tuzish esa 1-jadvaldan foydalangan holda amalga oshiriladi.

2-jadval

X_1	X_2	...	X_n
ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	...	ЛОЖЬ
ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	...	ИСТИНА
...
ИСТИНА	ИСТИНА	...	ИСТИНА

Mantiqiy amallar	Belgilanishi	Microsoft Excel dasturida yozilishi
Inkor	\bar{x}	=ЕСЛИ(Xi=0; 1; 0)
Konyunksiya	$x \wedge y$	=ЕСЛИ(И(Xi=1; Yi=1); 1; 0)
Dizyunksiya	$x \vee y$	=ЕСЛИ(И(Xi=0; Yi=0); 0; 1)
Implikatsiya	$x \rightarrow y$	=ЕСЛИ(И(Xi=1; Yi=0); 0; 1)
Ekvivalensiya	$x \leftrightarrow y$	=ЕСЛИ(Xi=Yi; 1; 0)
Jegalkin amali	$x \oplus y$	=ЕСЛИ(Xi=1; Yi=0; 1)
Sheffer shtrixi	$x y$	=ЕСЛИ(И(Xi=1; Yi=1); 0; 1)
Pirs strekasi	$x \downarrow y$	=ЕСЛИ(И(Xi=0; Yi=0); 1; 0)

Bu amallarni X_i va Y_i yacheykalarining qiymatlari 0 va 1 (sonli qiymat) bo'lganda boshqacha variantlarda ham hisoblashimiz mumkin. Masalan, dizyunksiya amalini mantiqiy qo'shish, konyunksiya amalini mantiqiy ko'paytirish, implikatsiyani birinchi sonning ikkinchisidan kichik yoki tengligi bo'yicha taqqoslab va hokazo ko'rinishlarda hisoblab topsak bo'ladi. 2-jadval asosida mantiqiy amallarning chinlik jadvali quyidagi (3-jadval) ko'rinishda bo'ladi:

3-jadval

x	y	\bar{x}	$x \vee y$	$x \wedge y$	$x \rightarrow y$	$x \leftrightarrow y$	$x \oplus y$	$x y$	$x \downarrow y$
0	0	1	0	0	1	1	0	1	1
0	1	1	1	0	1	0	1	1	0
1	0	0	1	0	0	0	1	1	0
1	1	0	1	1	1	1	0	0	0

2-usul. Microsoft Excelning standart mantiqiy funksiyalaridan foydalangan holda chinlik jadvalini tuzish. Bunda berilgan formula tarkibidagi mantiqiy amallar mos mantiqiy funksiyalarga almashtiriladi (5-jadval). Shuningdek formulada berilgan o'zgaruvchi mulohazalarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari endi haqiqiy mantiqiy qiymatlar: yolg'on (ложь) va rost (истина) bo'ladi (4-jadval).

Microsoft Excelning juda ko'plab verisylarida 0 va 1 (sonli qiymat - численное) sonlarini to'g'ridan to'g'ri mantiqiy qiymat (логическое): 0 – ЛОЖЬ, 0 dan boshqa sonlarni ИСТИНА sifatida qabul qiladi.

Bu yerda mantiqiy funksiyalardan foydalanish ham yuqoridagidek F formula tarkibidagi qism formulalar mantiqiy amallarining bajarilish tartibi kabi bo'ladi.

4-jadval

F formulaning chinlik jadvalini tuzish uchun shartli operatorlardan foydalanishimiz kerak bo'lmaydi. Microsoft Excel dasturida standart mantiqiy funksiyalar mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan^{5,6,7}.

5-jadval

Mantiqiy amallar	Belgilanishi	Microsoft Excel dasturida yozilishi
Inkor	\bar{x}	=НЕ (Xi)
Konyunksiya	$x \wedge y$	=И(Xi; Yi)
Dizyunksiya	$x \vee y$	=ИЛИ(Xi; Yi)
Implikatsiya	$x \rightarrow y$	=Xi<=Yi
Ekvivalensiya	$x \leftrightarrow y$	=Xi=Yi
Jegalkin amali	$x \oplus y$	=НЕ(Xi= Yi)
Sheffer shtrixi	$x y$	=НЕ(И(Xi; Yi))
Pirs strekasi	$x \downarrow y$	=НЕ(ИЛИ(Xi; Yi))

U holda yuqoridagi 3-jadval quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

6-jadval

x	y	\bar{x}	$x \vee y$	$x \wedge y$	$x \rightarrow y$	$x \leftrightarrow y$	$x \oplus y$	$x y$	$x \downarrow y$
ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА
ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ
ИСТИНА	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ
ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ИСТИНА	ИСТИНА	ИСТИНА	ИСТИНА	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ	ЛОЖЬ

F murakkab formulaning Microsoft Excel dasturi yordamida chinlik jadvalini tuzish ham shu usullar asosida amalga oshiriladi.


Natijaga erishish borasida ushbu masalani Microsoft Excel dasturi yordamida yechish jarayonini ko'rib chiqamiz.

Masala.

Ushbu

$F = (x \vee \bar{y}) \downarrow ((x|t)(z \oplus t))$ formulaning chinlik jadvalini tuzing.

Bu yerda F formula tarkibida 4 ta: x, y, z, t o'zgaruvchilar mavjud. Shuning uchun chinlik jadvali $2^4 = 16$ ta satrdan iborat bo'ladi.



E2-J2 diapazonni belgilaymiz va J17 yacheykagacha avtoto'ldirish

Shuningdek, $x, y, z, t, \bar{y}, x \vee \bar{y}, x|t, z \oplus t, (x|t)(z \oplus t), F$ quyidagi qism formulalar bor: – 10 ta, demak ustunlar soni 10 ta bo'ladi. Microsoft Excel dasturida 1-satrga qism formulalarni yozib chiqamiz.

Maqolaning asosiy qismida keltirilgan jadvallardagi mantiqiy formulalarni hisoblash funksiyalari yordamida qism formula (x, y, z, t – har bir o'zgaruvchi mulohaza ham qism formula bo'ladi)larni topib olamiz. Bu jarayon quyidagi amallar ketma-ketligini bajarish tartibi asosida hisoblanadi:

1. \bar{y} – qism formulani topamiz. \bar{y} o'zgaruvchi qiymatlari B ustunda va 1-elementi B2 yacheykada joylashganligi uchun E ustunni E2 yacheykasiga inkorni topish formulasini kiritamiz: E2= ЕСЛИ(B2=0; 1; 0);

2. $x \vee \bar{y}$ – F ustunga F2 dan yacheykadan boshlab yoziladi. x o'zgaruvchi

A ustunda, \bar{y} o'zgaruvchi esa E ustunda joylashgan. Ikkalasining dizyunksiyasini topamiz. F2= ЕСЛИ(И(A2=0; E2=0); 0; 1);

Qolgan qism formulalar ham shu tarzda yoziladi.


3. $x|t$ – G2=ЕСЛИ(И(A2=1; D2=1); 0; 1);

4. $z \oplus t$ – H2=ЕСЛИ(C2=D2;0;1);

5. $(x|t)(z \oplus t)$ – I2=ЕСЛИ(И(G2=1; H2=1); 1; 0)

6. $F = (x \vee \bar{y}) \downarrow ((x|t)(z \oplus t))$ – J2=ЕСЛИ(И(F2=0; I2=0); 1; 0)

Shundan so'ng Microsoft Excel dasturida jadvalimiz quyidagi ko'rinishni egallaydi:



3 Z.S.Abdullaev va boshqalar. Excel dasturida amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatma (MS Excel -2010 UCHUN) Toshkent – 2015 yil.
4 Уокенбах Джон. Microsoft Excel: Библия пользователя. –М.: ООД «Вильямс», 2011. -912 с.

5 Сайков Б.П. Excel для любознательных. //Информатика. №№ 7,8,9, 2001.
6 Сайков Б.П. Excel: построение диаграмм. //Информатика и образование, №3, 2001
7 Сайков Б.П. Формулы и функции в Excel. //Информатика и образование, №2, 2001.

(авозаполнение) buyrug'ini bajaramiz. Natijada F formulaning chinlik jadvali quyidagi ko'rinishda hosil bo'ladi:

Oxirgi J ustunda (J2:J17 diapazonda) hosil bo'lgan qiymatlar berilgan F formulaning qiymatlar jadvali deyiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Diskret matematika va matematik mantiq" fanini o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan shu jumladan, Microsoft Excel dasturi mantiqiy funksiyalaridan

foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat: mashg'ulot paytida berilayotgan o'quv materiallarni talabalar tomonidan chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirilishi; ta'lim olishning yangi shakllarini joriy qilish; dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati; o'zlashtirilgan nazariy bilimlar talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi; talabalarda ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun sarflanadigan vaqtning qisqaligi; mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida talaba ta'lim subyektiga aylanishi va boshqalar.

Bunday ko'rinishdagi mashg'ulotlarni tashkil etish orqali vizual axborotlarga yuqori darajada talabgor bo'lgan talabalarining xohishi amalga oshadi. Mashg'ulot esa zerikarli ko'rinishdan mazmunan boy va ta'sirchan ko'rinishga aylanadi. Talabalarining axborotga bo'lgan ehtiyojining qondirilishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

O'QITUVCHILARDA KREDIT-MODUL TIZIMIGA DIDAKTIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Begzod Normurodovich Aliqulov - doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqola oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi, ushbu tizimning qisqacha ma'no-mazmuni, professor-o'qituvchilarning ushbu tizimga didaktik yondashuvining pedagogik-psixologik jihatdan mahoratlarini takomillashtirish masalalarining tahliliga qaratilgan.

Аннотация: Статья посвящена внедрению кредитно-модульной системы в высшем образовании, кратко описанию этой системы, анализу проблем совершенствования педагогико-психологических навыков дидактического подхода профессорско-преподавательского состава к этой системе.

Abstract: This article deals with the introduction of the credit-module system in higher education, the brief meaning of this system, the analysis of the problems of improving the pedagogical-psychological skills of the didactic approach of professors and teachers to this system.

Kalit so'zlar: didaktika, oliy ta'lim, professor – o'qituvchilar, pedagogik mahorat, ECTS (European Credit Transfer System), Yan Amos Komenskiy, ERASMUS.

Ключевые слова: дидактика, высшее образование, профессорско-преподавательский состав, педагогическое мастерство, ECTS (Европейская кредитно-трансферная система), ERASMUS.

Keywords: didactics, higher education, professor - teachers, pedagogical skill, ECTS (European Credit Transfer System), ERASMUS.

O'qituvchilik — katta san'atdir. Bu san'atga pedagog osongina, o'z – o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan,

o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar. O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik

va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

Buyuk ajdodimiz, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, "Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir", deydi¹.

Mashhur pedagog, o'zbek maktabi asoschisi Abdulla Avloniy ham o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasida qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi.

Alloma, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynashi, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning "Diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa", "Fikrining quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur"².

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy "O'qituvchilik yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va o'z e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs deb aytgan³.

O'qituvchining o'rni va unga qo'yiladigan talablar haqida Komenskiy o'z davrida iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etadi.

Ilmiy izlanishlar mavhum bir mavzu yoki yo'nalishlarda olib borilmasdan, avvalo real hayotda duch kelayotgan yoxud muayyan bir sohani yanada rivojlantirish uchun to'siq

bo'lgan muammo va masalalarning aniq ilmiy yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar bugungi kunning asosiy talabi. O'zbekiston ta'lim tizimiga ECTS (European Credit Transfer System)ning kirib kelishi uning oldidagi muammolar talaygina. Darhaqiqat, bu tizim ma'lum yillar mobaynida, biz uchun yangi tushuncha sifatida to'liq qaror topganicha yo'q.

Davlatimiz so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ko'plab rivojlangan davlatlari oliy ta'lim tizimining tajribasi o'rganilib, ilmiy tadqiqot markazlariga katta e'tibor qaratmoqda. Shu o'rinda sharq faylasufi Konfutsiy: "Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong'u tundur", — degan jumlasini biz tadqiqotchilar uchun o'z ustimizda ishlab, talabalarga sifatli ta'lim berishimizga undaydi. Bugun ta'lim tizimida, fan va talaba o'rtasida asosiy bog'lovchi o'qituvchi-pedagog ekanligi hech birimizga sir emas.

O'qituvchilikni "Yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O'qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilarga otalaridek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. "O'z" namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, degan edi⁴.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi⁵. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va

1 Alisher Navoiy. MAHBUB UL-QULUB. Toshkent-2018. Yoshlar nashriyot uyi. 11-bet.

2 Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent., 1992. 11-12- betlar.

3 https://monoskop.org/images/7/7e/Comenius_John_Amos_The_Great_Didactic_1967.pdf.

4 The Great didactic of John Amos Comenius now for the first time englished whiz introductions, biographical and historical by M.W.Kiatinge, B.A. Late Exhibitioner of Exeter college, oxford. London. Adam and Charles Black. 1896. 56-57 pages.

5 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan. 1999-yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi⁶.

Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'limning ikki bosqichli (bakalavriat – 3 – 4 yil, magistratura – 1 – 2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'limdan keyin doktor (3 – 4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi. Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi. Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga ta'lim va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi.

Bugungi kunda kredit modul tizimining quyidagi turlari mavjud.

-Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS);

-Britaniya kredit tizimi (SATS);

-Yevropa kredit tizimi (ECTS);

-Osiyo-tinch okeani tizimi (UCTS).

"Kredit soat" tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashgan.

1969-yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880-yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda

o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892-yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSh milliy ta'lim qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'lim bosqichlarigacha kengaytirdi. Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts – BA yoki Bachelor of Science - BSc) olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (taxminan, 60 – 68 kredit) va u oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to'rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o'rganishga bag'ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi. Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o'rta hisobda ikki yillik o'qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo'ljallangan magistrlik dasturlaridir. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog'onasi – doktorlik dasturlari bo'yicha o'qish bo'lib, u tor mutaxassislikga o'qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo'naltirilgan. Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to'plashi zarur. 1999-yilning iyunida 29 ta Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Bolonya deklaratsiyasini imzolashdi, unda asosiy e'tibor ECTS va umumevropa diplom ilovasiga qaratildi. Bunda ECTSning vazifasi etib 2010-yilda yagonalashtirilgan oliy ta'lim tizimini yaratish emas, balki xalqaro "shaffoflik"ka erishish va mavjud ta'lim tizimlarini va malakalarini davlatlar va oliy o'quv yurtlarining ta'lim siyosati sohasidagi avtonomligini saqlab qolgan holda moslashtirish belgilandi. Hozirgi kungacha deyarli barcha Yevropa davlatlari o'z milliy oliy ta'lim tizimlarida islohotlar o'tkazishdi, kredit ta'lim tizimini joriy qilishdi. Biroq, ular milliy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimiga qaratilganligi sababli o'zaro jiddiy farq qilishadi. Har bir davlat o'zining noyob ta'lim tizimini, milliy, tarixiy va madaniy an'analarini saqlab qolishga harakat qilgan⁷.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida Yevropada oliy o'quv yurtlarining xalqaro ta'lim dasturlaridagi ishtiroki muhim

masalaga aylandi, oliy ta'lim o'quv dasturlarini internatsionallashtirish taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. 1987-yilda Yevropa Ittifoqi asos solgan talabalar almashishning ERASMUS (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) ta'lim dasturi eng namunali deb topilib, asos sifatida qabul qilindi va Yevropaning 12 ta davlatida joriy etildi. To'plangan tajribalar qayta ishlanib, barcha yosh guruhlari ta'limiga ixtisoslashgan yangi SOCRATES dasturi uchun asos sifatida qabul qilindi. Bu dastur 2006-yilgacha rejalashtirildi va 31 davlatda amal qildi. Bulardan tashqari, Yevropada talabalar almashish dasturi bo'yicha Yevropaning ilm-fan va universitetlar beshigi sifatidagi mavqei mustahkamlashga yo'naltirilgan Leonardo Da Vinchi va Tempus-Tasis ta'lim dasturlari amalga oshirildi.

Bu dasturlarni amalga oshirishda Yevropada turli xillik va o'zaro mos kelmaslik holatlari yuzaga chiqdi, umumlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Shunday instrument ishlab chiqish zarur edi, u milliy ta'lim tizimlarini amalga yaqinlashtirishi, moslashuvchan va shaffof qilishi, ta'limdagi hujjatlar esa – oson taqqoslanadigan bo'lishi kerak edi. Bunday tizim sifatida ERASMUS dasturining tajriba loyihasi sifatida yuzaga kelgan va 1989-1995-yillarda 6 yil davomida eksperimental tekshiruvdan o'tgan ECTS (European Credit Transfer System) tizimi tan olindi. Unda Yevropaning 145 ta oliy o'quv yurti ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da va O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etishda pedagoglarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar doirasida dunyo kredit modullarning turlari o'rganilib professor-o'qituvchilarning ushbu tizimga didaktik yondoshuvining pedagogik-psixologik jihatdan

mahoratlarini takomillashtirish masalalari o'rganiladi.

Kredit ta'lim tizimida o'qituvchi (pedagog) o'zining vazifasiga ko'ra ta'lim jarayonining quyidagi subyektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkin:

-lektor;

-tyutor;

-edvayzer;

-maxsus komissiya a'zosi.

Zamonaviy o'qituvchi (pedagog)lar kredit ta'lim tizimida quyidagi sifatlarga ega bo'lmog'i lozim:

-o'qituvchilik: amaliy mashg'ulotlarni talab darajasida olib borish, talabalarga kasbiy o'zini anglashda yordam berish, fanning o'quv-uslubiy materiallaridan to'g'ri va samarali foydalanishlarini ta'minlash;

-maslahatchilik: talabalarining bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, guruhli maslahat va muloqot daralarini olib borish, fanning turli masalalari bo'yicha talabalarga yakka tartibda maslahatlar berish;

-menejerlik: talabalar guruhlarini yig'ish va shakllantirish, guruhli mashg'ulotlarni boshqarish, talabalarining fanni o'zlashtirishini nazorat qilish.

Zamonaviy o'qituvchi (pedagog) larning kredit ta'lim tizimida vazifalari quyidagilardan iborat:

-talabaning o'qishi maksimal darajada samarali bo'lishiga yordam berish;

-talabalarining o'zlashtirishini muntazam nazorat qilish;

-bajarilgan topshiriqlar bo'yicha talaba bilan aloqani ta'minlash;

-guruhli va yakka tartibda maslahatlar berish;

-butun o'qish davrida o'qishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash.

Kredit modul tizimi jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

-ma'ruza daralarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blisso'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

O'qituvchilarning kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini quyidagilar tashkil qiladi⁸:

-mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi;

6 The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19-June.

7 Распространение Болонского процесса: о декларации к внедрению на практике. В 3-х частях. Часть. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения. Под ред. проф. Р.Р. Агишева. - Казань, КГТУ им. А.Н.Туполева, 2008. - 118 с.

8 Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020-y. 12-bet.

-davlat ta'lim standartlari;
-malaka talablari;
-o'quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar;
-silabus;
-o'quv rejalar va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari;
-tanlov fanlari katalogi;
-fanning o'quv-uslubiy majmuasi.
O'qituvchi talabalar bilimni tekshirish bo'yicha turli shakldagi didaktik nazoratlardan foydalanadi:

1) og'zaki so'rov – bu nazorat turi fanning bir yoki bir nechta bo'limini o'rganib bo'linganidan so'ng savol-javob va masalalarning muhokamasi tarzida o'tkaziladi;

2) yozma ish – fanning alohida bo'limlari bo'yicha qo'yilgan masalalarni muhokama qilish, muammolarni tahlil qilish, amaliy topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'zda tutadigan nazorat turi;

3) kombinirlangan so'rov – bir vaqtning o'zida ham og'zaki, ham yozma shakldagi nazorat turlarining o'tkazilishi;

4) uy ishlarini himoya qilish va taqdimot qilish – yakka tartibda va guruhli uy ishlarining to'g'ri bajarilganligini, talabaning o'tilgan materialni umumlashtirish va uni auditoriyaga taqdim qilish, fan mavzulari bo'yicha mantiqiy bog'liqlikni kuzatish ko'nikmalariga erishganligini tekshirish maqsadida nazorat qilish;

5) bahs-munozaralar, treninglar, dumaloq stollar, keys-stadi va h.k. – muammoli xarakterdagi mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini namoyish qiluvchi masalalarni guruh bo'lib muhokama qilish;

6) testlar – fanning alohida bo'limlari bo'yicha savol topshirig'i ko'rinishidagi yozma nazorat shakli;

7) kurs loyihasini, kurs ishini bajarish – nazariy materialni amaliy masalalarni yechish hisobiga sifatli o'zlashtirish maqsadida namunaviy va ishchi o'quv rejalariga muvofiq ravishda ko'zda tutiladi, o'quv semestri davomida bajariladi. Kurs loyihasining (kurs ishining) himoyasi kafedra mudiri farmoyishi bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan kurs loyihasi (ishi) bo'yicha ilmiy rahbar ishtirokida kafedra mudiri belgilangan jadval asosida qabul qilinadi. Kurs loyihasini (kurs ishini) bajarmagan talabalar oraliq attestatsiyalarga kiritilmaydi. Muayyan bir fandan kurs loyihasini (ishini) himoya qilmagan talabaga registator ruxsati bilan boshqa fanlardan imtihonda qatnashishiga ruxsat beriladi.

Kredit-modul bo'yicha pedagoglar quyidagi o'qitish shakllaridan foydalanishmoqda:

-ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

-davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

-bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Kredit-modul tizimida "o'qituvchiga talab qanday bo'lishi kerak?" degan muammo ko'ndalang qo'yiladi. Buni batafsil izohlab o'tamiz.

Amaldagi ta'lim tizimida, asosan, auditoriyadagi darslarga ko'proq e'tibor beriladi, talabaning mustaqil ishiga esa jiddiy e'tibor qaratilmaydi, chunki bu faoliyat turi chuqur o'rganilmagan. Kredit-modul tizimida esa fan moduli tarkibidagi "O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi" (O'RTMI) va o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan "Mustaqil ta'lim" (MT) muhim ahamiyat kasb etadi. O'RTMIga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to'garaklarida qatnashish va h.k.larni misol qilib keltirish mumkin.

Kredit-modul tizimida esa o'qituvchi, asosan, o'qitish bilan shug'ullanadi. Baholashni esa komissiya amalga oshiradi. Ya'ni, pedagoglar "lektor" va "tyutor"larga ajratiladi. Lektor – nazariy bilim beradi, tyutor – nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi, oddiy qilib aytganda, talabalarni imtihonga tayyorlaydi. Imtihonni esa komissiya qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli Qarorida muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtiroki istisno etildi va talabaning o'zlashtirish darajasi – professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezonini etib belgilandi. Ya'ni, endilikda "o'qituvchining o'zi o'qitib – o'zi baholash" usuli kun tartibidan olib tashlandi⁹.

Xulosa qilib aytilganda, ustoz-shogird ananasi har bir davrda qadrlangan. Ammo bugungi shiddatli kechayotgan asrimizga munosib pedagoglarni tarbiyalanishi va

ularning malakalarini oshirib borish davr talabalaridan kelib chiqmoqda. Asrlardan davomida mavjud bo'lgan an'anaviy ta'lim jarayonimizga kredit modul tizimining kirib kelishi va qarortopishi bugungi ta'lim tizimidagi integratsion jarayonlarning bir bo'lagi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan o'z kasbiy faoliyati natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashtirish usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi.

Faoliyatni o'zgartirish esa faoliyat subyekting o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiya ham rivojlanadi, bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ma'lum bir yo'nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi.

Kredit-modul tizimida o'qituvchi va talabalarga qulayligi bilan ham ajralib turishi bugungi kun oliy ta'lim tizimining yutug'i sanaladi. O'qituvchi o'z ustida ko'proq ishlashi uchun, o'quv yuklamalarining optimallasuvi natijasida, ularning vaqti ham tejaladigan bo'ldi. Ko'proq ma'lumot to'plab, talabaga yetkazishga harakat qiladi. O'z navbatida talabaga ham ko'pgina qulayliklari ham mavjud.

Jumladan:

- talaba o'ziga yoqqan fanlarni tanlaydi;
- ortiqcha qog'ozbozliklarsiz ta'lim;
- o'z ustuda ko'proq ishlash;
- raqamli elektron ta'lim tizimi.

Umuman olganda kredit-modul tizimi o'qituvchi o'sishi va sifatli dars berishini ta'minlaydigan tizim hisoblanib kelinmoqda.

IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Odil Nurmuminovich Tagayev - assistent, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning zaruriyati hamda uslubiyati haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о необходимости и методике преподавания на основе цифровых технологий при подготовке будущих экономистов в высших учебных заведениях в области экономики.

Abstract: This article talks about the need and methodology of teaching based on digital technologies in the preparation of future economists in higher educational institutions in the field of economics.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, raqamli texnologiya, iqtisodiyot, talaba, metod.

Ключевые слова: высшее образование, цифровые технологии, экономика, студент, метод.

Keywords: higher education, digital technologies, economics, student, method.

Bugungi globallasuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida barqaror rivojlanishga erishish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda iqtisodiy barqarorlik tushunchasi xalqaro hamjamiyatda keng muhokama qilinayotgan konsepsiyalardan biri bo'lishiga qaramasdan, ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan.

Har bir davlat va uning iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini yaxshilash va keyingi o'rinda iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lish hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha davlatlarida iqtisodiy barqarorlik uchun iqtisodiy o'sish

ko'rsatkichi yillik hisob kitob qilib boriladi. Shu qatorida O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O'zbekiston Respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik va shunga o'xshash masalalarda muvozanatni saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning III-yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb

atlagani bejis emas albatta¹. Yurtimiz istiqboli uchun yaratilayotgan tub islohatlar zamirida faravon hayot, iqtisodiy barqarorlik kabi tushunchalar yotadi. Buning uchun albatta sohada zamon talablariga javob beradigan, har tomonlama yetuk mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim. Iqtisodiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan mutaxassislarni bugungi kun talabidan kelib chiqib raqobatbardosh, jahon bozorida o'z o'rniga ega mutaxassislar qilib tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 2019-yil 8-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 sonli Farmonida ham "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida" bir nechta ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan².

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni har tomonlama yetuk, bilimdon, kasbiy kompetentli, xorijiy mutaxassislar bilan bemaol kuch sinashadigan, salohiyatli kadrlar bo'lib yetishlari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan raqamli texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash innovatsion ta'limning bir ko'rinishidir. Bo'lajak iqtisodchilarni raqamli texnologiyalar muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining eng asosiy xususiyatlari, bu uning yaxlitligi, tizimlili, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek, shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari bo'lajak iqtisodchilarga raqamli texnologiyalar ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish bu zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida, o'quv materiallarini bir ko'rinishidir, yani:

1.O'qituvchi kompyuter tizimlarini o'rgatishi;

2.O'qituvchi amaliy kompyuter dasturlarini o'rgatishi;

3.O'qitishning turli usullari va vositalari orqali kasbiy ta'lim jarayonini shakllantirish bosqichlarida moslanuvchanlik tamoyilining bo'lishini talab etadi.

Bunday tamoyil asosida tayyorlangan ta'lim resurslari talabning bilim darajasi, malakasi, kasbiy qobiliyatlari, guruh talabalariga o'ziga xos xarakterlarini va ta'lim berishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirishga olib keladi. Kasbiy ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida axborotlashtirish pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tashkil etish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mezonlarini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni hamda talabning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi^{3,4}.

Raqamli texnologiyalar bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda bir qator afzalliklarga ega. Misol uchun kommunikatsiya sohasida raqobatbardosh hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu an'anaviy ta'lim tizimidir. Shu sababli an'anaviy ta'lim tizimi asosida innovatsion ta'lim tizimi muhitini tashkil etish va raqamli texnologiyalarni jadal ommalashtirish lozim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar bilan zamonaviy dars mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish mumkin. Bunday ta'lim texnologiyalarini ta'minlash uchun nafaqat ta'lim sifatini oshiradigan samarali raqamli texnologiyalaridan foydalanish kerak, balki dars jarayonini to'g'ri tashkil etish va mashg'ulotlarni rivojlantiruvchi vositalarni qo'llash kerak. Masalan, talabada kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llash mumkin bo'lgan zamonaviy raqamli texnologiyalar 1-jadvalda keltirilgan.

T/r Raqamli texnologiyalar Raqamli texnologiyalarning vazifalari

1.Ijtimoiy tarmoqlar Ushbu xizmatlardan foydalanish insonning ijtimoiy yangiliklardan xabardor bo'lib turishga yordam beradi va o'zaro masofaviy muloqot qilish imkoniyatini beradi.

2.Raqamli kutubxonalar Iqtisodiy atamalarini o'zlashtirish va ma'ruza

materiallariga annotatsiyasi bilan tanishish.

3.Ovozli aloqa va video konferensiya Munozaralar davomida muloqot faoliyatining amaliy ko'nikmalarini oshiradi.

4.Elektron pochta Qulay fursatda muloqot qilish imkoniyati beradi va o'quv jarayonini tashkil etish sifatini tezlashtiradi.

5.O'zaro ma'lumot (fayl) almashish tarmoqlari Kommunikativ kompetensiyani yaxshilash uchun oliy ta'lim muassasasining o'quv materialini ulashish imkoniyatini beradi.

6 B u l u t l i Ma'ruzalar yoki seminarlar o'tkazish uchun bulutli texnologiyalarga asoslangan konferensiyalardan foydalanish.

7.Ichki dasturiy ilovalar Ta'lim jarayonini tartiblash va uni rivojlantirish vositalarini yaratish imkoniyatini beradi.

T/r	Raqamli texnologiyalar	Raqamli texnologiyalarning vazifalari
1	Ijtimoiy tarmoqlar	Ushbu xizmatlardan foydalanish insonning ijtimoiy yangiliklardan xabardor bo'lib turishga yordam beradi va o'zaro masofaviy muloqot qilish imkoniyatini beradi.
2	Raqamli kutubxonalar	Iqtisodiy atamalarini o'zlashtirish va ma'ruza materiallariga annotatsiyasi bilan tanishish.
3	Ovozli aloqa va video konferensiya	Munozaralar davomida muloqot faoliyatining amaliy ko'nikmalarini oshiradi.
4	Elektron pochta	Qulay fursatda muloqot qilish imkoniyati beradi va o'quv jarayonini tashkil etish sifatini tezlashtiradi.
5	O'zaro ma'lumot (fayl) almashish tarmoqlari	Kommunikativ kompetensiyani yaxshilash uchun oliy ta'lim muassasasining o'quv materialini ulashish imkoniyatini beradi.
6	Bulutli texnologiyalar	Ma'ruzalar yoki seminarlar o'tkazish uchun bulutli texnologiyalarga asoslangan konferensiyalardan foydalanish.
7	Ichki dasturiy ilovalar	Ta'lim jarayonini tartiblash va uni rivojlantirish vositalarini yaratish imkoniyatini beradi.

1-jadval. Innovatsion raqamli texnologiyalar va vazifalari

1-jadvalda keltirilgan raqamli texnologiyalarga asoslanib, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonida qo'llash xususiyatlari kelajakdagi iqtisodchi mutaxassislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar asoslangan ta'lim tizimi bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishi dastlabki dars mashg'ulotlarida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari bo'yicha taqdim etilgan ushbu maqolaga asoslangan holda, shuni aytishimiz mumkin, ta'lim jarayonining keyingi istiqbollari masofaviy ta'limga qarab tobora rivojlanib borishini ta'kidlash mumkin, chunki bunday xususiyatlardan foydalanish va uni amalga tadbiq qilish sifati masalasi o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion vositalarini shakllantirishga olib keladi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish shartlariga ko'ra, ular o'qitish loyihalarini muhokama qilish, xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuv qobiliyatini yaxshilash borasida sifatli katalizator bo'lishi va ta'lim faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida joriy etilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalari va mobil ilovalarning kasbiy nutqni tashkil etish sifatiga va kasbiy yo'nalishda munozaralar olib borish qobiliyatiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotning istiqbolli yo'nalishiga aylanishi mumkin. Shunday ekan, raqamli texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar uni jarayonga qo'llash maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan emas, balki bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish kerak. Bunday yondashuv axborot muhitini qayta ishlashning globallashtirish muammosini hal qiladi deyishimiz mumkin. Bundan esa kasbiy dars jarayonini samarali tashkil qilish va bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlashning samarali yechimlarini izlashga imkon beradi^{5,6}.

Shunday qilib, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarining rolini beqiyos ekanligini isbotladik, chunki ular zamonaviy ta'lim jarayoni va ta'lim sifatini shakllantirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ya'ni o'qitish jarayonining sifatini oshirish kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish omillaridan biriga aylanishi kerak. Shu bilan kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ko'mak beradigan zamonaviy o'qitish metodikasini joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakliga nisbatan qilinadigan yondashuvlarni o'zgartiradi va iqtisodiyot yo'nalishlari oliy ta'lim muassasalari tomonidan raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratishni bildiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847 sonli Farmoni
² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni
³ Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b
⁴ Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). T.: "Moliya", 2013. 172 b.

⁵ Xashimov A., Xujaniyozova G. Iqtisodchilar uchun matematika. O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisod-moliya», 2017. 388 b
⁶ Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'limni boshqarish. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2010, 156 b

UZLUKSIZ TA'LIM TIZMIDA SHAXS QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Ahmadali Ashirovich Bo'taev - tadqiqotchi, Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Qiziqish"ga oid tushunchalar, olimlar keltirgan fikrlar va umumiy ma'lumotlar keltirilgan. "Qiziqish"ning ilmiy manbalardagi tahlili, unga berilgan ta'riflar va qo'shimcha mualliflar fikrlari bayon etilgan. "Qiziqish" so'zining o'zak qismi sifatida ko'pincha "maroqli", "ajoyib", "yoqimli" kabi ma'nolarda ham ishlatilgani barchamizga ma'lum. Bu xildagi qiziqish, kishidagi ixtiyoriy diqqat protsessida ro'y beradi va kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi. Qiziqish ko'proq innovatsiya bor joyda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qiziqishning ayrim shakllariga maqolada to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье представлены понятия "любопытство", мнения ученых и общие сведения о любопытстве. Описан анализ "Интереса" к научным источникам, данные ему определения и дополнительные авторские мнения. Все мы знаем, что корень слова "интерес" часто употребляется в таких значениях, как "интересно", "замечательно", "приятно". Этот вид интереса возникает в процессе произвольного внимания у человека и не является частью индивидуальных особенностей человека. Интерес растет и процветает там, где больше инноваций. Некоторые формы интереса рассматриваются в статье.

Abstract: This article presents the concepts of "Curiosity", the opinions of scientists and general information about curiosity. The analysis of "Interest" in scientific sources, the definitions given to it and additional author's opinions are described. We all know that the root of the word "interest" is often used in such meanings as "interesting", "wonderful", "pleasant". This type of interest occurs in the process of voluntary attention in a person and is not part of the individual characteristics of a person. Interest grows and thrives where there is more innovation. Some forms of interest are discussed in the article.

Kalit so'zlar: "qiziqish", "maroqli", "ajoyib", "yoqimli", "qiziq spektakl", "maroqli roman", "ajoyib manzara", "yoqimli inson" va hokazo.

Ключевые слова: "интересный", "интересный", "замечательный", "прекрасный", "интересная пьеса", "интересный роман", "прекрасные пейзажи", "замечательный человек" и т. д.

Keywords: "interesting", "interesting", "wonderful", "lovely", "interesting play", "interesting novel", "wonderful scenery", "wonderful person" and etc.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilishi, tizimdagi ishlarining shaklan va mazmunan modernizatsiyalashuviga sabab bo'layotganligi bois shaxs kamolotida pedagogik va psixologik aspektlarni qaytadan ko'rib chiqish, mos keluvchi jihatlarini ilmiy tahlil etishga yo'naltirmoqda.

Kuzatish va tahlillarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, "Qiziqish" psixologiya va pedagogika fanlari tomonidan juda keng o'rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan, "qiziqish" shaxs ruhiyatining alohida "jumboqli" hodisalaridan biri sifatida ajralib turishi bilan tanlangan va o'rganilayotgan tadqiqotning nechog'lik dolzarb ekanligiga dalolat berishmoqda.

Xususan, bugungi kunga qadar ham olimlar va tadqiqotchilar tomonidan "qiziqish" hodisasining aynan yagona ta'rif mavjud emas. Bunda, barcha olim va tadqiqotchilar o'z qarashlari va o'rganishlari jarayonida xulosa qilingan ta'riflar keltirilgan.

"Qiziqish" muammosiga oid adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, unga ta'rif berishda bir nechta yo'nalishlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Qiziqish tushunchasining ta'riflanishiga bag'ishlangan adabiyotlardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "qiziqish" murakkab va bir jinsli bo'lmagan tushunchadir. Biz qiziqishning ehtiyoj turlaridan biri ekanligi to'g'risidagi fikrlarga qo'shilamiz. Qiziqish bu faoliyatga aniq mo'ljallanganligi bilan ifodalanadigan,

anglanilgan hodisa va narsalarga bog'liq ehtiyojdir.

Endi qiziqishning turlariga to'xtalib, unga berilgan ta'riflarga e'tibor qarataylik.

"Qiziqish" so'zining o'zak qismi ko'pincha "maroqli", "ajoyib", "yoqimli" kabi ma'nolarda ham ishlatiladi. Masalan, "qiziq spektakl", "maroqli roman", "ajoyib manzara", "yoqimli inson" va hokazo. Bunday ma'noda tushuniladigan qiziqish bevosita qiziqish deb yuritiladi. Bu xildagi qiziqish, asosan, kishidagi ixtiyoriy diqqat protsessida ro'y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Barqaror qiziqish shaxsning o'z diqqat-e'tiborini muayyan narsaga, voqelik va hayotning muayyan sohasiga, muayyan bir faoliyatiga birmuncha uzoq vaqt va barqaror jalb etishida, jumladan, kishining uni qiziqtirgan narsani bilib olish, shu narsani o'ziga yaqinlashtirish va uni egallab olish uchun muntazam ravishda intilishida yaqqol ko'zga tashlanadi¹.

Qiziqishga psixologik tomondan qaraydigan bo'lsak, qiziqish bu faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai deb qarash bo'ladi. Jahonga mashhur, psixologiya fanining yirik namoyondalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati bilish jarayonlari, irodasi temperamenti, xarakteri, hissiyoti, qobiliyati bilan umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog'liq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar. Qiziqish muammosi psixologik nuqtayi nazardan N.A.Ribnikov, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, V.A.Gokareva, E.G.G'oziev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirib kelganlar.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish obyektiv borliqning insonlar ongiga subyektiv tarzda aks ettirilishidan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi ma'lum vaziyatdagi turli narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishida, insonning o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini-o'zi nazorat eta olishida, maqsadga intiluvchanligida yuzaga kelgan obyektiv va

subyektiv to'siqlarni yengishida ifodalanadi.

Qiziqishlar juda turli-tuman bo'lsada, lekin har bir alohida shaxs aniq bir narsa yoki hodisaga, turmushning birorta qirrasini yoki faoliyatning aniq bir turiga nisbatan qiziqishga ega bo'ladi. Bunday qiziqishning mavjud bo'lishligi shaxsning individual psixologik xususiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Individual qiziqish - kishining o'z hayotida, dunyoda ma'lum bir narsani eng muhim, eng qimmatli deb bilib, shu narsaga erishmoq uchun intilishidir.

Shaxsning asosiy hayot yo'li, aynan, individual qiziqishlarda namoyon bo'ladi. Qiziqishning bu turi shu qiziqish egasining uni qiziqtirgan narsani eslaganida har doim yoqimli hissiyot og'ushida bo'lishida, o'sha narsa va u bilan bog'liq bo'lgan ishlar haqida ko'proq gapirishga moyilligida kuzatiladi. Bunday qiziqish kishining butun diqqat e'tiborini uni qiziqtirgan narsaga qaratishida, o'sha narsaga nimaiki yaqin va aloqador bo'lsa, uni tez-tez esga olaverishida, xayolida hadeb o'sha narsa aylanaverishida, butun fikru-zikrini uni qiziqtirgan narsa bilan bog'liq bo'lgan masalalar girdobiga tushib qolishida ifoda topadi.

Individual qiziqishga, kishidagi diqqatning individual xususiyatlari bilan yoki his-tuyg'ulari bilan, yoki undagi orzu, intilishlar bilan aynan bir narsa deb qarash kerak emas. Qiziqish bu - shaxsning individual xususiyati bo'lib, undagi diqqat-e'tiborning real olamdagi muayyan bir sohaga muttasil qaratilishidir. Lekin kishidagi bu xil qiziqish uning diqqat e'tiborida, hissiyotlarida, intilishlarida, fikrlarida, faoliyatlarida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Qiziqish hammadan ko'ra ko'proq kishining kasbi, ixtisosi bo'yicha qiladigan mehnati, o'qishi bilan bog'liq bo'ladi. Individual qiziqishlar bilan birga insonga yana ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy qiziqishlar ham mavjud bo'ladi.

Odamlardagi qiziqishlarni turlarga ajratishda ularning mazmuniga e'tibor berish lozim. Qiziqishning mazmuniesakeng ma'noda olingan voqelikdagi aynan qanday narsalar yoki soha bilan qiziqayotganligiga bog'liq bo'ladi va shular bilan belgilanadi. Kishilarning turli-tuman mazmundagi qiziqishlari ularning

¹ Абдурахманов Ш. Дидактические основы реализации принципа наглядности средствами исторического материала. Дисс. насоиск. уч. степенипед. наук. - Т., ТГПИ им. Низами, 2012. - 192 с.

ijtimoiy qimmatiga qarab, ijobiy yoki salbiy qiziqish deb baholanadi².

Kishining individualligi unda ijtimoiy qiziqishlarning mavjudligi bilangina emas, balki ana shu ijtimoiy qiziqishlarning undagi shaxsiy qiziqishlar bilan naqadar bog'liqligi bilan ham belgilanadi. Kishining shaxsiy qiziqishlari uning ijtimoiy qiziqishlari bilan mos tushsa, bunday shaxsning ma'naviy hayoti ko'rkam kechadi.

Intellectual (aqliy) qiziqishlar yuksak, ijobiy qiziqishlar turiga kiradi. Bunday qiziqish egalari uchun o'z hayotlarida eng muhim narsa - fan bilan mashg'ul bo'lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir.

Estetik qiziqishlarning egalari uchun eng asosiy narsa san'at va unga xizmat qilish, qimmatbaho san'at asarlari yaratishdir.

Salbiy qiziqishlarning egalari bo'lib qolgan odamlar uchun eng muhim narsa ovqat yeyish, ichish, uxlash va umuman nuqul nafsin qondirishdan iborat bo'ladi. Odamlarning yana bir toifasi borki, ular shaxsiy boylik pul yig'ish, dunyo to'plashga qiziqishadi. Bunday odamlar o'zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishdan ham voz kechib, yemay, ichmay, kiyinmay, faqat dunyo to'plashga, mol yig'ishga harakat qilishadi.

Odamlar o'zlaridagi qiziqish doirasining keng yoki tor bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Faqat birgina narsaga qiziqish bilan cheklanib, boshqa narsalarga e'tibor bermaydigan odamlarni qiziqish doirasi tor kishilar deb ataladi.

Ko'plab sohalarga qiziqadigan kishilarning qiziqish doirasi xilma-xil va keng bo'ladi. Shunday bo'lsada, bunday kishilarda, birgina qiziqish asosiy, markaziy o'rinni egallab turadi. Qiziqishlar doirasining keng va xilma-xil bo'lishi shu qiziqishlarning yuksak va chuqur mazmundaligi bilan bog'liqdir. Yuksak qiziqishlarga berilib yashaydigan kishilarning qiziqish doirasi keng va xilma-xil bo'ladi.

Ayni bir xildagi qiziqishlarning kuchi turli ishilarida turli darajada bo'ladi. Kuchli qiziqish kuchli hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, u kishida ehtiros tarzida namoyon bo'ladi. Kishidagi kuchli qiziqishdan, sabr-toqat va sabotlilik singari iroda sifatleri bilan bog'langan bo'ladi.

Muayyan bir darajadagi kuch bilan belgilangani holda yana kishilarda barqaror qiziqishlar farq etiladi. Shunday kishilar

bo'ladiki, ulardagi qiziqishlar doimiy bo'lib, umrbod saqlanib qoladi.

Ba'zi odamlar bir narsaga juda qattiq qiziqadilar, kuchli, zo'r havas qo'yadilar, lekin ulardagi qiziqish-havaslar uzoq davom etmaydi; bunday odamlarda biron narsaga, biron faoliyatga bo'lgan zo'r qiziqish o'rnini darrov boshqa bir xil va shunday zo'r qiziqish egallaydi. Bunday kishilarning qiziqishlari tez o'zgarib turadi. Bunday oldamlarning qiziqishlari ishqibozlik deb yuritiladi.

Har bir kishida u yoki bu turdagi qiziqishning so'zsiz mavjud bo'lishi shuni ko'rsatadiki, kishi shaxs sifatida faqat shu bugungi hayotni yashab o'tkazish bilangina ovora bo'lib qolmasdan, balki istiqbol bilan ham qiziqadi. Kishidagi qiziqishlar uning dunyoqarashi, e'tiqodi va ideallari bilan bog'liq bo'ladi.

Qiziqishlari pastkash yoki tuturiqsiz bo'lgan odamlarning ma'naviy hayoti mazmunsiz va betayin bo'ladi. Bunday odamlar o'zlarining nima uchun yashayotganliklarini, ko'pincha, o'zlari ham bilmaydilar. Kishidagi qiziqishlarning susayib yoki yo'qolib ketishi uning aqlini ham pasaytirib qo'yadi, faoliyatini susaytirib yuboradi va boshqa ma'naviy fazilatlariga putur yetkazadi, kishini bekorchilikka moyil, yalqov qilib qo'yadi. Bular bo'sh qolgan vaqtlarida nima bilan mashg'ul bo'lishlarini bilmay, zerikadilar yoki vaqtni o'tkazadigan biron bekorchi ermak topishga urinadilar.

Muayyan olijanob qiziqishlarga ega bo'lgan kishilar har doim tetik, faol bo'ladilar. Bunday kishilarning hayoti ma'noli va sermazmun bo'ladi.

Shaxsning individual xususiyati bo'lgan qiziqishlar uning barcha psixik jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Kishining bir talay xarakter xislatlari ham, shuningdek, qobiliyatlarining o'sishi ham ma'lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi.

Kishidagi qiziqishlar uning barcha psixik jarayonlarida namoyon bo'ladi. Kishidagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushirish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqishlar esda qoldirishning tez va mustahkam bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Qiziqishlar kishi diqqatining kuchli va barqaror bo'lishiga yordam qiladi, undagi tuyg'u hissiyotlarning, shuningdek bevosita

2 Ананин С.А. Интерес по учению современной психологии и педагогики. – Киев., 2010. – 500 с.

qiziqishlarning ham kuchli va barqaror bo'lishiga yordam beradi³.

Qiziqishlar kishi tomonidan mehnat faoliyatining yuritilishida juda katta ahamiyatga ega. Qiziqishlar kishi faoliyatini rag'batlantiradi, uning g'ayratiga g'ayrat qo'shib, tashabbus ko'rsatishga, faol harakat qilishga, ijod etishga va yangiliklar yaratishga yo'llaydi. Qiziqishlar kishining kuch-quvvatini oshiradi. Kishining qiziqishlariga mos keladigan ishlar tezroq, osonroq va unumliroq bajarilishi tadqiqotchi P.I.Ivanov tomonidan keltirilgan.

Qiziqish ko'proq innovatsiya bor joyda paydo bo'ladi. Masalan, yangi ermak, yangi ish, rivojlanishning yangi imkoniyati va hokozolar.

Qiziqishning paydo bo'lishi, o'sishi va barqarorlashuvi, ya'ni odatga aylanishida quyidagi omillar ko'mak beradi:

- rivojlanish uchun qulay sharoitlarning yaratilgan bo'lishligi. Masalan, yangi ish sodda, yangi ashyo tushunarli bo'lishi kerak;
 - yangilikni va istiqbolni namoyish etishlik;
 - jarayonga "bezak berishlik", unga ermak unsurlarini kiritishlik;
 - hal etishi uchun kishining qurbi yetadigan darajadagi murakkablikda yangi masalalar berish;
 - yutuqni his etish xususiyatini mustahkamlash.
- Quyidagidek hollarda qiziqish so'nadi, barham topadi:
- topshiriq haddan ziyod murakkab

va tushunarsiz bo'lsa. Bunday hol, ayniqsa, o'quvchilar tomonidan masalani mohiyati tushunarsiz bo'lganda yoki avvalgi darslarning qoldirib yuborilganligida ko'proq kuzatiladi;

- rivojlanishning yo'qligi;
- yangilik yaratishning, masalalarni nostandart yo'llar bilan hal etishning yoki ijodkorlik qilishning iloji yo'qligi;
- hamma narsa bir maromda, birdek zerikarli bo'lganda;

Keksayish va salomatlikning izdan chiqishi bilan bog'liq ravishda qiziqishlar ham so'nib boradi va barham topadi.

Shuni xulosa qilish mumkinki, qiziqishlar insonni yanada yuksaltiradi, bajaradigan ishini unumdor qilib, ungayuqorikayfiyat bag'ishlaydi. Qiziqishlar doirasi, albatta, insonlarning individual psixologik xususiyatidan kelib chiqadi. Insonlarda qiziqishlarning o'sishi atrof-olamga, yashayotgan muhitdagi insonlarga ham bog'liq. Qiziqishlar yanada yuksalib, insonni yuqori darajalarga erishishiga zamin yaratishi yoki so'nib qolishi ham mumkin. Uning rivoji ham so'nishi ham insonning o'ziga bog'liq. Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga, maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishga, mayl yaratishga puxta zamin yaratish zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e'tiqod funksiyasini bajarishga aylansin.

3 Антипова Л.Г. Дидактическая система формирования профессиональных интересов у учащихся средних профтехучилищ. – М., «Высшая школа», 2014. – 96 с.

INVESTIGATING POSITIVE AND NEGATIVE IMPACTS OF INDEPENDENT EDUCATION THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Madina Abdumumin kizi Fayzullaeva - master's student, Chirchik state pedagogical university

Abstract: In this article, the influence of digital technologies on education and the factors affecting students of independent education through these technologies are studied.

Moreover, we divided them into positive and negative aspects, as well as, we tried to provide a solution to the negative effects considered on the basis of our research.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'siri va bu texnologiyalar orqali mustaqil ta'lim olishning talabalariga ta'sir qiluvchi omillar o'rganiladi. Bundan tashqari, biz ularni ijobiy va salbiy tomonlarga ajratdik, shuningdek, tadqiqotimiz asosida ko'rib chiqilgan salbiy ta'sirlarni hal qilishga harakat qildik.

Аннотация: В данной статье изучается влияние цифровых технологий на образование и факторы, влияющие на студентов самостоятельного образования посредством этих технологий. Более того, мы разделили их на положительные и отрицательные аспекты, а также постарались предложить решение рассмотренных на основе нашего исследования негативных последствий.

Keywords: digital technologies, student, communication, monitoring, evaluation, assessments, textbook, programs.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, talaba, muloqot, monitoring, baholash, baholash, darslik, dasturlar.

Ключевые слова: цифровые технологии, студент, общение, мониторинг, оценивание, оценивание, учебник, программы.

In accordance with Decree No. PD-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022, "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026"¹, as well as, through the development of personnel training activities in the form of distance education in the field of digital technologies in order to implement the priority tasks of bringing the field of information and communication technologies to a new level, the task of establishing the education of more than 6.5 thousand young people in the field of information technologies per year has been set. In this regard, various new projects are being created in educational institutions and existing projects are being improved.

Digital technologies provide new ways and means of learning in education. This includes opportunities for interactivity and learning (homework, tests), analysis of work combinations (big data), and mixed practice (online platforms, comments, forums). Digital technologies are used for students to reinforce their independent learning. Through online classes, interactive computer tutorials, programs, and mobile apps, students organize

their thoughts, evaluate their movements, and improve their mastery through mastery practices.

Digital technologies play an important role in editing the educational process. Facilitates key practices for developers such as creating, analyzing, recording, evaluating, communicating with learners, and monitoring learning materials. Having learned about the latest trends in digital technology and it is important to translate them into the field of education. For example, new technologies such as artificial intelligence, data analytics, virtual guides (VR/AR) create more opportunities for education.

Digital technologies are important for strengthening cooperation and interactions. Moreover, the broadcast network, chatbots and social networks allow them to improve communication skills between students.

Relevance of the topic. Digital technologies enhance in-demand job opportunities in education. These areas lead to the development of distance learning, learning acquisition skills, distance learning, skilled professionals, and continuing education

¹ PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (lex.uz)

practices. Digital technologies facilitate learning in education and improve student achievement. It helps facilitate learning environment and system through adaptive programming, management and use of new technologies.

The use of digital technologies in pedagogical activities provides great opportunities for mastering the educational process and updating teaching. Digital technologies play an important role in making the learning environment interactive, encouraging advanced thinking and increasing student engagement during the lesson, and creating convenience and analysis opportunities for teachers.

Material and research methods. It is important to improve the skills and knowledge of users, to personalize educational materials, to find easily related information, to collaborate in the learning process, and to develop opportunities for students to participate in work groups organized with partners carried out through many technological systems. For example:

Learning and Analysis: Digital technologies play an important role in making learning and analysis processes more efficient. Teachers use the database to provide information, answers, and practices that support student learning, depending on the learning process they are based on. These include opportunities to create micro-exercises, questions and associations, review data, and analyze. This feature of digital technologies is reported in Sarker, M. N. I., Wu, M., Cao, Q., Alam, G. M., & Li, D.'s article "Leveraging digital technology for better learning and education: A systematic literature review. International Journal of Information and Education Technology"².

Interactivity and participation: Digital technologies increase interactivity in student learning and provide opportunities for students to express and evaluate their own ideas. Virtual classes, online forums, comments, chatbots, and interactive tasks make student learning more effective and encourage engagement. "Understanding the role of digital technologies in education: A review. Sustainable Operations and Computers" article of Haleem, A., Javaid, M., Qadri, M. A., & Suman, R. (2022) emphasizes this aspect of digital technologies³.

Personalization and adaptive learning: Digital technologies create opportunities to

provide learning materials tailored to students' individual needs and strengths, depending on their level of education. Students can assess their own learning, the information presented with their own goals and requirements.

Communication and collaboration: Digital technologies create many opportunities to develop communication between students and students, between teachers and learning methods, and to organize educational practices with partners. In this respect, it allows to prioritize, consult and strengthen relations between students, teachers, parents and administration⁴.

Monitoring and evaluation: Digital technologies provide opportunities for monitoring and evaluation of teaching and learning processes through instruction and others. For these purposes, methods such as electronic tests, task and practice systems, actions, etc. are used⁵. This helps in learning discussion and continuous student evaluations.

As a result of our ongoing research, we have found that digital technologies in education can have several positive and negative effects on students' independent learning. Positive effects:

1. Independent learning opportunities for students: Digital technologies make it possible for students to have educational materials in different formats. Facilitates students' learning according to their personal learning plans and the freedom to explore their own learning path. This creates opportunities for young learners to learn at their own pace, to stop at their own pace and discover their learning progress in their learning.

2. Diversity and intellectual development: Digital technologies make student tasks more dynamic and increase their mastery. Students develop themselves by organizing, discussing and repeating their thoughts in the process of tasks and problem solving. This means that digital technologies in distance education stimulate the intellectual development of students.

3. Creativity and work: Digital technologies develop students' creativity and work skills through distance learning. Students will have opportunities to attach work, write, research, design, create videos, discuss, and make electronic proposals where their own learning and development takes place.

4. Selection of educational news

² Sarker, M. N. I., Wu, M., Cao, Q., Alam, G. M., & Li, D. (2019). Leveraging digital technology for better learning and education: A systematic literature review. International Journal of Information and Education Technology, 9(7), 453-461.

³ Haleem, A., Javaid, M., Qadri, M. A., & Suman, R. (2022). Understanding the role of digital technologies in education: A review. Sustainable Operations and Computers, 3, 275-285.

⁴ Wekerle, C., Daumiller, M., & Kollar, I. (2022). Using digital technology to promote higher education learning: The importance of different learning activities and their relations to learning outcomes. Journal of Research on Technology in Education, 54(1), 1-17.

⁵ World Health Organization. (2016). Monitoring and evaluating digital health interventions: a practical guide to conducting research and assessment.

from the world: digital technology enables young researchers to follow the latest news, information and scientific research from the world. It will be useful for students to study abroad in a global environment, to develop new technologies and mastery at a high level. Adverse effects:

1. Technical problems: Fears of connecting to the Internet, downloading the necessary software, and learning the technology may present difficulties. In such cases, technical advice or friends can help.

2. Increased energy and costs: Digital technologies increase the need for electricity to be powered by the Internet, computers and other devices. This maybe related to energy costs. In this case, implement the recommendations to prevent energy waste and improve energy efficiency.

3. Disruption of students' social connections: Digital technology can reduce real communication with teachers. A student may experience a reduction in personal contacts and friends, even if he or she studies with other students and teachers at designated times. Due to this negative impact, these problems need to be solved quickly with the aim of creating collaboration and other collaboration opportunities for students.

4. Focus: Digital technologies can keep students connected to their primary goals and increase their access to distracting information during lessons. In order to reduce this negative effect, it is necessary to design the correction and application processes of educational programs.

5. Decreased physical activity: Regarding distance education, students' work activity and physical activity can be affected negatively. They spend a lot of time working on computers or gadgets and may stay away from other physical activities.

6. Difficulties in self-control: The use of digital technologies and online learning can help students overcome difficulties in self-control. This should be supported by teachers and parents to ensure that they correct and apply their mastered programs and learn independently.

In addition, it is necessary to inform and explain to students and teachers how digital technologies are taught and used in distance education. In order to get the best results from the use of digital technologies, structured and theoretical education should be provided, teachers should support students well, and students should learn independently.

The positive and negative effects of

digital technologies on the independent learning of students is a topic that has been followed around the world. Therefore, collaboration between students, teachers, and administration is necessary regarding which technologies and which methods should be used for scaling up. In order to make the learning process self-assessed and teaching more effective, students are required to regulate the technology, which strictly needs resources. Although the above negative effects require the development of digital technologies in practice, in general, it is recommended to use extensive and advanced strategies to make learning and teaching process more effective with digital technologies.

Results and analysis. Digital technologies play a major role in distance education teaching and learning. Distance education refers to a teaching model that involves the use of digital tools and technologies to facilitate continuous communication between students and teachers, and to facilitate learning and teaching. The following concepts show how digital technologies can help in education and can be a solution to some extent to the above problems:

1. Video tutorials and web conferences: Teachers conduct video tutorials to students through Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, and other platforms. Through these platforms, students interact with their teachers online, ask questions, and complete assignments. Video lessons and webinars provide opportunities for students to review lectures and for instructors to practice with outside experts.

2. Electronic textbooks and e-books: Electronic textbooks and e-books are easily mastered for students. It contains text, images and multimedia materials and is used for interactive tutorials, tests and assignments. Interactive tutorials and online lectures are interesting and effective in their own right, and help to easily learn the approved information.

3. Learning Management: Digital technologies provide different platforms and tools for learning management. This makes it easy to upload and grade lessons, assignments, and tests.

4. Online Labs and Practices: Available time and resources are often provided with digital labs and practices for learning and practical work. It supports study materials for engineering, chemistry, biology and other subjects⁶. Digital databases and information systems make it easier for students to store, share, and retrieve information.

5. Regional educational platforms:

Online support and learning includes various forums, databases and personal connections to improve the experience of young research students. Online platforms make it easier for students to learn about a particular subject. These platforms allow students to practice or complete tasks on their own time.

6. Numerical Tests and Assessments: Students and teachers may conduct other tests or assessments. It helps students to assess their own learning and teachers to organize their learning better⁷. Digital technologies help monitor the learning process and analyze student data. This allows teachers to analyze their students' learning levels in depth and create supports.

7. Personalized learning paths for students: Digital technologies help students explore learning on their own, develop interests, and develop personalized learning paths.

8. Digital communication and real-

time feedback: Teachers and students can share ideas via email, social media or direct messaging to master real-time feedback⁸.

Digital technology has its own benefits of distance education, but it also includes many challenges, such as the share of the Internet, the use of devices and the reduction of the human component of education. To make digital education effective, teachers and learners need to support digital technologies properly and organize the curriculum well.

Conclusion. When using digital technologies in pedagogy, it is important to create a data system that facilitates student and teacher sharing, data presentation, facilitating learning, and teacher analysis and evaluation. Through the use of digital technologies, teachers and students can learn and teach more effectively.

HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI XORIJIY PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA SINGDIRISH

Zebiniso Mingjigitovna Abduraximova - tayanch doktorant, Samarqand Davlat universiteti

Annotatsiya: Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga umuminsoniy qadriyatlarni xorijiy pedagogik tajribalar asosida singdirish, umuminsoniy qadriyatlarning tavsiflanishi, tavsiflar bo'yicha harakatli o'yinlarning klassifikatsiyalarining nazariy asoslari yoritilgan.

АННОТАЦИЯ: В статье объясняется привитие общечеловеческих ценностей учащимся начальных классов на основе зарубежного педагогического опыта, описание общечеловеческих ценностей, а также теоретические основы классификации подвижных игр по описаниям.

Abstract: Inculcation of universal human values to elementary school students based on foreign pedagogical experiences, description of universal values, theoretical basis of classification of action games according to descriptions are explained by means of action games.

Kalit so'zlar: harakatli o'yinlar, qadriyatlar, xorij harakatli o'yinlari, jismoniy tarbiya, pedagogik ahamiyati.

Ключевые слова: подвижные игры, ценности, зарубежные подвижные игры, физическое воспитание, педагогическое значение.

Keywords: outdoor games, values, foreign outdoor games, physical education, pedagogical significance.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bolalarni nisbatan muhabbat uyg'otish, uyushqoqlik, jamoatchilik, mehnatsevarlik va jamoat oldida ishchanlik va boshlagan ishini oxiriga yetkaza o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash bilish xususiyatini tarbiyalash kerak. Buning hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo'yan jumladan, bolalarning sevimli o'yinlaridan birinchi kundan boshlaboq, unda mehnatga foydalanish ayni muddaodir.

⁶ Gamage, K. A., Wijesuriya, D. I., Ekanayake, S. Y., Rennie, A. E., Lambert, C. G., & Gunawardhana, N. (2020). Online delivery of teaching and laboratory practices: Continuity of university programmes during COVID-19 pandemic. *Education Sciences*, 10(10), 291.

⁷ Lin, M. H., Chen, H. C., & Liu, K. S. (2017). A study of the effects of digital learning on learning motivation and learning outcome. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 13(7), 3553-3564.

⁸ Heinze, A., & Procter, C. (2006). Online communication and information technology education. *Journal of Information Technology Education: Research*, 5(1), 235-249.

O'yinlar hayotdagi to'siqlarni yengish hamda har xil hislat va qadriyatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarning turli majmuasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, odatda, bolalar sevib o'ynaydigan, ularga baxt va quvonch baxsh etadigan musobaqa elementlari ham harakatli o'yinlarga kiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida shunday degan edilar: "Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir"¹. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya fan o'qituvchilariga umuminsoniy qadriyatlarimiz singdirilgan harakatli o'yinlardan maqsadli foydalanib, o'quvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni, e'tiborni kuchaytirmog'imiz lozimdir.

Mavzu doirasida ma'lumotlarni o'rganilganligi.

Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi dunyo uchun asosiy tushunchalardan biri bo'lib hisoblanadi. U jamiyat va xalqaro munosabat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar insonning individual va jamoaviy xulq-atvorini belgilaydi, xalqlarning urf-odatlarini va madaniyati asosida yotadi shu bilan birgalikda huquqiy qonunlarning manbaalari bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddima so'zlarida shunday yozilgan. Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning

umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz².

Darhaqiqat, Konstitutsiyamiz qonunlari ham inson erkinliklari, uning qadr-qimmatini, umuminsoniy qadriyatlarining ustunligi uchun xizmat qilar ekan, pedagog kadrlarimizning eng oliy maqsadi talim tarbiya jarayonida ana shu qonunlarimizni o'z faoliyatida shoir qilib olsa ayni muddao bo'lardi. Bugungi kunda 2023-2024 o'quv yili uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari Xalq ta'lim vazirligi xabariga ko'ra, yangi o'quv yilida respublika umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-sinfiga 700 mingdan ortiq bolalarni qabul qilish rejalashtirilgan. Bugungi kunga qadar 530 ming nafardan ortiq o'quvchi 1-sinfga qabul qilindi. Shundan xulosa qilish mumkinki, bu ko'rsatkich negizida pedagog kadrlarimizning oldidagi maqsad va vazifalari nechog'lik mas'uliyatli va mashaqqatlidir.

Ta'lim va tarbiya bu – umuminsoniy qadriyat. O'quvchilarning umuminsoniy va Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirish, ularni tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir. Umuminsoniylik bu barcha insonga xos bo'lgan, uning madaniy va milliy ko'p qirraliligidir, ya'ni, turli millat vakillariga hurmat, turli dinlar va boshqa madaniyatlarning o'ziga xosligini tan olish, qadriyatlarni hurmatlashni nazarda tutadi³.

Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarini singdirishda xorij harakatli o'yinlaridan foydalangan holda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

1. Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish texnologiyalarini falsafiy, tarixiy, nazariy tahlil etish hamda

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). 2023-yil <https://lex.uz/docs/-6445145>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

³ Axmedov F.Q. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Darslik Toshkent-2021-y. 317-bet.

pedagogik jarayonlarni takomillashtirish;

2. Umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiruvchi harakatli o'yinlar tasnifini shakllantirish va uni amalda tatbiq etish;

3. Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish texnologiyalarini takomillashtirish samaradorligini tajriba-sinov dasturi orqali tekshirish va asoslash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, modellashtirish, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment usullaridan foydalanildi.

Pedagogik tajriba. Tajriba dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini harakatli o'yinlar orqali takomillashtirishga qaratilgan. Tajriba sinov dasturida tadqiqotning metodologik asosi bo'lgan manbalarga tayanib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan his-tuyg'ularni singdirishni quyidagicha tasnifladik:

- vatanparvarlik;
- milliy iftixor tuyg'usi;
- jasurlik;
- mardlik;
- andishalik;
- ahillik;
- jamoaviylik tuyg'usi;
- rostgo'ylik;
- sabrlilik;
- sadoqatlilik;
- samimiylik;
- tinchliksevarlik;
- mehnatsevarlik;
- tabiatsevarlik.

Sanab o'tilgan umuminsoniy qadriyatlarining tasnifiga ko'ra harakatli o'yinlarning klassifikatsiyalari ishlab chiqildi. Ya'ni xorijiy harakatli o'yinlar misolida ahillik umuminsoniy qadriyatlarini o'zida aks etgan nemis xalqi harakatli o'yinlari⁴.

O'yin nomi. Birga turing. (nemis harakatli o'yinlari)

Davomiyligi: taxminan 5 daqiqa.

Jihozlar: jihozlar kerak emas.

O'yin tavsifi:

Ishtirokchilar polda aylana bo'ylab o'tirib, qo'llarini ushlab turishadi. Endi ular qo'llari bilan bir-birini yerdan turtmay, birga turishga harakat qilishadi. Shuningdek, ular tik turganlarida qo'llarini bir-biridan ajratishlari mumkin emas.

⁴ Maxkamjonov K. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya. Toshkent. «O'qituvchi» 2006 y. 140 b.

O'yinchilar bir-biriga bog'lanib, orqaga qarab turishga harakat qilishadi.

O'rningdan turganda gapirishga ruxsat berilmaydi.

Berilgan harakatli o'yin sodda bo'lishiga qaramay o'quvchilarni birdamlik, ahillik g'oyalari asosida tarbiyalash uchun xizmat qiluvchi ekanligi o'z aksini topgan.

Uch oyoqli futbol

Davomiyligi: 15-20 daqiqa

Jihozlar: Arqonlar, to'p, gimnastika skameykalar, lentalar.

O'yin tavsifi:

Birinchiidan, ikkita jamoa tuziladi. Ikkita ag'darilgan uzun skameykalar "darvozalar" sifatida asosiy chiziqlarga o'rnatiladi. Futbol soddalashtirilgan qoidalar asosida o'ynaladi. Yon chiziq ham, darvozabon ham yo'q. O'yin boshlanishidan oldin har bir jamoadan ikkita o'yinchi oyoqlari bilan bog'lanadi. O'yinchilar har doim juft bo'lib harakat qilishadi va ular yugurish paytida muvofiqlashtirishlari kerak. Muayyan vaqtdan keyin ko'proq gol urgan jamoa g'alaba qozonadi.

O'quvchilar bir-biriga bog'langan emas, balki qo'llarini ushlab turishadi.

Uch o'yinchi doimo bir-biriga bog'langan. Bu trioning to'rtta oyog'i bor.

O'yindan maqsad bolalar ongida hamkorlik, juftiga nisbatan hurmat, fikrning birdamligi tushunchalari aks etgan. Mana nima uchun Germaniya yer yuzida o'z mavqei va nufuzi jihatdan yetakchi o'rinlarda turishiga kichik bir sabab.



Muzqaymoqni tashish.

Davomiyligi: taxminan 10 daqiqa.

Jihozlar: konuslar, to'plar, kichik qutilar.

O'yin tavsifi:

Kichkina quti zalning boshqa tomonida teskari holatda joylashgan. Barcha o'yinchilar konusni olishadi va to'pni uzatish tartibini aniqlaydilar. O'yinning maqsadi to'pni teskari qutiga kiritishdir. Biroq, to'pni faqat konuslar bilan tegizish va uzatish mumkin. O'z konusida to'p bo'lgan odam u bilan harakatlanishi mumkin emas. O'quvchilar to'pni konusdan konusga yiqilib tushmasdan qutiga o'tkazishlari mumkinmi?

Bir-biriga qarshi o'ynaydigan bir nechta guruhlar tuziladi. Qaysi jamoa to'pni o'z qutisiga tezroq olib kiradi?

O'yinchilarning har biriga to'p aylana oladigan truba (taxminan 1 metr) beriladi. Endi kanallarni oqilona joylashtirish orqali to'pni qutiga aylantirishga harakat qiling. Xuddi shu qoidalar "muzqaymoq konuslarini tashish" uchun qo'llaniladi.

Uchar gilam.

Davomiyligi: 5-10 daqiqa.

Jihozlar: Gilam yoki tarpaulin.

O'yin tavsifi:

Barcha o'yinchilar gilam ustida turishadi. O'yinning maqsadi gilamni tark etmasdan aylantirishdir. O'yinchilar polga tegishi mumkin emas. Ular bu vazifani bajarish uchun strategiya ishlab chiqishlari kerak.

Raqamlari teng bo'lgan ikkita jamoa tuziladi. Qaysi jamoa topshiriqni tezroq bajara oladi?

O'quvchilarga gapirishga ruxsat berilmaydi

Harakatli o'yinni o'ynatishdan maqsad kelajakda katta marralarni zabt etishda shaxsiy fikrga ega bo'lish, o'zaro hamkorlik g'oyalarini singdirishdir.

Yaponiya (Nippon, Nihon) — Sharqiy Osiyoning Tinch okean sohilidan sharqda, kun chiqish tomondagi orollarda joylashgan davlat.

Yaponlar nega hamma joyni tozalab yurishadi? Nega ularda boshqa millat vakillariga nisbatan "Tabiatsevarlilik" umuminsoniy qadriyatlarini bunchalik kuchli shakllangan? Sport musobaqalaridan keyin yaponiyaliklar tribunallarni tozalab, chiqindilarni olib ketishgani, futbolchilar, sportchilar esa kiyim almashtirish xonasini yig'ishtirib, mezbongalarga minnatdorchilik xatini qoldirishgani holatlari tez-tez uchrab turadi. Nega shunday? Qatarda bo'lib o'tgan jahon chempionati ham istisno bo'lmadi. Yaponiyalik muxlislar Germaniya ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng tribunani tozalab, chiqindilarni yig'ishtirib ketishdi.

"Biz yaponmiz, shuning uchun chiqindi qoldirmaymiz. Biz bu joyni hurmat qilamiz", — dedi muxlislardan biri. Bunday misollar tez tarqaladi va dunyoni hayratda qoldiradi, garchi yaponlar uchun atrofni tozalash va saranjomlik g'ayrioddiy hodisa bo'lmasa-da. Ular atrof-muhit ozodaligini juda hurmat qilishadi.

Yapon dunyoqarashida muhim o'rinni poklanish egallaydi: ozodalik — yaxshi, ifloslik — yomon. Poklikka qarama-qarshi tomonda "kegare" turadi — u o'lim, kasallik va hayotning boshqa noxush hodisalarini o'z ichiga oladi. Ularning oldini olish uchun yaponlar ruhiy va jismoniy poklanishni muhim deb hisoblashadi.

Tozalash — maktabdagi o'quv jarayonining bir qismidir. Bolalar bu bilan olti-yetti yoshdan, birinchi sinfga borganidan boshlab shug'ullanadi. Sinfni tozalash ular tomonidan jazo sifatida qabul qilinmaydi, balki o'yin formatini oladi va odatga aylanadi. Bu odat uyda ham tozalik va tartibni saqlashni talab qiladigan ota-onalarning ta'siri bilan mustahkamlanadi. Shu tariqa, bola yapon jamiyatiga integratsiyalashib, o'zida mas'uliyat va o'zaro yordam tuyg'usini rivojlantiradi.

Ana shunday g'oyalar ostida "Axlat boulingi" nomli harakatli o'yinlar vujudga kelgan.

O'yin nomi: Axlat boulingi.

Jihozlar: Quti, axlatlar.

O'yin tavsifi. O'yin ochiq tabiat qo'ynida o'ynaladi. Masalan, maktab hovlisida. O'qituvchi tomonidan turli xil axlatlar turiga qarab ball bilan belgilanadi. Masalan:

plastik buyumlar — 5 ball;

polietilin buyumlar — 4ball;

turli xil qog'oz buyumlar — 3ball;

aniq turga oid bo'lmagan buyumlar — 2ball.

O'yin davomiyligi 15-20 daqiqani o'z ichiga oladi. 2-3 guruhga sinf o'quvchilari bo'linishadi. Berilgan maxsus qutiga start buyrug'idan so'ng turli xil axlat qoldiqlari keltirilib solinadi va vaqt yakunida ballar hisobi bilan g'olib jamoa aniqlanadi.

O'yindan maqsad. Yaponiyamadaniyatida jamiyat uyg'unligiga katta e'tibor beriladi. Bu milliy xususiyatdir. Atrof-muhitni toza saqlash tana va ruhni toza saqlashga tenglashtiriladi. Tabiatsevarlilik qadriyatlarini oliy darajada qadrlanadi va shu ruhiyatni bolalar ongiga ham tarbiya sifatida singdirgan xalqdir.

Biz o'z tadqiqotimizda, boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun umuminsoniy qadriyatlar

vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatishga e'tiborimizni qaratdik. Bu jarayonda kuzatilgan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarning tahlili, respondent o'quvchilar bilan tashkil etilgan savol-javoblar, so'rovlar, harakatli o'yinlar tavsifi mazmuni o'rganilib, kuzatishlarimiz natijalarini umumlashtirdik.

Bu jarayon 3 qismga ajratilgan holda o'rganildi:

1) Sinfdagi dars mashg'ulotlari.

2) Ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar.

3) O'quvchilarning mustaqil ijodiy-izlanuvchan faoliyati.

Keyingi ikki jarayon darsdan va maktabdan tashqari vaqtlarda bajariladigan tadbirlar tizimi bo'lib, ularda axloqiy-tarbiyaviy yo'nalish muhim o'rin egallaydi⁵. Tadqiqotimiz doirasida harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish texnologiyalarini takomillashtirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirib⁶, undan foydalanish bo'yicha boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya o'qituvchilariga tavsiyalar berdik.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi sxema asosida tashkil etildi: tajriba dasturini ishlab chiqish — dastlabki harakatli o'yinlarni

o'tkazish, xorijiy peagogik texnologiyalarini tajriba darslari sifatida qo'llash, ma'naviy — ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish — yakuniy suhbat va xulosalarni olish.

Tadqiqotimiz obyekti sifatida ikkita guruh nazorat (90 nafar) hamda tajriba (120 nafar) guruhlari shakllantirildi.

Umuminsoniy qadriyatlar — har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, sportida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida o'z ifodasini topadi. Xulosa qilib aytganda, umuminsoniy qadriyatlarimizdan "tinchliksevarlilik", "tabiatsevarlilik", "mehnatsevarlilik" kabi bugungi kunda eng keragi bo'lgan tuyg'ularni o'zimizning o'quvchilarimiz o'rtasida ommalashtirish vaqti keldi. Jismoniy tarbiya sohasi pedagog kadrlari ana shu qadriyatlarimizga asoslangan harakatli o'yinlardan dars, mashg'ulot davomida foydalanilsa jamiyat va kelajak uchun o'z hissalarini qo'shgan bo'ladi.

⁵ Egamberdiyeva N.M. Oila ma'naviy muhitining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish masalalari" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 30-sentabr 2021 y. — b 7-8.

⁶ Usmonxo'jayev T, Tolipjonov A, Meliyev X, Xotamov N. 500 Harakatli o'yinlar Toshkent "Yangi asr avlodi" 2014 y — b 304.

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI TARBIYALASHDA QADRIYAT VA E'TIQOD TUSHUNCHALARINING AHAMIYATI

Axmadjon Maxamadovich Umurzaqov - tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, yuksak axloqli yoshlarni tarbiyalashda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatining o'rnini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlaridagi ta'lim-tarbiya tahlili, yoshlarga oid davlat siyosatining amaldagi ijrosi, madaniy-ma'naviy merosni o'rganish va undan samarali foydalanish, yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirish va milliy ruhda tarbiyalashda e'tibor qaratiladigan falsafiy omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье реформы, реализуемые в сфере образования нашей страны, роль правового демократического и гражданского общества в воспитании высококонвентивной молодежи, анализ образования в ряде решений и указов Президента Республики Узбекистан, фактическая реализация государственной политики в отношении молодежи, изучение культурно-духовного наследия и его эффективное использование, развитие ценностного отношения молодежи к демократическим процессам, а также философские факторы, которые следует учитывать при воспитании ее в передается национальный дух.

Abstract: In this article, the reforms implemented in the field of education of our country, the role of legal democratic and civil society in the education of high moral youth, the analysis of education in a number of decisions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, the actual implementation of the state policy on youth, the study of cultural-spiritual heritage and its effective use, the development of axiological attitude of young people to democratic processes, and the philosophical factors that should be taken into account when educating them in the national spirit are given.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyat, demokratik jarayonlar, aksiologik munosabat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot, madaniy-ma'naviy me'ros, taraqqiyot strategiyasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, демократические процессы, ценностные установки, гражданское общество, социальное развитие, культурное и духовное наследие, стратегия развития, малый бизнес и частное предпринимательство, национальные и общечеловеческие ценности.

Keywords: intellectual potential, demokratik processes, axiological attitude, civil society, social development, cultural and spiritual heritage, development strategy, small business and private entrepreneurship, national and universal values.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimizning barcha sohalardagi intellektual salohiyatini yangicha dunyoqarash bilan o'zgartirib, yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga olib keldi. Bu jarayonda xalqimizning ma'naviy xotirasi qayta tiklandi, yoshlarning ijtimoiy faolligi zamon bilan hamnafas bo'lib, ma'naviy hayotning turli-tuman jabhalarida falsafiy omillari namoyon bo'la boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yoshlarimizga o'z ishonchini bildirar ekan: "Faqat zamonaviy bilim va kasb hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz, maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz"¹, - deydi. Bunday sharoitda yoshlardagi ijtimoiy faollikka qaratilgan tashabbus va g'ayrat, sabr-toqat va matonat, shijoat va ijodkorlik tuyg'ularini qo'llab-quvvatlash, yangi milliy komponentlarini rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Yurtimizda uzoq-yillar davomida qaror topib kelgan va shakllangan axloqiy tasavvurlar, ma'naviy ko'nikmalarni yoshlar ruhiyatida tiklash va yangi zamon

talablari asosida rivojlantirish katta ijtimoiy muammoga aylandi. Bu yo'lda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yurtimizda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) Qonuni (2016-yil 14-sentabr), 2017-yil 14-martdagi "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar - kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarining qabul qilinishi yoshlarimizning ijtimoiy faol qatlama aylanishiga xizmat qildi.

Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar negizida yoshlar va ularning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga qaratilgan falsafiy omillar aks etdi. Buning uchun "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi va unda yoshlar masalasi ham kun tartibiga qo'yildi. Prezidentimizning bu konseptual g'oyasi qanchalik to'g'ri va ulkan nazariy, metodologik ahamiyat kasb etganini ijtimoiy hayot tajribasi isbot qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati bevosita odamlarda, yoshlarda hayotga, o'z kasbi va mashg'ulot turlariga yangicha ijtimoiy munosabatning shakllanib borayotganidan, ijtimoiy faolligida yangicha o'zgarishlar sodir bo'layotganidan darak beradi. Yoshlarda o'z mehnat faoliyati, turi va mashg'ulot yo'nalishida ijtimoiy faollik bo'lmasa, tafakkur qonunlari asosida hayotga munosabat bo'lmasa ularning xatti-harakatlarida umidvorlik, samaradorlik va

shukrona mehnat jarayoni sodir bo'lmaydi.

Mamlakatning ijtimoiy sohalarini isloh qilishga qaratilgan tadbir va choralarning barchasi xalqimiz va yoshlarimiz hayotini, kelajagini go'zallashtirish, ma'naviy yuksaltirish, axloqiy tafakkuri, dunyoqarashi va ongi yuksak bo'lgan shaxslarni voyaga yetkazishga qaratilgan. Shu tarzda mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishida Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuning uchun ham yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini yuksak insoniylik tuyg'ulari asosida kamol toptirish, jahon tajribasi bilan tanishish kabilar shakllana boshladi. Shu bois jamiyat taraqqiyoti va yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirish, dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqiy tafakkurini vayronkor g'oyalar ta'siridan saqlab qolish muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi barcha iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy jarayonlar, islohotlar uchun nazariy asos bo'ldi va yoshlarning ijtimoiy faollikning oshishi, yangilanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Bu konsepsiya nafaqat millat va mamlakat ijtimoiy-tarixiy tajribasi, shuningdek, yoshlarga qaratilgan faollikning ijtimoiy amaliyotida Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ko'rsatilgan metodologik asoslar yangi va original konsepsiya namunasi bo'ldi. Bunda yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga qaratilgan va ilgari surilgan konsepsiya axloqiy tafakkurning ijtimoiy mohiyatini ochib berishda juda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu konsepsiya, bir tomondan, yoshlarning ijtimoiy faol qatlam sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishiga, ikkinchi tomondan esa, yoshlarning o'zlari xohlagan kasb-hunar egalari bo'lib yetishishiga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har bir millatning ma'naviy dunyosi, axloqiy o'g'itlari, huquqiy madaniyati, falsafiy merosi, siyosiy mentaliteti va boy ana'analarga uzviylashgan ijtimoiy faolligi alohida o'rin tutadi. Bular, o'z navbatida, ijtimoiy muhitning tarixiylik va haqqoniylikni saqlab qolishga, jamiyatda yoshlarni o'z "men"iga ega bo'lishga chorlaydi.

Mamlakatimizda har tomonlama rivojlangan, yuksak axloqiy madaniyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatining

¹ Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'lirizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston", 1-jild, 2018, 537-bet.

maqsadidir. Shu boisdan “yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo’lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g’urur va iftixor bag’ishlaydi”².

Bu borada jahon bilan hamnafas bo’lib, o’z oldiga qo’ygan maqsadlarini amalga oshirish yo’lida ildam qadam tashlayotgan O’zbekiston o’zining tarixi va o’tmish falsafiy merosiga asoslanib, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida ularni zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan boyitib, barcha sohalaridagi islohotlarda milliy o’zligini anglagan komil insonni kamol toptirishga intilmoqda. Barcha sohalarida bo’layotgan ijobiy o’zgarishlar, o’z navbatida, yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga, unda voqelikka nisbatan nafis his-tuyg’ularni, go’zal insoniy fazilatlarini, milliy va mafkuraviy qarashlarni zamonaviy ruhda shakllanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-ruhiy qiyofasi o’zgardi. Ularda dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg’unligi shakllandi. Bu jarayon ijtimoiy faollikni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda:

- insonning dunyoga kelganidan boshlab shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarning jamiyatimizda mavjud ekanligi;

- yoshlar va ularning ijtimoiy faolligi, sa’y-harakatlari uchun barcha shart-sharoitlarning qonun doirasida belgilab berilganligi;

- mehnatga bo’lgan munosabatda yangicha muhitning shakllanganligi va har kim o’z mehnatini qadrini o’zi baholay olishining imkoniyati yaratganligi;

- qadriyatlarini tiklanishi natijasida yoshlarning hayotga nisbatan yangicha dunyoqarashning shakllanganligi.

Yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishda, avvalo, mehnatning mohiyatini anglab yetish, jamiyatimiz ijtimoiy sohasidagi muammolarning yechimini izlab topish, ijtimoiy tafakkurimizda hayotni teran idrok etish, mustaqil fikrlay olish va ro’y berayotgan hodisalarni xolisona baholay olish qobiliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirish va milliy ruhda tarbiyalashda quyidagi falsafiy omillarga e’tibor qaratish joizdir:

1. Fuqarolik jamiyati g’oyalarini ijtimoiy faollik bilan uzviyligini ta’minlagan holda yoshlar dunyoqarashini ijtimoiy hayotga yo’naltirish, ularda ertangi kunga ishonch hissini milliy g’urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, elga hurmat tuyg’ulari bilan bog’lash;

2. Barcha davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan yoshlarning unumli foydalanish ko’nikmalarini shakllantirib, ijtimoiy faolligini ezgulik va nafosat tuyg’usi asosida qaror toptirish;

3. Yoshlarda barcha yer yuzidagi insonlarni millati, irqi, dini, tili, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, egallagan mavqeidan qat’iy nazar hurmat qilish, bahamjihat ijtimoiy faoliyat olib borishga qaratilgan dunyoqarashini shakllantirish;

4. Har bir ota-ona endigina dunyoga kelgan go’dakning qalbidagi sof hissiyatni ijtimoiy tafakkur va madaniyat ideallari bilan boyitib, unda musaffo tabiat havosidan boshlab, farovon turmush va go’zal hayot barpo etish hissiyatini milliy ruhda tarbiyalashi lozim.

Bunday omillarning barchasi ijtimoiy hayotimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarning mehnat faoliyati bilan hamohangligi, uyg’unligi, birligini ko’rsatadi.

Madaniy-ma’naviy merosni o’rganish va undan samarali foydalanish siyosiy, g’oyaviy, mafkuraviy ahamiyat kasb etayotgan hozirgi davrda yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirishga alohida e’tibor berish, sharq mutafakkirlari, olimlari va yozuvchilarining falsafiy, ijtimoiy-ruhiy qarashlarini tadqiq qilish, ularning tarixiy-falsafiy fanlar rivojiga qo’shgan hissalarini o’rganish, hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyoti oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirish masalalaridan biri joylarda bir xilda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o’rganilmayotganligidir. Aslini olganda, bunday faoliyat milliy qadriyatlarimiz bilan uyg’unlashgan holda uzoq tarixga borib taqaladi. O’zbek xalqi Markaziy Osiyoda eng boy va qadimiy iqtisodiy va ma’naviy merosga ega xalq, chunki uning ajdodlari uch ming-yil davomida mintaqaning eng qulay serhosil, serquyosh va sersuv qismini insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatining ulkan maskanlaridan biriga aylantirganlar, bizga meros sifatida o’nlab madaniyat va ma’rifat markazlari, minglab falsafiy, estetik,

adabiy, dunyoviy va ilmiy asarlar qoldirganlar. Xususan, Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”, Imom Ismoil Buxoriyning hadislar kitobi “Jome’ as-sahih”, Alisher Navoiyning “Avliyo ul-anbiyo”, Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibratning “Farg’ona tarixi” va boshqa nodir kitoblaridagi ijtimoiy faollik masalalari yoshlarimiz qalbidan ayni paytda chuqur joy olishi lozim³.

Umuman olganda, yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishda yangi texnika, texnologiya va fan yutuqlari, ayniqsa, zamonaviy mehnatga munosabat masalalari, ularning yaratuvchanlik qobiliyatlari ijtimoiy ahamiyatga molik jarayon hisoblanadi.

Jamiyat iqtisodiy hayotida institutsional, funksional o’zgarishlar insonni yanada bunyodkorlikka, innovatsiyalar yaratishga yo’naltirmoqda va iqtisodiy faollikni innovatsion estetik shakli, faollikni nazariy turlari shakllanishiga sabab bo’lmoqda. Yoshlarning faoliyati intensivlashib, birgina iqtisodiy faolligida ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, turizm sohasidagi yangiliklar sifatida namoyon bo’lmoqda. Qadimdan kishilarning madaniy-estetik qadriyatlar yaratishga intilishi xo’jalik yuritish, iqtisodiy ishlab chiqarish yoki ijtimoiy munosabatlar, real hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan. Ushbu ehtiyojlar inson iqtisodiy faolligining xarakterini, mohiyatini belgilab bergan, shuning uchun ham g’arbda yashagan xalqlar sharqda yashagan xalqlarnikidan keskin farq qiluvchi innovatsion iqtisodiyot, iqtisodiy-estetik boyliklar yaratganlar. Biroq, iqtisodiy-estetik qadriyatlar negizida insonning badiiy-estetik, ma’naviy, ruhiy ehtiyojlari ham yotishini unutmazlik kerak.

Xalqimiz farovonligini yaxshilashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiya va ishlanmalarning hayotga samarali tatbiq etilishi, ularning mualliflari va buyurtmachilariga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish, me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, innovatsiya va innovatsion infratuzilmalarning yagona vakolatli organini ta’sis etish, davlat byudjeti, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy qo’yilmalari, homiylik va xayriya mablag’lari hisobidan rivojlantirish harakatlar strategiyasining asosiy yo’nalishlaridandir. “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya

muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo’lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo’lmaydi. Bu sohada o’zgarishlarni xalqimizga keng targ’ib qilmasak, odamlarda ko’nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo’lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo’lishi kerak”⁴, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, jahon iqtisodiyotining tobora globalashuvi sharoitida O’zbekistonda milliy innovatsion ilmiy-texnika faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion strategiyani shakllantirish masalalari ilm-fan egalari hamda qonun ijodkorlarining diqqat markazida bo’lmog’i lozim.

Umuman innovatsion muhitni yaratilishi iqtisodiyotni tubdan o’zgarib, yangi shaklga o’tib borishidan dalolat beradi. Biror sohaga yangilik olib kirish, yangi turdagi mahsulotlarni bozorga olib chiqish va albatta, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yo’ldan borish bu davr talabidir. Asosiy innovatsiya turlari: texnologik-mahsulot, texnikaning ishlab chiqish yoki mavjudini mukammallashtirish va yangi mukammallashtirilgan texnologik jarayonlar; ijtimoiy (jarayonli) – inson turmush jarayonini yangilash (ta’lim, boshqaruv tizimi, xayriya, xizmat ko’rsatish); tashkiliy; marketing. Xususan, ishlab chiqarish va kichik biznesda innovatsiyalarni qo’llash deb, yangi ishlab chiqarish texnologiya va metodlarni yaratish, oxirgi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish va zamon talabiga mos hamda yanada ko’proq foyda ko’rish imkonini beruvchi metodlardan foydalanish tushuniladi⁵.

Innovatsiya bu iqtisodiy borliqni, texnologik borliqni, ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarni estetiklashuvdir. Jamiyatdagi yoshlarning endigi iqtisodiy faolligining innovatsioniyalar davridagi namoyon bo’lishi mehnat qilishdan tortib tovar belgisigacha bo’lgan bir butun estetik kompleksni o’z ichiga oladi. Yoshlarning yaratuvchanligi, ichki impulsi, me’yoriy-huquqiy himoya va moliyaviy tayanch yuksak marralarga yetkazadi. Yoshlarning innovatsiyalar bozori sharoitida mehnat yarmarkalari va yoshlar

3 X.Azimov Fuqarolik jamiyati sharoitida e’lmlarda demokratik islohotlariga aksiologik munosabatni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish omillari // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 8/5. – С. 296-302.

4 Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish – eng muhim vazifamiz // <http://uz.uz/politics/shavkat-mirziyoyev-khal-imiz-dunye-arashida-innovatsiya-mu-it-02-12-2017>

5 I.X.Ahmadjonov. Kichik biznes faoliyatining innovatsion rivojlanishi // *“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali*. № 1, yanvar-fevral, 2016 yil.

ijod saroylaridagi faolligini natijalari texnika estetikasi, atrof-muhit estetikasi, mehnat estetikasi, ishlab chiqarish estetikasi singari estetik faoliyatlarda namoyon bo'lmoqda.

Fuqarolikjamiyatini rivojlanishi sharoitida yoshlarning demokratik jarayonlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga, ularning ma'naviyatini yuksaltirishga, ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishga, ularni estetik ongi, dunyoqarashi va madaniyatini rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Nega deganda, "inson o'z taqdiri sohibiga aylandi, ijtimoiy farovonlik, erkinlik va ijodiy mehnat uchun mas'ul va javobgar, shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy erkin faoliyat yuritish kafolatiga ega bo'ldi"⁶. Buning oqibatida, birinchidan, yoshlarning mehnat va mehnat predmetlariga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi.

Ikkinchidan, yaqin o'tmishda inson tabiiy mohiyatidan butunlay begonalashtirilgan xususiy mulkchilik ruhiyati va unga egalik maqomi qaror topdi va faollik yuzaga keldi.

Uchinchidan, bu iqtisodiy faollashtirish jarayonida erkin tadbirkorlik va tashabbuskorlikning moddiy asosini tashkil qiladigan mehnatning xususiy, shu bilan birga, ijtimoiy mohiyati yanada yorqinroq namoyon bo'ldi.

To'rtinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatimiz hayotida yetakchi ijtimoiy maqomga aylandi. Endi yoshlarning iqtisodiy faolligi tufayli mehnat bilan xususiy mulkchilik va estetik omillarning uyg'unlashuvi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etib qolmadi, balki, yoshlarni iqtisodiy tarbiyasi, xususan uning estetik kamolotida asosiy vositaga aylandi.

Beshinchidan, hozirgi globallashtirish sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, uning estetik-tarbiyaviy, inson bilan sinkretik

salohiyatini saqlab qolish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bunyod etilayotgan yangi jamiyatimiz estetik tarbiyada atrof-muhitga gumanistik yondashishni, uning qonuniyatlaridan boxabarlik va moddiy boyliklaridan ratsional foydalanishni taqozo qiladi⁷.

Mamlakatimiz rivojlanishining, modernizatsiyalashuvining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida pedagogik kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini amal qilishiga erishishdir. Oliy ta'limning bugungi asosiy vazifalaridan biri talaba-yoshlarni kun sayin murakkablashib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Pedagogik oliy ta'limning samaradorligini oshirish va talaba-yoshlarning o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning tanlagan mutaxassisliklariga monand, mustaqil, chuqur bilim olishlarini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalariga yuqori malakali va o'z sohasidagi zarur bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan professor-o'qituvchilar kerak. Buning uchun pedagogika-psixologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda bilimlarini boyitib borish lozim.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ISLOHOTLARNING TAKOMILLASHUVI

Abror Jamolovich Idiboyev - tadqiqotchi, Jizzax viloyati yuridik texnikumi direktori

"O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir"

Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarning ayrim qoidalari haqida ma'lumot berilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlarning xususiyatlari, huquqiy tabiati, mohiyati va ahamiyati ochib berilgan bo'lib, konstitutsiyaga kiritilgan yangi o'zgarishlar huquqiy jihatdan tahlil qilib o'tilgan. Maqolaning xulosa qismida konstitutsiya davlatning demokratik tuzilishini belgilab qolmasdan, balki milliy davlatchilik takomillashib borishining asosi sifatida strategik huquqiy hujjat ekanligi asoslab berilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о некоторых положениях конституционной реформы в Узбекистане. Автором раскрыты особенности, правовая природа, сущность и значение изменений, внесенных в Конституцию Республики Узбекистан, а также проанализированы новые изменения, внесенные в Конституцию, с правовой точки зрения. В заключении статьи автор сделал вывод, что основной закон страны не только определяют демократическое устройство государства, но и является стратегическим правовым документом, на основе которого продолжает совершенствоваться национальная государственность.

Abstract: The article provides information on some provisions of constitutional reform in Uzbekistan. The author reveals the features, legal nature, essence and significance of the changes made to the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and also analyzes the new changes made to the Constitution from a legal point of view. At the conclusion of the article, the author concluded that the fundamental law of the country not only determines the democratic structure of the state, but is also a strategic legal document on the basis of which national statehood continues to improve.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, hokimiyatning uch tarmoqqa bo'linishi, saylov tizimi, hokimiyat, partiya maqsadlari, vakolatlari, Oliy Majlis.

Ключевые слова: Конституция, права человека, разделение власти на три ветви, избирательная система, власть, партийные сели, полномочия, Олий Мажлис.

Keywords: Constitution, human rights, division of power into three branches, electoral system, power, party goals, powers, Oliy Majlis.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijadorligini oshirish ko'p jihatdan yangilanishlarning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, jamiyat va davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Albatta, o'z yurti, davlati kelajagiga befarq bo'lmagan, katta ishlarga o'z hissamni qo'shaman, deb niyat qilgan har bir fuqaroning qalbiga bu kabi jarayonlarni kuzatish, ularda bevosita ishtirok etish o'zgacha g'urur hissini bag'ishlashi tabiiy.

Konstitutsiya davlatda huquqiy munosabatlar muvozanatini, qonuniy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy hujjatdir. Shu bois, Konstitutsiyani ilmiy mushohada qilish "Konstitutsiya mohiyati", "Konstitutsiya tabiati", "Konstitutsiya xarakteri", "Konstitutsiya intizomi", "Konstitutsiya xususiyati" kabi alohida tushunchalarni o'rganishni, bunda dunyo xalqlari urf-odat va an'analari, milliy o'ziga xosligi va mentaliteti, insonparvarlik va baynalminallik g'oyalarini targ'ib etishga xizmat qiluvchi jihatlarini kompleks tahlil qilishni taqozo etadi.

A.Saidovning ta'kidlashicha, "Hozir dunyoda konstitutsiyaga o'zgartirish kiritmagan birorta davlat qolmadi. So'nggi 25 yilda 100 dan ortiq davlatda konstitutsiyaviy islohotlar bo'ldi. Faqatgina XXI asrda 57 ta davlatda konstitutsiya qabul qilindi. Hozir dunyoda birorta davlat qolmadiki, unga o'zgartirish kiritilmagan bo'lsa. Hatto AQShda ham 27 ta katta-katta o'zgartirish

⁶ T.Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat. - Toshkent: Sharq, 2001. - 37 b.

⁷ У.Азимов. Факторы развития аксиологического подхода к демократическим реформам у молодежи в контексте гражданского общества на основе национальных ценностей // Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 8/5. - С. 296-302

kiritilgan. Mamlakatimizda davom etayotgan konstitutsiyaviy islohotlarda bundan buyon davlat siyosatining diqqat markazida inson, uning huquq va manfaatlarini, sha'ni va qadr-qimmatini bo'lishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, Konstitutsiyani davlatchilik taraqqiyotining bugungi tendensiyalari va dunyodagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirish zarurati paydo bo'lgan¹.

Ma'lumki, jamiyat hayotiga oid muhim masalalar yuzasidan o'zgarishlar qilishdan oldin xalq fikrini so'rash demokratiyaning muhim belgilaridan biridir. Dono xalqimizda "Kengashli to'y tarqamas" degan naql bor. Turli sohalardagi xalq vakillarining bildirgan fikrlari asosida shakllantirilgan qonunlarning esa "umri uzoq" bo'ladi. U.Shokirovning ta'kidlashicha, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yilganda ham aynan yuqorida aytib o'tilgan naqlga amalga qilingan. Qonun loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri 6 bo'lim, 155 moddani tashkil etgan².

Avvalambor, Asosiy qonunga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish masalasi anchayin murakkab va ko'p bosqichli jarayon ekanligini aytib o'tish joiz. Shu sababli bu kabi kengqamrovli masalalarni rejalashtirishda va amalga oshirishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmagani tahsinga loyiq. Qonun loyihasini tayyorlashda boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar qatorida, avvalambor, fuqarolarimiz tomonidan bildirilgan fikrlar asosiy o'rin tutdi. Xalqimiz o'zining hayoti va taqdiriga bevosita daxl qiluvchi masalalar yuzasidan faqatgina o'zi qaror qabul qilishi mumkinligini angladi. Xususan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2022-yil 25-iyun kuni "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarida, shu bilan birga "Mening konstitutsiyam.uz" elektron platformasida e'lon qilindi.

Fuqarolar o'z fikr-mulohazalari va takliflarini qisqa raqamli koll-markazi, pochta aloqasi, mahallalar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali berishlari yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yuborishlari yoki bevosita tashrif buyurgan holda

taqdim etishlari mumkin bo'ldi. So'ngra, tashabbuslarga xayrixohlik ko'rsatilib, umumxalq muhokamasi ketma-ket uzaytirildi. Muhokamalar davomida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan aholi va fuqarolik jamiyati institutlaridan 220 mingdan ortiq taklif kelib tushdi. Bunda har bir insonga o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkon berilgani, takliflarning fuqarolardan hech qanday to'siqlarsiz, ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz to'g'ridan to'g'ri qabul qilingani tahsinga loyiq.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzumu'dlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi³.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida quyidagi munosabatlar e'tiborga olindi:

- Yangi konstitutsiyada ilgari amal qilib kelingan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirildi;

- iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta'minlash bosh mezon etib belgilandi; "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan ezgu g'oya doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining o'ri va maqomi mustahkamlandi; oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash bo'yicha konstitutsiyaviy asoslar belgilandi; yoshlarning huquq va manfaatlarini to'la ta'minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi, huquq va burchlari o'z aksini topdi;

- "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyil konstitutsiyaviy qoida sifatida muhurlandi; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining

1 Saidov A. Yangi O'zbekiston hamda Konstitutsiyaviy islohotlar. "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati" nomli respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi. – Toshkent, 2022.

2 Shokirov U. (2023). Konstitutsiyaviy islohotlar – yangilanayotgan jamiyat talabi. https://www.uza.uz/uz/posts/konstitutsiyaviy-islohotlar-yangilanayotgan-jamiyat-talabi_474524

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2023 yildagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz

huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalari aks ettirildi;

- tabiatdagi global o'zgarishlarni hisobga olib, ekologiyaga oid maxsus boblar kiritildi;

- Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasi bo'lmish bog'cha, maktab, oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish masalalari mustahkamlandi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasi o'laroq, yangi konstitutsiyaning 1-moddasi, 1-bandida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi belgilandi⁴. Ilgari bu kabi qoida Konstitutsiyamizda mavjud bo'lmagan edi. Yana O'zbekiston "ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi ko'rsatilmog'da. Ya'ni, endilikda mazkur normalar talablaridan kelib chiqib, barcha islohotlarda inson manfaatlarini ta'minlash bosh mezon bo'ladi va davlat fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini biror bir shartlarsiz bajarish majburiyatini zimmasiga oladi.

Konstitutsiyaning 15-moddasi 2-qismida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi", degan normaning belgilanganligi huquqni amalda qo'llovchilar uchun kutilgan yangilik bo'lib, asosiy qonun normalarining jamiyat hayotiga yanada kengroq va chuqurroq kirib borishiga imkon yaratadi.

M.Rustamboyevning ta'kidlashicha, Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid normalar salmog'i sezilarli darajada ko'paygan bo'lib, ular xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga to'la mos keladi. Jumladan, konstitutsiyaning 27-moddasida "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga

olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart", degan muhim normalarni aks ettirmog'da⁵.

Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlarivaerkinliklarikafolatiengilg'orxalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosiligi sudda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi ("Xabeas korpus" instituti) hamda shaxsni ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda qoidalari"), shuningdek, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi belgilanmog'da. Ushbu qoidalar shaxsiy erkinlik daxlsizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot konstitutsiyamizda belgilangan qoidalar asosida, eng avvalo, xalq uchun, uning manfaati uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko'ramiz. Konstitutsiya xalqimiz hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo'lish, ta'lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so'z hamda e'tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tardi.

4 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. www.lex.uz.

5 Rustamboyev M. (2023). Inson qadri va xalq manfaatlarini aks ettirilgan bosh qonun. <https://www.uzbekistan.org/uz/konstitutsiyaviy-islohotlar/107-yangiliklar>.

YOSHLAR IJTIMOYIY MANFAATLARINI TA'MINLASH MILLIY YUKSALISH MEZONI

Ja'farxon Isaxonov - tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda milliy yuksalish sharoitida yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan takomilga yetishini ta'minlash borasida g'amxo'rlik qilinish, muhim chora-tadbirlar olib borilayotganligi borasida ilmiy mushohadalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье приводятся научные наблюдения о том, что в условиях национального прогресса в нашем обществе принимаются важные меры по обеспечению социального и духовного развития молодежи.

Abstract: In this article, scientific observations are made about the fact that important measures are taken to ensure the social and spiritual development of young people in our society in the conditions of national progress.

Kalit so'zlar: jamiyat, milliy yuksalish, yoshlar, ma'naviy takomil, g'amxo'rlik, globallashuv, ijtimoiy taraqqiyot, fuqarolik jamiyati, bunyodkorlik.

Ключевые слова: общество, национальный рост, молодежь, духовное развитие, забота, глобализация, социальное развитие, гражданское общество, творчество.

Keywords: society, national growth, youth, spiritual development, care, globalization, social development, civil society, creativity.

Jamiyatimizda milliy yuksalish sharoitida yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan takomilga etishini ta'minlash borasida kuchli va tizimlashgan asoslarda g'amxo'rlik qilinish, muhim istiqbolni ko'zlagan dasturiy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz o'zining ijtimoiy taraqqiyotga, milliy yuksalishga bo'lgan moyilligi va ma'naviy salohiyati bilan yangi O'zbekistonni barpo etishda ishtirok etmoqda. Bu esa, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda istiqbolga mo'ljallangan yangicha bunyodkorlik an'analari vujudga keltirilmogda.

Jamiyatimizda mazkur bunyodkorlik an'alarining samarali natijasi inson huquqlarini kuchli himoyasi va uning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashda ko'rinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasi yaratilmoqda. Bu borada Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya biz uchun dasturilamal

bo'lib xizmat qilmoqda"¹.

Inson ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash jahonda umume'tirof etilgan huquqiy tamoyillarda aks etgan. Unda inson hayoti, turmush tarzi va farovonligi uchun xizmat qiladigan huquqiy qadriyatlar mujassamlashgan. 1966-yilda xalqaro miqyosda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Pakt qabul qilingan. Unda fuqarolarning bu sohaga daxldor huquqlarining umumiy tizimi keltirilgan. O'zbekiston "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt"ga 1995-yilda qo'shilgan².

Mazkur Paktni tan olgan va unda ishtirok etayotgan davlatlar o'z hududida har bir insonning o'zi va oilasi uchun yetarli turmush darajasini hamda ularning turmush sharoitlarini kafolatlash va doimiy yaxshilab borishni o'z zimmalariga oladilar. Spuning uchun, "Paktida mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqi, mehnat uchun adolatli ish haqi olish; kasaba uyushmalari tuzish va ularga kirish huquqi, ijtimoiy ta'minot, yetarli turmush darajasi huquqi, ochlikdan holi bo'lish, sog'liqni saqlash va bilim olish huquqlari e'tirof etilgan. Paktida har bir insonning o'z iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish uchun kasaba uyushmalari tuzish hamda o'z

ixtiyori bilan ana shu uyushmalarga kirish huquqi mustahkamlangan"³.

Inson huquqlari, xususan, yoshlar manfaatlarini ta'minlash milliy huquqiy normalarimizda muhim ijtimoiy masala sifatida ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yoshlar huquqlarini himoya qilishda oliy yuridik kuchga ega hujjat bo'lib, unda barcha fuqarolarga taalluqli me'yorlardan tashqari, aynan yoshlarga tegishli bo'lgan qoidalar ham mavjud. Jumladan, uning 79-moddasida "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi", deb belgilab qo'yilgan⁴.

Shuningdek, 78-modda "Farzandlar o'tanasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"⁵, deb ta'kidlangan.

Jamiyat ijtimoiy hayotida asosiy qatlam bo'lgan yoshlarning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Jamiyatning barcha sohalarida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tizimlarda o'zining hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan salohiyati bilan ishtirok etadigan yoshlar bugungi kunda milliy yuksalishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Chunki bu jarayonlarda yoshlar imkoniyatlari yuqori bo'lib, ular o'zlarining intellektual qobiliyati, innovatsion tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ishtirok

etib, jamiyatda taraqqiyotga oid yangicha qadriyatlarini vujudga keltiradilar.

Shu mazmunda "Islohotlar markazida insonni oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarning mazmun-mohiyati ham inson va uning qadr-qimmatini ekanligi bilan hamohangdir. Xolbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat mohiyatiga ko'ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularni milliy darajada namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi"⁶.

Yoshlarning jamiyatda muhim ijtimoiy qatlam sifatida huquq va manfaatlarining ta'minlanishi, jamiyatda ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan o'zaro bog'liq. Bu esa, yoshlarning ijtimoiy hayot va uning takomiliga o'zgacha joziba beradigan, kuch bag'ishlaydigan muhim manba ekanligini anglatadi. Yana bir narsani hisobga olishimiz kerakki, globallashuv, ilmiy va texnologik taraqqiyot ta'siri ostida yoshlar faravonligi shakllari o'zgaradi, uning jamiyatdagi xatti-harakatlariga bog'liq ravishda ijtimoiy hayotdagi o'zni aniqlanadi.

Yoshlar manfaatlarini ta'minlash davlatimiz siyosatining eng muhim, ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Olimlarning ta'kidlashicha, "Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi, chunki mamlakat aholisining 18 yoshdagilar soni 40 foizni, 30 yoshgacha bo'lganlar 64 foizni tashkil etadi"⁷.

Jamiyatda yoshlar moddiy manfaatlarini ta'minlanishi ko'proq uning ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ijtimoiy ehtiyojlar yoshlarning hayotdan qoniqish hissini shakllantiradigan ma'naviy qadriyatlarni vujudga keltiradi. Ijtimoiy ehtiyojlar juda xilma-xildir: tadbirkorlik va iqtisodiy munosabatlar, o'z atrofidagilar bilan chuqur do'stlik o'rnatish, kasbiy rivojlanish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilish, odamlarni baxtli qilishga intilish, jamiyatga va uning a'zolariga hurmat qobiliyatini shakllantirish, muhtojlarga yordam berish va boshqalar.

3 Хусанов О., Каримова О. ва бошқ. Инсон ҳуқуқлари (махсус курс). – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 64.

4 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. 79-модда. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

5 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. 78-модда. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

6 Курунов М., Мирзаев Ф. ва бошқ. Ободлик кўнгиладан бошланади. – Тошкент: Сино-стандарт, 2013. – Б. 47.

7 Муҳаммаджонов О., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистонда Ёшлар ҳуқуқи: қонун ва имтиёзлар. – Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 3.

Milliy yuksalish sharoitida yoshlar qatlami ishtirokining muhim xususiyat ekanligini hisobga olib, ularning hayotiy muhim manfaatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy muammolarini yechish, ularga munosib ish sharoitlarini yaratib berish borasida innovatsion takliflar:

- jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy qatlami bo'lgan yoshlarni ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashning innovatsion jarayonini tashkil etish va bu jarayonda ularning innovatsion tafakkuri, innovatsion resurslari, innovatsion tashabbuslari, innovatsion salohiyatini rivojlantirish;

- mahallalarda istiqomat qilayotgan vaqtincha ishsiz hamda uyushmagan yoshlarni kasbga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan "Tadbirkor – yurt tayanchi" mehnat

yarmarkalarini tashkil etish, uyushmagan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida "Tomorqam – mening boyligim" tanlovini o'tkazish;

- uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida qishloq va mahallalarda sport klublari (fitnes, trenajyor zal, tennis, futbol maydonchalari, suv havzalari, shaxmat-shashka)ni tashkil etish va yoshlarni jalb etish;

- tumanlarda, tuman va qishloq markazlarida yoshlar madaniy hordiq chiqaradigan zamonaviy innovatsion madaniy maskanlar, parklar, konsert zallari, kinoteatrlar tashkil etish, mahallalardagi uyushmagan yoshlar uchun "Ko'chma yoshlar teatr studiyalari" tashrifini tashkil etish.

ISLOMIY QADRIYATLAR SHAXS MA'NAVIY EHTIYOJI SIFATIDA

Muhammad Yoqub o'g'li Sultonov - tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda muqaddas islom diniga yurtboshimiz va xalqimiz tomonidan yuksak e'tibor qaratilib kelinmoqda. Islom dini va uning qadriyatlarini yanada mustahkamlash, muqaddas dinimiz va uning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini oshirish, yurtimizda sog'lom e'tiqodni shakllantirish va uning yoshlar ongiga singdirish, ilm-fan rivojida islom qadriyatlarining o'rne va ahamiyatini yoritish, muqaddas dinimiz islomda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning aks etishi, shaxs ma'naviyatining shakllanishi bayon qilingan.

Аннотация: Сегодня священная религия ислам высоко ценится нашим Президентом и народом. Дальнейшее укрепление ислама и его сущностей, повышение роли нашей священной религии и его духовной жизни, формирование здоровой веры в нашей стране и привитие ее в умах молодых людей, подчеркивание роли и важности исламских учений в развитие науки. Отражение наших национальных и общечеловеческих ценностей в исламе, формирование духовного образа личности определяется как основная цель и задача исследования.

Abstract: Today, the holy religion of Islam is highly valued by our President and people. To further strengthen Islam and its values, to increase the role of our sacred religion and its spiritual life, to form a healthy faith in our country and inculcate it in the minds of young people, to highlight the role and importance of Islamic teachings in the development of science. The reflection of our national and universal values in Islam, the formation of the spiritual image of the individual is defined as the main goal and task of research.

Kalit so'zlar: islom, qadriyat, islomiy qadriyatlar, ma'naviy ehtiyoj, diniy – axloqiy meros, imyon-e'tiqod, mehr-muruvvat, saxovat, ixlosmandlik, mas'uliyat, ilmiy meros, axloqiy meros, insonparvarlik, bag'rikenglik va boshqalar.

Ключевые слова: ислам, ценность, исламские ценности, духовная потребность, религиозно – этическое наследие, вера-вера, доброта, щедрость, преданность делу, ответственность, научное наследие, моральное наследие, гуманность, терпимость и т.д.

Keywords: Islam, value, Islamic values, spiritual need, religious and ethical heritage, faith-faith, kindness, generosity, dedication, responsibility, scientific heritage, moral heritage, humanity, tolerance, etc.

Inson o'zining jamiyatdagi o'rnini uchun unga oddiy mushohadaning o'zi yetarli muayyan millat vakilligini anglab yetishi bo'lmaydi. Balki buning uchun o'z ajdodlarining

tarixini, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qoldirgan boy ilmiy merosini, hayotiy tajribalarini, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni puxta o'rganib, o'z hayotiy faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Buning uchun esa jamiyatimiz kishilarida yuksak milliy ong, istiqbol va istiqbolga qat'iy ishonch, e'tiqod, imyon, ajdodlar merosiga chuqur hurmat va unga ixlos qo'yish, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik kabi axloqiy qadriyatlar kamol topmog'i ham zarur.

Binobarin, milliy merosimizning g'oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda. Olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalar sirasidan o'rin olib kelmoqda¹. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs kamoloti va manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda, mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Demak, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik, milliy-ma'naviy merosni o'rganishning amaliy ahamiyatini asoslab beradi. Zero, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning insonni ma'naviy-axloqiy yetuklikka chorlovchi ta'limotlari bugungi istiqbolimizning oltin poydevori, madaniyatimiz va ma'naviyatimizning, g'oya va milliy mafkuramizning tag zaminidir.

Shu bois, "Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olim-u fuzolalarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor"².

Zotan, Turon zamin-u Turkistonda qadim-qadimdan shakllanib, rivojlanib kelgan milliy qadriyatlar, madaniy-ma'naviy an'analar va tamoyillarga, qolaversa, bashariyatning o'tmish davrlaridagi va hozirgi zamonaviy bilimlari, yutuqlari, an'alariga asoslanganligini, shuning uchun ham uning ildizlari nihoyatda baquvvatligini ko'rsatib turibdi.

Har bir tarixiy davr konkret sharoit, ehtiyoj va imkoniyatlar bilan taqozo qilingan holda ma'naviyatning yangi shakllarini va mezonlarini yaratadi. Bu mezonlar qandaydir bir sun'iy qoida emas, balki tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida inson kamolotining yangi yo'nalishlariga bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarining ifodasidir.

Ehtiyoj bo'lmagan joyda hech qanday taraqqiyot va yuksalish bo'lmaydi. Ehtiyojning

o'zi ham ma'naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni yuksak darajada shakllangan ehtiyoj bu hoyu-havas emas, balki zaruriy, anglashilgan kelajakka qaratilgan ehtiyoj nazarda tutiladi. Bu o'zaro ta'sir jarayoni har bir davr xususiyatiga ko'ra shaxsda ma'naviyatga va ma'naviy merosga ixlosmandlik ehtiyojini ham yuzaga keltirishi tabiiy.

Ma'naviy kamolot ehtiyojlarini qondirish jarayoni shu yo'sinda amalga oshirilaveradi. Ehtiyojning shakllanishi obyektiv muhit ta'siriga asoslansada, uni ro'yobga chiqarishning yo'llari insonning faoliyatiga asos bo'lgan uning ma'naviy olamiga bog'liq. Har bir shaxs o'zining ehtiyojlarini imyon, e'tiqod, manfaat, dunyoqarashidan kelib chiqib amalga oshiradi. Bu xususdagi masalalarni o'rganish jarayonida kishining ixlosmandlikka undaydigan motivlardan biri, uning imyon-e'tiqodi ekanligi shaxs va har bir alohida insonning o'z o'tmishiga vijdonan munosabatda bo'lishi bilan bog'liqligini nafaqat bizda, hatto xorijdagi mutaxassislar ham xuddi bizning mentalitetimizga xos tamoyillar asosida yondashilganligini guvohi bo'lamiz. O'z xulqi, xatti-harakatlari haqida fikr qiluvchi individ uchun yagona rahnamolik qiluvchi birdan bir tamoyil uning vijdonidir.

Uning uchun vijdon bu haqiqat, oxirgi instansiyadir, uni o'zgartirish o'z-o'zini axloqiy jihatdan o'ldirish bilan barobar³, – deb yozgan edi ingliz ruhshunosi Charlz Xarton. Holbuki vijdon barcha insoniy faoliyatlarni tartibga solib turuvchi ma'naviylik mezonidir. Bas, shunday ekan, ajdodlarimiz an'analar, boy ma'naviy merosiga munosabatda ham vijdoniylik va ma'suliyat yetakchilik qilishiga ishonmoq zarur. Sharq, xususan, Turon zaminida ham bu xususda qimmatli ma'naviy meros qoldirilganligi barchamizga yaxshi ayon. Xususan, Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqiy Muxsiniiy" asari biz tadqiq etayotgan masalalarning deyarli barcha tomonlariga dahldor muammolarni o'z ichiga olganligi bilan g'oyat muhimdir. Jumladan, Koshifiy yozadi: "Vijdoni, nomusi, diyonati bo'lmagan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya'ni yaxshi odam vijdonlidir"⁴.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, komil e'tiqod va sof vijdon insonparvarlik ruhi, yuksak burch va fazilatlar bilan bog'langandagina u imyon darajasiga yetadi, imyon, e'tiqod, vijdon, insof inson qalbida chuqur tomir otgan ma'naviyatdir.

Harbirkishining alohida shaxsdamuyayyan bir moddiy yoki ma'naviy omillar ehtiyoji yuzaga kelar ekan, ana shu ehtiyoj zamirida u qondiruvchi subyekt sifatida unga ixlos hamda

¹ Mirzayeva M. Yoshlar va milliy meros. «Mulokot» jurnali 6-soni, 2001, 27 b.

² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-Kitob. Toshkent: O'zbekiston 1996, 41b.

³ Кули Ч.Х. Человеческая природа и социальный порядок. «Дом интеллектуальных книг» М.2000 г. с.262

⁴ Maxmudov R. «Degonimni ulusga margub et». Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1992, 56 b.

ixlosmandlik paydo bo'ladi. Shaxsiy ehtiyojlar keng ma'noda tarkiban moddiy, ijtimoiy va an'anaviy faoliyat jarayonidan bir muncha farq qiladi. Gap shundaki, qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar har bir odamda moddiy ehtiyojlar bilan birga ma'naviy ehtiyojlar ham mavjud.

Ma'naviy ehtiyojlarning muhim ko'rinishlaridan biri ham baxtli hayot orzusidir. Agar ma'naviy ehtiyojlar ijtimoiy nuqtayi nazardan tasnif qiladigan bo'lsak, ular mafkura va madaniyat shaklida ko'zga tashlanadi.

Shu bois ajdodlar merosini o'rganishga bo'lgan ixlosmandlikning kuchayib borishi shaxs ma'naviyati hamda dunyo qarashini boyitishga, ularni yurtboshimiz ta'kidlagan uch buyuk qadriyat: axloq-odob ma'naviyat hamda ma'rifat asosida tarbiyalashga samarali ta'sir o'tkazadi.

Chunki, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan meros, xususan, diniy va axloqiy manbalar tom ma'nodagi ilmiy va ma'naviy xazinadir. Binobarin, qadimgi madaniy merosimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bo'lmaganda, hozirgi turmush tarzi ham bo'lmas edi. Shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan xalq an'nalari ajdodlarimizning diniy va axloqiy merosidagi boy manbalar jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan buyuk hissa bo'lib hisoblanadi. Uning ko'p tomonlari mahalliy qobg'idan chiqib, xalqaro ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalqining milliy diniy an'analari, axloqiy merosi avloddan avlodga, bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelmoqda va yoshlarni tarbiyalashda katta rol o'ynamoqda.

Zero, o'rta asrlar ma'naviy taraqqiyoti hozirgi musulmon xalqlari tafakkurida ham ayrim g'arb olimlari qarashlarida ham islom mafkurasining insonparvarlik bag'rikenglik universalizm barcha xalqlarga va ijtimoiy hodisalarga insonni qadrlash yaxshilik va ezgulikni himoya qilish mezoni sifatida yondashuvning tusi-dini tili va irqi turlicha bo'lgan xalqlarning hamjihatligi va o'zaro hamkorligida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Bir so'z bilan aytganda, diniy axloqiy merosga ixlosmandlik unga vorislik hissini chuqur anglash, barcha sohalarda "yetti o'lchab bir kesish", oqilona faoliyat yuritish bizning kundalik ehtiyojimizga aylanmog'i kerak.

Aql bilan ish ko'rmaslik esa millatning tarixiy asrlar davomida yaratgan ma'naviy boyliklarining taqdirini noxush holatga olib keladi va qadrsizlantiradi. Bu esa diniy, axloqiy tamoyillardan biri bo'lgan insonparvarlikning yemirilishiga imkoniyat yaratadi. Oqibat natijasida jamiyatda ijtimoiy manfaatlar bilan milliy qadriyatsizlik o'rtasida chuqur jarlik vujudga keladi. Qadriyatlar yemirilishining

ijtimoiy tus olishi shu millatning faqat ma'naviy qashshoqlanishiga olib kelmasdan, balki oddiy qashshoqlanishiga ham olib keladi, jamiyatda ishonch susayadi, ishonchning susayishi esa e'tiqodni yo'qotadi. Natijada jamiyatda insonparvarlik va mehr-shafqat tushunchalari insoniy hissiyotdan uzoqlashtiriladi⁵.

Endilikda esa biz dunyoni yangi ko'z bilan ko'rish uni yangicha tafakkur bilan idrok etish jarayonlari ichra ulg'ayib boryapmiz. Bugun yo'qotilgan barcha qadriyatlarni ro'y berilgan madaniy va ma'naviy boyliklarni qaytadan to'plash qadimgi turon zamin an'analarni o'z milliy qifoyasi bilan jahon xalqlari sifatida munosib o'rinni olishdek g'oya t murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirmoqdamiz. Zimmamizda yillar davomida yo'l qo'yilgan ulkan xatolar va kelajak oldidagi qarzdorlikning zarvorli yuki bor. Biroq buyuk ajdodlarimiz qoldirgan me'rosni qayta tiklash o'zligimiz insoniy his tuyg'ularimizni sha'nimiz va oriyatimizni himoya qilishga uni hamisha baland tutishga tug'ilganning o'zi barcha mashaqqatlardan ustunroqdir. Qalbida millat, Vatan ajdodlar oldidagi burch tuyg'ulari qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, o'zligini anglashga diniy qadriyatlarini tiklashga shunchalik ko'proq ehtiyoj seziladi.

Bu ehtiyojlar, o'z navbatida, jamiyatimiz kishilarining tafakkuri aqli hamda siyosati bilan uyg'unlashsagina milliy diniy hamda axloqiy merosga munosabat tubdan o'zgaradi. Ya'ni uni o'rganishga ixlosmandlik darajasi ortadi. Binobarin, inson aql eshik ochuvchi axloq yo'l ko'rsatuvchidir. Yetuk axloq va odob insonning ziynati davrlar fazilatidir. Aqlli kishi axloqli bo'lsagina xalqiga, mamlakatiga, yor-u do'stlariga naf keltiradi. Fikrimizning dalili sifatida buyuk mutaffakir Alisher Navoiyning ibratli hayoti va ijodini misol qilib olishimiz mumkin.

Bugungi kunda biz buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosidagi, amaliy faoliyatidagi mana shunday insonparvarlik tamoyillarini bunyodkorlik g'oyalarini o'rganib borish aslida o'zimizda bu jarayonlarga nisbatan oqilona ehtiyojlarni shakllantira borishimiz kerak. Chunki xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosidan odob-axloq ta'lim tarbiya borasidagi an'analardan, maqollaridan, hikmatli so'zlaridan qanchalik samarali oqilona va ijodiy foydalansak, o'zbeklarning madaniy, ma'naviyati, mafkuras chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini anglab olish borasidagi shunchalik samarali natijalarga erishamiz. Jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning insonni ma'naviy-axloqiy yetuklikka chorlovchi ta'limotlari bugungi istiqlolimizning oltin poydevori

5 Boyto'rayev T. O. Insonparvarlik va ma'naviy qadriyat haqida ba'zi mulohazalar. Gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy fanlar sohalarining muhim masalalari oily o'quv yurtlari ilmiy ishlar to'plami T. 2001. 65-b.

madaniyatimizning mafkuramizning tag zaminidir.

Demak, ajdodlarimizning madaniy dini, ilmiy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Holbuki, ma'lum salbiy hodisalar sobiq tuzum mafkuras tazyiqida qadrsizlantirilib yuborilgan insonparvarlik tamoyillari diniy axloqiy mezonlari, takomillashuviga ijobiy ta'sir o'tkaza olmay qolgan edi, to'g'rirog'i uni hayotbaxsh ta'sirchan kuchi yo'qqa chiqqan edi.

Ayniqsa, bu holat inson faoliyati, maqsad va intilishlariga ruh bag'ishlaydigan imon-e'tiqodga salbiy ta'sir o'tkazadi. Chunki diniy axloqiy tarbiya omillari turmushimizdan majburiy tarzda siqib chiqarilgan edi. Adabiyoshunos olim G'aybulloh As-Salomning chiroyli tashbehiga ko'ra: "Xusdoni dinni inkor etish nuqtasidan boshlab yalpi axloqsizlik yemirilishi, vaxshiyliklarga yo'l ochildi"⁶.

Xuddi shuning uchun ajdodlar diniy - axloqiy merosini chuqur o'rganish talab etilmoqdaki, u bizni gumrohlikdan xabarsizlikdan va jaholatdan saqlaydi. Ma'naviy omillarga g'oyaviy jarayonlarga anglab olingan oqilona ehtiyojning yuzaga kelishiga olib keladi, chunki ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosda barcha ajdodlarimiz uchun kesak

bo'ladigan ajoyib ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyot uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan emas⁷.

Boshqacha aytganda jamiyat, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy kuch-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriyatlari bilan belgilangan ma'naviyat bilan mushtaraklangan ehtiyojdir. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo'la olganidek, ma'naviy kamolotning har bir bosqichi konkret davrlarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi⁸.

Ma'naviyat chashmasini dam izlash inson kamolotini belgilovchi ehtiyoj, hayotning maqsad va mazmunidir. Bu chashma ko'zi esa ajdodlarimiz diniy, axloqiy hamda madaniy merosini muntazam o'rganib borish asosidagina ochiladi.

Xulosaqilib aytganda, islom qadriyatlariga ma'naviy ehtiyojning o'sib borishi undagi imon, e'tiqod, mas'uliyat, ruhiy va ma'naviy o'zlikni anglash, oilani qadrlash, mehr-muruvvat, saxovat, insonparvarlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik kabilarning ma'naviy uyg'onish va yuksalish hodisalari bilan uzviy aloqadorligi bilan ham xarakterlanadi.

ABDULLA ORIPOV –RUHIYAT TADQIQOTCHISI

Nuriniso Rahimovna Umarova - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Oripovning vafotidan so'ng chop etilgan "Shoirning tug'ilishi" she'riy to'plamiga kiritilgan she'rlarida insonning ruhiy holati, qalb kechinmalari yoxud o'zbek xalqiga xos bo'lgan qadriyatlar tasviri haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье речь идёт о великом представителе узбекской литературе – Абдулле Орипове, его поэтическом сборнике "Рождение поэта" опубликованном после его смерти, в котором раскрыты душевные переживания, духовные мир и ценности узбекского народа.

Abstract: This article defines the mental state of a person, the experiences of the heart, or the unique characteristics of the Uzbek people in the poetry collection named "The Birth of a Poet" by one of the leading representatives of Uzbek literature, Abdulla Oripov which is published after his death.

Kalit so'zlar: inson, ruhiy olam, kechinma, tuyg'ular, dard, alam, vafo, holat.

Ключевые слова: человек, духовный мир, мышление, опыт, чувства, боль, верность, состояние.

Keywords: human, spiritual world, thoughts, experience, pain, grief, feelings, situation.

Adabiyotning asosiy o'rganish obyekti insondir, uning ruhiy olamini tadqiq etish bosh maqsad hisoblanadi. Ijodkorlar inson ruhiyati manzaralarini faqat o'ziga xos, boshqalarga o'xshamagan tarzda tasvirlaydi, chunki har bir yozuvchi-shoirning ijodiy "men"i, o'z ruhiy olami, e'tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlar turlicha bo'ladi, zero, dunyo, olam turfa xil, rang-barang bo'lgani kabi ijodkor olami, dunyosi ham aynan takrorlanmas,

6 G'aybulloh As-Salom Tolibnoma T. "Sharq" 1997, 140-141-b

7 Mahmudov Dogonimil ulusga marg'ub ol. T. "O'zbekiston" 1992, 3-bet

8 Yusupov Ye. Inson kamolotining ma'naviy asoslari T., "Universtitet. 1998, 139-b

noyob yaratqidir. "Ehtiroslar va ziddiyatlar bo'lmasa hayot ham, poeziya ham bo'lmaydi"¹, - degan edi B.G.Belinskiy. Zero, she'riyat insonning ko'ngil kechinmalarini kashf etadi va tub-tubidan o'tilib chiqayotgan tug'yonlarni, dardlarni, alamlarni, ruhiy holatlarni aks ettirib beruvchi ilohiy kuchdir. Abdulla Oripovning "Shoirning tug'ilishi" she'riy to'plamiga kiritilgan "Achchiqlanma", "Bo'ron", "Bevafoga", "Men yomon ko'raman" kabi she'rlari ehtirosli va ziddiyatli holatlarning mahsulidir. Jumladan, "Achchiqlanma" she'ri aynan mana shunday ruhiy holatlar natijasi o'laroq vujudga kelgan:

Sen gulmisan, deganda, nega
Ranging uchib, toshdi g'azabing?
Gul husniga qiyos etgulik,
Ofatijon, husning, bezaging.
Husn, bezak monandmi gulga,
Monand bo'lsa tengdir umri ham!
Achchiqlanma, jonim, menimcha,
Aqling gulga o'xshamas hech ham?²

Mazkur she'rda ham qarama-qarshi tuyg'ular tasviri orqali ikki insonning ruhiy kechinmalari ochib berilgan. Aslida, bu she'rda chuqur falsafiy ma'no yashiringan. Husn, ofatijonlik, gul umri qadar o'tkinchiligini, ammo aqling guldek nozik, o'tkinchi bo'lmasin, abadiy bo'lsin, chunki hayot manzillarida tashqi go'zallikdan ko'ra ichki dunyo go'zal bo'lishi haqidagi falsafiy, ibratomuz g'oya ilgari surilgan. "Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o'rnini bosolmaydi"³. "Bevafoga" she'rda esa bevafo yorga atalganday ko'rinsa-da, lekin vafosadoqat tarannum etilgan.

Rangsiz gulni gul demagaylar,
Ishqsiz qalbni qalb demas aslo.
Totli bo'lur gulda hid bo'lsa
Va sevgida bo'lolsa vafo.
Qo'ldan qo'lga o'tgan bir gulning
Rangi o'chmish, so'lib qolar bot.
Vafosizning hirs-u havasi
Va hech qachon bog'lamas qanot⁴.

Darhaqiqat, gul rangi, hidi bilan totli bo'lsa, inson ishq bilan, ishqda vafosi bilan e'zozlidir. Aks holda, gul ham, yor ham nozik qo'ldan qo'lga o'tsa, rangi o'chadi, tarovatini yo'qotadi. Tabiatdagi gul misolida inson ham har doim vafosadoqat bilan liboslanishi lozim, zero, inson bu kabi fazilatlar bilan ulug'lanadi, hurmat topadi. Aksincha, vafosiz, takabbur, qo'pol, zolim, maqtanchoq xislatli insonlar jamiyatda ham, adabiyotda ham qoralanadi. Jumladan, shoirning "Men yomon ko'raman" she'rda bu kabi toifa odamlar tanqid ostiga

olingan.

Men yomon ko'raman qo'pol odamlarni,
Qo'pollar yoqmaydi mening dilimga.
Maqtanchoq, olifta, takabbur... bari,
Mayda zolim bo'lib ko'rinar menga.
Ammo o'zi yetuk janob bir ziqna,
Takabbur - bu, demak, yashirin zolim.
Aqldan gap sotti kecha u darsda,
Javobsiz qoldirdi bugun salomim⁵.

"Shoir obrazlar bilan zamondoshi shuurini uyg'otishga urinadi. A.Oripov har bir she'rda o'ziga zamondosh insonning ruhiy dunyosiga chuqurroq kirib borishga, uning boy va murakkab hislari, fikrlarini anglab yetishga va shu orqali o'zining hayotga munosabatini ifodalashga intiladi"⁶. "She'r davr ovozi, shu bilan birga A.Oripov tili bilan aytganda "ehtiyoj farzandi" hamdir. Shoirning har bir asari ruhiy ehtiyojlardan dunyoga kelgan. Obrazlar ham shu ruhiy ehtiyojning ifoda vositasi, suratidir. A.Oripov fenomeni uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri zamondoshi bo'lgan inson haqidagi adoqsiz o'y-fikrlar, uning jumboqli xatti-harakatlari, zakovati, sir-sinoati ustidagi falsafiy mushohadalaridir. Zotan, shoir uning qiyofasida millat uchun jon fidoni ham, xusumat va hasadga bandi o'jiz-notavonni ham ko'radi"⁷. To'plamdagi "Hayot falsafasi" she'rda ham chuqur hayotiy falsafa, achchiq hayotiy haqiqat tasvirlangan:

Sohilda turardi. Suvdan xayolan
Dardkash yuragimga tilardim darmon.
Bir nopok kimsaning kirdikoridan
Alamlar ziyoda, dil edi xufton...
Kattaning oldida topsa, bahona,
Shaxsiy sadoqatni ayladi zohir.
Birda sovg'a berdi, birda - tuyona,
Nobakorning dilin ovladi oxir.
O'lkada intizom susaygan zamon
Omad kulib boqdi uning baxtiga:
Tamagir qo'l bilan qo'g'irchoqsimon
Qo'ndirib qo'yildi mansab taxtiga!

"Odatda, har qanday asar tasodifiy yaratilmaydi. U ijodkor ongida, ruhiyatida, hayotida iz qoldirgan nuqtalardan boshlab bino bo'la boshlaydi. Demak, bu she'rning yaratilishida shoirning shaxsiy kechinmalari, adabiyotda sobit oyoqqa turish mashaqqatlari, shu bilan birga, bashariyatning zada ko'ngliga, zaxa yarasiga davo izlash istagi turibdi"⁸. "Darhaqiqat, shoirning ilk she'rlariyoq u she'riyatni mafkura tashviqotchisi emas, inson ruhiyati tadqiqotchisi deb bilishdan darak berar edi. U hur fikrga, yuksak obrazlilikka, insonparvarlik va ezgulikka asoslangan sharq she'riyatining yangi bir shakl va mazmundagi

1 Belinskiy B.G. Tanlangan asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1955. - B. 77.

2 Abdulla Oripov "Shoirning tug'ilishi". - Toshkent: Adabiyot, 2021. - B.74.

3 Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - B. 98.

4 O'sha kitob. - B.72.

5 O'sha kitob. - B.106.

6 Sharofiddinov O. Talant - xalq mulki. - T: Yosh gvardiya. 1979. B.161.

7 Emazarova Gulnoza Hamroevna XX asr o'zbek poeziyasida milliy tafakkur va uning badiiy talqini. Filil. Fan. nom... dis. - Toshkent. 2001. B.117.

8 Davlatova Adiba Raxmatovna Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. Filil. Fan.dok... dis. - avtoref. - Toshkent. 2022.25 b.

ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan she'rlari bilan o'zbek milliy adabiyotining yirik siymolari qatoridan o'rin oldi"⁹. "A.Oripovning shunday she'rlari borki, ularda u o'zini yoqqan... shoir biladi: o'zini yoqmaguncha o'zini tushuntirilmaydi. Shoir o'zini yoqqan she'r yoki satr bilan shoir bo'ladi. Shoir o'zini yoqqan she'r ham, satr ham hech qachon o'lmaydi. Uning haroratidan umidsizlarga umid yetadi, chorasizlarga chora topiladi"¹⁰.

"Vijdon azobi" she'ri ham ana shunday toifadagi qalb bitiklari sirasiga kiradi:

Yo'lga boshla meni, vijdon azobi,
Sening o'lovingda yonaman bu dam.
Alamlidir o'tgan kunimning yodi,
Men gunoh qildim-ku, gunohkor odam.
Men gunoh qildim-ku, kesil, kazzob til,
Nechun sen erkimni qo'ldan olding, ayt?!
Bashang, oliftani ko'rolmas ko'zim,
Nega sen adashding, adashding u payt.

Lirik qahramon vijdon azobiga kazzob til sababli muhtalo bo'lgan va ichki tug'yon, vijdonning olovli azobi o'z holiga qo'ymaydi, dono xalqimiz aytganidek, insonning o'ziga bergan jazosi, vijdon azobi bu eng oliy

jazodir. Insonni insoniyatini belgilab beruvchi, hayvondan ajratib turuvchi xislatlar borki, bu vijdonidir. Agar insonning vijdoni azoblansa, o'z vijdoni oldida qilgan qilmishlari uchun javob berolsa, o'zini o'zi sud qilib, hukm o'qiyolsa, bu uning vijdoni uyg'oqligidan, tirikligidan dalolat beradi. Ijodkor bu obraz orqali millat dardini, ajdodlar falsafasini, ruh va tafakkur uyg'unligidan dunyoga kelgan o'zbek millatiga xos milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlarini ulug'lashni, illatlarni qoralashni, xalq qalbidan joy oladigan qilib tasvirlashni ijodining asosiy mezoni deb bilgan.

Xulosa o'rnida, E.Mejelaytisning "She'riyat o'z asri hodisalari, o'z davri g'oyalari bilan to'yingandagina boy va ahamiyatlidir"¹¹, degan fikrlari ayni bugunning she'riyati, Abdulla Oripov she'riyati haqida aytilgandek, go'yo, qolaversa, Abdulla Oripov ijodida ijtimoiy-ma'naviy hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarga badiiy munosabat bildirish asosiy tamoyillaridan biri ekanligini ham kuzatish mumkin.

TARIXIY VA ZAMONAVIY AYOLLAR TASVIRIDA SHOIR ESTETIK IDEALI (Cho'lpon va Hamza she'riyati misolida)

Nodira Xolikova - doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Maqolada jadid ma'rifatparvar shoirlari Cho'lpon va Hamza she'riyatida tasvirlangan xotin-qizlar obraziga murojaat etish orqali ijodkorlarning ma'naviy-ruhiy olami, estetik ideali, poetik mahorati tahlilga tortilgan. Tarixiy va zamondosh ayollar obrazining o'ziga xos yuksak fazilatlarini faktik misollar bilan muqoyasa qilingan.

Аннотация: В статье на примере стихов, посвященных женским образам, джадидских поэтов-просветителей, таких как Чулпан и Хамза, анализируется духовный мир, эстетический идеал, поэтическое мастерство поэтов. Сопоставляются своеобразные высокие качества исторических и современных женщин с примерами.

Abstract: The spiritual world, aesthetic ideal, poetic skill of poets are analyzed on the example of poems dedicated to female images by Jadid poets-enlighteners like Chulpan and Hamza. The peculiar high qualities of historical and modern women are compared with actual examples.

Kalit so'zlar: erk, ma'rifat, millat, Kleopatra, Semiramida, kaplar, Tamaraxonim, "hujum", paranji.

Ключевые слова: свобода, просвещение, натсия, Клеопатра, Семирамида, голуб, Тамаракхоним, "хужум", паранджи.

Keywords: freedom, enlightenment, nation, Cleopatra, Semiramis, dove, Tamarachonym, "hujum", burqas.

XX asr jadidlar lirikasi mavzu, ko'lam bo'lib, uning aksariyat o'rinlarida Turkiston va obrazlar tizimiga ko'ra keng qamrovli manzaralari aks etgan. Mazkur davrlarga

9 Emazarova Gulnoza Hamroevna XX asr o'zbek poeziyasida milliy tafakkur va uning badiiy talqini. Filil. Fan. nom... dis. - Toshkent. 2001. B.109.

10 G'ofurov I. Sham va bo'ron // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 1991. - 29-mart.

11 Eduardas Mejelaytis. She'r - inson ruhi. // O'ZAS, 1981, 12-son.

qadar she'riyatda ko'proq insonning ruhiy olamidagi evrilishlar, kechinmalar, taassurotlar qalamga olingan bo'lsa, endi ijodkorlar real voqelik haqida yozishga yuz tutdilar.

Binobarin, tarixiy vaziyat tamomila yangi o'zanga o'tib, maqsad ham, inson ham, adabiyot ham "ijtimoiylashdi". Shaxs shoir uchun bu tabiiy ehtiyoj edi.

Zero, davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she'riyat "romon va tiyotru" kitoblari bilan, to'g'rirog'i, lirika epos va drama bilan raqobatga kirishishi, ularning imkoni doirasidagi vazifalarni qisman bo'lsa ham zimmasiga olishni taqozo etgani ravshanlashadi.

Bu hodisani xotin-qizlar bilan aloqador lirik matnlar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. O'tgan asrning dastlabki choragida Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulhamid Cho'lponlar bu mavzuga nisbatan ko'proq yondashishgan va masalaning jiddiyatini tushungan holda millatga yuzlanishgan. Ayol bosh obraz darajasiga ko'tarilgan she'rlarda ular tarixiy shaxs-ayollarga, badiiy asarlardagi qahramon-ayollarga, shuningdek, zamondosh ayollarga murojaat etish an'anasi Cho'lpon va Hamza ijodida takror keladi. Chunonchi, Cho'lpon "Kleopatra uyqusi", "Ketganingda (Kleopatraga)" she'rlarida Kleopatra timsoliga bir necha marta murojaat qilgan:

Ortiq sen undagi bog'da,
Ortiq men yakkami qoldim?
Faryod yo'q... barcha jahon jim,
Yer yutsa yaxshi shu choqda!..
Ketdingmi sen meni tashlab?
Qoldimmi qayg'umni boshlab?¹

Aslida ham, Cho'lpon ijodiy merosi o'zak tomiri ERK tushunchasi bilan mustahkam bog'lanib ketganini uning she'rlari tahlilida asoslash qiyin emas. U Kleopatrani vasf etish yoki unga hammani ergashtirish emas, undan ilhom olib xalqda hurriyat, istiqloq tuyg'usini uyg'otishni ko'zlarkan, hukmdor ayol siymosida erk va ozodlikning g'alabasini ko'rgan. Shu o'rinda bir og'iz so'z Misr malikasi Kleopatra haqida. Nega Cho'lpon uni tez-tez eslagan.

Kleopatra shu ismdagi 16 nafar malika ichida yettinchisi bo'lib, 38 yil yashagan va 21 yil taxtni boshqargan. U buyuk Yuliy Sezarning muhabbatini qozonib, undan bir og'il farzand ko'rgan. 18 yoshida Kleopatra 9 yoshli ukasi Ptolemeyga turmushga chiqadi. O'sha paytlardagi Misr qonunlariga ko'ra, ayolning o'zi hukmdor bo'la olmasdi, u faqat hukmdorning xotini bo'lishi mumkin edi. Bu nikoh unga hokimiyat huquqini bergandi, zero, uka faqat rasmiyat uchun kerak edi. Uning eri va ayni paytda ukasi Ptolemey 13 yoshida Kleopatraga qarshi isyon ko'taradi. U Sezar qo'shinlari yordamida bostiriladi. Kleopatra

haqiqiy ko'ngil bergani bu Rim qo'mondoni Mark Antoniy edi. Malika undan uch nafar farzand ko'radi. Tarixchilarning qayd etishicha, Kleopatra yetti til bilgan. Sezar vafotidan keyin Rimda imperator Oktavian hokimiyat tepasiga kelganida, Rim qo'shinlari yana Misrga yurish qilib, uning qo'shinlarini tor-mor etadi. Oktavian uni o'z ma'shugasiga aylantirishni rejalashtirganini bilgan Kleopatra o'z joniga qasd qiladi².

Tarixda turkiy millatga mansub ayollarning erishgan yutuqlari, mavgelari va qozongan muvaffaqiyatlari ko'p bo'lgan. Ahamoniylar davlatining mashhur podshohi Kir II ni mag'lub etgan birinchi ayol hukmdor To'maris turkiy massaget qabilasidan edi.

Cho'lpon tarixiy shaxslar barobarida afsonaviy obrazlarga ham murojaat etib turgan. Jumladan, afsonaviy qush-ayol obrazi Semiramidaga qarata yozilgan she'r diqqatga loyiq. Qadimgi Bobil malikasi Semiramidaning ismi dunyoning yetti mo'jizalaridan biri – Osma bog'lar nomi ham bo'lganidan abadiylikka muhrlandi. Uning haqiqatan tarixda yashab-yashamagani ma'lum emas. Tarixchi sotsilyalik Diodor rivoyat va ma'lumotlarni tartibga solgan va hozirgacha biz bilgan malika Semiramida haqidagi afsonalarning muallifidir. Aytilishicha, Semiramida dengiz ma'budasi Derketo va oddiy inson qizi edi. Onasi bolani o'rmonda qoldirgach, u yerda qizni kaptarlar boqadi. Qirolning cho'poni Sima qizaloqni topib olib, parvarishlab o'stiradi. Qizchaga "kaptar" ma'nosini anglatuvchi Semiramida ismini beradi. Qiz ulg'aygach, behad chiroyliligi uchun unga Ossuriya shohi Ninning generali Onney uylandi. Onney qizni o'zi bilan jangga olib boradi va u yerda ossuriyaliklarning g'alabasiga sabab bo'lgan qal'a hujumini shaxsan qizning o'zi boshqaradi. Podshoh Nin go'zal jangchini ko'rib, Onneydan xotinini unga berishini talab qilib, evaziga generalga o'zining qizini taklif qiladi. O'z xotinini sevgan general bu taklifni rad etadi. Shunda hukmdor qo'mondonga ko'zlarini o'yib olish bilan tahdid qiladi. Sevimli ayolidan voz kecha olmagan general o'zini osadi. Podshoh bundan mamnun bo'lib, yosh bevani xotinlikka oladi. Yangi malika harbiy yurishlarni davom ettiradi. Bir muddatdan so'ng Semiramida Niniy ismli og'il farzand ko'radi. Yaqin Sharq deyarli butunlay zabt etilganda, qal'alardan biriga hujum paytida podshoh yaranaladi va vafot etadi. Jang qizg'in davom etayotgan paytda Ossuriya askarlarining jangovorlik kayfiyatini saqlab qolish uchun Semiramida kichik og'li nomidan qo'shinlarga buyruq yubora boshlaydi. G'alabadan so'ng Semiramida o'zini rasman "muvaqqat podshoh", ya'ni valiahd voyaga yetgunga qadar mamlakatni idora

qilish huquqiga ega inson, deb e'lon qiladi va marhum erining ishlarini davom ettiradi.

Uzoq davom etgan hukmronlik davrida (Diodorning so'zlariga ko'ra, u 42 yil davom etgan) Semiramida Liviya va Efiopiyani o'z davlatiga qo'shib oladi va Hindistonni zabt etish uchun yo'l oladi. Biroq u yerda ossuriyaliklar kutilmagan muammoga duch kelishadi: Hind armiyasining tarkibida jangovor fillar bor edi. Semiramida hindlarni qo'rqitishga qaror qiladi. U mingta qora buqani so'yishni va ularning terisini yog'och taxtalarga cho'zishni buyuradi. Natijada, uzoqdan qaraganda ulkan fillarga o'xshash hayvonlar paydo bo'ladi. G'ildiraklarga o'rnatilgan bu yasama hayvonlarni tuyalar harakatlantirib boradi. Birinchi hujum muvaffaqiyatli o'tadi, keyin esa hindlar va ularning haqiqiy fillari hujumchilarni mag'lub etishadi va hatto malikani yarador qilib, ossuriyaliklarni Hindistondan qochishga majbur qilishadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan keyin Semiramida shaharsozlik ishlari bilan shug'ullanishga qaror qiladi. U, avvalo, Bobilning ikki tarafini bir-biriga bog'lash maqsadida Furot ostidan yer osti yo'li qazishni mo'ljallaydi. Uning ikkinchi loyihasi dunyo mo'jizalaridan biri sifatida mashhur bo'lgan Osma bog'lar edi. Diodorning tasvirlashicha, bu bog' tog' o'simliklari o'sadigan ko'p qavatli ayvonlardan iborat edi. Ular Furotdan maxsus ko'tarilgan suv bilan sug'orilgan. Inshootning balandligi 60 metr bo'lgan. Ayvonlarning har birida tuproq qatlami shunday qalinlikka ega ediki, unda daraxtlar chuqur ildiz otish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ba'zi zamonaviy olimlar bu bog'ning mavjud bo'lganiga shubha qilishadi, chunki bu haqda xabar beruvchi hamma manbalar so'nggi antik davrga borib taqaladi, bog'larning taxmin qilingan joyidagi qazishmalar esa hech qanday natija ko'rsatmagan³.

Cho'lpon bu afsona qahramoni Semiramidaga ixlos qo'yadi. U orqali o'lkadagi onalarni uyg'otishni xohlaydi. Ayol ekaniga qaramasdan, erkaklardek jasorat ko'rsatib, mo'jizalar yaratgan Semiramida kabi qahramonlarga millat muhtoj ekaniga ishora qiladi:

Sen erkaklar kiyimida zo'r qal'alarda,
Otlaringning changlarini Sind bo'yiga sochganda,
Yo'llaringda qon dengizi ko'pirganda,
Toshganda,
Sening kabi istagiga ega bo'lgan onalar Nega bugun turmushdagi har tilakdan tonalar?...
Ey dengizning tublariga qochib kirgan kaptar qiz,

Kel, mundog'i onalarni uyg'otaylik ikkimiz!...⁴

Hatto dastlabki savodini chiqarishga ham imkoni bo'lmagan o'zbek ayolidan Cho'lponning umidi, ishonchi katta bo'lganini keltirilgan satrlar ochiq ko'rsatmoqda. Shoir o'zbek ayoli afsonaviy qiz Semiramidaga xos kuch, viqor va yaratuvchanlik qudratiga egaligini eslatishni istagan.

Darhaqiqat, ana shunday kuch va matonatga, salohiyat va iqtidorga ega qizlar, onalar, xonimlar bor edi va ular asta-asta o'zlarini ko'rsata boshlagandilar. O'sha nomlari tarixga muhrlangan o'zbek ayollari Cho'lpon va Hamzaning she'rlarida bor.

Hamzaning "Oymisan yo qamara..." she'ri benazir o'zbek san'atkori Tamaraxonim haqida. Ilk bor "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1971-yil 1-sonida e'lon qilingan bu she'rning yozilish tarixi haqida Tamaraxonim bunday yozadi: "Farg'ona shahridagi binolardan birini bizga repetitsiya o'tkazish uchun berilgan edi. Tez kunda konsert programmasi tayyor bo'ldi va, avvalo, Farg'ona, so'ng Marg'ilon, keyin Qo'qonga borib, tomosha ko'rsatdik. Biz yo'lda ketar ekanmiz, Hamza poyezdda unda-munda menga ko'z tashlab, miyig'ida kulib, uzun qog'ozga she'r yozar edi. Ertasi konsert vaqtida Hamza mening o'ynimdan keyin sahnaga chiqib, boshimga tillaqosh taqdi-da, bu she'rni xalqqa o'qidi..." ("O'zbek tili va adabiyoti", 1971, 1-son, 77-bet)⁵.

Oymisan yo qamara,
Beling nozik kamara,
Noming ekan Tamara,
Jahonga kulib qara.
Shon-shavkat keltirding san
Elimizdan Parijga,
Yasha, endi ko'rma g'am,
Yasha, singlim Tamara⁶.

Ayol kishining sahnaga chiqishi Turkiston hayotida aql bovar qilmaydigan ish edi. Lekin olti yoshli qizalog'ining go'zal harakatlarini ko'rib, katta iste'dod ulg'ayotganini ilg'agan Tamaraning onasi "Mana, ko'rasiz, u hali Parijda raqsga tushadi!", – deya g'ururlanib aytgan, biroq bu gapni eshitganlar onaning ustidan kulishgan. Vaqtlar o'tib Parijdagi tantanali chiqish yosh raqqosa Tamaraning kelajakdagi zafarlariga debocha bo'ldi. Uning san'atga cheksiz ishtiyoqi va havasi kun sayin ortib borar edi. Ayni damda o'ziga va hatto ota-onasiga yomon ko'z bilan qarovchi kimsalar ham ko'payib borar edi. Otaga, qizini tiyib olmasa, ta'zirini berishlarini aytib, tahdid qilishgan (afsuski, shunday bo'lgan ham, Tamaraning otasini o'ldirib ketishgan). Ammo bir voqea Tamaraning taqdirini o'zgartirib yuborgan. Xalq orasida ma'naviyatni kuchaytirish

1 Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърлий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. - Б. 117.

2 <https://graziomagazine.ru/lifestyle/taunyu/kleopatry-interesnye-fakty-o-zhenshchine-faraone-stavshey-zhenoy-svoih-bratev/> Тайны о Клеопатре: Интересные факты о женщине-фараоне, ставшей женой своих братьев.

3 Бу ҳақда қаранг. <https://diletant.media/articles/45335141/Семирамида-царица-висячих-садов-и-фальшивых-слонов>.

4 Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърлий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. - Б. 145.

5 Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. - Т.: Фан, 1998. - Б. 540-541.

6 Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. - Т.: Фан, 1998. - Б. 304.

ishlari yuzasidan mas'ul etilgan Hamza boshchiligidagi "Sharq" tashviqot poyezdi ularning shaharchasiga kelib to'xtaydi. Kimdir Hamzaga juda iste'dodli yosh raqqosaning xabarini beradi. Shu asnoda yoshgina Tamara 1918-yil ilk marta sahnaga chiqib, atigi 26 yoshida ayol san'atkorlar ichida birinchi bo'lib, "O'zbekiston xalq artisti" unvonini qozonadi.

Tamaraxonimgabag'ishlangan bushe'rdasida xalqimizning barcha iqtidorli, qobiliyatli, san'atchi xotin-qizlari madh etilgan. Ularning iste'dodini bo'g'ayotgan, chimmatlarga burkab dunyoni ko'rsatmayotgan ayrim mutaassiblar Hamzaning o'tkir tig'li so'zlariga duchor bo'lishgandi. She'r ommaga, "qora el"ga qarata aytilgan bo'lib, unda xalqning muayyan vakillariga murojaat, arz, shikoyat va nido ham bor edi. Buni ustoz Ulug'bek Hamdam juda yaxshi izohlaydi: "Hamza aytmoqchi "qora el"ning tushunishi oson bo'lishi uchun jadid shoirilari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o'ringa qo'yadilar – narsalar o'z nomi bilan ataladi. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirilarining aksariyat she'rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq – va'zdir. Shu sababli ham jadid she'riyatida obrazli ifodadan ko'ra ritorik priyomlar muhim ahamiyat kasb etadi"⁷.

"1927-yil bahorida Toshkentda partiya kengashi juda tezlik bilan Turkiston ayollarining paranzisini yechish maqsadida o'z oldiga 6 oylik muddat qo'ydi. Ya'ni oktabr revolyutsiyasining 10 yilligi sharafiga Turkiston ayollarini paranzidan qutqarish harakati boshlandi, unga "Hujum" deb nom berildi. "Hujum" harakati mohiyatan eski, mog'or bosgan illatlarga qarshi hujum va ularni bartaraf etishni nazarda tutgan bo'lsa ham, Turkiston va Ozarbayjonda u, avvalo, ayollarning paranzisi tashlashi va ozod bo'lib, savod chiqarishini maqsad qilgan"⁸.

Cho'lpon va Hamzaning shu yillarda yozganlarida siyosiy mafkura qolipiga moslashish kayfiyati seziladi. Hatto Sho'ro mafkurasiga xizmat qiluvchi shior va chaqiriqlar yo'q emas. Shunday bo'lsa-da, ularning asl g'oyasi – erk va ma'rifatga undash dolzarbligicha turgan. Jumladan, Hamzaning o'sha yili yozilgan "O'zbek xotin-qizlariga" she'ri "Yangi Farq'ona" gazetasining 22-fevral sonida "Chig'iriq" bo'limida "Tovontesha" imzosi bilan bosilib chiqqan:

Keldi ochilur chog'ing o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon

parishon qil.

Maktab, anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi

Ilm-u fan tig'i birlan jahl bag'rini qon qil⁹.

Aynan paranzisi tashlash kompaniyasi boshlangan paytda yozilgan mazkur she'r ko'plab mahalliy mutaassib dindorlarda noto'g'ri taassurot uyg'otgan. Nafaqat erkaklar, hatto ayrim ayollar orasida ham paranzisi tashlashga tish tirnog'i bilan qarshi kurashganlari yo'q emas edi¹⁰. Biroq Hamza kabi jadid ma'rifatparvarlari ko'zlagan maqsad faqatgina "shakl" bilan emas, aynan "mazmun" bilan bog'liq edi.

Yuqoridagi she'rlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Hamza va Cho'lponning ayollar obraziga bag'ishlangan she'rlarida erk va ozodlik g'oyalari targ'ib etildi. Zero, har bir shoirning estetik ideali – jamiyat ravnaqiga, insonlar tafakkurini o'stirishga va zamon talabiga javob beradigan barkamol avlodni yetishtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga she'riyatdagi ijtimoiy pafos, zamon ruhi va kayfiyati o'ziga xos munosabat va tasvirni yaratgan.

Millat ziyolilari xotin-qizlarga ko'rsatilgan jabr-zulmga qarshi chiqib, ularning to'laqonli mustaqil shaxs sifatida tan olishni targ'ib qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ayollar ma'rifati haqida shunday degan edi: "Ayol eng hurmatga sazovor insondir. Unga erkinlik berilishi, ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratilishi, moddiy va ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lishi lozim. Shariat ayolning ma'lumot olishini ta'qiqlamaydi, aksincha buyuradi"¹¹. Dastlab jadidlar tomonidan targ'ib qilingan xotin-qizlar ma'rifati, erki va hurriyati g'oyalari keyinchalik sho'ro mafkurasiga qo'l kelgan. Shu bois, ilm-ma'rifat g'oyasi targ'ibi bilan "Hujum" kompaniyasi harakatlari go'yo uyg'unlashib ketdi.

Jadid she'riyatidagi xotin-qizlar obrazi bilan bog'liq asarlar, asosan, ijtimoiy tasvir asosiga qurilgan. Real voqea-hodisalar tasviri ijodkorning g'oyaviy-emotsional, subyektiv munosabatiga asoslangan bo'lib, tarixiy va zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning estetik ideallari haqidagi tasavvuri namoyon bo'lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

⁷ Hamza va XX asr Uzbek adabiyoti: maqolalar tujplami. Nashrga tayyorlovchi Z. Kobilova. – T.: Farqona, 2019. – B. 99-100.

⁸ <https://hudud24.uz/paranzhi-sirlari-turkiston-ayollarining-khurriyatga-erishish-julidagi-kurashlari-khakida/>

⁹ Hamza Hakimzoda Niёзий. Tula asarlar tujplami. Ikkinchi tom. She'rlar. Pedagogik risolalar. Nasriy asarlar. – T.: Fan, 1998. – B. 196.

¹⁰ Bu haqda qarang. <https://hudud24.uz/paranzhi-sirlari-turkiston-ayollarining-khurriyatga-erishish-julidagi-kurashlari-khakida/>

¹¹ Жадидлар ҳаракати/<http://jadid.my1.ru/publ/1-1-0-10>



Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131
Jurnalning Index raqami: 3535